


NOBUYUKI KATO
TOSHIYA UEKI

KOICHI MORIKAWA
AKIRA MAYAMA

HIRONOBU SAKAI
MIYAKO TATEMATSU

An aerial photograph of a small, crowded boat on the open ocean. The boat is filled with people, many of whom are wearing life jackets. An American flag is visible at the stern. The water is a deep blue, and the boat's wake is visible behind it.

VIZUAL XALQARO HUQUQ

“Visual” textbook of International law



VIZUAL

XALQARO

HUQUQ

Tarjimonlar jamoasi:

Alisher Umirdinov,
Nagoya Iqtisodiyot Universiteti
professori

Axadjon Xakimov,
Toshkent davlat yuridik universiteti
«Xalqaro huquq va inson huquqlari»
kafedrasida katta o'qituvchisi

Husain Radjapov,
Toshkent davlat yuridik universiteti
«Investitsiya va Biznes huquqi»
kafedrasida mudiri.

«Visual» textbook of International law

**Toshkent
«Yuridik
adabiyotlar
publish»
2021**

UO'K: 341
KBK: 67.412
U 48

Vizual xalqaro huquq.

Darslik. Mas'ul muharrir y.f.d., dotsent.
D.Sh. Umarxanova // A.I. Umirdinov,
A.M. Xakimov, H.M. Radjapov tarjimasini.
– Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish,
2021-y. – 328 bet.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK
UNIVERSITETI

Darslik O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining
2020-yil 28-dekabrda 676-sonli
buyrug'iga asosan 5240100 –
Yurisprudensiya yo'nalishi talabalari
(o'quvchilari) uchun tavsiya etilgan.

Mas'ul muharrir:

D.Sh. Umarxanova,

Toshkent davlat yuridik universiteti
«Xalqaro huquq qiyosiy huquqshunoslik
fakulteti» dekani,
yuridik fanlar doktori, dotsent

Taqrizchilar:

B.I. Ismailov,

O'zbekiston Respublikasi Bosh
prokuratura Akademiyasi
«Korrupsiyaga qarshi kurashish
ilmiy-ta'lim markazi» boshlig'i,
yuridik fanlar doktori

N.E. Gafurova,

Toshkent davlat yuridik universiteti
«Xalqaro huquq va inson huquqlari»
kafedrasini mudiri,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

ISBN 978-9943-7579-5-0



9 789943 757950

© A.I. Umirdinov,
A.M. Xakimov,
H.M. Radjapov, 2021-y.

© Yuridik adabiyotlar publish, 2021-y.





*Yaponiyaning Nagoya universitetida nutq so'zlayotgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. 2019-yil dekabr, Yaponiya.
(Manba: Prezident matbuot xizmati)*

Yaponiyaning Nagoya universitetiga ko'rsatgan moliyaviy yordami uchun minnatdorchilik

Kitobdagi barcha suratlar, xaritalar va boshqa visual materiallar mualliflik huquqini hurmat qilgan holda ularning mualliflaridan sotib olingan. Mazkur suratlar, xaritalar va boshqa visual materiallarni sotib olish yo'lida ko'rsatgan moliyaviy yordami uchun Nagoya universitetining «Osiyolik huquqshunoslarni tayyorlashga ko'mak berish» maxsus fondi va Universitetning «Osiyo yo'ldosh kampuslari instituti»ga (ASCI) chuqur minnatdorchilik izhor etamiz. Shuningdek, ushbu fondlardan mablag'larni olish jarayonida tarjimonlarga yaqindan ko'mak berib kelgan Nagoya Universiteti Oliy huquqshunoslik fakulteti professori Dai Yokomizo janoblariga ham alohida tashakkur bildiramiz.

Contents

Mundarija

Introduction	Xalqaro huquqni o'rganishning ahamiyati	1
1.	Yoshlarning xalqaro hamjamiyat bilan bog'liqligi.....	1
2.	Xalqaro huquqning dunyo hamjamiyatida bajarishi lozim bo'lgan vazifasi	2
3.	«Xalqaro huquq» suveren davlatlar nuqtayi nazarida xalqaro hamjamiyatdagi huquq sifatida	6
4.	Jismoniy shaxslar ham xalqaro hamjamiyat a'zosi bo'lishlari mumkin.....	11
5.	Xalqaro huquq talab qilayotgan xalqaro hamjamiyatdagi «tinchlik»dan maqsad nima?.....	15
Chapter 1	Xalqaro hamjamiyat qoidalari – Xalqaro huquqning vujudga kelishi	19
1.	Jamiyat bor joyda huquq ham mavjud	19
2.	Yangi davr xalqaro hamjamiyatining vujudga kelishi va yangi davr xalqaro huquqi.....	20
3.	Yangi davr xalqaro huquqining asosini yaratgan olimlar	21
	(1) <i>Tabiiy huquq nazariyasi</i>	21
	(2) <i>Pozitiv huquq nazariyasi</i>	23
4.	Xalqaro huquq va Yevropa tarkibiga kirmaydigan mamlakatlar	24
	(1) <i>Yevropaning kengayishi</i>	24
	(2) <i>Yevropa tarkibida bo'lmagan davlatlar bilan munosabatlarda shakllantirilgan xalqaro huquq normalari</i>	27
	(3) <i>Yevropa tarkibiga kirmaydigan mamlakatlarning Yevropa xalqaro huquqiga kirib kelishi</i>	29
	(4) <i>Yaponiyaning Yevropa xalqaro huquqiga kirib kelishi</i>	29
5.	Yevropa xalqaro huquqidan Umumiy xalqaro huquq tomon.....	31
6.	Zamonaviy xalqaro huquqning o'ziga xos jihatlari.....	32

Chapter 2 Xalqaro hamjamiyatda amal qilinishi lozim bo'lgan qoidalar 35

1. Xalqaro huquqning yuridik majburlov kuchi nima? 35
 - (1) Shartnomalar «oddiy bir qog'oz»dan boshqa narsa emasmi? 35
 - (2) Xalqaro huquqning yuridik majburlov kuchi nimada? 38
2. Xalqaro huquq normalari qanday ishlab chiqiladi va ular qanday tuzilishga ega? 39
 - (1) Xalqaro huquq normalari qanday ishlab chiqiladi? 39
 - (2) Xalqaro huquq qanday shaklda ko'rinadi? 40
3. Xalqaro huquqning yuridik kuchi 41
 - (1) Xalqaro huquqning o'zaro ta'sir kuchi 41
 - (2) Xalqaro huquqning davlatning ichki jamiyatidagi yuridik kuchi 43
4. Agar xalqaro huquqqa zid xatti-harakatlar sodir etilsa nima bo'ladi? Xalqaro huquqda javobgarlik 45
 - (1) Xalqaro huquqda davlatlarning javobgarligi 45
 - (2) Davlatlarning javobgarlikka tortilishi oqibatlari va ularni javobgarlikdan ozod qilish usullari 45

Chapter 3 Davlat o'zi nima? Davlatlar qay tariqa tashkil topadi va tugatiladi? 47

1. «Davlat» o'zi nima? 47
 - (1) «Davlat» xalqaro hamjamiyatning subyekti sifatida va uning vujudga kelishi bilan bog'liq masalalar 47
 - (2) «Davlat» deb e'tirof etilish uchun bo'lgan talab va qoidalar 48
2. Davlatning shakllanishi va tugashi – «davlat»ning vujudga kelishi, rivojlanishi, o'zgarishi va tugatilishi bilan bog'liq holatlar 49
 - (1) Davlat qanday shakllanadi? Davlatning vujudga kelishi va tan olinishi 49
 - (2) Davlatning rivojlanishi, o'zgarishi, parchalanishi, tugatilishi 51
3. Dunyoda turli xil «davlatlar» bor – davlatlarning o'xshash va farqli tomonlari 52
 - (1) Davlatlarning bir-biridan farqi 52
 - (2) Davlatlarning huquq va majburiyatlari – suverenitetning ma'nosi 53
 - (3) Davlat yurisdiksiyasi va uning qo'llanilishi 55
 - (4) Davlat immuniteti (suveren immunitet) 56

Chapter 4 Davlatlararo hamkorlik – Xalqaro shartnomalar huquqi, diplomatik va konsullik aloqalari huquqi 58

1. Xalqaro shartnomalar tuzish 58
 - (1) Xalqaro shartnomalar va Xalqaro shartnomalar huquqi 58
 - (2) Xalqaro shartnomalarni tuzish va uning tartibi 60
 - (3) Xalqaro shartnomalarning kuchga kirishi va ro'yxatga olinishi 64

2.	Xalqaro shartnomalardagi qo'shimcha shart.....	65
	(1) <i>Qo'shimcha shartning mohiyati</i>	65
	(2) <i>Xalqaro shartnomaning maqsadi va muvofqlik mezonlari</i>	65
3.	Xalqaro shartnomalarni sharhlash	67
	(1) <i>Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasining shartnomalarni talqin qilishga oid qoidalari</i>	67
	(2) <i>Bir necha tillarda tuzilgan xalqaro shartnomalar va ularni sharhlash</i>	68
4.	Xalqaro shartnomaning yuridik kuchi	69
	(1) <i>Xalqaro shartnomalarning haqiqiy emas deb topilishi</i>	69
	(2) <i>Xalqaro shartnomalarning tugatilishi</i>	70
5.	Diplomatik va konsullik aloqalari.....	71
	(1) <i>Ularning tarixi va huquqiy manbalari</i>	71
	(2) <i>Diplomatik vakolatxona, konsulning vazifalari va tuzilishi</i>	73
6.	Diplomatik immunitet va konsullik immuniteti.....	74
	(1) <i>Diplomatik immunitetning asoslari va maqsadi</i>	74
	(2) <i>Diplomatik vakolatxonalarga taqdim etiladigan immunitetlar</i>	75
	(3) <i>Diplomatning o'ziga taqdim etiladigan immunitet</i>	77
	(4) <i>Konsullik immuniteti va imtiyozlari</i>	78
	(5) <i>Persona non grata (Nomaqbul shaxs)</i>	79
7.	Boshqa davlat organlarining immuniteti.....	80
	(1) <i>Davlat rahbari, hukumat rahbari, tashqi ishlar vaziri</i>	80
	(2) <i>Doimiy chet el harbiy qo'shini</i>	81

Chapter 5 Hududsiz davlat yo'q – quruqlik, osmon va fazo ————— 82

1.	Davlat hududi va hududiy suverenitet	82
	(1) <i>Hudud tuzilishi va hududiy suverenitet</i>	82
	(2) <i>Ichki (milliy) suvlar va hududiy dengiz</i>	82
	(3) <i>Havo hududi va xalqaro parvozlar</i>	83
2.	Hududga nisbatan egalik (title to territory) va hududiy nizolar	85
	(1) <i>Xalqaro huquqda hududni qo'lga kiritishning asoslari (hududiy o'zgarishlar)</i>	85
	(2) <i>Hududiy nizolarni hal etishning huquqiy yechimlari</i>	89
	(3) <i>Yaponiyaning hududiy muammolari</i>	91
3.	Alohida hududlar	95
	(1) <i>Xalqaro huquq tartibga soladigan hudud va o'ziga xos hududlar</i>	95
	(2) <i>Xalqaro daryolar va xalqaro kanallar</i>	96
	(3) <i>Antarktika va Arktika</i>	96
4.	Fazoviy hudud va samoviy jismlar.....	99
	(1) <i>Fazo shartnomasi va fazoga oid 4 bitim</i>	99
	(2) <i>Fazoviy faoliyatlarning rivojlanishi va yangi muammolar</i>	100

Chapter 6 Dengiz ne'matlarini bo'lishish – dengiz huquqi ————— 103

1. Dengiz huquqi tarixi va dengizlarning bo'linishi.....103
 - (1) *Dengiz huquqining tarixiy rivojlanishi*..... 103
 - (2) *Dengiz hududining bo'linishi*..... 107
2. Ichki suvlar va hududiy dengizlar, hamda tutash zonalar.....108
 - (1) *Ichki suvlar va xorijiy kemalar*..... 108
 - (2) *Hududiy dengiz va tinch suzib o'tish huquqi*..... 109
 - (3) *Tutash zonlardagi Dengizbo'yi davlatlarining vakolatlari*..... 112
3. Xalqaro bo'g'ozlar va arxipelag suvlari.....113
 - (1) *Xalqaro bo'g'ozlardan suzib o'tish tizimi*..... 113
 - (2) *Arxipelag davlatlar va arxipelag suvlar*..... 115
4. Ochiq dengizlar tartiboti va ochiq dengizlarda baliq ovlash116
 - (1) *Ochiq dengizlardan erkin foydalanish tamoyili va bayroq davlat qoidasi*..... 116
 - (2) *Dengizbo'yi davlatlarining ta'qib qilish huquqi*..... 117
 - (3) *Ochiq dengizlarda baliq ovlash va boshqa qoidalar*..... 118
5. Mutlaq iqtisodiy zonalar va kontinental shelf 120
 - (1) *Mutlaq iqtisodiy zonalar*..... 120
 - (2) *Kontinental shelf*..... 123
6. Dengiz maydonining chegarasini belgilash124
 - (1) *Jeneva dengiz huquqi 4 konvensiya va Shimoliy dengiz kontinental shelf ishi – ekvidistant, neytral chiziq shakli va tenglik tamoyili*..... 124
 - (2) *Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiya va pretsedentdagi tamoyillar – «tenglikka amal qilingan yechim» va uch bosqichli shakl*..... 125
7. Ummonning chuqurlik tubi va uning resurslari 127
 - (1) *Ummonning chuqurlik tubining huquqiy o'rni – insoniyatning umumiy boyligi* 127
 - (2) *Ummonning chuqurlik tubi resurslarini rivojlantirish tizimi* 129

Chapter 7 Davlatlar birlashib guruhlar tuzadilar: xalqaro tashkilotlar ————— 131

1. Xalqaro tashkilotlar nima uchun tashkil etiladi?.....131
 - (1) *Xalqaro hamjamiyatda nodavlat subyektlar*..... 131
 - (2) *Xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lishi – Xalqaro tashkilotlar nega vujudga keldi va rivojlandi?*..... 132
 - (3) *Millatlar Ligasiga asos solinishi va ushbu tashkilot chegaralari*..... 132
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Birlashgan Millatlar Tashkiloti oilasi133
 - (1) *Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'xis etilishi va uning o'rni*..... 133
 - (2) *Yaponiyaning BMTga qo'shayotgan hissasi*..... 134
3. Ixtisoslashgan sohalardagi xalqaro tashkilotlar135
4. Mintaqaviy xalqaro tashkilotlar137

1. Xalqaro hamjamiyatda nega inson huquqlari himoya qilinadi?141
2. Fuqarolik masalasi142
 - (1) Fuqarolikni olish va yo'qotish 142
 - (2) Fuqarolik kolliziyasi (to'qnashuvi)..... 144
 - (3) Xorijiy fuqaroning huquqiy maqomi..... 146
 - (4) Diplomatik himoya..... 147
3. Qochoqlar himoyasi..... 148
 - (1) Qochoqlarni himoyalash bo'yicha davlatlar vakolati 148
 - (2) Qochoqlar himoyasi va «qochoqlar» atamasi ta'rifi..... 149
 - (3) Qochoq sifatida tan olinish va har bir davlat tomonidan 150
 - boshpana berilishi 151
 - (4) Qochoqlar muammosining yechimi va UNHCRning o'рни..... 152
 - (5) Boshpana berilishi lozim bo'lgan shaxslar..... 152
 - (6) Yaponiya va qochoqlar muammosi..... 152
4. BMT tomonidan amalga oshiriladigan xalqaro darajadagi inson huquqlari himoyasi 154
5. Inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar.....158
 - (1) Inson huquqlariga oid universal shartnomalar (8-11) 158
 - (2) Inson huquqlariga oid mintaqaviy shartnomalar (8-12, 8-12) 159
 - (3) Inson huquqlariga oid shartnomalarni ijro etish usullari 159
6. Inson huquqlari shartnomalarining mamlakatdagi ijrosi.....167

1. Xalqaro jinoyat tushunchasi169
 - (1) Turli xil xalqaro jinoyatlar 169
 - (2) Xalqaro jinoyatlar bo'yicha jazo tayinlash..... 169
2. Davlat tomonidan jinoyatlarni jazolash172
 - (1) Bir davlatning huquqiy manfaatlari buzilishiga nisbatan munosabat..... 172
 - (2) Davlatlarning mushtarak manfaatlari buzilishiga nisbatan munosabat 173
 - (3) Butun xalqaro hamjamiyatning huquqiy manfaatlari buzilishiga nisbatan munosabat..... 175
3. Xalqaro darajadagi jinoyat sudlari tomonidan jazo tayinlash.....177
 - (1) Xalqaro harbiy sud va Uzoq sharq xalqaro harbiy sudi177
 - (2) Sobiq Yugoslaviya bo'yicha xalqaro jinoyat tribunali (ICTY) va Ruanda xalqaro jinoyat tribunali (ICTR)179
 - (3) Xalqaro jinoyat sudi.....180

4. Jinoyatchilarni ekstraditsiya qilish	183
(1) Chet elga ekstraditsiya qilish	183
(2) Xalqaro darajadagi jinoyat sudlariga ekstraditsiya qilish	184

Chapter 10

Davlatlar chegarasini oshuvchi tovarlar, xizmatlar

va kapital – Xalqaro iqtisodiy huquq ————— 186

1. Iqtisodiy faoliyatga oid xalqaro huquq doirasining paydo bo'lishi	186
(1) Ikkinchi jahon urushiga qadar jahon iqtisodiyoti va GATT tizimi	186
(2) Endigina mustaqillikka erishgan davlatlardan yangicha talablar	187
(3) Jahon savdo tashkiloti (JST)ning tashkil topishi	189
2. Tovarlar savdosi	190
(1) Prinsiplar	190
(2) Istisnolar	192
3. Xizmatlar savdosi va intellektual mulk masalalari	192
4. Nizolarni hal qilish tizimi	195
(1) JSTda nizolarni hal qilish tartibi (10-5)	195
(2) JSTda nizolarni hal qilish tartibining o'ziga xos xususiyatlari	195
5. Mintaqaviy-iqtisodiy integratsiya va iqtisodiy hamkorlik shartnomalari	197
(1) Mintaqaviy savdo bitimlari	197
(2) Yaponiyaning iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi shartnomalari	198
6. Xalqaro investitsiya intizomi	199
(1) Xalqaro investitsiyalar bilan bog'liq Shimol va Janub o'rtasidagi ziddiyat	199
(2) Investitsiyaviy nizolarni hal qilish	201

Chapter 11

Global miqyosdagi tabiatni muhofaza qilish muammo-

lari – tabiatga oid xalqaro-huquqiy boshqaruv ————— 202

1. Xalqaro tabiat huquqining tarixi	202
(1) Ikkinchi jahon urushidan oldingi davr	203
(2) Inson harakatlarining kengayishi natijasidagi o'zgarishlar	203
(3) Tabiat muammolariga qarshi global miqyosda kurashish	204
2. Tabiatga oid xalqaro-huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari	204
(1) Xalqaro shartnomalarning shakli	205
(2) Tabiatga oid davlat majburiyatlari va huquqiy prinsiplar	205
(3) Tabiatni muhofaza qilishga oid xalqaro shartnomalardagi majburiyatlarni davlatlarga qanday bajartirish mumkin?	208
3. Tabiat muhofazasiga oid xalqaro shartnomalarning umumiy tasnifi	213
(1) Atmosfera doirasidagi tabiat himoyasi	213
(2) Yovvoyi hayvon va o'simliklar himoyasi hamda biologik xilma-xillikni asrab qolish	213
(3) Kimyoviy moddalar va xavfli chiqindilarning chegaralar osha harakati	215

(4) Dengiz tabiati, Antarktika hududi	217
4. Xalqaro tabiat huquqining kelgusi muammolari	218

Chapter 12

Nizolarni urushmasdan hal etamiz – nizolarni tinch yo'l bilan hal etish

1. Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish	220
(1) Xalqaro huquqda nizolarni hal etishning mohiyati	220
(2) Kuch ishlatishning taqiqlanishi va nizolarni tinch yo'l bilan hal etish majburiyati	221
(3) Nizolarning tabiati va hal etish vositalarining aloqadorligi	222
2. Xalqaro suddan tashqari nizolarni hal etish vositalari	223
(1) Muzokara	223
(2) Tekshiruv	224
(3) Hakamlik	224
(4) Mediatsiya	224
(5) Xalqaro tashkilotlar tomonidan nizolarni hal etish	226
3. Xalqaro sud tomonidan nizolarni hal etish	228
(1) Xalqaro sudlarning o'ziga xosligi	228
(2) Arbitraj	229
(3) Sud orqali nizolarni hal etish	230
4. Xalqaro adolat sudi (ICJ)ning tizimi va taomillari	231
(1) ICJning tuzilishi va sud qoidalari	231
(2) ICJning yurisdiksiyasi	233
(3) Ilovaviy taomil	236
(4) ICJ qarorlarining yuridik kuchi, talqin etilishi va qayta ko'rib chiqish bo'yicha talab	238
(5) Sudning tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan qarorlari tizimi	239
(6) ICJdan foydalanish	240
5. BMT dengiz huquqi konvensiyasi bo'yicha kelib chiqadigan nizolarni hal etish tizimi	240
(1) Nizolarni hal etish tizimi va tuzilmasi	240
(2) Da'voni ta'minlash choralari	242
(3) Zudlik bilan ozod qilish	243

Chapter 13

Davlat xavfsizligini himoya qilish – xavfsizlikni ta'minlash

1. Xalqaro hamjamiyatda «urush»ning o'rni	245
2. Urush va kuch ishlatishning taqiqlanishi	245
(1) Adolatli urush nazariyasidan «urush qilish erkinligi»ga qarab	245
(2) Urush qilish va kuch ishlatishning taqiqlanishi	246

(3) Kuch ishlatishning taqiqlanishi tamoyilining vujudga kelishi	247
3. Kuch ishlatishning taqiqlanishi tamoyili mazmuni	247
(1) «Kuch»ning ma'nosi	247
(2) «Kuch ishlatish»ning ko'rinishlari	248
(3) «Kuch bilan tahdid qilish»ning mohiyati	248
(4) Kuch ishlatishni taqiqlash tamoyilining ichki urushlarga nisbatan tatbiq etilish ehtimoli.....	248
4. Kuch ishlatmaslik tamoyili bo'yicha istisnolar	249
(1) Istisnolar doirasi	249
(2) O'zini o'zi mudofaa qilish	249
(3) Kollektiv o'zini o'zi mudofaa qilish	250
(4) Boshqa istisno holatlarning da'vo qilinishi	252
5. Kollektiv xavfsizlik	252
(1) Kuchlar muvozanati va kollektiv xavfsizlik	252
(2) Millatlar Ligasi hamda BMTda kollektiv xavfsizlik	252
(3) «Sovuq urush» davridagi o'zgarishlar	255
(4) «Sovuq urush»dan keyingi kollektiv xavfsizlik masalalari	255
6. BMTning tinchlikni saqlash faoliyati	258
(1) PKOning vujudga kelishi va tasdiqlanishi	258
(2) «Sovuq urush»dan so'ng funksiyalardagi o'zgarishlar	260

Chapter 14

Urush va qurolli mojarolar qoidasi – dushmanga qarshi harakatlarni chegaralash va urush jabrdiydalarining himoyasi

1. Qurolli mojarolar huquqining asosiy qarashlari va tuzilishi	262
(1) Asosiy qarashlari	262
(2) Tuzilishi	262
2. Qurolli mojarolar huquqining qo'llanilishi bilan bog'liq asosiy muammolar	263
(1) Xalqaro va ichki qurolli mojarolar	263
(2) Kamsitishga yo'l qo'yiladigan holatlar va tenglikni ta'minlash zarur bo'lgan holatlar	266
3. Dushmanga qarshi harakatlar va kombatantlar (harbiy to'qnashuvlardagi askarlar)	267
(1) Dushmanga qarshi qaratilgan harakatlarda qatnashishning talablari	267
(2) Kombatantlarning tashqi ko'rinishi – ishonchni suiiste'mol qilish va hiyla	270
(3) Hujum qilish obyekti – kombatantlar va harbiy mo'ljal (obyekt)	270
(4) Hujum usuli – quroldan foydalanishning cheklanishi	272
4. Jabrdiydalarni himoya qilish	274
(1) Yaralangan askarlar va kema halokatiga uchragan askarlar	274

(2) Asirlar	275
(3) Fuqaro aholi	277
5. Qurolli mojarolar huquqini hurmat qilish	278
(1) Urush davrida qasos olish	278
(2) Urush jinoyati va unga qarshi jazo choralari	279
6. Betaraflik (neytralitet) huquqi	280
(1) Betaraflik tushunchasi va betaraflik majburiyati	280
(2) Zamonaviy davrda qurolli mojarolarda qatnashmayotgan davlatlarning maqomi	281
7. Qurolsizlanish huquqi	281
(1) Qurolli mojarolar huquqi va qurolsizlanish huquqi	281
(2) Qurolsizlanish va qurol-aslahalar ustidan nazorat	282
(3) Ommaviy qirg'in qurollari	282
(4) Oddiy qurollar	285
Suratlar ro'yxati	286
INDEX	294



(Manba: Fujisan Kaguyahime muzeyi)

C-1 Chor Rossiyasining harbiy kemasi Diana

"Diana" – Yaponiya-Chor Rossiyasi Do'stlik bitimi muzokarasini o'tkazish uchun Shimoda shahriga elchi Yevfimiy Putyatın boshchiligida suzib kelgan harbiy kema. 1854-yilda Ansey katta zilzilasi natijasida yuz bergan sunami tufayli katta zarar ko'rgan. Shundan so'ng, kema ta'mirlash uchun Heda qishlog'iga suzib ketayotgan paytda yo'ldagi Suruga ko'rfazida cho'kib ketadi. → **Introduction** 2



(Manba: Alamy/PPS xabarlatari)

C-2 Nansen vizasi (passport)

1922-yildan boshlab, o'sha paytdagi Qochoqlar ishlari bo'yicha ilk Oliy komissar Nansen tomonidan Rossiyadagi "Oktabr inqilobi" qochoqlari uchun chiqarilgan va xalqaro miqyosda tan olingan passport. Uning amal qilish muddati bir yil bo'lgan. Ammo, ushbu muddat o'tganidan keyin ham, uni olgan qochoq shaxs ishga kirishi, doimiy yashash joyiga ega bo'lishi va uchinchi bir davlat vizasini olishi uchun amal qilavergan. → **Chapter 8** 2(2)

C-4 Germaniyadagi Falzgrafenstein qasri

Reyn daryosidan qatnovchi kemalardan soliq to'lovlarini yig'ish maqsadida bunyod etilgan Falzgrafenstein qasri. Reyn markaziy komissiyasi Reyn daryosida kemalarning erkin qatnovini ta'minlash maqsadida eng birinchi xalqaro daryo komissiyasi sifatida 1815-yildagi Vena konferensiyasining oxirgi protokoli bilan Germaniyaning Mainz shahrida tashkil etiladi. → **Chapter 7** 2 (2)




(Manba: Bridgeman/PPS xabarlatari)

C-3 Gent shartnomasining imzolanishi

1812-yilning iyun oyida AQSH, Angliya va Kanada o'rtasida Shimoliy Amerikadagi mustamlakalar yuzasidan boshlangan urushni tugatgan bitim Janubiy Niderlandiyaning (hozirgi Belgiya) Gent shahrida tuzilgan (1814-yil dekabr). → **Introduction** 2



(Manba: Alamy/PPS xabarlatari)



C-5 Birinchi jahon urushi boshlanishi arafasidagi (1914-yil) mustamlakalar xaritasi

XV asr oxirlaridan boshlangan Yevropa davlatlarining global miqyosdagi kengayishlari natijasida, Birinchi jahon urushi boshlanishidan avval, Osiyodagi Yaponiya va Xitoy, Afrikadagi Efiopiya va Liberiya kabi davlatlardan tashqari qit'aning barcha hududlari Yevropa davlatlari tomonidan mustamlaka qilingan edi. → **Chapter 1**

C-6 Qochoqlar himoyasi

1995-yilda Zair (hozirgi Kongo Demokratik Respublikasi)ning sharqidagi qochoqlar lagerida ruandalik qochoqlar tomonidan kutib olinayotgan BMTning Qochoqlar ishlari bo'yicha Oliy komissari, Sadako Ogata. Ogata xonim ushbu lavozimda 1991-2000-yillarda faoliyat yuritgan. → **Chapter 8**



(Manba: Brdigeman/PPS xabarari)

C-7 Marvarid ko'rfazida hujumga uchrab yonayotgan AQSh harbiy kemalari (Pyorl Harbor)

1941-yil 7-dekabr tongida (Gavayi vaqti bilan) Yaponiya qurolli kuchlari Gavayidagi Marvarid ko'rfaziga qo'qqisdan hujum qilib, o'sha yerda turgan AQShning Tinch okeani harbiy flotillyasini barbod qiluvchi zarbani beradi. Ushbu kutilmagan zarba muvaffaqiyatli chiqqanligi aytilsa-da, Yaponiyaning AQShdagi elchixonasi tomonidan AQSh kotibiga urush boshlanganligi haqidagi xabar Yaponiya tarafining jiddiy xatosi tufayli hujumdan keyin berilgani aytiladi. Natijada, AQSh tomonidan Yaponiyaning bunday harakati "orqadan pichoq urish" sifatida baholanib, mamlakat aholisining Yaponiyaga qarshi birlashishiga sabab bo'ladi. → **Chapter 14**



(Manba: Alamy/PPS xabarlari)

C-8 Fors ko'rfazi urushi

1990-yil avgust oyida Iroq davlati qo'shni Quvaytni kuch bilan o'ziga qo'shib oladi. Bunga qarshi, AQSh boshchiligidagi baynalmilal harbiy kuchlar BMT Xavfsizlik Kengashining qaroriga muvofiq, 1991-yilning yanvar oyidan aprel oyigacha Iroq qo'shinlarini Quvaytdan chekinishga majbur qiladi. → **Chapter 13**

C-9 Qizil xoch timsoli va boshqa himoyalovchi belgilar → Chapter 14 (1)

“Qizil xoch timsoli”

Qizil xoch timsolidan noto'g'ri foydalanilayotganini aks ettirgan Qizil xoch qo'mitasining (ICRC) pamfleti.

(Manba: ICRC, *Red Cross and Red Crescent Emblems: Safeguarding their Power to Protect and Preventing Misuse*, 2016, p.4)

WHAT IS EMBLEM MISUSE?

Emblem misuse occurs when the emblems are displayed in peacetime or during armed conflict by those not lawfully entitled to do so or when they are used in a manner that could undermine respect for the emblems or create confusion. The two main types of misuse are:

Imitation
The use of a symbol that, by its shape and its colour, could be confused with the red cross, red crescent or red crystal emblem.

Improper use
When a person or organization that is not entitled to do so displays the emblem on for example, a sign marking their establishment or on an object. Sometimes commercial enterprises, medical centres, pharmacies, governmental organizations or others are not aware of the rules and wrongfully display the emblem.

“Sanitariya va diniy bo'linmalarining himoya timsollari”.

(a) Qizil xoch, (b) Qizil yarim oy, (c) Qizil arslon va quyosh belgisi. Ushbu belgilar Jeneva konvensiyalarida belgilangan sanitariya bo'linmalari va diniy bo'linmalarining himoya timsollari bo'lib xizmat ko'rsatadi. Bundan tashqari, Isroil armiyasi va Jeneva konvensiyalarida bu borada hech qanday asos mavjud bo'lmagan (d) Magen Dovud Adom himoya timsolidan foydalaniladi.

(a) Qizil xoch belgilarining ko'pligi tushunmovchilikni keltirib chiqaradi, chunki Xalqaro Qizil xoch qo'mitasi tomonidan ushbu belgilar birlashtirish masalasi ko'rib chiqilgan. (b) Qizil yarim oy va (c) qizil kristall timsoli 2005-yildagi Jeneva konvensiyalarining I qo'shimcha protokolida birlashtirilgan timsol sifatida belgilandi. Shunday bo'lsa-da, ushbu birlashtirilgan timsol har bir davlat shu paytgacha foydalanib kelgan bo'lsa ham, o'zining himoya belgisini ishlatishi tan olinganligi sababli, (d) u haqiqiy ma'noda mutlaq birlashtirilgan timsol darajasiga ko'tarilganicha yo'q.



“Yuqoridagilardan boshqa belgilar”

(a) Madaniy yodgorliklarni himoyalash timsoli. Madaniy yodgorliklar, Gaaga madaniy yodgorliklarni himoyalash bitimi va uning protokoli, shuningdek, Jeneva konvensiyalarining I qo'shimcha protokoli kabi bitimlar bilan qo'riqlanadi. (b) Xavfli kuchga ega sanoat moddalari va inshootlarining himoya timsoli (uchta ketma-ket apelsinrang dumaloq belgilar). Damba, to'g'on va atom elektr stansiyalari kabi uchta xavfli kuchga ega inshootlar Jeneva konvensiyalarining I qo'shma protokoli 56-moddasi va II qo'shma protokoli 15-moddasi orqali himoyalanaadi. (c) Tinch aholini himoyalash tashkilotlarining himoya timsoli. Jeneva konvensiyalarining I qo'shimcha protokoli qurolli to'qnashuv va tabiiy ofatlardan tinch aholini himoyalash uchun tuzilgan tashkilotlar ham qo'riqlanishi lozimligini belgilagan. Tinch aholini himoyalash tashkilotlari aholini evakuatsiya qilish, qutqarish va kerakli ashyolar bilan ta'minlash ishlari bilan shug'ullanadi. Bunday tashkilotlar mustaqil bo'lmasalar-da, militsiya va o't o'chirish kabi markaziy va

mahalliy davlat organlari bunday vazifani bajarishi mumkin. (d) Kasalxonalar xavfsiz hududining timsoli. Tinch aholini himoyalashga doir Jeneva konvensiyasida kasalxonalar, xavfsiz hudud, zona va neytral zona kabi yarador va tinch aholini himoyalash maqsadida tashkil etiladigan hududlarni belgilaydigan modda mavjud. I qo'shimcha protokol, tinch aholi yashaydigan mintaqani shundayligicha himoyalaydigan mudofaa qilinmaydigan hudud va qurolsiz hududlarning tashkil qilinishini ham belgilagan.



Asosiy xalqaro tashkilotlar

- ★ --BMT va BMTning asosiy organlari
- -- BMTning yordamchi tashkilotlari
- --Ixtisoslashgan organlar
- -- Boshqa xalqaro tashkilotlar tashkil etilgan yillari.

Jeneva (Shveysariya)

- Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi (International Telecommunication Union: ITU), 1865-yil -- **Chapter 7**
- Xalqaro mehnat tashkiloti (International Labour Organization: ILO), 1919-yil -- **Chapter 7**
- Jahon intellektual mulk tashkiloti (World Intellectual Property Organization: WIPO), 1970-yil -- **Chapter 10**
- Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (World Health Organization: WHO), 1948-yil -- **Chapter 12**
- Xalqaro huquq komissiyasi (International Law Commission: ILC), 1947-yil -- **Chapter 2, 3, 4, 9**
- Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi (Office of the United Nations High Commissioner for Human Rights: OHCHR), 1993-yil -- **Chapter 8**



(Manba: UN Photo/ Jean-Marc Ferré)

- BMT Inson huquqlari kengashi (United Nations Human Rights Council: UNHRC), 2006-yil -- **Chapter 7, 8**
- BMTning Qochoqlar ishlan bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi (Office of the United Nations High Commissioner for Refugees: UNHCR), 1950-yil -- **Chapter 8**
- BMTning Savdo va rivojlanish konferensiyasi (United Nations Conference on Trade and Development: UNCTAD), 1963-yil -- **Chapter 10**
- Jahon savdo tashkiloti (World Trade Organization: WTO), 1995-yil -- **Chapter 7, 10, 11**
- Qizil xoch jamiyati (International Committee of the Red Cross: ICRC), 1863-yil -- **Chapter 14**

Bern (Shveysariya)

- Universal pochta ittifoqi (Universal Postal Union: UPU), 1874-yil -- **Chapter 7**
- Xalqaro gumanitar faktlarni izlab topish komissiyasi (International Humanitarian Fact-Finding Commission: IHFFC), 1991-yil -- **Chapter 14**

Vena (Avstriya)

- BMTning Xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasi (United Nations Commission on International Trade Law: UNCITRAL), 1966-yil -- **Chapter 10**
- Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (Organization for Security and Co-operation in Europe: OSCE), 1972-yil -- **Chapter 7, 12**
- Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (International Atomic Energy Agency: IAEA), 1957-yil -- **Chapter 14**

Bryussel (Belgiya)

- Yevropa Ittifoqi (European Union: EU), 1993-yil -- **Chapter 1, 7**
- Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti (North Atlantic Treaty Organization: NATO), 1949-yil -- **Chapter 7, 13**

Gamburg (Germaniya)

- Dengiz huquqi bo'yicha xalqaro tribunal (International Tribunal for the Law of the Sea: ITLOS), 1996-yil -- **Chapter 11, 12**

Frankfurt (Germaniya)

- Yevropa markaziy banki (European Central Bank: ECB), 1998-yil -- **Chapter 7**



(Manba: ECB veb-sayti)



Gaaga(Niderlandiya)

- ★ Xalqaro adolat sudi (International Court of Justice: ICJ), 1946-yil -- **Chapter 2, 3, 4, 5, 6, 11, 12, 13, 14**
- Doiniy xalqaro adolat sudi (Permanent Court of Arbitration: PCA), 1899-yil -- **Chapter 12**



Manba: UN Photo/ Jean-Marc Ferré

- Sobiq Yugoslaviya bo'yicha Xalqaro jinoyat tribunali (International Criminal Tribunal for the former Yugoslavia: ICTY), 1993-yil -- **Chapter 9**
- Livan bo'yicha massus tribunal (Special Tribunal for Lebanon: STL), 2009-yil -- **Chapter 9**
- Xalqaro jinoyat sudi (International Criminal Court: ICC), 2003-yil -- **Introduction, Chapter 1, 9, 12**

Parij(Fransiya)

- BMTning Ta'lim, Fan va Madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization: UNESCO), 1946-yil -- **Chapter 1, 7**
- Xalqaro savdo-sanoat palatasi (International Chamber of Commerce: ICC), 1920-yil -- **Chapter 10**

Washington DC (AQSh)

- Xalqaro valyuta jamg'armasi (International Monetary Fund: IMF), 1946-yil – **Chapter 1,7,10**
- Investitsiya nizolanini hal qilish bo'yicha xalqaro markaz (International Centre for Settlement of Investment Disputes: ICSID), 1966-yil – **Chapter 10**
- Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (International Bank for Reconstruction and Development: IBRD), 1945-yil – **Chapter 1, 10**
- Amerika davlatlari tashkiloti (Organization of American States: OAS), 1948-yil – **Chapter 1, 7, 8, 12**



(Manba: OAS veb-sayti)



Strazbur (Fransiya)

- Yevropa inson huquqlari sudi (European Court of Human Rights: ECHR), 1959-yil – **Chapter 8, 12**



(Manba: Yevropa Kengashi)

- Yevropa Kengashi (Council of Europe: CoE), 1949-yil – **Chapter 7, 8**

Addis-Abeba (Efiopiya)

- Afrika Ittifoqi (African Union: AU), 2002-yil – **Chapter 1, 7, 8, 12**

Qohira (Misr)

- Arab davlatlari ligasi (League of Arab States), 1945-yil – **Chapter 7, 8**

Nayrobi (Keniya)

- BMTning Tabiat muhofazasi muammolariga ixtisoslashgan dasturi (United Nations Environment Programme: UNEP), 1972-yil – **Chapter 11**

Nyu-York (AQSh)

- Birlashgan Millatlar Tashkiloti (United Nations: UN), 1945-yil – **Introduction, Chapter 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14**



(Manba: UN Photo/ Milton Grant)

- Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xavfsizlik Kengashi (United Nations Security Council: UNSC) – **Introduction, Chapter 2, 3, 7, 9, 12, 13, 14**

- BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (United Nations Economic and Social Council: ECOSOC) – **Chapter 7, 8**

- BMT Kotibiyati (United Nations Secretariat) – **Chapter 4, 7, 8**

- BMT Vasiylik Kengashi (faoliyatini to'xtatgan) (United Nations Trusteeship Council) – **Chapter 7**

- BMT Bosh Assambleyasi (United Nations General Assembly: UNGA) – **Chapter 2, 3, 4, 6, 7, 8, 9, 10, 12, 13**

- Kontinental shelf doirasi bo'yicha komissiya (Commission on the Limits of the Continental Shelf: CLCS), 1997-yil – **Chapter 6**

Monreal (Kanada)

- Xalqaro fuqarolik aviatransporti tashkiloti (International Civil Aviation Organization: ICAO), 1947-yil – **Chapter 7**

Kingston (Yamayka)

- Xalqaro dengiz tubi organi (International Seabed Authority: ISA), 1994-yil – **Chapter 6**

San-Hose (Kosta-Rika)

- Inson huquqlari bo'yicha Amerika davlatlararo sudi (Inter American Court of Human Rights: IACHR), 1979-yil – **Chapter 8, 12**

Pnompenn (Kambodja)

- Kambodja sudi maxsus sud bo'limi (Extraordinary Chambers in the Courts of Cambodia: ECCC), 2001-yil – **Chapter 9**

Quddus (Falastin-Isroil)

- To'xtatgan urushni nazorat qilish tashkiloti (United Nations Truce Supervision Organization: UNTSO), 1948-yil – **Chapter 13**

Jakarta (Indoneziya)


- Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (Association of South-East Asian Nations: ASEAN), 1967-yil – **Chapter 7**

Fritaun (Sierra Leone)

- Serra Leone bo'yicha maxsus sud (Special Court for Sierra Leone: SCSL), 1994-yil – **Chapter 9**

Arusha (Tanzaniya)


- Inson va xalqlar huquqlari bo'yicha Afrika sudi (African Court on Human and People's Rights), 2006-yil – **Chapter 8**



(Manba: NASA)

C-10 Ozon qatlami

Ozon qatlamining yemirilishi (1979, 1987, 2006 va 2011-yillardagi qiyosiy surat. Ozon qatlamida 1979-yilda deyarli mavjud bo'lmagan teshik 1987-yilga kelib keskin kengayganligini kuzatish mumkin. 1987-yilda Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar to'g'risidagi Monreal protokoli qabul qilingan so'ng xloroflorarbon moddasining qo'llanilishi tartibga solinishi tufayli Ozon qatlamining yemirilishi kamaygani ham aytilmoqda. → **Chapter 11** (1)



(Manba: Tabiatni muhofaza qilish vazirligi veb sayti)

C-11 Dunyodagi energiya manbasi hisoblangan CO² chiqarilish hajmi (2013-yil)

Havoga CO² chiqarish hajmi bo'yicha 1-o'rinda Xitoy, 2-o'rinda esa AQSH turadi. Yaponiya esa davlatlar miqyosida 5-o'rinni egalla. Bunday tashqari, karbon monoksid (CO), xloroflorarbon kabi moddalar "issiqxona effekti" kelib chiqish manbai. → **Chapter 11** (1)

C-12 Soyuzning uchirilishi

Bortida yaponiyalik fazogir Takuya Onishi bo'lgan Soyuz raketasi Qozog'istonning Baykanur bazasidan uchirilgan payt. (2016-yil, iyul) → **Chapter 5** (2)



(Manba: NASA)



C-13 Sektor nazariyasiga asoslanib Antarktikaga nisbatan hududiy suverenitetni da'vo qilish

XX asrdan boshlab Angliya boshliq 7 davlat sektor nazariyasiga asoslanib Antarktikaga nisbatan hududiy suverenitetni da'vo qilishni boshladi. Antarktika shartnomasiga muvofiq Janubiy qutbda hududiy da'vo qilish "muzlatib" qo'yildi. Aytish joizki, Antarktika shartnomasi janubiy kenglikning 60° parallelidan keyingi janubiy qismiga (bunga muz shelflari (ice shelf) ham kiradi) tatbiq etiladi. Antarktika dengiz jonzoqlari zahiralari himoya qilish shartnomasi, Antarktikaning tirik jonzoqlarini e'tiborga olib, Antarktika fronti chizig'idan (Antarctic Polar Front) janubda joylashgan hududlar uchun ham tatbiq etiladi. → **Chapter 5** (3)

CEN-SAD: Sahel-Sahroyi Kabir davlatlari hamjamiyati. Unga 28 ta davlat a'zo.



AMU: Arab-Mag'rib davlatlari ittifoqi. Unga 5 davlat a'zo.



IGAD: Hukumatlararo rivojlanish tashkiloti. Unga 8 davlat a'zo.



ECOWAS: G'arbiy Afrika mamlakatlari iqtisodiy hamjamiyati. Unga 15 davlat a'zo.



EAC: Sharqiy Afrika hamjamiyati. Unga 6 davlat a'zo.



ECCAS: Markaziy Afrika davlatlari iqtisodiy hamjamiyati. Unga 11 davlat a'zo.



SADC: Janubiy Afrika rivojlanish hamjamiyati. Unga 15 davlat a'zo.

COMESA: Sharqiy va janubiy Afrika umumiy bozori. Unga 19 davlat a'zo.



C-14 Afrikadagi mintaqaviy iqtisodiy tuzilmalar (RECs)

(Manba: Yaponiya Tashqi ishlar vazirligining 2015-yildagi Diplomatik ko'k kitabi (Bluebook) asosida tayyorlandi.) → Chapter 7



C-15 Yevro valyutasi va uning joriy etilishidan avvalgi Yevropa davlatlari pul birliklari

(chapda) Yevroning joriy etilishidan avvalgi davrdagi milliy pul birliklari (Yuqori chapdan Germaniyaning 50, 10 va 5 markalik qog'oz pullari. O'rta qatordan Fransiyaning 200 va 100 franklik qog'oz pullari. Yuqori o'ngda esa Belgiyaning 500 va 100 franklik qog'oz pullari) (o'ngda) 2002-yilda joriy etilgan "yevro" pul birligi.



(Manba: Bridgeman/PPS xabarlari)



(Manba: Yokohama arxivlari tarixi muzeyi tomonidan taqdim etildi)

C-16 Qora kemalarning Yaponiyaga kelishi

Yaponiyaning g'arb davlatlari bilan xalqaro huquqiy aloqaga kirishishiga sabab bo'lgan qora kema kelishi. Kapitan Perri 1853-yilda Kurihama nomli joyda AQSH prezidenti maktubini Yaponiya tomoniga topshirgach, keyingi sanada yana Yaponiyaga keladi va Yokohamada quruqlikka ko'tariladi. Manbada AQSH missiyasining Yokohamada quruqlikka chiqayotganligi tasvirlagan litografiya. (Uilyam Heyne tomonidan chizilgan.) → **Chapter 1** (3)



(Manba: AP/Aloimages)

C-17 Prezident Obaning Hiroshimaga tashrif

G7 Ise-shima sammitidan keyin Hiroshimadagi atom bombalar qurbonlarini yodga olish uchun tashrif buyurgan prezident Obama Hiroshima Ob. Hiroshimada (o'ng tomonda). Gulchambarni qo'ygandan keyin Beirutda prezident Obama va Hiroshimada prezident Shir Abe bilan so'rashgan. (2016-yil 27-may) → **Introduction 5**



(Manba: AP/Aloimages)



(Manba: Chiune Sugihara xotira zali tomonidan taqdim etildi)

C-18 Xalqaro adolat sudining majlislar zali

Avstraliya va Yaponiya o'rtasidagi Antarktikadagi kitlarni ovlash ishi (Yangi Zelandiya uchinchi taraf sifatida ishtirok etgan) bo'yicha sud qarori e'lon qilinayotgan paytdagi sud majlisi zalining ko'rinishi. Old tarafning biroz yuqori joylashgan joyida 16 nafar sudyalari o'tirishibdi (ulardan bir nafari avstraliyalik). (2014-yil 31-mart) → **Introduction 5**

C-19 Hayot vizasi

Ikkinchi jahon urushi davom etayotgan 1940-yili Litvadagi Yaponiya konsuli bo'lgan Chiune Sugihara natsistlar Germaniyasi zulmidan qochib kelgan kishilarga Yaponiya tomonidan berilgan buyruqqa zid ravishda tranzit ruxsati (vizasi) berib, ko'pchilik yahudiy millatiga mansub insonlar hayotini saqlab qolishga erishadi. Rasmda Chiune tomonidan qo'lda yozilgan "hayot vizasi" aks etgan. → **Chapter 4** (2)

«VIZUAL XALQARO HUQUQ» KITOBİ TARJIMASINING QISQACHA TARIXI

Qo'lingizdagi darslik tarjimonlarning bir necha yillik zahmatli mehnati natijasidir. Biroq Yaponiya universitetlarida minglab talabalar tomonidan o'qilayotgan ushbu kitobning tarjiması orqasida tarjimonlar mehnatigina emas, balki ushbu kitob mualliflarining doimiy qo'llab-quvvatlashlari ham turibdi. Mazkur kitob Yaponiyaning eng kuchli olti xalqaro huquq olimlari tomonidan yozilgan bo'lsa-da, ushbu kitobning o'zbek tiliga o'g'irilishida eng katta yordamni ko'rsatgan inson bu – professor Akira Mayama hisoblanadi. Professor Mayama hozirda Osaka universitetining «Ommaviy siyosat oliy maktabi» professori bo'lib, xalqaro huquq fanidan dars beradi va bu sohada keng qamrovli ilmiy tadqiqotlarni yuritadi.

Professor Mayama bilan 2016-yil Shizuoka viloyatida o'tkazilgan «Yaponiya xalqaro huquq assotsiatsiyasi»ning yillik yig'ilishida tanishganmiz. Qisqa bo'yli, harakatchan va



*Alisher Umirdinov va professor Akira Mayama.
2018-yil sentabr, Yaponiya.*

doim jilmayib turadigan ushbu inson o'z suhbatdoshining ishonchini tez qozona olardi. Suhbatimiz asosan O'zbekiston va Yaponiya universitetlari o'rtasidagi ilmiy hamkorlik hamda talabalar almashinuvi haqida bo'lgan. Ba'zi bir sabablarga ko'ra, ushbu loyihalar amalga oshmay qolgan bo'lsa-da, 2017-yilda Yaponiyaning nufuzli Yuhikaku nashriyoti tomonidan «Vizual xalqaro huquq» kitobining chop etilishi aloqalarimizni qaytadan jonlantirdi. Professor Mayama nafaqat kitobning o'zbek tiliga tarjima qilinishiga rozilik berdi, balki boshqa hammualliflardan ham rozilik olishimizga va Yuhikaku nashriyoti bilan muzokalar juda samarali yakunlanishiga yaqindan ko'mak berdi. Hatto, yurtimizning dengizlardan uzilib qolganligini bahona qilib, hali atamalar ham yaxshi shakllanmagan «Dengizlar huquqi» bobini tarjima qilmasdan, qoldirib ketmoqchi bo'lganimizda ham, ushbu bobning O'zbekistonning kelajak

avlodlari uchun nihoyatda zarur ekanligini ta'kidlab, biz tarjimonlarni ushbu mashaqqatli ishdan orqaga qaytmaslikka undagan vaqtlarini ham yaxshi eslaymiz. O'zbekistonning yosh huquqshunoslari sifatida professor Akira Mayamaning yurtimiz huquqshunoslik faniga sidqidildan ko'rsatgan yordamlari uchun chin dildan tashakkur bildiramiz.

Professor Akira Mayama, sizga katta rahmat!

真山先生、ありがとうございました!

Prefase

VIZUAL XALQARO HUQUQ

Ushbu kitob oliy ta'lim muassasalarida ilk bor xalqaro huquqni o'rganayotgan talabalar uchun o'zida ko'plab vizual elementlarni mujassamlashtirgan xalqaro huquqqa oid boshlang'ich qo'llanmadir. Ushbu kitob muqaddima va 14 bobdan iborat bo'lib, undan xalqaro huquq darolarida foydalanish ko'zda tutilgan. Kitob xalqaro huquqning standart tizimiga mos keladigan tarzda tuzilgan bo'lib, uning sahifalarida xalqaro huquq sohasiga oid ko'plab masalalar yoritilgan.

Aytish joizki, xalqaro huquqni o'qitish shu paytgacha, asosan yuridik ta'limning bir qismi sifatida universitetlarning huquq fakultetlarida amalga oshirib kelingan. Hozirgi kunda huquqshunoslik fakulteti talabalarini uchun xalqaro huquqni o'rganishning ahamiyati oshib bormoqda. Shu bilan bir qatorda, huquqshunoslik sohasiga ixtisoslashmagan soha talabalarini uchun ham ma'lum bir darajada «xalqaro hamjamiyatning umumiy tili» vazifasini bajaruvchi xalqaro huquqni o'rganish ahamiyatidir. Shu sababli, qo'lingizdagi kitob nafaqat huquq fakulteti talabalarini, balki boshqa yo'nalish talabalarini ham inobatga olgan holda nashrga tayyorlangan. Qo'lingizdagi kitob xalqaro huquqni oson tushunishingizda qo'llanma vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, xalqaro huquq sohasiga qiziquvchilar hamda maktablarning yuqori sinf o'quvchilari uchun siyosat, iqtisod va tarix fanlarini yanada chuqurroq o'zlashtirishlarida muhim manba sifatida xizmat qiladi deb o'ylaymiz.

Mazkur kitob ko'plab xususiyatlarni o'zida mujassam etadi. Birinchidan, ko'rish hissi orqali xalqaro huquqqa oid aniq tasavvurning uyg'onishi uchun ko'p sonli surat, xarita va grafik elementlar kiritilgan. Faqatgina so'zlar bilan ifodalash qiyin bo'lgan masalalarni grafika shakliga keltirib, foydali surat va materiallarni kitobga kiritish orqali o'quvchilarni qiziqtirgan holda xalqaro huquqni o'rganishlariga e'tibor qaratdik. Ikkinchidan, huquqshunoslik sohasini mutaxassislik darajasida

o'rganmaydigan talabalarni inobatga olgan holda, xalqaro huquq sohasini to'liqlig'icha qamrash orqali tushunarli va mo'jaz tarzda ifodalashni maqsad qildik. Shu sababli, kitobda oddiy ifodalarni ishlatishga e'tibor qaratish bilan bir qatorda, ixtisoslashgan va murakkab bo'lgan masalalarga chuqur yondashmaslikni ma'qul ko'rdik.

Biz mualliflar mazkur kitobni yaratish bo'yicha ilk uchrashuvimizni Tokioda boshlagan edik. Shundan so'ng, Kioto, Sapporo shaharlarida yig'ilib, jami 10 marta majlis o'tkazdik. Mazkur uchrashuvlarimizdagi samimiy munozaralar natijasida kitobni yozib tamomladik. Mualliflik huquqi va suratga bo'lgan mualliflik huquqining himoyasi sabab, kitobda chop eta olmagan vizual elementlar ham oz bo'lmadi. Ammo ushbu kitobni yozishdan ko'zlagan maqsadimizga deyarli erishdik deb hisoblaymiz. Albatta, kamchiliklarni tan olgan holda, bundan keyin imkon qadar o'quvchilarning fikrlarini e'tiborga olib, mazkur kitobimizni takomillashtirib borishga harakat qilamiz.

Ushbu kitobni yaratish davomida «Yuhikaku» nashriyoti tahrir bo'limi xodimlari katta yordam ko'rsatishdi. Aslida, ushbu kitob yozilishining tashabbuskori marketing bo'limi xodimi Aki Itami va hozirdagi Roppo (olti muhim soha qonunlari to'plami) tahrir bo'limi xodimi Hiromi Okayamalardir. Shundan keyin Okayama xonim kitobni nashrga tayyorlash jarayonidagi mas'ullikni qo'lga olib, uning katta qismini tuzishda yordam ko'rsatdi. Nashriyotning Kioto shahar bo'limi xodimi Daisuke Ichimura esa Tokio va Sapporo shaharlarida bo'lib o'tgan mualliflar jamoasi yig'ilishlarida qatnashib, kitobning shu holga kelishiga katta hissa qo'shdi. Nashrga tayyorlashning so'nggi bosqichida mas'ullikni qo'lga olgan Yoriko Fujimoto esa tahriri jarayoni va mualliflik huquqi masalani hal etishda jonbozlik ko'rsatdi. Mazkur kitob yuqoridagi insonlarning tashabbuslari natijasida yuzaga kelgan xazinadir.

2017-yil fevral oyi

Mualliflar jamoasi raisi
Nobuyuki Kato



TARJIMONLARDAN KIRISH SO'ZI

Jahon bozorlariga katta ishtiyoq bilan chiqib borayotgan va qo'shni mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlayotgan O'zbekiston Respublikasi uchun Xalqaro huquq (International Law) katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu fanni chuqurlashtirilgan holda o'qitish va o'rganish zarurati borasida ortiqcha izohga hojat yo'q. Shunday ekan yurtimizda dunyoning eng mashhur Xalqaro huquq kitoblarining tarjima qilinishi yuqoridagi maqsadlarga erishish yo'lida muhim bir vosita bo'lib xizmat qiladi deb hisoblaymiz. Ushbu yo'lda, Yaponiyaning mashhur universitetlari olimlari tomonidan yozilgan «Vizual xalqaro huquq» kitobini o'zbek tiliga tarjima qildik.

Ushbu kitob Xalqaro huquq sohasidagi eng so'nggi dunyo voqealarini o'zida mujassam etadi. Shu bilan birga, ularga nisbatan alohida yondashib, huquq sohasini o'qitishning o'ziga xos usullaridan foydalanadi. Ya'ni, xalqaro huquq sohasini turli grafika, surat va xaritalardan foydalanish orqali o'quvchiga dunyoda sodir bo'layotgan hodisalarni yanada chuqurroq anglab yetishiga yordam beradi.

Hozirda televizor, internet va aqlli telefonlar keng tarqalgan bir paytda, maktab o'quvchilari va universitet talabalarini qanday qilib kitob o'qishga jalb qilish muammosi ham mavjud. Bunday vaziyatda, vizual shakllardan foydalanilgan kitoblarning chop etilishi, shubhasiz, o'quvchilar orasida kitobga bo'lgan muhabbatni uyg'otishga xizmat qiladi degan fikrdamiz.

Tarjima uslubiga oid ba'zi eslatmalar: avvalo, originallikni mukammal ravishda saqlashga urg'u berildi. Ikkinchidan, kitobda ishlatilgan ingliz tilidagi so'zlar aynan shundayligicha saqlab qolindi. Bunda xalqaro huquqda eng ko'p foydalaniladigan ingliz tilini talabalarimiz yanada chuqurroq o'rganishlari niyat qilindi.

Kitob yaponiyalik mualliflar jamoasi tomonidan yozilgan bo'lib, uning mualliflari Yaponiyada yuqori o'rinda turuvchi

Kioto, Osaka, Hokkai Gakuen, Senshu, Tohoku va Kyoritsu ayollar universitetlarining huquq fakultetlari professorlaridir. Kitob Yaponiyadagi huquq yo'nalishida eng mashhur bo'lgan «Yuhikaku» nashriyoti tomonidan chop etilgan. Tarjimonlar jamoasi a'zolarining barchasi Yaponiyaning Nagoya Universitetida o'qish baxtiga muassar bo'lgan huquqshunoslar bo'lib, ular xalqaro huquq sohasining turli yo'nalishlarida izlanish olib boradilar 2020-yilning mart – avgust oylari orasida tarjima ishlari tugatilgan. Umid qilamizki, yurtimiz yoshlari uchun bunday mukammal qo'llanmaning chop etilishi dunyo standartlariga erishish yo'lida yana bir muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tarjimonlar jamoasi:

Alisher Umirdinov,

Nagoya Iqtisodiyot Universiteti professori,

Axadjon Xakimov,

Toshkent davlat yuridik universiteti

«Xalqaro huquq va inson huquqlari» kafedrası

katta o'qituvchisi,

Husain Radjapov,

Toshkent davlat yuridik universiteti

«Investitsiya va Biznes huquqi» kafedrası mudiri.

Authors

Mualliflar:

Nobuyuki Kato

**Hokkaido universiteti
professori**

Chapter 4, 5, 6

Xalqaro huquqni ko'plab insonlar chuqur qiziqib o'qishlari va o'rganishlari uchun ushbu kitobni astoydil tayyorladik. Xalqaro huquq bo'yicha yozilgan bunday adabiyotlar butun dunyoda ham kamdan kam uchraydi deb o'ylayman.

Toshiya Ueki

**Tohoku universiteti
professori**

Chapter 2, 3, 7

Ushbu kitob asosan xalqaro huquqni endi o'rganishni boshlaganlar uchun mo'ljallangan bo'lsa-da, aslida mazmunan anchagina ma'lumotlarga boy. Shuningdek, kamina mas'ul bo'lgan boblarning suratlarini tayyorlashda qizim Erikoning ko'magi katta bo'lganini alohida ta'kidlab o'tishim lozim.

Koichi Morikava

**Senshu universiteti
professori**

Chapter – 1, 13

Xalqaro huquq xalqaro hamjamiyatning o'ziga xos xaritasidir. Har bir davlat nima masalada nizolashayapti, qanday shaklda hamkorlik qilyapti kabi savollarga xalqaro huquqni o'qish orqali javob topishingiz mumkin.

Akira Mayama

**Osaka universiteti
professori**

Chapter 9, 14

Xalqaro shartnomalar bu yozma huquq, odat huquqi esa, yozilmagan huquq va buni tushunish juda oson deb o'ylashingiz mumkin. Lekin nega davlatlar xalqaro huquq normalariga og'ishmasdan amal qilib kelayotganini ushbu kitobni o'qish orqali tushunib yetasiz va hayratlanasiz.

Hironobu Sakai

**Kyoto universiteti
professori**

Introduction, Chapter 12

Bugungi kunda biz yashayotgan jamiyatda xalqaro huquqni har qayerda, xalqaro nizolardan tortib yon atrofimizda ro'y berayotgan jarayonlarda ham uchratish mumkin. Ushbu kitobni o'qish orqali esa, siz buni his qilib ko'rasiz.

Miyako Tatematsu

**Kyoritsu xotin-qizlar
universiteti professori**

Chapter 8, 10, 11

Xalqaro huquqni o'rganib, bugungi kunimizda sodir bo'layotgan xalqaro muammolarga xalqaro huquq prizmasi orqali, albatta, nazar solib ko'ring. Mazkur muammolarga endi boshqacha ko'z bilan qarab boshlashingiz va fikrlashingiz mumkin.

Introduction

Introduction

Xalqaro huquqni o'rganishning ahamiyati

Yoshlarning xalqaro hamjamiyat bilan bog'liqligi

Siz uydan chiqmasangiz ham kompyuter yoki smartfon kabi elektron moslamangiz bo'lsa, Yaponiyada yoki dunyoda biror-bir voqea yoki baxtsiz hodisa sodir bo'lganligini darhol va oson bilib olishingiz mumkin. Agar biror narsa istab qolsangiz, uni onlayn buyurtma qilishingiz va uni uyingizgacha yetkazib berishlari mumkin. Shuningdek, kelajakda internetda ko'rib, yemoqchi yoki ushlab ko'rmoqchi bo'lgan narsangizni internet orqali ta'mini tatib ko'rish yoki hidini hidlab ko'rishingiz mumkin.

Hozirgi kunda barchangizning uyingizda elektr energiyasi, suv va gaz hamda internet tarmog'i kabi standart moslamalar mavjud. Agar siz kompyuterdan foydalanib zarur ishlaringizni amalga oshira olsangiz, kun bo'yi tashqariga chiqmasdan uyda vaqtingizni chog' o'tkazishingiz ham mumkin. Hatto uyda yolg'iz yashab, lekin hamma bilan ijtimoiy tarmoq orqali aloqada bo'lib turish imkoniyatiga egasiz **(0-1)**. Bunday hayot tarzida sizda biror narsaga nisbatan shubha paydo bo'lmaguncha, masalan, mavjud qonunlar amalda sizga va sizning hayotingizga qanday foyda berayotganligini hatto o'ylab ham ko'rmaysiz.

 Global networkning bir a'zosi sifatida



Inson qayerga bormasin, internet orqali bog'lanib, ma'lumotni bir lahzada qo'lga kiritishi va uni tarqatishi ham mumkin.

Hozir Yaponiyada yashayotganingiz haqida nima deya olamiz? Agar siz shu yerda bo'lsangiz, turli xil mahsulotlarni osongina qo'lga kiritishingiz mumkin. Yaxshi narsalarni ham, qiziqarli narsalarni ham. Agar narxi sizga ma'qul bo'lsa, Tokio, Osaka va Kioto shaharlarida «Michelin yulduzli» restoranlar juda ham ko'p. Shuningdek, xorijdagi taniqli orkestr va musiqachilar, opera va musiqiy konsertlar ham atayin sizlar uchun Yaponiyaga kelib xizmat ko'rsatadi. Bundan tashqari, bugungi kunga qadar juda qimmat bo'lib, ko'pchilik sotib ololmagan chet el mahsulotlari ham yaqin atrofdagi supermarketlar va onlayn do'konlarda nisbatan arzon narxlarda sotilmoqda. Boshqa tomondan, chet elda yuz bergan yoqimsiz yoki

Xalqaro huquqni o'rganishning ahamiyati

og'riqli hodisalarga sizning ko'zingiz tushishi yoki qulog'ingizga chalinishi ham mumkin. Fuqarolar urushi davrida yashayotgan uyining yonginasiga tashlangan raketa ovozidan yig'lab chinqirayotgan bolalar yoki yo'l chetida yotgan, jangda qurbon bo'lganlarning suratlarini internet tarmog'ida ko'rish ham o'zingizning ixtiyoringizda.

Ammo, shu yerda biroz bo'lsa-da o'ylab ko'rishingizni istardik. Siz o'zingiz ko'rgan va eshitgan narsalarni aynan Yaponiyada bo'lganingiz uchun ham ko'ra olayotgan yoki qo'lga kiritayotgan bo'lishingiz mumkin. Masalan, Chadda yoki Sudanda nima sodir bo'layotganligi haqidagi (0-2) (agar siz bu davlatlar qayerda joylashganini bilmasangiz, dunyo xaritasidan qarab ko'rishingiz mumkin) ma'lumotlarni sun'iy yo'ldosh va internetga ega, rivojlangan mamlakatlarda yashayotgan siz kabi odamlar osongina qo'lga kiritishi mumkin. Biroq yuqoridagi davlatlar bilan bir xil Afrika qit'asida yashovchi qo'shni davlatlardagi insonlarning hammasi ham siz kabi qulay sharoitlarda yashamaydi. Ehtimol, o'zlarining mamlakatlari fuqarolik urushi ichida bo'lgani uchun ham boshqa davlatda nimalar ro'y berayotganiga qarab o'tirishga vaqti ham bo'lmas. Aksincha, bunday ma'lumotlarni qo'lga kiritayotgan yoki ularni dunyoga yoya olish faqatgina bunday imkoniyatga ega bo'lgan insonlardagina mavjud. Agar biz mana shunday dunyoda yashab turganimizni tafakkur qilmaydigan bo'lsak, o'zimiz va dunyo o'rtasidagi bog'liqlikni va uning ma'nosini ham to'g'ri anglab yetmaymiz.

0-2 Chaddagi qochoqlar lagerida tibbiy yordam ko'rsatilayotgan sudanlik bolakay



Siz o'quvchilar ushbu suratdagi holatga o'zingizdan uzoqdagi dunyoda ro'y berayotgan hodisalar sifatida qaray olasizmi?

(Manba: UNCHR/C. Fohlen)

Muhimi shundaki, har birimiz kundalik hayotimizda dunyo hamjamiyati bilan yuzma-yuz turganimizni doimo sezib turishimiz va bunday holatning umuman tasodif emasligi, bir qancha shartlar bajarilgandagina u yuzaga kelishi mumkinligini anglashimiz kerak.

2 Xalqaro huquqning dunyo hamjamiyatida bajarishi lozim bo'lgan vazifasi

Siz o'zingizni aloqador deb his etadigan dunyoda ham o'ziga xos qoidalar mavjud. Xuddi chet ellardagi kitob do'konlaridan onlayn savdo qilganingizda xalqaro savdoga oid qoidalar tatbiq qilinganidek, boshqa bir sohaga oid huquq normalari ham bizning atrofimizni o'rab turadi va zarur bo'lgan vaziyatlarda tatbiq etiladi. Biroq bunday «huquq normalari»ning mavjudligini, odatda, biz sezmaymiz ham.

Ko'pincha aytiladiki, «huquq normalari» ijtimoiy norma sifatida odamlarning kundalik xatti-harakatlariga ong-siz ravishda ta'sir qiladi. Lekin odamlar o'rtasida qachonki tortishuv chiqib, u yechilishi kerak bo'lgan paytda huquq normalari o'zlarini tashqi olamda namoyon qiladi.

Xalqaro huquq ham dunyo hamjamiyatidagi o'ziga xos «huquq»ning bir turidir. Shu sababli siz ham xalqaro hamjamiyatda xalqaro huquq borligini sezmaydigan uning ko'plab a'zolari bor deb o'ylashingiz mumkin. Agar xalqaro hamjamiyat a'zolari orasidagi munosabatlar silliq yechilib, tortishuv chiqmasa, balki siz haq bo'larsiz?! Ammo katta miqyosdagi muammolar ko'plab yuz beradigan (matbuotda aytilganidek) xalqaro hamjamiyatda, bunday nizolarning mavjudligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shunday ekan, nizolarni keltirib chiqargan xatti-harakatlarga nisbatan qanday xalqaro huquq normalari tatbiq etiladi, muammoga aloqador xalqaro huquq normalariga mazkur nizoni yuzaga keltirgan tomon haqiqatdan ham rioya qilganmi yoki yo'qmi degan savollar yuzaga keladi. Mana shunday bir paytda o'z-o'zidan xalqaro huquq mavjudligini yanada kuchliroq anglay boshlaysiz.

Bundan tashqari, yana shuni ham ta'kidlash kerakki, xalqaro huquqni nafaqat nizolar yuz berayotgan jaryonda, balki xalqaro hamjamiyat a'zolari o'rtasidagi kundalik munosabatlarda ham amalda harakatga kelishini sezishimiz mumkin. Shuningdek, mana shunday kundalik munosabat-



Hozirgi kundagi davlatlararo aloqalar ularning boshliqlari o'rtasidagi uchrashuv asosida amalga oshirib kelinmoqda.

(Manba: Bosh vazir ofisining rasmiy veb-sayti)

larda unga qay darajada ahamiyat qaratilayotganini bilib qo'ysangiz foydadan holi bo'lmaydi. Siyosiy, iqtisodiy, madaniy, til, diniy va boshqa jabhalarda turli xil bo'lgan xalqaro hamjamiyat a'zolari, agar ular boshqa a'zolar bilan, ayniqsa, millatlar bilan muloqot qilishni istasalar (0-3), umumiy til orqali aloqa qilishlari kerak. Shunday ekan, millatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda xalqaro huquqdan umumiy til sifatida uzoq vaqtdan beri uning muhimligini anglagan holda foydalanib kelinmoqda.

Tarixiy misol sifatida, AQSh-Britaniya urushini yakunlab bergan Gent shartnomasi (**kitob boshidagi rangli surat: C-3**)ni olaylik. Ushbu voqea suveren davlatlar o'rtasidagi nizo (urush) oqibatida yetkazilgan zararni minimallashtirish choralaridan biri sifatida xalqaro huquq o'rtaga chiqqan.

Bugungi kunga kelib, xalqaro huquq davlatlar o'rtasida ziddiyatlar yuzaga kelmasligi uchun kundalik muzokarani (diplomatiyani) muammosiz va samarali amalga oshirish vositasi sifatida muhim rol o'ynamoqda. Yaponiya davlati Edo shogunligi davri oxirida AQSh, Buyuk Britaniya va Chor Rossiyasi kabi Yevropadagi kuchli davlatlar bilan do'stlik va tinchlik shartnomalarini tuzdi. Bu orqali u g'arb mamlakatlari asosiy o'ringa qo'yiladigan suveren davlatlar tizimiga kirib oldi va xalqaro huquq bilan aloqaga kirishdi. Albatta, boshida Yaponiya ushbu davlatlar tomonidan noteng shartnomalar tuzishga majburlangan bo'lsa-da, xalqaro hamjamiyatdagi boshqa suveren davlatlar bilan birga yashab qola olishi uchun muhim bir vositani qo'lga kiritdi. Xalqaro huquq deya nomlanmish davlatlarning ushbu umumiy tilidan foydalangan holda, Yaponiya Edo davrining oxirida boshqa suveren davlatlar bilan o'zaro munosabatlarni boshlab, xalqaro hamjamiyat sahna-siga chiqqan oldi.

Masalan, tinchlik va do'stlik shartnomasining muzokarasi uchun Yaponiyaga kelgan rus admirali Putyatining Diana nomli harbiy kemasi (**kitob boshidagi surat: C-1**) Buyuk Ansey zilzilasi paytida zarar ko'radi. Xuddi shu paytda Yevropada Qrim urushi davom etayotgandi va ushbu urushning bir tarafida turgan Rossiya imperiyasining harbiy kemasini Yaponiya portida ta'mirlanishi Yaponiyaning betaraf mamlakat sifatidagi xalqaro huquqiy majburiyatiga zid kelishi xavfi

0-4 Shimoliy Koreyaning yadroviy qurolni sinovdan o'tkazishini tanqid qilgan holda, unga nisbatan BMT Xavfsizlik Kengashida yangi sanksiyalar qo'llanmoqda. (2016-yil, noyabr)



Xalqaro hamjamiyat nomidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti xalqaro shartnomalarga zid xatti-harakatlarga ham javob qaytara oladi. (UN Photo/Manuel Elias)

yuzaga chiqdi. Oxir-oqibat, Diana kemasi Suruga ko'rfaziga tushib qoladi va cho'kib ketadi. Shu sababli, Buyuk Britaniya va boshqa davlatlar tomonidan Yaponiyaning betarafligiga oid majburiyatlari bajarilganligi masalasi shubha ostiga olinmaydi. Shunday bo'lsa-da, Uzoq Sharqdagi davlat sifatida Yaponiya o'sha davrda yuz bergan Qrim urushi bilan xalqaro huquq orqali o'zaro bog'langanini ko'rishimiz mumkin. O'sha paytdagi umumiy til sifatida xalqaro huquq amalda qo'llanganda u nafaqat madaniylashgan davlatlar, balki madaniylashgan davlatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Ammo muammo faqatgina uning qanday mazmunda qo'llanilishida bo'lgan.

Xalqaro hamjamiyatning yagona tili vazifasini bajarayotgan xalqaro huquqning mohiyati va mazmuni-

ni tushunish uchun, avvalo, xalqaro huquqning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixini o'rganish nihoyatda muhimdir. Biz yashayotgan hozirgi davrga yaqinlashgan sari xalqaro huquq ham rivojlanib keldi. Zamonaviy xalqaro huquqda nafaqat davlatlar o'rtasidagi manfaatlar, balki milliy manfaatlar doirasidan tashqaridagi butun yer yuzidagi manfaatlar, ya'ni «xalqaro hamjamiyatning umumiy manfaatlari» tushunchasi oldinga chiqdi. Sizlardan esa ushbu tushunchaning siz bilan qanday aloqadorligi mavjud ekani haqida o'ylab ko'rishingizni so'rab qolamiz (→ **Chapter 1**).

Shunday qilib, suveren davlatlar boshqa davlatlar bilan xalqaro huquqqa asoslanib o'zaro munosabatlarni o'rnatdilar va butun xalqaro hamjamiyat manfaatlarini himoya qiladigan tizimni rivojlantirdilar. Xalqaro hamjamiyat a'zolari huquqqa muvofiq harakat qilishlari lozim. Ushbu zaruriyat, hattoki, mahalliy huquqqa rioya etib harakat qilishga qaraganda ham yuqori ahamiyatga ega deb aytish mumkin. Xalqaro huquq, xalqaro hamjamiyatni boshqarib turish uchun siz o'ylaganingizdan ziyod darajada zarurdir. Shu sababli ham, xalqaro huquqning mazmuni zamon bilan hamnafas shaklda boyib, rivojlanib kelmoqda. Shu bilan birga, insonlar mana shunday tarzda rivojlanib kelayotgan xalqaro huquqdan bahramand bo'lmoqdalar. Bu orqali xalqaro hamjamiyatda «huquq ustuvorligi»ni ta'minlashga ishonch bilan odim tashlamoqdalar.

Xalqaro huquqning bunday shakllanish jarayonining muhimligi uning qoidalari nafaqat ushbu huquq sohasi obyekt bo'lgan davlatlar manfaatlarini tartibga solish, balki butun xalqaro hamjamiyatning tinchligi va ravnaqiga hissa qo'shishni maqsad qilganida ko'rinadi. Xalqaro huquq normalari tatbiq etiladigan subyektlarning o'zi (masalan, davlatlar) xalqaro qoidalarini ishlab chiqishda mazkur qoidalar orqali o'zlarining manfaatlarini (milliy manfaatlar) ro'yobga chiqarishni ko'zlashi tabiiy bir hol. Biroq, qayd etish joizki, butun xalqaro hamjamiyatning foydasi (xalqaro hamjamiyatning umumiy manfaatlari)ni ko'zlovchi va himoya etuvchi huquqiy qoidalar ham xalqaro huquq sifatida shakllanib kelmoqda.

Albatta, xalqaro hamjamiyat a'zolari mazkur ishlab chiqilgan xalqaro huquq normalariga rioya qilishlari uchun nima qilish kerak (ijroning ta'minlanishi) yoki bunday qoidalarga biron-bir a'zo tomonidan rioya etilmasa, boshqa a'zolar qanday chora ko'rishlari mumkin degan savollar mavjud (davlatning javobgarligi). Misol tariqasida, qo'shni mamlakat yadro qurolini ishlab chiqish va yadro qurolini tarqalishining oldini olish bo'yicha xalqaro shartnomada kelishganiga qaramasdan ushbu xalqaro shartnoma qoidalaridan chetga chiqib, yadro qurolini rivojlantirishni boshlasa nima bo'ladi? O'zining xalqaro majburiyatini bajarmaydigan bunday a'zoga nisbatan atrofdagi davlatlar xalqaro huquqqa asoslanib qanday choralar

qo'llashi mumkin (→**Chapter 2**)? Eng muhimi, sizlar xalqaro huquqning mana shu kabi vaziyatlarda bajaradigan rolini bilib olishingizdir.

3 «Xalqaro huquq» suveren davlatlar nuqtayi nazarida xalqaro hamjamiyatdagi huquq sifatida

Xalqaro huquqning paydo bo'lishi bilan tan olinishni boshlagan xalqaro hamjamiyat asosan suveren davlatlardan tashkil topadi degan fikr yuqoridagi xalqaro huquqning mazmuni va xususiyatlarini ko'rib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunda xalqaro huquq xalqaro hamjamiyatning huquqi sifatida muhim vazifa, ya'ni davlatlararo munosabatlarni tartibga solish ishini bajaradi.

Endi esa, xalqaro huquqning tartibga solish obyekti bo'lgan munosabatlarda muhim rol o'ynaydigan suveren davlat qanday tashkil etilishi haqidagi masalani ko'taraylik. Uning tashkil etilishida xalqaro huquq qandaydir ahamiyat kasb etadimi? Agar xalqaro huquq suveren davlatning tashkil etilishiga ta'sir etsa, unda asosan davlatlar tomonidan shakllantirilishi kerak bo'lgan xalqaro huquqning o'zi qayerdan paydo bo'ladi? Go'yo tuxum birinchi bo'lib yaralganmi yoki tovuqmi savoli kabi suveren davlatlar va xalqaro huquq o'rtasidagi munosabatlarda qaysi biri birinchi bo'lib vujudga kelgan degan savol tug'ilishi mumkin. Agar-da xalqaro huquq tomonidan davlatlarning shakllanishiga qo'yiladigan talablar belgilansa va davlatlar ushbu talablarga muvofiq shakllantirilsa,

xalqaro huquq davlatning shakllanishini boshqaradi deb hisoblash mumkin bo'ladi. Biroq xalqaro huquqqa ko'ra davlat sifatida mavjud bo'lishning elementlarini o'zida mujassam etgan ba'zi holatlar (davlatlar) xalqaro hamjamiyat tomonidan davlat sifatida tan olinmaydi. Masalan, sobiq Yugoslaviyaning muxtor viloyati bo'lgan Kosovo 2016-yil dekabrga kelib 110 dan ortiq davlat tomonidan suveren davlat sifatida tan olingan. Yaponiya davlati ham Kosovo bilan diplomatik aloqalarni o'rnatgan (0-5). Boshqa tomondan esa, yana 80 ga yaqin davlat Kosovoni davlat sifatida tan olmaydi. Bular orasida Rossiya va Xitoy kabi yirik davlatlar ham mavjud. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik kengashining ikki doimiy a'zolari tomonidan qarshilik ko'rsatilishi tufayli Kosovoning Birlashgan Millatlar Tashkilotiga yaqin orada a'zo bo'lishiga umid yo'q¹.

Boshqa tomondan, Yaponiya Falastinni davlat sifatida tan olmaydi². Kosovo singari hudud, aholi va ularni boshqaradigan hukumat mavjudligiga qaramay, ushbu farq qayerdan kelib chiqdi? Bu yerda xalqaro huquqning qanday qoidalari rol o'ynamoqda (→**Chapter 3**)?

Bundan tashqari, o'zaro aloqalar kuchayib borayotgan zamonaviy xalqaro hamjamiyatda, davlatlar boshqa davlatlar bilan shartnomalar tuzish

¹ Tarjimonlar izohi: O'zbekiston Kosovoni mustaqil davlat sifatida tan olgani yo'q.

² Tarjimonlar izohi: O'zbekiston Falastinni mustaqil davlat sifatida tan olgan va Toshkentda Falastin elchixonasi mavjud.

075 Yaponiya-Kosova siyosiy rahbarlari uchrashuvi (2012-yil, iyun)



Yaponiya 2008-yil 18-mart kuni Kosovani davlat sifatida tan olib, 2009-yil 25-fevral kunidan boshlab diplomatik aloqalarni yo'lga qo'ygan.

(Manba: Tashqi ishlar vazirligi veb-sayti)

orqali turli xil masalalarda kelishib, o'zlarining manfaatlarini va xalqaro hamjamiyatning umumiy manfaatlarini ta'minlashga harakat qilmoqdalar. Xalqaro shartnomalarga oid xalqaro shartnomalar huquqi deb ataladigan huquq sohasi bunday shartnomalarning qanday imzolanishi va ular qanday huquqiy oqibatni keltirib chiqarishini belgilaydi. Do'stona aloqalarni davom ettirish oxir-oqibat tinchlikka eltadi degan g'oya asosida diplomatik aloqalarni barqaror rivojlantirish va kengaytirish diplomatik munosabatlarning huquqi nomli xalqaro huquqning yana bir alohida sohasining vazifasidir (→ **Chapter 4**).


Davlatlar o'rtasidagi kelishuv sifatida xalqaro shartnomalar huquqiy barqarorlikni talab etadi va bu orqali mavjud vaziyatni mustahkamlashga o'z hissasini qo'shadi. Shuningdek,

aynan mana shu qo'shilgan hissa xalqaro hamjamiyatda tinchlik saqlanishini kafolatlaydi. 1965-yilda Yaponiya va Janubiy Koreya o'rtasidagi munosabatlarni normal holatga keltirgan «Yaponiya-Koreya asosiy munosabatlar to'g'risidagi shartnoma» bilan bir paytda tuzilgan «Yaponiya-Koreya da'volari to'g'risidagi shartnoma»da keskin to'qnashuvdan keyingi kompensatsiya haqidagi har ikki davlatning bir-biriga va o'z fuqarolarining qarshi tarafga bo'lgan da'volarini o'zaro bekor qilishga kelishildi. Ikki tomon hukumatlarining tushunchasiga ko'ra, kelishuv «ko'ngilochar ayollar» masalasini ham hal etib, shu orqali ikki taraf o'rtasidagi aloqalarning barqarorlashuvini ta'minlagan¹. Suveren davlatlar tizimining barqarorligi nuqtayi nazaridan Yaponiya va Koreya o'rtasidagi davlatlararo munosabatlarning barqarorlashuviga ahamiyat qaratilishi tabiiydir. Ammo ushbu kitobda keyinroq so'z yuritiladigan xalqaro huquq himoya qilishi lozim bo'lgan manfaatlar masalasini boshqacha nuqtayi nazardan turib o'ylab ko'rish ham zarurga o'xshaydi.

¹ Tarjimonlar izohi: «Ko'ngilochar ayollar» (comfort woman) – 1937–1945-yillar orasida Yaponiya Imperiyasi armiyasining xorijdagi yurishlarida askarlarning jinsiy ehtiyojlarini qondirish uchun majburiy xizmat qilgan osiyolik ayollar bo'lib, ularning salmoqli qismi Koreya yarim orolining ayollari bo'lgan. Garchi Yaponiya va Koreyaning oldingi hukumatlari 1965-yilgi shartnoma bilan ushbu masala ham to'liq hal etilgan degan qarashni yoqlab kelishgan bo'lsalar-da, Janubiy Koreya aholisining ushbu kelishuvdan qoniqmagani keyingi yillarda ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni keskin yomonlashtirgan omillardan biri hisoblanadi.

Suveren davlatlar haqida gap ketganda, xalqaro huquq ma'lum bir hududning qaysi davlatga tegishli ekanini tartibga soluvchi qoidalarni ham taqdim etishini eslatib o'tishimiz lozim. Yaponiya va Janubiy Koreya davlatlarining har ikkisi ham hududiy da'vogarlik qiluvchi Takeshima oroli (koreys tilidagi nomlanishi «Dokdo») muammosini xalqaro huquqda belgilangan hududiy atributga tegishli qoidalar bilan hal qilish mumkin. Yaponiya va Xitoy davlatlarining ikkisi ham hududiy da'vogarlik qiluvchi Senkaku orollari (Xitoy tilidagi nomlanishi «Dyaoyuydao orollari») masalasida ham xuddi shunday fikrni ilgari surishimiz mumkin. Yaponiya o'zining «noyob hududi» deya da'vo qiladigan Shimoliy hududlar (0-6) haqida nima deyish mumkin? Hududiy tortishuvlar bo'yicha manfaatdor davlatlar tomonidan qabul qilingan ichki qonunlar va ularning ijrosi kabi turli xil amaliyot (milliy amaliyot) bilan birgalikda, hududlarning tegishliligi va chegaralarning belgilanishiga oid shartnomalar ham mavjud. Bunday hududiy nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish uchun biz, avvalo, bu kabi milliy amaliyotlarni va xalqaro hujjatlarni o'rganib chiqishimiz kerak. Keyin tegishli xalqaro huquq normalari asosida qaysi davlat o'sha hududga huquqiy jihatdan egalik qilishini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Bunday quruqlik hududlari bilan bog'liq xalqaro huquqdan farqli ravishda, dengizlarga tegishli xalqaro huquq odatda dengiz huquqi deb atalib, uning qo'llanilish doirasi ham juda



Yaponiya Rossiyaga nisbatan Habomai orollari, Shikotan oroli, Kunashir oroli, Iturup orolini o'zining hududi sifatida da'vo qiladi.

(Manba: Tashqi ishlar vazirligi veb-sayti)


kengdir. Chet el kemalari qirg'oq mam-lakatining hududiy suvlariga kirganda, masalan, Xitoyning baliqchilik kemasi Senkaku orollari suv havzasiga kirib kelganda, qirg'oq davlatining rasmiy kemalari istalgan paytda ularga qarshi choralar ko'rishi mumkinmi? Agar xorijiy kema patrul qayig'iga o'xshagan davlatga qarashli kema bo'lsa-chi? Qo'shimcha tarzda, tabiiy gazga boy maydon mavjudligi aniqlangan va Yaponiya hamda Xitoy o'rtasida yastanib yotgan kontinental shelfda qanday qilib chegaralarni belgilagan ma'qul (0-7)?

Sohil bo'yidagi davlatlar o'z qirg'oqlarining mutlaq iqtisodiy zonasiga kirib kelgan va bu yerdagi marjonlarni xohlagancha olishni istagan xorijiy baliq ovlash kemalarini shunchaki kuzatib turadilar deb o'ylaysizmi? Bunday savollarning barchasiga hududiy suv havzalari va kontinental shelf, mut-

laq iqtisodiy zona kabi xalqaro dengiz huquqi tizimlarini aniq tushunmasdan javob berish murakkab. Shu bilan bir qatorda, tabiiy ilonbaliq va ko'k tuna baliqlarini asrash uchun ham ularni ovlash chegarasini belgilashga oid chora-tadbirlar xalqaro dengiz huquqi tomonidan o'rganiladigan masalalar qatoriga kiradi. Yaponiya geografik jihatdan dengizlar bilan o'ralgan orol davlat bo'lib, insonlar bu yerda dengiz bilan juda yaqin aloqada yashab kelishgan. Dengiz huquqi - dengizlar va okeanlardagi boy resurslardan o'zimiz uchun foydalanish bilan bir qatorda, xalqaro

hamjamiyat uchun va keyingi avlodga yetkaza olish uchun qanday masalalar institutsional holda rivojlanib kelganligini bizga o'rgatadi (→ **Chapter 6**).

Shunday qilib suveren davlatlar boshqa suveren davlatlar bilan chegara chizig'i va okean chegarasini belgilab, o'z vakolatlari doirasi va hududini aniqlab oladi. Asosiy maqsad esa, o'z mamlakatining hududida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishdir. Xalqaro huquq aynan mana shunday suveren davlatlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash, agarda davlatlarning faoliyati belgilangan chegaradan



Xitoy davlati Okinava qirg'oqlariga yaqin kontinental shelfgacha bo'lgan maydonni o'ziga tegishli deya da'vo qilsa-da, hozirda tabiiy resurslar qazib olayotgan joyi ushbu hududning o'rtasidan o'zining tarafida amalga oshirilmoqda.


(Manba: Yaponiya qirg'oqbo'yi agentligi veb-saytidagi xaritaga asoslanib tayyorlangan)

chiqib ketadigan bo'lsa ularni tartibga chaqirib qo'yish vositasi sifatida rivojlanib kelgan deb ayta olamiz.

Biroq bitta mamlakatning yakka o'zi hal eta olmaydigan masalalar ham mavjud. Masalan, pochta va telekommunikatsiyalar, sog'liqni saqlash sohalaridan tortib xavfsizlikni ta'minlashga qadar, o'tmishdan bunday sohalar ko'plab topilgan. Bunday vaziyatlarda aloqador davlatlar o'zaro hamkorlik qilgan holda, ba'zan o'zlarining bir qism vakolatlarini o'tkazish orqali alohida tashkilotlarni tuzadilar (hukumatlararo). Xalqaro tashkilotlarni tuzishdan maqsad esa nafaqat o'z mamlakatining manfaatlarini, balki tegishli davlatlarning umumiy manfaatlarini ham yaxshilashga erishishdir. Bunday xalqaro tashkilotlarni ta'sis etish va ularning faoliyatini tartibga solish ham xalqaro huquqning bir qismi sifatida rivojlanib kelgan (→ **Chapter 7**).

Tabiiyki, Yaponiya ham ko'plab xalqaro tashkilotlarning a'zosi sifatida xalqaro hamkorlikda o'z o'rniga ega. Shuningdek, ushbu tashkilotlarda asosiy a'zo sifatida ham qatnashib kelmoqda. Shu bilan birgalikda, Sharqiy Yaponiya katta zilzilasi va Fukushima Birinchi atom reaktori fojiasi paytida Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (IAEA) tomonidan yordam qabul qilganidek (0-8), hozirda ham xalqaro tashkilotlarning yordamiga ehtiyoj sezadi.

Xususan, 2016-yil dekabr oyi holatiga ko'ra, 193 ta a'zo davlatni birlashtirgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti ham



0-8 Fukushima Birinchi atom reaktori tekshiruvchi Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (IAEA) tekshiruv guruhi (2011-yil, 5-may)

2011-yil 11-mart kuni yuz bergan Fukushima Birinchi atom reaktori fojiasi xalqaro hamjamiyat e'tiborini tortdi.

(Manba: Tokio elektr energiya holding shirkati)

xalqaro tashkilotlarning bir turi bo'lib, uning barqaror rivojlanish maqsadi va vakolatlari globallashuv asriga mos keladi. U ijtimoiy va iqtisodiy masalalardan tortib tinchlik va xavfsizlik masalalariga qadar keng sohalarini qamrab oladi. Siz o'quvchilarning orangizda ba'zilaringiz «Birlashgan Millatlar Tashkiloti hech narsa qila olmaydi» yoki «Oxir-oqibat faqatgina siyosiy motivlar bilan harakat qiladi-ku!» degan salbiy qarashda bo'lishingiz mumkin. Biroq shuni aytish joizki, xalqaro hamjamiyatni tashkil etuvchi a'zolar sifatida davlatlarning bir joyga to'planib, fikr almasha oladigan xalqaro tashkilot sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotidan boshqa bunday tuzilma mavjud emasligi ham bor haqiqatdir.

10:30 2015-yili «Yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risida»gi shartnoma (NPT: Nuclear Nonproliferation Treaty)ni qayta ko'rib chiqish majlisida Tashqi ishlar vaziri janob Kishida nutq so'zlayapti



Yaponiya, o'zining xavfsizligini o'ylagan holda, NPT tizimining davom ettirilishini da'vo qiladi. (Manba: Tashqi ishlar vazirligi veb-sayti)

4 Jismoniy shaxslar ham xalqaro hamjamiyat a'zosi bo'lishlari mumkin

Shunday qilib ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lgan siz aziz o'quvchilar uchun endilikda xalqaro hamjamiyat suveren davlatlardan tashkil topgan jamiyat ekanini bilish murakkab emas. Shuningdek, u millatlar o'rtasida muhim rol o'ynashini juda yaxshi anglaysiz. Siz uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin bo'lgan masala – bu siz ega bo'lgan ma'lumotlar soyasida yashiringan, ammo sizning o'zingizga juda ham yaqin turgan xalqaro huquqning mavjudligini anglay olishingiz va uni o'zingizga yo'naltira olishingizdadir.

Aslida, inson huquqlari masalasi xalqaro hamjamiyatda huquqning o'rnini o'zimiz uchun juda ham muhim deb bilganimizdek ahamiyatga ega. Bu shuni anglatadiki, siz xalqaro huquqning borligini anglash orqali xalqaro hamjamiyat a'zolaridan biriga aylanasiz. Siz Yaponiyada bo'lsangiz ham turli-tuman tarmoqlar orqali dunyo bilan bog'lanmoqdasiz va bu bilan xalqaro hamjamiyatning bir a'zosi hisoblanasiz. Chunki odatda insonlar payqamaydigan «xalqaro hamjamiyat» xalqaro huquq orqali sizning ko'z oldingizda gavdalanadi. Bunday sezgi nafaqat xalqaro huquqning yakka shaxslarga huquq va burchlarni taqdim etgan paytida, balki mahalliy huquq tizimida yakka shaxslarga berilgan huquq va burchlarga xalqaro huquq o'z ta'sirini o'tkazgan paytlarda ham yuzaga chiqadi. Inson huquqlari

Albatta, xalqaro tashkilotlar va konferensiyalarda qoidalar hamda normativ hujjatlarni shakllantirish, qarorlarni qabul qilish, ularni amalga oshirishning siyosiy jarayonlardan o'tib borishi haqiqatga yaqin. Shunday bo'lsa-da, bunday jarayonlarni boshqarish ham xalqaro huquqning vazifasidir. Yadroviy qurolsizlanish (0-9) va atrof-muhit muammolarini bartaraf etish choralari mukammal o'rganilsa, ba'zan xalqaro huquq bilan xalqaro siyosat va diplomatiya o'rtasidagi keskin holatlarga ham duch kelamiz. Ba'zan esa yelkama-yelka turib xalqaro hamjamiyat va uning a'zolarini harakatga keltirayotganlariga ham guvoh bo'lishimiz mumkin.

0-10

Ruzvelt xonim Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini ko'zdan kechirmoqda (1949-yil, noyabr)




Inson huquqlari asosan Ikkinchi jahon urishidan keyingina xalqaro hujjatlar orqali himoya qilinadigan bo'ldi.

(Manba: UN Photo)

sohasi xalqaro hamjamiyatdagi jismoniy shaxslar maqomiga oid masalalarni bizga taqdim etadi (**0-10**) (→**Chapter 8**). Masalan, so'z erkinligini olaylik. Ushbu erkinlik Yaponiya Konstitutsiyasiga binoan insonning asosiy huquq va erkinligi sifatida kafolatlangan. Biroq so'z erkinligi deya irqchilikni targ'ib qiluvchi bayonotlar va harakatlarni himoyalaymaydi. So'nggi sud ishlariga nazar tashlasak, Yaponiyadagi koreys maktabida bir o'quvchi tomonidan Yaponiyada joylashib, shu yerda yashab qolgan koreys millatiga mansub shaxslarni haqoratlovchi harakatlarni amalga oshirilgan ish ko'rib chiqildi. Yakunda, o'sha shaxs va tashkilotga nisbatan hukm o'qildi. Ushbu ishda irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi Xalqaro konvensiyadagi xalqaro huquq normalari ichki huquqni talqin etishda o'z aksini

0-11

Nafrat qo'zg'atuvchi so'zlarga (hate speech) oid qonun loyihasi Yaponiya parlamenti yuqori palatasi tasdig'idan o'tdi (2016-yil, may)



So'z erkinligining ham ma'lum chegaralari bor.

(Manba: Jiji)

topgan. Mana shunday tarzda so'z erkinligiga ma'lum darajada cheklovlar o'rnatilmoqda. Boshqacha qilib aytganda, ichki qonunlar yo'li bilan bo'lsa-da, irqiy kamsitishni cheklovchi xalqaro huquq qoidasi insonlarning fundamental huquqlariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, irqiy kamsitilishga uchrashi mumkin bo'lgan insonlarni bilvosita bo'lsa-da kamsitilishlardan himoya qilib kelmoqda (**0-11**).

Xalqaro huquq bir tomondan shaxslarning inson huquqlarini xalqaro miqyosda kafolatlaydigan tizimni taqdim etadi. Boshqa tomondan esa, ba'zi xalqaro huquq normalarini buzgan shaxslarni jazoga tortish tizimini ham barpo etmoqda. Qadimgi davrlarda, jinoiy qilmishni sodir etgan gumon qilinuvchi mamlakat tashqarisiga qochib ketganda, u qochib ketgan mamlakatdan gumondorni topshirishni iltimos qilingan voqealar ham yuz bergan. Bunday paytlarda, har bir davlat sodir etilgan jinoyat va gumonlanuvchi shaxsga nisbatan qanday choralar ko'rish lozim degan masala yuzaga kelgan. Boshqacha so'z bilan aytganda, davlatlararo xalqaro hamkorlik asosida jinoyatchilarni ekstraditsiya qilish tizimi shakllantirib kelingan.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda urush jinoyati va ommaviy qirg'in (genotsid) jinoyati, insoniyatga qarshi jinoyatlar kabi ma'lum bir xalqaro jinoyatlar xalqaro huquqiy normalarda o'z aksini topdi. Ushbu jinoyatlarga aloqador davlatlarning mahalliy sudlari yoki Xalqaro jinoyat sudi (ICC) kabi bunday jinoyatlarni jazolash maqsadida xalqaro shartnomalarga asosan tashkil qilingan xalqaro sudlar orqali jismoniy shaxslarni jazolash holatlari ham ko'payib bormoqda. Sudan davlatining prezidenti Bashir kabi davlat boshlig'i ekanligiga qaramasdan xalqaro jinoyatlarni sodir etgan jismoniy shaxslarga nisbatan Xalqaro jinoyat sudida da'vo qo'zg'atilishi mumkin (0-12).

10-12 Sudan prezidenti Omar al-Bashirni Xalqaro jinoyat sudi (ICC) tomonidan qo'lga olish orderi chiqarilgan (2019-yil, 22-fevral)



Hukumatning yuqori darajadagi vakili bo'lsa ham xalqaro huquqqa xilof harakati tufayli jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

(Manba: Reuters/Afloimages)

Yaponiyada turib Afrikaning Runda davlatida yuz bergan ommaviy qirg'in harakati haqida xabar topsangiz, bunday harakatni qoralashingiz tabiiy bir holat. Mana shunday paytda sizlar ommaviy qirg'in harakatiga nisbatan jazo qo'llashni talab etuvchi xalqaro hamjamiyat bilan bog'liqlikda bo'lasiz. Xalqaro hamjamiyatning bunday talabi ma'lum bir millat va irqqa mansub guruhni zo'ravonlik bilan yo'q qilish butun xalqaro hamjamiyatning huquq bilan himoya qilinadigan manfaatlariga zid ekanini tan olishini anglatadi. Natijada, xalqaro huquq to'g'ridan to'g'ri, yoki bilvosita mahalliy huquq orqali jismoniy shaxslarning jinoiy javobgarligini talab qila boshlaydi (→ **Chapter 9**).

Siz iqtisodiy sohaga nazar tashlasangiz ham o'zingizning xalqaro hamjamiyatning bir a'zosi ekanligingizga

amin bo'lasiz (→**Chapter 10**). Agar siz Yaponiyada shaxsiy kompyuter yoki smartfondan foydalansangiz, ularni harakatga keltiradigan elektr energiyasi Yaponiyada ishlab chiqarilishini bilasiz. Biroq resurslari kam bo'lgan Yaponiyada bunday energiyani ishlab chiqaradigan manbalarning aksariyati boshqa mamlakatlardan import qilinishi mumkin. Nafaqat elektr energiyasi, balki aqlli telefonlar uchun zarur bo'lgan noyob rudalar ham import yordamida olib kelinadi. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, Yaponiya va mahalliy aholi uchun xalqaro savdo o'ta muhim ekanligini angladigiz. Ammo, masalan, yuqoridagi kabi noyob metallarni xorijga eksport qiluvchi davlat mazkur metallarni aynan Yaponiyaga eksport qilmayman desa nima bo'ladi? Bunday vaziyatning oldini olishda va xalqaro savdoning erkin hamda barqaror amalga oshishida xalqaro huquq qanday rol o'ynaydi?

Bundan tashqari, G'arbiy Yevropa mamlakatlarining sobiq mustamlakalari yangi davlatlar sifatida siyosiy mustaqillikka erishgan bo'lsalar-da, ularning iqtisodiy rivojlanishi oq-sayotganligi ayni haqiqatdir. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi qashshoqlik muammosi ular bilan global bozor iqtisodiyoti orqali bog'langan rivojlangan davlatlar uchun ham ko'z yumib bo'lmaydigan masaladir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda, masalan, xorijiy investitsiyalarni himoya qiladigan tizim kabi ushbu davlatlarning iqtisodiy rivojini tezlatishda kerakli bo'lgan xalqaro tizim qay tarzda shakllanib bormoqda?

0-13 «Cool-biz» sharoitidagi hayot tarzi



Global ekologik muammolar kundalik hayotimiz bilan chambarchas bog'liqdir.

(Manba: Vazirlar Kengashi hukumat xabarlati onlayn)

Bundan tashqari, agar biron-bir mamlakat iqtisodiy rivojlanish jarayonida ifloslantiruvchi moddalar va global isishga sabab bo'luvchi gazlarni chiqarsa, bu nafaqat ushbu mamlakatga, balki qo'shni mamlakatlarga va hatto butun dunyo atrof-muhitiga xavf tug'dirishi mumkin. Bunday tabiat bilan bog'liq sohalarga nisbatan xalqaro huquq qanday choralarni ko'rmoqda (→**Chapter 11**)? Yaponiyada yoz oylarida «cool-biz»¹ tavsiya etiladi va insonlarga takror va takror: «Global isishning oldini olish uchun xona haroratini 28 darajaga qo'ying», deyishadi. Shubhasiz, ushbu muammolarning barchasi sizning kundalik hayotingiz bilan bevosita bog'liqdir (0-13).

¹ Cool-biz Yaponiyada 2005-yilda joriy etilgan bo'lib, unga ko'ra yoz yaqinlashishi bilan barcha korxonalar va tashkilotlar, ta'lim muassasalari kabilarda mavsumga mos yengil va qulay kiyimlarga o'tiladi. Bu davrda hech kimdan (ba'zi tashkilotlar bundan mustasno) qat'iy belgilangan formada kelish talab etilmaydi.

5 Xalqaro huquq talab qilayotgan xalqaro hamjamiyatdagi «tinchlik»dan maqsad nima?

0-14 AQShda yuz bergan 11-sentyabr voqealaridan keyin Afg'onistondagi AQSh dengiz qo'shinlari tomonidan Tolibon kuchlariga qarshi boshlangan harbiy amaliyot (2009-yil, iyul)



Terrorizmni bahona qilgan holda boshqa mamlakatlarga hujum uyushtirishni xalqaro huquqqa muvofiq deb hisoblaysizmi?
(Manba: AP/Afloimages)

Sizlar «tinchlik» so'zini eshitganingizda xayolingizga nima keladi? Aksariyat insonlar urush mavjud bo'lmagan holat deyishadi. Shunday emasmi? Shubhasiz, «tinchlik» bu – qurolli mojarolar mavjud bo'lmagan holat ekanligiga shak-shubha yo'q va bu ma'nodagi «tinchlik» Yaponiyada yetarlicha ta'minlangan. Biroq qurolli to'qnashuvlar dunyoning turli joylarida yuz bermoqda. Shuningdek, jinoyatlar, baxtsiz hodisalar va terrorizm yuz berayotgan «tinch» bo'lmagan davlatlar balki «tinch» davlatlardan ham ko'proq bo'lishi mumkin (0-14). Bundan tashqari, agar biz «tinchlik» so'ziga insonlar xavfsiz yashashi mumkin bo'lgan vaziyat sifatida keng ma'noda qaraydigan bo'lsak, unda nafaqat qurolli to'qnashuv, balki fuqarolik urushi va terrorizm kabi harbiy harakatlarni, inson huquqlari buzilishi va atrof-muhitning ifloslanishini, kambag'allik kabi iqtisodiy-ijtimoiy holatlarni ham «tinchlik» mavjud bo'lmagan vaziyat sifatida baholab qo'yishimiz mumkin. Biroq ushbu kitobda «tinchlik» deganda asosan qurolli to'qnashuvlar mavjud bo'lmagan holatlar nazarda tutiladi. Bunday «tinchlik»ni asrash uchun xalqaro huquq qanday ahamiyat kasb etayotganini ko'rib chiqamiz.

«Tinchlik»ni yuqorida eslatib o'tganimizdek tushunadigan bo'lsak, xalqaro hamjamiyatdagi davlatlar o'rtasidagi mojarolarni qurolli kuch

bilan emas, balki noharbiy usullar bilan hal etish juda muhimdir. Qurolli to'qnashuvlar insonlarning hayotiga zomin bo'lib, ularning mol-mulklari vayron bo'lishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun axloqiy nuqtayi nazardan qurolli to'qnashuvlar orqali muammolarni yechish usulidan qochish lozim. Bundan tashqari, qurolli mojarolar unda qatnashayotgan mamlakatlar uchun katta xarajatlarni anglatadi. Masalan, urush xarajatlari va askarlarni urushga jalb etish uchun sarflanadigan o'ta katta moddiy xarajatlar bilan solishtirsak, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish anchagina qulayroq ekanini tushunib yetamiz. Xalqaro hamjamiyat uchun ham urushsiz dunyo bu – ideal dunyodir. Bunday ideal olamga yaqinlashish yo'lida nizolarni tinch yo'l bilan

hal etish uchun xalqaro huquq qanday rol o'ynaydi (→**Chapter 12**)?

Xalqaro nizolarning orasida ham turlicha nizolar mavjud. Misol uchun, yapon «Shyochu» spirtli ichimligi va Yevropaning «Vodka» hamda «Djin» ichimliklari GATT (Ta'riflar va savdo to'g'risidagi bosh kelishuv)ning 3-moddasi 2-bandida aytib o'tilganidek, «bir xil turdagi mahsulot»mi yoki unday emasmi degan masala ko'tarilgan. Bunda yuqoridagi bosh kelishuv moddasining sharhi va ijro etilishi yuzasidan bir qancha tortishuvlar kelib chiqqan. Bundan tashqari, 1980-yillarda Yaponiya va AQSh o'rtasida avtomobillar, yarimo'tkazgichlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorini ochish kabi iqtisodiy nizolar ham kelib chiqqan. Gaz konlariga ega bo'lgan kontinental shelfga oid nizolar, janubiy ko'k tuna va kitlarni ovlash hamda himoya qilish muammolari ham tinch yo'l bilan hal qilinishi kerak (**kitob boshidagi rangli surat: C-18**). Xalqaro huquq bunday nizolarning tabiati va turiga mos keladigan qoidalar hamda nizolarni hal qilish tizimini ta'minlay oladigan tarzda rivojlanib keldi. Shu bilan birga, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish qoidalari ham anchagina rivojlangan. Shunga qaramasdan, nizolashuvchi tomonlar muammoni qay darajada vijdonan va tinch yo'l bilan hal qilishga tayyor ekanliklari nizolarni tinch yo'l bilan hal etishda katta ahamiyatga ega ekanini aytishning hojati bo'lmasa kerak.

Albatta, har birimiz o'z hayotimiz va bizning atrofimizdagi muhit «tinch» bo'lishini juda ham xohlaymiz.

«Tinchlik»da yashashingiz uchun esa siz yashayotgan mamlakat yoki mintaqada «tinchlik» hukm surishi kerak. Bunga nafaqat mamlakat yoki mintaqaning ichki barqarorligini ta'minlash, balki mamlakat tashqarisidan hujumga uchramaslik yoki hujum uyushtirilgan taqdirda esa tegishli choralarni amalga oshirish va zudlik bilan «xavfsizlik»ni ta'minlash orqali erishiladi. Shuning uchun «tinchlik» har doim «xavfsizlik» bilan chambarchas bog'liq masala hisoblanadi (**0-15**).

Sizlar millatlar o'rtasida «xavfsizlik»ni ta'minlash uchun mamlakatlardan bir-birlariga kuch ishlatmaslik to'g'risida va'da berishlari kifoya qiladi deb o'ylashingiz mumkin. Ammo bunday kelishuv mavjud bo'lmasa davlatlar o'z harbiy kuchlaridan bimalol foydalana oladilarmi? Aslida, xalqaro hamjamiyat tarixiga nazar solsak, ko'plab qurolli to'qnashuvlar va urushlar ro'y bergan va hanuzgacha bunday holatlar turli joylarda sodir bo'lmoqda. Buning sababi sifatida siyosiy yoki iqtisodiy faktorlar keltirilishi mumkin.

Xo'sh, Xalqaro huquq nuqtayi nazaridan, qurolli kuchlardan foydalanish mumkin bo'lsa, unda qanday shartlar bajarilishi lozim? Masalan, agar qo'shni davlatdan raketa uchib kelsa, xalqaro huquq qoidalari muvofiq raketa yo'llangan davlat uni otgan davlatga qarshi qanday choralarini qo'llashi mumkin? Boshqa bir misol, xuddi bir shaxs o'zining yaqin do'stini boshqa shaxs bilan bo'lgan mojaroda qutqarishga shoshilganidek, ittifoqdosh davlatlardan biri boshqa bir

0-15

Tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash to'g'risidagi qonunni ko'rib chiqayotgan Yaponiya parlamentining Yuqori (Maslahatchilar) palatasi (2015-yil, iyul)



(Manba: Maslahatchilar palatasi kotibiyati tomonidan taqdim etilgan)

uchinchi davlatning hujumiga uchrasa, ikkinchi ittifoqdosh davlat harbiy kuch bilan unga yordamga borishi xalqaro hamjamiyatda tan olinadimi? Yana boshqa bir misol, bugungi kunda bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan global jamiyatda, hatto uzoq mamlakatlarda yuz bergan fuqarolik urushi ham bizning mamlakatimizga ta'sir qilishi mumkin. Tabiiy boyliklarining deyarli barchasini import qiladigan Yaponiya uchun, tabiiy zaxiralarga ega yoki ushbu tabiiy zaxiralarni tashish yo'lida joylashgan mamlakatlarda urush yuzaga kelsa, ko'z ochib yumguncha Yaponiyadagi insonlarning osoyishta hayotlariga putur yetishi mumkin. Xalqaro hamjamiyat boshqa mamlakatlarda «tinchlik»ka tahdid soluvchi xatti-harakatlarga qanday chora-tadbirlar tayyorlagan (0-16) (→Chapter 16)?

Siz mojaroni tinch yo'l bilan hal qilishga qanchalik harakat qilsangiz ham,

0-15

Janubiy Sudanda BMTning tinchlik koprusi tarkibida tinchlikni saqlash faoliyatida (PKO: Peacekeeping Operation) qatnashayotgan Yaponiya mudofaa qo'shinlari (2015-yil)



BMTning PKOsida har bir harbiy bo'linmadan turlicha vazifalarni bajarish talab etiladi.

(Manba: Mudofaa vazirligi veb-sayti)

baxtsiz hodisa tufayli qurolli to'qnashuv yuzaga kelib chiqsa, shubhasiz «tinchlik» qurbon qilinadi. Biroq bunday sharoitda ham kuch ishlatish zarur bo'lganida

yetkazilgan zararni minimallashtirishga qaratilgan harakatni davom ettirish kerak. Urush ishtirokchisi bo'lmagan odamlarga o'q uzish, harbiy jihozlarsiz binolarni, ayniqsa kasallar davolanadigan shifoxonalarni o'qqa tutish kabi harakatlar, sizningcha, xalqaro huquqda tan olinadimi? Kuch ishlatish o'sha davlat manfaatiga xizmat qilsa ham, insonlar hayoti va mol-mulkini qurbon qilish mumkinmi? Agar bunga ruxsat beriladigan bo'lsa, unda qay darajada? Portlovchi bombalar bilan hamma joyni yoqib-yondirish yoki kimyoviy qurollar bilan o'simlik dunyosini yo'q qilib yuborib, mahalliy aholi hayotiga ulkan zarar yetkazilganini kuzatib, bunday qurollarning mavjudligi va ulardan foydalanish usullariga nisbatan sizda gumon paydo bo'lishi tabiiy, albatta.

Xalqaro hamjamiyatda hatto urushish usullari haqidagi qoidalar ham mavjud. Xalqaro huquq qurolli mojarolar paytida ham zararni minimallashtirishni talab qiladi. Albatta, atom bombasi kabi yadroviy qurollar ishlatilsa zarar juda katta bo'lishini tasavvur qilish mumkin (0-17) (→**kitob boshidagi surat: C-17**). Shuning uchun davlatlar o'rtasida bunday ommaviy qirg'in qurollarini kamaytirishga harakat qilish kerak. Xalqaro huquq esa aynan shunday qurolsizlanish va qurollanishni nazorat etish sohasida ham muhim rol o'ynashiga umid qilinmoqda. Qurollanishni nazorat qilishga bo'lgan harakatlar va qurolsizlanish natijalari davlatlar o'rtasida tez-tez yuzaga ke-

0-17 Atom bombasi tushganidan biroz keyingi Hiroshima shahri (1954-yil)



Yadroviy qurollar mavjud hozirgi jamiyatda biz qanday yashashimiz lozim?

(Manba: Granger/PPS xabarleri)

ladigan nizolarni susaytirib, o'zaro ishonchni kuchaytiradi. Natijada, biron-bir mojaro kelib chiqsa ham uni tinch yo'l bilan hal etish imkoniyati oshadi (→**Chapter 14**).

Shunday qilib xalqaro huquq sohasi yuqorida ko'rib o'tganimizdek, siyosiy nizolar, qurolli mojarolarga aralashuvchi turli sohalar, shuningdek, nizolarning oldini olishdan tortib ularning kelib chiqishi va hal etilishiga qadar bo'lgan turli xil bosqichlarda xalqaro hamjamiyatda «tinchlik»ni qaror toptirish uchun juda katta ko'lamdagi vazifalarni bajarayotganini anglash qiyin emas. Butun dunyo bilan aloqadorlikda bo'lib turgan siz aziz o'quvchilar ham xalqaro hamjamiyatning a'zosi sifatida xalqaro huquq bajarayotgan vazifalarni va uning ahamiyatini, albatta, his etasiz deb o'ylaymiz. Keling endi, keyingi boblarda xalqaro huquqning bajarayotgan vazifalarini batafsil ko'rib chiqaylik.

Chapter 1

Xalqaro hamjamiyat qoidalari – Xalqaro huquqning vujudga kelishi

Jamiyat bor joyda huquq ham mavjud

Insoniyat tarixida mustaqil siyosiy birliklar o'zaro aloqaga kirishganda va hamkorlik qilganda ular o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solish uchun qandaydir bir tartibdagi qoidalar zarur bo'ladi. Xalqaro hamjamiyat amaliyotida, xalqaro shartnomalarning majburlov kuchiga bo'lgan ishonch, o'zga qabiladan bo'lgan xabarchiga ziyon yetkazilishiga nisbatan diniy qo'rquv, sayohatchilarga nisbatan alohida munosabatda bo'lish, tinchlik to'g'risidagi deklaratsiyani e'lon qilish bilan urushni tugatish kabi ko'plab odatlar qabul qilingan. Shu ma'noda qaysi zamon va qanday millatda bo'lsin hech bir istisnosiz Xalqaro huquqning bir qismi rivojlanish jarayonida bo'lganini kuzatish mumkin.

Shunday qilib dastlabki mustaqil siyosiy birliklar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi jamiyat qoidalari Qadimgi Mesopotamiya, Misr, Hindiston, Xitoy kabi dunyoning sivilizatsiya o'choqlarida mavjud bo'lgan deyiladi. Masalan, miloddan avvalgi XXV asrda Mesopotamiyadagi Lagash shahar-davlati va qo'shni Umma mamlakati o'rtasida chegaralarni belgilovchi xalqaro shartnoma yozib qoldirilgan. Ushbu xalqaro shartnoma qoidalari «Yirtqichlar yodgorligi»da (1-1) o'z



XIX asrning ikkinchi yarmida hozirgi Iroq hududida o'tkazilgan qazilma ishlarida oltita yuza topilgan. Avvaldan nima ekani noma'lum bo'lgan bitta yuza shu oltita topilgan yuza bilan birlashtirilishi natijasida tosh yodgorlikda yirtqich qushlarning dushman qo'shinining halok bo'lgan askarlari suyaklarini yeyotganligi tasvirlangan. Shu sababli, uni «yirtqichlar yodgorligi» deb atashadi. Bunda Lagash hukmdori Ennatumning Umma bilan urushda g'alaba qozongani sharafiga, ikki davlat chegarasida o'rnatilgan deyiladi. Ushbu yodgorlik bugungi kunda Luvr muzeyida saqlanmoqda.

(Manba: Album/Afloimages)

aksini topgani va bugungi kungacha saqlanib qolgani haqiqatdan ham ular mavjud bo'lganidan darak beradi.

Bundan tashqari, bu davrdagi siyosiy birliklar o'rtasidagi qoidalar asosan diniy qoidalar bo'lgan (Lagash va Umma o'rtasida tuzilgan xalqaro shartnoma ham aslida ular o'rtasidagi

yagona dinning ma'budi Shumerga berilgan ahdni o'zida aks ettiradi). Ya'ni alohida holatlar bo'yicha maxsus qoidalarni o'zida qisman aks ettirgan, xolos. Qisqa qilib aytganda, umumiy tarzda yagona huquqiy tartibotni shakllantirishdan ancha yiroq bo'lgan.

2 Yangi davr xalqaro hamjamiyatining vujudga kelishi va yangi davr xalqaro huquqi

Bugungi kunda biz biladigan «Xalqaro huquq»qa bevosita asos deb hisoblanadigan huquq sohasi XVI asrdan XVIII asrgacha Yevropa hududida tug'ilib, so'ngra XVIII asrdan XIX asrgacha dunyo miqyosida shakllangan. Ushbu huquq sohasi **Yangi davr xalqaro huquqi deb ataladi.**

O'rta asrlar Yevropasida Xristian dunyosini birlashtirish g'oyasi ilgari surilgan. Shu sababli Rim papasini eng yuqori o'ringa qo'yuvchi Xristian cherkovi Yevropa ma'naviy hayotini boshqarar edi. Boshqa tomondan dunyoviy hayotda ham Xristian dunyosini birlashtirishni harbiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsad qilingan edi. Ushbu maqsadni amalga oshirish yo'lida o'zini qadimgi Rim imperiyasining davomchisi deb hisoblovchi **Muqaddas Rim imperiyasi** tuzilgan edi. Mazkur imperiya feodal yer egalari bilan hokimiyat vakolatlarini bo'lishib olgan edi.

Lekin XVI asrga kelib, bir tomondan **diniy revolyutsiyalar natijasida** Rim papasining ma'naviy hayotdagi hokimiyati kuchsizlandi. Boshqa tomondan esa savdning rivojlanishi avval-

lari kichik joydagi iqtisodiyotga egallik qilgan feodal yer egalariidan ko'ra katta iqtisodiy hududni boshqaruvchi va yagona hokimiyat asosida birlashtiradigan kuchli monarx zarur ekanini ko'rsatib qo'ydi. Buning natijasida, **hududni** (→**Chapter 5**) asos qilib olib, Xristian dinining universal boshqaruvini rad etuvchi, ya'ni o'zidan yuqori turuvchi hokimiyatni tan olmaydigan **mustaqil va teng bo'lgan** siyosiy birliklar yuzaga kela boshladi. Natijada feodal yer egalariining vakolatlari olib qo'yildi, hamda markazlashgan hokimiyatga ega bo'lgan davlat qurishni maqsad qiluvchi **yangi davr suveren davlatlari (sovereign state)** dunyoga keldi.

Bu kabi mustaqil va teng bo'lgan suveren davlatlar tomonidan vujudga keltirilgan hamjamiyat, ya'ni **yangi davr xalqaro hamjamiyatining** tim-soli sifatida keltiriladigan misol **30 yillik urushni** nihoyasiga yetkazgan 1648-yildagi **Vestfaliya sulhidir (1-2).**

30 yillik urush 1618-yilda eski din (katolik) vakillari bo'lgan davlatlar va yangi din (protestant) vakillari o'rtasida yuzaga kelgan urush bo'lib, uzoq vaqt davom etgan. Natijada jang maydoniga aylangan Germaniya juda ham ko'p qurbonlar bergan. Urushning tinchlik sulhi sifatida tashkil etilgan Vestfaliya sulhi yig'ilishida Yevropaning ko'plab davlatlari vakillari qatnashib, Niderlandiya va Shveysariyaning Muqaddas Rim imperiyasidan ajralib chiqqani va mustaqilligi e'lon qilingan. Shuningdek, yangi din vakillari bo'lgan davlatlarning xalqaro maydondagi o'rni

11-2 Vestfaliya sulhining tuzilishi (1648-yil)



Vestfaliya sulhi 30 yillik urushga yakun yasagan tinchlik bitimi hisoblanadi. Ushbu sulh Muqaddas Rim imperiyasi va Shvetsiya qirolligi o'rtasidagi Osnabryuk shartnomasi, Muqaddas Rim imperiyasi va Fransiya qirolligi o'rtasidagi Myunster shartnomalaridan tashkil topgan.

Suratda Jerard Terbork tomonidan Myunster shartnomasi imzolanayotgan payt aks ettirilgan.

(Manba: Album/PPS xabarlari)

mavjud bo'lgan hokimiyat tizimining o'rniga yangi hokimiyat tizimi paydo bo'lmaguncha hamma uchun umumiy bo'lgan qoidalar mavjud bo'lmagan tartibotsiz holat qaror topishini ham anglatardi. Bunday holatdan chiqib ketish uchun davlatlar o'rtasidagi nizolarni oqilona hal etadigan qoidalar tizimi, ya'ni Xalqaro huquqqa zarurat tug'ildi.

Mana shunday yangi davr xalqaro huquqining vujudga kelish davrida davlatlarning amaldagi istaklarini qondirish bilan birgalikda, oqilona va tizimli qoidalarni ishlab chiqish zarur bo'lgan. Mana shu zaruriyatni iddao qilgan xalqaro huquq sohasi olimlarining o'rni mazkur fanning rivojlanishida haqiqatdan ham juda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

3 Yangi davr xalqaro huquqining asosini yaratgan olimlar

(1) Tabiiy huquq nazariyasi

rasmiy ravishda tan olingan (Mazkur Muqaddas Rim imperiyasi 1806-yilda Napoleonning hujumi natijasida parchalanib ketguncha mavjud bo'lgan). Shunday qilib Vestfaliya sulhi Rim imperiyasi va Muqaddas Rim imperiyasining qadimdan o'rta asrlargacha davom etgan hokimiyatiga chek qo'ydi. Shu bilan bir qatorda, undan ajralib chiqqan suveren davlatlardan tashkil topgan yangi davr xalqaro hamjamiyati yuzaga kelganligini bitim darajasida tasdiqlagan sulhga aylandi.

XVI–XVII asrlarda Xalqaro huquqning shakllanish davridan XVIII asrgacha bo'lgan davr «Xalqaro huquqning epik davri» deb atalib, Xalqaro huquqning mashhur olimlarini yetishtirib chiqardi. Bu davrda hozirgidek fanlar yuqori darajada ixtisoslashmagan bo'lib, uni o'rganayotganlar ham aynan ushbu fanni o'z mutaxassisligi sifatida o'rganmagan. Ular faqatgina Xalqaro huquqni emas, balki Umumiy huquq, Siyosatshunoslik, Dinshunoslik, Falsafa va tabiiy fanlarga ham umumiy tarzda o'rgangan mutafakkirlar edi.

Natijada, XVII asrda Muqaddas Rim imperiyasidan ajralib chiqqan va suveren davlatlardan tashkil topgan hamjamiyat vujudga keldi. Biroq

Bunday olimlar orasida niderlandiyalik Hugo Grotius (1583-1645) (1-3) «Xalqaro huquqning otasi» deb ataladi. U Yangi davr xalqaro huquqining asosini yaratgan olim sifatida ham mashhur.

Hugo Grotius o'sha davrdagi 30 yillik urushda bevosita qatnashib, 1625-yilda o'zining «Urush va tinchlik huquqi» deb atalmish katta asarini yozadi (→ **Chapter 13**). U davrda Xalqaro huquqning mavjudligi asosi sifatida tayanilgan tabiiy huquq nazariyasi, aslida, Hudoga bog'lab qo'yilgan bo'lsa-da, Grotius tabiiy huquq Hudo bo'lmasa ham ma'lum bir darajada mavjud bo'lishi mumkin degan g'oyani o'rtaga tashlaydi. Bu bilan u o'rta asrlardagi diniy tabiiy huquq nazariyasidan farq qiluvchi **ratsional tabiiy huquq nazariyasini** rivojlantiradi. Ratsional tabiiy huquq nazariyasi deganda inson **mantiqqa (aqlga)** asosanib jamiyatni saqlab turish uchun ma'lum bir qoidalar zarur ekanini anglab yetadi. U esa aqlga muvofiq keluvchi qonunlar orqali Hudoning istagiga asoslangan **Hudo qonunlari** va inson istagiga asoslangan **Inson qonunlari** yoki pozitiv qoidalarga bo'linadigan huquq nazariyasidir.

Shu tarzda o'rta asrlar Xristian dunyosining hokimiyat tizimi zavolga yuz tutdi. Natijada, olimning qarashlari yetarli darajada majburlov kuchiga ega bo'lmay qoldi. Boshqa tomondan endigina tashkil topgan yangi davr xalqaro hamjamiyatida davlatlar o'rtasidagi odat va kelishuvlardan shakllanuvchi

1-3 Hugo Grotius (1583-1645)



Bolaligidan kuchli qobiliyatga ega, favqulodda bilim egasi deb hisoblangan. U 8 yoshida lotin tilida she'rlar yozgan va 11 yoshida Leiden universitetiga o'qishga kirgan. 15 yoshida diplomatik korpusning a'zosi sifatida Fransiya yuborilgan va Fransiya qiroli Anri IV uni «Niderlandiya mo'jizasi» deya ko'klarga ko'targan.

Keyinchalik, 16 yoshida Gaaga shahrida advokatlik faoliyati bilan shug'ullangan. Ammo 1619-yilda diniy va siyosiy nizolarga aralashib qolib, ozodlikdan mahrum etiladi va Leuvensteyn qal'asidagi zindonga tashlangan. Lekin xotini Mariyaning oqilona tadbiri natijasida nomi oqlanib, qal'adan chiqishga muvaffaq bo'lgan va Parijda vafot etgan. Fransiya Lui XIIIning himoyasi ostida tadqiqot ishlarini olib borgan. O'zining «Urush va tinchlik qonuni» kitobini ham aynan shu paytda (1625-yil) yozgan.

(Manba: rijksmuseum veb-sayti)

moddiy xalqaro huquq normalari hali rivojlanmagan edi. Mana shunday bir paytda, Grotius tabiiy huquq deb atalmish inson mantig'idan tabiiy ravishda

dunyoga keluvchi qoidalar orqali Xalqaro huquqqa asos yaratishga urindi.

Bundan tashqari, tabiiy huquqqa asoslanib Xalqaro huquqqa tamal toshini qo'ymoqchi bo'lgan olimlar sifatida Grotiusdan avvalgi ispaniyalik ilohiyot olimi Vitoria (Vitoria, 1483–1546), Suares (Suarez, 1548–1617), Grotiusdan keyingi germaniyalik huquqshunos olim Pufendorf (Pufendorf, 1632–1694), Volf (Wolf, 1679–1754) kabilar mashhurdir.

(2) Pozitiv huquq nazariyasi

Shunday qilib yangi davr xalqaro huquqiga dastlab tabiiy huquq nazariyasi orqali tamal toshi qo'yildi. Biroq XVIII asrga kelib, kapitalistik iqtisodi-

yotning rivojlanishi natijasida inson – tovar – kapital kabilarning chegaralar osha harakatlanishi faollashdi. Bu esa xalqaro aloqalarni yanada dolzarb masalaga aylantirdi. Mazkur sharoitda davlatlar ham xalqaro huquqqa zarurat seza boshladi. Natijada, davlatlar o'rtasidagi odatlar va shartnomalardan **moddiy xalqaro huquq normalari** asta-sekinlik bilan shakllana boshladi. Jumladan, XVIII asrdan XX asrning boshlarigacha ko'plab **savdo shartnomalari** tuzilib, **doimiy diplomatik vakolatxonalar** (→Chapter 4) va **arbitraj sud tizimi** (→Chapter 12) rivojlanib, **betaraflik tizimi** vujudga keldi (→Chapter 14).

11-4

Emmerix de Vattel «Xalqlar huquqi» (dastlabki nashr, 1758-yil)



Vattel – Shveysariyada tug'ilgan diplomat. 1758-yilda u tomonidan yozilgan «Xalqlar huquqi» bugungi kundagi fransuz tilida yozilgan dastlabki Xalqaro huquq kitobi sanaladi. U diplomat sifatida ishlagan vaqtidagi amaliy tajribalarini jamlagan haqiqatlarni aks ettirganligi sababli, ushbu kitob keng omma tomonidan qiziqib mutolaa qilingan. Vattel, Volfdan ko'p ilhomlangan bo'lsa-da, tabiiy huquq oxir-oqibat insonning asl qalbi bilan bog'liq masala ekanini aytgan. U davlatlar o'rtasidagi xalqaro shartnomalar va davlatlarning odatlarini yuqori o'ringa qo'yadigan pozitiv huquqqa asoslangan Xalqaro huquq fanining asoschilaridan hisoblanadi.

(Manba: Senshu universiteti kutubxonasi)

Shu bilan birga, nazariyada ham inson mantig'i deb atalmish amaliyotda isbotlashning imkoni bo'lmagan asosga qurilgan tabiiy huquq nazariyasi o'rniga amalda davlatlar foydalanib keladigan odatlarni yuqori o'ringa qo'yuvchi pozitiv huquq nazariyasiga tayanila boshlandi. Bunday pozitiv huquq nazariyasining vakillari sifatida niderlandiyalik Binkershoyek (Bynkershoek, 1673-1743), shveysariyalik Vattel (Vattel, 1714-1767) (1-4), germaniyalik Mozer (Moser, 1701-1785) kabi-larni keltirishimiz mumkin.

4 Xalqaro huquq va Yevropa tarkibiga kirmaydigan mamlakatlar

Yangi davr xalqaro huquqi bir tomondan Yevropada vujudga kelgan mustaqil va teng huquqli suveren mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib, o'sha paytda shiddat bilan rivojlanib borayotgan iqtisodiy faoliyatning kengayishi natijasida talab etiladigan savdo xavfsizligini ta'minladi.


Lekin boshqa tomondan Yevropa tarkibiga kirmaydigan davlatlar bilan aloqalarda u boshqacha qiyofa kasb etgan. XV asrning ikkinchi yarmidan XVI asrgacha Yevropada boshlangan dunyoga chiqish harakatlari natijasida Xalqaro huquq Yevropa tarkibida bo'lmagan davlatlar bilan aloqalarda qanday funktsiya bajargan? Buni bilish hozirgacha ko'rib o'tilgan yangi davr Yevropasi xalqaro huquqi va bugungi kundagi Xalqaro huquqning aloqasini tushunishda juda muhim hisoblanadi.

(1) Yevropaning kengayishi

(a) Buyuk geografik kashfiyotlar davri (1-5). O'rta asrlarning so'ngida Yevropa har tomondan arab-islomiy kuchlarning tazyig'iga uchradi. Sharqdan Usmonli turklar imperiyasining hujumi natijasida 1453-yilda Sharqiy Rim imperiyasining poytaxti Konstantinopol ishg'ol etilib, Bolqon yarimoroli turklar qo'l ostiga o'tdi. Shuningdek, janubdan ham musulmonlarning hujumi to'xtamay, Italiya, Fransiya va Ispaniya sohilbo'ylari vayron qilindi. Bundan tashqari, g'arbdan Islom xalifaligi liberiya yarimorolini egallab, Pireneya tog'laridan oshib Yevropaga hujumlar uyushtirdi.

Shunday holatda, xristianlar Islom olami tomonidan chegaralanib turil-

1-5 Buyuk geografik kashfiyotlarning xronologiyasi	
1453-yil	Sharqiy Rim imperiyasi poytaxti Konstantinopolning zabt etilishi
1488-yil	Bartolomeo Dias tomonidan Yaxshi umid burnining (Cape of Good Hope) kashf etilishi
1492-yil	Granadaning Alhambr qasrining (Qizil qasr) zabt etilishi
1492-yil	Xristofor Kolumb tomonidan Amerikaning kashf etilishi
1493-yil	Rim papasi Aleksandr VI ning farmoni
1494-yil	Ispaniya va Portugaliya o'rtasida Tordesillas bitimining tuzilishi
1498-yil	Portugaliyalik Vasko da Gama tomonidan Hindistonga boradigan dengiz yo'lining kashf etilishi
1529-yil	Ispaniya va Portugaliya o'rtasida Saragosa bitimining tuzilishi



gan Xitoy va Hindistonga borish uchun dengizdan boshqa yo'llarni izlay boshlashdi. Yangi yo'llarni kashf etish va liberiya yarimorolini qayta egallash orzusi (reconquista) bo'lgan Yevropa mamlakatlari o'sha paytdagi Ispaniya va Portugaliya kabi kuchli qirolliklarning yuzaga kelishi va dengiz texnologiyasining shiddatli rivojlanishi sharofati bilan buning uddasidan chiqa olishdi.

Bu davrda **karrak** deb atalgan ulkan kemalarning yasalishi va Islom dunyosidan kirib kelgan kompas yordamida buyuk geografik kashfiyotlar amalga oshdi. Portugallar Afrikani aylanib o'tib Hindistonga borish yo'lini topdilar. Ispanlar esa Tinch okeani orqali Amerikani kashf etdilar. Ispanlar va portugallar 1493-yilda Rim papasi Aleksandr VI ning farmoni bilan Atlantika okeanida meridian chizig'i tortilib, ushbu chiziqning g'arbiy tomonlari Ispaniyaga, sharqiy tomoni esa Portuga-

liyaga berildi. Bu ikki davlatlar o'zlariga belgilangan hududda kashf etilgan yer maydoni va boyliklarni egallab, Xristian dinini yoyish huquqlarini qo'lga kiritishgandi. Biroq ushbu farmondan ko'ngli to'lmagan Portugaliya 1494-yilda Ispaniya bilan Tordesillas bitimini tuzib, farmon bo'yicha belgilangan chegara chizig'ini g'arb tomonga kengaytirishga muvaffaq bo'ldi (1-6). Shundan so'ng 1529-yilda ikki davlat o'rtasida Saragosa shartnomasi imzolaniib, bunga ko'ra g'arb Portugaliyaga, sharq esa Ispaniya hokimiyati ostiga o'tdi. Shunday qilib, XV asrning ikkinchi yarmidan liberiya yarim orolining ikki qirolligi Yevropaning ilk kengayish davrini boshlab berdi.

Kortes va Pizarro boshchiligida Amerikaga borgan ispanlar u yerda mahalliy aholi orasida Xristian dinini yoyish, oltin-u javohirlarni to'plash, qarshilik ko'rsatganlarni qirib yuborish kabi ishlarni amalga oshirib, mahalliy

atstek va inka sivilizatsiyalarini yo'q qildilar.

Shunday bir paytda ispaniyalik ilohiyotshunos olim Vitoria (1-7) hindularni boshqa din vakillari deb kamsituvchi ispanlarning harakatlarini qoraladi. Salamanka universitetidagi «Hindular haqida» deb atalgan (1539-yil) ma'ruzasida Vitoria boshqa din vakili tabiiy huquqqa ko'ra hech qanday imkoniyatga ega emas, shu sababli ularni shunchaki bosib olish obyekti sifatida ko'ruvchi mavjud qarashni rad etadi. Shuningdek, Vitoria boshqa din vakillari bo'lgan hindular ham o'zlarining qonuniy qirollik hokimiyatlariga ega bo'lgan holda, yerlarga egalik qilish huquqini tan olgan. Ispan mustamlakachilari tomonidan noo'rin asoslarga binoan hindularga nisbatan kuch ishlatib, ularning Amerika qit'asidagi yerlarini tortib olishlarini esa qattiq qoralaydi.

Shuningdek, Vitoria Xristian dini ning gumanizm tamoyili nuqtayi nazaridan Xalqaro huquqqa universal tabiiq etiladigan huquq sifatida qarab, uning Yevropadan boshqa mamlakatlarda ham samara berishi mumkinligini tan oldi. Shu bilan birga, Ispaniya mustamlakalarini oqlaydigan huquqni da'vo qildi.

Ya'ni u mustamlaka siyosatini huquqqa mos keladigan usulda amalga oshirish uchun huquqiy asosni ko'rsatib, buning zamirida tabiiy huquqqa ko'ra barcha insonlar **muzokaraga kirishish va ko'chish huquqiga** ega ekanini bildirdi. Agarda hindular buni rad etsalar bu o'z-o'zidan huquqlarning



Manba: Salamanka universitetining veb-sayti

buzilishi hisoblanadi deb ta'kidladi. Shuningdek, hindularda **Xristian rohibini qabul qilish majburiyati** mavjud bo'lib, buni rad etish ham **urush boshlash uchun to'g'ri asos** (→**Chapter 13**) bo'la oladi degan fikrni ilgari surdi. Uning fikrlari yevropalik bo'lmagan shaxslarga ham Yevropa xalqaro huquqidagi ba'zi huquqlarni berishni nazarda tutardi. Uning fikrlari o'sha davr uchun tahsinga sazovor g'oyalar bo'lgan bo'lsa-da, baribir **Yevropasentriзм tomonga og'ishdan** qutula olmagandi.

Xuddi shu davrda Portugaliya sharqiy Afrikada qullar savdosini amalga oshirish huquqini qo'lga kiritib, poytaxt Lissabon shahri sharq bilan savdoda va qora tanli qullar bozori sifatida yuksalish bosqichining cho'qqisiga chiqdi. Bu qullar yevropaliklarning

plantatsiyalari (katta hajmdagi dehqonchilik yerlari)da ishlash uchun Karib havzasidagi orollar va Shimoliy hamda Janubiy Amerikaga olib ketilar edi. Portugaliya bu sohada biroz oqsagandan keyin bu savdoni Niderlandiya hamda Angliya davom ettirgan. Natijada, XV asrdan XIX asrgacha bo'lgan 400 yil oralig'ida Afrikadan olib ketilgan yoki qulchilik siyosati natijasida vafot etgan qullarning soni 10 milliondan oshganligi aytiladi.

(b) Mustamlakalarni taqsimlash

XVI asrning ikkinchi yarmidan yetakchi Ispaniya va Portugaliyaga qarshi Niderlandiya, Angliya va Fransiya qiroliklari ham kuch jihatidan tenglashib, **mustamlakalarni** taqsimlash borasida ham ular bilan raqobat qila boshladi.

Raqobatga kirishgan ushbu uchta mamlakat Tinch okeanidagi dengiz yo'llarini monopoliya qilib olgan Ispaniya va Hind okeanidagi dengiz yo'llarini monopoliyaga aylantirgan Portugaliyaga qarshi kurash boshladi. XVI asr oxiridan XVII asr boshida bu davlatlar Ost-India va Vest-India kompaniyalarini tashkil etib, sharqiy dunyo bozoriga kirish va u yerda mustamlakalarni egallashni boshlashdi. Angliya, Fransiya va Niderlandiya shimoliy Amerikaga kirib borsa-da, u yerda asta-sekinlik bilan Angliya ustunlikka erisha boshladi. Osiyoda esa Java-Malakka hududlarini Niderlandiya egallagan bo'lsa, Angliya Hindistondan Fransiyani siqib chiqardi. Endilikda Fransiya asta-sekinlik bilan Hindi-Xitoy orollari tomon kirib bordi.

Shunday qilib, XVIII asrgacha yangi qit'a, Afrika sohillari, Osiyoda esa Yaponiya va Xitoydan tashqari qolgan hududlar Ispaniya, Portugaliya, Niderlandiya, Angliya va Fransiya kabi Yevropa davlatlari tomonidan mustamlakaga aylantirilib, taqsimlab olindi.

XIX asrga kelib bular orasiga Germaniya, Italiya va Belgiya ham qo'shildi. 1884-1885-yillarda Berlinda o'tkazilgan Yevropaning kuchli mamlakatlari majlisida Belgiya qirolining Kongo vodiysi ustidan protektorati va u yerni o'z mustamlakasiga aylantirgani aniqlashtirildi. Shunday qilib, Afrika hududi va uning ichki markaziy hududlarigacha bo'lgan qismi egallanib, XIX asrning oxirigacha Efiopiya, Turkiya qo'l ostida bo'lgan Misrdan tashqari barcha hududlar Yevropa mamlakatlari o'rtasida taqsimlandi.

Shu tarzda XVI asrdan XIX asrgacha Yevropa tarkibiga kirmaydigan hududlarning deyarli barchasi Yevropa mamlakatlari tomonidan mustamlakaga aylantirilib boshqariladigan bo'ldi (→C-5).

(2) Yevropa tarkibida bo'lmagan davlatlar bilan munosabatlarda shakllantirilgan xalqaro huquq normalari

Yevropada mustaqil va teng huquqli subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib, shu orqali savdodagi xavfsizlikni ta'minlashga va urushlardagi insoniylikka ham ijobiy ta'sir etgan Yevropa xalqaro huquqi, boshqa tomondan Yevropa tarkibida bo'lmagan mamlakatlarga nisbatan bunday munosabatda bo'lmadi. Ularni xalqaro huquqning teng huquqli a'zosi

sifatida ko'rmay, bir tomonlama mustamlakaga aylantirish va Xristian dinini yoyish obyektini sifatida ko'rdi. Agarda istisno tarzida ba'zi subyektlarni davlat sifatida tan olganda ham Yevropa davlatlari uchun manfaatli qoidalarni ularga majburiy shaklda kiritgan holda, ushbu normalarni rivojlantirdi. Yevropa tarkibiga kirmaydigan mamlakatlar bilan munosabatlarda shakllantirilgan klassik Xalqaro huquq qoidalariga misol qilib, **hududlarni qo'lga kiritish va urushni** keltirishimiz mumkin.

(a) «**Kashf etish**» va «**Birinchi egallash**» tamoyillari. Ushbu ikki tamoyil hududlarni egallashning usuli (→**Chapter 5**) bo'yicha qoidalar hisoblanadi. Bu usullar Yevropa mamlakatlari tomonidan Yevropa tarkibiga kirmaydigan mamlakatlar bilan munosabatlarda mustamlaka bo'lgan hududlarni egallash va ularni yanada kengaytirish yo'lida qo'llanilgan.

XVI asrda Ispaniya va Portugaliya yetakchi bo'lgan davrda biroz avval ko'rib o'tilgan Aleksandr VI tomonidan chiqarilgan farmon kabi Rim papasining vakolatiga asoslanilgan «**kashf etish**» Yevropa uchun notanish bo'lgan yerlarning qo'lga kiritilishini anglatar edi. Odam yashamaydigan joylarga emas, balki avvaldan aholi yashab kelgan hududlar ham yevropaliklar tomonidan aksariyat hollarda rad etilib, mustamlakaga aylantirilgan.

Protestant bo'lgan davlatlardan keyinchalik Niderlandiya va Angliya Rim papasining hokimiyatini rad etdi. Natijada, allaqachon, Ispaniya va Portugaliya tomonidan «kashf etilgan»

hududlarga kirib borish uchun «kashf etish» o'rniga «**birinchi egallash**» qoidasini qo'llay boshladilar. Bu qoida ularga **hududlarni qo'lga kiritish vakolatini** taqdim etadi deb da'vo qildilar. «Birinchi egallash» Rim huquqidagi «**egasiz mulkni birinchi egallagan shaxs uning egasiga aylanishi**» qoidasining analogiyasi hisoblanib, hech bir davlatga tegishli bo'lmagan «**egasiz yer**»ga ma'lum bir davlat amalda egalik qilish orqali ushbu hududlarni o'z hududiga aylantirishini anglatar edi.

Yuqorida tilga olingan «egasiz yer» yevropacha ma'nodagi hokimiyatga ega bo'lgan markazlashgan «davlat» mavjud bo'lmagan hududda hamjamiyat asosidagi boshqaruv birliklari mavjud bo'lsa-da, bunday joylar ham «birinchi egallash»ning obyektini bo'lgan «egasiz yer» hisoblangan.

(b) «**Adolatli urush**» va «**Bosib olish**»

Bunga qarama-qarshi tarzda Yevropa tarkibida bo'lmagan hududlarda, allaqachon, hokimiyat kuchiga ega bo'lgan qirolik mavjud bo'lsa, «kashf etish» va «birinchi egallash» qoidalariga asoslanilsa, u yerlarni egallash uchun yetarli darajada huquqiy asos mavjud bo'lmas edi. Bunday holatlarda yuqorida Vitoria aytganidek, mahalliy aholi qiroliklarini ham huquqdagi ma'lum bir subyekt sifatida hisoblash lozim edi. Mazkur vaziyatda «**Adolatli urush**» va uning natijasi sifatida «**Bosib olish**» huquqi mavjud bo'ladi deb hisoblangan. Bunda Xristian missionerlarining diniy yoyish faoliyatlari, mahalliy aholi bilan munosabatga kirishishi va ko'chib yurish huquqlari buziladigan bo'lsa,

Yevropa mamlakatlarida ushbu davlatlarga qarshi «adolatli urush» huquqiga ko'ra harbiy kuchdan foydalanish imkoniyati yuzaga kelardi. Egallangan hududlar esa «bosib olish» qoidasiga ko'ra bu yerlarni bosib olgan mamlakat hududiga o'tar edi.

(3) Yevropa tarkibiga kirmaydigan mamlakatlarning Yevropa xalqaro huquqiga kirib kelishi

Yevropa tarkibida bo'lmagan mamlakatlar Yevropa xalqaro huquqidagi mustaqil va teng huquqli subyektlar sifatida tan olinmagan. Ular Yevropa davlatlari tomonidan «kashf etish», «birinchi egallash», «bosib olish» obyektlari hisoblangan.

XVIII asrdan XIX asrning boshlarigacha AQSh va Lotin Amerikasi davlatlari asta-sekin mustaqil bo'la boshladi. Ammo ular yevropaliklar va o'sha yerda qadimdan yashab kelayotgan avlodlari bilan aralashuvdan tashkil topgan, madaniy jihatdan Yevropa va Xristian madaniyatining kuchli ta'siri ostidagi davlatlar bo'lib rivojlana boshlagan.

Bunga qarama-qarshi tarzda, XIX asrning o'rtalaridan yevropaliklar uchun Xristian dinida bo'lmagan davlatlar ham paydo bo'lishni boshladi. Ya'ni Qrim urushi natijasida tuzilgan tinchlik bitimi sifatidagi **Parij bitimiga binoan** (1856-yil), Turkiya «**Yevropaning ommaviy huquqi va manfaatli hamkorlik**»da rasmiy ishtirok etishi aniqlandi. Shuningdek, Uzoq Sharqda Xitoy **Nankin shartnomasiga** ko'ra (1842-yil), Yaponiya esa **Yapon-AQSh tinchlik va do'stlik shartnomasiga**

asosan Yevropa davlatlari bilan rasmiy ravishda xalqaro huquqiy munosabatlarga kirisha oladigan bo'ldilar. Lekin amalda ushbu mamlakatlarda konsullik sudlari tashkil etilgan va davlatlarning o'z bojxona siyosatlarini yuritishlariga nisbatan cheklovlar qo'yilgandi. Bir so'z bilan aytganda, ushbu davlatlar Yevropaning «**madaniylashgan mamlakatlari**» qatorida mutlaq teng ma'nodagi xalqaro huquq subyekti sifatida qaralmagan.


(4) Yaponiyaning Yevropa xalqaro huquqiga kirib kelishi

Yaponiyadagi vaziyatga to'xtaladigan bo'lsak, G'arb mamlakatlari xalqaro huquqiga Yaponiya o'z ixtiyori bilan kirib kelmagan. Aksincha, Yaponiyaning ochilishi va ochiq portlarga «**qora kema**» (**kitob boshidagi rangli surat C-16**) deb ataluvchi tashqi bosimning yuzaga kelishi natijasida, ilojsizlikdan kirib kelgan (**1-8**). Bundan tashqari, Edo shogunligi (ruschada Syogunligi deya noto'g'ri talaffuz qilinadi) tomonidan AQSh, Angliya, Rossiya, Niderlandiya, Fransiya davlatlari bilan tuzilgan Do'stlik va savdo aloqalari to'g'risidagi shartnomaga ko'ra: 1) ushbu mamlakatlarning fuqarolari Yaponiya sudlari yurisdiksiyasiga bo'ysunmas, buning o'rniga o'zlarining konsullik sudlari (**konsullik sud tizimi**)ga bo'ysunardi; 2) import qilinayotgan mahsulotlarning bojlari Yaponiya mustaqil belgilay olmas (Bojxona erkinligining cheklanishi), ularning miqdori tashqi muzokaralarda belgilanadigan shartnomaviy boj tariflariga bog'liq edi; 3) shartnoma

tarafdori bo'lgan mamlakatlardan biri bilan alohida imzolangan shartnoma-ga ko'ra, unga berilgan huquqlar o'z-o'zidan boshqa a'zo mamlakatlarga ham berilgan (**Bir tomonlama eng qulay rejim**). Bu kabi tengsiz munosabatlar soyasida Yaponiyaga majburan tiqishtirilgan **noteng shartnomalarini o'zgartirish** Meyji (ruschada Meydzi deb noto'g'ri talaffuz qilinadi) davri-ning dastlabki yillarida Yaponiya oldi-da turgan tashqi diplomatiyaning eng katta vazifalaridan edi.

Buni amalga oshirishning vositasi sifatida bir tomondan o'sha paytda Yaponiyada kuchaygan erkin demokratik harakati jarayonida mamlakat ichidagi demokratiyani ta'minlash bilan birgalikda Yaponiya kabi tengsizlik shartlariga tobe tutilgan millatlar bilan hamkorlikda Yevropa xalqaro huquqidagi tengsizlikka asoslangan qoidalarni o'zgartirish lozimligi, ushbu huquq sohasining butunlay isloh etilishini talab etuvchi qarashlar ham bo'lgan. Lekin amalda Meyji hukumati tomonidan tanlangan yo'l Yevropa xalqaro huquqining mavjudligini tan olgan holda, Yaponiya ham g'arb mamlakatlari tomonidan «rivojlangan mamlakat» sifatida tan olinishiga erishish va ular bilan Xalqaro huquqning teng subyektiga aylanish bo'lgan.

Shuning uchun amaliy choralar sifatida «boy davlat va kuchli qo'shin», «sanoatni rivojlantirish» shiorlari o'rtaga tashlanib, «rivojlangan davlat» bo'lishning sharti sifatida yevropacha huquqiy tizim va adliya tizimi shakllantirila boshlandi. Xalqaro huquq



Nishiamane 1829-yilda Tsuvanodagi tabib oilasida dunyoga keladi. Dastavval konfutsiylik ta'limotini o'rganib, qora kema Urakavaga kelgan yilning keyingisi, ya'ni 1855-yilda g'arbshunostlikni o'rganish maqsadida shoogunlik tomonidan eng birinchi bo'lib g'arb mamlakatlariga yuborilgan talabalardan biri edi. 1863-yildan boshlab ikki yil Niderlandiyaning Leiden universitetida huquqshunoslik va iqtisodiyot fanlaridan ta'lim oldi. 1868-yilda «Xalqlar ommaviy huquqi (jami 4 ta tom)» degan nom bilan chiqarilgan. Aslida Leiden universitetining professori Vissering ma'ruzalarining tarjimasi bo'lgan bu kitob yapon tilida eng birinchi bo'lib chiqarilgan xalqaro huquq darsligi hisoblanadi.

(Manba: Milliy parlament kutubxonasi veb-sayti)

bo'yicha tadqiqotlar ham qisqa fursatda amalga oshirildi. G'arb mamlakatlari bilan aloqalarda, masalan, Yapon-Rus urushida rus asirlariga nisbatan harbiy qoidalarga muvofiq iliq munosabatda bo'lindi. Bu orqali Yaponiya haqiqatdan ham Xalqaro huquqni yoqllovchi mamlakat sifatida e'tirof etildi.

Bunday harakatlar natijasida 1894-yilda **Yapon-Ingliz savdo va dengiz shartnomasini** imzo-

lash orqali xalqaro shartnomalarni o'zgartirishda natijalarga erishildi. Shuningdek, Yaponiya Millatlar Ligasi tashkilotida Angliya va Fransiya bilan bir qatorda Konsullik kengashi a'zosi kabi vazifalarni amalga oshirib, g'arb mamlakatlari bilan teng munosabatlar o'rnata olishga muvaffaq bo'ldi. Ammo boshqa tomondan Xitoy, Koreya yarimoroli, janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlariga nisbatan g'arb mamlakatlari tomonidan amalga oshirib kelingan mustamlakachilik siyosatini yurita boshladi.

5 Yevropa xalqaro huquqidan Umumiy xalqaro huquq tomon


Ikkinchi jahon urushidan so'ng, ayniqsa 1960-yillardan keyin **xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga** asoslanib, Osiyo va Afrikaning yangi mamlakatlari mustamlaka tuzumi yoki shunga yaqin boshqa tuzumlardan ozod bo'la boshladilar. Ular huquqiy jihatdan mustaqil va teng huquqli suveren davlatlar sifatida xalqaro ham-

jamiyatda asta-sekin o'z o'rinlarini topa boshladilar. Dastlab, 51 ta a'zo bilan o'z faoliyatini boshlagan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (bundan keyin BMT) 1955-yilda Osiyo va sharqiy Yevropadan bo'lgan jami 16 ta yangi a'zo, 1960-yilda Afrikadan jami 17 ta a'zoning unga qo'shilishi natijasida o'z a'zolari sonini keskin darajada oshirdi. Bugungi kunda ularning soni 193 tani tashkil etadi va bu dastlabki a'zolar sonidan to'rt barobar ko'p deganidir (1-9). Shunday qilib, xalqaro hamjamiyatning umumiy lashib borish jarayonida Yevropa mamlakatlarining manfaatlarini ustun qo'yish va o'zaro munosabatlarni tartibga solish qoidalari sifatida rivojlanib kelgan an'anaviy (klassik) Xalqaro huquq qoidalariga nisbatan keng qamrovli kurash boshlandi.

Masalan, rivojlangan mamlakatlar uchun manfaatli bo'lgan xorij fuqarosi mulkini milliy lashtirish (natsionalizatsiya) natijasida yuzaga keladigan **kom-pensatsiya to'lash tamoyili** ko'rib chiqildi (→Chapter 10). **Diplomatik**

1-9

BMT a'zolari soninig o'sib borishi



(Manba: BMT Axborot markazi ma'lumotlari asosida tayyorlandi)

himoya huquqi (→Chapter 8), **davlatlarning javobgarligi** (→Chapter 2) kabi an'anaviy qoidalarga ham o'zgarishlar kiritildi. Allaqachon, mavjud bo'lgan farqlarni mutanosib holatga keltirish uchun **dengiz** (→Chapter 6), **savdo** (→Chapter 10), **tabiat** (→Chapter 11) kabi sohalarida yangi qoidalar ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, yangi vujudga kelgan mamlakatlar ham xalqaro huquq normalariga qarshilik bildirmadilar. Buning isboti sifatida xalqaro hamjamiyatning asosini tashkil etuvchi **suveren tenglik tamoyili** va **davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyili** (→Chapter 3), xalqaro aloqalarni oqilona tartibga solish uchun suv va havodek zarur bo'lgan **shartnomalar huquqi, diplomatik aloqalar huquqi** (→Chapter 4) kabi qoidalar ular tomonidan ham qabul qilinganini keltirishimiz mumkin. Dastlab, ushbu qoidalar faqat Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarda vujudga kelganiga qaramasdan, mustaqil va tenghuquqli subyektlar uchun umumiy qiymatga ega. Shu sababdan ham yangi davlatlar ushbu qoidalarga nisbatan qarshilik ko'rsatmadilar. Shu ma'noda, Yangi davr xalqaro huquqining tarixiy jihatdan bajarib kelgan funksiyalarini anglagan holda, uning ba'zi salbiy jihatlari qaramay, Xalqaro huquqda mavjud bo'lgan umumiy qadriyatlarni bundan keyin ham shakllantirib borish juda muhim.

6 Zamonaviy xalqaro huquqning o'ziga xos jihatlari

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, Yevropa xalqaro huquqidan Umumiy xalqaro huquq deb atalmish Xalqaro huquqning geografik jihatdan qo'llanilish doirasi ancha kengayishi bilan birgalikda, bugungi xalqaro huquq quyidagi xususiyatlarni o'zida mujassam etadi.

Birinchidan, **urush va kuch ishlatishning taqiqlanishidir**. Yangi davr xalqaro huquqining gullab-yashnagan davri XVI-XVII asrlarga to'g'ri keladi. Ushbu davrda urush qilish adolatli urush va adolatsiz urush kabi turlarga ajratilgan. Bunda faqat adolatli urush qilishgagina ruxsat etilib, «**adolatli urush g'oyasi**»ga asoslanilgan. Ammo XIX-XX asrlarning boshida xalqaro huquq davlatlar uchun «**urush erkinligi**»ni keng miqyosda taqdim etdi. Lekin ikki marta jahon urushidan so'ng qabul qilingan **BMT Nizomi** (1945-yil) nizolarni tinchlik yo'li bilan hal etishni davlatlarga majburiyat o'laroq yuklab (→Chapter 12), o'zini-o'zi himoya qilish kabi istisnoli holatlarni hisobga olmagan-da, davlatlar uchun kuch ishlatishni umumiy ravishda taqiqladi. Ammo bugungi kunda xalqaro hamjamiyat xalqaro terrorchilik tashkiloti Al-Qoida va ekstremistik ruhdagi Islom davlati kabi xalqaro huquq normalarini tan olmaydigan nodavlat tuzilmalar tomonidan kuch ishlatilishini qanday qilib nazorat qilish mumkinligi haqida bosh qotirmoqda (→Chapter 13, 14).

Ikkinchidan, **xalqaro hamjamiyatda nufuzli tashkilotlashuvidir**. Xalqaro huquq yangi davr suveren davlatlarining vujudga kelishi bilan birgalikda, ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar sifatida rivojlanib keldi. Lekin XIX asrning ikkinchi yarmidan axborot va kommunikatsiya, sanitariya va o'lchov birliklariga oid ma'lum bir sohalarga ixtisoslashib, ularga oid hamkorlikni amalda qaror toptirish uchun **xalqaro tashkilotlar** tuzila boshlandi. Birinchi jahon urushidan so'ng, nizolarni hal qilish, xavfsizlikni ta'minlash, qurolli armiyani qisqartirish kabi siyosiy masalalarni o'z qamroviga oluvchi **Millatlar Ligasi** tashkil etildi (1920-yil). Ikkinchi jahon urushidan so'ng, mutaxassislik, texnik va siyosiy masalalarni o'z qamroviga oluvchi universal xalqaro tashkilot bo'lgan **Birlashgan Millatlar Tashkiloti** tashkil etildi (1945-yil). Shuningdek, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (IBRD), Xalqaro valyuta fondi (IMF), Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha BMT tashkiloti (UNESCO) kabi maxsus va texnik tashkilotlar hamda Amerika mamlakatlari tashkiloti (OAS), Yevropa Ittifoqi (EU), Afrika Ittifoqi (AU) kabi ko'psonli mintaqaviy xalqaro tashkilotlar ham vujudga keldi. Bugungi kunga kelib xalqaro tashkilotlar ham davlatlar bilan bir qatorda xalqaro huquqning subyekti sifatida tan olinmoqda. (→**Chapter 7**).

Uchinchidan, **jismoniy shaxslar bilan aloqador bo'lgan Xalqaro huquqning rivojlanishidir**. An'anaviy

xalqaro huquqda jismoniy shaxslarga aloqador bo'lgan xalqaro huquq chet elliklarga nisbatan munosabat va kamchilikni tashkil etuvchi millatlarni himoya qilish kabi tor soha bilan chegaralangan edi. Lekin Ikkinchi jahon urushidan so'ng, **Xalqaro Inson huquqlari to'g'risidagi billdan** boshlab turli xildagi universal inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar, Yevropa, Amerika va Afrika kabi mintaqalardagi mintaqaviy inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalarning tuzilishi orqali xalqaro miqyosda inson huquqlarini himoya qilish doirasi kengaytirildi. Shuningdek, jismoniy shaxslarning xalqaro tashkilotlarga murojaat qilishi ham yo'lga qo'yilib, ularning protsessual huquqlari kafolati mustahkamlandi (VIII bob). Boshqa tomondan jismoniy shaxslarning xalqaro jinoyatlarini xalqaro huquq normalariga asoslanib sud qilishni ko'zlovchi va doimiy faoliyat yurituvchi **Xalqaro jinoyat sudi** (ICC) tashkil etildi. Natijada, jismoniy shaxsning huquqlarigina emas, balki ularning xalqaro hamjamiyat oldidagi javobgarligini talab etuvchi xalqaro huquq normalari ham rivojlanib kelmoqda (→**Chapter 9**).

To'rtinchidan, **hamkorlikdagi xalqaro huquqning rivojlanishidir**. An'anaviy xalqaro huquq **davlat yurisdiksiyasi** (ma'lum bir doirada inson, jism, voqea-hodisaga nisbatan davlat o'zining ichki qonunlarini qo'llab, ularni ijro qilish vakolati)ni mamlakatlara taqsimlaydi. Shu bilan bir qatorda bir-birining **ichki yurisdiksiyasiga** aralashmaslik orqali tinchlikni

ta'minlab kelgan passiv qarashni o'zida aks ettiradi (→**Chapter 3**). Bunga qarama-qarshi tarzda, bugungi xalqaro huquqda **xalqaro hamjamiyatning umumiy manfaatlarini** ta'minlash uchun mamlakatlar faol hamkorlik qilishi zarur bo'lgan sohalar ko'payib bormoqda. Xalqaro iqtisodiyotning rivojlanishi hamda xalqaro miqyosda atrof-muhitning himoya qilinishi kabilarni bunga misol qilib keltirishimiz mumkin (→**Chapter 10, 11**).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kinji Akashi, «Vestfaliya sulhi». – Keiyo Gijuku» universiteti nashriyoti, 2009-yil.
2. Yasuo Ishimoto, «Xalqaro huquqning tuzilishidagi o'zgarishlar». – Yushindo Kobunsha nashriyoti, 1998-yil.
3. Yasuaki Onuma, «Urush va tinchlik huquqi». – Toshindo nashriyoti, 1987-yil.
4. Kanae Taijudo, «Hududlar tegishliligiga oid xalqaro huquq». – Toshindo nashriyoti, 1998-yil.
5. Shoji Yanagihara, «Grotius – inson va g'oya». – Shimuzu Shoin, 2000-yil.

Chapter 2

Xalqaro hamjamiyatda amal qilinishi lozim bo'lgan qoidalar

1. Xalqaro huquqning yuridik majburlov kuchi nima?

(1) Shartnomalar «oddiy bir qog'oz»dan boshqa narsa emasmi?

1914-yili Yevropada Birinchi Jahon urushi boshlanishi bilan, Germaniya o'sha paytdagi xalqaro shartnomalarda abadiy betaraf davlat sifatida tan olingan Belgiya davlatiga bostirib kirdi hamda mahalliy hududdan o'tgan holda dushmani Fransiya yerlariga kirib bordi.

Germaniya va Fransiya bir-biri bilan to'g'ridan to'g'ri chegaradosh Elzas-Lotaringiya mintaqasida fransuzlar kuchli mudofaa chiziqlarini qurgandilar. Nemis qo'shinlari uchun ushbu chiziqni yiqitib, Fransiya hududiga hujum qilish juda ham qiyinligi ayon edi. Boshqa tomondan, Fransiya abadiy betaraf mamlakat hisoblanmish Belgiya bilan chegaradosh hududlarda mudofaa qal'alarini barpo qilmagandi. Shu sababli Germaniyaning rejasiga ko'ra, agar nemis qo'shinlari Belgiyadan o'tib, Fransiya hujum qiladigan bo'lsa, qisqa vaqt ichida Fransiya poytaxti Parijni egallab olishi mumkin edi. Fransiya va Rossiya bilan ikkita frontda urushni mo'ljallagan Germaniya, ushbu davlatlar bilan urush kelib chiqqan taqdirda, **Shliffen rejasiga** ko'ra (2-1) g'arbiy frontda Belgiyani qo'lga kiritib, qisqa vaqt ichida Fransiya hududiga bostirib kirishni rejalashtirgan edi. Un-




dan keyin butun armiya darhol sharqqa qaytarilishi va sharqiy frontda Rossiyani egallashi kerak edi.

Aslida, 1914-yili Birinchi Jahon urushi boshlanishi arafasida Germaniya Belgiyadan uning hududidan nemis qo'shinini o'tkazishni talab qilgan, ammo Belgiya bunga rozi bo'lmadi. Shundan keyin Shliffen rejasiga muvofiq Germaniya Belgiya hududiga bostirib kirdi va Fransiya hududi tomon ilgariladi.

Germaniyaning bunday xatti-harakatlari Belgiyaning abadiy betarafligini belgilab beruvchi xalqaro huquqqa zidligi oshkor edi. Ammo Germaniya kansleri Betman Xolveg o'z vaqtida ushbu nemis harakatini Germaniya parlamentida «muhim milliy manfaatlar oldida xalqaro shartnoma shuncha-ki bir qog'oz parchasidan boshqa narsa emas» deb nutq so'zlab, bu bilan Germaniyaning harbiy yurishlarini



(Manba: Alamy/PPS
xabarlari)



(Bridgeman/PPS xabarlari)

Chapda: «muhim milliy manfaatlar oldida xalqaro shartnoma shunchaki bir qog'oz parchasidan boshqa narsa emas» deya, Germaniya tomonidan Belgiyaning abadiy betarafligining buzilishini oqlashga harakat qilgan, Birinchi Jahon urushi davridagi Germaniya kansleri Betman Xolveg. O'ngda: Birinchi Jahon urushidan oldingi German imperatori Vilgelm II (oldingi qatordagi stulda o'tiribdi) va Germaniya liderlari. Orqa qatorning o'ng tomonidan ikkinchi Bertman Xolveg bo'lib, uning oldida o'tirgan esa 1930-yillardagi Weymar Respublikasida Germaniya prezidenti bo'lgan va keyinchalik Gitlerni kanslerlikka tayinlagan Gindenburg.

oqlamoqchi bo'ldi (2-2). Haqiqatdan ham, «shunchaki qog'oz parchalari bo'lgan shartnoma» yoki «abadiy betaraflik shartnomasiga amal qilgani uchun yengilgan davlat»dan birini tanlash kerak bo'lganda, «shunchaki qog'oz parchalari»nigina anglatadigan xalqaro shartnomalardan ko'ra «muhim milliy manfaatlar»ni tanlaydigan siyosiy liderlar mavjudligi ajablanarli holat emas.

1938-yilda Gitler «Yevropadagi so'nggi hududiy talab» sifatida Chexoslovakiyaning ko'plab nemislar yashaydigan Sudeten viloyatini Germaniya tarkibiga qo'shib berilishini talab qildi. Ammo Chexoslovakiya bu talabni rad etdi va natijada urushning boshlanish xavfi yanada ortdi.

Inqiroz yaqinlashayotgandi. 1938-yil sentabr oyida Angliya, Fransiya, Italiya mamlakatlarining rahbarlari, Germaniyaning Myunxen shahrida Gitler bilan uchrashdi va to'rtta davlat o'rtasida Myunxen kelishuvi imzolandi. Kelishuvga ko'ra, Chexoslovakiyaning Sudeten viloyatining Germaniyaga berilishi tasdiqlandi (2-3). Ushbu Myunxendagi kelishuvdan qaytgan Buyuk Britaniya Bosh vaziri **Nevil Chamberlen** Gitler tomonidan imzolangan Myunxen bitimining «qog'oz varaqasini» ko'rsatib, «bu bitim sababli katta urushning oldini oldik va Yevropada tinchlik ta'minlandi» deya g'ururlanib gapirdi (2-4). Angliyaliklar esa buni birvarakayiga olqishladilar.



(Manba: Bridgeman/PPS xabarlari)

Chapda: 1938-yilda Germaniya Chexoslovakiyadan berilishini talab qilgan Sudeten hududining joylashuvi.

O'ngda: 1938-yil oktabr oyida kirib kelayotgan nemis qo'shinlarini qutlayotgan Sudeten hududida yashovchi nemis millati vakillari.

Afsuski Gitler ushbu «qog'oz parchasi»da bergan va'dalariga amal qilmadi. «Yevropadagi oxirgi hududiy talabi», ya'ni Sudeten hududi berilishidan taxminan olti oy o'tgach, Germaniya armiyasi Chexoslovakiyaga bostirib kirdi. Chexiyani nemislar o'zlariga qo'shib olib, Slovakiyani esa o'z protektoratlariga aylantirishdi. Bundan tashqari, 1939-yili sentabr oyida Germaniya Polshaga yurishini boshladi. Bunga javoban Angliya va Fransiya Germaniyaga qarshi urush e'lon qildi. Shunday qilib, oxir-oqibat Ikkinchi jahon urushi boshlandi. Gitlerning Myunxen muzokaralarida bergan va'dalariga ishongan Angliya va Fransiyaning Germaniyaga nisbatan «yumshoq siyosati» yakunda, butun dunyoni qamrab olgan Ikkinchi Jahon

24 Namoyish chog'ida Nevil Chamberlen o'z xalqiga Myunxenda Gitler bilan imzolagan kelishuvni ko'rsatmoqda



(Manba: Granger/PPS xabarlari)

urushiga olib kelgan muhim sabablardan edi.

Yuqoridagi ikkita misolga nazar tashlasak, shartnoma «shunchaki bir qog'oz parchasi» bo'lib tuyuladi. Agar shartnoma yoki umuman keng

ma'nodagi xalqaro huquq shunchaki qog'oz parchasi bo'lmasa, unda xalqaro huquq qanday yuridik kuchga ega?

(2) Xalqaro huquqning yuridik majburlov kuchi nimada?

Shartnomalarni o'z ichiga oluvchi xalqaro huquqning yuridik kuchga ega bo'lishini qanday qilib izohlasa bo'ladi?

XXI asrning zamonaviy xalqaro hamjamiyatida ham turli xil xalqaro nizolar va voqea-hodisalar ro'y berib turadi. Lekin aksariyat hollarda ushbu hodisalarga taraf bo'lgan mamlakat rahbarlari va hukumat a'zolari o'z davlatlarining xatti-harakatlarini xalqaro huquq normalariga mos ravishda amalga oshirilganligini ta'kidlaydilar. Ya'ni hozirgi davrda hech bir davlat «xalqaro huquqqa rioya qilish shart emas» yoki «bizning davlat xalqaro huquqni buzmoqchi» deb ochiqchasiga iddao qilib chiqmaydi. Mazkur holat shuni anglatadiki, xalqaro huquqqa qat'iy amal qilinganligi yoki uning normalari buzilganida qo'llanilayotgan sanksiyalarning samaradorlik darajasidan qat'i nazar, «xalqaro huquq amal qilinishi shart bo'lgan huquq» degan tushunchaga nisbatan bugungi xalqaro hamjamiyatda yakdil fikr mavjud. Avvalroq aytib o'tganimizdek, Birinchi Jahon urushi boshlanishida Germaniya Belgiyaning abadiy betaraflik huquqini buzib, bostirib kirganda, ular tomonidan xalqaro huquq normalarini buzdi deya Angliya hukumati Fransiya tomonida turib Germaniyaga qarshi urush e'lon qilgan edi. Bu esa Germaniyaning Parijni zabt etishiga xalal bergan eng muhim omillardan biri bo'ldi. Buning

natijasida g'arbiy frontda Germaniya va Fransiya-Britaniya qo'shinlari o'rtasida xandaqlarda o'zaro jang olib borilgan uzoq muddatli qarama-qarshilik yuzaga keldi. Germaniya o'zi rejalashtirganidek harbiy harakatlarini amalga oshira olmadi. 1918-yilda Germaniya Birinchi jahon urushida mag'lubiyatga uchradi. Bundan tashqari, Angliya va Fransiya Gitlarning Myunxen bitimini buzgan holda Chexiyani anneksiya qilishi, Germaniyaga nisbatan ular tutgan yumshoq siyosat natijasi ekanligidan xulosa chiqardilar. Chunki aynan shunday siyosatdan ilhomlangan Germaniya Polshaga bostirib kirdi va Angliya bilan Fransiya davlatlari Germaniyaga qarshi urush e'lon qilishgacha borishdi. Shundan so'ng orada ba'zi burilishlar bo'lgan bo'lsa ham, 1945-yilda Germaniya Ikkinchi Jahon urushida mag'lubiyatga uchradi. Sudeten viloyati esa Chexoslovakiyaga qaytarib berildi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, xalqaro hamjamiyatda davlatning ichidagi kabi qonunni buzganlik uchun politsiya va sud kabi davlat hokimiyatiga tayanilib, tashkiliy va amaliy ravishda jazo choralari qo'llanilmaydi. Ammo xalqaro huquqqa amal qilinishi va undagi qadriyatlarni saqlab qolish uchun xalqaro huquq normalari buzilishiga qarshi sanksiyalar va ularni ijro etuvchi mexanizmlar bo'lishi zarur degan tushuncha xalqaro hamjamiyatda keng tarqalgan.

Hatto davlatlar ichida ham barcha qonunbuzarliklar uchun hamma vaqt sanksiyalar qo'llanilib, tuzatilavermaydi.

2-5 Yaponiya parlamenti majlislar zali



(Manba: Maslahatchilar palatasi kotibiyati)

2-6 BMT majlislar zali



(Manba: UN Photo/Milton Grant)

Masalan, agar siz bir mamlakat ichkarisida avtomobilda harakatlanayotgan paytda belgilangan tezlikni oshirsangiz, sizga nisbatan jarima sanksiyalari qo'llanganligi uchun boshqa barcha avtomobillar tezlik chekloviga amal qilmoqda degani emas. Lekin bu tezlikka nisbatan cheklovlarni o'rnatuvchi qonunlarning yuridik kuchi mavjud emas degan xulosani taqdim etmaydi. Mahalliy jamiyatlarda ham bunday qonunlar o'z yuridik kuchini saqlab qoladi deb tushunadigan bo'lsak, u holda xalqaro huquq ham xalqaro hamjamiyatda yetarli yuridik kuchga ega deb hisoblashimiz mumkin.

Xalqaro huquq normalari qanday ishlab chiqiladi va ular qanday tuzilishga ega?

(1) Xalqaro huquq normalari qanday ishlab chiqiladi?

Garchi davlatlar ichida qonunlar yaratishning o'ziga xos jarayoni har bir mamlakatda turlicha bo'lsa-da, ulardan ayrimlarida qonunlar maxsus qonun chiqaruvchi organlar, masalan, parlamentlar tomonidan ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi. Biroq hozirgi kunda, xalqaro hamjamiyat tizimida davlatning

ichki huquq tizimida mavjud bo'lgan «parlament» deb ataladigan qonun chiqaruvchi organ yo'q. Masalan, zamonaviy xalqaro hamjamiyatdagi eng universal va keng ko'lamda faoliyat olib boruvchi xalqaro tashkilot Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Bosh Assambleyasi va Xavfsizlik Kengashi kabi yirik institutlari mavjud (BMT Nizomining 7-moddasiga qarang). Bu organlar BMTga a'zo barcha davlatlarning vakillaridan tashkil topgan va har bir a'zo mamlakat bitta ovoz berish huquqiga ega. BMTning Bosh Assambleyasi bir qarashda davlatlardagi «parlament»ga juda o'xshaydi. Biroq BMT Bosh Assambleyasi tomonidan ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadigan qarorlar (rezolyutsiya) faqatgina tavsiyaviy kuchga ega bo'lib, yuridik jihatdan majburiy bo'lgan xalqaro huquq normalarini yaratish vakolatiga ega emas (→**Chapter 7**). Shuning uchun BMT Bosh Assambleyasini davlatlarning ichidagi «parlament» kabi vakolatlarga ega organ deyish mushkul (**2-5**), (**2-6**).

Shunday qilib, xalqaro hamjamiyatda qonun chiqaruvchi organ mavjud bo'lmasa, qanday qilib xalqaro huquq normalari ishlab chiqiladi?

Xalqaro huquq nuqtayi nazari-dan zamonaviy xalqaro hamjamiyat suveren davlatlar asosida quriladi (Xalqaro huquqdagi «davlat» masalasi bo'yicha qarang, (→**Chapter 3**)). Xalqaro huquq normalari xalqaro hamjamiyatning asosiy ishtirokchilari bo'lgan davlatlar o'rtasidagi «kelishuvlar» asosida ishlab chiqiladi. Hujjat (yozma) shaklida bo'lgan davlatlar o'rtasidagi «kelishuv» **shartnoma (konvensiya)** deb atalsa, hujjat (yozma) shaklida bo'lmagan va davlatlar o'rtasidagi sukut alomati rizo mazmunidagi «kelishuvlar» **xalqaro odat huquqi** deb nomlanadi.

Xalqaro huquq mavjud bo'lishning ikkita asosiy shakliga ega. Bular xalqaro shartnomalar, turli hujjatlarda yozilgan qonun-qoidalar hamda xalqaro odat huquqi (alohida hujjatda yozilmagan normalar) hisoblanadi. Biroq bularning asosida «kelishuvlar bajarilishi lozim» (*pacta sunt servanda*) degan asosiy prinsip yotadi. Shartnomalar to'g'risidagi umumiy qoidalarni belgilab beruvchi (Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasi) xalqaro shartnoma normalarida shunday deyilgan: «Ahdlashuvchi tomonlar o'rtasida kuchga kirgan barcha shartnomalar ular uchun majburiydir va ular ushbu shartnomalarni vijdonan bajarishlari shart» (26-modda). Ammo «sukut alomati rizo ma'nosida yuzaga kelgan kelishuv»larga asoslangan xalqaro odat huquqi ham majburiy yuridik kuchga egaligi shunchaki bir uydirma degan tanqidiy fikrlar ham namoyon bo'lmoqda.

(2) Xalqaro huquq qanday shaklda ko'rinadi?

Xalqaro shartnomalar, xalqaro odat huquqi va huquqning umumiy tamoyillari (prinsiplari)

Yuqorida aytib o'tilganidek, xalqaro huquq mavjudligining ikkita asosiy shakli mavjud. Bular xalqaro shartnomalar va xalqaro odat huquqidir. Xalqaro shartnomalar haqida batafsil **Chapter 4** da so'z yuritamiz. Shuning uchun mazkur bobda asosan xalqaro odat huquqi haqidagi ma'lumotlarni havola etamiz.

Xalqaro odat huquqi deganda xalqaro hamjamiyat tomonidan umumiy o'laroq qabul qilingan yozilmagan qonun-qoidalar tushuniladi. Xalqaro hamjamiyatda mahalliy jamiyat singari yagona qonun chiqaruvchi organ mavjud bo'lmagani sababli, qadimdan huquq, avvalambor, yozilmagan qoidalar shaklida rivojlanib kelgan. Transport va aloqa vositalarining jadal rivojlanishi natijasida hozirgi davrda avvalgidan ko'ra ko'proq xalqaro shartnomalar tuziladigan bo'ldi. Shunday bo'lsa-da, mahalliy jamiyatlar bilan solishtirganda xalqaro hamjamiyatdagi yozilmagan xalqaro odat huquqining egallagan o'zni hali ham yuqori darajada turibdi.

Xalqaro odat huquqi tan olinishi uchun ikkita shart mavjud. Bular a) davlatlar amaliyotining aralashuvi sifatida umumiy amaliyotning shakllangan bo'lishi (obyektiv talab); va b) ushbu amaliyotning normativ kuchiga nisbatan davlatlarda ishonch

(*opinio juris*) mavjudligi (subyektiv ta-lab) hisoblanadi.

Huquqiy ishonchga ega bo'lmagan umumiy amaliyot xalqaro hurmat (in-ternational comity) yoki siyosiy qaror-ga asoslangan amaliyot bo'lib, yuridik jihatdan majburiy bo'lgan xalqaro odat huquqidan ajralib turadi.

Xalqaro adolat sudi Nizomining 38 (1) – moddasining tegishli (a) va (b) bandlariga ko'ra, konvensiya (xalqaro shartnomalar) va xalqaro odat huquqi tegishli ravishda Xalqaro adolat sudida (ICJ) ishlarni ko'rib chiqish mezo-ni sifa-tida qo'llanilishi aniq belgilab qo'yilgan. Moddaning aynan shu qismida, (c) «Madaniylashgan millatlar tomonidan tan olingan huquqning umumiy ta-moyillari» va (d) huquqdagi qoidalarni aniqlashning yordamchi usuli sifatida «sud qarorlari» va «nazariyalar» ham mezon sifatida belgilangan (2-7).

Ular orasidan (c) «huquqning umu-miy huquq prinsiplari»dan maqsad esa xalqaro huquqda tatbiq etiladigan nor-malarning (shartnomalar yoki xalqaro odat huquqi) mavjud bo'lmasligi hol-larida sudlarning faoliyati falaj holga kelib qolmasligi uchundir. Qisqacha qilib aytganda, mahalliy huquqning umumiy prinsiplaridan foydalanishni tan olgan normadir. Shu bilan birga, bugungi kunda, unga nisbatan shart-nomalar va xalqaro odat normalari-dan keyin turuvchi xalqaro huquqning to'ldiruvchi uchinchi manbasi sifatidagi qarash ham mavjud. Bunga qarama-qarshi o'laroq, sud qarorlari va ilmiy nazariyalar esa «huquqdagi qoidalarni aniqlashning yordamchi usuli sifatida»

2-7 Xalqaro adolat sudi nizomi, 38-modda

1. Mazkur sud xalqaro huquq normalariga asosan o'z funksiyalarini bajarish jarayonida nizolarni hal qilish uchun quyidagilarni tatbiq qiladi:

(a) Xalqaro nizolarda qatnashayotgan davlatlar tomonidan oshkora tan olingan umumiy yoki maxsus xalqaro konvensiyalar;

(b) Huquqiy norma sifatida qabul qilingan umumiy amaliyotning dalili o'laroq xalqaro odat;

(c) Madaniylashgan millatlar tomonidan tan olingan huquqning umumiy tamoyillari;

(d) 59-modda ko'rsatmalariga rioya qilgan holda, huquqdagi qoidalarni aniqlashning yordamchi usullari sifatida, sud qarorlari va turli millatlarning eng yuqori malakali xalqaro huquq olimlarining qarashlari.

qaralib, xalqaro shartnomalar va xalqaro odat huquqi kabi xalqaro huquqning asosiy manbalarining mazmuniga doir noaniqliklarni topishda yordamchi vazifani bajaradi, xolos (→**Chapter 12**).



Xalqaro huquqning yuridik kuchi

(1) Xalqaro huquqning o'zaro ta'sir kuchi

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, xalqaro huquq alohida xalqaro shart-noma, xalqaro odat va ba'zi hollarda umumiy huquq prinsiplari shaklida mavjud bo'ladi. Agar ushbu xalqaro normalardan ba'zilari bir-biriga zid bo'lsa yoki biri boshqasini inkor etsa, xalqaro huquqning bunday normalari

orasidagi munosabatlar iyerarxik kuchi qanday muvofiqlashtiriladi?

Agar ikki yoki undan ortiq xalqaro huquq normalari o'rtasida ziddiyat paydo bo'lsa, nisbatan keyinroq qabul qilingan huquq normasining kuchi avvalgisidan yuqori turadi. Ya'ni «**so'nggi qonun ustunligi tamoyili**» (leges posteriores priores abrogant) bilan aniqlanadi. Shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasi shartnomalarning o'zaro munosabati masalasini aynan yuqoridagi qoidaga ko'ra belgilaydi (30-modda). Bundan tashqari, «maxsus qonunlar umumiy qonunlardan ustun» degan «**maxsus qonun ustuvorligi tamoyili**» (lex specialis principle) ham qo'llanilishi mumkin.

Biroq yuqorida qayd etilgan ikkita tamoyil faqat xalqaro normalar **imperativ** (*qat'iy - jus cogens*) normalar bo'lmagandagina qo'llaniladi. Umumiy xalqaro huquqning imperativ normalariga kelsak, ular Shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasida ham o'z aksini topadi. Imperativ normaga mazkur konvensiyada «har qanday tarzda og'ishga yo'l qo'yilmaydigan norma hisoblanib, faqatgina keyinchalik vujudga kelgan xuddi shu kabi xarakterdagi xalqaro imperativ normalar tomonidan o'zgartirilishi mumkin bo'lgan norma sifatida davlatlardan tashkil topgan xalqaro hamjamiyat tomonidan qabul qilinib, tan olingan norma» deya ta'rif berilgan (53-modda). Agar xalqaro huquqning ma'lum bir huquq normasi imperativ norma bo'lsa, u normaning o'rnatilish vaqtidan yoki normaning umumiylikidan va

o'ziga xosligidan qat'i nazar, boshqa xalqaro normalardan doimo ustun turadi. Zamonaviy xalqaro huquqda imperativ normalar sifatida qanday huquq normalari tan olinishi lozimligi borasida munozaralar mavjud. Ammo bir narsani aniq aytish mumkinki, BMT nizomining 2-moddasi 4-bandida ko'rsatilgan kuch ishlatmaslik majburiyati aynan imperativ norma ekanligiga deyarli shubha yo'q.

Xalqaro sudning 38-moddasi 1-bandida ko'zda tutilgan xalqaro shartnomalar, xalqaro odat va umumiy huquq prinsiplari singari xalqaro huquq normalaridan tashqari, bir qancha xalqaro huquqiy me'yorlar ham mavjud. Ular qat'iy yuridik kuchga ega emas. Ammo muayyan yuridik ahamiyatga ega. Bunga misol qilib, xalqaro tashkilotlarning rezolyutsiyalari (masalan, BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyasi)ni yoki xalqaro konferensiyada qabul qilingan (masalan, 1975-yilda Xelsinki shahrida Xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha Yevropa Kengashining yakuniy protokoli) kabi hujjatlarni keltirishimiz mumkin. Bu kabi normalar xalqaro huquqda **yumshoq huquq** «soft law» sifatida e'tirof etilishi va ularning qandaydir huquqiy ta'sirga ega bo'lishi kerakligi haqida qarashlar mavjud. Lekin majburiy kuchga ega bo'lgan imperativ normalaridan farqli o'laroq, bu kabi normalar Shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasida aniq ifodasini topmagan. Shu sababli ularning ta'rifi va yuridik kuchi hali aniq belgilanmagan bo'lib, hanuzgacha pozitiv xalqaro huquqda o'zining aniq konsepsiyasiga ega emas.

(2) Xalqaro huquqning davlatning ichki jamiyatidagi yuridik kuchi – Xalqaro huquq va mahalliy huquqning o‘zaro bog‘liqligi

Quyida har bir mamlakatning ichki jamiyatiga nisbatan xalqaro huquqning yuridik kuchi to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Eng avvalo, xalqaro hamjamiyatni tartibga solib turuvchi normalar yig‘indisi sifatida xalqaro huquq va mahalliy jamiyat qonuni sifatida davlatning ichki qonunlari o‘zaro qanday munosabatda ekanligi e‘tiborga molik.

Ilmiy nazariyalarga ko‘ra, xalqaro huquq va ichki huquq o‘rtasidagi aloqadorlik bo‘yicha ikki xil yondashuv bor. «Monizm» nazariyasiga ko‘ra, xalqaro huquq va ichki huquq yagona huquqiy tizim ichida bo‘lib, ulardan biri boshqasiga ustunlik qiladi. «Dualizm» nazariyasiga ko‘ra esa, xalqaro huquq va ichki huquq kelib chiqishi farqli bo‘lgan huquqiy tizimlarga oid bo‘lib, bir-biri bilan mutlaqo aloqadorlikda emas. Monizm nazariyasi ham o‘z o‘rnida ikkiga ajraladi. Ular xalqaro huquqning ichki huquqdan ustun turishini da‘vo qiluvchi «xalqaro huquq ustunligiga oid monizm» qarashi va ichki huquqning xalqaro huquqdan ustunligini belgilovchi «ichki huquqning ustunligiga oid monizm» qarashi hisoblanadi. Bular orasida «ichki huquqning ustunligiga oid monizm» qarashiga ko‘ra, davlatlarning bir tomonlama qarori bilan qabul qilinadigan ichki huquq tizimi xalqaro huquqdan ham ustun turganligi uchun xalqaro huquqning majburlov kuchini rad etishga olib borganligi sababli qo‘llab-quvvatlanmaydi.

2-8 Vena universitetidagi
Hans Kelsenning byusti



«Xalqaro huquq ustunligiga oid monizm» qarashi – bu xalqaro huquqiy tartibni har bir davlatning ichki huquqiy tizimidan ustuvor deb hisoblovchi qarashdir (→ **Keysbuk 5: Alabama kemasi ishi**). Mazkur nazariya Birinchi Jahon urushidan so‘ng, xalqaro hamkorlikning ahamiyati juda ham kuchli bo‘lgan bir paytda, 1920-yillarda Vena universiteti professori Hans Kelsen (1881-1973) (2-8) kabi olimlar tomonidan ilgari surilib, o‘sha vaqtning ilg‘or nazariyalaridan bo‘lgan. Bunga qarama-qarshi tarzda, xalqaro huquq va ichki huquqni alohida huquqiy tartibot sifatida ko‘ruvchi nazariya ham mavjud. Ushbu nazariya real voqelikni bevosita ifodalaganligi uchun ham bugungi kunda sezilarli darajada qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Keling, xalqaro hamjamiyatda xalqaro huquq davlatlarning ichki jamiyat-

larida qanday qo'llanilayotgani haqida fikr yuritib ko'raylik. Xalqaro huquqning davlatlar ichida amalda qo'llanishi uchun xalqaro huquq normalari har bir mamlakatda milliy huquq sifatida qabul qilinishi lozim. Buning uchun har bir mamlakatda **«o'zgartirish» (transformation)** usuli yoki **«qabul qilish» (incorporation)** usulidan foydalaniladi. Birinchi usulda Xalqaro huquq ichki huquq sifatida qo'llanilishi uchun ichki normativ-huquqiy hujjatlarga «o'zgartirish» kiritiladi va xalqaro huquq normasi ichki hujjatlarda aks etadi. Ikkinchi usulda xalqaro huquq bor holicha «qabul qilinadi (odatda)» va shundayligicha qo'llaniladi. Yaponiya va boshqa ko'pgina mamlakatlar keyingi inkorporatsiya usulidan foydalanadi.

Shunday qilib, shartnomalar va xalqaro odat kabi aniq xalqaro huquq me'yorlari ichki qonunchilikda yuridik kuchga ega deb e'tirof etiladi. Ammo yana bir masala mavjud. Bu masala xalqaro huquqning ushbu ichki huquq tizimidagi o'rni masalasidir. Masalan, Yaponiyaning ichki huquqiy tizimi eng yuqorida Konstitutsiya o'laroq, qonunlar, hukumat qarorlari, vazirlik qarorlari va mahalliy o'zini o'zi boshqaruv organlari qarorlari kabi normativ-huquqiy hujjatlar iyerarxiyasini shakllantiradi. Ammo xalqaro shartnomalar va xalqaro odat huquqi normalaridan tashkil topgan Xalqaro huquq milliy huquq tizimi iyerarxiasining qaysi pog'onasidan joy egallagan? Xalqaro huquqning milliy huquq tizimidagi o'rni har bir davlatda o'ziga xosliklar-

ga ega. Masalan, Yaponiyada xalqaro shartnomalar Konstitutsiyadan quyida, lekin qonunlardan yuqori o'rinda turadi.

Shu bilan birga, xalqaro huquq ichki qonunlardan yuqori deb tan olingan degani barcha xalqaro shartnomalar va xalqaro odat huquqi normalari to'g'ridan to'g'ri ichki qonunchilikda amal qiladi va to'g'ridan to'g'ri ichki sudlarda qo'llaniladi degani emas. Masalan, ba'zi xalqaro shartnomalar normalari davlatlarga faqatgina oldinga harakat qilishga chorlovchi majburiyatlarni yuklashi yoki mahalliy qonunchilik tizimini isloh qilish majburiyatlarini yuklashi mumkin. Bunday xalqaro shartnomalar qoidalari esa milliy sudlarda bevosita tatbiq etilishga yaroqli emas. Xalqaro shartnomalar qoidalari to'g'ridan to'g'ri ichki sudlarda qo'llanilishi uchun ushbu xalqaro shartnoma normasi «To'g'ridan to'g'ri ijro etiladigan (self-executing)» xususiyatga ega bo'lishi lozim. Ma'lum bir shartnomaning normalari bunday xususiyatga ega deya tan olinishi uchun ular ochiqlik va aniqlikka ega bo'lishi lozim. Yaponiya milliy sudlarining ba'zi qarorlari shuni ko'rsatadiki, Fuqarolik va siyosiy huquqlarga doir inson huquqlari bo'yicha xalqaro paktning ba'zi qoidalari Yaponiyada to'g'ridan to'g'ri qo'llaniladi. Lekin ko'p hollarda Yaponiya ichki sudlari inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalardan qonunchilikni sharhlashda qo'shimcha ma'lumot sifatida foydalanadi (ya'ni bilvosita qo'llash) (→ **Chapter 8**).

4 Agar xalqaro huquqqa zid xatti-harakatlar sodir etilsa nima bo'ladi? Xalqaro huquqda javobgarlik

(1) Xalqaro huquqda davlatlarning javobgarligi

Xalqaro huquqning buzilishi xalqaro huquq bo'yicha huquqiy javobgarlikka olib keladi. Avvallari xalqaro huquqda javobgarlik subyekti davlatlar hisoblangan. Lekin so'nggi paytlarda xalqaro tashkilotlar va shaxslar kabi davlatlardan boshqa xalqaro huquq subyektlari ham xalqaro huquq bo'yicha javobgar bo'ladigan holatlar mavjud. Davlatlarning xalqaro huquqqa asosan javobgarlikka tortilishi xalqaro huquqda **davlatlarning javobgarligi** deb nomlanadi.

Xalqaro huquqda davlatlarning javobgarligi masalasida xalqaro hamjamiyatda uzoq vaqt davomida kodifikatsiya ishlari olib borildi. BMTning Xalqaro huquq komissiyasi (ILC) uzoq yillar davomida ishlab chiqib, 2001-yilda BMT Bosh Assambleyasida qabul qilingan **Davlatlarning javobgarligi to'g'risidagi qoidalar** (Xalqaro huquqqa zid xatti-harakatlarga nisbatan davlatlarning javobgarligi to'g'risidagi qoidalar) davlatlarning javobgarligi bo'yicha umumiy qoidalarni o'zida jamlaydi. Ushbu xalqaro hujjat majburiy yuridik kuchga ega bo'lmasada, davlatlarning javobgarligi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqishda muhim hujjat hisoblanadi.

Ushbu qoidalarga muvofiq, xalqaro huquq bo'yicha davlatlarning javobgarligi davlat tomonidan xalqaro

huquq normalari buzilgan taqdirda yuzaga keladi. Xususan, (1) davlat tomonidan xalqaro majburiyatlari bajarilmaganligi holati mavjud bo'lsa, (2) ushbu xalqaro huquqqa zid xatti-harakat davlatga tegishli bo'lsagina yuzaga keladi. Aynan mana shu ikki elementlarning mavjudligi davlat tomonidan xalqaro huquqbuzarlik sodir etilganini anglatadi (Davlatlarning javobgarligi to'g'risidagi qoidalarning 2-moddasi). Biroq yuqoridagi elementlar mavjud bo'lsa-da, davlat tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlikni istisno etuvchi asosli sabablar mavjud bo'lsa, davlatning javobgarligi istisno etilishi mumkin. Davlatlarning javobgarligi to'g'risidagi qoidalarda o'zaro rozilik, o'zini-o'zi himoya qilish, qarshi choralar ko'rish, fors-major holatlari, zaruriyat va favqulodda holat kabilar javobgarlikdan istisno qiluvchi oltita sabablar sifatida ko'rsatilgan (20–25-moddalar).

(2) Davlatlarning javobgarlikka tortilishi oqibatlarini va ularni javobgarlikdan ozod qilish usullari (2-9)

Agar yuqorida aytib o'tilganidek, davlatning javobgarligi yuzaga kelsa, xalqaro huquqbuzarlik natijasida zarar ko'rgan davlat qanday shaklda zarar yetkazgan davlatga nisbatan da'vo qilishi mumkin? Bunday vaziyatda zarar ko'rgan mamlakat unga zarar yetkazgan mamlakatning javobgarlikka tortilishi uchun zarur bo'lgan vosita va usullarni izlaydi. O'z navbatida, xalqaro huquqbuzarlik sodir etgan mamlakat ham javobgarlikdan ozod qilinishi uchun barcha vosita va usullarni ko'rib chiqadi. Davlatlarning javobgarligi to'g'risidagi qoidalarga binoan, zarar

Davlatning xalqaro huquqqa xilof xatti-harakatlari uchun javobgarligi (1-modda).

Davlatning xalqaro huquqqa xilof xatti-harakatining elementlari (2-modda).

Xatti-harakat davlatga tegishli bo'lsa;

davlat o'z xalqaro majburiyatini buzgan bo'lsa.

To'xtatish va takrorlamaslik. Xalqaro huquqqa zid xatti-harakat uchun javobgar bo'lgan davlat: (a) agar ushbu harakat davom etayotgan bo'lsa, uni to'xtatish; (b) agar zarar tug'ilsa, takrorlamaslik kafolati va shunday kafolatlarni taqdim etish (30-modda).

Reparatsiya. Davlatning xalqaro huquqqa xilof xatti-harakati tufayli yetkazilgan har qanday zararni qoplash majburiyati (31-modda).

Quyidagi 1-3 gacha bo'lgan usullarda alohida va birgalikda talab qilish mumkin (34-modda).

Qayta tiklash. Noqonuniy xatti-harakatlar sodir etilishidan avval yuzaga kelgan vaziyatni qayta tiklash uchun javobgar davlat (35-modda).

Kompensatsiya to'lash. Har qanday moliyaviy zararni, shu jumladan, foyda yo'qotilishini qoplash (36-modda).

Rozi qilish (Satisfaction). Davlatni rozi qilishi uchun huquqbuzarlikni tan olish, pushaymonlik, rasmiy uzr so'rash yoki boshqa tegishli holat bo'lishi mumkin (37-modda).

yetkazgan davlat yetkazilgan zararni qoplash (reparation) majburiyatini oladi. Xususan, asl holatini tiklash, moliyaviy kompensatsiya va zarar yetkazilgan mamlakatning bajarilgan ishdan qoniqish hosil qilishi (satisfaction) kabi usullar mavjud. Bunda majburiyatlar davlatlar tomonidan birgalikda yoki

individual tarzda bajarilishi mumkin (Davlatlarning javobgarligi to'g'risidagi qoidalar 34-moddasi).

Avvalo, «**asl holatini tiklash**» degani xalqaro huquqqa xilof xatti-harakatlardan oldin mavjud bo'lgan holatga qaytarishni anglatadi (35-modda). Ammo buning iloji bo'lmasa yoki yetarli darajada avvalgi holatiga qaytarilmasa, «kompensatsiya» to'lanadi (36-modda). Asl holatini tiklash yoki pul vositasida zararni qoplash bilan oldingi holatni tiklashning imkoni bo'lmasa, huquqbuzar davlat qilgan huquqbuzarligini tan oladi (o'z aybini tan olish), afsusda ekanligini bildiradi va suratan kechirim so'raydi (37-modda). Bundan tashqari, agar huquqbuzar mamlakat tomonidan xalqaro huquqqa zid xatti-harakatlar davom ettirilsa, zarar ko'rgan davlat ushbu xatti-harakatlarni «**to'xtatish**» talabi bilan yoki «**huquqbuzarlikning takrorlanishining oldini olish bo'yicha kafolat**» talab qilib chiqishi mumkin (30-modda) (Davlatlarni javobgarlikdan ozod qilish bo'yicha → **Key-buk 26: Avena va boshqa Meksika fuqarolari ishi**).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yuji Iwasawa, «Shartnomalarning davlat ichida tatbiq etish imkoniyati». – Yuhikaku nashriyoti, 1985-yil.
2. Yoshihiko Ogawa, «Shartnomalar huquqining nazariyasi». – Toshindo nashriyoti, 1989-yil.
3. Shinya Murase, «Xalqaro qonunchilik». – Toshindo nashriyoti, 2002-yil.
4. Shigeki Sakamoto, «Shartnomalar huquqi nazariyasi va haqiqiy holati». – Toshindo nashriyoti, 2004-yil.

Chapter 3

Davlat o'zi nima? Davlatlar qay tariqa tashkil topadi va tugatiladi?

«Davlat» o'zi nima?

(1) «Davlat» xalqaro hamjamiyatning subyekti sifatida va uning vujudga kelishi bilan bog'liq masalalar

Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat, biz xohlaymizmi yoki yo'qmi, davlatlardan tashkil topadi.

Biroq Iroq va Suriya hududida 2014-yildan keyin tezlik bilan kuch to'plab kengayib borgan «**Islom davlati**»(IS) (3-1) deb nomlanadigan ekstremistik tashkilot o'zini «davlat» deb nomlagan. Shunga qaramay, nega bu tuzilma xalqaro hamjamiyat tomonidan «davlat» sifatida tan olinmaydi? Shuningdek, Yaponiyaning yaqinida joylashgan sharqiy Osiyoning Tayvan, Gongkong va Makao kabi hududlar ham «davlat» sifatida tan olinadimi?

1357

Iroq va Shom islom davlati (ISHID) tomonidan yakson qilingan Parmila yodgorligi



(Manba: AP/Afloimages)

Aslida, xalqaro hamjamiyat tomonidan davlat sifatida e'tirof etilib, tan olinish uchun qanday shartlar mavjud?


Bugungi kunda BMT tomonidan rasmiy ravishda davlat sifatida tan olingan mamlakatlar soni 193 tani tashkil etadi. Lekin xalqaro hamjamiyatda ushbu 193 ta «BMT a'zolari»dan tashqari yana ba'zi «davlat» deb e'tirof etiladigan tuzilmalar va hududlar mavjud. Masalan, Italiya poytaxti Rim shahrida Rim papasi boshqaruv organi mavjud bo'lgan hudud «**Vatikan**» deb ataladi. Vatikan BMTning a'zosi hisoblanmasa-da, davlatning bir turi sifatida tan olinadimi?

Misol uchun, bugungi kunda «davlat» deb tan olingan hududning bir qismi yangi «davlat»ga asos solib, o'zini yangi davlat sifatida e'lon qilsa u tan olinadimi? Sharq va g'arb o'rtasida bo'lib o'tgan Sovuq urush 1990-yillardan so'ng yakunlangach, Yugoslaviya tarkibidan oltita mustaqil respublika «davlat» sifatida ajralib chiqdi. Shuningdek, Serbiyaning bir qismi hisoblangan Kosovo ham o'zini mustaqil davlat sifatida e'lon qildi. Bu kabi misollar amaliyotda kam emas.

Ularning orasida 2011-yilda Sudandan ajralib chiqib o'z mustaqilligini e'lon qilgan **Janubiy Sudan** kabi BMT a'zosi sifatida tan olingan davlatlar ham mavjud. Ammo Kosovo kabi Yaponiya

Chapter

3
Davlat o'zi nima? Davlatlar qay tariqa tashkil topadi va tugatiladi?




va boshqa ko'plab mamlakatlar tomonidan tan olinishiga qaramay, BMT a'zosi sifatida tan olinmayotgan davlatlar ham topiladi (3-2) (3-3). Masalan, Okinava kabi Yaponiyaning bir qismi bo'lgan hudud Yaponiyadan «mus-

taqil» ekanini e'lon qilib, yangi davlat tuzishining huquqiy jihatdan imkoni mavjudmi?

(2) «Davlat» deb e'tirof etilish uchun bo'lgan talab va qoidalar

Zamonaviy xalqaro huquqda, odatda, davlat deb tan olinish uchun quyidagi talablar mavjud. Bular: 1) amaliy hokimiyatga ega bo'lgan «hukumat»ning mavjudligi; 2) aniq «hudud»ga egaligi; 3) shu yerda doimiy yashovchi ma'lum bir «aholi»ning mavjudligi. Bular davlatning uch belgisi deb atalib, ushbu uchta belgiga ega bo'lgan tuzilma, qoida tariqasida, xalqaro hamjamiyat tomonidan davlat sifatida tan olinadi. 1933-yilda tuzilgan «Davlatlarning huquqlari va majburiyatlari to'g'risida»gi Amerika mamlakatlari Konvensiyasi (Montevideo konvensiyasi) ning 1-moddasi yuqoridagi uchta belgiga qo'shimcha sifatida «boshqa davlatlar bilan aloqalarga kirisha olish qobiliyati»,

BMTning yangi a'zosi Janubiy Sudanning joylashuvi



(Manba: Tashqi ishlar vazirligi veb-saytiga asosan tayyorlagan)

ya'ni tashqi diplomatiyani yurita olish qobiliyatini «Xalqaro huquqning subyekt sifatidagi davlat»ni tan olishning to'rtinchi belgisi sifatida o'rnatdi. Ushbu belgi «mustaqillik xususiyati» deb ham ataladi. Davlat ushbu to'rtinchi belgini ham o'zida mujassam etib, tashqi aloqalarga kirisha olishi yoki mustaqillik xususiyatini o'zida mujassam etishi lozim. Aynan mana shu xususiyat davlatning xalqaro huquqdagi to'laqonli subyekt ekani, ya'ni suveren davlat sifatidagi o'rnining tan olinishini anglatadi. Ushbu «tashqi aloqalarga kirisha olish qobiliyati» yoki «mustaqillik xususiyati»ni o'zida mujassam etmagan «davlatlar» esa suvereniteti cheklangan va xalqaro huquqning to'laqonli bo'lmagan subyektlari sifatida baholanishi mumkin.

2 Davlatning shakllanishi va tugashi – «davlat»ning vujudga kelishi, rivojlanishi, o'zgarishi va tugatilishi bilan bog'liq holatlar

(1) Davlat qanday shakllanadi? Davlatning vujudga kelishi va tan olinishi

Ko'rib o'tilganidek, xalqaro hamjamiyatda «davlat» sifatida tan olinish shartlari to'g'risida ma'lum bir umumiy qarash mavjud. Lekin bugungi kunning xalqaro huquqiy amaliyotida ma'lum bir tuzilma «davlat» sifatida tan olinishning talablariga javob berayotganligi yoki bermayotganligi haqida qaror chiqarishni ta'minlovchi mexanizm yoki protsedura mavjud emas. To'g'ri BMT biror «davlat»ni BMTga «a'zo davlat» sifatida tan olish yoki tan olmaslik bo'yicha qaror chiqarishi mumkin (BMT Nizomi, 4-modda). Ammo barcha mamlakatlar ham BMTga a'zolik

bo'yicha ariza bilan chiqavermaydi. Masalan, Shveysariya 2002-yilgacha BMTning a'zosi bo'lmagan bo'lsa, Shimoliy Koreya va Janubiy Koreya 1991-yildagina BMTga a'zo bo'lishgan. Shunday bo'lsa-da, Shveysariya ham, Janubiy Koreya ham BMTga a'zo bo'lguncha o'tgan davr oralig'ida xalqaro hamjamiyat tomonidan davlat sifatida tan olinib kelingan. Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, BMTga a'zo sifatida e'tirof etilish xalqaro hamjamiyat tomonidan davlat sifatida tan olinishning amaldagi isboti bo'lsa-da, barcha mamlakatlar ham BMT a'zosi bo'ladi degani emas.

Bunday holatning yuzaga kelishiga sabab bugungi xalqaro hamjamiyatda biror subyektini «davlat» deb topish uchun yagona mexanizmning hali vujudga kelmaganligidir. Xalqaro hamjamiyatda yangi bir davlat tashkil topdi deb e'lon qilinganda uni rasmiy ravishda tan olish yoki tan olmaslik masalasini har bir davlatning o'zi qaror qiladi. Biror «davlat» xalqaro huquqning subyekt sifatida davlatlar tomonidan tan olinishi bo'yicha alohida harakati xalqaro huquqda **davlatni tan olish** deb ataladi. Shu sababli A deb ataladigan davlatning vujudga kelgani e'lon qilinganda B davlat A davlatni davlat sifatida tan olsa, C davlat uni tan olmaydigan holatlar ham tez-tez uchrab turadi.

«Davlat tan olinishi» uchun yangi mustaqil bo'lgan mamlakat o'zini «davlat» sifatida e'lon qilganda, yuqoridagi uchta belgini o'zida haqiqatan ham mujassam etishi lozim. Shu bilan bir vaqtda, yangi davlatning tashkil



(Tashqi ishlar vazirligi veb-sayti asosida tayyorlangan)

etilishi xalqaro huquqdagi kuch ishlatmaslik tamoyiliga zid keladigan tarzda amalga oshirilmaligi darkor. Masalan, 1931-yilda Yaponiya tomonidan tashkil etilgan Manjuriya davlati tan olinmagan. Buning sababi sifatida o'sha paytdagi AQSh davlat departamenti boshlig'i Stimson tomonidan «(1928-yilda tuzilgan) Urush qilmaslik to'g'risidagi xalqaro shartnoma shartlarini buzish natijasida kelib chiqqan holat yoki tuzilgan davlat tan olinmaydi» degan **Stimson doktrinasi** amalda bo'lgani izohlanadi. Ikkinchi jahon urushidan keyin ham bu kabi tendensiya davom etgan. Masalan, 1965-yilda kam sonli oq tanli siyosatchilar tomonidan bir tomonlama mustaqilligi e'lon qilingan Rodeziya, 1976-yil Janubiy Afrikadagi aparteid tizimini qo'llab-quvvatlovchi kam sonli oq tanli siyosatchilar tomonidan bir tomonlama mustaqilligi e'lon qilingan Transkay, 1983-yilda Turkiyaning quvvatlovi ostida bir tomonlama mustaqilligini e'lon qilgan Shimoliy Kipr masalalarida BMT

Xavfsizlik Kengashining ularni tan olmaslik bo'yicha rezolyutsiyalari qabul qilingan. 2008-yilda Gruziyadan (2015-yildan boshlab Yaponiya Gruziya hukumatining iltimosnomasiga binoan mamlakat nomini Jorjiya (Georgia) deb ataydi) (3-4) ajralib chiqqanini aytib bir tomonlama mustaqilligini e'lon qilgan Janubiy Osetiya va Abhaziya ham Rossiyaning harbiy qo'llab-quvvatlovi ostida mustaqillikka erishgani sababli, ularni rasmiy jihatdan davlat sifatida deyarli hech bir xalqaro hamjamiyat a'zosi tan olmadi (Rossiya va ba'zi davlatlarga tan oldi).

Shuningdek, 2014-yilda Ukraina hududining bir qismi hisoblangan Qrimda Ukraina hukumatining qarshiligiga qaramay, Rossiya hukumatining amaliy yordami bilan mustaqillikka oid umumxalq referendumini o'tkazildi. Buning natijasida Qrim Ukrainadan mustaqil ekanini e'lon qilib, Rossiya hududiga qo'shilishini Rossiya hukumati bilan kelishdi. Xalqaro hamjamiyat mazkur holatni Rossiyaning amaliy yordami bilan amalga oshirilgan deb hisobladi. Shuningdek, Rossiya harbiy kuchi ishga solinib amalga oshirilgan mazkur Qrimni qo'shib olish harakati xalqaro huquq qoidalariga zid deb ta'kidladi. Natijada, Rossiyaga qarshi iqtisodiy sanksiya qo'llanildi.

Ushbu muammo bo'yicha Xavfsizlik Kengashining rezolyutsiyasi loyihasi 2014-yil 15-mart kuni Rossiya veto huquqidan foydalanishi natijasida chiqmay qoldi. Shundan so'ng 27-mart kuni Bosh Assambleya xuddi shu mazmundagi 68/262-son qarorini (100 ta rozi, 11 ta qarshi, 58 ta ush-



Rozilar (Qrimning qo'shilishini tan olmagan davlatlar)
 Qarshilar (Qrimning qo'shilishini tan olgan davlatlar)
 Ovoz berish huquqidan foydalanmagan davlatlar

bu ovoz berish huquqidan foydalanmagan, 24 ta qatnashmagan) qabul qildi (3-5). Demak, xalqaro hamjamiyatning ko'pchilik a'zolari Rossiya tomonidan Qrimning o'z hududiga birlashtirilishini xalqaro huquqqa zid deb hisoblaydi.

(2) Davlatning rivojlanishi, o'zgarishi, parchalanishi, tugatilishi

Shunday qilib, xalqaro hamjamiyat tomonidan rasmiy ravishda tan olingan «davlat» keyinchalik hududi o'zgarsa ham (kengayishi yoki torayishi), aholisi ko'paysa yoki kamaysa ham, harbiy to'ntarish yoki revolyutsiya natijasida uning «hukumati» o'zgarsa yoki almashsa ham davlat sifatidagi aslligini yo'qotmas ekan, xalqaro huquqning subyekti sifatida mavjud bo'laveradi.

Lekin 1989-yilda Berlin devorining qulatilishi natijasida sharqiy va g'arbiy Germaniyaning birlashuvi hamda 1991-yil Sovet Ittifoqining parchalanishi, keyinchalik Yugoslaviya tarkibidan 6 ta mustaqil davlatning ajralib chiqishi kabi davlatlarning birlashuvi, parchalanishi yoki ularning tugatilishi bilan bog'liq holatlar bugungi xalqaro hamjamiyatda tez-tez sodir bo'lib turadi. Bunday vaziyatlarda parchalanish yoki birlashish natijasida tugatilgan davlatlarning xalqaro huquqdagi huquq va majburiyatlari, shuningdek, ular ega bo'lgan mol-mulk va qarzlari yangi tashkil etilgan davlatlarga qanday qilib o'tadi degan muammo yuzaga keladi.



Tokio: Rossiya elchixonasi.



Tokio: Chexiya elchixonasi.



Tokio: Slovakiya elchixonasi

Shunday qilib, davlatning tugatilishi natijasida uning xalqaro hamjamiyatdagi huquq va majburiyatlari, mulklarining yangi tashkil topgan davlatga o'tishi masalalari **«davlatning huquqiy vorisligi»** deb ataladi. Yangi davlatga o'tishi mumkin bo'lgan huquq va majburiyatlar sifatida shartnomalarga muvofiq huquq-majburiyatlar yoki mol-mulk va qarzlarni o'z ichiga oladi. Davlatning vorisligi masalalari bo'yicha ikkita Vena shartnomasi mavjud bo'lib, ular ma'lum bir qoidalar asosida mazkur munosabatlarni tartibga soladi. Bular 1978-yilda qabul qilingan **«Shartnomalar bo'yicha davlatlarning huquqiy vorisligi to'g'risida»**gi Vena konvensiyasi va 1983-yilda qabul qilingan **«Davlatning mol-mulki, rasmiy hujjatlari hamda qarzlari yuzasidan davlatlarning huquqiy vorisligi to'g'risida»**gi Vena konvensiyasidir. Biroq yuqoridagi birinchi konvensiya 1996-yilda kuchga kirganiga qaramay, a'zolari soni juda kam bo'lsa, ikkinchi konvensiya esa hali kuchga kirmagan. Shunday ekan, xalqaro hamjamiyatda vorislik bilan bog'liq masalalar har doim ham ushbu ikki konvensiyaga

asoslanib amalga oshirilmaydi. Ko'p hollarda davlatlar o'rtasida tuziladigan vorislik bo'yicha alohida kelishuvlarga asoslaniladi.

Masalan, elchixonalarning davlatga tegishli bo'lgan mulklarining vorislik asosida biridan biriga o'tishi Yaponiya uchun tanish holatlardan biri hisoblanadi. 1991-yil Sovet Ittifoqining parchalanishi natijasida Tokiodagi Sovet Ittifoqi elchixonasi Rossiya elchixonasiga aylangan. Shuningdek, 1993-yilda Chexoslovakiyaning Chexiya va Slovakiya davlatlariga ajralishib ketishi natijasida Tokiodagi Chexoslovakiya elchixonasi Chexiya elchixonasiga aylangan bo'lsa, Slovakiya Tokioda o'zining yangi elchixonasini tashkil etgan (3-6).

3 Dunyoda turli xil «davlatlar» bor – davlatlarning o'xshash va farqli tomonlari

(1) Davlatlarning bir-biridan farqi

Yuqorida (1. da) ta'kidlab o'tilganidek, har bir davlat o'z hukumatiga, hududiga va aholisiga ega. Lekin har bir davlat ega bo'lgan aholisining soni yoki hududining kengligi jihatidan bir-biridan butunlay farq qiladi. Masalan, dunyodagi eng katta mamlakat Ros-

Hududiga ko'ra eng katta 10 ta davlat



(Manba: Adliya vazirligi statistika bo'limi «Dunyo statistikasi 2016»)

siyaning hududi 17 mln km²ni tashkil etadi (3-7). Boshqa tomondan, Tinch okeanida joylashgan bir qancha orol davlatlar va Monako, San-Marino, Lixtenshteyn kabilar juda ham kichik hududlarga ega mitti davlatlardir. Shuningdek, davlatlarning aholisi ham soni yuzasidan bir-biridan farq qilib, eng ko'p aholiga ega bo'lgan Xitoyda 1,3 milliarddan ko'proq odam yashasa, dunyodagi ba'zi mamlakatlarning aholisi bir necha o'n mingni tashkil etadi, xolos (Tuvalu, Nauru kabilar). Har bir davlatning iqtisodiy quvvati, moddiy boyliklari va harbiy salohiyati ham turli xildir. Shunday qilib, amaliyotda davlatlarning holatlari bir-biridan turli xil jabhalarda farq qiladi.

(2) Davlatlarning huquq va majburiyatlari – suverenitetning ma'nosi

Demak, turfa xil bo'lgan davlatlar xalqaro huquqda bir-biri bilan teng bo'lgan davlatlar sifatida qabul qilinadi. BMT Nizomining 2-moddasi 1-bandi unga a'zo mamlakatlarning «**suveren tengligi tamoyili**»ni belgilab beradi. Xo'sh, bu yerda «**suverenitet**» deganda aynan nima nazarda tutilmoqda?

Odatda, barcha davlatlar suverenitetga ega deb aytiladi. Davlat ega bo'lgan **davlat suvereniteti** tashqi siyosatdagi mustaqillikni anglatuvchi tashqi suverenitet va ichki siyosatda eng yuqori o'rinda turishini anglatuvchi ichki suverenitetga ajratiladi. Ichki suverenitet deganda davlat o'z



hududida mutlaq boshqaruv hokimiyatiga ega bo'lishi tushuniladi. Mazkur hokimiyat davlatning yer hududi, suv hududlari (→**Chapter 6**) va havo hududidan tashkil topuvchi kenglikda amal qiladi va **hududiy yurisdiksiya** deb ataladi. Shuningdek, davlat o'z fuqaroligiga ega bo'lgan shaxslar, ya'ni **aholisiga nisbatan yurisdiksiyaga** ham ega hisoblanadi (→**Chapter 8**). Davlat o'z fuqarosi bo'lgan jismoniy shaxslarga **pasportlarni** taqdim etadi. Masalan, Yaponiya pasportlarida «Yaponiya fuqarosi bo'lgan ushbu pasport egasini yo'llarda qiyinchiliklarga uchramay safar qilishini ta'minlash hamda ushbu shaxsga zarur bo'lgan himoya va yordamni berish tegishli vazifadagi xodimlardan talab etiladi» degan jumla mavjud. Ushbu jumla ustiga Yaponiya Tashqi ishlar vazirining nomidan yapon va ingliz tilida yozib qo'yiladi (3-8).

Davlat o'z aholisiga nisbatan yurisdiksiyasini amalga oshirishi asosan jis-

moniy shaxslarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ammo jismoniy shaxslar bilan chegaralanib qolmay, kompaniyalarning yuridik shaxs sifatidagi fuqaroligi hamda kemalarning fuqaroligi kabi masalalar yuzasidan ham davlat ma'lum darajada o'z yurisdiksiyasini yurita olishi tan olinadi (jismoniy shaxslarning fuqaroligi (→**Chapter 8**), kemalarning fuqaroligi (→**Chapter 6**)).

Shunday qilib «davlat suvereniteti»ning mazmunini sodda qilib tushuntiradigan bo'lsak, «davlat» kattami yoki kichikmi farqi yo'q, u baribir davlat hisoblanadi va o'zining qanday ko'rinishda va tuzilishda bo'lishidan qat'i nazar, xalqaro huquqda teng huquqlilikka asoslanib ega bo'ladigan aniq bir huquqdir. Bu **davlatning asosiy huquqi** deb ham nomlanadi. Aynan mana shu huquqdan bir qancha huquqlar kelib chiqadi. Misol sifatida, **tashqi diplomatik huquq, missiyalar yuborish huquqi, xalqaro shartnomalarni tuzish huquqi** kabilarni

3-8 Yaponiya pasportlari



chapdan: 1) *Diplomatik pasport;*
2) *Umumiy pasport;*
3) *Rasmiy pasport*

Yaponiyaning umumiy pasportidagi Yaponiya Tashqi ishlar vaziri nomidan yozilgan matn.

keltirishimiz mumkin (Diplomatik va konsullik huquqi, xalqaro shartnomalar haqida (→ **Chapter 4**)). O'zini-o'zi mudofaa qilish huquqini qo'shadiganlar bor. Shu kabi bir qancha harakatlarni amalga oshirish orqali har bir davlat xalqaro hamjamiyatning bir a'zosi sifatida teng ravishda faoliyat olib boradi.

Shuningdek, davlatlar o'zaro teng bo'lib, ichki va tashqi siyosatdagi mustaqilligining natijasi o'laroq har qanday ichki muammolarni (**ichki yurisdiksiyaga tegishli muammolar** deb ham ataladi) boshqa davlatlarning aralashuvisiz, o'z xohish-irodasiga tayanagan holda hal etishi mumkin. Bu **ichki ishlarga aralashmaslik tamoyili** deb atalib, xalqaro huquqning eng asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Lekin inson huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq sohalarda biroz istisnolar mavjud. So'nggi yillarda xalqaro shartnomalarda aks etgan xalqaro huquq normalarining ichki ishlarga ta'sir etishi va ularni tartibga solish holatlari ham kam emas.

(3) Davlat yurisdiksiyasi va uning qo'llanilishi

Har bir davlat o'z hududi (yer, suv va havo hududi)ga nisbatan davlat hokimiyatini o'rnatadi va bu davlat yurisdiksiyasi tomonidan qaraganda **hududiy yurisdiksiya** deb ataladi. Shu bilan birga, davlat o'z fuqaroligiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, kompaniyalar va kemalarga nisbatan yurisdiksiyasini amalga oshiradi. Bularning ichida ushbu davlatning fuqaroligiga ega bo'lgan jismoniy shaxslarga nis-

batan amalga oshiriladigan yurisdiksiya **tegishliligiga ko'ra yurisdiksiya** (shaxsga nisbatan yurisdiksiya) deb ataladi. Ushbu davlatning fuqaroligida bo'lgan kemalarga nisbatan amalga oshiriladigan yurisdiksiya esa **bayroq mamlakati yurisdiksiyasi** deb ataladi (→ **Keysbuk 18: Lotus ishi**).

Davlat o'zining yurisdiksiya bo'yicha vakolatlaridan foydalana olishi uchun xalqaro huquqda bir nechta tamoyillar belgilangan. Bulardan davlat o'zining hududiy hokimiyatiga asoslanib amalga oshiradigan **hududiylik tamoyili** eng asosiy tamoyil hisoblanadi. Bundan tashqari, shaxslarning tegishliligiga ko'ra yurisdiksiyani asos qilib amalga oshiriladigan **tegishlilik tamoyili** ham mavjud. Ushbu tamoyilning o'zi ham ikki turga bo'linadi. Bular harakatni sodir etgan shaxsning fuqaroligini asos qilib oluvchi **aktiv tegishlilik tamoyili** hamda sodir etilgan harakattan jabrlangan shaxsning fuqaroligini asos qilib oluvchi **passiv tegishlilik tamoyillaridir**. Albatta, bular asosiy tamoyil bo'lgan hududiylik tamoyilini to'ldiruvchi tamoyillardir.

Shuningdek, hududiylik tamoyiliga ko'ra, chet elda sodir etilgan harakatlarning ta'siri yoki oqibati ushbu mamlakat hududida kelib chiqishi mumkinligi inobatga olinadi. Bu kabi chet elda sodir etilgan harakatlarga nisbatan ham milliy qonunchilikni qo'llash lozim deb hisoblovchilar **kelib chiquvchi oqibat nazariyasi** vakillari hisoblanadi. Aksincha, davlatning xavfsizligi va davlatning muhim manfaatlariga putur yetkazuvchi harakatlar sodir etil-

ganda, sodir etilgan hududidan qat'i nazar, davlat o'z yurisdiksiyasini amalga oshirishi lozim deb hisoblovchilar **himoyaviy tamoyil** nazariyasi vakillari hisoblanadi. Bundan tashqari, xalqaro hamjamiyatning juda ham muhim bo'lgan umumiy manfaatlariga putur yetkazuvchi jinoyatlarga nisbatan ular sodir etilgan joy va ularni sodir etgan shaxslarning fuqaroligidan qat'i nazar, barcha davlatlar yurisdiksiyaga ega deb hisoblovchi **universal yurisdiksiya** qarashi ham mavjud. Ammo bu qarash ma'lum bir doiradagina (Xalqaro jinoyat huquqidagi universal yurisdiksiya yuzasidan) qo'llab-quvvatlanadi (→**Chapter 9**).

(4) Davlat immuniteti (suveren immunitet)

Suverenitetga ega bo'lgan davlat xalqaro huquqning tenghuquqli subyekti bo'lib, bu huquqiy jihatdan suveren tenglik tamoyili sifatida tan olinadi. BMT Nizomi ham «Xalqlarning tenghuquqliligi hamda o'z taqdirini o'zi belgilash tamoyili»ga (1-modda 2-band) asosanib, tashkilot sifatida BMTning asosini tashkil etuvchi eng muhim tamoyil o'laroq suveren tenglik tamoyilini o'rnatadi (2-modda 1-band).

Davlatlar xalqaro huquqda suveren teng degan tamoyilga asosanib, davlatlar bir-birlarining sud yurisdiksiyalariga bo'ysunmaydilar, degan tamoyil ishlab chiqilgan. Bu **davlat immuniteti** yoki **suveren immunitet** deb ataladi.

Davlat immunitetining o'zi ham ikki turga bo'linadi. Bulardan birinchisi davlatni boshqa davlatlar sudi

yurisdiksiyasidan immuniteti (sud immuniteti) bo'lsa, ikkinchisi boshqa davlatlar tomonidan qo'llaniladigan majburiy choralardan (ijro immuniteti) immuniteti hisoblanadi. Lekin davlat qanday xatti-harakatlar uchun va qanday doirada immunitetga ega bo'lishi masalasida avvaldan munozaralar mavjud. XVIII asrdan XIX asrgacha davlatlar suvereniteti mutlaq ekaniga urg'u berilgan. Bu davrlarda davlat tomonidan amalga oshiriladigan har qanday harakatlarga nisbatan immunitetning mavjudligi tan olinishi lozim degan **mutlaq immunitet tamoyili** amal qilgan. Yaponiyada ham o'sha vaqtdagi Oliy sud mahkamasi (hozirgi Oliy sud) qarorida (Xitoy Xalq davlati (hozirgi Tayvan) bilan kelishilgan veksellar ishida (1928-yil)) mazkur tamoyilga asoslanilgan va ushbu tamoyil uzoq yillar qo'llab-quvvatlab kelingan.

Biroq davlat tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar savdo bilan bog'liq faoliyat kabi turli yo'nalishdagi faoliyatlarni ham o'z ichiga ola boshladi. Natijada, ba'zi hollarda davlat jismoniy shaxs va kompaniyalar bilan deyarli farq qilmaydigan harakatlarni ham amalga oshirmoqda. Bugungi kunda davlat o'zi amalga oshiradigan barcha harakatlar yuzasidan immunitetga ega bo'lavermaydi. Shu sababli davlat harakatlari **suverenitet bilan bog'liq harakatlar** va **savdo bilan bog'liq harakatlar** kabi turlarga ajratiladi. Bulardan faqat birinchisi, ya'ni suverenitet bilan bog'liq harakatlarga nisbatan immunitet taqdim etilishini ilgari suruvchi **cheklangan immunitet**

tamoyili ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan mazkur harakatlarni bir-biridan ajratib olish uchun mezon sifatida **harakatning maqsadi nazariyasi** hamda **harakatning tabiati nazariyasi** mavjud. Xalqaro miqyosda cheklangan immunitet tamoyiliga asoslanib, BMT Xalqaro huquq komissiyasi (ILC) tomonidan tayyorlangan «BMT Davlat immuniteti to'g'risidagi konvensiya» 2004-yilda qabul qilingan. Natijada, cheklangan immunitet bo'yicha qarash umumiy tarzda tan olinadigan holga keldi. Yaponiyada ham 2006-yilda Oliy sud cheklangan immunitetini qabul qilgan qaror chiqaradi (**Pokiston hukumati iste'mol krediti bilan bog'liq ish**). 2010-yilda cheklangan immunitet tamoyiliga asoslangan ichki normativ-huquqiy hujjat ham kuchga kirib (Chet el davlatlari bo'yicha Yaponiyaning fuqarolik sudlovi yurisdiksiyasi to'g'risidagi qonun), BMTning Davlat immuniteti to'g'risidagi konvensiyasi ratifikatsiya qilindi.

Xalqaro amaliyotdan qaraydigan bo'lsak, Xalqaro adolat sudi (ICJ) 2012-yilda Germaniya va Italiya o'rtasidagi «Davlatning sud yurisdiksiyasidan immuniteti bo'yicha ish» (→ **Keybuk 12**) yuzasidan qaror chiqardi. Ushbu ishda Ikkinchi jahon urushi davrida natsistlar tomonidan xalqaro gumanitar huquq qoidalariga zid ravishda olib qo'yilgan, hozirda Italiyada joylashgan Germaniyaning davlat mulki (Villa Vigoni) Italiya ichki sudi tomonidan majburiy ijroga qaratilgan edi. Ammo

Italiya ichki sudi qarorini Germaniya tan olmagan edi. Xalqaro adolat sudi mazkur masala yuzasidan o'z qarorida Italiya tomonidan sodir etilgan harakatlarni xalqaro huquqdagi suverenitet bilan bog'liq immunitetlarning buzilishi sifatida tan oldi va Germaniya foydasiga qaror chiqardi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalqaro huquq nizolarini o'rganish ilmiy jamiyati, «Davlatni tan olish». – Yaponiya xalqaro huquq muammolari tadqiqot instituti, 1983-yil.
2. Xalqaro huquq nizolarini o'rganish ilmiy jamiyati, «Diplomatik aloqalarning qayta tiklanishi va hukumatlarning tan olinishi». – Keiyo xabarnomasi, 1988-yil.
3. Vang Zhi-an, «Xalqaro huquqda tan olish». – Toshindo, 1999-yil.
4. Mizushima Tomonori, «Suveren immunitetga oid xalqaro huquq». – Nagoya universiteti nashriyoti, 2012-yil.

Chapter 4

Davlatlararo hamkorlik – Xalqaro shartnomalar huquqi, diplomatik va konsullik aloqalari huquqi

1 Xalqaro shartnomalar tuzish

(1) Xalqaro shartnomalar va Xalqaro shartnomalar huquqi

Xalqaro shartnoma – xalqaro huquq subyektlari o'rtasida tuziladigan va xalqaro huquq tomonidan tartibga solinadigan bitimdir. Davlatlar o'rtasida tuziladigan xalqaro shartnomalardan tashqari xalqaro tashkilotlar va davlatlar yoki xalqaro tashkilotlar va ular o'rtasidagi shartnomalar ham mavjud. Masalan, AQSh va BMT o'rtasidagi «BMT bosh qarorgohi to'g'risidagi bitim», shuningdek, BMT va boshqa ixtisoslashgan tashkilotlar o'rtasida tuzilgan hamkorlik shartnomalarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Xalqaro shartnomalar umumiy tarzda yozma shaklda tuziladi. Ammo istisno tariqasida og'zaki xalqaro shartnomalar ham mavjud bo'lib, ularning yuridik kuchi yozma xalqaro shartnomalar bilan teng ko'riladi. Shuningdek, xalqaro shartnomalar «xalqaro huquq vositasida tartibga solingani» bois, davlatning ichki huquqi yordamida tartibga solinadigan shartnomalar (Elchixonada hududi va binosini ijaraga berish shartnomalari kabilar) va siyosiy kelishuvlar (1943-yildagi Qohira deklaratsiyasi va 2002-yildagi Yaponiya – Koreya tinchlik deklaratsiyasi kabilar) xalqaro shartnoma hisoblanmaydi.

Ma'lum bir xalqaro darajadagi matn xalqaro shartnoma ekanligi yoki xalqaro shartnoma emasligi borasida xulosa chiqarishda ularning amaliy sifatiga e'tibor qaratiladi. Shu sababli faqatgina nomiga qarab bir to'xtamga kelish to'g'ri emas (4-1). Masalan, davlatlar tomonidan bir taraflama amalga oshirilgan deklaratsiyalar (1945-yildagi Truman deklaratsiyasi) yoki BMTning umumiy yig'ilishlarida qabul qilinadigan deklaratsiyalar (1970-yilda qabul qilingan «Davlatlarning do'stona munosabatlariga taalluqli xalqaro huquq prinsiplari to'g'risida»gi Deklaratsiya) xalqaro shartnoma hisoblanmaydi. Boshqa tomondan Sobiq Sovet ittifoqi va Yaponiya o'rtasidagi 1956-yilgi deklaratsiya 1951-yilgi San-Fransisko shartnomasiga (4-2) qo'shilmagan Sovet ittifoqi bilan Yaponiya o'rtasidagi urush holatini bekor qilgan deklaratsiya hisoblanadi. Ushbu deklaratsiya hudud bilan bog'liq masalalarni oxiriga yetkazmay, «qo'shma deklaratsiya» deya nomlangan bo'lishiga qaramay, ratifikatsiya yorliqlari topshirilgan kundan kuchga kirishi belgilab qo'yilgan. Ushbu deklaratsiya yuzasidan 1956-yilning dekabrda ratifikatsiya yorliqlari almashilgan va kuchga kirgan. Shu sababli mazkur qo'shma deklaratsiya yuridik kuchga ega bo'lib xalqaro shartnoma hisoblanadi.

4.1 Xalqaro shartnomalar nomlari va ularga misollar

Xalqaro shartnomaning nomi	Xalqaro shartnomaning o'zbekcha tarjimasi	Misollar
Treaty O	Xalqaro shartnoma	San-Fransisko shartnomasi, Yevropa Ittifoqi shartnomasi
Convention O	Konvensiya	Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasi, Diplomatik aloqalar to'g'risidagi konvensiya
Agreement O	Kelishuv, bitim	Jahon savdo tashkiloti kelishuvlari
Protocol O	Protokol	Jeneva konvensiyalarining I qo'shma protokoli
Charter O	Nizom	BMT Nizomi, ASEAN Nizomi
Constitution O	Nizom	Xalqaro mehnat tashkiloti Nizomi, UNESCO Nizomi
Covenant O	Pakt, bitim	Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt
Statute O	Statut	Xalqaro adolat sudi statuti, Xalqaro jinoyat sudi statuti
Exchange of Notes O	Notalar almashinuvi	AQSh va Yaponiya o'rtasidagi xavfsizlik kelishuvi 6-moddasining ijro etilishi yuzasidan Notalar almashinuvi (1961-yil)
Arrangement	Kelishuv	Meksika bilan tuzilgan Iqtisodiy yordam to'g'risidagi kelishuv (1998-yil) O
Declaration	Deklaratsiya, bayonot	Sankt-peterburg deklaratsiyasi O (Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Ekologiya va rivojlanish to'g'risidagi Rio deklaratsiyasi)
Joint Declaration	Qo'shma bayonot	Sovet ittifoqi va Yaponiya o'rtasidagi qo'shma bayonot O
Memorandum of Understanding (MOU)	Anglashuv memorandumini	Yaponiya va AQSh o'rtasidagi ochiq osmon memorandumini O
Joint Communique; Joint Statement.	Qo'shma kommyunike Qo'shma bayonot	Yaponiya va Xitoy qo'shma kommyunikesi X

O: odatda yuridik kuchga ega bitimlar

X: yuridik kuchga ega bo'lmagan hujjatlar

*: BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyalari



(Manba: Yaponiya davlat arxivi veb-sayti)

Xalqaro shartnomalar bilan bog'liq xalqaro huquq normalari yig'indisiga xalqaro shartnomalar huquqi deb ataladi. 1969-yilda qabul qilingan «Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risida»gi Vena konvensiyasi (bundan keyin Vena konvensiyasi) xalqaro odat huquqi sifatida shakllanib kelgan xalqaro shartnomalar bilan bog'liq qoidalarni kodifikatsiya qilish bilan birgalikda xalqaro huquqning evolyutsion rivoji yo'lida bir qancha yangi qoidalarni ham o'zida jamlagan xalqaro hujjatdir. Vena konvensiyasi xalqaro shartnomalar huquqining juda ham katta qismini tartibga soladigan asosiy shartnomadir. Bugungi kunda uning ko'plab qoidalari xalqaro odat normalariga aylanib ulgurgan.

(2) Xalqaro shartnomalarni tuzish va uning tartibi

Xalqaro shartnomalarni tuzishda hamma vaqt amal qilinishi lozim bo'lgan aniq belgilangan qoidalar mavjud emas. Shartnomalarni tuzish


bo'yicha qat'iy qoidalarga amal qilib tuzilgan xalqaro shartnomalar, odatda, xalqaro shartnoma bo'yicha muzokara o'tkazish, xalqaro shartnoma matnini tayyorlash, qabul qilish, imzolash, ratifikatsiya qilish, ratifikatsiya yorliqlarini almashish yoki topshirish kabi bir qator jarayonlarni o'zida jamlaydi. Lekin bunday tartib soddalashtirilib, ratifikatsiya qilinishi talab etilmaydigan xalqaro shartnomalar ham mavjud (4-3).

(a) Xalqaro shartnomalarni tuzish vakolatiga ega bo'lgan shaxslar va ularga taqdim etiladigan ishonch yorliqlari

Davlatning qaysi bir organi xalqaro shartnomalarni tuzish vakolatiga ega bo'lishi masalasi har bir mamlakatning konstitutsion tuzumiga qarab farqlanadi. Odatda, davlat boshlig'i yoki hukumat boshlig'i bunday vakolatga ega bo'ladi. Hozirgi kunda qonun chiqaruvchi organning parlamentda shartnoma tuzish ishlariga oid vakolati mavjud. Yaponiyaning Konstitutsiyasi xalqaro shartnomalarni tuzish vakolatini hukumatga taqdim etgan bo'lsa, ularni ratifikatsiya qilish vakolatini esa parlamentga bergan.

Xalqaro shartnomalarni tuzish huquqini amalda ijro etish bunday vakolat topshirilgan **vakolatli shaxs** zimmasida bo'ladi. Vakolatli shaxs haqiqatdan ham davlatning nomidan shartnomalarni tuzishga vakolatli ekanligini aniqlash zarurati paydo bo'ladi. Shuning uchun muzokaralar boshlanishi oldidan davlatning vakolatli organi tomonidan berilgan va muzokaraga kelgan shaxsning vakolatli

4-8 Yaponiyada xalqaro shartnomalarni tuzish tartibi



Davlatlararo hamkorlik – Xalqaro shartnomalar huquqi, diplomatik va konsullik aloqalari huquqi

Yaponiya davlatida shartnoma tuzish uchun kerakli ishlar tugallansa-da, shartnomaga taraf bo'lgan boshqa bir davlatning holatiga ko'ra xalqaro shartnomaning kuchga kirishi cho'zilishi mumkin.

(Manba: Yaponiya Tashqi ishlar vazirligi veb-sayti asosida tuzib chiqilgan)

shaxs ekanligini tasdiqlovchi **ishonch yorliqlarini ko'rsatish** qoida tusiga kirgan (4-4).

(b) Xalqaro shartnomalar matnini qabul qilish va tasdiqlash

Muzokaralar natijasida xalqaro shartnomaning mazmuni bo'yicha bir to'xtamga kelingach, shartnoma matni qabul qilinib, shartnoma matni tasdiqlanadi. Shartnoma matni tasdiqlanishi uni haqiqiy va yakuniy deb topilganini anglatadi. Bundan keyin shartnoma matnini o'zgartirish yoki to'g'rilash bo'yicha amalga oshirilgan harakatlar tan olinmaydi. Xalqaro shartnomaning tasdiqlanishi uchun, odatda, vakolatli shaxs tomonidan imzo chekilishi (signature) talab etiladi (4-5). Davlatlar o'rtasida tuziladigan ikki tomonlama shartnomalarni imzo-

lash orqali shartnoma matnini qabul qilish va uni tasdiqlash bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi.

Bir necha mamlakatlar tomonidan tuziladigan ko'p tomonlama shartnomalarda esa shartnoma matnini tayyorlash va uni qabul qilish, odatda, BMT kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkiliy ravishda amalga oshiriladi. Hozirgi kunda BMT tarkibidagi Xalqaro huquq komissiyasi (ILC) deb ataluvchi maxsus bo'lim tomonidan xalqaro shartnomalarning loyihalari ishlab chiqiladi. Ular Bosh Assambleyada bo'ladigan umumiy yig'ilishlarda davlat vakillari tomonidan imzolanadi. Yoki bo'lmasa, tashqi aloqalar bo'yicha majlislarda imzolash uchun taqdim etiladi. Bugungi kunda ko'pincha shartnomalar matni ovozga qo'yilmaydi.

4-4 Ivakura missiyasi va ishonch yorliqlari



Ivakura missiyasi.

(Manba: Bridgeman/PPS xabarlari)



Davlat ishonch yorlig'i (Yaponiya davlat arxivi) (Manba: Yaponiya davlat arxivi veb-sayti)

Meyji davrining boshlarida G'arb mamlakatlariga yuborilgan ivakura missiyasi AQShda noteng shartnomalarini o'zgartirish bo'yicha muzokaraga kirishmoqchi bo'lgan bir paytda ishonch yorliqlarini ko'rsatish talab etilgan. Shuning uchun missiya a'zolaridan Okubo Toshimichi hamda Ito Hirobumi ataylab mana shu yorliqlarni olish uchun bir muddat Yaponiyaga qaytib kelgan. Ular ishonch yorliqlari bilan deyarli bir xil mazmundagi «Davlat ishonch yorlig'i»ni olib yana AQShga qaytganlar.

4.5 BMT Nizomining asl nusxasidagi imzolar qo'yilgan sahifa



(Manba: UN Photo/Rosenberg)

Uning o'rniga, davlatlarning to'liq roziligini olish o'ta chuqurlashtirilgan muzokaralardan o'tib, konsensus usuliga ko'ra amalga oshiriladi.

(c) Xalqaro shartnomaning majburiylikni tan olish bo'yicha davlat roziligining ifodalanishi

Ratifikatsiya. Xalqaro shartnomani imzolash hamma vaqt ham u bo'yicha majburiyat olishga berilgan rozilikni anglatmaydi. Rasmiy shartnomalarda har doim imzolashdan so'ng ratifikatsiya qilish (ratification) masalasi ham asosiy o'rinni egallab kelgan. Ratifikatsiya davlat tomonidan xalqaro shartnomaga yakuniy tarzda rozilik berilganini anglatuvchi eng an'anaviy usul hisoblanadi. Davlatlar amaliyotida muhim xalqaro shartnomalar bilan bog'liq vaziyatlarda, deyarli, ratifikatsiya usuliga tayaniladi.

Avvallari vakolatli shaxs haqiqatdan ham davlatning xohishini to'g'ri ifodalagan yoki ifodalamaganini aniqlash uchun ratifikatsiyaga ehtiyoj sezilgan. Hozirgi kunda esa, ratifikatsiyadan asl

maqsad sifatida shartnoma tuzishni demokratik yo'llar bilan nazorat qilish maqsadida, xalq vakili bo'lgan qonun chiqaruvchi organga shartnoma matnini tekshirish va uni tasdiqlash imkoniyatini berishda yotadi. Xalqaro shartnoma uni imzolagan tomonga ratifikatsiya qilish majburiyatini yuklamaydi. Xalqaro darajadagi harakat sifatida ratifikatsiya xalqaro shartnomaga oid ratifikatsiya yorliqlari taqdim etilganda o'zini namoyon etadi. Ratifikatsiya yorlig'i Yaponiyada Vazirlar Mahkamasi tomonidan ishlab chiqiladi va Imperator tomonidan tasdiqlanadi.

Ratifikatsiyadan boshqa usullar.

Xalqaro shartnomalarning davlat uchun majburiylikiga rozilik berishning ratifikatsiya qilishdan boshqa usullari ham mavjud. Bugungi kunda xalqaro shartnomalarning soni juda ham ko'pligi va ularga oid ishlarni qisqa muddatda hal etish zaruriyati borligi uchun, faqatgina imzolash orqali yoki yorliqlarni almashish (almashinuv yorliqlari) bilangina tuzilayotgan xalqaro shartnomalarning soni oshib bormoqda. Shu o'rinda aytish joizki, ratifikatsiya bilan bir xil darajadagi xalqaro huquqiy kuchga ega bo'lgan davlatlar roziligining ifodalash usullariga oid atamalar sifatida rozilik berish, tasdiqlash va a'zo bo'lib kirish so'zlari ishlatilmoqda.

(d) Parlament ratifikatsiya qiladigan shartnomalar va ijro organlari tuzadigan kelishuvlar

Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda Konstitutsiyaga binoan, xalqaro shartnomalar tuzishning demokra-

4-6

Parlament tomonidan tan olinadigan xalqaro shartnomalarga to'g'ri keladigan xalqaro kelishuvlarning 3 turi (1974-yil hukumat tomonidan bir ovozdan ma'qullangan)

1. Qonun bilan bog'liq masalalarni o'zida jamlagan kelishuvlar. Parlamentning qonun chiqaruvchi sifatidagi vakolati (Konstitutsiyaning 41-moddasi).

2. Byudjet bilan bog'liq masalalarni o'zida jamlagan kelishuvlar. Parlamentning davlat mablag'larini sarf qilish va davlat majburiyatlari bo'yicha vakolatini hurmat qilish (Konstitutsiyaning 85-moddasi).

3. Davlatlar o'rtasidagi umumiy va asosiy aloqalarni huquqiy jihatdan tartibga solish ma'nosida siyosiy ahamiyati yuqori bo'lgan xalqaro kelishuvlar. Shu sababli, kuchga kirishi uchun ratifikatsiya qilinishi lozim bo'lgan kelishuvlar.

4-7

Shartnomaning ratifikatsiyasi



1987-yil dekabr oyida imzolangan Qisqa va o'rta masofaga uchiriladigan raketalarni yo'q qilish to'g'risidagi shartnomaning (INF shartnomasi) ratifikatsiya yorliqlarini almashib, qo'l berib ko'rishayotgan AQS prezidenti Ronald Reygan va Sovet Ittifoqi kommunistik partiyasi birinchi kotibi Mixail Sergeyevich Gorbachyov (1988-yil, Moskva)

(Manba: AP/Afloimages)

tik nazoratini ta'minlash maqsadida, parlamentga xalqaro shartnomalarni tan olish vakolati berilgan. Shunday bo'lsa-da, barcha xalqaro shartnomalarni tan olishni parlamentning roziligidan o'tkazish amaliy jihatdan imkonsizdir. Yaponiyada ham parlament tomonidan rozilik berib tan olinishi lozim bo'lgan xalqaro shartnomalar (Konstitutsiyaning 73-modda 3-qismi) va tashqi aloqalar bilan bog'liq masalalarni hal etish uchun (73-modda 2-qism) hukumat tomonidan tuziladigan xalqaro shartnomalar (ijroviy kelishuvlar) bir-biridan ajratilgan (4-6).

(3) Xalqaro shartnomalarning kuchga kirishi va ro'yxatga olinishi

(a) Xalqaro shartnomalarning kuchga kirishi.

Xalqaro shartnomalarning kuchga kirishi bilan bog'liq masalalar har bir shartnomaning o'zida belgilab qo'yiladigan holatlar ko'p uchraydi. Misol uchun, BMTning Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyasida (1982-yil) «60-ratifikatsiya yorlig'i yoki a'zolik yorlig'i qo'lga kiritilgan kundan 12 oy o'tib kuchga kiradi» deb belgilanadi (308-modda 1-qism). Mazkur moddaga asoslanib ushbu xalqaro shartnoma 1994-yilning noyabr oyida kuchga kirgan. Bundan tashqari, o'zgacha shartlar mavjud bo'lmasa ratifikatsiya yorliqlarini almashish (ikki tomonlama xalqaro shartnomalarda) yoki depozit (ko'p tomonlama xalqaro shartnomalarda) orqali xalqaro shartnoma bo'yicha majburiyat olinganligi bildiriladi va xalqaro

shartnoma kuchga kiradi (4-7). Bunda imzolash yordamida kuchga kirgan xalqaro shartnoma hamda ratifikatsiya yorliqlarini almashish natijasida kuchga kirgan shartnomalar muvofiq ravishda imzolash yoki yorliqlarni almashish bilan kuchga kiraveradi. Yaponiya tuzgan shartnomalar Imperator tomonidan davlat harakati sifatida e'lon qilinadi (Konstitutsiyaning 7-modda 1-qismi) (4-8).

(b) Xalqaro shartnomalarni ro'yxatga olish

Xalqaro shartnomalar BMT kotibiyati tomonidan ro'yxatga olinadi. Ro'yxatga olish tizimi yashirin shartnomalar tuzish xavfini oldini olish maqsadida Millatlar Ligasi (Millatlar Ligasi Nizomi 18-modda) tomonidan yo'lga qo'yilgan. BMT Nizomida ham BMT kotibiyati tomonidan xalqaro shartnomalar ro'yxatga olinishi belgilangan. Shuningdek, ro'yxatdan o'tkazilmagan xalqaro shartnomalar BMT va uning organlari uchun hech qanday yuridik ahamiyat kasb etmasligi ham nazarda tutilgan (102-modda 2-band). Ammo ro'yxatga olinmagan shartnomalar ham BMTdan tashqari boshqa subyektlar uchun yuridik kuchga ega bo'lishi mumkin.

2 Xalqaro shartnomalardagi qo'shimcha shart

(1) Qo'shimcha shartning mohiyati

Qo'shimcha shart deganda «davlat xalqaro shartnomaning ma'lum bir moddasi bo'yicha uning yuridik kuchini tan olmaslik yoki uni o'zgartirishni maqsad qilib xalqaro shartnomani imzolash, uni ratifikatsiya qilish, tan olish yoki unga qo'shilish paytida o'ziga



Yaponiyada BMT Nizomi hamda Xalqaro adolat sudi statuti (1956-yil) e'lon qilinishi va unga imzo (imperator muhri) qo'yilgan sahifa.

(Manba: Yaponiya davlat arxivi veb-sayti)

xos bayonot (qo'llaniladigan so'zlar yoki nomining turlichaligi ahamiyatga ega emas) bilan chiqishi tushuniladi (Vena konvensiyasi 2-modda 1-qism «d» bandi). Qo'shimcha shart ko'p tomonlama xalqaro shartnomalarda o'zgacha tizimda ishlaydi. Ko'p tomonlama shartnomalarda imkon qadar ko'proq mamlakatlar a'zo bo'lishi maqsad qilinadi. Ammo xalqaro shartnomaning ma'lum bir qismiga rozilik bildirmagan davlat shartnomaga a'zo bo'lmasligi ham mumkin. Bu, albatta, afsuslanarli holatdir. Agarda ushbu mamlakatlarning shartnomaning ma'lum bir qismi bo'yicha qo'shimcha shart kiritish yuzasidan talablari qondirilsa, bu davlatlar ham shartnomada ishtirok eta oladilar.

(2) Xalqaro shartnomaning maqsadi va muvofiqlik mezonlari

Qo'shimcha shart kiritish aniq qoidalar bilan taqiqlangan xalqaro shartnomalar ham mavjud (BMTning

Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyasi 309-moddasi, Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi doiraviy konvensiyasi, 24-modda). Biroq bunday qoidalar mavjud bo'lmagan hollarda davlatning bir tomonlama e'lon qilayotgan bayonoti sifatida qo'shimcha shart qachon va qanday holatlarda xalqaro darajada tan olinishi va xalqaro shartnoma bilan qanday aloqadorlikda bo'lishi muammoga aylanadi.

Genotsid bo'yicha konvensiyaga qo'shimcha shart kiritish ishi (4-9) yuzasidan bildirilgan tavsiyaviy xulosada (1951-yil) Xalqaro Sud qo'shimcha shartni kiritish mumkinligi yuzasidan «qo'shimcha shart va xalqaro shartnoma maqsadining muvofiqligi me'zoni»ni muhokama etadi. Xulosa

Atama

Talqin qilish bo'yicha deklaratsiya

Ma'lum bir xalqaro shartnomalar normalarining qo'llanilishi turli xil shaklda talqin etilishi mumkin. Mana shunday vaziyatlarda ma'lum bir mamlakat qabul qiladigan talqin qilish shakli bir tomonlama e'lon qilinadi. Qo'shimcha shart kabi davlat tomonidan bir tomonlama bayonot berish bilan amalga oshirilsa-da, qo'shimcha shart bilan farq qiladi. Ya'ni mamlakatga nisbatan qo'llashning huquqiy oqibatlarini rad etish yoki o'zgartirishga qaratilmagani sababli, odatda, bunday deklaratsiyalarga ruxsat beriladi. Amaliyotda davlat tomonidan bir tomonlama bildirilgan qo'shimcha shart yoki talqin qilish bo'yicha deklaratsiyadan qay biri ekanini ajratib olish uchun ularning mazmuniga e'tibor qaratish lozim.

4-9

Xalqaro sudning Genotsid to'g'risidagi xalqaro shartnomaga qo'shimcha shart kiritish bayonotiga doir ish yuzasidan taqdim etgan tavsiyaviy xulosasi (1951)

Genotsid bo'yicha xalqaro shartnoma 1948-yilda BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilinishi bilan davlatlarga imzolash uchun taklif etildi. Ushbu xalqaro shartnomada qo'shimcha shart bo'yicha maxsus norma mavjud bo'lmagan bo'lsa-da, topshirilgan ratifikatsiya yorliqlari ichida 9-modda (Xalqaro sudning majburiy yurisdiksiyasini belgilovchi norma)ga nisbatan qo'shimcha shartni nazarda tutgan davlatlar ham mavjud bo'lgan. Biroq xalqaro shartnomani imzolagan mamlakatlarning bir qismi bunday qo'shimcha talab kiritilishiga qarshi chiqishgan. Shu sababli Bosh Assambleya Xalqaro sudan bu bo'yicha o'zining tavsiyaviy xulosasini chiqarishini so'rab murojaat etdi. Xalqaro sudga ko'ra barcha ishtirokchi mamlakatlar rozi bo'lsa, albatta, muammo bo'lmaydi. Ammo mazkur shartnomaning universal xarakteri va insoniylik maqsadlarini hisobga olib, davlatlarning keng ko'lamdagi ishtirokini ta'minlash maqsadida mazkur tamoyilni egiluvchan qoida sifatida qo'llash mumkin deb belgiladi.

sifatida, bunday harakatning Vena konvensiyasiga zid ekanini ta'kidlaydi (→**Keysbuk 29**). Shuningdek, qo'shimcha shart kiritishning tan olinishi boshqa shartnoma tomonlarining o'rtasida ham murakkab holatlarni yuzaga keltirib chiqaradi.

Irqiy kamsitishlarning har qanday ko'rinishlarini bartaraf etish to'g'risidagi konvensiyada (1965-yil) ushbu konvensiyaning mazmun va maqsadi bilan muvofiq kelmaydigan qo'shimcha

shartlar tan olinmasligi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, qo'shimcha shart kiritish uchun konvensiyaga a'zo mamlakatlarning uchdan ikki qismi rozi bo'lishi lozimligi talabi ham qo'yilgan (20-modda 2-qism). Ushbu konvensiya a'zolaridan biri hisoblangan Yaponiya mazkur konvensiyaning 4-moddasi «a» va «b» bandi (Irlarning Columnligini va uni keng yoyishni taqiqlovchi modda) Yaponiya Konstitutsiyasida belgilangan so'z erkinligi kafolatlariga zid kelmagan taqdirda o'z majburiyatlarini bajarishi bo'yicha qo'shimcha shart kiritgan.

Xalqaro shartnomalarni sharhlash

(1) Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasining shartnomalarni talqin qilishga oid qoidalari

Xalqaro shartnomalarni sharhlash uch usulga ajratiladi: obyektiv sharhlash, subyektiv sharhlash hamda maqsadiga ko'ra sharhlashdir.

Obyektiv sharhlash: xalqaro shartnomaning matni yuqori o'ringa qo'yiladi va unda foydalanilgan so'zlar hamda grammatikaga asoslanib sharhlashga harakat qilinadi.

Subyektiv sharhlash: xalqaro shartnoma tuzilayotgan paytdagi davlatning xohishi yuqori o'ringa qo'yilib, xalqaro shartnomani ishlab chiqish paytidagi tayyorgarlik harakatlari va o'sha paytdagi vaziyatga asoslanib shartnoma mazmuni sharhlanadi.

Maqsadiga ko'ra sharhlash: xalqaro shartnomani imzolagan davlatlar-

ning xohish-irodasidan alohida mustaqil ravishda xalqaro shartnomaning maqsadi ajratib olinadi va u yuqori o'ringa qo'yiladi. Mana shu maqsadga asoslanib shartnoma mazmuni sharhlanadi.

Vena konvensiyasi, avvalambor, xalqaro shartnomalarni ularda «foydalanilgan so'zning odatdagi ma'nosiga asoslanib, to'g'ri sharhlash»ni, ya'ni shartnoma matniga tayanib **obyektiv sharhlash** usulini xalqaro shartnomalarni sharhlash bo'yicha asosiy qoidaga aylantirdi. «Foydalanilgan so'zning odatdagi ma'nosi» deganda «matnning tuzilishiga qarab, ushbu xalqaro shartnomaning obyekti va maqsadiga asoslanib» chiqariladigan ma'no tushuniladi (Vena konvensiyasi 31-modda 1-qism).

«Matn»da xalqaro shartnomaning muqaddimasi va ilovalarni o'z ichiga olgan butun bir matnidan tashqari taraflarning roziligi ham aks etgan bo'ladi. Shuningdek, obyektiv sharhlashni to'ldiruvchi sharhlash sifatida subyektiv sharhlash ham tan olinadi. Bunda xalqaro shartnomalarni tayyorlash jarayoni va ularning tuzilish vaqtidagi holatlar hisobga olinadi (32-modda). Foydalanilgan so'zlarning odatdagi ma'nosiga asoslanib keltirib chiqarilgan sharhlashni yanada aniqlab olish maqsadida xalqaro shartnomaning tayyorlanish jarayoniga murojaat etiladigan holatlar ham kam emas. Ta'kidlash joizki, Vena konvensiyasi xalqaro shartnomalarni sharhlashning umumiy yo'lini ko'rsatish bilan kifoyalanadi. Shu sababli amaliyotda har

bir shartnomaning sharhlanishi turli xildagi usullarga tayanib amalga oshiriladi. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlarni tashkil etish bo'yicha xalqaro shartnomalar (masalan, BMT Nizomi)ni sharhlashda *maqsadiga ko'ra sharhlash* usulidan ham foydalaniladi.

(2) Bir necha tillarda tuzilgan xalqaro shartnomalar va ularni sharhlash

Xalqaro shartnomalar bir nechta tillarda tuziladigan hollar ko'p uchraydi. Ular teng yuridik kuchga ega bo'lgan asosiy tillar sifatida baholanib, xalqaro miqyosdagi yuridik kuchga ega bo'ladilar (Vena konvensiyasi, 33-modda). Asosiy til bo'lmagan tilga tarjima qilingan xalqaro shartnomalar xalqaro miqyosda yuridik kuchga ega bo'lmaydi va ularga asoslanib amalga oshirilgan sharhlashlardan ham xalqaro miqyosda foydalanilmaydi. Masalan, BMT Nizomining yapon tilidagi rasmiy tarjimasida asosiy tilda bo'lmagani uchun faqatgina davlatning ichida yuridik kuchga ega bo'ladi.

Bir nechta tillar asosiy bo'lgan xalqaro shartnomalarda «har bir asosiy tilda bir xil ma'no anglashilishi kutiladi» (33-modda 3-band). Lekin asosiy tillarda ham ba'zida ma'nosi bir-biridan farq qiladigan sharhlashlar kelib chiqadi. Bunday vaziyatlarda ham ikki xil holat yuzaga keladi. Masalan, Yaponiya va Koreya o'rtasidagi asosiy munosabatlar to'g'risidagi xalqaro shartnomada (1965-yil) aniq bir tilga asoslanib sharhlash nazarda tutilgan. Bu kabi holatda muammo yuzaga kelmaydi. Ammo ba'zi xalqaro shartno-



Rasmiy tillarda bayon etilgan matnlarning o'zaro ma'no jihatdan farqlanish ehtimoli

O'zini o'zi himoya qilish huquqi BMT Nizomining 51-moddasida belgilangan.

Yapon tilidagi rasmiy tarjimada «Buryoku kogeki = qurolli hujum» ingliz tilida «armed attack», fransuz tilida «agression armée», «individual yoki jamoaviy o'zini o'zi himoya qilishning ajralmas huquqlari» esa inglizchada «inherent right of individual or collective self-defence», fransuzchada «droit naturel de légitime défense, individuelle ou collective» deb bayon etilgan. Bu yerda rasmiy tillar bo'lgan ingliz va fransuz tilida bayon etilgan jumalarda biroq bo'lsa-da ma'no jihatdan farqlarning mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Yaponiya va Koreya o'rtasidagi asosiy munosabatlar to'g'risidagi xalqaro shartnoma

Mazkur xalqaro shartnomada «Tokioda ushbu xalqaro shartnoma teng bo'lgan tillar, yapon tili, koreys tili hamda ingliz tilida ikki nusxadan tayyorlandi. Sharhlashda o'zaro farqlar kelib chiqqanda ingliz tiliga tayiniladi» deb belgilangan¹.

¹ Tarjimonlar izohi. Bunday qoidani O'zbekiston Respublikasi tomonidan tuzilgan juda ko'plab ikki tomonlama investitsion shartnomalar (BIT)da uchratsih mumkin. Xususan, sharhlashda kelib chiqqan farqlar bilan bog'liq masala Metal-Tech vs Uzbekistan ishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Mazkur ishda ivrit tili hamda o'zbek tilidagi moddalarning sharhi bir-biridan boshqacha ma'no anglatadi. Shu sababli, markaz tegishli moddani ingliz tiliga asoslanib sharhlaydi (Yanada to'liqroq ma'lumot olish uchun → Keysbuk 59).

2. Ma'lumot o'rnida qayd etish joizki, yurtimizda ham shunday anklav hududlar mavjud. Ularning orasida biz almashtirgan hududlar ham bor.

3. Ma'lumot o'rnida: O'zbekiston Respublikasida Ramsar bitimi doirasiga ... ko'l suvlari kiritilgan.

malarda bunday qoida mavjud emas. Shu sababli bunday vaziyatlarda «barcha asosiy tillardagi sharhlashlarni eng yuqori darajada uyg'unlashtira oladigan ma'no»ga (Vena konvensiyasi, 33-modda 4-band) tayaniladi (4-10).

4 Xalqaro shartnomaning yuridik kuchi

(1) Xalqaro shartnomalarning haqiqiy emas deb topilishi

(a) Xalqaro shartnomalarni haqiqiy emas deb topish va Vena konvensiyasi

Vena konvensiyasi o'z muqaddimasida taraflarning erkin xohishi-irodasidan kelib chiquvchi roziligi tamoyili va shartnomalarni vijdonan bajarish tamoyili bilan bir qatorda, «va'daga vafo qilish lozimligi»ni anglatuvchi «pacta sunt servanda» tamoyilining universal, hamda fundamental tamoyil ekanligini ta'kidlagan. Kelishuv taraflarning erkin xohish-irodalari asosida yuzaga kelgan haqiqiy rozilikka asoslangan bo'lishi shart. Shu sababli agarda rozilikda nimadir kamchilik mavjud bo'lsa xalqaro shartnoma bekor qilinishi mumkin. Shuningdek, kelishuvning mazmuni imperativ normalar (jus cogens)ga (→ Chapter 2) zid kelsa ham xalqaro shartnoma haqiqiy emas deb topiladi. Lekin bunday xulosaga kelish ushbu xalqaro shartnoma bilan aloqador bo'lgan vaziyatlar bo'yicha huquqiy barqarorlikka ham katta putur yetkazish ehtimoli mavjud. Shu sababli qat'iy shartlar va aniq belgilangan protsess o'rnatilishi zarur. Vena konvensiyasi xalqaro shartnomalarni haqiqiy emas deb topish bo'yicha sakkizta holat

bilan chegaralanib, ulardan boshqa bekor qilish sabablarini tan olmaydi.

(b) Xalqaro shartnomalarni haqiqiy emas deb topish sabablari

Xalqaro shartnomaning mazmuni milliy huquqqa zid kelib qolsa, milliy huquqni bahona qilib xalqaro shartnomaning haqiqiylikni inkor etish mumkin emas. Boshqa tomondan xalqaro shartnomalarni tuzish bo'yicha vakolatlarini belgilab beruvchi ichki qonunchilikka zid keladigan tarzda xalqaro

4611

Vena konvensiyasida belgilangan haqiqiy emas deb topish sabablari

1) Xalqaro shartnomalarni tuzishga oid vakolat beruvchi milliy qonunlarga ochiqdan ochiq zid keluvchi jiddiy qonunbuzarlik holatining mavjudligi (46-modda): rozilik haqiqiy emasligining asosi sifatida keltirilishi mumkin bo'ladi.

2) Vakolatli shaxsning o'z vakolatlari doirasidan chetga chiqib ketishi (47-modda): rozilik haqiqiy emasligining asosi sifatida keltirilishi mumkin (Vakolatli shaxsning vakolatlari bo'yicha alohida cheklashlar mavjud bo'lsa).

3) Xato, 4) aldov, 5) sotib olish (48-50-moddalar): rozilik haqiqiy emasligining asosi sifatida keltirilishi mumkin bo'ladi.

6) Davlat tomonidan tayinlangan vakolatli shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatish (51-modda): rozilik haqiqiy emas.

7) Davlatga nisbatan kuch ishlatish yo'li majburlab tuzdirish (52-modda): xalqaro shartnoma haqiqiy emas.

8) Xalqaro huquqning imperativ normalariga zid ravishda tuzilsa (53-modda): xalqaro shartnoma haqiqiy emas (rozilikning shaklidan farq qilib, uning mazmuniga qarab haqiqiy emas deb topish).

Chapter

4

Davlatlararo hamkorlik – Xalqaro shartnomalar
huquqi, diplomatik va konsullik aloqalari huquqi

shartnoma tuzilgan bo'lsa-chi? Bu borada olimlar qarama-qarshi fikrlarni bildirib kelganlar. Vena konvensiyasida bu borada istisno holatlarni hisobga olmaganda, bunday xalqaro shartnomalar ham haqiqiy deb hisoblangan. Bundan tashqari, Vena konvensiyasi xato, aldov, sotib olish kabilarni haqiqiy emas deb topishning sabablari sifatida belgilagan bo'lsa-da, bu kabi sabablar asosida xalqaro shartnomalarni bekor qilgan pretsedentlar mavjud emas (4-11).

Davlat tomonidan tayinlangan vakolatli shaxsga nisbatan tahdid qilish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'lga kiritilgan rozilik hech qanday huquqiy oqibatni keltirib chiqarmaydi. Boshqa tomondan davlatning o'ziga kuch bilan tahdid qilib tuzilgan xalqaro shartnomalar jismoniy shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatishdan farq qiladi. Avvallari bu kabi usullardan foydalanib tuzilgan xalqaro shartnomalar ham umumiy tarzda yuridik kuchga ega deb hisoblangan. Lekin Vena konvensiyasi kuch ishlatmaslik yoki kuch ishlatishning taqiqlanishi (BMT Nizomi, 2-modda 4-band)ga asoslanib, unga zid keladigan harakatlar natijasida tuzilgan xalqaro shartnomalarni haqiqiy emas deb topadi. Ushbu modda eng kechi bilan BMT Nizomi qabul qilingan muddatdan keyin tuzilgan bitimlarga joriy etiladi.

An'anaviy (klassik) xalqaro huquq mamlakatlar o'rtasida tuzilgan kelishuvlarga aralashmagan. Ammo xalqaro hamjamiyatning o'zgarib borishi va rivojlanishi bilan imperativ normalar tushunchasi paydo bo'ldi. Ushbu tu-

shunchaga asoslanib, Vena konvensiyasi xalqaro imperativ normalarga zid keladigan xalqaro shartnomalarni ham haqiqiy emas deb belgiladi. Xalqaro imperativ normalar deganda esa «har qanday tarzda buzilishiga ruxsat etilmaydigan normalar sifatida xalqaro hamjamiyat tomonidan qabul qilingan va tan olingan normalar» (Vena konvensiyasi, 53-modda) tushuniladi.

(2) Xalqaro shartnomalarning tugatilishi

(a) Kelishuvga ko'ra xalqaro shartnomaning tugatilishi

Xalqaro shartnomalar ularga a'zo bo'lgan mamlakatlarning kelishuviga ko'ra o'zgartirilishi yoki tugatilishi

Column

Yaponiya va Sovet Ittifoqi o'rtasida tuzilgan betaraflikka oid xalqaro shartnomaning amal qilish muddati hamda Sovet Ittifoqi tomonidan uning bir tomonlama bekor qilinishi

Ushbu xalqaro shartnomaning 3-moddasiga ko'ra, mazkur xalqaro shartnoma ikki davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan kundan boshlab, besh yil ichida amalda bo'ladi. Agarda a'zo davlatlardan biri ushbu muddatdan bir yil avval uni bekor qilishi haqidagi xabarni yubormasa, u o'z-o'zidan kelgusi besh yilga yana uzayadi. Ikki davlat tomonidan ratifikatsiya qilinishi natijasida 1941-yilning 25-aprelida ushbu xalqaro shartnoma kuchga kirgan. Lekin Sovet Ittifoqi 1945-yil 8-avgustda mazkur xalqaro shartnomani bir tomonlama bekor qilib, Yaponiyaga qarshi urush e'lon qilgan.



(Manba: SPUTNIK)

mumkin. Kelishuvga ko'ra tugatilgan xalqaro shartnomalarga misol sifatida xalqaro shartnomaning o'zida uning muddati yoki tugatilish shartlari belgilab qo'yilgan normalar mavjud bo'lgan xalqaro shartnomalarni keltirishimiz mumkin. Shuningdek, xalqaro shartnomalarning bir tomonlama bekor qilinishi yoki boshqa tomonning undan chiqib ketishi natijasida tugatilishni belgilaydigan xalqaro shartnomalar ham mavjud (→ **Column**).

(b) Kelishuvga asoslanmagan tugatish

Vena konvensiyasi xalqaro shartnomalarning kelishuvga asoslanmasdan tugatilishi sabablarini quyidagi to'rtta holat bilan chegaralaydi. Bular 1) xalqaro shartnomaning qo'pol ravishda buzilishi; 2) xalqaro shartnoma shartlarini bajarish imkoniyatining yo'qligi; 3) vaziyatning tubdan o'zgarib ketishi; 4) yangi imperativ normalarning paydo bo'lishidir. Masalan, Xalqaro adolat sudi **Gabchikovo-Nagymoros ishi** (→ **Keysbuk 25**) bo'yicha chiqargan qarorida (1997-yil) Danube daryosidan birgalikda foydalanish rejasi to'g'risidagi ikki tomonlama xalqaro shartnoma bir tomonlama tugatilgani haqidagi da'voga nisbatan o'z xulosasini bildirdi. Sud Vena konvensiyasi qoidalari xalqaro odat huquqi normalari ekanini uqtirib, unga ko'ra xalqaro shartnoma tugatilmaganini ta'kidladi (→ **Chapter 5**).

Kelishuvchi mamlakatlardan biri xalqaro shartnomani «**qo'pol ravishda buzganda**» boshqa ahdlashuvchi mamlakat bunday harakatdan xalqaro

shartnomani bir tomonlama tugatish asosi sifatida foydalanishi mumkin. Xalqaro sud Namibiya ishida (1971-yilda tavsiyaviy xulosa) Janubiy Afrika Respublikasi tomonidan mandat (Millatlar Ligasi va mandatni qabul qilgan mamlakat o'rtasidagi xalqaro shartnomaning bir turi) qo'pol ravishda buzilgani sababli, mandat bo'yicha boshqaruvning tugatilganini tan oldi.

Xalqaro shartnoma imzolanayotgan paytda mavjud bo'lgan holatlar tomonlar oldindan bashorat qila olmaydigan darajada o'zgarib ketganda bu xalqaro shartnomaning bir tomonlama tugatilishiga olib kelishi mumkinligini tan olishga **holatning o'zgarishi tamoyili** deyiladi. Ushbu tamoyil xalqaro shartnomadagi majburiyatlarni bajarishdan qochish xavfi katta bo'lgani uchun xalqaro huquqda tan olinishi kerakmi yoki yo'qmi degan masala avvaldan munozara markazida bo'lib kelgan. Ammo Vena konvensiyasi ushbu tamoyilning suiiste'mol qilinishini oldini olish maqsadida qat'iy cheklashlar o'rnatib, keyinchalik ushbu tamoyilni qabul qilgan. Ammo chegaralarni belgilash va vaziyatning tubdan o'zgarib ketishi davlatning o'z majburiyatlarini bajarmasligi oqibatida yuz bergan bo'lsa, davlat ushbu tamoyilni o'z foydasiga qo'llay olmaydi.

5 Diplomatik va konsullik aloqalari

(1) Ularning tarixi va huquqiy manbalari

Davlatlar o'zaro aloqani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan masa-

larni hal etish maqsadida ikki tomonning roziligi asosida diplomatik va konsullik aloqalarini o'rnatadilar. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun boshqa davlatda (qabul qiluvchi davlatda) doimiy faoliyat yurituvchi diplomatik vakolatxona tashkil etiladi yoki konsul yuboriladi.

Konsullik tizimi salibchilar tomonidan Uzoq Sharqda Yevropaning savdo shaharlari vakillarining o'z savdogarlarini himoya qilish va konsullik sudlarini tashkil etishni boshlashi bilan yuzaga kelgan. Doimiy diplomatik vakolatxonalar tizimi esa biroz boshqacharoq tarzda yuzaga kelgan. Ya'ni XIII asrda Italiyadagi shahar-davlatlar o'zaro aloqalarni olib borish uchun bir-birlarining hududlariga vakillar yubora boshlaganlar. Mana shu tarzda ushbu tizim ham yuzaga kelib, keyinchalik bu ikki tizim butun Yevropa bo'ylab yoyilgan. Ikkisi ham o'rta asrlarga borib taqaladi va xalqaro huquqda uzoq tarixga ega hisoblanadi. Shuning uchun ushbu so-

halarda xalqaro odat huquqi qoidalari shakllanib kelgan.

Xalqaro huquq komissiyasining kodifikatsiyalash ishlari natijasida **Vena diplomatik aloqalar to'g'risidagi konvensiyasi (1961-yil) va Vena konsullik aloqalari to'g'risidagi konvensiyasi (1963-yil)** qabul qilindi. Ammo konsullik aloqalari an'anaviy tarzda ikki tomonlama konsullik shartnomalari va savdo bitimlari orqali tartibga solib kelinganligi bois bir tizimga keltirilgan xalqaro odat huquqi normalarining vujudga kelish ko'lami diplomatik aloqalardan ko'ra ham torroq doirada yuz bergan.

Column

Chiune Sugihara va «Hayot vizasi»

Ikkinchi jahon urushi davri 1940-yilda Litvadagi Yaponiya konsuli Sugihara Chiune Germaniya natsistlari tomonidan qilingan hujum natijasida qochib kelgan odamlarga nisbatan Yaponiya hukumatining topshirig'iga zid ravishda viza taqdim etadi. Natijada, ko'plab insonlarning hayoti saqlab qolinadi. Shu sababli janob Chiune tomonidan berilgan vizalar «hayot vizalari» deb ataladi.

Atama

Konsullik sudi

Qabul qiluvchi mamlakatga yuborilgan konsul, ushbu mamlakatda o'z fuqarolari bilan bog'liq sudlarni amalga oshirishidir. Bunday vaziyatlarda qabul qiluvchi mamlakatning sud yurisdiksiyasi cheklab qo'yiladi. Yangi davrga kelib Yevropa davlatlarida hududiy yurisdiksiyaning mustahkamlanishi bilan ushbu tizim Yevropada zavolga yuz tutdi. Ammo XIX asrda Yevropa tarkibida bo'lmagan davlatlarga nisbatan qayta yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda esa bunday tizimni qo'llash bekor qilingan.



Chiune Sugihara

(Manba: Kingendai/Afloimages)

Atama

Agreman (agrément)

Yuboruvchi mamlakat vakolatxonaning boshlig'i sifatida yuborilayotgan shaxs bo'yicha avvaldan qabul qiluvchi mamlakatning roziligini olishi lozim. Ushbu rozilik agreman deb ataladi. Qabul qiluvchi mamlakat hech qanday sabablarni ko'rsatmasdan ushbu shaxs nomzodini rad etishi mumkin.

Atama

Attashe (attaché)

Alohida vazifalar yuklatilgan diplomatik vakolatxona xodimi. Azaldan keng miqyosda bilinadigan, doimiy turuvchi harbiylar armiya attashelari hisoblanadi. Diplomatik vazifalarning ko'payib, murakkablashib borishi natijasida fuqaroviy attashelarning soni ham o'sib bormoqda.

(2) Diplomatik vakolatxona, konsulning vazifalari va tuzilishi

Diplomatik vakolatxona uni yuboruvchi mamlakatning vakili sifatida qabul qiluvchi mamlakat hukumati bilan muzokaralarga kirishish, yuboruvchi mamlakat va uning xalqi manfaatlarini himoya qilish, qabul qiluvchi mamlakat haqidagi xabarlarni yuboruvchi mamlakatga jo'natib turish, ikki mamlakat o'rtasidagi do'stlik aloqalarini ta'minlash hamda rivojlantirish vazifalarini o'z oldiga qo'yadi. Uning konsullik vazifalarini bajarishi ham taqiqlanmagan. Faqat vazifalarning bajarilishi qonunchilikka mos keladigan usullarda amalga oshirilishi lozim. Ma'lumotlarni to'plashda ham noqonuniy hisoblangan josuslikka ruxsat etilmaydi.

Konsul esa uni yuboruvchi mamlakatning fuqarolarini himoya qilish, ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, rivojlantirish, pasport hamda vizalarni berish va boshqa bir qancha ma'muriy ishlarni amalga oshiradi. Diplomatik vakolatxona elchisidan farqli ravishda yuboruvchi mamlakat nomidan qabul qiluvchi mamlakat hukumati bilan muzokaralar olib borish vakolati taqdim etilmagan. Konsul u yuborilgan mamlakat ichida belgilangan hududda ma'muriy ishlarni olib boradi.

Diplomatik vakolatxona uning boshlig'i va xodimlaridan tashkil to-

Atama

Asosiy konsul va faxriy konsul

Asosiy konsul – asosiy ish joyiga ega shaxs sifatida hukumat tomonidan yuboriladigan xodim bo'lsa, boshqa ish joyiga ega bo'lgan, biroq konsullik vazifalarining bajarilishi iltimos qilingan shaxsga esa faxriy konsul deyiladi. Faxriy konsul o'zi yashab turgan chet mamlakatning fuqarolari orasidan tanlab olinadi va qonuniy oylik maosh olmaydi. Asosiy konsulgacha nisbatan vazifalari chegaralangan bo'lib, alohida imtiyozlardan foydalanishi ham chegaralangan.



padi. Diplomatik vakolatxona boshlig'i elchi, vakolatxona boshlig'i yoki elchi vakili kabi turli nomlar bilan nomlansada, ularning vazifalari va ularga taqdim etilgan huquq va imtiyozlar farq qilmaydi. Hozirgi kunda diplomatik vakolatxona boshlig'i sifatida asosan elchilar yuboriladi. Diplomatik vakolatxona xodimlari diplomatik xodimlar, texnik xodimlar va xo'jalik ishlari bo'yicha xodimlarga ajratiladi. Shunga qarab ularning huquq va imtiyozlari farqlanadi. Elchi va diplomatik xodimlar diplomat sifatidagi maqomga ega bo'ladi. Qabulxonada ishlovchilar va haydovchilar tarkibi esa o'sha yerliklarni ishga olish orqali shakllantirilgan xo'jalik ishlari xodimlaridan iborat bo'ladi.

Konsullik idorasining boshlig'i ham turli nomlar bilan ataladi. Ammo bugungi kunda asosan bosh konsul degan atamadan foydalaniladi. Konsullik idorasi o'z vazifasini bajarishi uchun konsul, texnik xodimlar va xo'jalik xodimlaridan shakllantiriladi.

6 Diplomatik immunitet va konsullik immuniteti

(1) Diplomatik immunitetning asoslari va maqsadi

Diplomatik vakolatxona va diplomatik xodimlarga turli imtiyozlar va immunitet taqdim etiladi (**Column**). Diplomatik aloqalar to'g'risidagi konvensiya immunitetning taqdim etilishidan maqsad «jismoniy shaxslarga alohida imtiyozlar berish emas, balki davlatning nomidan harakat qiluvchi diplomatik vakolatxonalarning o'z vazifalarini samarali bajarishini ta'minlashdir»

Column

Ekstrateritoriallik nazariyasi

Avvallari diplomatik immunitetning tan olinishi asosi sifatida diplomatik vakolatxona qabul qiluvchi mamlakat hududidan tashqaridagi subyekt ekani keltirilgan (ekstrateritoriallik nazariyasi). Lekin Yaponiyadagi AQSh elchixonasi binosi Yaponiyaning hududida joylashgan bo'lib, Yaponiyaning normativ-huquqiy hujjatlari qo'llaniladi. Ekstrateritoriallik nazariyasi hududiy suverenitet tushunchasiga to'g'ri kelmagani uchun bugungi kunda xalqaro huquq tomonidan rad etilgan nazariyadir.

Yaponiyadagi Angliya elchixonasi (Tokio shahri Chiyoda tumani). Bunday diplomatik vakolatxonalarning daxlsizlik huquqi tan olin-sada, eksterritorial huquqi tan olinmaydi va vakolatxonalarga o'zlari joylashgan mamlakat qonunlari tatbiq etiladi.



(Manba: Angliya elchixonasi veb-sayti)

deb belgilaydi (Preambula). Ya'ni diplomatik vakolatxonalarning o'z **vazifalarni samarali bajarish** zaruriyatini ham hisobga olgan holda, yuboruvchi mamlakatning obro' va e'tiborini namoyon qiluvchi kasb ekanini ham e'tirof etadi. Amalda tan olingan immunitetlar ichida sud yurisdiksiyasidan immunitet kabi o'z vazifasini amalga oshirishda keragidan ziyoda darajada taqdim etilgan imtiyozlarni ko'rishimiz mumkin.

Diplomatik immunitetlar diplomatik vakolatxonaga taqdim, etiladigan immunitetlar (Diplomatik aloqalar to'g'risidagi konvensiya 20-28-mod-


dalar), diplomatik xodimlarga taqdim etiladigan immunitetlar (ushbu konvensiya, 29-36-moddalar)ga ajratiladi. Diplomatik xodimlarga beriladigan immunitetlar ham diplomatik xodimning shaxsiy manfaatlarini uchun emas, balki yuboruvchi mamlakat tomonidan yuklangan vazifalarni bajarishi uchun taqdim etiladi. Shu sababli undan voz kechish ham yuboruvchi mamlakat tomonidan amalga oshiriladi. Diplomatik xodim tomonidan emas.

(2) Diplomatik vakolatxonalariga taqdim etiladigan immunitetlar

Diplomatik vakolatxona joylashgan bino va uning hovlisi (boshlig'ining rezidensiyasi ham) daxlsiz bo'lib, diplomatik vakolatxona boshlig'ining ruxsatisiz qabul qiluvchi mamlakatning vakilining kirishiga ruxsat berilmaydi. Yong'in chiqishi kabi favqulodda holatlarda bir muddat kirishga ruxsat berilishi yoki berilmasligi masalasini talqin qilishda munozarali holatlar mavjud. Bunda kirishga ruxsat berishni rad etuvchi qarash ham katta ta'sirga ega. **Vakolatxonalarining daxlsizlik huquqidan** foydalanib, amaliyotda, vakolatxonaga qochib kelgan shaxslarni himoyaga olish hollari ham mavjud. Ammo bunday huquq (**diplomatik patronaj huquqi**) xalqaro huquq tomonidan tan olinmagan (Xalqaro sudning patronaj ishi bo'yicha qarori, 1950-yil).

Ba'zan diplomatik vakolatxonalarining daxlsizlik huquqi poymol etilib, elchixonaga harbiylarning bostirib kirishi, u yerdagilarni hibsga olishi yoki ularni jazolashi kabi holatlar uchrab turadi. Qabul qiluvchi mamlakat va-

4.12 Tehrondagi AQSh elchixonasi xodimlarining garovga olinish ishi (1979-yil, noyabr)



Eron inqilobi vaqtida AQSh elchixonasi devorlaridan oshib o'tayotgan eronlik talabalar. Talabalar elchixonaga xodimlarini hibsga olib, 52 nafarini 444 kun davomida garovda ushlab turishgan.

(Manba: AP/Afloimages)

Column

Perudagi Yaponiya elchisi rezidensiyasining bosib olinish ishi

1996-yil dekabr oyida yapon elchisining rezidensiyasidagi tadbirga taklif etilgan tadbir qatnashchilari hukumatga qarshi bo'lgan kuchlar tomonidan qilingan hujumga uchradi. Hujum natijasida taxminan 600 ga yaqin bo'lgan qatnashchilar garovga olinadi. Keyingi yilning aprel oyida Peru hukumatining maxsus qo'shini tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar natijasida garovga olinganlarning katta qismi qutqarib qolinadi. Suratda gerilla tomonidan garovga olinib, atrofi o'rab qo'yilgan Yaponiya elchisi rezidensiyasiga uyushtirilgan hujum payti tasvirlangan (Peru, Lima).



(Manba: Jiji)

kolatxonalarni himoya qilish hamda ularga bo'ladigan tajovuzlarning oldini olish bo'yicha alohida majburiyatlarga ega. Eron inqilobi vaqtida (1979-yil) Tehrondagi AQSh elchixonasi bir guruh qurolli shaxslar tomonidan bosib olingan. Xalqaro sud Eron hukumati tomonidan ushbu tajovuzning oldini oluvchi choralar ko'rilmagani Eron tomonidan o'z majburiyatlarining buzilishi deb e'tirof etgan (**Tehrondagi AQSh elchixonasi xodimlarining garovga olinish ishi** (→ **Keysbuk 24**) bo'yicha qaror, 1980-yil) (4-12).

Diplomatik vakolatxonada hujjatlarning daxlsizligi, xodimlar harakati va sayohat qilishlarining erkinligi, axborot almashinuvi bo'yicha erkinligi ham kafolatlanadi. Qabul qiluvchi mamlakat harakat va sayohat qilish erkinligini cheklagan hollarda yuboruvchi mamlakat ham **o'zarolik tamoyiliga** amal qilgan holda xuddi shunday cheklovlarni qabul qiluvchi mamlakatning diplomatik vakolatxonasi vakillariga nisbatan qo'llashi mumkin bo'ladi. Axborot almashinuvi erkinligiga aloqador alohida immunitet sifatida **diplomatik pochta** (diplomatik axborotlarni yetkazishda foydalaniladigan hujjatlar va umumiy foydalaniladigan predmetlar solinadigan xalta) (4-13) ning ochilishi yoki olib qolinishining taqiqlanishi, diplomatik hujjatlarni olib ketayotgan shaxsning (diplomatik belgili xaltani olib ketayotgan shaxs) shaxsiy daxlsizligi kabilarni keltirishimiz mumkin. Diplomatik belgili xaltalar ichiga o'g'irlangan shaxsni solib qo'yish, qurol yoki qora dorini

4518 Diplomatik pochta (yuk)



Air India aviakompaniyasiga qarashli samolyot halokatga (1966-yil) uchragan Alp tog'larida 2012-yilda topilgan Hindiston hukumatining diplomatik pochatasi.

(Manba: AP/Afloimages)

Column

Diplomatik immunitetning suiiste'mol qilinishiga doir misol

2014-yil Tokio shahri binosining bir xonasida bakkarat usulidagi qimorxonaga ochilib, uni yurituvchi va shu kuni tashrif buyurgan jami 12 nafar yaponiyalik shaxs qimor jinoyatini sodir etgan gumonlanuvchilar sifatida hibsga olinadi. Ushbu xona avvalgi Gana elchisi tomonidan «elchi rezidensiyasi» sifatida ijara shartnomasi asosida ijaraga olinib, undan hozirgi kundagi elchi ham foydalanib kelayotgan edi. Xonaning eshigiga «Gana Respublikasining Yaponiyadagi elchisi» deb o'sha paytdagi elchining ismi yozib qo'yilgan edi.

Column

Ayatori ishi (1964-yil) – diplomatning yo'l harakati qoidalarini buzishi va fuqarolik sudi yurisdiksiyasidan ozod etilishi

Yaponiyadagi Malayziya elchixonasining ikkinchi darajali kotibi Ayatori mast holatda avtomobilni boshqarishi oqibatida Yaponiya fuqarosi bo'lgan bir talabani urib ketadi. Natijada, talaba vafot etadi. Yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha taraflar o'rtasidagi kelishuv ijobiy yakun topmasdan, Ayatori o'z vatani-ga qaytib ketadi. Keyinchalik uning sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urta puli to'lab berilgan.

Atama

Diplomatik avtomobillar

G'arb mamlakatlarida diplomatik korpus (Corps diplomatique) ma'nosini anglatuvchi «CD» yozuvlari diplomatik avtomobillarning raqamlarining chap tomonidan qo'shib yozilish hollari ko'p uchraydi.

Yaponiyada moviy rangdagi avtomobil raqami yoziladigan platformaga oq rangda raqamlar yozilib, chap tomonidan 「外」 iyerogligi qo'yiladi (izoh: ushbu iyerogligif asosan tashqi degan ma'noni anglatadi).



Tarjimonlar izohi: O'zbekistonda esa diplomatik avtomobillarga quyidagi indeksdagi raqamlar taqdim etiladi.

Chet davlatlar diplomatik vakolatxonalarini, elchixonalar rahbarlari avtomobillariga (yashil rangdagi platformada)



Xorijiy davlatlar elchixonalarini, konsullik idoralari xodimlarining avtomobillariga (yashil rangdagi platformada)



BMT va uning tuzilmalarining O'zbekistondagi vakolatxonasi xodimlari avtomobillariga (moviy rangdagi platformada)



yashirib qo'yish bilan bog'liq voqealar ham bo'lgan. Bu tarzda immunitetni suiiste'mol qilish hollari ham uchrab turadi.

(3) Diplomatning o'ziga taqdim etiladigan immunitet

Diplomatning **shaxsiy daxlsizlik huquqi** mavjud bo'lib, hech qanday yo'l bilan u ushlab qolinishi yoki hibsga olinishi mumkin emas. Ushbu daxlsizlik huquqi juda ham qadimdan asosiy diplomatik imtiyoz sifatida tan olinib kelinadi. Har bir davlat ushbu huquqni ta'minlash uchun diplomatlarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlarga og'ir jazolarni belgilovchi normalarni o'z qonunchiligida o'rnatib kelgan.

Diplomat o'z xizmat vazifalarini bajarayotgan yoki bajarmayotganligidan qat'i nazar qabul qiluvchi mam-lakatning **jinoyat sudi yurisdiksiyasidan ozod etiladi. (Ayatori ishi)** Fuqarolik sudi yurisdiksiyasidan ham, ma'muriy sud yurisdiksiyasidan ham (o'zining ba'zi bir shaxsiy ishlari-ga aloqador bo'lgan holatlar istisno) barcha hollarda ozod etiladi. Shu sababli shunchaki o'z yumushlari bilan avtomobilni boshqarib kelayotganda biror shaxsni urib yuborib, uning o'limiga sabab bo'lsa unga qarshi na-faqat jinoyat ishi, balki fuqarolik ishi ham ochilmaydi. Bu esa jabrlanuvchilarni himoya qilish nuqtayi nazaridan qaraganda istalmagan holatdir (**Column**). Shu sababli Diplomatik aloqalar to'g'risidagi konvensiya qabul qilingan majlisda, konvensiyadan alohida tarz-da, xizmat vazifalarini bajarishga xalal bermaydigan hollarda diplomatni fuqarolik sudi yurisdiksiyasidan ozod

qilishdan voz kechishni tavsiya qiluvchi qaror qabul qilingan.

Diplomatning immunitetining amal qilish muddati u qabul qiluvchi mamlakatga kirgan paytdan boshlab, o'z missiyasini yakunlab qabul qiluvchi mamlakatni tark etguncha bo'lgan muddatda amal qiladi. Diplomatning oilasi diplomat bilan bir xil immunitetga ega bo'lsa, texnik xodimlar ham deyarli ularnikiga o'xshash immunitetga ega bo'ladilar. Xo'jalik xodimlari yoki ba'zi shaxsiy personallarning ham ma'lum bir immuniteti tan olinsa-da, qabul qiluvchi mamlakatning fuqarolari yoki u yerda doimiy yashovchi shaxslar bo'lganda qabul qiluvchi mamlakat tan olgan darajadagina ularga immunitet taqdim etiladi.


(4) Konsullik immuniteti va imtiyozlari

Konsul o'z davlatining namoyandasi bo'la olmaganligi uchun, konsullik immuniteti faqatgina uning o'z xizmat vazifalarini samarali amalga oshirish uchun zarurligi bilan izohlanadi. Shuning uchun unga berilgan immunitet


va imtiyozlar diplomatnikiga nisbatan chegaralangan hisoblanadi. Bu boradagi odat huquqi normalari anchagina noaniq. Shuning uchun Konsullik aloqalari to'g'risidagi konvensiya huquqning evolyutsion tartibda rivojlanib borish masalasini ham hisobga olgan. Natijada, konsullik immuniteti ma'lum bir darajada kengroq ko'lamda belgilagan.

Diplomatik korpusning daxlsizligi diplomatik vakolatxonaga daxlsizligi bilan deyarli bir xil. Ammo yong'in kabi favqulodda vaziyatlarda korpus boshlig'ining roziligi mavjud deb hisoblanib, qabul qiluvchi mamlakatning tegishli xodimlari kirishi mumkinligi to'g'risida ba'zi qoidalar mavjud. Misol sifatida, 2002-yilda Xitoyning Shenyang shahridagi Yaponiya bosh konsuli rezidensiyasiga Shimoliy Koreyadan qochib kelgan shaxs kirib olishga harakat qilgan. Xitoy militsiyasi esa konsulning rezidensiyasiga kirib kelib, o'sha shaxsni qo'lga olish harakatlarini amalga oshirgan. O'sha paytda, Yaponiya hukumati Xitoy hu-

1.14 Shenyangdagi Yaponiya Bosh konsulligiga yurtidan qochgan kishining kirib olishi va uni olib chiqib ketilishi ishi (2002-yil). Shenyangdagi Yaponiya Bosh konsulligi



Farzandi bilan qochib kelgan er-xotin asosiy darvozadan konsullik hududiga kirib kelganda Xitoy politsiyasi tomonidan qo'lga olingan.



(Manba: Shenyangdagi Yaponiya Bosh konsulligi veb-sayti)

kumatiga nisbatan diplomatik korpus daxlsizligini buzuvchi harakatlarni so-dir etmaslik bo'yicha rasmiy ravishda jiddiy norozilik bildirgan edi (4-14).

Konsullik aloqalari to'g'risidagi konvensiyada esa konsulning vazifalarini bajarishida yengilliklar yaratish maqsadida yuboruvchi mamlakat fuqarolari bilan aloqaga kirishish erkinligini ta'minlovchi qoidalar belgilanadi. Masalan, yuboruvchi davlat fuqarolari hibsga olinganda qabul qiluvchi davlat konsulga bu haqda zudlik bilan xabar berishi lozim (36-modda). AQSh bir-biriga o'xshash mana shunday uchta ishda o'z majburiyatini bajarmagan, o'limga hukm etilgan chet elliklar haqida ularning davlatidan kelgan konsulga xabar bermaganligi sababli chet ellik fuqarolarning davlatlari tomonidan Xalqaro sudga berilgan. Masalan, 2001-yilda **LaGrand ishida** (Germaniya AQShga qarshi) (→**Keysbuk 38**) va 2004-yilda **Avena va boshqa Meksika fuqarolari ishida** (Meksika AQShga qarshi) (→**Keysbuk 26**) AQSh tomonidan yuqoridagi majburiyat buzilgan deb topilgan (qolgan bittasida ish sud-dan qaytarib olingan).

Asosiy konsulning shaxsiy daxlsizlik va sud yurisdiksiyasidan ozod qilinish huquqlari mavjud bo'lsa-da, ma'lum bir vaziyatlarda ular ushlab qolinishi yoki hibsga olinishi mumkin. Bunda ular qabul qiluvchi mamlakatning jinoyat sudi yurisdiksiyasiga bo'ysundiriladi. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, ularning immunitet huquqlari xizmat vazifalarini bajarish vaqtida amal qilib, diplomatlar ega bo'lgan huquqlar bi-

lan solishtirganda anchagina chegalangan. Faxriy konsulning immuniteti yuzasidan esa yanada ko'proq cheklovlar mavjud.

(5) **Persona non grata (Nomaqbul shaxs)**

Qabul qiluvchi davlat o'zi nomuvofiq deb hisoblagan diplomatni «persona non grata» deb topib, hech qanday sabab ko'rsatmasdan, bu haqida yuboruvchi mamlakatga xabar beradi. Bunday vaziyatda xabarni olgan yuboruvchi mamlakat bu shaxsni almashtiradi yoki uning vazifalari o'z yakuniga yetgan deb topadi. Agarda ushbu majburiyatni bajarmasa qabul qiluvchi mamlakat ushbu shaxsning diplomatik korpus a'zosi ekanligi haqidagi guvohnomasini tan olishni rad etadi (Diplomatik aloqalar to'g'risidagi konvensiyaning 9-moddasi). Ushbu qoida xalqaro odat huquqida diplomatlarinigina obyekt sifatida tan olgan bo'lsa-da, Konsullik aloqalari to'g'risidagi konvensiyaga ham kiritilgan (23-modda). Diplomat yoki konsul bo'lmagan vakolatxona va konsullik xodimlari bo'yicha deyarli bir xil natijani keltirib chiqaruvchi «**kiritish qiyin bo'lgan shaxs**» xabarnomasi yuboriladi.

«Persona non grata» xabari yuborilgan ishlar soni kam emas. Masalan, 2012-yilda Suriya hukumati o'nlab mamlakatlarning elchilarini va diplomatlarini (Yaponiya elchisini ham) «persona non grata» deb topib, ularni qabul qilishni rad etgan. Shuningdek, 2016-yilning oxirida Rossiya tomonidan amalga oshirilgan kiber hujumni bahona qilib AQSh rossiyalik 35 ta dip-



(Manba: Jiji
xabarlari foto)



(Manba: Jiji)

1973-yilning avgust oyida tez orada Janubiy Koreya prezidenti bo'ladigan Kim Dae-Jung Yaponiyadagi mehmonxonalardan birida bo'lib turgan paytida Janubiy Koreya politsiyasi tomonidan o'g'irlab ketiladi va besh kundan so'ng Seul shahridagi o'zining uyi oldidan topiladi.

lomatlarni «persona non grata» deb topgan. Yaponiyada esa 1973-yildagi Kim dae-Jung ishiga (4-15) aloqadorlikda gumonlangan shu yerdagi Koreya elchixonasining kotibini nomaqbul shaxs deya topilishi, yoinki qimor ishiga aralashganligi sababli Kot-D'ivuar davlati diplomatining nomaqbul shaxs deb topilganligini keltirish mumkin.

Ushbu tizimdan siyosiy maqsadlarda foydalaniladigan hollar ham mavjud. Ammo, odatda, diplomatik immunitetning suiiste'mol qilinishiga nisbatan samarali qo'llanilib kelayotgan tizim sifatida baholash mumkin. Ushbu tizimdan tashqari qabul qiluvchi davlat tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan chora sifatida so'nggi vosita **diplomatik aloqalarning uzilishi**

Column

Girard ishi (1957-yil Maebashi hududiy sudi qarori)

AQSh harbiylaridan bo'lgan Girard AQSh harbiylarining mashg'ulotlar o'tkazadigan maydoniga bo'sh gilzalarni yig'ish uchun kirib kelgan yapon ayolni otib o'ldirib qo'yadi. Yaponiya va AQShdan qay biri yurisdiksiyaga ega bo'lishi muammo bo'lgan vaziyatda, AQSh tomoni birinchi sud qilish huquqidan voz kechganligi sababli sud Yaponiyada o'tkaziladi. Natijada, sud Girardni insonning o'limiga sabab bo'luvchi og'ir tan jarohati yetkazish jinoyati sodir etilgan deya (3 yil ozodlikdan mahrum qilish va 4 yil ijro muassasalarida o'tash) qaror chiqariladi.

Suratda Yaponiya va AQSh vakillari tomonidan ishning birgalikda o'rganilish jarayoni aks etgan.

(Manba: Mainichi Shinbun)

hisoblanadi. Garchi diplomat josuslik qilayotgan bo'lsa ham, uni bahona qilgan holda diplomatik vakolatxonani bosib olish yoki diplomatni garovga olish choralarini qo'llashga ruxsat etilmaydi (Xalqaro sudning Tehrondagi AQSh elchixonasi xodimlarining garovga olinishi ishi bo'yicha chiqargan qarori, 1980-yil →**Keysbuk 24**).

7 Boshqa davlat organlarining immuniteti

(1) Davlat rahbari, hukumat rahbari, tashqi ishlar vaziri

Davlat rahbari, hukumat rahbari va tashqi ishlar vaziri kabi yuqori darajali mansabdor shaxslar chet el davlatlarida doimiy faoliyat yuritmasa ham bir muddatli maxsus diplomatik elchi sifatida chet elga borib, davlat nomidan harakatlarni amalga oshiradi. Ularning mavqeyi yuqoriligi va mansabiga oid mas'uliyati sababli, xalqaro odat huquqiga ko'ra, ular diplomatlar bilan

bir xil yoki ulardan ham ko'proq immunitetdan foydalanadilar. Lekin ular tomonidan xalqaro jinoyatning og'ir turi sodir etilganda, ularning immunitetlari tan olinadimi yoki tan olinmaydimi degan muammo yuzaga keladi (→ **Chap-ter 9**).

(2) Doimiy chet el harbiy qo'shini

Doimiy chet el harbiy qo'shinining huquqiy maqomi hamda immuniteti bo'yicha yuboruvchi mamlakat va qo'shin bo'lib turgan mamlakat o'rtasidagi xalqaro shartnomada belgilanadi. Yaponiyada Yapon-Amerika xavfsizlikni ta'minlash xalqaro shartnomasining (1960-yil) 6-moddasiga asosan AQSh qo'shinlari qo'nim topgan. Yaponiyadagi **AQSh qo'shinlarining maqomi to'g'risidagi Yapon-Amerika kelishuvi** ham mavjud bo'lib, sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha ikki davlatdan birining sudlari yurisdiksiyaga ega bo'ladi (sud yurisdiksiyasi musobaqasi). Ammo «**xizmat vazifalarini bajarish paytidagi** harakatlar yoki harakatsizlikdan kelib chiqqan jinoyatlar» bo'yicha AQSh birinchi, Yaponiya esa ikkinchi sud yurisdiksiyasiga ega bo'ladi. Bundan boshqa jinoyatlarning barchasi bo'yicha Yaponiya sudlari birinchi yurisdiksiyaga ega bo'ladi (Kelishuvning 17-moddasi). Sud jarayoni davomida AQSh gumon qilinuvchining jismoniy erkinligini cheklab turgan bo'lsa-yu, Yaponiya birinchi yurisdiksiyaga ega bo'lsa, bunday vaziyatlarda ham AQSh sud muhokamasi boshlanguncha shaxsni ushlab turishi mumkin (17-modda 5-band c). Albatta, bu Yaponiyaning surishtiruv va tergovni

olib borish ishlariga nisbatan katta salbiy ta'sir o'tkazuvchi holat hisoblanadi. Masalan, 1995-yilda okinavalik qizga nisbatan kuch ishlatilgan jinoyat ishida ham AQSh shaxsni topshirishni rad etdi, natijada bu katta muammoga aylandi. Ushbu nizo sabab, mavjud holat yaxshilanib, AQSh shaxsni topshirish talabiga nisbatan «o'zaro hurmatni hisobga olgan holda yondashish»ga va'da berdi.

Bundan tashqari, BMTning tinchlikni saqlash operatsiyalariga hamkorlik qilish qonuniga ko'ra, Yaponiyaning o'z-o'zini himoya qilish qo'shinlari chet elga yuboriladigan vaziyatlarda, Yaponiya tuzgan xalqaro kelishuvlarning aksariyati jinoyat ishlari bo'yicha yurisdiksiya Yaponiya sudlarining mutlaq yurisdiksiyasiga tegishli deb belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalqaro huquq nizolarini o'rganish ilmiy jamiyati, «Xalqaro shartnomalar huquqi». – Keyou Gijuku universiteti nashriyoti, 2001-yil.
2. Xalqaro huquq nizolarini o'rganish ilmiy jamiyati, «Diplomatik va konsullik aloqalar». – Keyou Gijuku universiteti nashriyoti, 1996-yil.
3. Kisaburo Yokota, «Diplomatik aloqalarning xalqaro huquqi». – Yuhikaku.: 1963-yil.
4. Kisaburo Yokota, «Konsullik aloqalarning xalqaro huquqi». – Yuhikaku.: 1974-yil.
5. Shiegeki Sakamoto, «Xalqaro shartnomalar huquqi nazariyasi va amaliyoti». – Toshindo nashriyoti.: 2004-yil.

Chapter 5

Hududsiz davlat yo'q – quruqlik, osmon va fazo

1 Davlat hududi va hududiy suverenitet

(1) Hudud tuzilishi va hududiy suverenitet

Xalqaro huquqda davlat maqomiga erishish uchun ma'lum bir kenglikdagi hududga (quruqlikdagi hududga) egalik qilish talab etiladi (→ **Chapter 3**). Davlat hududi asosan quruqlikdagi hududga asoslanadi. Shuningdek, u quruqlik hududiga tutashgan suvliklar (milliy suvlar), quruqlik va milliy suvlar ustidagi havo hududini (fazoviy hudud) ham o'z ichiga oladi.

Xalqaro huquqqa ko'ra, davlat o'z hududiga nisbatan hududiy suverenitetga egadir. Hududiy suverenitet davlat o'zi egallab turgan maydonga nisbatan mulk huquqiga ega bo'lishi va o'sha hududni boshqarishi kabi ikki jihatni o'zida mujassam etadi. Boshqacha aytganda, xalqaro huquqdagi ba'zi maxsus cheklovlarni hisobga olmaganda, davlat o'z hududidan erkin foydalanish, unga egalik qilish va uni tasarruf etish huquqiga ega bo'ladi. Bunda u o'z hududidagi har qanday insonlar va narsalarga nisbatan qonun chiqaruvchi, sud va ijro hokimiyatini amalga oshira oladi. Shu sababli davlat o'z hududidagi tabiiy boyliklardan foydalanishda mutlaq huquqlarga ega. Ammo boshqa tomondan o'zga davlat

hududida o'zboshimchalik bilan har qanday turdagi harakatlarni amalga oshirishi taqiqlanadi.

Hududiy suverenitetga nisbatan xalqaro huquqdagi cheklov sifatida chet el diplomatik va konsullik korpuslari uchun alohida maqomning taqdim etilishini keltirishimiz mumkin. Bundan tashqari, mahalliy suvlarda xorij kemalariga zararsiz qatnov huquqining taqdim etilishi, xalqaro daryolar va kanallardagi transport qatnovining erkinligini ta'minlash kabilar ham shunday turdagi cheklovlar doirasiga kiradi. Shu bilan birga, Treyl mis quyish fabrikasi nizosi bo'yicha chiqarilgan hakamlik qarorida ham tan olinganidek, davlatlar o'z hududlaridan boshqa davlatlarning yuqori ahamiyatli huquqlariga zarar yetkazadigan tarzda foydalanishlari yoki undan shu tarzda foydalanilishiga yo'l qo'yishlari mumkin emas. Bu o'z hududidan foydalanishni nazorat qilish bo'yicha javobgarlik tamoyili deb nomlanadi (→ **Chapter 11**).

(2) Ichki (milliy) suvlar va hududiy dengiz

Hududiy suvlar ichki suvlar va hududiy dengizga bo'linadi. Hududiy dengiz chizig'ini (bundan keyin, chiziq) chegara deb olsak, uning ichkarisidagi suvli hudud ichki suvlarni tashkil etadi. Chiziqdan tashqaridagi ma'lum bir kenglikdagi hudud esa hududiy dengiz hisoblanadi. Hududiy dengizning

kengligi uzoq muddat birlashtirilmagan bo'lsa-da, BMTning Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyasida (1982) uning kengligini chiziqdan tortib 12 dengiz mili (1 mil - 1852 metr) etib belgilandi. Shuningdek, hududiy dengizlar bo'yicha sohil bo'yi davlatlar vakolatlarining huquqiy tabiati munozara markazida bo'lgan. Ammo XX asrga kelib ushbu hududlarga ham sohil bo'yi davlatlar suvereniteti tatbiq etilib, davlat hududining bir qismini tashkil etishi belgilandi. Bular orasida, okeanlardagi ko'psonli orollar (arxipelag)dan tashkil topgan orol davlatlar (Filippin va Indoneziya kabi) masalasi o'ziga xosdir. Chunki ular eng uzoqda joylashgan orollarni o'zaro birlashtirgan to'g'ri tortilgan chiziqdan (orollar

chizig'i) ichkarida qolgan suvlarni o'z arxipelag suvlari deb hisoblaydilar va bu hududlar orol davlatning suvereniteti ostida bo'ladi. Aytish joizki, arxipelag suvlari ichki suvlar bilan hududiy dengizning sifatlarini o'zida mujassam qiladi. Ular xalqaro dengiz huquqida o'ziga xos suvli hududlar deb ataladi (→ **Chapter 6**).

(3) Havo hududi va xalqaro parvozlar

XX asrda uchuvchi texnikalar kashf etilgach, havo hududining huquqiy holati amaliy muammoga aylandi. Natijada, Birinchi jahon urushi davridagi davlatlarning odatlariga asoslangan Havo hududiga nisbatan suverenitetni da'vo qilish tamoyili paydo bo'ldi. Havo hududiga nisbatan davlat suvereniteti

5-1

Koreya havo yo'llari samolyotining urib tushirilishi (1983-yil)



Sovet Ittifoqi tomonidan taqdim etilgan Koreya havo yo'llari samolyotining qoldiqlari Xalqaro Fuqaroviy Parvozlar agentligi (ICAO) xodimlari tomonidan o'rganilmoqda. (Manba: Jiji)

Koreya havo yo'llari samolyotining uchish yo'li: Nyu-Yorkdan uchib, Alyaskaning Ankarej shahri orqali Seul shahri tomon yo'l olgan havo kemasi, o'z yo'lidan chiqib ketib Sovet Ittifoqining havo hududiga kirib ketadi. Natijada, Sovet havo kuchlari tomonidan urib tushiriladi va 28 nafar yapon yo'lovchisi bilan birga, 269 nafar boshqa davlat fuqarolari bo'lgan yo'lovchilar ham halok bo'lishgan.

(CIA veb-sayti)

vertikal yuqorilikdagi havo hududining ma'lum bir kengligini o'z ichiga olib, ushbu havo hududi davlat hududining bir qismini tashkil etadi. Aytish joizki, havo hududiga nisbatan suverenitet tatbiq etilmaydigan kosmos kenglik va davlatlarning havo hududi orasidagi chegara hali-hamon o'z yechimini topmagan.

Havo hududiga nisbatan davlatlar mutlaq suverenitetga egadirlar (Xalqaro fuqaro aviatsiyasi to'g'risidagi Konvensiya, 1-modda). Bir davlatning hududiy suvlaridan chet el kemalarining to'siqsiz suzib o'tish huquqini ta'minlash o'sha davlatning xalqaro-huquqiy majburiyati hisoblanadi. Ammo bu kabi majburiyat havo hududida chet el havo kemalari uchun to'siqsiz parvoz qilishni ta'minlash masalasida mavjud emas. Shunday ekan, xorij samolyoti ruxsatsiz havo hududiga kirib kelsa, bu harakat havo hududini buzib o'tish hisoblanib, xalqaro huquqbuzarlik harakati sifatida qayd etiladi.

Xorijiy davlatning fuqaroviy (noharbiy) samolyoti bir davlat havo hududiga ruxsatsiz kirib kelganda uni to'xtatish uchun eng so'nggi chora sifatida qurol ishlatishga ruxsat beriladimi yoki yo'qmi degan masala mavjud. Ushbu masala Koreya Havo Yo'llari samolyotining urib tushirilishi ishi (1983-yil) (5-1) misolida bahs-munozaralarga sabab bo'lgan. Hozirda, bunday harakatga nisbatan qurol ishlatishga ruxsat berilmaydi (Xalqaro fuqaro aviatsiyasi to'g'risidagi Konvensiya, 3-modda, 2-qism).

Havo hududiga nisbatan suverenitetning mavjudligi tamoyiliga ko'ra, samolyotning boshqa davlat hududiga qo'nib, undan yo'lovchi va yuklarni tashish erkinligi umumiy qoida o'laroq ta'minlanmaydi. Xalqaro parvoz ishlari uchun lozim bo'lgan bunday «havadagi erkinlik»ka ikki tomonlama yoki mintaqaviy parvozlarga oid bitimlar orqali ruxsat beriladi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng, AQSh va Britaniya o'rtasidagi aviatsiya bitimi (Bermuda

Column

Havo mudofaasining aniqlashtirish zonasini (Air defense identification zone: ADIZ)


Davlatning havo hududidan tashqaridagi hududlarda Havo mudofaasining aniqlashtirish zonasini o'rnatib, u yerga kirib keluvchi havo kemalariga nisbatan uchish joyi va uchish rejasi kabilar hisobotini taqdim etishni talab etuvchi mamlakatlar ham mavjud. Yaqin yillarda, Xitoy davlati Senkaku orollari ustidagi havo hududida shunday zonani belgiladi. Natijada, Sharqiy Xitoy dengizida Yaponiya va Xitoy, shuningdek, Yaponiya, Xitoy va Janubiy Koreya davlatlarining o'zaro ustma-ust tushuvchi zonalari yuzaga keldi. Davlatlar ADIZning belgilanishiga sukut alomati rizo shaklida qarab kelishgan. Ammo bizningcha, ADIZni belgilovchi davlatlarda ochiq dengizlar ustidan boshqa davlatlar havo kemalarining erkin uchib o'tish huquqini cheklavchi choralar o'rnatilishiga ruxsat etilmaydi.

(Manba: Yaponiyaning 2016-yil Davlat mudofaasi hisoboti)



Column

Havo hududini buzish va unga qarshi mudofaa samolyotlarining favqulodda osmonga ko'tarilishi (scramble)



* Sovuq urush davridagi eng yuqori davridagi eng yuqori cho'qqisi



Mudofaa samolyotlarining favqulodda osmonga ko'tarilishi obyekti bo'lgan Rossiya va Xitoy samolyotlarining uchish yo'lagi

(Manba: Yaponiyaning 2016-yil Davlat mudofaasi hisoboti)

Hududsiz davlat yo'q – quruqlik, osmon va fazo

5

bitimi, 1946-yil), Yaponiya-AQSh aviatsiya bitimi (1952-yil) kabi bir necha minglab aviatsiya bitimlari tuzilgan. O'sha paytlarda, qo'nish chizig'i, reyslar soni va parvozni amalga oshiruvchi kompaniyalar faoliyati tegishli aviatsiya bitimlari orqali tartibga solingan. 1990-yillardan keyin esa AQSh tomonidan ilgari surilgan parvozlarni erkinlashtirish siyosatining (Ochiq osmon siyosati) (5-2) rivojlanishi aviatsiya bitimlaridagi tartibga solish usullarini yumshatish bilan birgalikda, ba'zi qoidalarni bekor qilishga ham sabab bo'lmoqda.

2 Hududga nisbatan egalik (title to territory) va hududiy nizolar

(1) Xalqaro huquqda hududni qo'lga kiritishning asoslari (hududiy o'zgarishlar)

Ma'lum bir hudud yoki orolga nisbatan egalikni da'vo qilish paytida xalqaro huquqda asos bo'lib xizmat qiluvchi faktga hududga nisbatan egalik (title to territory) deyiladi. Uning an'anaviy turlariga birinchi bo'lib okkupatsiya, muddatning o'tishi, o'sish, sessiya, qo'shib olish kabilarni keltirish mumkin.



YXHT mamlakatlari – Open Sky shartnomasi a'zolari



2013-yildan keyin ham bu kabi muzokaralar davom ettirilib, quyidagi xaritada keltirilmagan Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari hamda G'arb mamlakatlari o'rtasida Ochiq osmon (Open Sky) bo'yicha kelishuvlar tuzilmoqda.



(Manba: «Valdai munozara klubi»

<https://valdaiclub.com/multimedia/infographics/open-skies-treaty/>)

Okkupatsiya (occupation) holati biror-bir davlatning egaligida bo'lmagan yerni amalda tinchlik yo'li bilan egalashi natijasida hosil bo'ladi. Egasiz yer deganda inson yashamaydigan yer emas, balki hech qaysi bir davlat hududi hisoblanmaydigan hudud tushuniladi. Shuningdek, egasiz yerni kashf etish bilangina kifoyalanmay, balki, uni amalda egallab boshqarishning mavjudligi ham talab etiladi. Minamitorishima, Okinotorishima kabi janubiy orollar va Senkaku orollari kabi

Yaponiyaning hududlari okkupatsiya orqali qo'lga kiritilgan. Muddatning o'tishi (qo'lga kiritish vaqti – prescription) haqida esa, ushbu omilning yakka o'zi hududni qo'lga kiritishning asosi bo'lish yoki bo'lmasligiga oid bahslar mavjud. Ammo uni qo'llovchi qarashlarga ko'ra, davlatning o'zga bir hududga uzoq muddat, tinch holatda va amaliy shaklda hukmronlik qilishi orqali hudud qo'lga kiritiladi.

Qo'shib olish (accession) davlat hududi ichida yangi bir maydonning



2013-yil 20-noyabrda Yaponiyaning Nishinoshima oroli janubi-sharqida vulqon otilishi natijasida yangi hudud yuzaga kelib, shu yilning 26-dekabrida Nishinoshima oroli bilan birlashib ketgan. Suratda 2015-yil 18-oktabrdagi holat aks etgan.

(Manba: Yaponiya qirg'oq mudofaasi agentligining axborot xizmatlari veb-sahifasidan olingan)

hosil bo'lishi natijasida hududning kengayishini bildiradi. Xalqaro huquqda ichki suvlarda yangi orolning vujudga kelishi, daryo boshlanish joyidagi toshlarning yig'ilishi natijasida tabiiy holatda yuzaga keladigan yerlardan boshqa, qirg'oqbo'yi hududlarini yerga aylantirish orqali sun'iy qo'shib olish ham tan olinadi. Yaqin oradagi qo'shib olishning misoli sifatida, Nishinotorishima(5-3)-ning yaqinida 2013-yilda vujudga kelgan vulqon tufayli hosil bo'lgan yangi orolni keltirishimiz mumkin. Mazkur orol keyinchalik Nishinotorishima bilan birlashib ketgan va hudud yanada kengaygan. Boshqa tarafdin, orolning alohida hudud sifatida tan olinishi uchun okean va dengizlarda suv sat-

hining ko'tarilish payti¹ ham muhim rol o'ynaydi. Orol suv yuziga chiqib turishi lozim bo'lib, agar u suv ostiga ko'milsa, bu davlat hududi torayishini anglatadi. Okinotorishima orolining (5-4) dengiz suvlari tufayli dengiz tubiga g'arq bo'lishi shiddatli tarzda kechmoqda. 1987-yildan buyon ushbu orolni asrab qolish ishlari amalga oshirib kelinmoqda.

¹ Dengiz va okean suvlari har kuni ko'tarilib, pasayib turadi. Okean va dengiz suvlarining ko'tarilish hamda pasayish sababini I. Nyutonning butun olam tortishish qonuni izohlab bergan. Quyosh va oyning o'zaro tortishishi yerdagi suv massasiga ta'sir etadi va suvning ko'tarilish hodisasi sodir bo'ladi. Bir sutkada dengiz suvlari ikki marta ko'tarilib ikki marta pasayadi. Demak har 6 soatda suvning ko'tarilish muddati tamom bo'lib qaytish muddati boshlanadi. Suvning ko'tarilishi ichki dengizlarning qo'tliqlarida va daryolarning quyilish joylarida ancha kuchli bo'lib, ba'zan 10 metrdan oshib ketishi ham mumkin.

5-4 Okinotorishima oroli



1931-yilda Tokio metropolitenining Ogasawara tumaniga birlashgan, Yaponiyaning eng janubiy qismida joylashgan orol. Atrofi salkam 11 kilometrlik marjon rifidan tashkil topgan bo'lib, hozirda dengiz sathi ko'tarilgan paytda Kita-kojima va Higashi-kojima orollarigina dengiz yuzida qoladi. Ushbu orolni asos qilgan mutlaq iqtisodiy zonaning (exclusive economic zone: EEZ) (→ Chapter 6) maydoni 400.000 km kvadratdan ko'p bo'lib, Yaponiya davlati hududidan (salkam 380.000 km kvadrat) ham ko'proqni tashkil etadi.

(Manba: Yer, Infrastruktura, Transport va Turizm vazirligi veb-sahifasi)

Sessiya (cession) – hududning bir qismini manfaatdor davlatlar roziligi asosida narigi tomonga o'tkazilishi. Avvallari tinchlik bitimlari orqali urush natijasida kelib chiqqan holatni hal etish uchun sessiyaning amalga oshirilishi odatiy hol bo'lgan. Yaponiya bir paytlar Yaponiya-Xitoy Tinchlik Bitimi (Shimonoseki bitimi, 1895-yil) orqali Tayvan va Pengu orollarini, Yaponiya-Chor Rossiyasi Tinchlik bitimi (Portsmuz bitimi, 1905-yil) orqali esa janubiy Saxalinni qo'lga kiritgan. Bundan tashqari, sessiya oldi-sotdi

va ayirboshlash shakllarini ham o'z ichiga olishi mumkin (Chor Rossiyasi hududi bo'lgan Alyaskaning 1867-yilda AQShga sotilishi, 1875-yildagi Kuril orollarini ayirboshlash bitimi kabilar). Shuningdek, davlatlar o'z hududlarini o'tkazayotgan davlatni belgilamay turib ham o'z hududlaridan voz kechishlari mumkin. Masalan, Yaponiya 1951-yildagi San-Fransisko Tinchlik bitimida Koreya yarimoroli, Tayvan va Kuril orollaridan voz kechgan (2-modda).

Urush qilish umumiy ravishda taqiqlanmagan davlatda urush ochish (kuch ishlatish) bilan o'zga davlat hududiga amaliy jihatdan hukmronlik qilish (bosib olish) ham hududni qo'lga kiritish asoslaridan biri sanalgan. Biroq keyinchalik kuch ishlatishni taqiqlash tamoyilining yuzaga kelishi natijasida bosib olish orqali hududni qo'lga kiritish tan olinmaydigan bo'ldi. Sessiya va qo'shib olish (kelishuvga muvofiq bir davlatning butun hududini qo'shib olinishi) kabi holatlar zo'rlik bilan amalga oshiriladigan bo'lsa, ular ham tan olinmaydi. Aytish joizki, harbiy harakatlar chog'idagi bosib olishlar urush harakatlari amalga oshirilayotgan paytda muvaqqat boshqaruv huquqini amalga oshirish bilangina cheklanadi. Demak, hududni bosib olish asosi bo'la olmaydi. Ikkinchi jahon urushi mavjud paytidagi Tinch okeani havzasidagi urush davomida Yaponiyaning eski qurolli kuchlari juda ham keng mintaqadagi hududlarni bir muddat qo'lga kiritgan bo'lsa-da, egalab olingan hududlar Yaponiya davlat hududiga qarashli emas edi.


Anklav hududlarni o'zaro almashtirish

2015-yil may oyida Hindiston va Bangladesh o'rtasidagi chegara hududda (Kuch Bihar hududi) qolib ketgan 162 ta anklavlarni almashish bo'yicha ikki davlat o'zaro shartnoma tuzadilar. Ushbu shartnoma o'sha yilning avgust oyida kuchga kirgan. Aholiga esa fuqarolik bo'yicha tanlash ixtiyori berilgan.

Bangladesh hududidagi Hindiston hududi: 111 ta joy (salkam 69.4 km kv.)

Hindiston hududidagi Bangladesh hududi: 51 ta joy (salkam 28.77 km kv.)

(Manba: Hindiston Tashqi Ishlar Vazirligi veb-sahifasi asosida tayyorlandi)



(2) Hududiy nizolarni hal etishning huquqiy yechimlari

(a) Davlat chegarasi va chegara nizolari


Davlat chegaralariga oid shartnomalarda belgilanadigan chegara chiziqlari daryolar va tog' tizimlari kabi tabiiy shakllangan joylar orqali tortiladi (tabiiy davlat chegarasi). Shu bilan birga, xaritalardagi uzunlik va kenglik kabi o'lchamlarga asoslanib, sun'iy ravishda tortiladigan chegaralar (sun'iy davlat chegaralari) ham mavjud. Transport vositalari (kemalar) harakatlana oladigan daryolarda, umumiy tarzda, daryoning o'rtasi emas, balki transport yo'lagi sifatida daryo tubi-

ning eng chuqur joyini bog'laydigan chiziq davlat chegarasi hisoblanadi (5-5). Tog'li hududlar masalasida esa tog'ning eng yuqori suv havzalari oqimiga (tog' tizmalari) asoslanib chegara tortiladigan holatlar ko'p uchraydi.

XIX asrda Lotin Amerikasi davlatlari mustaqillikka erishgan davrda chegaralar Ispaniya mustamlakachiligi davridagi ma'muriy hududlar davlat chegarasini belgilashga asos bo'lgan. XX asrda Afrika davlatlari mustaqillikka erishgan paytda ham mustamlakachilar foydalangan ma'muriy bo'linish va davlat chegaralari saqlanib qolindi. Shu ma'noda, yangi vujudga kelgan davlat o'zining oldingi chegarasini bundan keyin ham davlat chegarasi sifatida saqlab qolish qoidasi (uti possidetis juris qoidasi) davlat chegaralariga oid yangi nizolarning oldini olish funksiyasiga egadir (→ **Keysbuk 15: Benin-Niger o'rtasidagi chegara nizosi**).

Ma'lum bir xalqaro nizoning davlat chegarasiga oid nizo (chegara nizosi) yoki hududning qaysi tomonga

5-5 Talveg qoidasi (Thalweg principle)



A-A', B-B' orasida eng chuqur daryo joylari hisoblangan x, y chiziqlari chegara chizig'idir.

Column

Preah Vihear ibodatxonasi ishi (ICJ 1962-yil qarori) (→ Keysbuk 1)

Jahon merosi sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan Preah Vihear ibodatxonasi Tailand va Kambodja davlatlari chegarasi yaqinida joylashgan. Tailand hukumati Kambodja bilan davlat chegaralari tog' daryosi suvlarining bo'linish joyidan boshlanishini asos qilgan holda, 1904-yildagi bitimga ko'ra ibodatxona Tailand davlatiga tegishli ekanini iddao qilgan. ICJ esa Tailand davlati bu masala bo'yicha ertaroq da'vo bilan chiqish imkoniga ega bo'lganligiga qaramay, uzoq muddat uni bu masalani ko'tarmagani ibodatxonaga nisbatan Kambodja davlatining hududiy suverenitetini tan olganini anglatishini ta'kidlaydi. Natijada, Tailand hukumatining da'vosi rad etiladi.

Column

Kasikili/Sedudu oroli mojarosi (ICJ 1999-yil qarori) (→ Keysbuk 28)

Namibiya va Botsvana o'rtasidagi chegara vazifasini o'tovchi Cho'be daryosi o'rtasida kattagina orol bo'lib (Kasikili/Sedudu oroli), ushbu orolga nisbatan hududiy da'vogarlik masalasida nizo kelib chiqqan. ICJ ikki davlat o'rtasidagi shartnomada qayd etilgan «asosiy oqimdagi talveg joyi»ni shimoliy oqimdagi eng chuqur chiziqda belgilab, orolga nisbatan Botsvananing hududiy suverenitetini belgilab bergan.

Column

Ligitan va Sipadan orollari mojarosi (ICJ 2002-yil qarori)

Borneo oroli (Kalimantan oroli) sharqida joylashgan Selebes dengizidagi 2 orolga (Ligitan va Sipadan orollari) oid hududiy suverenitet masalasi Malayziya va Indoneziya hukumatlari o'rtasida nizolashilgan. ICJ xulosasiga ko'ra, mavjud shartnomalar bo'yicha ikki davlatda ham mazkur hududlarga nisbatan egalik qilish uchun aniq bir huquqiy asos mavjud bo'lmagan. Shu sababli ikki davlat ham amaliy jihatdan ushbu orollarga da'vogarlik qilishni boshlagan. 1969-yil hal qiluvchi sana sifatida belgilangan. Natijada, o'sha yildan boshlab hududlarga da'vo qilib chiqayotgan davlatlarning mazkur hududlardagi suveren faoliyati samaradorligi tekshirilgan. Oqibatda ICJ orollarni Malayziya davlatiga tegishli deb qaror chiqargan.

tegishliligiga oid nizo (hudud nizosi) ekanligi bo'yicha bahslar mavjud. Shunday bo'lsa-da, BMT Xalqaro adolat sudining tavsiyaviy xulosasiga (International Court of Justice: ICJ) ko'ra, ikkala holatda ham nizo mohiyati o'zgartmaydi. Shuning uchun ikkisini ajratish zarur deb hisoblanmaydi.

(b) Xalqaro huquqning o'zgarishi va hududiy nizolar

Hududga oid xalqaro huquq normalari davr o'tishi bilan o'zgarib kelgan. Okkupatsiya qoidasini dastlab Grotius (1583–1645) taklif qilgan. Bu XVIII asrdan keyin Yevropa mamlakatlarning mustamlakachilik faoliyatining asosi bo'lib xizmat qilgan. Undan avvalgi davrda esa birinchi kashf qilgan qo'lga kiritadi degan qoida tatbiq etib kelingan (→ **Chapter 1**). Shuningdek, avvallari tan olingan bosib olish yoki zo'rlik bilan qo'shib olish asoslari hozirda tan olinmaydi. Shunday bo'lsa-da, bosib olish orqali hududni kengaytirish qoida sifatida tan olingan zamonlarda qo'lga kiritilgan hududga oid egalik hozirda rad etilmaydi. Ya'ni hozirgi xalqaro huquq avval bo'lib o'tgan ishlar va faktlarga nisbatan tatbiq etilmaydi. Hududga egalik asosini belgilovchi harakatga o'sha payt kuchda bo'lgan xalqaro huquq qoidalarga ko'ra baho beriladi.

(c) Suveren faoliyatning samaradorligi va uning huquqiy ahamiyati

Nazariy jihatdan, nizolashilayotgan hudud bo'yicha, hududni qo'lga kiritish shartlaridan birini bajargan davlat o'sha hududga nisbatan suveren hokimiyatni o'rnatadi. Biroq tomonlar

1. 1855-yilda Yaponiya-Chor Rossiyasi Do'stlik Bitimiga asosan davlat chegaralari belgilandi (Saxalin bo'yicha chegara chiziqlari tortilmay qolib ketdi)
2. 1875-yilda Saxalin orollarini almashish bo'yicha shartnomaga asosan chera chiziqlari tortildi.
3. 1905-yilda Yaponiya-Chor Rossiyasi tinchlik bitimiga ko'ra chegaralar belgilandi.
4. 1951-yil San-Fransisko tinchlik bitimiga ko'ra «Kuril orollari» dan voz kechildi (Yaponiya hukumatining sharhi)



(Manba: Yaponiya Tashqi Ishlar Vazirligi veb-sahifasi)

hududiy nizolarda bir-biriga qarshi turlicha asoslarga tayanib hududga nisbatan da'vogarlik qiladilar. Shuning uchun ham hududni qo'lga kiritishning asoslarini hisobga olib, muammoni yechish mumkin bo'lmagan holatlar ham ko'p. Agar chegarani belgilovchi bitim yoki hududni sessiyasiga oid bitim mavjud bo'lib, uni nizoga tatbiq etishga oid nizo mavjud bo'lmasa, xalqaro sudlar tegishli bitimni talqin etgan holda muammoga nisbatan qo'llaydi va nizo hal etiladi. Agar mavjud shartnoma orqali hal etishning imkoni mavjud bo'lmasa yoki qo'llanilishi kerak bo'lgan xalqaro shartnomaning o'zi mavjud bo'lmasa, unda «davomiy va tinch shaklda suveren boshqaruv» (suveren faoliyatning samaradorligi) qoidasi bo'yicha ish ko'rib chiqiladi. Ya'ni xalqaro shartnomani talqin qilish va qo'llash orqali masala yechilmagan taqdirda, tomonlardan qaysi biri samarali (effective) shaklda hududni

boshqarib kelgani (hukmronlik qilgani) nisbiy taqqoslanib qaror qabul qilinadi.

Suveren faoliyatning samaradorligini belgilashda qaysi muddatdan boshlab suveren faoliyatni e'tiborga olish lozim degan masala ko'tariladi. Bunda, hududiy nizo boshlanganidan so'ng tomonlar mavjud faktlarni o'zlarining manfaatlarini yo'lida o'zgartirganda, bu kabi harakatlar e'tiborga olinmasligi lozim deyiladi. Shu sababli qoida tariqasida nizo chiqqan paytgacha sodir bo'lgan suveren xatti-harakatlariga e'tiborga olinadi. Chiqariladigan qaror uchun mezon vazifasini bajaruvchi bunday davrga hal qiluvchi sana deyiladi.

(3) Yaponiyaning hududiy muammolari

Yaponiya davlati Rossiya Federatsiyasi bilan shimoliy hududlar (Kuril orollari) masalasida, Janubiy Koreya davlati bilan Takeshima oroli masalasida muammolarga uchrab kelmoqda.

Senkaku orollari bo'yicha esa Xitoy va Tayvan hududiy da'vogarlikni ilgari surmoqda. Shimoliy hududlar (ularga Habomai, Shikotan, Kunashir va Etorofu orollari kiradi) (5-6) bo'yicha alohida xalqaro shartnoma mavjud. Ammo huquqiy jihatdan mazkur xalqaro shartnomaning qanday sharhlanishi asosiy nizoli nuqta bo'lib turibdi. Takeshima oroli va Senkaku orollari masalasida esa (5-7), hududiy egalikni to'g'ridan to'g'ri belgilab beruvchi xalqaro shartnoma mavjud emas. Shu sababli hududiy nizo yuzaga kelgan paytdagi suveren faoliyatning samaradorligiga ko'ra mazkur hududlarga nisbatan egalik masalasi hal etiladi (5-8).

(a) Shimoliy hududlar muammosi
1945-yilda sobiq Sovet Ittifoqi tomonidan Yaponiya-Sovet Ittifoqi be- taraflik bitimi bir tomonlama bekor qilinib, Yaponiyaga nisbatan urush e'lon qilingan. Shundan so'ng Potsdam Deklaratsiyasi qabul qilindi va unga ko'ra 1945-yil avgust oyi oxiridan boshlab sentabr oyi davomida Kuril orollaridan Habomai va Shikotan orollari Sovet Ittifoqi tomonidan egallandi. Ushbu holat hozirgacha davom etmoqda. Yaponiya tuzgan San-Fransisko Tinchlik shartnomasida Yaponiya Kuril orollaridan voz kechgan. Sovet Ittifoqi ushbu shartnomada ishtirok etmagan bo'lsa-da, Yaponiyaning ushbu orol-

5-7

Yaponiya hududi bilan Shimoliy hududlar – Takeshima va Senkaku orollarining o'zaro joylashuvi



(Manba: Yaponiya Tashqi ishlar vazirligi veb-sahifasi)

(1) Mamlakatning dunyoga ochilishi va atrof hududlarning aniqlanishi

- ① Shimoliy hududlarda chegaralarning belgilanishi
 - 1855-yil Yaponiya-Chor Rossiyasi Do'stlik Bitimi (Hamdo'stlik bitimi): Iturup va Urup orollari o'rtasi chegara chizig'i bo'lgan. Saxalin esa ikki davlatning ham birgalikda foydalanadigan hududi sifatida tan olingan.
 - 1875-yil Saxalin va Kuril orollarini ayirboshlash bitimi: Saxalin Rossiya hududi sifatida e'tirof etilib, jami 18 ta Kuril orollari esa Yaponiyaga o'tgan.
- ② Janubi-g'arbiy, janub orollari
 - Ogasawara orollari, janubiy orollarning Yaponiya hududiga qo'shilishi: 1876-yilda Ogasawara, 1891-yilda Ioushima, 1898-yilda Minamitorishima, 1931-yilda Okinotirishima.
 - Okinawadagi Ryukyu hukumatining bekor qilinishi: 1872-yilda Meiji hukumati Han feodal tuzumini bekor qilish qatorida Okinawani Kagoshima prefekturasi boshqaruviga kiritgan. 1879-yilda esa Okinawa prefekturasi tuzilgan.
- ③ Senkaku orollari, Takeshima oroli
 - Senkaku orollari: 1885-yilda diqqat bilan o'tkazilgan tekshiruvlar natijasida egasiz yerligi ma'lum bo'lgan. 1895-yil yanvar oyida rasmiy ravishda Yaponiya hududiga qo'shib olingan.
 - Takeshima orollari: 1905-yil yanvar oyida Shimane prefekturasi boshqaruviga berilib, xorijiy davlatlarga bu haqda ma'lum qilingan (xorijiy davlatlardan e'tiroz bo'lmagan).

(2) Hududning kengayishi

- 1895-yil aprel oyi Yaponiya-Xitoy Sin Imperiyasi tinchlik bitimi (Shimoneseki bitimi): Liadong yarimoroli, Tayvan va Pengu orollarini Yaponiya sessiya qilgan (faqat Yevropaning uch mamlakati aralashuvi bilan Liadong yarimoroli yana Xitoyga qaytarilgan).
- 1905-yil sentabr oyi Yaponiya-Chor Rossiyasi Tinchlik bitimi (Portsmut bitimi): shimoliy qutbdan 50 gradus janubdagi Saxalin oroli (janubiy Saxalin) Yaponiyaga berilgan.
- 1910-yil avgust oyi Koreyani qo'shib olish bitimi: Koreyani Buyuk Yaponiya imperiyasiga qo'shib olish (mustamlaka qilish). Koreyani boshqarish hukumatini tashkil etish.

(3) Ikkinchi jahon urishida yengilganidan keyingi hududiy nizolarining hal etilishi

- ① Ikkinchi jahon urushi davomidagi Ittifoqchi davlatlar harakati
 - 1941-yil Atlantika xartiyasi (AQSh-Britaniya qo'shma deklaratsiyasi): hududni kengaytirmaslik bo'yicha hamfikrlilik.
 - 1943-yil Qohira Deklaratsiyasi (AQSH-Britaniya-Xitoy): hududlarni kengaytirmaslik tamoyili, Hind okeani orollaridan mahrum qilish, Manchjuriya va Tayvanning qaytarilishi, Koreya yarimorolining mustaqillikka erishishi.
 - 1945-yil fevral oyi Yalta bitimi (maxfiy bitim) (AQSh-Britaniya-Sovet ittifoqi): Janubiy Saxalinning qaytarilishi, Kuril orollarining Sovet ittifoqiga berilishiga oid yashirin va'dalar.
 - 1945-yil 26-iyul Potsdam Deklaratsiyasi (AQSh-Britaniya-Xitoy qo'shma bayonoti) – 14-avgust kuni Yaponiya qabul qilgan.
 - 8-avgust Sovet ittifoqi-Yaponiya betaraflik bitimining (1941-yil) bir tomonlama bekor qilinishi, Potsdam deklaratsiyasiga qo'shilib, Yaponiyaga qarshi urush e'lon qilinishi.
- ② San-Fransisko shartnomasi va Yaponiya-Sovet Ittifoqi Deklaratsiyasi
 - 1951-yil San-Fransisko shartnomasi → keyingi yil aprel oyidan kuchga kirgan.
 - 2-modda: Koreya yarimoroli, Tayvan, Kuril orollari, BMTdan boshqaruvi topshirilgan hududlar, Antarktika, Spratli orollari, Parasel orollari → voz kechish.
 - 3-modda: Nansei orollari (Ryukyu kabi), janubiy orollar (Ogasawara kabi), Okinotirishima, Minami-Torishima → muvaqqat muddatga AQSh boshqaruviga berilishi.
- ③ Amami, Ogasawara, Okinawa boshqaruvining qaytarilishi
 - 1953-yil Amami orollarini qaytarilish bitimi → shu yilning o'zida qaytarilgan.
 - Janubiy orollarni (Ogasawara orollari) qaytarish bitimi → shu yilning o'zida qaytarilgan.
 - 1971-yil iyun oyi Okinawani qaytarishga oid bitim → 1972-yil may oyida Ryukyu orollari va Daito orollarini qaytarish amalga oshirilgan.

lardan voz kechganlik faktini rad etib bo'lmaydi. Undan keyin esa Yaponiya-Sovet Ittifoqining Birgalikdagi Deklaratsiyasida (1956-yil) Habomai va Shikotanning Yaponiyaga qaytarilishi masalasida kelishuvga erishilgan.

Habomai va Shikotan orollari geografik joylashuv jihatidan ham, ma'muriy bo'linish jihatidan ham Kuril orollarining bir qismi emas. Aksincha, Hokkaido orolining bir qismi hisoblanadi. Kunashir va Etorofu orollari esa Kuril orollarining janubiy qismi sifatida ko'riladi. Yaponiya hukumati Habomai, Shikotan, Kunashir va Etorofu orollarini tarixan Yaponiyadan boshqa davlat hududiga kirmagan hudud sifatida baholaydi hamda ushbu orollarga o'zining **noyob hududi** sifatida qaraydi. Shu ma'noda, Ikkinchi jahon urushi paytida Ittifoqdosh davlatlar (AQSh, Angliya, Sovet Ittifoqi) tomonidan qayta-qayta ta'kidlangan **hududlarni kengaytirmaslik tamoyiliga** asoslanilsa, Yaponiya o'zi voz kechgan Kuril orollari tarkibiga ushbu 4 ta orol kirmasligini aytib keladi. Hozirda ham Rossiyadan mazkur orollarni o'ziga qaytarishni talab qilib kelmoqda.

(b) Takeshima oroli muammosi

1952-yilda Janubiy Koreya davlati bir tomonlama Ri Syong-man (o'sha paytdagi Koreya prezidenti) chizig'ini tortib, Takeshima orolini (Koreyada Dokdo oroli deyiladi) Koreya hududiy suvlari ichiga kiritdi. 1954-yilda esa harbiy kuchlar bilan ushbu orolni amalda idora qilishni boshlashi oqibatida ushbu orolga egalik muammosi yuzaga

keldi. Yaponiya ushbu orolni XVII asrdan boshlab amalda boshqarib kelgan. Bundan tashqari, Yaponiya hukumati 1905-yilda Takeshima orolini Shimane prefekturasining bir qismi sifatida o'z hududiga rasmiy kiritganida ham, Koreya o'sha paytda hech qanday e'tiroz bildirmagan edi. Koreya tomonidan bunday bir tomonlama amaliy egallab olishga qarshi, Yaponiya BMT Xalqaro adolat sudida mazkur muammoni hal etish taklifini bildirgan bo'lsa-da, Koreya ushbu taklifga rozi bo'lmagan.

(c) Senkaku orollari muammosi

Yaponiya 1885-yildan boshlangan geografik tekshirishda Senkaku orolining egasiz yer ekanligini diqqat bilan tekshirib tasdiqlagan holda, ushbu orollarni 1895-yilda Okinava prefekturasining bir qismi sifatida o'z hududiga kiritgan. Ushbu orolga nisbatan tinch yo'llar bilan boshqaruvni amalga oshirib kelgan. Biroq 1968-yilda ushbu hudud atrofidagi dengiz suvlari tubida neftga boy konlar aniqlangach, 1970-yillardan boshlab Xitoy va Tayvan mazkur hududga nisbatan hududiy da'vogarlikni boshlab yubordi. Ushbu orol Okinawaning (AQSh kuchlaridan Yaponiyaga) qaytarilishiga oid bitimda (1971-yil) boshqaruv vakolati Yaponiyaga qaytarilgan Ryukyu orollari tarkibiga kirgan bo'lib, hozirda ham Yaponiya uni amalda boshqarib kelmoqda. Yaponiya hukumati ushbu masala yuzasidan «Hududiy nizo mavjud emas» degan nuqtayi nazarda turadi.

3 Alohida hududlar

(1) Xalqaro huquq tartibga soladigan hudud va o'ziga xos hududlar

Xalqaro huquqda tartibga solinib boshqariladigan hududlar, asosan, davlat hududiy suvereniteti o'rnatiladigan davlat hududi va hech qaysi bir davlat hududiy suvereniteti tatbiq etilmaydigan xalqaro rejimli hududga ajraladi. An'anaviy xalqaro rejimli hudud deganda ochiq dengizlar tushunilgan bo'lsa-da, hozirda unga qo'shimcha tarzda ochiq dengizdan farqlanuvchi, chuqur dengiz/okean tublari, fazo kengligi va samoviy jismlar ham kiradi. Antarktikaga nisbatan esa hududiy da'vogarlik muzlatilib, hududiy nizolar masalasi o'rtadan ko'tarilgan. Shuning uchun Antarktikani sof xalqaro rejimli hudud deya olmaymiz. Xalqaro daryolar va kanallar masalasida esa ular davlat hududining bir qismini tashkil etishlari bilan birga, hududiy suverenitetni qo'llash alohida shaklda cheklangan hududlar hisoblanadi.

Millatlar Ligasining o'tmishdagi Mandat asosida boshqariladigan hududlari Birinchi jahon urushida yengilgan Germaniya va Usmonli Turklar davlatlarining mustamlakalari hamda qo'l ostidagi joylarini qamrab olgan. Ushbu hududlar Liganing nazoratida mandatga ega bo'lgan davlatlar tomonidan boshqariladigan maxsus hududlar bo'lgan (Millatlar Ligasi Nizomi, 22-modda). Keyinchalik, mandat asosidagi boshqaruv tizimi BMTning Vasiylik boshqaruv tizimiga (UN trust territories, BMT Nizomi, XII bob) almashgan bo'lsa-da, 1994-yilda Palau davlatining mustaqillikka erishi-shi natijasida ushbu tuzum ham o'z yakuniga yetdi. Boshqa tarafdin, o'z-o'zini boshqarmaydigan hududlar sifatida (aholisi to'liq shaklda o'z-o'zini boshqarmaydigan hududlar) Guam (AQSh hududi) va Gibraltar (Britaniya hududi) kabi 10 dan ziyod hududlar hali ham saqlanib qolgan. Ularni boshqaradigan davlatlarda mahalliy aholining farovonligini oshirishga oid majburiyat mavjud (BMT Nizomi, 73-modda).

Column

Gabchikova-Nagimaros rejalashtirish nizosi (ICJ 1997-yil qarori) (→ Keysbuk 25)

Vengriya Danub daryosi suvini birgalikda foydalanish rejasiga doir ikki tomonlama bitimni biryozlama bekor qilgan (qarang, IV bob). Bunga qarshi chora sifatida Slovakiya tomoni o'z hududi ichidagi suvdan foydalanishni boshlab yuboradi. Ya'ni daryo suvlari vositasida elektr toki ishlab chiqarishni boshladi. ICJ bitim tugatilganini tasdiqlamagan bo'lsa-da, qarshi chora sifatida daryodan «adolatli va oqilona foydalanish» tamoyilini buzganligi uchun Slovakiya tomonidan bildirilgan da'vo ham qo'llab-quvvatlanmagan.



(Manba: ICJ qarori)

(2) Xalqaro daryolar va xalqaro kanallar

(a) Xalqaro daryolar

Hududga oid suverenitet tamoyili nuqtayi nazaridan kemalar o'zga davlatlar hududidan o'tgan daryolardan erkin suzib o'ta olmaydilar. Shunday bo'lsa-da, Danub daryosi, Reyn daryosi kabi bir necha mamlakatlar bo'ylab oqib o'tuvchi va transport harakatlana oladigan har bir daryo bo'yicha qirg'oqbo'yi davlatlari barcha kemalar (odatda, bunga harbiy kemalar kirmaydi) qatnovi erkinligini ta'minlashga oid bitimlar imzolashgan. Bunday hollarda, daryo oqib o'tgan davlatlarning hududiy suvereniteti shu bitim doirasidagina cheklanadi, xolos.

Kemalar qatnovidan o'zga maqsadlarda daryolardan (suv yo'llari) foydalanish ham, qirg'oq bo'yi davlatlari tomonidan tuziladigan alohida shartnomalar (xalqaro suv yo'llari bitimlari) orqali boshqariladi va shunga ko'ra davlatlarning hududiy suverenitetiga nisbatan bir qancha cheklovlar o'rnatiladi. Odatda, qirg'oq bo'yi davlatlari suvdan (suv yo'lida joylashgan davlatlar) «adolatli va oqilona foydalanigan» holda, suv yo'nalishi bo'ylab joylashgan davlatlarga jiddiy zarar yetkazmaslik majburiyatini oladilar (Xalqaro suv yo'llaridan navigatsiyaga oid bo'lmagan foydalanish konvensiyasi, 5 va 7-moddalar).

(b) Xalqaro kanallar

Ikki dengizni bog'lovchi va xalqaro bitimlarga muvofiq suzib o'tish erkinligi ta'minlangan sun'iy suv yo'laklari xalqaro kanallar deyiladi. Hozirda,

Suvaysh (Misr) va Panama kanallari (Panama) ushbu kategoriyaga mos keladi. Aslida bu kanallar bir davlatning ichidagi hududiy suvlar hisoblansa-da, barcha davlatlarning kemalari (harbiy kemalar ham) uchun erkin qatnovni ta'minlash maqsadida xalqaro kanallarga aylantirilgan. Natijada, ushbu daryolarga nisbatan hududiy suverenitetning qo'llanilishiga cheklovlar o'rnatilgan.

Suvaysh kanali (5-9) 1869-yilda dengiz balandligidagi gorizontal kanal sifatida ochilib, 1888-yilda Konstantinopol bitimi orqali xalqaro hududga aylantirilgan. **Panama kanali (5-10)** AQSh va Britaniya o'rtasida, shuningdek, Panama va AQSh o'rtasidagi ikki tomonlama bitimlarda qatnovning erkinligi ta'minlangach, 1914-yilda qulf tarzidagi kanal¹ ochilgan. 1999-yilgacha Panama kanali boshqaruvi va kanal hududiga nisbatan AQShda maxsus vakolat bo'lgan bo'lsa-da, 2000-yildan keyin Panama davlatining to'liq suvereniteti ostiga o'tgan.

(3) Antarktika va Arktika


(a) Antarktika

Antarktikada o'ta keng qit'a mavjud bo'lib, uning qirg'oq joylarida katta muz bo'laklari suv yuzasiga chiqib turadigan joylarni ham ko'rish mumkin. XX asrning boshlaridan boshlab Angliya boshchiligidagi 7 ta davlat sektor nazariyasiga asoslanib Antarktikaga nisbatan hududiy da'vogarlik qila boshladi. Natijada, na-


¹ O'rtada tog'lar va dengiz sathidan bir necha 10 metr baland ko'llar bo'lganligi sababli kemalarni yuqoriga ko'tarish uchun qulflari darvozalar o'rnatilgan.

5-9 Suvaysh kanalining kengaytirilishi

2015-yil avgust oyida Suvaysh kanalining (uzunligi 193 km) bir qismini (72 km) kengaytirish va tubini chuqurlashtirish ishlari oxiriga yetkazilib, ochilish marosimi bo'lib o'tdi.




Suvaysh kanalining yangi qismidan suzib o'tayotgan kema. (Manba: EPA)



Hududsiz davlat yo'q - quruqlik, osmon va fazo

5-10 Panama kanali



Panama kanalidan suzib o'tayotgan kemalar. (Manba: EPA)

faqat hududiy da'vogarlikni talab qiluvchi davlatlar o'rtasida, balki bunday da'volarni umuman rad etuvchi davlatlar (Yaponiya ham rad etuvchi 5 mam-

lakat ichida bo'lgan) orasida nizo kelib chiqdi (**kitob boshidagi rangli suratga C-13**). 1959-yilda ushbu davlatlar Antarktika shartnomasini (1961-yilda


Atama

Sektor nazariyasi

Janubiy qutbning markazini asos qilgan holda ma'lum bir rayonlarni (sektor) belgilab, ularni okkupatsiya (amalda boshqaruv) qilish shartini to'liq bajar-mayotgan bo'lsa ham, o'sha sektorning barchasiga nisbatan hududiy suverenitetni da'vo qiluvchi davlatlar pozitsiyasi.

5.11 Arktikadagi dengiz yo'lagi

Shimoliy dengiz yo'li vs. Janubiy dengiz yo'li



Arktikadagi dengiz yo'lidan foydalanish orqali Yaponiya-Yevropa Ittifoqi davlatlari orasidagi masofa Suvaysh kanali orqali yuk tashishdan ko'ra qatnov muddati 40 %ga qisqartirilishi mumkin.

(Manba: JAXA sayti asosida tayyorlangan)

kuchga kirgan) qabul qilib, Antarktika-ga oid hududiy da'volar muzlatib qo'yilishi belgilandi (4-modda). Bunda, har bir davlatning da'vosini tan olish yoki uni rad etish shu holicha qoldirildi. Ya'ni muzlatib qo'yildi. Shuningdek, hududiy nizolar o'rtadan ko'tarildi (4-modda 1-qism) va ushbu shartnoma amal qilgan muddat davomida amalga

oshiriladigan faoliyatlarning keyinchalik hududiy da'volar uchun asos bo'la olmasligi belgilandi (4-modda 2-qism). Shunday qilib, Janubiy qutb mintaqasidan tinchlik yo'lida foydalanishgagina ruxsat berildi. Harbiy maqsadlar, atom bombasini sinash va radiaktiv chiqindilarni tashlashning barcha turlari taqiqlanib (1-modda, 5-modda), qat'iy ravishda qurolsizlantirish amalga oshirildi.

Shundan keyin, Antarktikaning dengiz jonzoqlaridan iborat biologik zaxiralarni himoya qilish va asrash uchun Antarktika dengiz jonzoqlari zaxiralarni himoya qilish shartnomasi (1980-yil), tabiiy kon zaxiralarini qazib olib foydalanishni eng kamida 50 yilga taqiqlovchi Antarktika shartnomasining tabiatni asrash protokoli (1991-yil) tuzildi. Natijada, Antarktika masalasida huquqiy tizim (Antarktika shartnomasi tizimi) yaratildi. Aslida, Antarktikani «dunyo bog'i»ga aylantirish borasida chaqiriqlar yangragan bo'lsa-da, Antarktikaga oid hududiy suverenitet masalasi hanuzgacha muzlatib qo'yilgan.

(b) Arktika

Shimoliy qutbda qit'a mavjud emas, balki uning o'rniga katta kenglikda muzlagan dengiz mavjuddir. Shu sababli unga nisbatan dengizlarga tatbiq etiladigan huquqiy qoidalar (→ **Chapter 6**) tatbiq etiladi. Shimoliy dengizda ham hududiy dengiz, mutlaq iqtisodiy zona, kontinental shelf kabi qirg'oq bo'yi hisoblangan 5 ta davlatning dengizga oid yurisdiksiyasi tan olingan. Yaqin yillarda ro'y berayotgan dengiz muzlarining kamayishi tufayli

ochilayotgan Arktika dengiz yo'lagidan foydalanish (5-11) va uning ostidagi tabiiy zaxiralarni qazib olish ko'pchilik e'tiborini o'ziga tortmoqda.

4 Fazoviy hudud va samoviy jismlar

(1) Fazo shartnomasi va fazoga oid 4 bitim

1950-yillarning 2-yarmidan boshlab AQSh va sobiq Sovet Ittifoqi milliy loyiha sifatida fazoni ochishga kirishganidan so'ng, katta tezlikda fazo huquqi shakllantirildi. 1966-yilda fazo bo'yicha asosiy xalqaro hujjat hisoblanuvchi Fazo shartnomasi qabul qilinib (1967-yilda kuchga kirgan), keyin esa uni to'ldiruvchi va batafsil qoidalarini o'rnatuvchi 4 bitim (fazoga oid 4 bitim) (5-12) ham 1970-yillargacha qabul qilindi.

Oy va boshqa samoviy jismlarni o'z ichiga oluvchi fazo kengliklarida barcha davlatlarga nisbatan qidiruv (tekshiruv) va foydalanish erkinligi berildi (Fazo shartnomasi, 1-modda). Mazkur hududlarga nisbatan davlatlarning o'z hududiy suverenitetlarini o'rnatishlari taqiqlanadi (2-modda). Oy va boshqa samoviy jismlarga nisbatan Oy bitimi imzolangan. Unga ko'ra, Oyga «insoniyatga tegishli umumiy mulk» degan maqom berildi. Natijada, nafaqat davlatlarning hududiy suvereniteti, balki davlatlar va ulardan boshqa tashkilot, jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan egalikni belgilash masalasi ham rad etildi (11-modda). Biroq ilmiy izlanish maqsadida oydan toshlarni olib qaytish kabi huquqlar tan olinadi (Qarang, 6-modda). Muammo shundaki,

5-12 Fazo shartnomasi va fazoga oid 4 bitim	
1966-yil	1966-yil – Fazo shartnomasi (1967-yilda kuchga kirgan)
1968-yil	1968-yil – Fazoda astronomlarni qutqarish va uchirilgan obyektlarni qaytarish bitimi (shu yilda kuchga kirgan)
1972-yil	1972-yil – Fazo kemalari tufayli yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar bo'yicha javobgarlik bitimi (shu yilda kuchga kirgan)
1974-yil	1974-yil – Fazo obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish bitimi (1976-yilda kuchga kirgan)
1979-yil	1979-yil – Oy to'g'risidagi bitim (1984-yilda kuchga kirgan)

Oy bitimiga qo'shilgan mamlakatlar soni kam bo'lib, rivojlangan davlatlarning aksariyati hanuzgacha a'zo emas.

Harbiy maqsadlarda foydalanishga oid qoidalar samoviy jismlar va fazoviy kenglikda farqlanadi. Samoviy jismlar masalasida Antarktikadagi kabi juda qattiq quolsizlanish amalga oshirilgan bo'lsa-da, fazoviy kengliklarda esa ommaviy halok qiluvchi qurollarni dunyo orbitasiga joylamaslik va fazoviy kengliklarga olib o'tmaslik qoidasigagina kelishilgan, xolos. (Fazo shartnomasi 4-modda). Shunga ko'ra, fazoviy kengliklarda odatiy qurollarning ishlatilishi, dunyoni aylanuvchi ekvator chizig'iga tushib qolmaydigan usuldagi ommaviy halok qiluvchi qurollarni otilishi kabilar, to'la ravishda taqiqlangan deb ayta olmaymiz.

Fazo kemalarini uchirgan davlatlar ularni ro'yxatdan o'tkazib, BMTni xabar-

5-13

Dunyodagi ilk sun'iy yo'ldosh
Sputnik-1 (Sobiq Sovet Ittifoqi,
1957-yil)



(Manba: NASA)

dor etadi (Fazo obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish bitimi, 2-modda). Fazo kemasi fazoda yurgan muddat davomida, uni ro'yxatdan o'tkazgan davlat o'sha fazo kemasi va undagi ekipaj a'zolariga nisbatan yurisdiksiyasini saqlab qoladi (Fazo kemasi, 8-modda). Fazodagi harakatlar yuqori darajadagi xavfni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli davlatlar o'z zimmalariga javobgarlikni oladilar hamda ruxsat berish va doimiy nazorat qilish vazifasini bajaradilar (6-modda). Shuningdek, uchinchi shaxslarga zarar yetkazilganda, ushbu zarar xususiy kompaniyalar faoliyatidan kelib chiqqan bo'lsa ham ularni ro'yxatdan o'tkazgan davlat xalqaro huquqiy javobgarlikka tortiladi (Davlatga barcha javobgarlikning yuklatilishi, 7-modda). Odatda, davlatlar qoida tariqasida yuridik va jismoniy shaxslar yoki xususiy firmalar faoliyati uchun javobgarlik olmasa-da, fazoviy faoliyatlarga nisbatan ushbu qoida tatbiq etilmaydi. Fazo kemalari tufayli yet-

Column

«Kosmos-954» hodisasi

1978-yilda Sobiq Sovet Ittifoqining yadroviy reaktori bo'lgan sun'iy yo'ldoshi «Cosmos-954»dan chiqqan chiqindi Kanada-ni shimoli-g'arbiy qismiga tushadi. Shundan so'ng Kanada hukumati radiaktiv ifloslanishni ketkazish xarajatlarini Sovet Ittifoqidan talab etadi. Deyarli 2 yil davom etgan muzokaralar natijasida, Sovet Ittifoqi talab etilgan summaning yarmini to'lab berishga rozi bo'ladi va taraflar kelishuvga erishadilar.

kaziladigan zarar bo'yicha javobgarlik bitimi (1972-yil) sun'iy yo'ldosh (5-13) va raketa kabi fazo obyektlarining yer yuzidagi yoki uchib ketayotgan samolyotlarga yetkazadigan zarari haqida fazoviy obyektlarni uchirgan davlat **qat'iy javobgarlikni** (absolute liability: harakat yoki harakatsizlik qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli sodir etilmasa-da, javobgarlikni olish g'oyasini ifodalovchi qoida) bo'yniga oladi (2-modda).

(2) Fazoviy faoliyatlarning rivojlanishi va yangi muammolar

Fazoviy faoliyatlarning turlari ko'payishi bilan birgalikda, ularni xususiy lashtirish va tijoratlashtirish (商業化) ham rivojlanmoqda. Ayniqsa, fazo kengliklaridagi sun'iy yo'ldoshlar orqali amalga oshiriladigan axborotni yuborish va qabul qilish kabi axborot oqimi bilan bog'liq holatlar anchagina faol. **Geostatsionar orbitaning** (geostationary orbit: ekvator ustidagi 36 ming kilometrlik orbita) ustidagi geostatsionar yo'ldosh (geostationary satellite) doimiy ravishda yer kurrasini aylanadi. U yerning qaysidir qismiga radio to'lqinlarini yubora olishi uchun aynan mana shu geostatsionar orbitaning aloqa sun'iy yo'ldoshi va eshitti-


rish sun'iy yo'ldoshidan foydalaniladi (5-14). Geostatsionar orbita va chastotali tasma (telekommunikatsiya vositasi) hozirgi kunda «cheklangan tabiiy boylik» hisoblanib, har bir davlat bo'yicha oldindan belgilangan me'yorda ajratiladi. Eshittirish sun'iy yo'ldoshi tomonidan to'g'ridan to'g'ri biror-bir dasturning uzatilishi, yerdagi ma'lumotning quyi orbitadagi yerni o'rganish yo'ldoshi tomonidan qabul qilinishi faoliyatlariga doir BMT rezolyutsiyalari mavjud. Ammo huquqiy oqibatni keltirib chiqaradigan va majburiyat yuklaydigan xalqaro shartnoma hali tuzilmagan.

15 mamlakat tomonidan barpo etilib, Yaponiya ham ishtirok etgan **Xalqaro fazo bazasining** (Xalqaro fazo stansiyasi, ISS) (5-15) balandligi 400 kilometrlik quyi orbitani aylanuvchi xalqaro kompleks hisoblanadi. Bunda bir nechta mamlakatlarning uchish uskunalari (tajriba o'tkazish binosi, yashash binosi) tayyorlanib, doimiy ravishda istiqomat qiluvchi mutaxassislar tomonidan tajriba va kuzatuvlar o'tkazilmoqda. **(Kitob boshidagi rangli suratga qarang**

C-12. Qatnashuvchi davlatlar tomonidan tuzilgan Fazoviy bazaga doir bitim (2001-yilda kuchga kirgan) fazo obyektlari sifatida ro'yxatdan o'tish usuli, boshqarish va yurisdiksiya, jinoyat sudi joylashuvi, intellektual mulk huquqining himoyasi kabi fazo bazasining o'ziga xos yangi vujudga kelayotgan muammolarini bartaraf etish uchun qoidalarni belgilaydi.

Fazoviy faoliyatlarning rivojlaniishi bilan birga, fazo kengliklaridagi

5-14 Yer kurrasini aylanuvchi orbita va sun'iy yo'ldosh



(Manba: NASA)

5-15 Xalqaro fazo bazasi (Xalqaro fazo stansiyasi, ISS)



(Manba: NASA)


orbitada fazo obyektlaridan chiqqan qoldiqlar, axlat va bo'yoqlardan tashkil topgan katta miqdordagi **fazoviy chiqindilar** (fazoviy qoldiqlar, Space debris) (5-16) uchib yuribdi. Ular sun'iy yo'ldoshlarga urilib, ularga zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli mazkur muammoni yechish bugunning dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda. Mavjud fazoviy chiqindilarni yo'q qilish bilan birga, ularning yana vujudga kelishini oldini olish ham talab etiladi.

5

Hududsiz davlat yo'q – quruqlik, osmon va fazo

Fazoviy chiqindilar bu - yaroqlilik muddati tugab, funksiyasini bajarib bo'lgan yoki buzilishi tufayli yaroqsiz holga kelgan sun'iy yo'ldosh, sun'iy yo'ldoshni uchirish uchun kerakli raketa va uning qismlari, bir necha qismdan iborat bo'lgan raketa qoldiqlari, portlash oqibatida yuzaga kelgan chiqindilar bo'lib, fazo kengliklarini bir sekundda bir necha kilometrli katta tezlikda aylanib yuruvchi jismlardir. «Sputnik-1» uchirilgandan buyon (1957-yil), dunyoning turli davlatlari tomonidan uchirilgan raketa va sun'iy yo'ldoshlar soni 5000 taga yaqinlashib, fazoviy chiqindilar birdaniga ko'payib ketgan. Juda kichik hajmdagi moddalarni ham kiritadigan bo'lsak, fazoviy chiqindilar jami 35 million donagacha yetishi aytilmoqda. Ular sun'iy yo'ldosh orbitasida mavjud bo'lib, 10 sm dan katta moddalar 21000 dona ekanligi taxmin qilinadi.

Fazo bazasi va sun'iy yo'ldosh bilan to'qnashib ketish xavfidan qochish uchun fazoviy chiqindilarni sun'iy yo'ldosh orbitasidan olib tashlash ehtiyoji mavjud. Ob-havo sun'iy yo'ldoshi va eshittirish (uzatish) sun'iy yo'ldoshlari o'rnatilgan geostatsionar orbitadagi fazoviy chiqindilarni baland orbitaga (qabriston orbitasi) ko'chirib, boshqa tomondan, ko'pgina kuzatish sun'iy yo'ldoshlari turgan quyi orbitadagi fazoviy chiqindilarni esa atmosferaga olib kiriladi va yo'q qilinadi.



Yer kurra ustidagi fazoviy chiqindilar: Yevropa Fazo Agentligi (ESA) ochiqdagan fazoviy chiqindilarning kompyuterdagi surati. Yerni aylanuvchi orbita ustida 12000 ga yaqin moddalar tasvirlangan.

(Manba: ESA)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yaponiya Xalqaro huquq assotsiatsiyasi, «Yaponiya va Xalqaro huquqning 100 yili, 2-kitob quruqlik-havofazo». – Saneido nashriyoti, 2001-yil.
2. Xalqaro huquq nizolarini tadqiq qilish guruhi «Hudud». – Keio Tsushin nashriyoti, 1990-yil.
3. Kanae Taijudo, «Hududiy tegishlilikka oid xalqaro huquq». – Toshindo nashriyoti, 1998-yil.
4. Soichiro Kozuka, Masahiko Sato, «Fazoviy biznes uchun fazo huquqiga kirish, 2-nashr». – Yuhikaku nashriyoti, 2018-yil.

Chapter 6

Dengiz ne'matlarini bo'lishish – dengiz huquqi

Tarjimonlar izohi:

Shu paytgacha o'zbek tilida yozilgan Xalqaro huquqqa doir darsliklar orasida dastlab, 1997-yilda Asadulla Mamatqulov tomonidan «Adolat» nashriyotida chop ettirilgan «Xalqaro huquq» kitobida «Dengiz huquqi» bobi mavjud bo'lgan. Undan keyingi yillarda chop etilgan ba'zi darsliklarda bu muhim mavzuga negadir o'rin berilmagan. Albatta, bunda yurtimizning dunyoda noyob hisoblangan geografik o'rni, ya'ni dengizga chiqish uchun ikki davlat chegarasidan o'tishi kerakligi kabi holatning o'z o'рни bo'lganligini osonlik bilan payqash mumkin. Biroq dengiz va okeanlarning butun insoniyat mulki ekanligini e'tiborga olsak, O'zbekiston Respublikasining dunyo ummonlaridagi manfaatlarini hi-moya qila olish uchun ushbu mavzuni yanada chuqurlashtirib o'rganish ta-lab etiladi. Qo'lingizdagi ushbu kitobda dengiz huquqi yangi va kengaytirilgan holda yaponiyalik xalqaro huquqshunos-lar tomonidan tanishtirilmoqda. Umid qilamizki, bu barcha foydalanuvchilar uchun va yurtimizdagi dengiz huquqiga oid ilmiy izlanishlarni qayta jonlanishida katta turtki bo'lib xizmat qiladi.

1 Dengiz huquqi tarixi va dengizlarning bo'linishi


(1) Dengiz huquqining tarixiy rivojlanishi (6-1)

(a) Dengizlar bo'yicha munozara va dengizlarning dual tuzilishi

Dengiz huquqining tarixi juda uzoqqa borib taqaladi. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida dunyo dengiz va okeanlari Ispaniya va Portugaliya o'rtasida taqsimlangan edi (→**Chapter 1**). Biroq XVII asr birinchi yar-mida niderlandiyalik olim Grotius (1583–1645) o'zining «Ochiq dengiz» (1609-yil) kitobida «dengizlarning barcha uchun ochiqligi»ni da'vo qilib, Ispaniya va Portugaliyaga qarshi fikrlar bayon etgan. «Ochiq dengiz» kitobiga qarshi angliyalik Selden (1584–1654) ning «Yopiq dengiz» (1635-yil) asari kabi kitoblar yozilgan. Shundan ham ko'rinib turibdiki, dengizlar boshqarilishi va egallanishi mumkinligi haqidagi qarshi fikrlar juda ham ko'p ekan. Natijada, dengizlar maqomiga oid ko'plab munozaralar yuzaga kelgan.

Dengizlarga oid ushbu munozaradan keyin XVIII asrda dengiz hududlari Dengizbo'yi davlatlari egallik qiladigan Dengizbo'yi hududlari (**hududiy dengiz**) va hech qaysi davlatga tegishli bo'lmagan suzib o'tish va baliqchilik qilish erkinligi tan olingan o'ta keng dengizlar (**ochiq dengiz**)ga

XV-XVII asrlar	Buyuk geografik kashfiyotlar davri. Ispaniya va Portugaliya tomonidan dunyo ummonlarining bo'lib olinishi.
XVII asr birinchi yarmi	Angliya va Gollandiyaning qudratli dengiz davlatlari sifatida yuzaga chiqishi. Dengizlar munozarasining boshlanishi.
XVIII-XIX asrlar	Dengizlarning dual tizimining («tor hududiy dengiz» va «keng ochiq dengiz») shakllanishi va qaror topishi.
1930-yil	Xalqaro huquq kodifikatsiyasi bo'yicha Gaaga konferensiyasi. Hududiy dengizlarning kengligi masalasida qarama-qarshilik yuzaga kelib, hududiy dengizlarga oid shartnomaning tuzilmay qolishi.
1945-yil	AQSh prezidenti Trumanning deklaratsiyasi (Kontinental shelf deklaratsiyasi va Dengizdagi baliq zaxiralarini asrashga oid deklaratsiya). Shundan keyin ummonlar tartibotining birmuncha o'zgarishlarga yuz tutishi.
1958-yil	BMTda dengiz huquqi bo'yicha Jeneva konferensiyasi I → Dengiz huquqining 4 ta Jeneva konvensiyalarining qabul qilinishi (hududiy dengizlar kengligi bo'yicha kelishuvga erishilmadi).
1960-yil	BMTda dengiz huquqi bo'yicha Jeneva konferensiyasi II. Hududiy dengizlar kengligiga oid kelishuvga erishishga harakat qilinsa-da, muzokaralar yana bir bor muvaffaqiyatsiz yakunlandi.
1973-82 yillar	BMTda dengiz huquqi bo'yicha Jeneva konferensiyasi III. 10 yilga cho'zilgan muzokaralar natijasida 1982-yilda BMTning Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyasi qabul qilindi.
1977-yil	Dengiz huquqiga oid konferensiyaning faoliyatini boshlashini inobatga olib, Yaponiya «Hududiy dengizlar qonuni» va «Baliq ovlash hududlariga oid muvaqqat chora-tadbirlar to'g'risidagi qonun»ni qabul qildi (bunda Yaponiya hududiy dengizlar kengligini 12 mil, baliqchilik suvlarini esa 200 mil etib belgiladi)
1982-yil	BMTning Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyasi qabul qilindi.
1994-yil	BMTning Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyasi kuchga kirdi. Uning 11-bobini amalga oshirish bitimi qabul qilinib, 1996-yildan kuchga kirdi.
1996-yil	Yaponiya BMTning Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyasi va uning 11-bobini amalga oshirish bitimini ratifikatsiya qildi. Shunga muvofiq, Hududiy dengiz qonuni va Sohilni qo'riqlash xizmati qonunlari qisman o'zgartirilib, Mutlaq iqtisodiy zonalar (Exclusive economic zone = EEZ), Kontinental shelf to'g'risidagi va EEZdagi baliqchilikka doir suveren huquqlarning qo'llanilishi to'g'risidagi qonunlarni qabul qildi.
2007-yil	Yaponiya davlati «Ummonlar siyosatiga doir asosiy qonun»ni qabul qilib, Vazirlar Mahkamasi kotibiyatida Ummonlar siyosatiga doir bosh shtab tashkil etildi.
2008-yil	Yaponiya davlati «Ummonlar siyosatiga doir asosiy reja»sini qabul qildi.



(1) Ichki suvlar: hududiy dengiz chegarasi boshlanadigan birlamchi chiziqning ichkarisidagi suvlar (portlar, qo'ltiqlar kabi). Quruqlikdagi yerlar bilan bir xil tarzda Dengizbo'yi davlatining suvereniteti doirasiga kiradi.

(2) Hududiy dengiz: hududiy dengiz chegarasi boshlanadigan birlamchi chiziqdan 12 milgacha bo'lgan masofadagi hudud (salkam 22 kilometr). Dengizbo'yi davlatlarida ushbu davlatlarning qonunlariga bo'ysunmaganlarga nisbatan choralar ko'rish vakolati mavjud. Xorijiy davlatlar kemalarida esa tinch suzib o'tish huquqi mavjud.

(3) Tutash zonalar: hududiy dengiz chegarasi boshlanadigan birlamchi chiziqdan 24 milgacha bo'lgan masofadagi hudud. Dengizbo'yi davlatlari ushbu hududda ularning qonunlariga bo'ysunmaganlarga nisbatan choralar ko'rish vakolatiga ega.

Xalqaro bo'g'ozlar: ochiq dengiz (yoki EEZ) orasidagi xalqaro qatnovlar uchun foydalaniladigan bo'g'ozlar. Hududiy suvlarda asosan xorij kemalarining suzib o'tish huquqi mavjud.

Arxipelagik suvlar: arxipelag davlatlar deya tan olingan mamlakatlarning arxipelagi boshlanadigan birlamchi chiziqdan ichkaridagi suvlar. Arxipelagik davlatlar suvereniteti tatbiq etiladi.

(4) Mutlaq iqtisodiy zona (EEZ): hududiy dengiz chegarasi boshlanadigan birlamchi chiziqdan 200 milgacha bo'lgan masofadagi hudud. Dengizbo'yi davlatlarining suverenitetiga doir huquqlar tatbiq etiladi.

(5) Ochiq dengiz: hech qaysi bir davlatning ichki suvlari, hududiy dengizi, arxipelagik suvlari, mutlaq iqtisodiy zonasiga ham kirmaydigan dengiz hududi. Bunda ummonlar tubi hisobga kirmaydi. Ochiq dengizdan foydalanish erkinligi tamoyili va davlat bayrog'i tamoyiliga amal qiladi.

(6) Kontinental shelf: kontinental shelf atrofining tashqarisi yoki hududiy dengiz chegarasi boshlanadigan birlamchi chiziqdan 200 milgacha bo'lgan dengiz tubi. Dengizbo'yi davlatlarining suverenitetiga doir huquqlar tatbiq etiladi.

(7) Ummonning chuqur tubi: davlatlarning yurisdiksiyasi tatbiq etiladigan hudud (kontinental shelf) tashqarisidagi ummonning tubi. Insoniyatning umumiy mulki.

bo'linadigan bo'ldi. Natijada, yuqoridagidek «dengizlarning dual tizimi» XX asr o'rtalarigacha deyarli o'zgarmay davom etdi.

Shunday bo'lsa-da, qirg'oq bo'yi yerlarining yastanishiga ko'ra belgilanadigan hududiy dengizning kengligi masalasida dunyo davlatlari o'rtasidagi qarama-qarshilik uzoq yillargacha davom etdi. XIX asrda 3 dengiz mili (1 mil = 1852 metr) asosiy standartga aylangan. Ammo hududiy dengiz kengligini undan-da kengroq deya da'vo qiluvchi davlatlar borligi uchun davlatlarni bir standart ostida birlashtirishga erishib bo'lmadi. Qo'shimcha tarzda, hududiy suvlarning huquqiy maqomi masalasida ham qarama-qarshilik ro'y berdi. Bu masalada hududiy suvlarga nisbatan Dengizbo'yi davlatlarining suvereniteti tatbiq etiladigan davlat hududining bir qismi sifatida qarashga oid fikr yakdilligiga erishish faqat Birinchi jahon urushidan keyingina yuz berdi.

(b) Dengiz huquqi tartibotining o'zgarishi

1945-yilda AQSh prezidenti Truman AQSh hududidan ochiq dengiz uzra davom etuvchi kontinental shelfdagi tabiiy zaxiralarni qazib olish va AQSh yaqinidagi ochiq dengiz baliq zaxiralarini asrashga oid chora-tadbirlar AQSh tomonidan bir tomonlama qabul qilinishiga doir deklaratsiyani e'lon qildi (Truman deklaratsiyasi). Natijada, ochiq dengizning tubi yoki ochiq dengiz uzra o'z davlatining yurisdiktsiyasini belgilaydigan Dengizbo'yi davlatlari paydo bo'la boshladi. Shun-

day qilib mavjud dengiz tartiboti o'zgarishlarga yuz tutdi. Shu sababli 1958-yilda BMTda dengiz huquqi bo'yicha I Jeneva konferensiyasi chaqirilib, unda dengiz huquqining 4 ta Jeneva konvensiyalari (Hududiy dengiz konvensiyasi, Ochiq dengiz konvensiyasi, Kontinental shelf konvensiyasi, Ochiq dengizlardagi baliq va boshqa suv hayvonlarini asrash konvensiyasi) yuzaga keldi. Bu bilan dengizlarning dualistik tuzilishiga asoslanish bilan bir paytda, hududiy dengizlar tashqarisidagi tutash zonalar va kontinental shelf tizimi suratan tan olindi.

Lekin undan keyin hududiy dengiz kengligini birlashtirish maqsadida chaqirilgan BMTning dengiz huquqi bo'yicha II konferensiyasi (1960-yil) muvaffaqiyatsiz yakunlandi. Bundan tashqari, mustamlakachilik asoratidan qutulgan yangi davlatlar dengiz boyliklariga bo'lgan huquqlarini talab eta boshladilar. Natijada, shu paytgacha mavjud bo'lgan dengiz tartiboti so'roq ostida qoldi. Shuningdek, dengizlardan foydalanishga doir texnologiyaning rivojlanishi munosabati bilan dengiz boyliklarini qazib olish va nazorat qilishga doir yangicha qoidalarni belgilash talab etila boshlandi. Shu sababli dengiz tartibotini qaytadan ko'rib chiqish uchun BMTning dengiz huquqiga doir III konferensiyasi (1973-1982 yillari) chaqirildi. 10 yil davom etgan muhokama natijasi o'laroq, 1982-yilda dengizlar konstitutsiyasi deya nomlanuvchi Dengiz huquqi to'g'risidagi BMT konvensiyasi (Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiya) qabul qilindi. 17 bob va

320 moddadan iborat Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiya hududiy dengizlar kengligini **12 milgacha** qilib belgiladi. Shuningdek, ushbu konvensiya xalqaro bo'g'oz, arxipelag suvlar, mutlaq iqtisodiy zona (Exclusive Economic Zone: EEZ), dengiz tubi, dengiz tabiatini asrash, ilmiy tadqiqotlar, nizolarni hal etish mexanizmi kabi yangi tizimlarni va qoidalarni joriy etdi. Shular orasida, ummonning tub qismini (Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiya 11-bob) o'zlashtirish usuli bo'yicha rivojlangan davlatlar norozi bo'lgan bo'lsa-da, konvensiyaning ushbu bobini o'zgartiruvchi shartnoma (Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiya 11-bobni amalga oshirish bitimi) tuzilgach, Yaponiya kabi aksariyat davlatlar ushbu ikki shartnomaga qo'shildilar.

(2) Dengiz hududining bo'linishi

(a) Tabiiy boyliklar va Dengizbo'yi davlatlarning dengizlardagi yuridik sudlovi

Hozirgi kunda ummonlar **(6-2)** ko'rsatib o'tilganidek, murakkab tarzda bo'lingan bo'lib, unga ko'ra dengizlardagi har bir hududga nisbatan Dengizbo'yi davlatlarining huquqlari farqlanadi. Dengiz tubiga qo'shilib, «ichki suvlar», «hududiy dengiz» va «arxipelag suvlari» Dengizbo'yi davlatlari hududining bir qismini tashkil etib, bu hududlarga ushbu davlatlarning hududiy suvereniteti tatbiq etiladi. Ulardan boshqa dengiz hududlari davlat hududi hisoblanmaydi va o'z-o'zidan hududiy suverenitet ham tatbiq etilmaydi. «Tutash zonalar»da esa faqatgina Dengizbo'yi davlatlariga mahalliy

qonunlarga bo'ysunmaganlarga nisbatan tegishli choralar ko'rish kabi cheklangan tarzda vakolat taqdim etilgan. «Mutlaq iqtisodiy zona (EEZ)» va «kontinental shelf» masalasida esa tabiiy boyliklarni o'zlashtirishga oid Dengizbo'yi davlatlarining suveren xususiyatga ega huquqlari (odatdagi suverenitet emas → **5** ga qarang) tan olinadi. Shuningdek, suveren xususiyatga ega huquqlarning mazmuni va xarakteri EEZ va kontinental shelfda bir-biridan farqlanadi. Dengizbo'yi davlatlarining dengizlardagi yurisdiksiyasi tatbiq etiluvchi yuqoridagi suv hududlaridan farq qiladigan suv hududlari sifatida ochiq dengiz va ummonlarning tub qismlari mavjud. Kontinental shelfning tashqarisidagi dengiz tubi «ummonlarning chuqur tubi» deb atalib, ularga nisbatan hech qaysi davlatning suvereniteti yoki suveren huquqi tan olinmaydi. Ummonlarning tub qismlari va undagi tabiiy boyliklar «insoniyatning umumiy boyligi» (Common Heritage of Mankind) bo'lib, unga nisbatan ochiq dengizdan farqlanuvchi alohida maqom taqdim etilgan.

(b) Kemalarning dengizda suzib o'tish tizimi va dengiz hududlarining bo'linishi

Kemalarning suzib o'tishlariga oid huquqiy tizim har bir suvli hududga ko'ra farqlanadi. Bir kemaga bir davlatning fuqaroligi beriladi va o'z fuqaroligini bergan mamlakat bayrog'i davlat ramzi sifatida o'sha kemaga nisbatan yurisdiksiya (bayroq davlati yurisdiksiyasi)ga ega bo'ladi (→ **Chapter 3**).

Ochiq dengizlarda kemalarning erkin suzib yurishi kafolatlanadi. Kemalar qoida tariqasida bayroq davlatining mutlaq yurisdiksiyasiga bo'ysunadi. EEZ va kontinental shelf yuzasidagi suvli hududlarda va tutash zonalarda xorijiy kemalar suzib yurish erkinligi tan olinadi. Hududiy dengiz va arxipelag suvlarida esa Dengizbo'yi davlatlarining hududiy suvereniteti tatbiq etiladi. Ammo suzib o'tishga doir manfaatlar e'tiborga olinib, xorijiy kemalar tinch suzib o'tish huquqiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, BMTning dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyasi Dengizbo'yi davlatlarining hududiy suverenitetlari tatbiq etiladigan suvli hududlar (hududiy dengiz va arxipelag suvlari) orasida ma'lum darajada kemalar qatnashi mumkin bo'lgan hududlar yuzasidan ba'zi qoidalarni belgilaydi. Unga ko'ra, tinch suzib o'tish huquqidan ham ko'ra kemalar qatnovi uchun manfaatliroq bo'lgan suzib o'tish tizimini (xalqaro bo'g'ozlardagi suzib o'tish huquqi va arxipelag suvlar ichida belgilangan arxipelag kemalar qatnovi yo'lagidagi arxipelag qatnov yo'lagidan suzib o'tish huquqi) yangi tizim sifatida joriy etdi.

Ichki suvlar va hududiy dengizlar hamda tutash zonalar


(1) Ichki suvlar va xorijiy kemalar

Port, qo'ltiq, ichki dengiz kabi hududiy dengiz chizig'ining (→**Chapter 5**) ichkarisidagi quruqlikka tutashgan suvli hududga ichki suvlar deyiladi. Bularga nisbatan quruqlik maydoniga tatbiq etiluvchi hududiy

suverenitet yuritiladi. O'zida doimiy ravishdagi port xususiyatiga ega gavanga (ofshor zonalardagi qurilmalar va sun'iy vujudga keltirilgan orollar bunga kirmaydi) sohilning bir qismi sifatida qaralib, ular ham ichki suvlar hisoblanadi (Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiya 11-modda). Bu hududga xorijiy kemalarning kirishini tan olishni anglatuvchi xalqaro huquqiy majburiyat mavjud emas. Biroq maxsus tuzilgan alohida shartnomalarda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ma'lum bir davlatning kemasiga nisbatan gavanga kirib kelishni taqiqlash xalqaro huquq me'yorlariga zid kelmaydi. Shunday bo'lsa-da, amalda xalqaro savdo yo'lida portlarni chet el kemalari uchun ochib qo'yish holatlari ko'p uchraydi.

Portda turgan xorij kemasi Dengizbo'yi davlatining hududiy suverenitetiga bo'ysunadi. Ammo kema ichida yuz bergan jinoiy qilmishning Dengizbo'yi davlatiga ta'siri bo'lmaganda, bunday ishlar aksariyat hollarda bayroq davlatning jinoiy yurisdiksiyasiga tegishli deb hisoblanadi. Ayniqsa, harbiy kemalar va notijoriy maqsaddagi hukumat kemalari Dengizbo'yi davlatining fuqarolik va jinoyat sudlovidan to'liq ozod etiladi.

Qo'ltiqlar masalasida esa, sohilbo'yi yagona davlatga tegishli bo'lib, qo'ltiq og'zi 24 mildan oshmasa va qo'ltiq ichi yetarlicha chuqur bo'lsa (qo'ltiq og'zini diametrdan qaraganda yarim doiradan ham keng bo'lsa), qo'ltiq ichki hududini ichki suvlar deb hisoblash mumkin (Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiya 10-modda). Ikkidan ortiq



(Manba: Yaponiya qirg'oqbo'yi agentligi Axborot bo'limi veb-sayti)



Norvegiya davlati murakkab geografik ko'rinishga ega shimoliy sohiliga nisbatan 1935-yildagi qirollik qaroriga ko'ra to'g'ri chiziq usulini qo'llab, hududiy dengizni belgilagan. Biroq ushbu hududlarda ish yurituvchi Angliya bundan norozi bo'lib, o'zining baliqchilik kemalarini himoya qilish maqsadida, ushbu qaror yuzasidan Xalqaro adolat sudida sudlashgan. Ammo sud Norvegiyaning harakatini xalqaro huquqqa zid deb topmagan.

aniqlik kiritilmagan. Ammo keyinchalik BMTning Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyasida 12 milgacha bo'lgan suvli hudud – hududiy dengiz sifatida belgilandi. Ushbu chiziq qoida o'laroq, sohildagi suvning qaytgan paytdagi joyidan o'lchanadi (odatdagi chiziq). Hududiy dengiz ichida odatdagi chiziqda belgilanadigan suvning qaytishi¹ paytidagi eng katta tepalik (suv ko'tarilganida suvga cho'kib, suv qaytganida qaytadan ko'rinadigan quruqlik hududi) mavjud bo'lsa, unda

¹ Tarjimonlar izohi: Quyosh va Oyning yerni tortishi natijasida dengiz hamda okeanlarda davriy ravishda suv qalqishi, ya'ni suvning ko'tarilib, pasayishi ro'y beradi. Suvning ko'tarilib qaytishi Q uyosh tortishiga nisbatan Oy tortganda ikki baravar kuchli bo'ladi.

qo'ltiq og'ziga ega ichki suvlarda har bir qo'ltiq og'ziga nisbatan yuqoridagi qoida tatbiq etiladi. Biroq ushbu shartga mos kelmasa-da, Dengizbo'yi davlati tomonidan uzoq muddat davomidagi an'ana o'laroq unga ichki suvlar sifatida qaraladi. Shuningdek, boshqa davlatlar ham ushbu faktga nisbatan e'tiroz bildirmagan bo'lsa, bunday suvli hududlar Dengizbo'yi davlatlarining «tarixiy qo'ltiqlari» sifatida tan olinadi. Seto Ichki dengizi mana shu turga mansub tarixiy suvli hudud sifatida Yaponiyaning ichki suvlarini tashkil etadi.

(2) Hududiy dengiz va tinch suzib o'tish huquqi

(a) Hududiy dengiz chizig'i va hududiy dengiz kengligi

Hududiy dengiz chizig'idan (chiziq) tashqaridagi ma'lum bir kenglikka ega suvli hududga hududiy dengiz deyiladi. Hududiy dengizning kengligi masalasiga uzoq muddat davomida

o'sha tepalikni ham hududiy dengiz chizig'i sifatida o'rnatish mumkin (Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiya, 13-modda) (6-3). Biroq Dengizbo'yi chizig'ining nihoyat darajada bukilib ketishi yoki sohil bo'yida bir qancha orollarning mavjud bo'lishi vaziyatni biroz o'zgartiradi. Bunday holatlarda muvofiq nuqtada to'g'ri chiziq tortish usuli qo'llanilishi mumkin (Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiya, 7-modda). Ushbu to'g'ri chiziqni tortish usuli Xalqaro adolat sudining Norvegiya baliqchilik ishiga doir qarorida (1951-yil) qabul qilinib, undan keyin esa umumiy tarzda tan olinadigan bo'ldi (6-4) (→ **Keysbuk 3: Norvegiya baliqchilik ishi**)

Meiji davridan boshlab Yaponiya uzoq davr davomida hududiy dengizlar kengligini 3 mil ekanini aytib, o'z pozitsiyasida qattiq turib kelgan. Bi-


6-5 Noyadroviy uch tamoyil

Yadroviy qurolni ishlab chiqarmaslik, egallik qilmaslik va olib kirishga yo'l qo'ymaslikni belgilovchi Yaponiyaning asosiy siyosatidir.

Yadroviy qurolning hududiy dengizlar ichidan olib o'tish yuqoridagi «olib kirish»ga to'g'ri keladi deya izohlanadi.

roq dunyodagi vaziyatni inobatga olib, 1977-yilda uni 12 milga uzaytirdi. 1996-yilda esa Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyaning ratifikatsiya qilinishi tufayli qonunlarga ham o'zgartirish kiritildi. Natijada, **to'g'ri chiziq** usuli Yaponiyada ilk bor joriy etildi. Shu bilan birga, Yaponiyaning no-yadroviy uch tamoyilidan (6-5) kelib chiqib, **alohida suvli hududlarga** (Soya, Tsugaru, Sharqiy Tsushima, G'arbiy Tsushima, Osumi bo'g'ozlari) nisbatan oldingidek 3 mil

6-6 Yaponiyaning to'g'ri chiziqlari va alohida suvli hududlar sifatida belgilangan 5 ta bo'g'oz




Soya bo'g'azi



Tsugaru bo'g'azi



Tsushima bo'g'ozining g'arbiy suv yo'li va sharqiy suv yo'li



Osumi bo'g'azi

(Manba: Yaponiya qirg'oqbo'yi agentligi Axborot bo'limi veb-sayti)



masofa qoidasi tatbiq etilib kelmoqda. Shu sababli Seikan tunelining markaziy qismi Yaponiya hududiy dengizining tashqarisidagi dengiz tubidan o'tganini ko'rishimiz mumkin (6-6).

(b) Xorijiy kemalarning tinch suzib o'tish huquqi

Har qanday davlat kemasi boshqa davlat hududiy dengizidan tinch suzib o'tish huquqiga egadir (Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiya 17-modda). Ushbu huquq hududiy dengizlarga oid suverenitet hali qaror topmagan XIX asrdayoq xalqaro odat huquqi sifatida tan olingan edi. Tinch «suzib o'tish» doimiy va tez amalga oshirilishi lozim. Bunda to'xtab turish va langar tashlash qoidasi tan olinmaydi (18-modda). Suvosti kemalari esa hududiy suvlarga kirganda dengiz ustida harakat qilishlari lozim (20-modda). Ta'kidlash joizki, tinch suzib o'tish deganda «sohilbo'yi» davlatining tinchligi, tartiboti yoinki xavfsizligiga zarar bermaydigan suzib o'tish tushuniladi (19-modda 1-qism). Baliqchilik va ilmiy-tadqiqotlar kabi suzib o'tish bilan bevosita aloqasi yo'q faoliyatlarni amalga oshirish zarar keltiruvchi faoliyatlar hisoblanadi (19-modda, 2-qism). Boshqacha qilib aytganda, suzib o'tishning usuli va suzib o'tish paytidagi sodir etiladigan xatti-harakatga ko'ra tinch suzib o'tilganligi yoki bunday emasligi aniqlanadi. Shunday bo'lsa-da, kemaning turi va uning yukini ro'kach qilib kemaning tinch suzib o'tishini rad etsa bo'ladimi degan muammo mavjud. Masalan, harbiy kemalar ham tinch suzib o'tish huquqiga egaligi borasida davlatlar o'rtasida qarama-qarshilik

mavjud. Yaponiya esa harbiy kemalarga nisbatan buni tan olsa-da, noyadroviy uch tamoyil siyosatidan kelib chiqib, yadroviy qurol joylashgan kemalarning hududiy dengizlari ichidan suzib o'tishini tan olmaydi. Yadroviy mahsulotlar kabi xavfli xarakterga ega moddalarni tashiydigan kemalar tinch suzib o'tish huquqini amalga oshiradigan paytida esa ulardan ma'lum bir hujjatlarni tayyorlab, maxsus himoya choralari ko'rish majburiyati talab qilinadi (Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiya, 23-modda). Xalqaro amaliyotda esa yadroviy mahsulotlarni tashiydigan kemalarning hududiy dengizidan o'tishini rad etuvchi davlatlar ham mavjud.

Dengizbo'yi davlatlari xorijiy kemalarning tinch suzib o'tish huquqlariga to'sqinlik qila olmaslik bilan birga, (konvensiyaning 23-moddasi) jinoyat va fuqarolik sudlovini amalga oshirishida ham ma'lum turdagi cheklovlar mavjud (27, 28-moddalar). Shunday bo'lsa-da, Dengizbo'yi davlatlarida kerakli qonunchilik tartibotini o'rnatish vakolati mavjud bo'lib, suzib o'tishning xavfsizligini ta'minlash maqsadida suzib o'tish yo'lagini belgilaydilar (21, 22-moddalar). Shuningdek, davlatning xavfsizligi yo'lida o'ta zarur holatlarda, hududiy dengiz ichidagi ma'lum bir suvli hududdan tinch suzib o'tishni vaqtinchalik to'xtatib qo'ya oladi (25-modda). Yaponiya esa tinch suzib o'tish qoidasiga zid keluvchi kemalar qatnovini tartibga solish maqsadida 2008-yilda Xorijiy kemalarning hududiy dengizlardan suzib o'tishiga oid qonunni qabul qilgan.




(3) Tutash zonalardagi dengiz-bo'yi davlatlarining vakolatlari

Dengizlarning dual tizimi yuzaga kelgan davrda Amerika va Yevropa davlatlari o'zlarining hududiy dengizlariga tutash bo'lgan ochiq dengiz hududlarida kontrbandani jilovlash

bo'yicha harakatlarni boshlab yubordilar. Ushbu harakatlar natijasida esa tutash zonalar tizimi vujudga keldi. Aytish joizki, Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyaning 33-moddasiga muvofiq, Dengizbo'yi davlatlari tutash zonalarda «quruqlik hududi va

6-8 Filippin va Indoneziyaning arxipelag suvlari

Arxipelag chiziq ichidagi hudud arxipelag suvlarni tashkil qiladi. Ushbu chiziq tashqarida esa hududiy dengiz va EEZ o'rnatiladi. Indoneziya davlati arxipelag suvlaridan kemalar qatnovi uchun 3 ta yo'lakni belgilagan. (Biroq, Filippin haligacha belgilagan yo'q.)




hududiy dengizdagi bojxona, moliya, immigratsiya yoinki sanitariya masalalariga oid qonunchilikka zid xatti-harakatlarni» to'xtatish hamda ularni jazolash uchun zarur qoidalarni belgilay oladilar. Dengizbo'yi davlatlarining tartibga solish borasidagi huquqlari mana shu to'rt sohadagi huquqbuzarliklar bilan cheklanadi. Baliqchilik va xavfsizlikni ta'minlashga doir qonunlar bundan mustasno. Hozirgi kunda tutash zonalar hududi hududiy dengiz chizig'idan boshlab 24 mil masofadagi maydonni o'z ichiga olishi belgilangan. Yaponiya esa Hududiy dengizlarga

tutash zonalar to'g'risidagi qonunni qabul qilish bilan (ushbu qonunning nomi 1996-yildagi Hududiy dengizlar to'g'risidagi qonunga o'zgartirish kiritilishi bilan o'zgargan) ilk tutash zonalar belgilandi.

3 Xalqaro bo'g'ozlar va arxipelag suvlari

(1) Xalqaro bo'g'ozlardan suzib o'tish tizimi

Ikki ochiq dengizni tutashtirib, xalqaro kemalar qatnovi uchun qo'llaniladigan bo'g'ozlar qadimdan dengiz yo'llari sifatida muhim hisob-



*Kirish taqiqlangan
Daigo Fukuryūmaru
(Manba: Yaizu shahri arxivi)*

(Manba: Hiroshima shahri tinchlik xotiralari materiallari bo'limi veb-sayti)

langan. Masalan, Turkiya (Dardanell, Bosfor, Marmara bo'g'ozlari) va Daniyaning bo'g'ozlarida (Katta Belta, Kichik Belta va Zund bo'g'ozlari) kemalarning erkin qatnovini ta'minlovchi maxsus shartnomalar tizimi shakllantirilgan. Maxsus shartnomalar mavjud bo'lmagan xalqaro bo'g'ozlarda esa agar bo'g'oz keng bo'lib, uning ichida ochiq dengiz qismlari mavjud bo'lsa, suzib o'tish erkinligi tan olinadi. Agar bunday bo'g'ozlar Dengizbo'yi davlatlarining hududiy dengizi maqomida bo'lsa, unda xorijiy kemalar uchun tinch suzib o'tish huquqi taqdim etiladi (6-7).


Hududiy dengizlar kengligi 12 milgacha kengaytirilgach, ochiq dengiz qismlari mavjud bo'lgan xalqaro bo'g'ozlarning aksariyati hududiy dengizlar bilan qamrab olindi. Shu sababli BMTning Dengiz huquqi to'g'risidagi konferensiyasida xalqaro

bo'g'ozlarda erkin suzib o'tish masalasi o'rtaga tashlangan. Kelishuv natijasida yangicha qatnov tizimi sifatida kemalarning **tranzit o'tish huquqi** joriy etildi. Tranzit o'tish deb bo'g'ozlardan «faqat to'xtovsiz va tez o'tib ketish maqsadida suzib o'tish va havodan uchib o'tish uchun foydalanish»ga aytiladi (38-modda, 2-qism). Uning tinch suzib o'tishi yoki tinch o'tib o'tmasligi masalasi muammo sifatida ko'tarilmaydi. Bunda havodan uchib o'tish erkinligi ham nazarda tutilgan. Shu sababli tinch suzib o'tishga qaraganda havodan uchib o'tish erkinroq o'tib olish imkoniyatini beradi. Bo'g'oz bo'yi davlatlar esa qatnovning xavfsizligi va suvning ifloslanishining oldini olish uchun tegishli qonunlarni qabul qilish vakolatiga egadirlar.

Tranzit o'tish tizimi bir ochiq dengiz (yoki EEZ) bilan boshqa bir ochiq dengizni (yoki EEZ) bog'lash

Kyushu orolining janubi-g'arbiy suvli hududidagi shubhali kema ishi

2001-yil 21-dekabr kuni Yaponiyaning EEZi ichida shubhali kema aniqlanib, keyingi kun Yaponiya dengiz patrul xizmati uni ta'qib qilishni boshlaydi. Shubhali kema patrul xizmati tomonidan berilgan to'xtash buyrug'iga e'tibor qilmaydi. Hattoki patrul xizmati tomonidan qo'rqitish maqsadida o'q uzish va kemani egallashga oid harakatlarga qarshilik ko'rsatadi va qarshi hujumga ham o'tadi. Shunda Yaponiya dengiz patrul xizmati tomonidan o'zini o'zi mudofaa qilish maqsadidagi huquqiy o'q uzish qo'llaniladi. Shundan keyin g'arb tomon suzgan shubhali kema o'zini o'zi portlatib cho'ktirib yuboradi. Kemaning cho'kib ketgan joyi Xitoy EEZining doirasida bo'lib, keyinchalik u suv ostidan olib chiqilganda ushbu shubhali kema Shimoliy Koreyaning ayyoqchi kemasi ekanligi aniqlangan.



(Manba: Yaponiya qirg'oqbo'yi agentligi hisoboti, 2003)

bilan birgalikda, xalqaro qatnovlar uchun foydalaniladigan bo'g'ozlarga nisbatan tatbiq etiladi. Bundan boshqa xalqaro bo'g'ozlarda esa tinch suzib o'tish huquqi qo'llaniladi. Shu bilan birga, qatnov uchun qulay ochiq dengiz (yoki EEZ) yo'lagi bo'g'oz ichida joylashgan bo'lsa, xalqaro bo'g'ozlar tizimi tatbiq etilmaydi. Yuqorida so'z yuritilgan Yaponiyaning 5 maxsus bo'g'ozlariga nisbatan 3 mil masofadagi hududiy dengiz qoidasi amal qilgani uchun ularda EEZ o'tish yo'lagi mavjud. Ammo agar ushbu qoida o'zgarib hududiy dengizlarning 12 mil qoidasi amalga kirsam, unda mazkur maxsus bo'g'ozlarga nisbatan ham tranzit o'tish tizimi tatbiq etilishi kutiladi.

(2) Arxipelag davlatlar va arxipelag suvlar

Ummonlar o'rtasida arxipelaglardan tashkil topgan Indoneziya va Filippin davlatlarining **arxipelag suvlariga** doir da'volari hududiy dengizlar chizig'ining belgilanishiga oid to'g'ri chiziq usuli tan olingach yanada kuchayib ketdi. Oxir-oqibat Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyada suratan tan olindi (6-8). Arxipelag davlatning (okeandagi ko'psonli orolardan tashkil topib, orollar va suvli hududning bir-biri bilan o'ta yaqinligi sababli alohida yaxlitlikka ega davlat) tashqarisidagi orol bilan bog'langan to'g'ri chiziqni arxipelag chiziq deya atalib, uning ichkarisidagi suvli hudud

esa arxipelag suvlar deyiladi. Arxipelag chiziqning tashqarisida esa hududiy dengiz va boshqa masalalarga doir yurisdiksiya belgilanadi. Aytish joizki, Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyaning 47-moddasiga ko'ra, arxipelag chiziqning tortilish usuli bo'yicha batafsil shartlar belgilangan. Ushbu shartlarni bajara oladigan davlatlar dunyoda 25-35 tani tashkil etadi. Yaponiya va Angliya davlatlari esa ushbu shartlarni bajara olmaydi deb hisoblanadi.

Arxipelag suvlarda arxipelag davlatlarning hududiy suvereniteti amal qiladi. Hududiy dengiz chizig'i ichidagi suvli hududlarda ham xorijiy kemalarning tinch suzib o'tish huquqlari tan olinadi. Bundan tashqari, ushbu hududlarda arxipelag davlatlar belgilaydigan arxipelag qatnov yo'laklari mavjud. Ularda tranzit o'tish huquqi bilan deyarli o'xshash bo'lgan **arxipelag qatnov yo'lagidan o'tish huquqi** tan olinadi. Agar arxipelag davlat biror qatnov yo'lagini ko'rsatmasa, Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyaning 53-moddada 12-qismiga asoslaniladi. Unga ko'ra, xorijiy kemalar «odatda, xalqaro qatnovlar uchun ishlatiladigan yo'lak» orqali arxipelag qatnov yo'lagidan o'tish huquqiga ega bo'ladilar.


4 Ochiq dengizlar tartiboti va ochiq dengizlarda baliq ovlash

(1) Ochiq dengizlardan erkin foydalanish tamoyili va bayroq davlat qoidasi

Ochiq dengizlardan erkin foydalanish tamoyilining mazmuni ikki qism-

dan iborat. Ular - ochiq dengizni hech qanday davlat egallay olmasligi (**suverenitetga bo'ysundirishning taqiqlanishi**) va barcha davlatlar undan erkin foydalana olishlaridir (**foydalanishning erkinligi**). Foydalanishning erkinligi deganda kema qatnovi, havo qatnovi, dengiz osti telefon liniyasi va quvurlarni yotqizish, baliqchilik, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish nazarda tutiladi. Ammo ushbu huquqdan foydalanish jarayonida boshqa davlatlarning manfaatlarini ham yetarlicha e'tiborga olish talab qilinadi (Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiya 87-moddada). Harbiy mashg'ulotlar va yadroviy qurollarni sinash amalga oshirilayotganda esa oldindan xabar berilib, xavfli suvli hudud belgilanishi lozim. **Daigo Fukuryumaru** ishida (1954-yil) (6-9) ochiq dengizdagi yadroviy sinovning xalqaro huquqqa zidligi masalasi ko'tarilgan. Biroq Yaponiya va AQSh o'rtasida ushbu masala yuzasidan huquqiy javobgarlik masalasi ochiq qolib ketgan. Faqatgina AQShning kompensatsiya to'lashi bilan masala hal etilgan.

Ochiq dengizda suzayotgan kemalar bayroq davlatlarining mutlaq yurisdiksiyasiga bo'ysunib, ularga nisbatan bayroq davlati qonunlari tatbiq etiladi va ijro qilinadi. Bu **bayroq davlati tamoyili** deb ataladi. Bayroq davlatidan boshqa davlatlar esa qoida o'laroq kemalarga nisbatan davlat yurisdiksiyasini (→**Chapter 3**) qo'llay olmaydilar. Ammo dengizlardagi ba'zi jinoyatlar (masalan, qaroqchilik) (→**Chapter 9**) va ta'qib qilish huquqidan foydalanish bundan mustasno. Ochiq dengiz-



(Manba: Tashqi ishlar vazirligi veb-sayti)


larda kemalarning to'qnashuvi yuz bergan holatlarda ham aybdor kemani javobgarlikka tortish vakolatiga zarar bergan kemanding bayroq davlati (yoki kema ekipaji fuqaroligi oid bo'lgan davlat) egalik qiladi (Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiya, 97-modda).

Kemalarga nisbatan fuqarolikni berish shartini har bir davlat o'zi belgilaydi. Ammo kema va bayroq davlati o'rtasida «**haqqoniy bog'liqlik**» mavjud bo'lishi lozim (Konvensiya, 91-modda 1-qism). Agar bayroq davlati bir kemaga nisbatan o'z fuqaroligini taqdim etib, uni ro'yxatdan o'tkazsa, ushbu kemaga nisbatan samarali nazorat va boshqaruvni ham amal-

ga oshirishi talab etiladi. Amalda esa mulkdorlar o'z kemalarini ro'yxatdan o'tkazish arzon bo'lishi bilan birgalikda nazorat qilish ham qattiq bo'lmagan mamlakatlarda ro'yxatdan o'tkazish holatlari ko'p uchraydi. Ma'lum bir bayroq davlatining fuqaroligi faqat qulay bo'lganligi uchun olinishi natijasida bayroq davlati bilan o'rtasidagi aloqasi zaif bo'lgan kemalar (FOC) dunyo bo'ylab keng tarqalgan.

(2) Dengizbo'yi davlatlarining ta'qib qilish huquqi

Ta'qib qilish huquqi deb Dengizbo'yi davlatining qonunlarini buzgan xorij kemasini ochiq dengizda ta'qib qilib, qo'lga olish huquqiga aytiladi. U




(Manba: Baliqchilik agentligi veb-sayti)

bayroq davlati tamoyiliga istisno tarzidagi Dengizbo'yi davlatlari huquqi hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, ushbu huquqni qo'llashda bir qancha qattiq talablarga rioya qilish lozim. Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyaning 111-moddasiga muvofiq, bularga ta'qib qilishdan oldin ta'qib qilinayotgan kema nisbatan to'xtashga oid belgini ko'rsatish, ta'qib qilishni yarim yo'lda to'xtatmaslik, kema agar o'zga davlat hududiy dengiziga kirib olsa unga nisbatan ta'qib qilishning to'xtatilishi kabi shartlar kiradi. Kemani to'xtatishni ta'minlash maqsadida eng kam miqdordagi kuch ishlatishga ruxsat berilsa-da, haddan ortiq kuch ishlatilishi belgilangan qoidalarga xilof deb hisoblanadi. Masalan, 1929-yilda tutash zonalarda alkogol mahsulotlarining

kontrabandasi bilan shug'ullanayotgan kema ta'qib qilinib, u atayin cho'ktirib yuborilgan ish bo'yicha *I'm alone* qarori (1935-yildagi AQSh-Britaniya qo'shma komissiyasi qarori); EEZda yoqilg'i quyish amaliyoti bilan shug'ullanayotgan xorij kemasini Gvineya patrul xizmati kemasi qo'qqisidan ta'qib qilib, oldindan xabar bermasdan o'qqa tutgan *Saiga (No.2)* ishi qarorida (ITLOS 1999-yil) bayroq davlati huquqlarini buzadigan ta'qib qilish amalga oshirilgani aniqlangan.

(3) Ochiq dengizlarda baliq ovlash va boshqa qoidalar

Ochiq dengizlardan foydalanish huquqining bir turi sifatida undagi baliqlarni ovlash ham tan olib kelingan. Biroq Ikkinchi jahon urushidan keyin dengiz zaxiralarini asrash va



Ushbu harita Yaponiyaning boshqa davlatlar bilan dengiz hududlaridagi chegaralarni ko'rsatadi.

Yer maydoni	380 000 km ²
Hududiy dengiz (ichki suvlar ham)	430 000 km ²
Tutash zonalar maydoni	320 000 km ²
Mutlaq iqtisodiy zona maydoni (tutash zonani ham o'z ichiga olganda)	4 005 000 km ²
Hududiy dengiz (ichki suvlar ham)+ Mutlaq iqtisodiy zona maydoni (tutash zona ham)	4 470 000 km ²

(Manba: Yaponiya qirg'oqbo'yi agentligi Axborot bo'limi veb-sayti)

dengiz sanoatini ushlab turish hamda rivojlantirish maqsad qilindi. Natijada, **Kit ovlashni tartibga solishga oid xalqaro konvensiya** (1946-yil), Yaponiya-AQSh-Kanada o'rtasidagi Shimoliy Tinch okeanidagi ochiq dengiz hududida baliq ovlash to'g'risidagi bitim (1952-yil) kabi ko'p sonli mintaqaviy va baliq turlariga xos xalqaro shartnomalar tuzildi. Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiya EEZdagi tirik jonzoatlarning himoyasi va ulardan eng samarali tarzda foydalanish majbu-

riyatini o'rnatadi. Shu bilan birga, ochiq dengizlardagi tirik jonzoatlarning umumiy tarzidagi asrab qolinishi va boshqaruviga oid majburiyatlarni ham belgilaydi. Bu orqali ochiq dengizda baliq ovlashga oid alohida bitim tuzilishi uchun poydevorni yaratadi. **BMTning Ochiq dengizlardagi baliqchilik to'g'risidagi bitimi** (1995-yil) stradling baliq turlari (treska va qalqonbaliq singari birqancha davlatlar EEZlari yoki EEZ va ochiq dengizda yashovchi baliq turlari) va uzoq hududlarga suzuvchi

Dengiz ne'matlarini bo'lishish - dengiz huquqi

baliq turlari (tunets va chiziqli tunets kabi keng hududlar bo'ylab suzuvchi baliq turlari)ni asrashni ko'zlab, Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyaning samarali amalga oshishi uchun har bir davlat bajarishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarni batafsil belgilagan shartnoma hisoblanadi.

Mintaqaviy baliqchilik shartnomasining obyekti hisoblangan baliq turlari bo'yicha Mintaqaviy baliqchilikni boshqarish tashkiloti (Regional Fisheries Management Organization: RFMO) tashkil etilgan. Ushbu tashkilot orqali baliq ovlash tartibga solib boriladi (6-10). Bonito va tuna turlari bo'yicha 5 ta RFMO hozirda dunyo dengizlarini nazorat qilmoqda (6-11). Ushbu tashkilotlar baliq ovlash mavsumi, baliq ovlash qarmoqlari, baliq ovlash turlari kabi qoidalarga qo'shimcha ravishda tabiiy baliq zaxiralari holatini hisobga olib ovlanadigan baliq miqdorini ham tartibga soladilar. Avstraliya va Yangi Zelandiyaning Yaponiya bilan bo'lgan **Janubiy tunets ishining** (2000-yilgi arbitraj sudi) yuz berishiga Janubiy tunalarni asrash komissiyasidagi (CCSBT) zaxira miqdorlarini baholash bo'yicha kelib chiqqan tushunmovchilik sabab bo'lgan edi. Shuningdek, Xalqaro adolat sudi 2014-yildagi **Antarktika okeanida kitlarni ovlash ishida** Yaponiya tomonidan amalga oshirilgan Kitlarga doir 2-tadqiqotni Xalqaro kitlarni ovlash bitimiga mos keladigan kitlarga nisbatan amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot emas deb topgan va Yaponiya zarariga qaror chiqargan (→**Chapter 12**). Shuningdek, min-

6-10 Davlatlarning 200 millik mutlaq iqtisodiy zonalar

(1 million km² hisobida)

1	AQSh	10.7
2	Rossiya	8.03
3	Avstraliya	7.87
4	Indoneziya	6.08
5	Kanada	5.80
6	Yaponiya	4.47
7	Yangi Zenlandiya	4.40
8	Brazilya	3.638
9	Chili	3.635
10	Kiribati	3.43

(Manba: Dengiz chora-tadbirlari tadqiqot institutining hisoblash usullariga asoslanildi)

taqaviy baliqchilik shartnomasi tarafi bo'lmagan davlatda kemani ro'yxatdan o'tkazib, huquqiy nazoratdan qochgan holda tartibsiz ravishda harakat qiluvchi kemalar faoliyatini **IUU baliqchiligi** (Illegal-Unreported-Unregulated (Noqonuniy – Hisob bermaydigan – Nazorat qilinmaydigan baliqchilik)) deyiladi. 1993-yildagi Ochiq dengizlardagi baliqchilikni asrash choralariga bo'ysunish bitimi (Komplayens bitimi) ham mavjud. Ushbu bitim aynan IUU baliqchiligini to'xtatish maqsadida ochiq dengizlarda baliq ovlash bo'yicha yuzaga keladigan bu kabi holatlarda bayroqdor davlat javobgarligi qanday bo'lishini aniqlashtirgan.

5 Mutlaq iqtisodiy zonalar va kontinental shelf

(1) Mutlaq iqtisodiy zonalar

«Tabiiy resurslarga nisbatan abadiy egalik» tushunchasiga asoslangan

6-14 Yaponiya va Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreya o'rtasidagi baliqchilik sanoati masalalariga oid xalqaro shartnomalar



(Manba: Baliqchilik agentligi veb-sayti)

rivojlanayotgan mamlakatlarning ta-lablari bilan Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyaga 200 mil (370.4 kilometr) gacha bo'lgan hududlar Mutlaq iqtisodiy zonalar (EEZ) hududi sifatida belgilanishi mumkinligi haqidagi yangi tizim kiritildi. Uchinchi bor o'tkazilgan BMT dengiz huquqi konferensiyasi-sining dastlabki bosqichlaridayoq (1974-yil) deyarli ko'pchilikning ro-ziligi olindi. Unga ko'ra, davlatlarn-

ing hududiy dengiz kengligining 200 milni tashkil etishiga oid da'volarini rad etish bilan birga, dengizbo'yi dav-latlarining tabiiy zaxiralarga bo'lgan huquqini asosiy markazga qo'ygan holda, ularning yurisdiksiyasi osti-dagi suvli hududlar sifatida tan olindi. Qisqacha qilib aytganda, Dengizbo'yi mamlakatlari sohildagi chiziqlardan boshlab 200 mil masofada EEZlar tash-kil etilishi yo'lga qo'yildi. Bunga ko'ra, dengizbo'yi mamlakatlari EEZlarda tabiat resurslarini izlash, kashf etish, saqlash va ularni idora qilish bo'yicha suveren xususiyatga ega huquqqa ega hisoblanadi. Shuningdek, sun'iy orol-lar, binolar qurish, ulardan foydalanish va dengizni ilmiy jihatdan tadqiq etish, uning ekologiyasini saqlash, xavfsiz-ligini ta'minlash bilan bog'liq boshqa-ruvni amalga oshirish huquqi ham mavjud. «Suveren xususiyatga ega huquq» kompleks va mutlaq hisoblan-gan «suverenitet»dan biroz farq qiladi. Ya'ni ma'lum bir masalalar bilangina cheklanadi.

Tirik organizmlar resursi bilan bog'liq masalalarda dengizbo'yi mam-lakatlari ularni saqlash va eng yuqori standartlarga amal qilgan holda foy-

6-15 Yaponiya va Tayvan o'rtasidagi baliqchilik sanoatini belgilash

«Normativ-huquqiy hujjatlar qo'llanmaydigan hududlar» deganda Yaponiya va Tayvan tomonidan o'zlarining baliqchilik sanoatiga aloqador normativ-huquqiy hujjatlarini boshqa tarafga nisbatan qo'llamaydigan hudud tushuniladi.

«Maxsus hamkorlik hududi» deganda normativ huquqiy hujjatlar qo'llanmaydigan hudud sifatida e'tirof etilmasa-da, Yaponiya va Tayvan tarafi bir-birlarining olib borayotgan ishlarini hurmat qilib, bu yerdagi tartibotni saqlash uchun maksimal darajada hamkorlik qiladigan hudud.

«Vaqtinchalik choralarni belgilash to'g'risidagi qonun bo'yicha chiziq» Tayvan tomonidan bir tomonlama uning yurisdiksiya doirasida deb hisoblanib tortilgan chegara.



(Manba: Tashqi ishlar veb-saytidagi xarita asosida tayyorlandi)

dalanish majburiyatini oladilar. Shuningdek, baliq zaxiralarning barqaror ushlab turilishi uchun dengizbo'yi mamlakatlari ovchilik masalasida o'zlarining baliq ovlash imkoniyatlarini belgilay oladilar. Shuningdek, agar baliq zaxiralardan foydalanishda qoldiq zaxira qoladigan bo'lsa, dengizbo'yi davlatlari boshqa davlatlar tomonidan qolgan zaxiralarni ovlashga ruxsat berish majburiyatini oladilar. (Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiya, 61-62-moddalar). Bundan tashqari, ma'lum bir baliq turlari bo'yicha alohida qoidalar o'rnatilgan (63-68-moddalar). Uzoq hududlarga suzuvchi baliq turlari va stradling baliq turlari bo'yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshirish majburiyati yuklanadi. Dengiz sutemizuvchilari (kit kabilar) va dengizda ko'payuvchi baliq turlari (Eel baliqlari) yuzasidan alohida qoi-

dalar belgilangan. **Daryo va dengizlar orasida aylanuvchi baliq zaxiralari** (Losos kabilar) bo'yicha daryo oqib chiquvchi davlatlarga faqatgina o'z EEZlarida ularni ovlashga ruxsat berilgan bo'lib (**o'zidan oqib chiquvchi daryo nazariyasi**), ochiq dengizda ularni ovlash taqiqlanadi. O'rnashib qoladigan dengiz mahsulotlari (Qobiq kabi. Ammo dengiz qisqichbaqasi va mayda qisqichbaqalar bo'yicha fikr yakdilligi mavjud emas) esa kontinental shelfning resurslari hisoblanib, ularga nisbatan EEZ tizimi qo'llanilmaydi.

Yaponiya 1977-yilda 200 mil masofada baliq sanoati zonalarini tashkil etgan bo'lsa, 1996-yilga kelib EEZlarni to'laligicha amalga kiritdi (**6-12**). Aytish joizki, Yaponiyaning EEZ hududi uning quruqlik hududidan (taxminan 380 ming km²) o'n ikki barobar katta. Dunyoda kengligi bo'yicha 6-o'rinda

6-16 Kontinental shelfdan tashqaridagi taraf doirasi



[Kontinental shelf atrofining tashqi chiziqlari asosiy chiziqdan boshlab 200 mildan oshiq bo'lgan joyda mavjud bo'lganda]

Kontinental shelf atrofining tashqi chiziqlarigacha bo'lgan dengiz tubi dengizbo'yi davlatining kontinental shelfi sifatida tan olinadi (Ammo asosiy chiziqdan 350 mildan oshib ketmasligi va suvning chuqurligi 2500 metrdan 100 milgacha bo'lishi lozim.

(Manba: Tashqi ishlar veb-saytidagi xarita asosida tayyorlandi)

turadi (umumiy hajmi bo'yicha esa dunyoda 4-o'rinni egallaydi) (6-13). 1977-yilda Rossiya bilan 200 millik tizimni o'rnatuvchi xalqaro shartnoma imzolangan. Shundan keyin ikki mamlakat bir-birlarining EEZlari hududida baliq ovlash ishlarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Yaponiya va Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreya o'rtasida XX asrning oxirlarida yangi baliqchilik sanoati masalalariga oid xalqaro shartnomalar imzolangan edi. Natijada, bayroq mamlakati tamoyili amal qiluvchi katta maydonni egallaydigan muddatli suvli hududlar tashkil etildi (6-14). Bundan tashqari, 2013-yilda Yaponiya va Tayvan o'rtasida Senkaku orollari atrofidagi suv havzalarida (hududiy dengiz bunga kirmaydi) xususiy subyektlar tomonidan amalga oshiriladigan baliqchilik sanoatini belgilash bo'yicha kelishuv imzolangan (6-15).


(2) Kontinental shelf

Dengizbo'yi mamlakatlari **kontinental shelf**ni tadqiq qilish, undagi tabiiy resurslarni topish kabi **suveren xususiyatga ega bo'lgan huquqlarga** ega. Tabiiy resurslarga jonsiz resurslar (mineral resurslar) va biologik resurslar kiradi. Ushbu suveren xususiyatga ega bo'lgan huquq mazmuniga ko'ra, kontinental shelf agar «quruqlik hududining tabiiy ko'rinishdagi davomi ekan, o'z-o'zidan Dengizbo'yi mamlakatining unga nisbatan huquqlari tan olinadi» (→ **Keysbuk 2: Shimoliy dengiz kontinental shelf ishi** (ICJning 1969-yildagi qarori)). Albatta, dengizbo'yi mamlakati kontinental shelf hududini tad-

qiq qilish va unda tabiiy resurslardan foydalanmasa ham ushbu huquq tan olinaveradi. Kontinental shelfga oid huquqlar odatdagi suverenitetdan farq qiladi. Shuningdek, dengizbo'yi davlatlari belgilaganidan keyingina hosil bo'ladigan EEZlarga oid suveren xususiyatdagi suveren huquqlardan ham biroz farq qiladi.

Kontinental shelfning doirasi

Kontinental shelf to'g'risidagi xalqaro shartnomada suv tubining 200 metrigacha deb belgilangan (chuqurlik standarti). Agarda undan-da chuqurroq hududlarda tabiiy resurslardan foydalanishning imkoni bo'lsa ushbu hududlar ham uning doirasiga kiradi (foydalanish imkoniyati standarti). Resurslardan foydalanish imkoniyati standarti texnologiyalarning rivojlaniishi bilan kontinental shelfning doirasi ham kengayib borishini anglatadi. Ammo bunda ummonlar tubi rivojlangan mamlakatlar tomonidan monopoliya qilinish xavfi borligini ham unutmash lozim. Shu sababli Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiya kontinental shelfga umuman yangicha mezonlarga asoslanib ta'rif berdi. Bunga ko'ra, kontinental shelf chegarasi asosiy chiziqdan 200 mil masofagacha (masofa standarti) yoki quruqlik hududining tabiiy cho'zilishini hisobga olib, kontinent atrofining tashqi chiziqlarigacha (tabiiy cho'zilish standarti) deb belgilandi. Kontinental shelf atrofining tashqi chiziqlari deganda quruqlik hududining tabiiy cho'zilishi (qirg'oq qoyatoshlarining qalinligi) kabilarni mezon qilib olib belgilanadigan mu-



A – B: G'arbiy Germaniya va Daniya o'rtasidagi kelishuv (ekvidistant chizig'i)

C – D: G'arbiy Germaniya va Niderlandiya o'rtasidagi kelishuv (ekvidistant chizig'i)

B – E: Ekvidistant chizig'i (Daniya va Niderlandiyaning vaji)

D – E: Ekvidistant chizig'i (Daniya va Niderlandiyaning vaji)

B – F: Yerning tabiiy ravishda cho'zilish nazariyasiga asoslangan chiziq (G'arbiy Germaniyaning vaji)

D – F: Yerning tabiiy ravishda cho'zilish nazariyasiga asoslangan chiziq (G'arbiy Germaniyaning vaji)

ICJ tomonidan chiqarilgan qarordan keyin taraflar kelishuviga asoslangan G'arbiy Germaniyaning kontinental shelfi.

(Manba: ICJ qarori hamda AQSh davlat departamenti ma'lumotlari)

rakkab tushunchadir. Ushbu chiziqlarni belgilash texnikasi oson emas. Shu sababli ko'p hollarda dengiz tubining asosiy qismidagi chiziqdan boshlab 200 milgacha hisoblanadi (6-16). 200 mildan ham oshib ketganda (cho'zilgan kontinental shelflar) Kontinental shelf doirasi bo'yicha komissiyaga (CLCS) batafsil ma'lumotlarni

taqdim etish lozim. Shundan so'ng mazkur komissiyaning tavsiyasiga asosan dengizbo'yi davlati tomonidan belgilangan kontinental shelf doirasi yakuniy va yuridik kuchga ega deb topiladi (Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiya, 76-modda). Mazkur komissiya Yaponiya tomonidan 2008-yilda taqdim etilgan yettita dengiz maydoni bo'yicha ma'lumotlarni o'rganib chiqib, shulardan to'rttasini tan olish haqida tavsiya bergan. Shuningdek, bittasi bo'yicha kechiktirilgan tavsiyani taqdim etgan (2012-yil). Bundan tashqari, 2012-yilda Xitoy va Janubiy Koreya davlatlari Sharqiy Xitoy dengizining dengiz maydonida cho'zilgan kontinental shelflar bo'yicha iltimosnoma bilan murojaat etishgan (6-20).

6 Dengiz maydonining chegarasini belgilash

(1) Jeneva dengiz huquqi 4 konvensiya va Shimoliy dengiz kontinental shelf ishi – ekvidistant, neytral chiziq shakli va tenglik tamoyili


Qo'shni bo'lgan mamlakatlarning o'rtasidagi dengiz maydoni unchalik ham katta bo'lmagan hollarda dengiz hududi, EEZ va kontinental shelfning chegarasi bo'yicha bir qancha muammolar yuzaga keladi. Dengiz hududi to'g'risidagi konvensiyada dengiz hududi bo'yicha manfaatdor mamlakatlar o'rtasida boshqacha kelishuv mavjud bo'lmasa, qo'shni davlatlar bilan bog'liq vaziyatlarda ekvidistant chizig'i (asosiy chiziqning eng yaqin joyidan teng masofadagi neytral chiziq. Faqatgina yonma-yon mamlakatlar bilan bog'liq vaziyatlarda)


Atama

Tenglik (equity)

Xalqaro huquq normalari qanday bo'lsa ularni xuddi shundayligicha qo'llash mantiqqa zid bo'lgan natijalarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda muvofiq keluvchi natijaga yetaklashi lozim bo'lgan qoida orqali mavjud holatni tuzatish uchun asoslaniladigan mezon.

va neytral chiziqqa (bir-biriga qarama-qarshi mamlakatlar bilan bog'liq vaziyatlarda) asoslanilishini belgiladi (12-modda. Tutash zonalar bo'yicha 24-modda, 3-band). Kontinental shelf to'g'risidagi konvensiya ham yuqoridagi qoidalardan namuna olgan holda, kontinental shelfning chegarasini ekvidistant chiziq va neytral chiziq orqali belgilash shaklini qabul qildi (6-modda). Shunday bo'lsa-da, hududiy dengizdan ko'ra ham kattaroq maydonga ega bo'lgan hududlar borasida mazkur shakldan foydalanish qanchalik to'g'ri bo'lishi masalasida katta savol paydo bo'ldi.

Shimoliy dengiz kontinental shelfi ishida (ICJning 1969-yildagi qarori) (6-17) Kontinental shelf to'g'risidagi konvensiyaning a'zosi bo'lmagan davlat (G'arbiy Germaniya)ga nisbatan ekvidistant chiziq shaklining qo'llanilishi masalasi muzokara markazida bo'lgan. Muammo sifatida ko'tarilgan G'arbiy Germaniyaning sohil bo'yi chiziqlari  ko'rinishida bo'lgani uchun ekvidistant shakli qo'llanilsa kontinental shelf juda ham tor bo'lib qolar edi. ICJ esa mazkur



(Manba: ICJ qarori asosida tayyorlandi)


ekvidistant chiziq shaklining xalqaro odat huquqi qoidasi bo'lmagani bois, uni qo'llashni rad etdi. Uning o'rniga esa **tenglik tamoyiliga** amal qilish lozimligini ta'kidladi. Ushbu sud qaroridan keyin tenglik tamoyilini asosiy o'ringa qo'yuvchi qarash vakillari soni ko'payib, ekvidistant chiziq hamda neytral chiziq shaklini yoqlovchi qarash vakillari bilan katta qarama-qarshiliklar yuzaga kela boshladi.

(2) Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiya va pretsedentdagi tamoyillar – «tenglikka amal qilingan yechim» va uch bosqichli shakl

Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiya hududiy dengizlar masalasida



(Manba: ICJ qarori asosida tayyorlandi)



(Manba: Xitoy hukumatining 2009-yilda BMT Bosh kotibiga yuborgan og'zaki notasiga ilova qilingan xarita)

Hududiy dengiz to'g'risidagi konvensiya qoidalarini davom ettirdi (15-modda. Tutash zonalarning chegarasini belgilash bo'yicha qoidalar o'chirib tashlangan). Boshqa tomondan EEZ va kontinental shelfning chegarasini belgilash yuzasidan «tenglikka amal qilingan yechimga erishish uchun Xalqaro huquq normalariga asoslanib rozilik orqali hal etishni amalga oshirish» haqidagi qoidani belgiladi (74, 83-moddalar). Albatta, mazkur holatda tenglikka amal qilingan yechimga erishish uchun qanday usullardan foydalaniladi degan savol tug'iladi. Mana shunday masala keyinchalik qabul qilingan pretsedentda qo'llanilgan bosqichli usul orqali ma'lum darajada o'z yechimini topdi. ICJ Liviya va Malta o'rtasida yuzaga kelgan kontinental shelf ishi bo'yicha chiqargan qarorida (1985-yil)

(6-18) birinchi bosqichda vaqtinchalik **ekvidistant neytral chiziq** tortilishini ta'kidlagan. Ikkinchi bosqichda **aloqador holatlar** o'rganilib, mana shunday aloqador holatlar mavjud deb hisoblanisa, ularni inobatga olgan holda ekvidistant neytral chiziq to'g'rilanishi belgilandi. Mana shunday qilib, ikkinchi bosqich ham qabul qilindi. Aloqador holatlar sifatida dengiz tubining tuzilishi va tabiiy resurslarning holati emas, balki dengizbo'yining uzunligi, shakli hamda orollarning mavjudligi kabi geografik holatlar e'tirof etildi. Bugungi kunda ICJ **Qora dengizdagi dengiz chegarasini belgilashga oid ishdan** (2009-yil) (6-19) keyin ikkinchi bosqichni yanada takomillashtirgan uchinchi bosqich shaklini ham amalga kiritdi. Ushbu bosqichda ikkinchi bosqichga qo'shimcha tarzda, aloqador

	Ummon tubi qaynoq minerallari	Kobaltga boy qobiq	Marganes tugunlari
O'ziga xosligi	Ummon tubidan qaynab chiqadigan buloq suvlari o'zida jamlangan metallar	Ummon tubi qoyatoshlarining ustida paydo bo'ladigan bir necha mmdan 10 smgacha bo'lgan marganeslar	2-15 sm kattalikdagi yumaloq tanga ko'rinishidagi marganes tugunchalari ummon tubi bo'ylab yoyilgan
Tarkibidagi metallar	Mis, qo'rg'oshin, rux, oltin, kumush, germanium, galliy kabi noyob metallar	Marganes, mis, nikel, kobalt, oq oltin kabilar	Marganes, nikel, mis, kobalt va boshqa 30 dan ortiq turdagi qimmatbaho metallar
Chuqurligi	500-3000 metr (asosan Mutlaq iqtisodiy zonalarda)	1000-2400 metr (asosan Mutlaq iqtisodiy zonalarda va ochiq dengizda)	4000-6000 metr (asosan ochiq dengizda)

(Manba: Tabiiy resurslar va energiya agentligi veb-sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi)

holatlar hisobga olinib, to'g'rilangan chiziq noteng natijani yuzaga keltirgani yoki keltirmagani o'rganilishi belgilandi.

1974-yilda Yaponiya va Janubiy Koreya o'rtasida Kontinental shelfning shimoliy va janubiy qismlar to'g'risidagi kelishuvlari imzolangan. Shimoliy qism to'g'risidagi kelishuvda neytral chiziq shakli qabul qilingan. Janubiy qism to'g'risidagi kelishuvda esa chegaralarni belgilashni kechiktirib, neytral chiziqdan Yaponiya tarafidagi suvli hududda birgalikda rivojlantiriladigan hudud tashkil etilgan. Yaponiya va Xitoy o'rtasida esa Sharqiy Xitoy dengizidagi kontinental shelfning chegarasi masalasida qarama-qarshilik mavjud. Yaponiya tomoni neytral chiziq bo'yicha belgilashni taklif etayotgan bo'lsa, Xitoy tomoni «quruqlikning tabiiy cho'zilishi» mezoniga asosan Okinava havzasining eng chuqur

qismidan belgilashni aytib kelmoqda. Janubiy Xitoy dengizida esa Xitoy atrofidagi mamlakatlarning orollari hamda EEZlarini ham o'z ichiga oladigan darajada o'zboshimchalik bilan «9 darajali chizig'i»ni tortib olgan. Bu hozirda katta nizolarga sabab bo'lmoqda. Filippin Xitoy ustidan shikoyat qilgan **Janubiy Xitoy dengizi ishida** (2016-yil) Xalqaro arbitraj sudi 9 darajali chizig'iga asoslanib talab qilinayotgan huquqlar Xalqaro huquqda hech qanday asosga ega emas deb hisobladi (6-20).

Ummonning chuqurlik tubi va uning resurslari


(1) Ummonning chuqurlik tubining huquqiy o'rni – insoniyatning umumiy boyligi

Ummonning chuqurlik tubida marganes, kobaltga boy qobiq, qaynoq dengiz minerallari kabi noyob metallarga boy mineral resurslar mavjud.

Column

Minami Torishimaning kobaltga boy qobig'ini izlab topish bo'yicha shartnoma

2014-yil Yaponiyaning mustaqil ma'muriy yuridik shaxsi JOGMEC va Xalqaro dengiz tubi tashkiloti Minami-Torishima orolining janubi-sharqiy qismida taxminan 600 km joyni egallagan ochiq dengizdagi kobaltga boy qobiqni izlab topish bo'yicha shartnomaga imzo qo'ydilar. Izlab topish bo'yicha 15 yillik mutlaq huquqlar ta'minlandi. Kashf etishga yo'naltirilgan izlab topish faoliyati uchun sharoit yaratildi.




(Manba: Japan Oil, Gas and Metals Mineral Resources Organization (JOGMEC) veb-sayti)

So'nggi yillarda yerda kam uchraydigan elementlar va biologik resurslari (genetik manba) mavjudligiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda (6-21). 1967-yilda BMT Bosh Assambleyasida Maltaning BMTdagi elchisi Pardo kontinental shelfdan keyingi dengiz tubini insoniyatning umumiy boyligi sifatida xalqaro boshqaruv ostiga olishni tan olishni taklif qilgan (Pardo taklifi). Ushbu taklif ko'plab mamlakatlar tomonidan qabul qilingan. 1970-yilgi Ummonning chuqurlik tubi tamoyillari to'g'risidagi deklaratsiya (BMT Bosh Assambleyasi qarori 2749 (XXV)) qabul qilingandan keyin undagi qoidalar Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyaning XI bo'limida aks ettirildi (ushbu insoniyatning umumiy boyligi sifatida tan olish haqidagi g'oya keyinchalik Oy to'g'risidagi kelishuvda Oy va

boshqa astronomik jismlar masalasida ham o'z ifodasini topdi (→Chapter 5).

«Insoniyatning umumiy mulki» sifatida Ummonning chuqurlik tubi va undagi tabiiy resurslarga nisbatan suverenitet bilan da'vo qilish yoki xususiy mulkka aylantirish taqiqlanadi. Tabiiy resurslarga aloqador barcha huquqlar butun insoniyatga tegishli bo'lib, uni idora qilish uchun **Xalqaro dengiz tubi tashkiloti (ISA)** tashkil etilgan. Ushbu organ rivojlanayotgan davlatlarning manfaatlariga alohida e'tibor qaratgan holda butun insoniyatning manfaatlarini ko'zlab faoliyat olib boradi. Ummonning chuqurlik tubidan tinchlik maqsadlaridagina foydalanib borish maqsadga muvofiq. Harbiy maqsadda ulardan foydalanish taqiqlanadi (Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyaning 136, 137, 140, 141-moddalar).

Davlat yoki davlat tomonidan muhofaza etiladigan kompaniya bir xil darajada biznes ahamiyatiga ega bo'lgan ikkita kon maydoni bo'yicha ariza kiritadi. Izlab topish bo'yicha shartnoma tuzilgandan keyin Xalqaro dengiz tubi tashkiloti (ISA) arizalarning birini tasdiqlaydi. Boshqasida esa tadbirkorlik subyekti izlanish olib boradigan kon maydonini ko'rsatadi. Gavayining janubiy-sharqiy zonasida dunyoga mashhur chuqur dengiz kon maydoni mavjud. ISA esa ushbu hudud yuzasidan 2012-yilda Ekologik boshqaruv rejasini ishlab chiqib, 9 ta hudud alohida ekologik himoya hududlari etib belgilangan.



(Manba: Xalqaro dengiz tubi tashkiloti (ISA) veb-saytidagi xarita)

Gavayining janubiy-sharqiy zonasidan tashqari dunyoning ko'plab hududlarida ham Ummonning chuqur tubida izlanishlar olib borish bo'yicha shartnomalar tuzilib, kon maydonlari tashkil etilgan. Hozirgi kungacha Ummonning chuqur tubida izlanishlar olib borish bo'yicha shartnoma tuzgan tarafklar va muhofaza qiluvchi mamlakatlar (2015-yil holatiga ko'ra)

Marganes tugunlari: Rossiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Yaponiya (DORD), Fransiya, Hindiston, Germaniya, Nauru, Tonga, Belgiya, Angliya, Kiribati, Singapur, Kuk orollari.

Dengiz tubi qaynoq minerallari: Xitoy, Rossiya, Janubiy Koreya, Fransiya, Germaniya, Hindiston.

Kobaltga boy qobiq: Yaponiya neft, gaz va mineral zahiralarni tashkiloti, Xitoy, Rossiya, Braziliya.

(2) Ummonning chuqurlik tubi resurslarini rivojlantirish tizimi

Rivojlantirishning amaliy tizimi masalalarida Uchinchi bor tashkil etilgan BMT Dengiz huquqi konferensiyasida rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar o'rtasida birmuncha qarama-qarshiliklar yuzaga keldi. Rivojlanayotgan mamlakatlar Xalqaro dengiz tubi

organi tomonidan markazlashtirilgan boshqaruv hamda bevosita rivojlantirish fikrini ilgari surgan bo'lsalar, rivojlangan mamlakatlar organning rolini rivojlantirishga ruxsat berish bilan cheklaymiz degan fikrni ilgari surdi. Yakunda Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyada Xalqaro dengiz tubi organi huzurida Ummonning chuqurlik

tubidan foydalanuvchi xo'jalik subyekti tashkil etilib, u tomonidan bevosita rivojlantirish bilan birga, davlat va xususiy kompaniyalar ushbu organning ruxsati bilan rivojlantirish ishlarini olib borishi belgilandi. Ya'ni ikki taraf ilgari surgan fikrlar ham qabul qilinib ular birgalikda amalga oshirib boriladigan bo'ldi. Bu shakl parallel shakl deb ataladi. Ikki tarafning konchilik maydonining tijoriy qiymati bir xilda bo'lishi uchun konchilik maydoni bo'yicha ariza va unga ruxsat berishga doir muvofiq protsedura ishlab chiqildi (6-22).

Lekin Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiya qabul qilingandan keyin ham rivojlangan mamlakatlar davlatning xarajat yuki, organning qarorlarni qabul qilish usuli, organ xizmatchilarning majburiyati kabi masalalardan ko'ngli to'lmay, konvensiyaga a'zo bo'lishni kechiktirdi. Ushbu xavotirlarni yo'qqa chiqarish uchun a'zo mamlakatlarning muhokamalari o'tkazildi. Natijada, Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyaga amaliy tuzatishlarni kiritgan xalqaro shartnoma (Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyaning XI bo'limini amalga oshirish bo'yicha kelishuv) vujudga keldi. Shundan so'ng Yaponiya va boshqa bir qancha rivojlangan mamlakatlar Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyaning tizimida qatnasha boshladilar. Natijada, konvensiya yuzaga keltirgan tizimning universalligi yanada yuqori darajaga ko'tarildi.

So'nggi yillarda mineral resurslarni izlash, rivojlantirishga yo'naltirilgan harakatlar faqatgina oldinga qa-

rab siljimoqda. Biologik va genetik resurslarga ham alohida e'tibor qaratila boshlandi. Shu sababli ularni rivojlantirish bo'yicha qoidalar, turli xil jonivorlar hamda ekotizim himoyasi va uni saqlab qolishga yangi vazifalar sifatida qaralmoqda. 2015-yil BMT Bosh Assambleyasi «Davlatlar yurisdiksiyasidan tashqarida bo'lgan hududlarning dengiz jonzotlarining xilma-xilligi» (BBNJ) himoyasi va ulardan muntazam ravishda foydalanish bo'yicha xalqaro shartnoma ishlab chiqishga qaror qilgani ko'pchilik e'tiborini o'ziga jalb qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Soji Yamamoto «Dengiz huquqi». – Sanseido, 1992-yil.
2. Xalqaro huquq konferensiyalar to'plami «Yaponiya va xalqaro huquqning 100 yilligi 3-tom, Dengiz». – Sanseido, 2001-yil.
3. Tadao Kuribayashi., Takane Sugihara «Zamonaviy dengiz huquqi oqimi 1-3 tom». – Yushindo Kobunsha, 2004-2010-yillar.
4. Moritaka Hayashi va boshqalar «Xalqaro dengiz huquqi (2-nashr)». – Yushindo Kobunsha, 2016-yil.

Chapter 7

Davlatlar birlashib guruhlar tuzadilar: xalqaro tashkilotlar

1 Xalqaro tashkilotlar nima uchun tashkil etiladi?

(1) Xalqaro hamjamiyatda no- davlat subyektlar

Zamonaviy xalqaro hamjamiyat asosan «davlat»lardan tashkil topgan. (→**Chapter 3**). Ammo bugungi kunda davlatdan boshqa subyektlar (ishtirokchilar) ham mavjud bo'lib, ular xalqaro hamjamiyatda turli xil faoliyat yo'nalishlari bilan shug'ullanadi. Masalan: (1) filiallar va shu'ba kompaniyalarni kengaytirish yo'li bilan jahon miqyosida boshqaruv va biznesni amalga oshiruvchi kompaniyalar (transmilliy korporatsiyalar), (2) gumanitar yordam va ekologik muammolar kabi global masalalarni hal etish bilan shug'ullanuvchi nohukumat tashkilotlar (NHT), (3) Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) **(7-1)**, Jahon Savdo Tashkiloti (JST), Xalqaro Valuta Jamg'armasi (XVJ) va NATO kabi turli xildagi boshqa xalqaro tashkilotlarni sanab o'tish mumkin.

Mazkur bo'limda xalqaro hamjamiyatda faoliyat ko'rsatayotgan va «davlat»lar bilan birga zamonaviy xalqaro hamjamiyatda muhim rol o'ynaydigan subyektlardan biri bo'lgan yuqoridagi (3) xalqaro tashkilotlar haqida to'xtalib o'tiladi. Avvalo, nega xalqaro tashkilot davlatdan keyingi

o'rinda xalqaro huquqning muhim subyekti sifatida tan olinadi degan savol tug'iladi. Bundan tashqari, davlatlar va insonlar qanday maqsadda xalqaro tashkilotlarni tashkil etadi va ushbu tashkilotlar qanday faoliyat turlari bilan shug'ullanadi? Ushbu savollarga javob berish uchun, dastavval, xalqaro tashkilotlar tarixini tahlil qilish va ularning paydo bo'lish hamda rivojlanish sabablarini ko'rib chiqish lozim.



Birlashgan Millatlar Tashkilotining
Bosh shtabi (AQSh, Nyu-York)



(Manba: Un Photo/Milton Grant)

(2) Xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lishi – Xalqaro tashkilotlar nega vujudga keldi va rivojlandi?

Bugungi kunda xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lishini o'rganish natijalari ularning tarixiy kelib chiqishi XIX asrda Yevropada mavjud bo'lgan mintaqaviy tashkilotlarga borib taqalishini ko'rsatadi. Misol uchun, Reyn va Dunay daryolari kabi xalqaro daryolarda suzib borayotgan kema qachonlardir o'ta muhim transport vositalaridan biri hisoblangan. Reyn daryosi bo'ylab harakatlanadigan kemalardan soliq yig'ish maqsadida daryo bo'ylab qal'alar barpo etilganligi ham (**kitob boshidagi rangli surat: C-4**) ushbu faktning haqqoniyligini ko'rsatadi.

XIX asrda Reyn va Dunay kabi Yevropa xalqaro daryolarida kemalar harakatining xavfsizligini ta'minlash uchun Xalqaro daryo komissiyasi tashkil etildi. Bu xalqaro tashkilotning eng dastlabki shakli hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, XIX asrda Yevropada Universal pochta ittifoqi (Universal Postal Union) va Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi (International Telecommunication Union) kabi xalqaro **ma'muriy organlar ittifoqi** paydo bo'ldi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng ushbu institutlar pochta va telekommunikatsiya kabi texnik hamda ixtisoslashtirilgan sohalar borasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha BMT doirasidagi maxsus organlarga aylantirildi.

Xalqaro hamjamiyatda xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lishi va rivojlanihidan maqsad barcha mamlakatlar hamjihatlikda hayot kechirishlari va

o'zaro mushtarak manfaatlarini amalga oshirishga qaratilgan deb hisoblanadi. Ayniqsa, XIX asrdan XX asrgacha bo'lgan davrda transport va aloqa kabi texnikaviy sohalarida xalqaro almashinuv keskin oshdi va xalqaro hamjamiyatda umumiy qoidalarni joriy etish barcha mamlakatlar uchun foydali bo'lib qoldi. Shu tariqa xalqaro hamjamiyatda xalqaro tashkilotlarning roli asta-sekinlik bilan oshib bordi.

(3) Millatlar Ligasiga asos solinishi va ushbu tashkilot chegaralari

XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asr boshlariga kelib alohida sohalar va texnik masalalarga ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar faoliyati tobora faollashib bordi. Biroq xavfsizlik va harbiy sohalar kabi har bir mamlakatning siyosiy manfaatlari murakkab ravishda to'qnashadigan sohalar bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotning paydo bo'lishi uchun Birinchi jahon urushidan so'ng, Millatlar Ligasining tashkil etilishini kutishga to'g'ri keldi.

1914-yilda boshlangan Birinchi jahon urushi global miqyosda insonlarga va mol-mulkka misli ko'rilmagan zararlarni keltirib chiqardi hamda xalqaro hamjamiyatga katta ta'sir ko'rsatdi. Bunday silkinishlar fonida xalqaro hamjamiyatning tinchligi va xavfsizligini ta'minlash, qurotsizlanish hamda ziddiyatlarni tinch yo'l bilan hal qilish uchun Birinchi jahon urushidan so'ng Versal shartnomasi doirasida 1919-yilda imzolangan Millatlar Ligasi shartnomasiga muvofiq insoniyat tarixida ilk bor global miqyosdagi birinchi umumiy xalqaro tashkilot – Millatlar Ligasi tashkil etildi (**7-2**).

7/2

Oldingi Millatlar Ligasi binosi
(hozirgi kunda BMTning
Yevropadagi shtabi, Jeneva shahri)



(Manba: Alamy/Afloimages)

Xalqaro hamkorlik ustuvor bo'lgan 1920-yillarda xalqaro hamjamiyatda tinchlikni saqlashda Millatlar Ligasi katta rol o'ynadi. Biroq 1930-yillarda Jahon iqtisodiy inqirozi va yirik davlatlarning Ligadan chiqib ketishi sababli xalqaro hamjamiyatda tartibni saqlash va ziddiyatlarni bartaraf etish vazifalarini samarali yo'lga qo'yish mumkin bo'lmay qoldi. Buning oqibati o'laroq Millatlar Ligasi 1939-yilda boshlangan Ikkinchi jahon urushining oldini ololmay qoldi. Buning asosiy sababi, birinchidan, Millatlar Ligasining qarorlarini qabul qilish uchun qoida tariqasida barcha a'zolarining yakdil roziligi talab etilar edi. Ikkinchidan esa, Millatlar Ligasi Nizomini buzib, urush boshlagan davlatga nisbatan sanksiyalar qo'llash uchun ham barcha a'zolarining yakdil ravishda roziligi kerak bo'lgan tizimga asoslanilgan edi. Shu sababli Millatlar Ligasi Nizomida nazarda tutilgan kollektiv xavfsizlik yetarli darajada ishlamadi.

7/3

Faoliyati to'xtatilgan BMTning
Vasiylik kengashi



(Manba: Un Photo)

2 Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Birlashgan Millatlar Tashkiloti oilasi

(1) Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'sis etilishi va uning o'ri

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) xalqaro hamjamiyat tomonidan 1945-yilda asos solingan umumiy xalqaro tashkilot bo'lib, Ikkinchi jahon urushi boshlanishining oldini ololmagan Millatlar Ligasining «xatosi»dan o'rnak olgan holda yuzaga keldi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal etish, inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish kabi keng sohalarni qamrab olgan xalqaro tashkilotdir. 2015-yilga kelib BMTga a'zo davlatlar soni 193 tani tashkil etdi. Yaponiya esa 1956-yilda BMT a'zosiga aylangan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavida tashkilotning oltita asosiy organi borligi belgilangan: Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi (Taklif etilgan Kengash), Iqtisodiy va ijtimoiy kengash, Vasiylik Kengashi (the Trusteeship Council), Xalqaro sud

Chapter

7

Davlatlar birlashib guruhlar tuzadilar:
xalqaro tashkilotlar

7-4

BMTning Inson huquqlari kengashi (Jeneva, Shveysariya)



(Manba: Un Photo/Jean-Marc Ferre)

va Kotibiyat (7-modda). Biroq Vasiylik Kengashi (the Trust Governance Board) so'nggi ishonchli boshqaruv ostidagi hudud – Palau 1994-yilda mustaqil bo'lgach, o'z missiyasini yakunlagan va faoliyatini to'xtatgan (7-3).

Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy maqsadi BMT Ustavining 1-moddasida nazarda tutilgan bo'lib, ulardan birinchisi «xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash» (1-modda, 1-bandi) hisoblanadi. BMT Ustavi a'zo davlatlar zimmasiga kuch ishlatmaslik (2-modda, 4-band), shu bilan birga, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish majburiyatini yuklaydi (2-modda, 3-band). Shuningdek, ushbu majburiyatlarga amal qilmaydigan davlatlarga nisbatan majburlovchi choralarning qo'llanilishini (41-modda, 42-modda kabi) talab qiluvchi kollektiv xavfsizlik tizimi ham belgilab qo'yilgan (→ **Chap-ter 13**).

Ikkinchi jahon urushi tamom bo'lganligining 70 yilligida, 2015-yilda BMT o'zining 70 yilligini nishonladi. BMTning 70 yillik tarixida xalqaro ham-

jamiyatda tarkibiy o'zgarishlarni o'zida aks ettirgan va «Birlashgan Millatlar Tashkilotini isloh qilish»ga qaratilgan turli urinishlar bo'ldi. Ular orasida eng muhim ahamiyat kasb etgani «xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash» bo'yicha asosiy mas'uliyatni bo'yniga olgan institut – Xavfsizlik Kengashini isloh qilish masalasi bo'ldi. Bu masalada asosiy diqqat-e'tibor Xavfsizlik Kengashining veto huquqi imtiyozi taqdim qilingan besh doimiy a'zo (AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy va Rossiya) va saylovlarga ko'ra aniqlanadigan doimiy bo'lmagan a'zolaridan iborat tarkibini isloh qilishga qaratilgan. 1965-yilda BMT Ustavini qayta ko'rib chiqish natijalariga ko'ra, Xavfsizlik Kengashining doimiy bo'lmagan a'zolari soni oltitadan o'ntagacha oshirilgan bo'lsa-da, doimiy a'zolar sonini ko'paytirish bilan bog'liq muhim islohotlar haligacha amalga oshirilgani yo'q.

Boshqa tomondan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal qilish bo'yicha mavqeyi kuchayib, mazkur masalalar iqtisodiy va ijtimoiy kengashda markazlashtirildi. Inson huquqlari masalalari bo'yicha esa 2006-yilda Inson huquqlari kengashini tashkil etish kabi yangicha o'zgarishlar amalga oshirildi (7-4).

(2) Yaponiyaning BMTga qo'shayotgan hissasi

Endi esa, Yaponiya davlatining BMT bilan qanday hamkorlik qilib kelganligini ko'rib chiqsak. BMTning turli sohalarining faoliyatini moliyalashtirish BMTga a'zo davlatlar tomonidan to'lanadigan badallar hisobidan amal-

ga oshiriladi. Badallar miqdori har bir a'zo davlatning iqtisodiy ko'rsatkichlari asosida davriy ravishda belgilab boriladi. Jadval(7-5)ga ko'ra, 1985-yilda BMTga to'lanadigan badallar miqdoridagi Yaponiyaning ulushi AQShdan so'ng ikkinchi o'rinda bo'lgan va 1990-yil oxirlaridan 2000-yilga qadar bu miqdor to'lanadigan badallar miqdorining 20 foizini tashkil etgan. Shunday vaqtlar bo'lganki, Yaponiyaning to'lovi AQShdan boshqa Xavfsizlik Kengashining to'rt a'zosi to'laydigan ulushini birlashtirgandan ham ko'p bo'lgan. Keyinchalik Yaponiya ulushi o'zining cho'qqisidagi (2000-yil atrofida) 20 foizdan 10 foizga kamaygan. Shunda ham ulush miqdori bo'yicha avvalgidek undan faqatgina AQSh ustunlik qilgan. Boshqa tomondan, hayratlanarli iqtisodiy o'sishda davom etayotgan Xitoy ulushi sezilarli ravishda oshib, 2016-yilda badallar to'lash bo'yicha Xitoy 3-o'ringa ko'tarildi.

BMT uchun ajratiladigan badallardagi ulushning kamayishidan tashqari Yaponiyaning BMTga qo'shgan hissasi bilan bog'liq muammo shundaki, BMTda faoliyat olib boruvchi yapon xodimlar soni kamdir. BMTda har bir a'zo davlatdan «xodimlarning maqbul soni» BMT Tadqiqot instituti va hokazolarning ma'lumotlariga asosan belgilanadi (7-6). Lekin BMTdagi yaponiyalik vakillarning soni bu ko'rsatkichdan anchagina kam. Shunday ekan, Yaponiya qaysi yo'nalishlarga o'zining xalqaro hissasini qo'shishi kerakligi to'g'risida o'ylab ko'rish zarur.

3 Ixtisoslashgan sohalardagi xalqaro tashkilotlar

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomida (57-modda) turli ixtisoslashgan sohalarda keng ko'lamli xalqaro majburiyatlarga ega va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va Ijtimoiy kengashi bilan sheriklik shart-nomasini tuzgan xalqaro tashkilotlarni «ixtisoslashgan muassasalar» deb nomlaydi. Ixtisoslashgan tashkilot BMTdan mustaqil bo'lgan alohida xalqaro yuridik shaxsdir. Lekin har bir sohada xalqaro hamkorlikni ta'minlash uchun BMT bilan hamkorlik olib boradi. Hozirgi kunda xalqaro hamjamiyatda

7-5 BMTga to'lanadigan odatdagi yillik badal bo'yicha davlatlar ulushi (foizlarda ifodalangan)		2013~ 15 yillar	2016~ 18 yillar	2019~ 21 yillar
1	AQSH 22.00%	AQSH 22.00	AQSH 22.00	AQSH 22.00
2	YAPONIYA 10.83	YAPONIYA 9.68	XITOIY 12.01	XITOIY 12.01
3	GERMANIYA 7.14	XITOIY 7.92	YAPONIYA 8.56	YAPONIYA 8.56
4	FRANSIYA 5.59	GERMANIYA 6.39	GERMANIYA 6.09	GERMANIYA 6.09
5	ANGLIYA 5.18	FRANSIYA 4.86	ANGLIYA 4.57	ANGLIYA 4.57
6	XITOIY 5.15	ANGLIYA 4.46	FRANSIYA 4.43	FRANSIYA 4.43

(Manba: Asahi gazetasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi)

O'рни	Davlat nomi	Xodimlar soni (ayollar)	Xodimlarning maqbul soni			Foizi (%)
			Eng kami	O'rtacha	Eng ko'pi	
1	AQSH	366 (199)	373	(439)	504	12.20
2	Anqliya	151 (60)	92	(109)	125	5.03
3	Fransiya	146 (71)	99	(117)	134	4.87
4	Italiya	133 (65)	80	(94)	108	4.43
5	Germaniya	132 (73)	125	(147)	169	4.40
6	Kanada	89 (39)	56	(66)	75	2.97
7	Yaponiya	81 (51)	186	(219)	252	2.70
8	Xitoy	77 (38)	119	(140)	161	2.57
13	Rossiya	50 (11)	49	(58)	66	1.67
14	Janubiy Koreya	46 (24)	40	(47)	54	1.53
Boshqalar		1730 (729)				
Jami:		3001 (1360)				

Ushbu jadvaldagi xodimlar soni faqat geografik taqsimot tamoyiliga asosan faoliyat olib boruvchi xodimlarni o'z ichiga oladi. Ya'ni, barcha xodimlar bu yerda aks etmagan.


(Manba: «Tashqi ishlar vazirligi moviy hisoboti 2016»)

jami bo'lib 17 ta ixtisoslashgan tashkilot faoliyat yuritadi.

Ushbu ixtisoslashtirilgan muassasalarga, moliya sohasida – Xalqaro valuta jamg'armasi (XVJ), mehnat munosabatlari sohasida – Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), fuqaro aviatsiyasi sohasida – Xalqaro fuqarolik aviatsiyasi tashkiloti (XFAT), Ta'lim, fan va madaniyat sohasida – UNESCO kabilar kiradi. Ularning har biri maxsus sohalarda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun turli xil faoliyatlarni amalga oshiradilar.

Ixtisoslashgan tashkilotlar oldida o'zlariga daxldor bo'lgan maxsus sohalarda professional va texnik jihatdan xalqaro hamkorlikni rivojlantirish vazifasi turadi. Ammo ixtisoslashgan tashkilotlarning xalqaro hamjamiyat siyosiy elementlari, millatlar o'rtasidagi

to'qnashuvlar va mojarolarga aralashishi ham kam uchraydigan holat emas. Agar bunday xalqaro tashkilot o'zi ixtisoslashgan sohasidagi dastlabki tashkiliy maqsadidan chetga chiqib ketgan bo'lsa va haddan tashqari siyosiy omillar yoki nizolarga aralashishni boshlasa, bu «ixtisoslashgan tashkilotning siyosiylashuvi» deya baholanib, tanqidga sabab bo'lgan holatlar ham bor. Misol uchun, Xitoy-Yapon urushi paytida yuz bergan deya da'vo qilinuvchi Nankin qatliomiga oid materiallar 2015-yilda Xitoy tomonidan UNESCOning Umumjahon madaniy yodgorlik merosi obyekti sifatida ro'yxatga olish uchun ariza topshirilgan va UNESCO buni tan olgan. Shunda UNESCO Yaponiyaning ichida bir qism doiralari tomonidan tanqidlarga sabab bo'lgan edi.



(Manba: «Tashqi ishlar vazirligi moviy hisoboti 2015»)

4.4.1 Mintaqaviy xalqaro tashkilotlar

3-bo'limda keltirilgan ixtisoslashgan tashkilotlar universal xalqaro tashkilotlar bo'lib, unga a'zo mamlakatlar butun dunyoni qamrab oladi. Ammo zamonaviy xalqaro hamjamiyatda mintaqaviy xalqaro tashkilotlar ham mavjud va ularga faqat ayrim davlatlar a'zo bo'la oladi. Mazkur turdagi tashkilotlar juda ko'p. Bunday xalqaro tashkilotlar mintaqaviy xalqaro tashkilotlar deb atalib, har bir mintaqada hayotida muhim rol o'ynaydi.

Masalan, Amerikada Amerika Davlatlari Tashkiloti (OAS), Afrikada esa Afrika Ittifoqi (AU) mavjud va ularga a'zo davlatlar sifatida Amerika hamda Afrika mintaqasida joylashgan davlatlar kirgan. Ushbu tashkilotlar hozirda faol ish olib borishmoqda (**kitob boshla-**

nishidagi rangli surat C-14). Bundan tashqari, Lotin Amerikasi va Karib havzasida, shuningdek, Afrikada yuqoridagi kabi ko'p tarmoqli mintaqaviy xalqaro tashkilotlar mavjud (**7-7**).

Boshqa mintaqalarda, xususan, Osiyoda ham o'z mintaqalarida keng ko'lamlil faoliyatni amalga oshiruvchi Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi (ASEAN) (**7-8**) va Arab Ligasi kabi muhim mintaqaviy xalqaro tashkilotlar mavjud. Ushbu tashkilotlar o'z mintaqalarida keng qamrovli faoliyatlarini yuritishmoqda. Shuningdek, Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (APEC) (**7-9**) kabi mintaqaviy kengashlar faoliyat yuritadi. APEC haligacha xalqaro tashkilot sifatida o'zining yuridik shaxs mavqeyini qo'lga kiritmagan bo'lsa-da, unda egiluvchan va ko'p tarmoqli mintaqaviy hamkorlikka asoslangan doiraviy tuzilma qabul

728

ASEAN bosh qarorgohi
(Indoneziya, Jakarta)



(Manba: Jiji xabarlari foto)

qilingan (7-10). Yana shuni ta'kidlash kerakki, harbiy sohada xalqaro hamkorlik qilish uchun Shimoliy Atlantika Shartnomasi Tashkiloti (NATO) kabi mintaqaviy xalqaro tashkilotlar ham mavjudligini e'tiborga olish zarur.

Boshqa tomondan, YeHXT (OSCE) va Yevropa Kengashi (Council of Europe: CoE) kabi mintaqaviy xalqaro tashkilotlar ham Yevropada ko'p tarmoqli faoliyat olib borishmoqda (7-11). Biroq Yevropa mintaqasida alohida diqqatga sazovor holat – bu Yevropa Ittifoqi (EU) mintaqaviy integratsiyasining rivojlanishidir (**kitob boshlanishidagi rangli surat C-15**). Ushbu «Yevropa integratsiyasi» tarixi XVII asrning «Vestfaliya tizimi» va XIX asrning «Vena tizimi»ga asoslangan. Suveren davlatlarning birgalikda mav-


729

Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (APEC) ga a'zo davlatlar



APEC ga a'zo davlatlar

(Manba: Tashqi ishlar vazirligi)



1. 2011-yildan EASga suratan a'zo.

2. ASEMga Yevropa Ittifoqi va uning a'zolari bo'lgan 28 davlatning har biri a'zo.

(Manba: «Tashqi ishlar vazirligi moviy hisoboti, 2015»)


jud bo'lishi uchun zamonaviy xalqaro huquqiy tartib o'rnatgan Yevropa mamlakatlari suveren davlatlarning birgalikda mavjud bo'lishi sharoitida davlatlar o'rtasidagi mojarolar tufayli yuz bergan 2 ta halokatli jahon urushlaridan o'ziga xos saboqlar chiqardi. Bundan kelib chiqib, shu paytgacha faqatgina davlatlar tomonidan egalik qilingan suverenitetni Yevropa Ittifoqi tashkilotiga o'tkazish orqali dunyoning boshqa mintaqalaridan ham oldinga o'tib ketdi.

Boshqa tomondan, Yevropada «integratsiya»ning chuqurlashishi bilan birga, mintaqaviy bo'linish va mustaqillikka qaytish uchun talab va harakatlar o'sib bormoqda (masalan, Shot-

landiya va Ispaniya Kataloniyasi). Shu sababli Yevropa Ittifoqida «iloji boricha odamlarga yaqin darajada qaror qabul qilish» g'oyasini **to'ldiruvchi tamoyil** sifatida belgilash kabi turli g'oyalar sinab ko'rilmogda.

Biroq 2016-yilda Buyuk Britaniyada bo'lib o'tgan referendumda Yevropa Ittifoqi tarkibidan chiqish ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Garchi Buyuk Britaniyaning Yevropa Ittifoqidan chiqib ketishiga biroz vaqt talab etilsa-da (rasmiiy ravishda 2020-yilning 31-yanvar kuni Birlashgan Qirollik Yevropa Ittifoqini tark etdi), mazkur holat Yevropa Ittifoqining kelajak tomonildamlashi hamma vaqt ham silliq kechmasligidan dalolat bermogda.

7-11 Yevropadagi muhim davlatlar birlashmalari



○ Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lishi mumkin bo'lgan mamlakatlar
 ☆ Yevroga a'zo mamlakatlar
 ▬ NATOga a'zo uchun harakatlar rejasi (MAP) ga a'zo davlatlar

- *1 Turkmaniston 2005-yildan boshlab MDHning assotsiatsiyalangan a'zosi.
- *2 O'zbekiston 2012-yildan KXShT (CSTO)ga a'zolikni to'xtatgan.
- *3 Gruziya 2008-yil 18-avgustda MDHdan chiqib ketishini e'lon qilgan. 2009-yil 18-avgustda rasmiy ravishda ushbu tashkildan chiqib ketgan.

CoE (Council of Europe): Yevropa kengashi (47)
 CIS (Commonwealth of Independent States): Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (10)
 CSTO (Collective Security Treaty Organization): Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (6)
 EEA (European economic Area): Yevropa iqtisodiy makoni (31)
 EFTA (European Free Trade Association): Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (4)
 EU (European Union): Yevropa Ittifoqi (28)
 NATO (North Atlantic Treaty Organization): Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti (28)
 OSCE (Organization for Security and Co-operation in Europe): Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (57)

(Manba: «Tashqi ishlar vazirligi moviy hisoboti, 2015»)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hisakazu Fujita, «BMT huquqi». – Tokio universiteti nashriyoti, 1998-yil.
2. Yozo Yokota, «Xalqaro tashkilotlar huquqi». – Yuhikaku nashriyoti, 1999-yil.
3. Tetsuo Sato, «Xalqaro tashkilotlar huquqi». – Yuhikaku nashriyoti, 2005-yil.

4. Toshiki Mogami, «Xalqaro tashkilotlar nazariyasiga oid ma'ruzalar». – Iwanami Shoten nashriyoti, 2016-yil.
5. Hideaki Shiroyama, «Xalqaro ma'muriy boshqaruv nazariyasi». – Yuhikaku, 2013-yil.
6. Katsuhiko Shōji, «Boshlang'ich EU huquqi». – Yuhikaku nashriyoti, 2015-yil.

Chapter 8

Inson huquqlarini xalqaro miqyosda himoyalash – fuqarolik masalasi va inson huquqlari

1.1 Xalqaro hamjamiyatda nega inson huquqlari himoya qilinadi?

Ikkinchi jahon urushidan keyin Inson huquqlarini muhofaza qilish uchun xalqaro hamjamiyatda ko'plab xalqaro shartnomalar qabul qilina boshlandi. Ungacha esa asosan har bir davlatning Konstitutsiyasiga muvofiq inson huquqlari himoya qilib kelingan. Buning sababi – inson huquqlari masalasi har bir davlatning o'z ichki masalasi deya qaralib kelinganidadir. O'sha paytda davlatlar o'rtasidagi aloqalarni tartibga soluvchi xalqaro huquq inson huquqlari bo'yicha «ovoz chiqarmaydi» deya umid qilingan.

Ushbu bobda aynan «inson» bilan bog'liq xalqaro huquq qoidalarini o'rganamiz.

Aslida, xalqaro huquq sohasida «inson» masalasining o'rganilishi Ikkinchi jahon urushidan avval ham bo'lgan. U ham bo'lsa, xorijlik fuqaroga qanday huquqlar taqdim etilishi lozim degan muammoni bartaraf etishdan iborat edi. Bunday holatda xorijlik va mahalliy fuqaroni ajratuvchi «fuqarolik» masalasi ko'tariladi (→ 2). Shuningdek, chegara osha himoya so'rovchi insonlar, ya'ni qochoqlar ham xorijlik bo'lib, aynan ularning himoyasi xalqaro muammoga aylangan (→ 3). Inson huquqlari borasida esa, 1930-yillardan

1940-yillargacha natsistlar Germaniyasi tomonidan yahudiy millatiga zulm qilish va Ikkinchi jahon urushi paytida yuz bergan Holokost (natsistlar Germaniyasi tomonidan yahudiylarni qirg'in qilish)dan olingan saboqlarga asoslanib, BMT tashkil qilinayotgan paytda inson huquqlariga oid modda uning nizomiga kiritildi. Buning natijasida BMTda inson huquqlari davlatlarning ichki masalalari emas, balki «xalqaro miqyosdagi masala»ga aylandi. Xalqaro hamjamiyat har bir davlatdagi inson huquqlari holatiga nisbatan befarq qolmasligini bildirib, inson huquqlari BMTda alohida masala sifatida ko'rib chiqiladigan darajaga ko'tarildi (→ 4).

Biroq BMT Nizomining 1-moddasi «barchaning irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar asosiy erkinliklariga hurmatni rag'batlantirish va rivojlantirishda xalqaro hamkorlikni amalga oshirish»nigina ta'kidlaydi. Ya'ni inson huquqlari ma'nosi batafsil tarzda ochiqqlangan deb ayta olmaymiz. Shu sababli BMT Bosh Assambleyasi o'sha paytdagi Inson huquqlari bo'yicha komissiyaga (Iqtisodiy va ijtimoiy kengash huzuridagi bo'lim) Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini va Inson huquqlari xalqaro paktini ishlab chiqishni topshiradi. 1948-yilda Bosh Assambleya Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyani qabul qildi. Shundan

so'ng Inson huquqlari bo'yicha komissiya ishlab chiqqan loyihaga asoslanib, xalqaro paktlar yuzaga keldi (→ 5). 2006-yilda Inson huquqlari bo'yicha komissiya bekor qilinib, uning o'rniga asosan inson huquqlari muhofazasi bilan shug'ullanuvchi Inson huquqlari kengashi tashkil etildi. Xalqaro hamjamiyatda kelishilgan inson huquqlariga oid shartnomalar mahalliy darajada qanday ijro etilayotganligini esa quyida ko'rib chiqamiz (→ 6).

2 Fuqarolik masalasi

An'anaviy xalqaro huquq davlatlarning huquq va majburiyatlarini belgilashni asosiy maqsad qilgan bo'lib, asosiy huquqiy subyekt bu – davlatlar edi. Shaxslarga davlatni tashkil qiluvchi element sifatidagina qaralgan. Ularga oid an'anaviy xalqaro huquq normallari faqatgina bir mamlakatda yashab turgan xorijlik insonlarga qilinadigan munosabatdan iborat bo'lgan. Aytish joizki, bir davlat aholisi va chet ellik shaxslar o'rtasidagi farq ular qaysi davlat fuqarosi ekanligiga qarab belgilanadi. Shaxs esa o'z fuqaroligi mansub bo'lgan davlat bilan uzviy aloqadorlikda bo'ladi. Aynan o'sha fuqaroligiga asoslanib o'z davlati ichki qonunlaridan kelib chiqadigan majburiyatlar va taqdim etiladigan huquqlarga ega bo'ladi. Chet ellik fuqaroning huquqlari esa o'zi yashab turgan xorijiy davlat tomonidan buzilgan taqdirda ushbu fuqaro mansub bo'lgan davlat uning himoyasini qanday qilib ta'minlashi masalasi an'anaviy xalqaro huquqning diqqat markazida bo'lgan. Shunday paytlarda esa davlat shaxslarga fuqa-


rolik taqdim etishi chegarasi qanday qilib belgilanishi masalasi muhim ahamiyat kasb etgan.

(1) Fuqarolikni olish va yo'qotish

Shaxs tug'ilgan paytda unga qanday asosga ko'ra fuqarolik taqdim etilishi masalasi qon huquqi va tuproq huquqi kabi ikki mezonga asosan hal etiladi (8-1). Ya'ni bola tug'ilgan paytda otasi yoki onasining fuqaroligini taqdim etish **qon huquqi**, bolaning ota-onasi fuqaroligidan qat'i nazar farzand tug'ilgan joyga asoslanuvchi **tuproq huquqi** mezonlari mavjud. Qon huquqini asosan, Yaponiya, Germaniya, Italiya, Xitoy va Janubiy Koreya kabi davlatlar qabul qilgan bo'lsa, tuproq huquqini esa AQSh, Kanada, Avstraliya qoida tariqasida qo'llab keladi.

Fuqarolik kimlarga beriladi? Bu masala kimni o'z aholisi safiga qo'shadi degan ma'noni anglatib, ushbu vakolat to'laligicha davlatga tegishlidir. Har bir davlat aholiga oid siyosat, odatlar va ushbu jamiyatdagi an'analarni e'tiborga olgan holda, kimga fuqarolikni taqdim etish kerakligini belgilaydi. Uning mezoni va tartib-taomillari mahalliy huquq (Yaponiyada «Fuqarolik to'g'risidagi qonun»)da o'rnatiladi. Biroq davlatning ushbu masalaga oid vakolatlari cheklanmagan bo'ladi. Ammo xalqaro inson huquqlariga doir bitimlarda davlatlarning fuqarolikka oid vakolatlariga nisbatan ba'zi cheklovlar keltirilgan (→ **Column**).

Shuningdek, ariza beruvchining xohishiga ko'ra, naturalizatsiya tarzida fuqarolikni taqdim etuvchi usul



Column

Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilish va Fuqarolikka oid qonunning o'zgarishi

Konvensiyaning 9-modda 2-qismida bolaning fuqaroligi masalasida erkak va ayolning tengligi qayd etilgan. Ushbu konvensiyani Yaponiya tasdiqlamoqchi bo'lgan davrda Fuqarolikka oid qonunda agar chet ellik ayol bilan Yaponiyalik erkak turmush qurib ulardan farzand tug'lsa, bolaga Yaponiya fuqaroligini berishga doir «Otdan hisoblanuvchi qon huquqi» qoidasi mavjud bo'lgan. Ushbu normani o'zgartirish esa yaponiyaning Konvensiya qoidalarini buzish holatini keltirib chiqargan. Shuning uchun 1984-yilda chet ellik erkak va yaponiyalik ayoldan tug'ilgan bolaga ham Yaponiya fuqaroligini berishga oid o'zgartirish kiritilib, «ota-ona ikkisinining qonidan hisoblanuvchi qon huquqi» qoidasi o'rnatilgan.

O'zgarishdan oldingi fuqarolikka oid qonun (Ota onadan hisoblanuvchi qon huquqi)

Ota - yapon — Ona - chet ellik

Bola: Yaponiya fuqaroligi

Ota - chet ellik — Ona - yapon

Bola: Yaponiya fuqaroligi

O'zgarishdan keyingi fuqarolikka oid qonun (Ota-ona ikkisinining hisoblanuvchi qon huquqi)

Ota - yapon — Ona - chet ellik

Bola: Yaponiya fuqaroligi

Ota - chet ellik — Ona - yapon

Bola: Yaponiya fuqaroligi

Inson huquqlarini xalqaro miqyosda himoyalash - fuqarolik masalasi va inson huquqlari



ham mavjud. Bunday holatda, ariza beruvchi jismoniy shaxsning fuqarolikni o'zgartirishga bo'lgan xohishi eng yuqori darajada hurmat qilinishi lozim. Bunga qo'shimcha ravishda, ariza berilayotgan davlatda ma'lum bir muddat yashaganlik (masalan, Yaponiyaning Fuqarolik to'g'risidagi qonuni 5-modda, 1-qismi, 1-bandiga ko'ra, qoida tariqasida 5 yil) talabi ham qo'yilishi mumkin. Ya'ni fuqarolik olishni xohlagan shaxs va davlat o'rtasidagi ma'lum bir aloqadorlik bo'lishi lozim deyiladi.

Fuqarolikni yo'qotishning quyidagi ikkita usuli mavjud. Birinchisi, jismoniy shaxsning o'z xohishi bilan fuqarolikdan voz kechish. Ikkinchisi esa jismoniy shaxsning rozilgisiz fuqarolikdan mahrum qilishdir. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 15-moddasida (8-2), davlat o'zboshimchalik bilan fuqaroni u ega bo'lgan fuqarolikdan mahrum etishi mumkin emasligi ta'kidlangan. Chunki jismoniy shaxs rozilgisiz fuqarolikdan mahrum etilganda mazkur shaxs fuqaroligi yo'q shaxsga aylanishi ehtimoli katta.

(2) Fuqarolik kolliziyasi (to'qnashuvi)

Har bir shaxs, albatta, birgina fuqarolikka ega bo'lishi kerakligi haqida **fuqarolikning yagonaligi qoidasi** mavjud. 1930-yildagi Fuqarolikka oid qonunchilikdagi kolliziyalarning ba'zi masalalari to'g'risidagi Gaaga konvensiyasining muqaddimasida bu qoida haqida ta'kidlab o'tilgan. Bunday norma qabul qilinishi ortida urush paytida fuqaroning o'z davlatiga sodiqlik va harbiy xizmatni o'tash majburiyati

1. Har bir insonning fuqaro bo'lish huquqi bor.

2. Hech kim o'zboshimchalik bilan o'z fuqaroligidan yoki o'z fuqaroligini o'zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas.

borligi turadi. Chunki shaxslarning ko'p fuqarolikka ega bo'lishlari davlatlarga bir qancha noqulayliklar tug'diradi degan qarash ustuvor bo'lgan. Biroq har bir davlat o'ziga xos, bir-biridan farq qiladigan fuqarolikni taqdim etish qoidalari va jarayoniga amal qiladi va o'z ichki qonunlariga asosan fuqarolikni taqdim etadi. Shuning uchun jismoniy shaxs bir paytning o'zida bir necha davlat fuqarosiga aylanishi (**ko'p fuqarolik**) yoki aksincha fuqarolikka ega bo'lmasligi (**fuqarosizlik**) mumkin. Ayniqsa, globallashib borayotgan hozirgi xalqaro hamjamiyatda fuqarolarning o'z davlatlaridan chiqib o'zga davlatda migrant ishchi (xorijlik ishchi, migrant) sifatida ishlashlari ko'paymoqda. Migrant ishchilar nuqtayi nazaridan qaraganda nafaqat tug'ilgan davlati fuqaroligi, balki ko'chib kelib yashayotgan chet el davlati fuqaroligi ham ularga taqdim etilsa ayni muddao bo'ladi. Biroq bu har doim ham ijobiy natijalarni keltirib chiqaradi deb ayta olmaymiz. Chegaralar osha insonlarning ko'chishi osonlashgan bugungi kunda ko'p fuqarolikka ega insonlar (fuqarolikning faol kolliziyasi) tobora ko'payib bormoqda. Shu bilan birga, bunday holat ko'plab davlatlarda tan olina boshlanganini ham alohida ta'kidlash lozim.

Adliya vazirligi Fuqarolik ishlari bo'yicha boshqarma boshlig'ining xabarnomasi (1952-yil 19-aprel)

Yaponiya fuqaroligini bekor qilish

Jahon merosi sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan Preah Vihear ibodatxonasi Tailand va Kambodja davlatlari chegarasi yaqinida joylashgan. Tailand hukumati Kambodja bilan davlat chegaralari tog' daryosi suvlarining bo'linish joyidan boshlanishini asos qilgan holda, 1904-yildagi bitimga ko'ra ibodatxona Tailand davlatiga tegishli ekanini iddao qilgan. ICJ esa Tailand davlati bu masala bo'yicha ertaroq da'vo bilan chiqish imkoniga ega bo'lganligiga qaramay, uzoq muddat uni bu masalani ko'tarmagani ibodatxonaga nisbatan Kambodja davlatining hududiy suverenitetini tan olganini anglatishini ta'kidlaydi. Natijada, Tailand hukumatining da'vosi rad etiladi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Koreya yarim oroli va Tayvan San-Fransisko shartnomasi (San Fransisko tinchlik shartnomasi) (1951-yil 8-sentabrda imzolangan, 1952 yil 28 aprelda kuchga kirgan) ga ko'ra Yaponiya hududidan ajralib chiqdi. Natijada, o'sha hududlarda yashovchi insonlarning fuqaroligi muammoga aylandi. 1952-yil 19-aprelda Fuqarolik ishlari byurosi bu masala quyidagi tartibda ko'rib chiqilishini ma'lum qildi.

Koreya va Tayvan munosabatlari

San-Fransisko tinchlik shartnomasi kuchga kirgan kundan boshlab Koreya va Tayvan Yaponiya hududidan ajralib chiqadi. Shunga ko'ra barcha koreyslar va tayvanliklar, shu jumladan, ichki hududda yashovchilar ham yapon fuqaroligini yo'qotadilar.


Hatto kishi koreys yoki tayvanlik bo'lsa ham, agar u rezident shaxs, yashil guruh va boshqalar bilan nikoh davri tufayli oilaviy ro'yxatga olingan bo'lsa, shartnoma kuchga kirgunga qadar ro'yxatda bo'lgan rezident shaxs hisoblanadi. Qonun kuchga kirganidan keyin ham ular Yaponiya fuqaroligida qoladilar.

Shartnoma kuchga kirgunga qadar koreyalik yoki tayvanlik bilan nikoh, farzandlikka olish va hokazo sabab rezidentlik ro'yxatga olish kitobidan chiqarilgan shaxslar, koreyslar yoki tayvanliklar shartnoma kuchga kirishi bilan Yaponiya fuqaroligini yo'qotadi.

Boshqa tomondan esa, hech qaysi davlat tomonidan fuqaro sifatida ko'rilmaydigan fuqaroligi yo'q shaxs-

larni (fuqarolikning passiv kolliziyasi) himoyalovchi davlat mavjud emasligi xalqaro hamjamiyatda muammo sifatida ko'rilmoqda. Aslida, xalqaro hamjamiyat Fuqarolikka oid qonunchilikdagi kolliziyalarning ba'zi masalalari to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi, fuqarosizlik holatlariga doir protokol va alohida protokol orqali fuqarosizlikning oldini olishga harakat qilib kelmoqda. Shunday bo'lsa-da, BMTning Qochoqlar ishlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi (UNHCR) 2015-yil holati bo'yicha dunyoda hali hamon 10 millionga yaqin fuqarolikka ega bo'lmagan shaxslar borligini taxmin qiladi. Yaponiyada yashovchi chet ellik insonlar orasida fuqaroligi yo'q shaxs sifatida ro'yxatdan o'tganlar soni taxminan 600 nafarni tashkil etadi (2016-yil iyun holatiga ko'ra).

Biroq shaxslar fuqarolikka ega bo'lganda ham davlatda ichki nizolar boshlanib, hukumat faoliyat yurita olmay qolishi natijasida davlat o'z fuqarolarini yetarli darajada himoya qila olmay qolishi mumkin. Shuningdek, chet elda yashovchi o'z fuqarosini davlat himoya qila olmay qoladigan holatlar ham yo'q emas. Bunday insonlar «**amaldagi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar**» deb ataladi. Xulosa o'laroq shuni aytishimiz mumkinki, har bir davlat fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning sonini kamaytirish uchun, fuqarolikni keng qamrovda taqdim etishni ichki qonunlarida belgilashi hamda naturalizatsiyani oshirib, o'z yurisdiksiyasi ostidagi insonlarga yetarlicha himoyani taqdim etishi eng muvofiq yo'ldir.



(Manba: BMT veb-sayti)

(3) Xorijiy fuqaroning huquqiy maqomi

Fuqaroligiga ko'ra davlat fuqarosi va chet ellik bo'lgan shaxs huquqiy jihatdan farqlanadi. Chegara osha harakatlanuvchi migrant ishchilar, boshqa davlatga qochib o'tib u yerda qochoq maqomini olgan qochoqlar yoki o'sha yerga o'rnatilgan migrantlar xorijliklar sifatida shu davlatda istiqomat qilishadi. Shu bilan birga, ular yashovchi davlatning ichki qonunlariga ko'ra naturalizatsiya (boshqa davlat fuqaroligiga o'tish) usuli yoki vaqtinchalik yashash ruxsatnomasini taqdim etish orqali ularga bu davlatda yashashga ruxsat beriladi. Chet ellik shaxslarning ushbu mamlakatda yashash maqomi ichki qonunlar bilan tartibga solinadi. Chegaralardagi to'siqlar bir qancha kamaygan bugungi kunda xorijda istiqomat qiluvchi shaxslarning soni tobora ko'payib (8-3), aynan shu sababga ko'ra, ularning maqomi masalasi ham ichki, ham xalqaro nuqtayi nazardan katta muammoga aylangan.

Xalqaro huquqda qadim tarixdan xorijiy fuqaroga qanday huquqiy

munosabatda bo'lish lozim degan masala ko'tarib kelinadi. Umumiy xalqaro huquqqa ko'ra, davlatlar o'z fuqarolarining mamlakat ichiga kirib kelishiga to'sqinlik qila olmasalar-da, chet elliklarning kirib kelish yoki kelmasligini o'z ixtiyorlari bilan hal eta oladilar. Chet elliklar kirib kelishlari uchun ulardan viza olish talab qilinadi. Vizaga hujjat topshirish tartib-taomillari esa har bir davlatda farqlanadi. Boshqacha qilib aytganda, fuqaroning o'z vataniga qaytish va unga kirib kela olish huquqi mavjud bo'lsa-da, chet elliklarning o'zga bir mamlakatga kirib kelishi va u yerda yashay olishi ularga tegishli bo'lgan huquqi sifatida baholanmaydi.

Ikkinchi tomondan esa, chet ellik shaxsning mamlakatdan chiqib ketishiga oid qoidalar biroz farqlanadi. Chet ellik shaxsning bir davlatdan chiqishi o'z ixtiyoriga ko'ra va majburiy ravishda amalga oshiriladigan ikki shaklga egadir. Xorijlik shaxsning ixtiyoriy ravishda mamlakatni tark etishini o'sha shaxs yashab turgan davlat rad qila olmaydi (Fuqarolik va siyosiy huquqlar

to'g'risidagi xalqaro pakt, 12-modda, 2-qism). Lekin davlat xavfsizligi, jinoyatchilik holati, sanitariya-gigiyena masalalari mavjud bo'lsa, davlat xorijiy shaxsning davlatni tark etishiga cheklov qo'ya oladi (yuqoridagi Pakt 12-modda, 3-qism). Xorijiy shaxsni majburiy ravishda mamlakatdan chiqarish usuli sifatida majburan yuborish, deportatsiya va jinoyatchini topshirish usullari bor. Uzoq muddat davomida yuqoridagi usullar orqali xorijlik shaxslarni chiqarib yuborishga davlatlarning o'z ixtiyori doirasidagi vakolat sifatida qarab kelingan. Biroq hozirda xalqaro inson huquqlarining rivojlanishi tufayli bazida davlatlar ham cheklovlarga uchramoqda. Xususan, o'zboshimchalik bilan chet ellik shaxsni deportatsiya qilish yoki xalqaro inson huquqlari shartnomalariga zid ravishda majburan davlatdan chiqarib yuborish xalqaro huquq tomonidan tan olinmaydi (yuqoridagi Pakt 13-modda).

Chet ellik shaxs o'zga mamlakatga kirib kelgandan keyin shu davlat yurisdiksiyasi ostida bo'ladi. Natijada chet ellik shaxs bo'lishiga qaramay o'zi yashab turgan davlat qonunlari unga ham tatbiq etilib, sud yurisdiksiyasi obyektiga aylanadi (Tegishlilik tamoyili, qarang **Chapter 3**). Chet ellik shaxs o'zi istiqomat qilayotgan davlat qonunlariga muvofiq turmush kechiradi va o'sha davlat qonunlariga ko'ra uning huquqlari ta'minlanadi. Bundan tashqari mazkur davlat qo'shilgan xalqaro inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro shartnomalar normalariga muvofiq huquqiy himoyasi kafolatlanadi. Inson huquqlariga doir xalqaro

shartnomalar bir davlat fuqarosi va u yerda istiqomat qiluvchi chet ellik shaxslar, shuningdek, chet ellik shaxslarni hech qanday kamsitishsiz huquqlari kafolatlanishini anglatuvchi kamsitmaslik tamoyilini belgilaydi. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalarga qo'shilgan davlatlar bunday shartnomalardan kelib chiquvchi huquq va majburiyatlarni nafaqat o'z fuqarolariga nisbatan, balki o'z hududlarida yashab turgan chet elliklar uchun ham tan olishadi.

(4) Diplomatik himoya

Ba'zan bir xorijiy davlat (A) tomonidan boshqa bir davlat (B) fuqarolarining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga nisbatan zarar yetkazilish holatlari sodir bo'ladi. Shunday holatlarda ziyon ko'rganlar o'zlariga ziyon keltirgan xorijiy davlatning (A) mahalliy sudlariga murojaat etishadi. Biroq qoniqarli javob bo'lmaganda, huquqlari buzilgan fuqaroning davlati (B) zarar yetkazgan xorijiy davlatga (A) nisbatan xalqaro darajadagi da'vo qo'zg'ata oladi. Bu esa davlatlarga tegishli bo'lgan diplomatik himoya huquqidir. Diplomatik himoya huquqidan foydalanish uchun esa ikki talabni qondirish zarur.

Birinchisi, zarar yetkazilgan shaxslar zarar yetkazgan mamlakat qonunida belgilangan barcha yordam choralariidan foydalanishi lozimligini anglatuvchi **mahalliy yordam choralaridan to'liq foydalanish qoidasi**dir. Ushbu qoida zarar yetkazilgan shaxslar bilan bog'liq masala davlatlar o'rtasidagi nizoga aylanib ketmasligining oldini olish uchun o'rnatilgan. Yana bir qoida esa zarar yetkazilgan shaxslarning fuqaro-

ligi shaxsga zarar yetkazilgan vaqtdan boshlab diplomatik himoya huquqi qo'llanilguniga qadar o'zgarmasligini talab etuvchi **fuqarolikning davomiy-
ligi qoidasi**dir. Ushbu qoida aloqasi bo'lmagan davlatlarning ushbu ishga aralashuvining oldini olish uchun joriy etilgan. Shuningdek, inson huquqlariga oid shartnomalar tuzila boshlagach, ularga asoslangan holda davlatlar xalqaro sudlarda inson huquqlari standartlari buzilgan deya da'vo qo'zg'ata boshladilar. Zarar yetkazilgan fuqarolarning davlatlari tomonidan diplomatik himoya huquqini qo'llash holatlari ham yuzaga kela boshladi.

Diplomatik himoya huquqining ko'p fuqarolikka ega shaxslarga nisbatan qo'llanilishida jabrlangan shaxslar bilan aloqasi kuchli davlat e'tiborga olinadi. Misol uchun, yashab kelayotgan davlat yoki shaxs iqtisodiy jihatdan kuchliroq bog'langan davlat amaliy tarzda diplomatik himoyani qo'llash huquqiga ega bo'ladi. Bunday holatni **haqiqiy bog'liqlik nazariyasi** deb ataladi. Shuningdek, agar ko'p fuqarolikka ega shaxsga o'zi tegishli bo'lgan biron-bir davlat (A) ziyon yetkazadigan bo'lsa, shaxsni himoya qilishga oid diplomatik himoya huquqi o'sha shaxs tegishli bo'lgan boshqa bir davlat (B) tomonidan qo'llanilishi mumkinligiga oid ikki nazariya o'rtasida ziddiyatlar mavjud. Birinchi nazariyaga ko'p fuqarolikka ega fuqaro tegishli bo'lgan davlatlar o'rtasida bunday himoya huquqini qo'llash mumkin emas desa, ikkinchi nazariya esa fuqaro ko'proq bog'liq bo'lgan davlat tomonidan fuqaroning bog'liqligi past davlatga nisbatan dip-

lomatik himoya qo'llanilishi mumkinligini da'vo qiladi. Yaqin yillarda esa, inson huquqlari himoyasini ko'proq o'ylagan holda, ko'pfuqarolikka ega shaxslar zarar ko'rgan paytlarda ham ular ko'proq bog'liq bo'lgan davlat tomonidan boshqa bir fuqaroligini bergan davlatga nisbatan diplomatik himoya huquqini qo'llash amaliyoti kuchayib bormoqda.

Boshqa tomondan esa, fuqarolikka ega bo'lmagan jismoniy shaxslar va qochoqlar diplomatik himoya tizimidan chiqarib yuborilgan. Buning sababi shundaki, yo bunday toifa insonlarni diplomatik himoya qiluvchi davlat topilmaydi, yoki jabrlangan shaxslar ularga nisbatan diplomatik himoya huquqini amalga oshirilishini istashmaydi. So'nggi yillarda bunday toifadagi shaxslarga nisbatan ular yashab turgan davlat diplomatik himoyani amalga oshira olishiga oid fikrlar ilgari surilmoqda (Diplomatik himoya to'g'risidagi xalqaro shartnoma loyihasi 8-modda).

3 **Qochoqlar himoyasi**

(1) Qochoqlarni himoyalash bo'yicha davlatlar vakolati

Qochoqlar deb, o'z mamlakatlardagi siyosiy va boshqa sabablarga ko'ra ta'qib va bosimlardan qochish uchun boshqa mamlakatlardan yordam so'rab ko'chib kelgan shaxslarga aytiladi (8-4). Davlatlar o'z hududlarini boshqarishga doir mutlaq suverenitetga ega bo'lganliklari tufayli o'z hududlariga kirib kelgan qochoqlarni himoyalari ostiga olishlari mumkin. Bunday tarzda **hududiy boshpanani** qo'lga

kiritgan qochoqlar o'z davlatlarining ta'qibidan himoyaladilar.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 14-modda 1-qismida, har bir inson ta'qib tufayli boshqa mamlakatlardan boshpana izlash va o'sha boshpanani qo'lga kiritish huquqiga egaligi belgilangan. Biroq undan keyin ushbu deklaratsiyani shartnoma holiga keltirgan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi paktda (→ 4) ushbu huquq qayd etilmagan. Shuningdek, BMT Bosh Assambleyasining hududiy boshpana berishga doir deklaratsiyasi (22/2312)da davlatlar tomonidan beriladigan boshpana himoyasini hurmat qilish lozimligi qayd etilib, qochoqlarni yana qaytadan o'zlari ta'qib qilinayotgan davlatlarga qaytarilishining taqiqlanishi aniq ko'rsatib o'tilgan. Shunday bo'lsa-da, jismoniy shaxslarning huquqi sifatida boshpana huquqi to'liq shakllangan deya ayta olmaymiz.

(2) Qochoqlar himoyasi va «qochoqlar» atamasi ta'rifi

1917-yilda Rossiyada inqilob yuz bergach, juda ko'p insonlar mamlakat tashqarisiga qochib chiqqanligi uchun xalqaro darajada katta muammoga aylandi. Shunda, Millatlar Ligasi 1921-yilda Frityof Nansenni Qochoqlar ishlari bo'yicha ilk oliy komissar (8-5) etib tayinladi. Nansen qochoqlarni himoyalab, ularga Nansen vizasi (passport) (→ **kitob boshlanishidagi rangli surat C-2**)ni taqdim etgan holda, qochoqlarning chegara osha harakatini osonlashtirdi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin esa Yevropada juda ham ko'p sonli qo-

8-4 Qayiq insonlari (boat people)



Qayiqlarda boshqa davlatlarga ko'chuvchi insonlarni «boat people» deb ham ataladi. Yuqoridagi surat 2014-yili Afrikadan chiqib O'rta Yer dengizi osha Yevropani ko'zlab ketayotgan insonlarni aks ettirgan.

(Manba: Alamy/PPS xabarlari)

choqlar paydo bo'lgani tufayli Bosh Assambleyani to'ldiruvchi tashkilot sifatida Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi (UNHCR) 1950-yilda tashkil etilib, qochoqlar ishlariga mas'ul tashkilot sifatida belgilandi. Keyinroq qochoqlar huquqiy maqomi to'g'risidagi ko'ptomonlama shartnoma imzolanib, unda qochoq atamasiga ta'rif berildi (→ **kitob boshlanishidagi rangli surat C-6**).

Qochoqlar maqomi to'g'risidagi Konvensiya va Qochoqlar maqomi to'g'risidagi protokolda nazarda tutilgan **bitim qochoqlari** deb, irqi, dini, fuqaroligi, ma'lum bir jamiyatga a'zligi, siyosiy qarashi tufayli ta'qibga uchrashi uchun yetarlicha xavf mav-



Norvegiyaning qutb mintaqalari tadqiqotchisi bo'lgan Nansen Millatlar Ligasining Qochoqlar ishlari bo'yicha ilk oliy komissari etib tayinlangan.

(Manba: Mary Evans/PPS xabarlari)

judligi, o'sha shaxsning o'z davlati tomonidan himoya qilinmasligi, o'sha shaxsning o'z davlatidan tashqarida turganligi kabi uch talabga javob beradigan shaxslarga aytiladi. Shuning uchun qochoqlar konvensiyasi obyekt bo'la oladigan qochoqlar doirasi cheklangan deb ayta olamiz. Boshqa tarafdin esa, qochoqlarga oid mintaqaviy darajada tuzilgan shartnomalarda qochoqlarga kengroq ta'rif berilgan. Misol uchun, Afrika qochoqlar konvensiyasi (The Organisation of African Unity (OAU) Convention Governing the Specific Aspects of Refugee Problems in Africa, 1969)da, yuqoridagi qochoqlarga berilgan ta'riflarga qo'shimcha ravishda qochoq deb tan olinishning asoslari sifatida chet mamlakat yoki xorijdan bo'ladigan hujum, bosib olish, ommaviy tartibning katta miqdorda

izdan chiqishi kabi holatlar ham qayd etilgan. Shuningdek, Lotin Amerikasi davlatlari tomonidan qabul qilingan Kartaxena Deklaratsiyasi (1984-yil)da kuch ishlatishning ommaviylashib ketishi, ichki tartibsizliklar, keng miqdordagi inson huquqlari buzilishi ham qochoqlar guruhlarini vujudga keltirish sabablari sifatida keltirib o'tilgan.

(3) Qochoq sifatida tan olinish va har bir davlat tomonidan boshpana berilishi

Qochoqlar to'g'risidagi konvensiya qochoqlar ta'rifini yuqoridagi keltirilganidek ta'riflasa-da, insonlarga qochoq maqomini berish har bir davlatning ixtiyorida qoldirilgan. Bunda har bir davlat o'z ichki qonunlarida o'rnatilgan tartibga ko'ra insonlarga qochoq maqomini taqdim etadi. Yaponiyada esa qochoqlarga oid konvensiya ratifikatsiya qilingan paytda yangi qabul qilingan «Immigratsiyani boshqarish va qochoqlar maqomini berish» to'g'risidagi qonun amalga kiritildi.

Qochoq sifatida tan olinib, boshpana beriladigan bo'lsa, ushbu jismoniy shaxs unga boshpana bergan davlatda qochoqlar to'g'risidagi konvensiyada qayd etilgan bir qancha huquqlarni qo'lga kiritadi. Kamsitishni taqiqlash, vijdon erkinligi, turli uyushmalarga birlashish kabi fuqarolik va siyosiy huquqlar, shu bilan birga, ishlash huquqi, ta'lim olish huquqlari ham tan olinishi mumkin. Shuningdek, mehnat huquqi va ijtimoiy himoyani olish huquqlari ham mahalliy huquq tizimi orqali ta'minlanadi.

Qochoqlarga beriladigan himoya borasida gap ketganda eng muhi-



(Manba: AP/Afloimages=Jiji)

mi – bu **non-refulman** (the principle of non-refoulement) (deportatsiya, qaytarib berishni taqiqlash qoidasi. Qochoqlar to'g'risidagi konvensiya 33-modda) **qoidasidir**. Bunga ko'ra, ta'qib qilinishi mumkin bo'lgan mamlakatga qochoq shaxsni deport qilish yoki jo'natish man etiladi. Ushbu qoida allaqachon xalqaro odat huquqiga aylangan bo'lib, qochoqlar konvensiyasi tarafi bo'lmagan davlatlar ham amal qilishi lozim hisoblanadi.

(4) Qochoqlar muammosining yechimi va UNHCRning o'rni

UNHCR, insoniylik nuqtayi nazaridan nizolar va ta'qiblar tufayli o'z vatanlarini tashlab chiqqan qochoqlar himoyasi va qochoqlar muammosini yechishga yo'naltirilgan xalqaro harakatda markaziy o'rinni egallaydi. Shuningdek, muvofiqlashtirish vazifasini ham bajaradi. U tashkil etilgan dastlabki davrlarda, qochoqlar muammosini hal etish uchun vaqtinchalik tashkilot sifatida qaralgan. Lekin 2003-yili BMT Bosh Assambleyasi UNHCRni yarim-doimiy tashkilotga o'zgartirdi.

Qochoqlar muammosini butunlay hal etish usuli sifatida, UNHCR quyidagilarni keltiradi: qochoqlarning o'z vatanlariga ixtiyoriy qaytishi, qochoqqa ilk boshpana bergan davlatda ularning mahalliylik ketishi, shuningdek, o'z davlati va ilk ko'chib o'tgan davlatidan ham boshqa uchinchi bir davlatda ularning mahalliylik ketishi. Qochoqlarning o'z davlatlariga ixtiyoriy qaytishlari UNHCR Nizomidan kelib chiqqan bo'lib, BMT Bosh Assambleyasi ham uni tasdiqlagan. Bunday holatda, non-refulman qoidasiga muvofiq, qochoq o'z vataniga qaytsa ham ta'qibga uchrashmasligi ta'minlanishi lozim. UNHCR va qochoqqa boshpana bergan davlat esa qochoqning o'z davlati haqida qochoq shaxsiga ma'lumot taqdim etib, qochoq inson o'z ixtiyoriga asoslanib davlatiga qaytadi. UNHCR esa qochoqlarni o'z vatanlariga qaytarish-nigina emas, balki ular qaytgach o'z vatanlarida yana qaytadan mahalliy aholiga qo'shilib keta olishlari uchun ham yordam ko'rsatadi.

Uchinchi bir davlatga borib mahalliylik esa ilk bor boshpana berilgan davlatdagi qochoqning o'z vataniga qayta olmaydigan holatda ilk boshpana olgan davlatdan yana bir boshqa davlatga ko'chib mahalliylik shishini anglatadi. Aksariyat hollarda, UNHCR o'rtada vositachi sifatida bo'lib, uchinchi davlatni qochoqlarga tanishtiradi. Biroq uchinchi bir davlatga borib joylashish loyihalarini dunyoda ko'pgina davlatlar amalga oshiradi deya olmaymiz. 2010-yilda Osiyoda birinchi bo'lib Yaponiya ushbu tizimni yo'lga qo'yib, Tailanddagi qochoqlar lagerida yashayotgan myanmalik qochoqlarni 2014-yilgacha 5 yil davomida 18 ta oila (jami 86 kishi)ni qabul qildi. Shuningdek, 2015-yildan boshlab 2016-yilgacha Malayziya shaharlarida joylashgan myanmalik qochoqlardan 31 oila (jami 123 kishi)ni qabul qildi.


(5) Boshpana berilishi lozim bo'lgan shaxslar

Qochoqlar konvensiyasi qochoq maqomi berilib himoya qilinadigan shaxslarni o'z davlatlaridan tashqarida turadigan shaxslar deya tariflaydi. Biroq dunyoda Sovuq urush tugagach, dunyoning turli nuqtalarida yuz bergan nizolar sababli chegara oshmagani, ammo o'z vatanida qolib, **mahalliy ko'chirilgan insonlarga** (Internally displaced People: IDPs) aylanganlar ko'paydi. Bunday toifa insonlar o'z davlatlaridan chiqmay ichkarida qolganliklari uchun qochoqlar konvensiyasidagi «qochoq» kategoriyasiga tushmaydi. Ularni himoya qilish bo'yicha eng birinchi mas'uliyat esa ular istiqomat qilayotgan davlatga


tushadi. Shunday bo'lsa-da, yashab o'rganib qolgan joyidan ayrilishga majbur bo'lgan mahalliy ko'chirilgan insonlar duch keladigan mashaqqatlar xorijdagi qochoqlar muammolariga o'xshab ketadigan holatlar juda ham ko'p. 2005-yili BMT bunday mahalliy ko'chirilgan insonlar inqirozidan chiqib ketish uchun UNHCR vakolatini kengaytirib, o'z davlatlari ichida qolgan insonlar muammosini ham UNHCRga yukladi. UNHCR hozirda mahalliy ko'chirilgan insonlar himoyasi va ular yashayotgan lagerlar masalasini muvofiqlashtirish va boshqarishni amalga oshirmoqda. 2015-yil holatiga ko'ra, dunyoda 40.800.000 ga yaqin shunday toifa insonlar bo'lib, UNHCR ulardan 32.300.000 nafarini qo'llab-quvvatlamoqda. Ayniqsa, mahalliy ko'chirilgan insonlar ko'p mamlakatlarga Suriya, Nigeriya, Iroq, Kongo Demokratik Respublikasi va Janubiy Sudan davlatlari kiradi (8-6).

(6) Yaponiya va qochoqlar muammosi

Ikkinchi jahon urushidan avval, Yaponiya davlati Rossiyada yuz bergan Oktabr inqilobi paytida qochib kelgan qochoqlarni qabul qilgan. 1978-yildan boshlab esa Vyetnam urushi tugashi munosabati bilan yuzaga kelgan Indoxitoy qochoqlarini Vazirlar Mahkamasini maxsus qarori bilan qabul qilgan. Ushbu jarayon 1978-yildan 2005-yilgacha amalda bo'lib, 11.300 dan ziyod insonlar Yaponiyada qo'nim topgan. Ta'kidlash joizki, ushbu insonlarning barchasini ham «1951-yilgi konvensiyada nazarda tutilgan qochoqlar» deb ayta olmaymiz.



(Manba: Immigratsiya xizmatlari agentligi veb-sayti)



(Mamlakatga kirish, chiqish va unda bo'lib turish bo'yicha agentlik statistikasi asosida tayyorlandi)

Indo-xitoy qochoqlari turtki bo'lib, Yaponiya 1982-yilda Qochoqlar konvensiyasiga qo'shildi. Yaponiyada qochoq maqomini qo'lga kiritish uchun, avvalo, viloyatlardagi immigratsiya byurolariga ariza topshiriladi. Qochoqlar holatini o'rganuvchi inspektor (nanmin chosakan) suhbatidan o'tiladi va eng so'nggida Adliya vaziri qochoq maqomini berish yoki bermaslikka oid qaror qabul qiladi. Arizachining qochoq maqomini qo'lga kiritish to'g'risidagi arzi qoniqtirilmasa, qaror ustidan shikoyat qilishga haqli (8-7). 2005-yildan boshlab qaror ustidan shikoyat qilish taomili **qochoqlik maqomini tekshirish maslahatchisi** (nanmin shinsa sanyoin) nomli maxsus mutaxassislikka ega uchinchi shaxslarning ishtirokini ta'minlagan usulni joriy etish orqali qochoq maqomini berishning odilligi va betarafligi kuchaytirildi. Shunday bo'lsa-da, tizim o'zgarishi qochoq maqomi berilishi sonini ko'paytirganicha yo'q (8-8). Qayta

ta'kidlab o'tish joizki, qochoq sifatida jismoniy shaxs tan olingach, qochoqlar konvensiyasida belgilanadigan huquqlarga ega bo'ladi (8-9).

4 BMT tomonidan amalga oshiriladigan xalqaro darajadagi inson huquqlari himoyasi

Ikkinchi jahon urushi xalqaro darajada inson huquqlarini himoyalash bo'yicha burilish nuqtasi bo'ldi. Absolyutizmga qarama-qarshi o'laroq, demokratiyani kuchaytirishni maqsad qilgan ittifoqdosh mamlakatlar 1941-yilda AQSh prezidenti Ruzvelt tomonidan o'rtaga tashlangan 4 erkinlikka (so'z erkinligi, vijdon erkinligi, kambag'allikdan qutulish erkinligi, qo'rquvdan qutulish erkinligi) asoslanib urushdan keyingi yangi dunyo tartibini o'rnatdi. U esa hamma uchun ochiq bo'lib, tinchlikka asoslangan tashkilot BMT edi. BMT o'zining nizomida fundamental inson huquqla-



Qochoqlarga o'zlari turgan davlatdan pasport berilmasa-da, davlatlarga kirib-chiqish uchun shunday hujjat kerak bo'ladi. Shu sababli ham, Yaponiyaning Adliya vazirligi qochoqlarga nisbatan Qochoqlarning sayohat qilish guvohnomasini taqdim etadi.

(Manba: Yaponiya Tashqi ishlar vazirligi veb-sayti)

rining qo'riqlanishini tashkilotning maqsadlaridan biri sifatida belgiladi.

Shunday bo'lsa-da, BMT Nizomini unga a'zo bo'lgan mamlakatlarga qanday huquqiy majburiyatlar yuklashi ma'lum emas edi. Shu sababli ham, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash (EKOSOS) amalda faoliyat ko'rsatuvchi organ sifatida Inson huquqlari komissiyasini tuzib, inson huquqlariga oid shartnomalar loyihasini ishlab chiqishni aynan ushbu komissiyaga yukladi. Komissiya ishining bir qismi sifatida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948-yilda BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasi (217(II)A) sifatida qabul qilindi. Ushbu rezolyutsiyada, davlat-

larga nisbatan ularning inson hayotiga asossiz aralashuvidan qochishini talab etuvchi fuqarolik va siyosiy huquqlar, ya'ni yashash va shaxsiy daxlsizlik huquqi, o'zboshimchalik bilan qamoqqa olishning taqiqlanishi, vijdon erkinligi, qiynoqqa solishning mumkin emasligi, teng huquqlilik, mitinglar o'tkazish va uyushmalar tuzish erkinligi ochiq-oydin belgilab qo'yildi. Shuningdek, davlatlarning faol ravishda inson hayotiga aralashishini talab etuvchi ijtimoiy huquqlar bo'lgan insonlarning ijtimoiy himoyalani huquqi, mehnat huquqlari ham belgilandi. Bundan tashqari, siyosiy hayotda qatnashish huquqi, mulk huquqi, madaniyatga oid huquqlar kabi 30 ta moddaga uzaygan inson huquqlari joy oldi. Ushbu rezolyutsiyaga nisbatan kommunistik davlatlar lageri va islom davlatlari ovoz berishdan voz kechgan bo'lsalar-da, uni qabul qilishga qarshi ovoz bergan davlat bo'lmaganligini qayd etish zarur.

Inson huquqlari deklaratsiyasi qabul qilingach, Inson huquqlari komissiyasi majburiy xarakterga ega bitimlarni ishlab chiqish borasida bosh qotira boshladi. Shundan so'ng komissiya «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt» bilan «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt»ni tuzib chiqib, BMT Bosh Assambleyasi ularning har birini 1966-yilda xalqaro shartnoma sifatida qabul qildi. Undan keyin ham Inson huquqlari komissiyasi o'z faoliyatini davom ettirib, turli xildagi inson huquqlariga oid xalqaro shartnoma loyihalarini tayyorlashda davom etdi (→ 8-11). Inson huquqlariga oid

ushbu shartnomalarda muhofaza qilinadigan huquqlar va shartnomani amalga oshiradigan organning tuzilishi (shartnomaviy organ), uning tartibtaomili kabi masalalar joy olgan. Shartnomaviy organ bu – shartnomaga a’zo bo’lgan davlatlar yig’ilishida o’sha davlatlar tomonidan xususiy shaxs sifatida saylanib tuziladigan organ (komissiya) dir. Ushbu organlar shartnomalarga a’zo davlatlarda shartnomalar normalari – inson huquqlari himoyasi qanday amalga oshirilayotganligini tekshirib turish vazifasini bajaradilar. BMT kotibiyati (Inson huquqlari bo’yicha Oliy komissar boshqarmasi) bunday organlarga nisbatan texnik yordam va yig’ilish uchun joylar ajratadi. Ammo BMTga a’zo davlatlar bilan inson huquqlari bo’yicha xalqaro shartnomalarga a’zo davlatlar, albatta, bir xil bo’lmagani bois, shartnomaviy organlar BMTdan alohida tashkilot hisoblanadi.

BMT Nizomi inson huquqlarini himoyalashni amalga oshiruvchi BMTning organi sifatida BMT Bosh Assambleyasi va EKOSOSni belgilagan. Shundan keyin esa BMT faoliyatining rivojlanishi bilan bir qatorda, yangi organga ushbu faoliyatni amalga oshirish vazifasi yuklandi. Avvalambor, 1993-yilda Butundunyo inson huquqlari konferensiyasining tavsiyasiga binoan va BMT rezolyutsiyasiga asoslanib, Inson huquqlari bo’yicha Oliy komissar boshqarmasi tuzildi. 2006-yilda esa Inson huquqlari komissiyasining o’rniga Inson huquqlari kengashi tashkil etildi. Shundan so’ng EKOSOS inson huquqlariga

oid yig’ilishlarni deyarli o’tkazgani yo’q. Quyida esa BMTdagi inson huquqlariga oid faoliyat haqida so’z yuritamiz.

(a) Inson huquqlari bo’yicha kengash

Ilk bor BMT tashkil etilganida, BMT Nizomining 68-moddasiga asoslangan holda, EKOSOSning ijroviy komissiyasi sifatida Inson huquqlari komissiyasi tuzilgan edi. Ushbu komissiya ko’p sondagi inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlar loyhasini tuzdi. Biroq ushbu komissiyaga a’zo davlatlar tomonidan inson huquqlari buzilayotganligiga oid tanqidlar va yig’ilishlarda o’rganish uchun ko’rib chiqiladigan davlatlarni tanlanishiga nisbatan bir tomonlama qarash mavjudligi bo’yicha tanqidlar ko’payganligi uchun 2006-yilda BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasi (61/178)ga asosan Inson huquqlari komissiyasi bekor qilindi. Uning o’rniga esa Bosh Assambleyani to’ldiruvchi organ sifatida yangi tartibda Inson huquqlari kengashi tashkil qilindi.

Komissiya davridan hozirgi kengash davrigacha davom etib, qo’llanilib kelinayotgan protsedura (taomil) sifatida maxsus protsedura va shikoyat qilish protsedurasi mavjud. Maxsus protsedura 1967-yilda EKOSOSning 1235-son rezolyutsiyasi bilan tatbiq etila boshlandi. Bunda maxsus ma’ruzachi va ekspertlardan iborat komissiya tegishli davlat va mintaqadagi inson huquqlari holatini o’rganib, xalqaro darajadagi inson huquqlari mezonlariga rioya qilinib borishini kuzatadi. Shuningdek, tavsiyalarni ham

o'z ichiga olgan hisobotni qabul qilish bilan birgalikda, barcha davlatlarga birdek tegishli bo'lgan masalalar bo'yicha ilmiy ishlar olib borgan holda, hisobotini e'lon qiladi. Yana bir shikoyat qilish protsedurasi EKOSOSning 1503-sonli rezolyutsiyasiga asoslanadi. Keng qamrovli, asosli dalillarga tayangan va muntazam ravishda amalga oshirilgan inson huquqlari buzilishini obyekt sifatida tanlab, u haqida o'rganib chiqadigan protseduradir. Jismoniy shaxslar va uyushmalardan axborotlarni qabul qilib, ommaga ochiq bo'lmagan tarzda xabar qilingan davlat va inson huquqlari komissiyasi (hozirda esa kengash) ishtirokida masalaning muhokama qilinishi ushbu protseduraning o'ziga xosligi hisoblanadi (aytish joizki, obyekt hisoblangan davlat nomi ommaga e'lon qilinadi). Hozirda ham jismoniy shaxslar va uyushmalar tomonidan keltirilgan axborotlar BMTning inson huquqlariga mas'ul bo'limi tomonidan Inson huquqlari kengashining maslahat qo'mitasi, ishchi guruhi-ga taqdim etilib, eng so'nggida esa Inson huquqlari bo'yicha kengashda muhokamaga qo'yiladi. Ushbu protsedura jabrlangan insonni qutqarishni emas, balki shunday holat yuz bergan BMTga a'zo davlatda inson huquqlari himoyasining yaxshilanishi uchun tashkil etilgan.

2006-yilda tashkil qilingan Inson huquqlari bo'yicha kengash BMT Bosh Assambleyasida yarmidan ko'proq ovozni qo'lga kiritgan va inson huquqlari himoyasida jonbozlik ko'rsatadigan 47 ta davlatdan iboratdir. Kengash yig'ilishi yilda

10 haftadan ko'pga cho'zilib, Jeneva shahrida o'tkaziladi. O'zidan avval mavjud bo'lgan Inson huquqlari komissiyasining protseduralarini meros qilib olish bilan birga, BMTga a'zo barcha davlatlardagi inson huquqlari holatini o'rganuvchi **universal davriy hisobot tizimini** (UPR: universal periodic review) ushbu kengash yangitdan joriy etdi. Ushbu tizim barcha a'zo davlatlarga yuklatilgan hisobot berish tizimi hisoblanadi. BMTga a'zo davlatlar har 4 yilda ko'rsatmaga asoslanib, ko'rsatilgan masalalar yuzasidan o'z davlatining holati haqida hisobot taqdim etadi (→ **Kolumn**). Taqdim etilgan hisobotni esa kengash orasidan lotereya orqali tanlangan uchta davlat (ular «Troyka» deb ataladi) ko'rib chiqib, o'z fikrlarini bildiradi. Kengashda har bir davlatning hisoboti bo'yicha tavsiya va xulosa qabul qilinadi. Ushbu ekspertiza tizimi orqali boshqa davlatlar o'rganilayotgan davlatdagi inson huquqlari bilan bog'liq vaziyatni baholashadi. Inson huquqlari komissiyasi davrida o'rganib chiqiladigan davlatlar o'zboshimchalik bilan tanlangan degan tanqid bo'lgan bo'lsa-da, universal davriy ko'rib chiqish protsedurasi BMTga a'zo barcha davlatlarga tatbiq etilayotganligi uchun bunday o'zboshimchalik kamaygan deb ayta olamiz.

(b) Inson huquqlari bo'yicha kengashning Maslahat qo'mitasi

Inson huquqlari bo'yicha kengashning quyi organi hisoblangan Maslahat qo'mitasi Inson huquqlari bo'yicha kichik komissiyalarning o'rniga tashkil etilib, 2008-yildan o'z faoliyatini bosh-

Yaponiyaning universal davriy hisoboti

Yaponiya ilk bor 2008-yilda davriy tekshiruvdan o'tib, 2011-yilda o'z ixtiyori bilan davriy hisobotdagi tavsiyalarning ijrosi yuzasidan hisobot topshirdi. Shundan keyin 2012-yilda ikkinchi bor davriy tekshiruv bo'lib o'tdi. Inson huquqlari kengashiga a'zo davlatlar Yaponiyadagi inson huquqlari holati yuzasidan gender tengligi masalasi, bolalar huquqlari muammosi, gumonlanuvchini ushlab turish, o'lim jazosi va odam savdosi masalalarini ko'targan holda, o'z tavsiyalarini berdi. Shuningdek, barcha inson huquqlari shartnomalaridagi jismoniy shaxslar tomonidan beriladigan xabar berish tizimini qabul qilish va Yaponiya hali a'zo bo'lmagan shartnomalarga qo'shilishiga oid tavsiyalar ham berildi.

ladi. Xususiyl shaklda (ya'ni davlat vakili sifatida emas) faoliyat ko'rsatuvchi 18 nafar mutaxassislardan iborat tarkibda shakllanib, yilda ikki bor, har safar bir haftalik muddatga chaqiriladi. Yuklatilgan vazifa mavzular bo'yicha inson huquqlari poymol etilgan holatlarni tekshirib tadqiqot o'tkazgan holda, Inson huquqlari bo'yicha Kengashga maslahatlar berishdir.

(c) Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi (→kitob boshlanishidagi rangli surat C-6)

1950-yillardan buyon BMT kotibiyatida inson huquqlari bo'yicha mas'ul bo'limni tashkil etish lozim degan fikr mavjud edi. Biroq sovuq urush hukmron bo'lgan davrda Sharq va G'arb davlatlari lageri o'rtasidagi ideologik qarama-qarshilik to'sqinlik qilib, bunday organ tashkil etilmay qoldi. 1993-yil so'ngida, BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasi (48/141)ga asoslanib, Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi tashkil qilindi. Uning

boshlig'i esa mandati 4 yil bo'ladigan Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar edi (8-10). Ushbu boshqarmaning vazifasi sifatida Kengash va inson huquqlariga oid shartnomalarda qayd etilgan komissiyalar va organlarning yig'ilishlari uchun kotibiyat funksiyasini bajarish, rivojlanishga undash; oldindan o'troqlashgan mahalliy xalqlar, kamsonli xalqlar (minoriti), nogironlar va gender masalalarini o'rganish; har bir davlat holatini o'rganib tekshirish mobaynida yordam ko'rsatish kabi masalalar yuklatilgan.

5 Inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar

(1) Inson huquqlariga oid universal shartnomalar (8-11)

1948-yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qabul

8-10 BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari



2014-yildan 2018-yilgacha BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari Zayd Husaindir. U Iordaniya qirolik oilasining a'zosi bo'lib, Iordaniyaning AQShdagi elchisi vazifasida ishlagan.

(Manba: Jiji)

qilinishidan boshlab, u yerda belgilangan inson huquqlarini huquqiy majburlov kuchiga ega bitimlar shakliga keltirish uchun, BMT Inson huquqlari komissiyasi xalqaro shartnomalar loyihagini tayyorlashni boshladi. Biroq o'sha paytdagi G'arb va Sharq o'rtasidagi Sovuq urush tufayli inson huquqlariga oid fikrlarda ham ziddiyatlar kuchayib, shartnomalar loyihasi katta to'siqlarga duch keldi. Oqibatda, 1966-yil BMT Bosh Assambleyasi inson huquqlariga doir ikki muhim paktning qabul qilindi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi bilan birga, ushbu ikki pakt «**Inson huquqlari to'g'risida»gi Xalqaro BILL** deb nomlanadi. Ushbu BILL xalqaro inson huquqlari sohasining yuragini tashkil qiladi.

Bundan tashqari, Inson huquqlari komissiyasi dunyo miqyosida tatbiq etiladigan turli xildagi inson huquqlariga doir shartnomalarni ishlab chiqishda ham ishtirok etdi. Shu paytgacha qabul qilingan shartnomalar sifatida Irtiqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiya, Qiynoqlarga qarshi konvensiya, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya, Barcha shaxslarning zo'rlik ostida g'oyib bo'lishdan himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ko'rsatishimiz mumkin. Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyani esa Ayollar statusiga doir BMT komissiyasi ishlab chiqqan.

(2) Inson huquqlariga oid mintaqaviy shartnomalar (8-12, 8-13)

BMTda qabul qilingan inson huquqlariga doir universal shartnomalardan tashqari, ma'lum bir mintaqalarda qabul qilingan inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro shartnomalar ham mavjud. Bunday shartnomalar odatdagi mintaqaviy xalqaro tashkilotlarni tashkil etish orqali tuzib kelingan. Yevropa Inson huquqlari konvensiyasi (1950-yilda qabul qilingan) Yevropa kengashi (Council of Europe: CoE) tomonidan, Inson huquqlari bo'yicha Amerika konvensiyasi (1969-yilda qabul qilingan) Amerika davlatlari tashkiloti (Organization of American States: OAS) tomonidan, Inson huquqlari Afrika Xartiyasi (1981-yilda qabul qilingan) esa Afrika birligi tashkiloti (Organization of African Unity: OAU, keyinchalik bu tashkilot Afrika Ittifoqi deya o'zgartirildi) tomonidan qabul qilingan. Shuningdek, Inson huquqlari bo'yicha Arab Xartiyasi (1994-yilda qabul qilingan, 2004-yilda o'zgartirilgan va 2008-yilda kuchga kirgan) Arab davlatlar ligasi tomonidan ishlab chiqilgan. Bular hududiy o'ziga xoslikni e'tiborga olib, har bir hududning o'zaro o'xshash nuqtalariga asoslanib qabul qilingan shartnomalar hisoblanadi.

(3) Inson huquqlariga oid shartnomalarni ijro etish usullari

Xalqaro hamjamiyatda qabul qilingan inson huquqlari shartnomalarini qanday qilib ijro etish muhim masala hisoblanadi. Shartnomadan ko'zlangan maqsad ro'yobga chiqishi uchun har bir inson huquqlariga oid xalqaro shartnoma o'ziga xos ijro organini (shartnomaviy organ) tashkil

Shartnoma nomi	Qabul qilingan sana	Kuchga kirgan sana	Yaponiya a'zo bo'lgan sana	Shartnomaviy organ	A'zo davlatlar soni	Mazmuni
Irqi kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi Xalqaro konvensiya	1965	1969	1996	Irqi kamsitishni tugatish bo'yicha qo'mita	178	Irqi kamsitishlar yuz bermaydigan jamiyatning yuzaga kelishi uchun, davlat va xususiy shaxslar tomonidan bo'ladigan kamsitishlarni taqiqlash majburiyati, irqi kamsitishlarga undovchi harakatlarni tartibga solish
Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt	1966	1976	1979	Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mita	165	Ijtimoiy himoyaga oid huquq, mehnat huquqlari kabi davlatning faol ravishda aralashuvini talab qiluvchi ijtimoiy huquqlarni o'rnatadi
Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga fakultativ protokoll	2008	2013	Kirmagan		22	Pakt dagi jismoniy shaxslarning xabar berish tizimini o'rnatadi
Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt	1966	1976	1979	Inson huquqlari bo'yicha qo'mita	169	Yashash huquqi, qiynoqqa solishning taqiqlanishi, shaxsiy daxlsizlik huquqi, vijdon erkinligi kabi shaxslarning davlatdan erkinliklarini o'rnatadi
Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga I fakultativ protokoli	1966	1976	Kirmagan		115	Pakt dagi jismoniy shaxslarning xabar berish tizimini o'rnatadi
Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga II fakultativ protokoli (o'lim jazosini bekor qilish protokoli)	1989	1991	Kirmagan		84	A'zo davlatlarga o'lim jazosini bekor qilish majburiyatini yuklaydi
Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya	1979	1981	1985	Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishni bartaraf etish bo'yicha qo'mita	189	Xotin-qizlarning bir qancha huquqlarini belgilaydi

Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiyaga fakultativ protokol	1999	2000	Kirmagan		108	Konvensiya buzilishiga oid jismoniy shaxslarning xabar berish va tekshirib chiqish tizimini o'rnatadi
Qiynoqlarga solishga va muomalada bo'lish va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi turlariga qarshi Konvensiya	1984	1987	1999	Qiynoqlarga qarshi qo'mita	161	Davlat xizmatchilari tomonidan bo'ladigan qiynoqqa solishni taqiqlab, bunday harakatlarning ichki qonunlarda jinoyat sifatida belgilashga oid davlat majburiyatini o'rnatadi
Qiynoqlarga solishga va muomalada bo'lish va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi turlariga qarshi Konvensiyaga fakultativ protokoli	2002	2006	Kirmagan		83	Konvensiyaning ijrosi bo'yicha qiynoqlar oldini olishga oid kichik komissiyani tashkil etib, joylarga davriy tashriflar tizimini o'rnatadi
Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi	1989	1990	1994	Bola huquqlari bo'yicha qo'mita	196	18 yoshga tolmaganlarning fuqarolik, siyosiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini belgilaydi
Bolalarning qurolli mojarolarda ishtirokiga taalluqli fakultativ protokol	2000	2002	2004		166	To'qnashuv harakatlarida 18 yoshga tolmaganlarning ishtirokini oldini olish majburiyatini belgilaydi
Bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli fakultativ protokol	2000	2002	2005		173	Bola savdosi va bola pornografiyasini taqiqlaydi
Jismoniy shaxslarning xabar berishlariga oid fakultativ protokol	2011	2014	Kirmagan		32	Bola huquqlari konvensiyasiga ko'ra jismoniy shaxslarning xabar berish tizimini o'rnatadi
Barcha mehnatkash-migrantlar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiya	1990	2003	Kirmagan	Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish qo'mitasi	50	Qonuniy yoki no-qonuniy bo'lishidan qat'i nazar migrant ishchilar va ularning oilasi huquqlari muhofazasini belgilaydi

Barcha shaxslarni zo'rluk ostida g'oyib bo'lishdan himoya qilish to'g'risidagi Konvensiya	2006	2010	2010	Barcha shaxslarni zo'rluk ostida g'oyib bo'lishdan himoya qilish bo'yicha qo'mita	56	Zo'rluk ostida g'oyib bo'lishni jinoyat sifatida o'rnatishni davlatlarga majburiyat sifatida yuklaydi
Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya	2006	2008	2014	Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita	172	Nogironlarga huquqiy munosabat subyekti sifatida qarab, ularni jamiyatga qo'shgan holda, nogironlar huquqlari ta'minlanishini belgilaydi
Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga fakultativ protokol	2006	2008	Kirmagan		91	Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyadagi jismoniy shaxslar tomonidan xabar berish, shuningdek, qo'pol va tizimli ravishda nogironlar huquqlari poymol qilinishi haqida tekshirish tizimini belgilaydi

* A'zo davlatlar soni 2017-yil fevral oyi holatiga hisoblandi.

8-12

Mintaqaviy inson huquqlari shartnomalari (A'zo davlatlar soni 2016-yil iyun oyiga ko'ra hisoblandi)

	Yevropa inson huquqlari konvensiyasi	Inson huquqlari bo'yicha Amerika konvensiyasi	Inson huquqlari Afrika xartiyasi	Inson huquqlari bo'yicha Arab xartiyasi
Qabul qilingan va kuchga kirgan sana	1950 / 1953	1969 /1978	1981 /1986	1994/2008 (2004-yilda o'zgartirish kiritilgan)
Asos bo'lgan tashkilot	Yevropa kengashi	Amerika davlatlari tashkiloti	Afrika Ittifoqi	Arab davlatlar ligasi
A'zo davlatlar soni	47	23	54	13
Ijro usullari	Davlat va jismoniy shaxslar arizasi bilan	Davlat tomonidan xabar berish/ jismoniy shaxslar shikoyati/ davlatlarni o'rganish	Davlat va jismoniy shaxslar tomonidan xabar berish/davlatlar hisoboti/sudga topshirish	Davlatlar hisoboti
Shartnomaviy organ	Yevropa inson huquqlari sudi (Fransiyaning Strasburg shahri)	Inson huquqlari bo'yicha Amerika davlatlararo komissiyasi/ Inson huquqlari bo'yicha Amerika davlatlararo sudi (Kosta-Rikaning San-Hose shahri)	Inson va xalqlar huquqlari bo'yicha Afrika sudi (Tanzaniyaning Arusha shahri), Afrika inson huquqlari komissiyasi	Inson huquqlari bo'yicha doimiy arab komissiyasi



↑ Inson huquqlari bo'yicha sudni anglatadi

- | | |
|--|---|
| ■ Yevropa inson huquqlari konvensiyasi | ■ Afrika inson huquqlari hartiyasi |
| ■ Amerika inson huquqlari konvensiyasi | ▨ Arab mamlakatlari inson huquqlari hartiyasi |

etishni belgilab qo'yadi. Shartnomaviy organ inson huquqlariga oid xalqaro shartnomani unga a'zo mamlakatlarda qanday ijro etilganligiga oid hisobotni qabul qiladi. Hisobotni muhokamadan o'tkazib, undagi muammolarni ko'rsatgan holda xalqaro shartnomaning ijrosida qatnashadi. Shuningdek, davlatlardan olingan hisobot va jismoniy shaxslardan kelib tushgan inson huquqlari buzilishiga oid axborotlarni yig'ish orqali shartnomaviy organ shartnomaning normalari haqida amaliy ma'lumotlarni to'playdi. Ushbu amaliy tajribaga asoslangan holda shartnomani qanday sharhlash kerakligiga oid **umumiy mulohazani** qabul qiladi. Shartnomaga a'zo davlatlar va shartnomaviy organlar tomonidan

amalga oshiriladigan inson huquqlari shartnomalarining bunday ijrosi tufayli xalqaro shartnomalarning ichki mohiyati yanada boyib bormoqda.

Inson huquqlari shartnomalarining amalga oshirishini ta'minlovchi ijro mexanizmlari quyidagilardir. **1. Davlatlarning hisobot taqdim etish tizimi, 2. Davlatlar xabar berish tizimi, 3. Jismoniy shaxslarning xabar berish tizimi, 4. Tekshirish tizimi, 5. Sud tizimi (8-14).**

1) Davlatlarning hisobot taqdim etish tizimi

Ushbu tizim inson huquqlariga oid xalqaro shartnomani ijro etish uchun a'zo davlat tomonidan amalga oshirilgan mahalliy chora-tadbirlar (mahalliy qonunni o'zgartirish yoki yangi

qonunni qabul qilishga o'xshash choralar)ni vaqti-vaqti bilan shartnomaviy organga hisobotini berish tizimidir. Misol uchun, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakt borasida, odatda, har 4 yil yoki oyda a'zo davlatlardan hisobotlar kelib tushadi. Shartnomaviy organga taqdim etilgan hisobot haqida shartnomaviy organ komissiya a'zosi va hisobot topshirgan davlat vakili o'rtasida konstruktiv muloqot bo'lib o'tadi. Qo'shimcha tarzda, shartnomaviy organga mahalliy va xorijiy nodavlat tashkilotlardan ham axborotlar kelib tushib, muhokama jarayonida ular ham qo'llaniladi. Muho-kamadan keyin esa, hisobot taqdim etgan a'zo davlatga nisbatan ko'rilishi lozim bo'lgan choralarni o'z ichiga olgan xulosaviy kuzatish nomli yakuniy tavsiyalarni shartnomaviy organ qabul qiladi. Shuningdek, shartnomaviy organ a'zo davlatlardan inson huquqlari himoyasiga doir vaziyatning yaxshilanishi bo'yicha yakuniy tavsiyalar bajarilishining kuzatib borishni talab qiladigan holatlar ham mavjud.




2) Davlatlarning xabar berish tizimi

Bu shartnomaga a'zo davlatda yuzaga kelgan inson huquqlari buzilishi haqida boshqa bir a'zo davlatning xabar qilish tizimidir. Ushbu tizimni qo'llash uchun har bir davlat o'zi haqida boshqa bir davlat tomonidan shartnoma buzilgani haqida xabar berilishini tan olishga oid oldindan maxsus e'lon qilishni talab qiladigan holatlar ko'p uchraydi. Irtiq kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi


xalqaro konvensiya esa bunday oldindan e'lon qilish tartibini talab qilmaydi (Konvensiyaning 11-moddasi). Aytish joizki, ushbu tizim mavjud bo'lsa-da, inson huquqlariga doir universal shartnomalardan kelib chiqib, undan foydalanish holati deyarli mavjud emas.

3) Jismoniy shaxslarning xabar berish tizimi

Bu inson huquqlariga oid xalqaro shartnomaning a'zosi hisoblangan davlat va uning yurisdiksiyasi ostidagi jabrlanuvchi shaxs shartnomaviy organga xabar yo'llagan holda, shartnomaviy organing tekshiruvini talab etish tizimi hisoblanadi. Ushbu tizimdan foydalanish uchun esa faqat inson huquqlariga oid xalqaro shartnomagina emas, davlatlar tomonidan qo'shimcha tarzda alohida qabul qilingan fakultativ protokollarning ratifikatsiyasi va shartnomaviy organing xabarni qabul qilib olish uning vakolatini tan olishni e'lon qilish ham talab etiladi. Yuqoridagilarni bajargan davlatlar yurisdiksiyasi ostidagi insonlarga jismoniy shaxslarning axborot berish tizimidan foydalana oladilar. Shuningdek, yuqoridagi talabdan tashqari, huquqlari buzilgan shaxsning o'sha davlatdagi mahalliy huquqni himoya qilish vositalaridan to'liq foydalangan (mahalliy huquqni himoya qilish vositalaridan to'liq foydalanganlik prinsipi) protseduraning muhim qismi sifatida talab etiladi. Qo'shimcha tarzda, taqdim etilgan axborotning aniq asosini ko'rsatish va anonim tarzda bo'lmasligi talablari ham mavjud. Shundan so'ng shartnomaviy organ in-




④ Tekshirish tizimi



Ijtimoiy, siyosiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning fakultativ protekclining 11-moddasi, Qiynoqlarga solishga va muomalada bolish va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriminsoniy yoki qadr qimmatni tahqirllovchi turidiga qarshi Konvensiyaning 20-moddasi, Xotin-qizlarni kamstishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiyaning fakultativ protokoli 8-moddasi

⑤ Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi tizimi (34-modda)



* Q ichidagi moddalar Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi moddalari

son huquqlari buzilgan deya da'vo qi-
lingan davlat va jabrlanuvchi shaxs – har
ikkisidan ham fikrlarni eshitib, o'zining
«mulohaza»sini bildiradi. Biroq ushbu
mulohazaning huquqiy majburlov ku-
chi mavjud bo'lmay, tavsiyaviy kuchga
egalligini ham aytib o'tish zarur.

4) Tekshirish tizimi

Shartnomaviy organ a'zosi shart-
noma tarafi bo'lgan davlatga tashrif

buyurib, u yerda shartnoma bandlari-
ga muvofiq inson huquqlari holatini
tekshiradi. Inson huquqlari holatini
tekshirish uchun esa obyekt bo'lgan
davlatning roziligi talab etiladi. Shart-
nomaviy organ tekshirish jarayonining
natijasini ko'rib chiqib, mazkur dav-
latga o'z mulohazasi va tavsiyalarini
bildiradi.

5) Sud tizimi

Bu huquqlari buzilgan shaxs sud tizimi kabi mahalliy huquqni himoyalash tizimlarining barchasiga arz qilishiga qaramasdan huquqbuzarlik holati bartaraf etilmaydigan holatlarda mavjud xalqaro inson huquqlari sudiga o'sha davlatga qarshi da'vo kiritish usulidir. Bunday sudlarda chiqarilgan qarorlar esa o'sha davlatga nisbatan majburiy xarakterga ega bo'ladi. Hozirgi kunda inson huquqlari shartnomalari orasida o'z sudiga ega bo'lganlari bular – Yevropa, Amerika va Afrika mintaqalari bo'lib, ular ham mintaqaviy shartnomalarga tayanadi.

6) Inson huquqlari shartnomalarining mamlakatdagi ijrosi

Inson huquqlari shartnomalari inson huquqlari himoyasini maqsad qilgani sababli ularni faqat ratifikatsiya qilib qo'yishgina emas, balki u yerda o'rnatilgan inson haq-huquqlarini mamlakat ichida himoyalash bilan ularning haqiqiy ma'nosi namoyon bo'ladi. Inson huquqlari shartnomalarini davlat ichida tatbiq etishning 2 usuli mavjud. Birinchi usulda ular ichki qonunlar kabi tegishli munosabatlarga to'g'ridan to'g'ri tatbiq etiladi. Mazkur usul **bevosita tatbiq etish usuli** deb ataladi. Ikkinchi usulda ma'lum bir ish bo'yicha inson huquqlariga oid xalqaro shartnoma normalari va shartnomaviy organning amaliyoti ichki huquqni to'ldiruvchi vosita sifatida mahalliy sudlar tomonidan qo'llaniladi. Bu usul **bilvosita tatbiq etish usul** deb ataladi.

Yaponiya sudlari tomonidan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakt bevosita tatbiq etilgan ish sifatida 1993-yildagi Narkotik moddalardan foydalanishni taqiqlash to'g'risidagi qonunning buzilishi ishi va Bojxona qonunchiligi buzilishi ishi kabilar mavjud. Birinchi instansiya sudi sifatida Tokio mahalliy sudi aybdor deb topilgan ayblanuvchiga sud jarayonidagi tarjima xarajatlarini qoplashni buyurgan. Tokio yuqori sudi esa bunga qarshi o'laroq, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi paktning 14-modda 3-qism (f) bandidagi qayd etilgan bepul tarjima bo'yicha yordam olish kafolati hech qanday talabsiz va mutlaq shakldagi huquq bo'lib, Jinoyat-prosessual qonun hujjatlarining 181-modda 1-qismiga muvofiq, ayblanuvchidan bunday xarajatlarni qoplashni talab qilib bo'lmasligini aytgan.

Boshqa tomondan, inson huquqlariga oid xalqaro shartnoma bilvosita tatbiq etiladigan ishlar Yaponiya sudlarida ko'p kuzatiladi. Masalan, yapon bo'lmagani uchun hammomga kirishni rad etish noqonuniy harakatga to'g'ri keladimi yoki yo'qmi degan masalada tortishilgan Otaru hammomga kiritilmaslik ishi (2002-yil) bunga yaqqol misoldir. Ushbu ishda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakt va Irtiqy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiyalar kabi shartnomalar bevosita tatbiq etilmagan bo'lsa-da, ular Yaponiya Fuqarolik kodeksini sharhlash paytida mezon bo'lib xizmat qilishi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, Fuqarolik

Nafrat nutqi (Hate speech) bo'yicha namoyish

Heyt spichga oid nizo yuzasidan sudga da'vo kiritilib, ushbu ishda sud Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiyani e'tiborga olgan holda qaror chiqaradi. 2013-yilda «Chet elliklarning Yaponiyada alohida imtiyoz olishlariga qarshi uyushma» tomonidan uyushtirilgan namoyish paytida tartibsizliklar yuzaga kelgan.

rolikka oid qonun buzilishining Konstitutsiyaga zidligi bo'yicha Yaponiya Oliy sudining katta majlisi chiqargan qaror (2008-yil)da Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakt va Bola huquqlari konvensiyasida bola tug'ilishi bilan hech qanday kamsitishga uchramasligi qayd etilganligini ta'kidlab qaror chiqargan. Bu esa xalqaro inson huquqlari shartnomalari ichki sudlarda qonunni sharhlashdagi mezon sifatida foydalanayotganining belgisidir).

Shu paytgacha ko'rib o'tganimizdek, inson huquqlarining xalqaro himoyasi obykti kengayib, uni tartibga solish usullari ham anchayin rivojlanishga erishgan. Avvalambor, ichki huquq tomonidan inson huquqlari belgilanib, davlat vakolatlarini cheklash orqali xalqning huquqlari kafolatlandi. Undan keyin esa bir mamlakatda yashovchi chet elliklarning huquqlari himoyasidan boshlab, o'zga yurtda yashovchi chet ellik insonlarning huquqlari himoyasiga qarab inson huquqlari himoyasi kengayib bordi. XX asrda yuz bergan ikkita jahon urushi nati-

jasida davlatlardagi kamchilik insonlar huquqlari kafolati bo'yicha ham xalqaro darajada nazorat qilish imkoniyati vujudga keldi. Bunga qo'shimcha tarzda, qaysi davlat fuqarosi ekanidan qat'i nazar davlat o'z yurisdiksiyasi ostidagi barcha insonlarga nisbatan xalqaro standartlarni tatbiq etadigan bo'ldi.

Shuningdek, tartibga solish usullari bo'yicha shartnomalarni faqatgina ratifikatsiya qilishgina emas, shartnomaga a'zo davlatlarning o'sha shartnomaga bo'lgan munosabatlariga qarab boshqa davlat vakili yoki jismoniy shaxslar ham xalqaro standartlarga muvofiq inson huquqlari holatini tekshira oladigan bo'ldi. Bularning aksariyati tavsivaviy xarakterga ega bo'lsa-da, shartnomaga a'zo davlatlarga nisbatan umuman ta'sir kuchi yo'q deb ayta olmaymiz. BMTning har bir tashkiloti va shartnomaviy organlarining tinimsiz olib borgan sa'y-harakatlari tufayli shartnomalarning mazmuni ham kuchayib, xalqaro hamjamiyatdagi inson huquqlari himoyasiga xizmat qila oladigan holatga yetib kelgan deb ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kohki Abe va boshqalar, Xalqaro inson huquqlari kitobi, 3-nashr. – Nihonhyoronsha, 2009.
2. Yozo Yokota tahriri, Xalqaro inson huquqlariga kirish, 2-nashr. – Horitsu bunkasha, 2013.
3. Xalqaro huquq assotsiatsiyasi tahriri, Yaponiya va Xalqaro huquqning 100 yili, 4-tom, Inson huquqlari. – Sanseido, 2001.

Chapter 9

Jinoyat ham xalqaro miqyosda sodir bo'ladi – Xalqaro jinoyatlar

1.1 Xalqaro jinoyat tushunchasi

(1) Turli xil xalqaro jinoyatlar

Xalqaro jinoyat (international crime) atamasi turli xil ma'nolarda qo'llaniladi. Avvalo, biror Yaponiya fuqarosi chet elda boshqa davlat fuqarosi bo'lgan shaxsga nisbatan firibgarlik jinoyatini sodir etsa, bu chegaralar osha sodir etilgan jinoyat sifatida xalqaro jinoyat deb ataladi. Ushbu vaziyat bir davlatning jinoyat qonunchiligi belgilaydigan jinoyat bir nechta mamlakatlarga aloqador bo'lib qolishidir. Bu kabi jinoyatlar sodir etilganda mazkur jinoyat sodir etilgan mamlakat (***jinoyat joyi***) dan tashqari jinoyat sodir etgan shaxs yoki jabrlanuvchining fuqaroligi mavjud bo'lgan davlatlar ham o'zlarining huquqiy tartiboti yoki ular huquqiy jihatdan himoya qilinadigan manfaatlar (***huquqiy manfaatlar***) buzilganini ro'kach qilib, jinoyatchini jazolash maqsadida ***jinoyiy yurisdiksiyalarini*** amalga oshirishlari mumkin.

Shuningdek, jinoyat sodir etilgan davlat, jinoyat sodir etgan shaxs yoki jabrlanuvchining fuqaroligi tegishli bo'lgan davlat kabi har bir davlatning huquqiy manfaatlarini oshib o'tuvchi, qaroqchilik kabi ochiq dengizdagi kermalarga hujum uyushtirib, dunyo davlatlarining umumiy manfaatlariga zarar yetkazish hollari ham mavjud. Shu sababli bunday vaziyatlarda bevosita jabr

ko'rgan davlatgina emas, balki istalgan boshqa bir davlat tomonidan ko'rib chiqiladigan jinoyatlar ham xalqaro jinoyat deb ataladi.

Bundan tashqari, bir nechta mamlakatlarning huquqiy manfaatlariga putur yetkazish bilan chegaralanmay, xalqaro hamjamiyat deb atalmish ulkan birlikning huquqiy manfaatlari buzilgan paytda, xalqaro hamjamiyatning nomidan harakat qiluvchi xalqaro darajadagi jinoyat sudi yoki uning o'rniga biror-bir davlat jinoyat uchun jazo tayinlashi ham xalqaro jinoyat deb ataladi. Bu turdagi xalqaro jinoyat o'z ichiga genotsid (crime of genocide), insoniyatga qarshi jinoyatlar (crime against humanity), urush jinoyati (war crime) hamda agressiya jinoyati (crime of aggression)ni oladi.

(2) Xalqaro jinoyatlar bo'yicha jazo tayinlash

Bir so'z bilan xalqaro jinoyat deb atasak-da, yuqoridagi kabi bir nechta turlar mavjudligiga guvoh bo'lamiz. Ammo ularning bir-biriga eng yaqin jihati barcha turdagi xalqaro jinoyatlarga davlat tomonidan jazo tayinlanishi mumkinligidadir. Bunday vaziyatda davlat o'zining jinoyat qonunchiligida belgilangan qonuniy harakatlarni amalga oshirib, jazo tayinlashning obyektini hisoblangan gumonlanuvchi mazkur davlatga kirib kelganda yoki xorijiy mamlakatdan ekstraditsiya

Tajima ishi

2002-yil aprel oyida Fors qo'ltig'idan Himeji portiga qarab yo'lga tushgan Yaponiyaning kemasozlik kompaniyasiga tegishli, Panama davlati kemalari ro'yxatidan o'tkazilgan Tajima tankeri (148330 tonnalik, Yaponiya fuqarosi bo'lgan kapitan hamda 5 nafar kema xodimlari, Filippin fuqarosi bo'lgan 18 nafar xodimlardan tashkil topgan) Tayvan yaqinidagi ochiq dengizida hech bir davlat hududiga kirmaydigan joyga yetganda Yaponiya fuqarosi filippinlik kema xodimi tomonidan o'ldiriladi. Filippinning jinoyat qonunchiligida aktiv tegishlilik tamoyiliga asoslangan davlat tashqarisida sodir etilgan jinoyatlarni jazolash tizimi mavjud bo'lmay, Yaponiya ham o'sha paytda passiv tegishlilik tamoyiliga asosan jinoyiy jazoni tayinlay olmagan. Ushbu vaziyatda bayroq mamlakati tamoyiliga ko'ra Panama davlatigina yurisdiksiyaga ega bo'ladi. Ushbu davlatdan tergov harakatlarini olib borish bo'yicha yordam ko'rsatish talabiga asoslanib, Yaponiya davlati dalillarni yig'ish ishlarini amalga oshiradi. Gumonlanuvchi esa kema Himeji portiga kirib kelgandan so'ng, kema kapitanining vakolatidan foydalanib kemaning ichida ushlab turiladi. Shundan keyin Panama davlatidan ekstraditsiya talabi kelgach gumonlanuvchi Panamaga topshiriladi.

Tajima ishidan keyin kemalar shirkatlari tomonidan Jinoyat qonuniga o'zgartirish kiritilishi talab etilib, passiv tegishlilik tamoyili Yaponiya Jinoyat qonunining 3-moddasi 2-bandi sifatida qaytadan kiritilib, 2003-yildagi o'zgartirishga sabab bo'ldi.



(Manba: Surat tegishli kemasozlik kompaniyasi tomonidan taqdim etilgan)

qildirib olishning iloji bo'lsa, ushbu imkoniyatdan foydalanib, shaxsga nisbatan sud orqali jinoyiy jazoni tayinlaydi. Mazkur jihati xalqaro jinoyat bo'lmagan jinoyatlarga jazo tayinlashdan farq qilmaydi.

Aslida, xalqaro huquq davlatning jinoyiy sudlov huquqiy chegarasini umumiy tarzda belgilab qo'ymagani bois, bir davlat tomonidan boshqa bir mamlakatning fuqarosini sud qilish o'sha mamlakatning biror-bir huquqlarini buzish hisoblanmaydi. Shu sababli umumiy prinsip o'laroq, xalqaro jinoyat yoki xalqaro jinoyat emasligidan qat'i nazar davlat o'zining yoki boshqa bir mamlakatning fuqarosini qanday qilmish va qayerda sodir etgan bo'lsa ham jinoyat qonunchiligi normalari orqali jazolashi mumkin. Shuning uchun bir jinoyat bo'yicha bir vaqtning o'zida bir nechta davlatlar yurisdiksiyaga ega bo'lish holati yuzaga keladi.

Bundan tashqari, biror davlatda jinoyiy jazo tayinlanishiga qaramay, yurisdiksiyaga ega bo'lgan boshqa bir davlat ham ushbu jinoyat uchun jazo tayinlashi mumkinligini yoddan chiqarmaslik lozim. Albatta, **bir jinoyat uchun faqatgina bir marta jinoyiy jazo tayinlash tamoyili** mavjud bo'lsa-da, ushbu tamoyil faqatgina bir davlatning ichidagina amalda bo'ladi, xolos.

Ammo bu degani qanday jinoyat bo'lsa ham davlat unga jinoyiy jazo tayinlash majburiyatini oladi degani emas. Ma'lum bir ijtimoiy xavfli qilmishlarni jazolash majburiyati xalqaro shartnomalar yoki xalqaro

Somali qaroqchilari

Qaroqchilik qilmishi, xususiy kema yoki samolyotni ochiq dengizda yoki hech bir davlat yurisdiksiyasiga kirmaydigan joyda insonlarning o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida zo'rvonlik yoki bosqinchilikni amalga oshirishidir (BMT Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiya 101-modda).

Qaroqchilik bo'yicha so'nggi yillarda Somali qaroqchilari e'tibor markazida bo'lmoqda. Somali qaroqchilariga qarshi G'arb va boshqa bir qancha davlatlar o'zlarining harbiy kemalari va harbiy havo kemalarini yuborib, ularni nazoratga olishga harakat qilmoqdalar. BMT Xavfsizlik Kengashining rezolyutsiyasida ham qaroqchilarni Somalining ichki suv hududlarida ham qo'lga olishga ruxsat beruvchi alohida qoida mavjud (Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyasi 1816 (2008-yil)). Yaponiya ham o'z harbiy kemalari va havo kemalarini yuborib ushbu nazoratga olish harakatlarida qatnashmoqda. Shuningdek, Somali qirg'oqlarida ushlangan qaroqchiga nisbatan sud ishi Yaponiyada o'tkazilgan holat ham mavjud (2011-yil). Surat 2009-yilda Somali qaroqchilari tomonidan egal-



(Manba: AP/Afloimages)

langan AQShning Maersk Alabama konteyner kemasi (17,000 tonna) aks etgan. Bu jinoyatda qaroqchilar kema kapitanini garovga olib, kemaning qutqaruv qayig'ida qochib ketganidan keyin, kema AQSh flotillasi hamrohligida Keniyaning Monbassa portiga qaytib kelgan.

odat huquqi tomonidan davlatning gardaniga yuklanmasa, jinoyatchini jazolamaslik xalqaro huquqning buzilishini anglatmaydi va uni o'z holicha qoldirish ham mumkin.

Shunday qilib, davlat o'z xohish-irodasiga ko'ra jinoiy jazo tayinlash uchun ichki qonunchilikni shakllantirib jinoyatlarga qarshi kurashadi. Xalqaro jinoyatlar ham mazkur doirada jazolanadi. Bugungi kunda ham xalqaro jinoyatlarni nazoratga olish va ularga jazo berishni amalga oshirib kelayotgan asosiy subyekt bu davlatdir. Boshqa tomondan davlatga umumiy tarzda jinoyatlarga jazo berish majburiyati ham yuklanmagan. Shuningdek, davlatlarda o'zlarining yoki do'stona aloqalarda bo'lgan davlatning boshliqlari

yoki armiyalari tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni yashirish tendensiyasi davom etmoqda. Natijada, ichki urushlar kabi hodisalar sodir bo'lganda jinoiy odil sudlov tizimi zavolga yuz tutib, ko'plab jinoyatchilarni sud qilib bo'lmayapti. Bunday holatlardan kelib chiquvchi jinoyatlarning jazosiz qolib ketish holati, ayniqsa, xalqaro hamjamiyatning huquqiy manfaatlariga putur yetkazishi mumkin bo'lgan xalqaro jinoyatlar bilan bog'liq vaziyatlarda muammoga aylanmoqda. Shuning uchun BMT Xavfsizlik Kengashining rezolyutsiyasi hamda xalqaro shartnomaga asosan xalqaro darajadagi jinoyat sudlari tashkil etilib, jazosiz qolib ketishning oldini olish borasidagi harakatlar amalga oshiriladi.

@huph
 Jinoyat ham xalqaro miqyosda sodir bo'ladi. - Xalqaro jinoyatlar

2 Davlat tomonidan jinoyatlarni jazolash

(1) Bir davlatning huquqiy manfaatlari buzilishiga nisbatan munosabat

Qanday qilmishlarni jinoyat deb topib unga jazo tayinlash davlatning ixtiyorida bo'lsa-da, odatda, davlatlar o'zlari bilan aloqadorlikda bo'lgan ijtimoiy xavfli qilmishlargagina jinoyiy jazo tayinlaydilar. Jinoyat sodir etilgan joy ushbu davlat hududi bo'lsa o'z huquqiy tartibotini saqlab turish uchun u

jinoyiy yurisdiksiyasini belgilaydi. Bu qarash **hududiylik tamoyili** deb ataladi. Yaponiyada Yaponiya fuqarosi boshqa bir hamyurtining joniga qasd qilsa, Yaponiya tomonidan ushbu jinoyatni sodir etgan shaxs qo'lga olinib, sud orqali unga jazo tayinlanishi tabiiy. Buning asosida esa aynan hududiylik tamoyili mavjud. Aybdor va jabrlanuvchilardan biri yoki ularning ikkisi ham chet el fuqarosi bo'lsa va Yaponiya hududida jinoyat sodir etsa ham hududiylik tamoyiliga asoslanib Yaponiyada

Column

Havo kemalari bilan bog'liq jinoyatlar

1970-yil sentabrida Falastin ozodligi uchun xalq fronti AQSh, Shveysariya, Buyuk Britaniyaning yo'lovchi havo kemalariga bir vaqtda hujum uyushtirib, ularni egallashga erishadi. Shundan so'ng Iordaniya hududidagi Revolyutsiya aerodromiga ularni qo'ndirib, havo kemalari bortida bo'lgan xodimlar va yo'lovchilar ularni tark etgandan so'ng, havo kemalarining barchasini portlatib yuboradi. Boshqa bir AQSh yo'lovchi tashish havo kemasining qochirilishi va Leyla Halid o'tirgan Isroil yo'lovchi tashish havo kemasining olib qochishga urinish ham bir xil paytda sodir bo'lgan. Surat Revolyutsiya aerodromiga olib kelingan uchta yo'lovchi havo kemasidan ikkitasini, Buyuk Britaniya Tashqi Havo Yo'llari Korporatsiyasining yo'lovchi tashish havo kemasi va AQSh Transworld havo kemalarini o'zida aks ettirgan. Keyinroq uchala havo kemalari ham portlatib yuborilgan.

Havo kemalari ichida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olish to'g'risidagi Tokio konvensiyasidan (1963-yil) tashqari Yo'lovchi havo kemalarini noqonuniy tortib olishning oldini olish to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi (1970-yil), Fuqarolik aviatsiyalariga nisbatan noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish to'g'risidagi Monreal konvensiyasi (1971-yil) kabi xalqaro shartnomalarning qabul qilinishi ortida yuqoridagi kabi ko'plab havo kemalariga nisbatan uyushtirilgan o'g'irlash harakatlari bor.

Terrorchilik bilan bog'liq vaziyatlarda harakatlari alohida turga ajratilib, ular bo'yicha ham xalqaro shartnomalar mavjud. Misol uchun, Davlat boshliqlariga qarshi sodir etiladigan jinoyat-



(Manba: PPS xabarlari)

larning oldini olish to'g'risidagi konvensiya (1973-yil), Garovga olish harakatlarini taqiqlash to'g'risidagi konvensiya (1979-yil), Atom materiallarining himoyasi to'g'risidagi konvensiya (1980-yil), Monreal konvensiyasiga aeroportlarda noqonuniy harakatlarning oldini olish to'g'risidagi qo'shimcha protokol (1988-yil), Dengiz navigatsiyalariga qarshi noqonuniy harakatlarning oldini olish to'g'risidagi konvensiya (SUA convention, 1988-yil), Kontinental shelf platformasida noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish to'g'risidagi protokol (1988-yil), Plastik bombalarni izlab topish to'g'risidagi konvensiya (1991-yil), Portlovchi qurilmalar orqali terrorchilik harakatlarini amalga oshirishning oldini olish to'g'risidagi konvensiya (1997-yil), Terrorizmni moliyalashtirishning oldini olish to'g'risidagi konvensiya (1999-yil), Atom terrorizmining oldini olish to'g'risidagi konvensiya (2005-yil) kabi xalqaro shartnomalar ham qabul qilingan.

sud qilinadi (Yaponiya jinoyat qonuni 1-modda. Mamlakat ichidagi jinoyatlar). Bundan tashqari, avvallari Yaponiya bilan tuzilgan noteng shartnomalarda tan olingan konsullik sudlariga alohida vakolatlar taqdim etilib, ba'zi ishlar bo'yicha ular ichki sudlardan ko'ra ustunroq ko'rilgan. Shu sababli bunday holatlarda hududiylik tamoyili ishlmagan va u xalqaro shartnomalar orqali cheklangan.

Boshqa tomondan, shaxslarni e'tibor markaziga qo'ygan holda, fuqarolarning o'z davlatlaridan tashqarida sodir etgan jinoyatlari uchun ham ularning fuqaroligi tegishli bo'lgan davlat jazo tayinlashi lozim deb hisoblovchi qarash ham mavjud (Yaponiya Jinoyat qonuni 3-modda. Davlat tashqarisidagi jinoyatlar, 4-modda. Davlat xizmatchilarining davlat tashqarisidagi jinoyatlari). Shuningdek, o'z fuqarolari davlat tashqarisida sodir etilgan jinoyatda jabrlanuvchi bo'lib qolsa, jinoyat sodir etgan shaxs qaysi mamlakat fuqarosi bo'lishidan qat'i nazar unga jazo tayinlash lozim deb hisoblovchi qarash ham mavjud (3-modda, 2-band. Davlat fuqarolari bo'lmagan shaxslar tomonidan davlat tashqarisida sodir etilgan jinoyatlar). Bularning birinchisi **aktiv tegishlilik tamoyili** deb atalsa, ikkinchisi **passiv tegishlilik tamoyili** deb ataladi. Lekin hududiylik tamoyiliga ko'ra sud qilinishi lozim bo'lgan jinoyatlarning barchasini tegishlilik tamoyili bo'yicha sud qilgandan ko'ra, ma'lum bir juda ham muhim xarakterga ega bo'lgan jinoyatlarnigina tegishlilik tamoyiliga ko'ra sud qilish lozim deb hisoblaydigan

davlatlar soni ko'p. Masalan, Yaponiya fuqarosi chet elda Yaponiya fuqarosi bo'lmagan boshqa bir davlat fuqarosini qasddan o'ldirsa, bu og'ir jinoyat hisoblanib, jinoyat sodir etilgan mamlakat hududiylik tamoyiliga tayanib sud qilishidan tashqari, Yaponiya va jabrlanuvchining davlati ham aktiv tegishlilik tamoyili hamda passiv tegishlilik tamoyili bo'yicha yurisdiksiyaga ega bo'lib jinoyat jazoni tayinlashi mumkin.

Jinoyat sodir etilgan hudud uning hududi bo'lmagan va sodir etilgan jinoyatga fuqarolarining ham umuman aloqasi bo'lmagan davlat, ushbu jinoyat oqibatida uning huquqiy manfaatlarini buzilayotgan bo'lsa mazkur jinoyatga nisbatan jazo qo'llashi mumkin degan **himoya tamoyili** ham mavjud. Masalan, Yaponiya milliy valyutasini soxtalashtirish chet elda chet el fuqarolari tomonidan amalga oshirilsa-da, Yaponiya manfaatlariga putur yetkazilayotgani sababli, Yaponiya himoya tamoyiliga asoslanib mazkur jinoyatga jazo tayinlashi mumkin bo'ladi (Jinoyat qonuni 2-modda. Har qanday shaxslarning chet eldagi jinoyatlari) (→**Chapter 3**).

(2) Davlatlarning mushtarak manfaatlarini buzilishiga nisbatan munosabat

Bir davlatning huquqiy manfaatlarini bevosita buzilmasa-da, davlatlarning umumiy manfaatlariga putur yetkazuvchi jinoyat sodir etilsa, barcha davlatlar mazkur jinoyatga nisbatan ichki jinoyat qonunchiligiga asoslanib jazo tayinlashi mumkin bo'ladi. Bunday qarash **universallik tamoyili (butunjahon tamoyili)** deb ataladi.

Qaroqchilik bir qancha davlatlarning umumiy manfaatlariga putur yetkazuvchi jinoyat sifatida, qadimdan xalqaro odat huquqida universallik tamoyiliga asoslanib jazolash mumkin bo'lgan obyekt deb hisoblab kelingan. BMTning Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyasida (1982-yil) ham bunga alohida e'tibor qaratilib, har qanday davlatning harbiy kemasi hamda vakolatga ega bo'lgan hukumat kemasi, shuningdek, havo kemasi qaroqchilikni nazoratga olishi mumkin deb belgilangan (110-modda). Lekin davlatlar o'z yurisdiksiyalarini amalga oshirish majburiyatini olmagan sababli qaroqchilik bo'yicha berilishi mumkin bo'lgan jazolar tayinlanmay qolib ketadi.

Bir qancha davlatlarning umumiy manfaatlarining buzilishi deb hisoblanib, qaroqchilik kabi universallik tamoyiliga asosan jazolanadigan jinoyat turi xalqaro odat huquqida amalda deyarli mavjud emas. Xalqaro shartnomalarda universallik tamoyiliga asoslanib munosabatda bo'lishni belgilaydigan dastlabki qoidalarni urush jabrdiydalarini himoya qilish uchun 1949-yilda qabul qilingan **Jeneva konvensiyasida** uchratishimiz mumkin. Mazkur xalqaro shartnoma himoyasi ostida bo'lgan shaxslar yoki mulkka nisbatan ma'lum bir harakatlarni **«katta ahamiyat kasb etuvchi zid harakatlar»** deb atab, **«topshirish yoki jazolash (aut dedere aut judicare)»** majburiyatini yuklaydi. Keyinchalik, **Havo kemalarining noqonuniy egal-lanishining oldini olish to'g'risidagi konvensiya** va **Dengiz navigatsiya-**

lariga qarshi noqonuniy harakatlarning oldini olish to'g'risidagi konvensiya hamda terrorizm bilan aloqador boshqa xalqaro shartnomalarda ham yuqoridagi kabi majburiyat belgilab qo'yilgan. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, yuqoridagi xalqaro shartnomalarda universallik tamoyili qabul qilingan bo'lsa-da, xalqaro shartnomaning a'zosi bo'lgan davlatlargagina jazolash majburiyatini yuklashini unutmazlik darkor.

Bundan tashqari, Jeneva konvensiyasi va uning birinchi qo'shimcha protokolida (1977-yil) urush jinoyati og'ir jinoiy qilmish sifatida baholanib, **qaroqchilik qilmishi** bilan bir xil turdagi xalqaro jinoyat deb baholab kelingan. Biroq bunday harakatlar 1990-yillarda Xalqaro Jinoyat Sudini tashkil etish jarayonlarida genotsid jinoyati bilan bir xil turdagi jinoyat, ya'ni butun xalqaro hamjamiyatning huquqiy manfaatlariga putur yetkazuvchi xarakterga ega deb topilgan. Shunday qilib, bir qancha mamlakatlarning umumiy huquqiy manfaatlariga putur yetkazuvchi jinoyatlar va butun xalqaro hamjamiyatning huquqiy manfaatlariga putur yetkazuvchi jinoyatlarning bir-biridan farqi unchalik aniq va ravshan emas. Biroq davlatlar ushbu ikki turdagi jinoyatlarni sud qilganlarida universallik tamoyiliga asoslanishlari mumkin.

Yaponiyadan xalqaro shartnomalarga asosan jazo tayinlash talab etilsa, maxsus qonun qabul qilish orqali mamlakat ichidagi ijro ta'minlanadi. Shuningdek, 1987-yildan boshlab kuchga kirgan xalqaro shartnoma-

lar orqali Yaponiyaga nisbatan uning hududidan tashqarida sodir etilgan jinoyatlarga jazo tayinlash majburiyati yuklanadigan bo'lsa, Yaponiya jinoyat qonunida keltirilgan jinoyatlarga to'g'ri keladigan doirada jazolashni Jinoyat qonuniga ko'ra amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ldi (Yaponiya jinoyat qonuni, 4-modda 2-band «**Xalqaro shartnomalarga ko'ra davlat tashqarisidagi jinoyatlar**»). Ushbu chora-tadbirlar natijasida universallik tamoyiliga asoslanuvchi jazo tayinlash xalqaro shartnomalar orqali talab qilinsa ham ma'lum bir darajada ularga nisbatan munosabat bildirish imkoniyati paydo bo'ldi. Bundan tashqari, qarochilik harakatlari bo'yicha xalqaro shartnomalarda jazo tayinlash majburiyati mavjud bo'lmagan, Yaponiya jinoyat qonunchiligida ham universallik tamoyiliga asoslanib jazo tayinlash imkoniyatini taqdim etuvchi normalar bo'lmagani sababli, qonunda belgi-

langan jinoyatlar yuzasidan hududiylik tamoyili hamda tegishlilik tamoyiliga asoslanibgina yurisdiksiya belgilanib, jinoyatga jazo tayinlash amalga oshirilgan, xolos. Lekin 2009-yilda **Qaroqchilikka qarshi choralar to'g'risidagi qonunni** qabul qilish bilan universallik tamoyiliga asoslangan nazorat qilish masalasi ichki qonunchilikda ham o'z aksini topdi.

(3) Butun xalqaro hamjamiyatning huquqiy manfaatlari buzilishiga nisbatan munosabat

Genotsid jinoyati, insoniyatga qarshi jinoyatlar, urush jinoyati hamda agressiya jinoyati bugungi kunda butun xalqaro hamjamiyatning huquqiy manfaatlariga putur yetkazuvchi jinoyatlar sifatida baholanib, jismoniy shaxsning javobgarligini bevosita xalqaro huquqqa asoslanib talab etish mumkin. Lekin genotsid jinoyati bo'yicha yahudiylarga nisbatan amalga oshirilgan ommaviy qirg'in kabi ach-

Column

Harbiy nizo taraflari bo'lgan davlatlar tomonidan urush jinoyatini sodir etgan shaxslarni jazolash – Yamashita sudi

Urush jinoyati harbiy nizoning taraflari bo'lgan davlatlar uchun katta xavf tug'dirgani sababli, harbiy nizolar davomida o'sha mamlakatda jazolanish hollari ko'p uchraydi.

Ikkinchi jahon urushi davrida Yaponiya tomonidan sodir etilgan urush jinoyatlari ham qarshi tomon bo'lgan Ittifoqdosh davlatlar tomonidan jazolangan. Filippin okrugidagi quruqlik qo'shinlari generali Tomoyuki Yamashita ham Yaponiya mag'lubiyatga uchraganidan so'ng Manilada tashkil etilgan harbiy sud tomonidan jazoga tortiladi. Ushbu Yamashita sudi asosiy shtab va front o'rtasidagi aloqalar uzilib qolgan bir holatda bo'ysunuvchi harbiylar tomonidan amalga oshirilgan urush jinoyatlari uchun yuqori turuvchi komandirlar guruhi ham javob beradimi yoki yo'qmi degan masala ko'tarilganligi uchun ham mashhur hisoblanadi. Suratda sud yakunida qasam ichayotgan general Yamashita aks etgan.



(Manba: United States Army Signal Corps./Harry S. Truman Library & Museum)

chiq tajribadan kelib chiqib, 1948-yil Ikkinchi jahon urushidan so'ng darhol **Genotsid jinoyatining oldini olish va uni jazolash to'g'risidagi konvensiya** (Genotsid konvensiyasi) qabul qilindi. Ammo ushbu konvensiyada hududiylik tamoyiliga asoslanib davlat tomonidan tayinlanadigan jazo va xalqaro darajadagi jinoyat sudlari tomonidan tayinlanadigan jazolar hamda ekstraditsiya masalasigina keltirilgan edi. Shuningdek, urush jinoyatining bir turi sifatida 1949-yilgi Jeneva konvensiyalaridagi og'ir jinoiy qilmishlar ham davlatlarning o'zaro mushtarak huquqiy manfaatlariga putur yetkazuvchi jinoyatlar sifatida baholanib kelingan. Yana bir misol sifatida, yo'q qilib yuborish va quvg'in qilish kabi insoniylikka zid bo'lgan jinoyatlar Ikkinchi jahon urushi natijasida tashkil etilgan **Xalqaro harbiy sud** va **Uzoq sharq xalqaro harbiy sudi** nizomlarida ko'zda tutilmagan edi. Shuningdek, Xalqaro jinoyat sudi (ICC) qoidalari ishlab chiqilmagunicha xalqaro shartnomalarda ham ularga tegishli normalar mavjud bo'lmagan.

Bunday vaziyat dunyoning turli mintaqalarida keng ko'lamda tizimli ravishda insoniylikka zid bo'lgan harakatlarning sodir etilishi natijasida asta-sekinlik bilan o'zgardi. Hech bo'lmaganda genotsid jinoyati, insoniyatga qarshi jinoyatlar va urush jinoyati butun xalqaro hamjamiyatning huquqiy manfaatlariga putur yetkazuvchi xalqaro jinoyatlar sifatida baholanib, davlatlar universallik tamoyiliga asoslanib ularga nisbatan jazo tayinlashlariga umid bog'landi. Lekin

universallik tamoyiliga asoslanuvchi amaliyot xalqaro shartnomadan kelib chiquvchi majburiyat bo'lishiga qaramay, Jeneva konvensiyalarida belgilangan og'ir jinoiy harakatlar yuzasidan qoniqarli darajada emas. 1990-yillardagi sobiq Yugoslaviya urushi va Ruanda ichki urushlarida BMT Xavfsizlik Kengashi Sobiq Yugoslaviya bo'yicha xalqaro jinoyat tribunali (ICTY) va Ruanda bo'yicha xalqaro jinoyat tribunali (ICTR)ni tashkil etishining sababi ham, aslida, aloqador davlatlarning jinoyatlarga jazo tayinlash tizimini amalga oshirishning imkonsizligi va jinoyat sodir etgan shaxslarni jazosiz qoldirish xalqaro tinchlikka raxna soladi deb hisoblanganidir.

Xalqaro shartnomaga asoslanib tashkil etilgan Xalqaro jinoyat sudi (ICC) ham davlat sud qila olmagan yoki jinoyatlarni yashirishi mumkin bo'lgan hollardagina to'ldiruvchi yurisdiksiyaga ega bo'lishi belgilanib, davlat tomonidan jazo tayinlash katta ahamiyatga ega ekanini bildiradi. Lekin mazkur xalqaro darajadagi jinoyat sudlarining normalari davlatlarga jinoyatlarni jazolash majburiyatini yuklamaydi. Alohida xalqaro shartnomada bunday majburiyat yuklanmagani sababli, Yaponiya ham Jinoyat qonunining 4-modda 2-bandini qo'llab jazo tayinlamaydi. Genotsid jinoyati, insoniyatga qarshi jinoyatlar hamda urush jinoyati bilan bir qatorda unchalik ham munozara etilmaydigan agressiya jinoyati universallik tamoyiliga asoslanib, jazolash obyekti sifatida ko'rilishi biroz shubha ostiga olinadi. Jismoniy shaxslar jazo-

Universallik tamoyiliga ko'ra jazolash – Adolf Ayxman ishi (→ Keysbuk 46)

Ikkinchi jahon urushi davrida yahudiylarga qarshi amalga oshirilgan ko'chirish va quvg'in harakatlariga aloqador bo'lgan natsist podpolkovnik Ayxman urushdan so'ng Argentinaga borib yashirinadi. 1960-yilda Isroilning maxfiy xizmati uni qo'lga olib, Argentinaning roziligisiz, mamlakat mustaqilligining 150 yilligiga tashrif buyurgan Isroil vakilining El Ay havo kemasiga ortib yashirincha Isroilga olib kelishadi. Ushbu harakat Xavfsizlik Kengashining rezolyutsiyasida ham Argentinaning suverenitetiga daxl qilish sifatida baholangan (138-son rezolyutsiya (1960-yil)).

Podpolkovnik Ayxman yahudiylarga qarshi jinoyat, insoniylikka qarshi jinoyat hamda urush jinoyatida ayblanib, uning ustidan Quddus okrug sudiga da'vo kiritiladi. Sudda Isroil davlati tashkil etilishidan avval sodir etilgan qilmishiga nisbatan jazo tayinlash, qonuniylik tamoyili, jinoyat sodir etilgan davlatdan boshqa davlatda jazolash hamda shaxsni sudga olib kelinishining qonunga xilof ekani kabi masalalar munozara markazida bo'ldi. Sud qonuniylik tamoyili xalqaro odat huquqi emasligi, shaxsni sudga olib kelishning noqonuniyligi yurisdiksiyaga ta'sir etmasligini ta'kidlab, Ayxmanning harakatlari universallik tamoyiliga ko'ra har qanday davlatning jazolash obyekti bo'lishi mumkinligini aytdi. Shuningdek, himoya tamoyili va passiv tegishlilik tamoyillaridan ham foydalanib unga o'lim jazosini tayinladi. Isroil Oliy sudi ham Ayxmanning apelyatsiya shikoyatini rad etdi.



Quddus hududiy sudidagi sud jarayonida prokuror (1961-yil).



Ayxmanning lavozimda paytidagi surat.

(Manba: Yad Vashem tomonidan taqdim etilgan)

lash obyekti sifatida ko'rilishi bilan birgalikda, agressiya jinoyatida davlatning agressiyaga oid harakatlariga nisbatan ayblov ham yuzaga kelishini hisobga olish zarur. Aynan shuning uchun agressiya jinoyatini Xalqaro jinoyat sudi (ICC) statutiga kiritish bo'yicha majlislarda ham a'zo davlatlar ushbu jinoyat turi bo'yicha keng miqyosda universallik tamoyilidan foydalanishga nisbatan passiv munosabat bildirgan holda qaror qabul qilishgan edi (→3(3)).

3 Xalqaro darajadagi jinoyat sudlari tomonidan jazo tayinlash

(1) Xalqaro harbiy tribunal va Uzoq sharq xalqaro harbiy tribunali

Davlatdan boshqa bir tuzilma tomonidan xalqaro jinoyatlarga jazo tayinlanishini ko'z oldimizga keltiradigan bo'lsak, Birinchi jahon urushidan keyin tinchlik sulhi sifatida tuzilgan Versal shartnomasi belgilab bergan maxsus sud tomonidan Germaniya imperatorining shaxsiy javobgarligini belgilash gavdalanadi (227-modda. Kayzerning javobgarligiga oid norma). Lekin ushbu sud Niderlandiya davla-



Xalqaro harbiy tribunal (Nyurnberg tribunali) javobgarlar va ularning advokatlari uchun ajratilgan joylar. Orqa tomondan 2-qatorning chap tomonida Reyxmarshal Herman Gering, Fyurer o'rinbosari Rudolf Hess, Tashqi ishlar vaziri Yoahim Ribbentrop kabi davlat odamlari o'tirishibdi.

(Manba: AP/Afloimages)



Uzoq sharq xalqaro harbiy tribunal (Tokio tribunali) javobgarlar va ularning advokatlari uchun ajratilgan joylar.

Oldingi qatordan sanaganda chapdan 3-qatordagi ayblanuvchilar joyida tikka turgan Bosh vazir Hideki Tojo, uning orqasida esa Shumei Okava ko'rinmoqda.

(Manba: Kingendai/Afloimages)

ting Germaniya imperatorini ekstradiitsiya qilishga ko'nmaganligi sababli amalga oshmay qoldi.

Ikkinchi jahon urushidagi Germaniya va Yaponiya fuqarolari tomonidan amalga oshirilgan harakatlar har bir Ittifoqdosh mamlakatlarning harbiy sudlari tomonidan jazolash obyekti sifatida ko'rilgan. Bundan tashqari, ikki davlatning boshliqlari tomonidan tinchlikka qarshi jinoyat, insoniylikka qarshi jinoyat hamda urush jinoyatlarining sodir etilganini sud qilish uchun Xalqaro harbiy sud va Uzoq sharq xalqaro harbiy sudi mos ravishda Nyurnberg hamda Tokioda tashkil etildi (9-1). Nyurnberg tribunali Buyuk Britaniya, AQSh va Fransiya o'rtasidagi kelishuvga asoslanib tashkil etilgan bo'lsa, Tokio tribunali Ittifoq-

dosh mamlakatlar tomonidan alohida vakolat taqdim etilgan Ittifoqdosh kuchlar oliy qo'mondoni tomonidan tashkil qilingan. Ikki davlatda tashkil etilgan xalqaro harbiy sudlar davlatning boshqaruv apparatida bo'lgan shaxslarni jazolashni amalga oshirish nuqtayi nazaridan tarixiy ahamiyat kasb etsa-da, sudlarning xarakteri va ular tomonidan qo'llanilgan normalar borasida munozaralar mavjud bo'lib, sud faqatgina g'olib mamlakatlar tomonidan amalga oshirilgani ham tanqid ostiga olinadi.

Shunday qilib, shubhalarga chek qo'yish zaruratidan BMT Bosh Assambleyasi xalqaro harbiy sudlarning asosini belgilab beruvchi qarorni 1946-yil qabul qilib (95(l) Rezolyutsiyasi), Assambleyaning yordamchi tashkiloti



Sobiq Yugoslaviya bo'yicha jinoyat sudidan misol

1999-yilda ishi boshlanib, 2001-yilda Sobiq Yugoslaviya bo'yicha jinoyat sudiga yuborilgan Yugoslaviya Federativ Respublikasi prezidenti Slobodan Miloshevich. Amaldagi davlat boshlig'i sifatida xalqaro darajadagi jinoyat sudida birinchi marta ishi ko'rib chiqilgan shaxs.



Miloshevich 2006-yilda to'satdan vafot etgan va uning ishi yopilgan.

Ikki sud ham o'z funksiyalarini yakuniga yetkazadi va ulardan qolgan vazifalarni o'z vaqtida bajarish uchun BMT Nizomining VII bo'limiga asosan Xavfsizlik Kengashining rezolyutsiyasi bilan Jinoyat sudlari bo'yicha xalqaro rezidual mexanizm (IRMCT) tashkil etilgan (Xavfsizlik Kengashining 1966-son rezolyutsiyasi).

(Manba: NATO)

bo'lgan Xalqaro huquq komissiyasiga (ILC) «Insoniyatning tinchligi va xavfsizligiga qarshi jinoyatlar»ning kodifikatsiyasini boshlashni buyurdi. Ushbu kodifikatsiya bo'yicha loyiha, va nihoyat, 1996-yilda yakuniga yetib, Xalqaro jinoyat sudi statuti loyihasing asosi qilib olindi.

(2) Sobiq Yugoslaviya bo'yicha xalqaro jinoyat tribunali (ICTY) va Ruanda xalqaro jinoyat tribunali (ICTR)

Ikkinchi jahon urushining tugashigacha davlatdan boshqa bir tuzilma tomonidan jinoyat sudining amalga oshirilishi urushda g'alaba qozongan davlatlar tomonidan birgalikda amalga oshiriladigan xalqaro darajadagi harbiy sudnigina anglatar edi. Keyinchalik ham barcha uchun umumiy bo'lgan xalqaro jinoyat sudini tashkil etish talab etib kelingan bo'lsa-da, uning tuzilishi ancha uzoqqa cho'zildi.

1990-yillarga kelib, dunyo hamjamiyati Sobiq Yugoslaviya va Ruandada keng ko'lamdagi insoniylikka qarshi bo'lgan harakatlarning guvohi bo'ldi. Ammo davlatlar tomonidan jinoyatchilarga jazo tayinlanmadi. Ushbu holatga nisbatan chora ko'rish maqsadida BMT Xavfsizlik Kengashi unga yordamchi organlar sifatida, BMT Nizomining VII bo'limiga asoslanib, Sobiq Yugoslaviya bo'yicha xalqaro jinoyat tribunali (ICTY – Xavfsizlik Kengashining 827-son rezolyutsiyasi (1993-yil)) va Ruanda xalqaro jinoyat sudi (ICTR – Xavfsizlik Kengashining 955-son rezolyutsiyasi (1994-yil))ni tashkil etish bo'yicha rezolyutsiyalar qabul qildi. Ushbu sudlar muvofiq ravishda Niderlandiyaning Gaaga va Tanzaniyaning Arusha shaharlarida tashkil etildi.

Yugoslaviya bo'yicha sud 1991-yil Sobiq Yugoslaviya hududida sodir etilgan Jeneva konvensiyalarida belgilangan og'ir jinoiy qilmishlar, urush qoidalari va odatlariga zid harakatlar, genotsid hamda insoniyatga qarshi jinoyatlar yuzasidan o'z yurisdiksiyasini belgiladi. 2015-yil bahorigacha 160 dan ortiq shaxsning ishi ko'rib chiqildi (9-2). Ruandadagi ichki urushlarda sodir etilgan qilmishlarni jazolovchi Ruanda sudi 1994-yilda bir yil mobaynida amalga oshirilgan genotsid jinoyati, insoniyatga qarshi jinoyatlar hamda **Jeneva konvensiyalarining 3-moddalari** va ularga **2-qo'shimcha protokolning qo'pol ravishda buzilishini** jazolash obyekti sifatida belgilab, 90 ta shaxsga sud hukmi o'qildi.

(Statutga o'za mamlakatlar soni 124 ta, agressiya jinoyati bo'yicha normalarni ratifikatsiya qilgan yoki unga rozilik bergan mamlakatlar soni 32 ta (2017-yil yanvar holatiga ko'ra)

5-modda 1-bandi (Statutning obyekti bo'lgan jinoyatlar ro'yxati)

- (a) Genotsid jinoyati
- (b) Insoniyatga qarshi jinoyatlar
- (c) Urush jinoyati
- (d) Agressiya jinoyati



Cour
Pénale
Internationale

International
Criminal
Court

1998-yil statutni qabul qilish jarayonida ta'rif va yurisdiksiyadan foydalanish holatlari belgilanmay, 1-bandning (d)da agressiya jinoyatining nomigina keltirilgan edi.

2-band

5-modda 1-bandidagi (d)ni qabul qilib, ushbu moddaning 2-bandida agressiya jinoyati bilan bog'liq normalardan keyingi qo'shimchalar belgilangan. Keyinchalik, 2010-yilgi o'zgartirishlarda 2-band orqali qo'shimcha normalar qabul qilindi. Avvalgi 2-band o'z funksiyalarini yo'qotib, statutdan o'chirib tashlandi.

6-modda (Genotsid jinoyatining ta'rifi)

7-modda (Insoniyatga qarshi jinoyatlarning ta'rifi)

8-modda (Urush jinoyatining ta'rifi)

1-band. Statutning obyekti bo'lgan urush jinoyatining uyushganlik xarakteri va keng ko'lamliligi bilan bog'liq talablar.

2-band. (a) Jeneva konvensiyalarida belgilangan normalarning o'ta qo'pol ravishda buzilishi (grave breaches i – viii).

(b) Xalqaro miqyosdagi harbiy nizolarga nisbatan qo'llaniladigan qoidalarning jiddiy ravishda buzilishi (serious breaches i – xxvi)

(c) Jeneva konvensiyalarining 3-moddasining jiddiy ravishda buzilishi (serious breaches i – iv)

(e) Xalqaro miqyosda bo'lmagan harbiy nizolarga nisbatan qo'llaniladigan qoidalarning jiddiy ravishda buzilishi (serious breaches i – xii, 2010-yilgi o'zgartirishlarda (e) xii dan xv gacha qo'shimcha kiritilgan).

8.2-modda (Agressiya jinoyatining ta'rifi) (2010-yilda o'zgartirishlar kiritilgan)

1-band. Agressiya jinoyati

2-band. Agressiya jinoyatining asosi sifatida zarur bo'lgan davlat tomonidan sodir etilgan agressiya harakati (act of aggression)ning ta'rifi.

(3) Xalqaro jinoyat sudi

Sobiq Yugoslaviya va Ruanda bu kabi harakatlarni jazolashni keng bo'yicha jinoyat sudlari ma'lum bir nizolarda yuz bergan insoniyatga qarshi jinoyatlarni jazolash maqsadida Xavfsizlik Kengashining rezolyutsiyasi bilan tashkil etilgan edi. Shuning uchun bu kabi harakatlarni jazolashni keng miqyosda amalga oshira oladigan sudni tashkil etish zarurati 1990-yillarning o'rtalarida ko'pchilik tomonidan baralla ta'kidlana boshlandi. Vaziyatni e'tiborga olgan holda, BMT xalqaro

miqyosdagi jinoyat sudini tashkil etish to'g'risidagi shartnoma loyihasini tayyorlashni boshlab yubordi va 1998-yil Rimda Xalqaro jinoyat sudi statuti qabul qilindi (9-3). Ushbu statutning kuchga kirishi uchun 60 ta ratifikatsiya yorlig'i talab etilar edi va 2002-yilda talab qilingan ratifikatsiya yorliqlari yig'ilib, statut kuchga kirdi.

BMTdan mustaqil bo'lgan, yuridik shaxs maqomi taqdim etilgan Xalqaro jinoyat sudi (ICC) Niderlandiyaning Gaaga shahrida joylashgan. U sud bo'limi, prokuratura devoni va kotibiyatdan tashkil topadi. Uning jazolash obyektlari genotsid jinoyati, insoniyatga qarshi jinoyatlar, urush jinoyati hamda agressiya jinoyatidir. Bulardan agressiya jinoyatining, statut qabul qilinayotgan paytda, ta'rifi hamda u bo'yicha yurisdiksiyani belgilashga oid shartlarni ishlab chiqish ro'yobga chiqmay qoldi. Natijada ushbu jinoyatga nisbatan jazo tayinlashning imkonini mavjud bo'lmagan. Keyinchalik, 2010-yilda Ugandaning Kampala shahrida tashkil etilgan statutni o'rganishga bag'ishlangan yig'ilishlarda agressiya jinoyati bo'yicha qo'shimcha normalar statutga kiritildi. Ushbu o'zgartirish kuchga kirishi uchun 30 ta davlatning ratifikatsiya yorlig'i yoki roziligi hamda 2017-yildan keyin a'zo mamlakatlar yig'ilishida tasdiqlovchi qaror chiqarishi shart etib belgilandi.

Xalqaro jinoyat sudining yurisdiksiyasi **to'ldiruvchanlik tamoyili** hamda **aloqador davlatlarning roziligi tamoyiliga** asoslanadi. To'ldiruvchanlik tamoyili deganda qaysi


davlat bo'lishidan qat'i nazar jinoyatchiga oqilona jazoni tayinlay olmasa, Xalqaro jinoyat sudi davlatning yurisdiksiyasini to'ldirib jinoiy jazoni tayinlashi tushuniladi. Agar davlat o'z yurisdiksiyasini belgilamasa, jinoyat sodir etilgan davlat yoki gumonlanuvchi fuqarosi bo'lgan davlatlardan biri statutga a'zo bo'lsa yoki a'zo bo'lmasa ham Xalqaro jinoyat sudining yurisdiksiyasiga rozi bo'lsa Xalqaro jinoyat sudi ishni ko'rib chiqishi mumkin bo'ladi. Mana shu aloqador davlatlarning roziligi tamoyili deb ataladi. Bu yerda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan masala hududiylik tamoyili va aktiv tegishlilik tamoyiliga asoslanib jazo tayinlashi mumkin bo'lgan davlatlardan birining roziligi yetarli ekanidir. Ya'ni jinoyat sodir etilgan davlatning roziligi mavjud bo'lsa, gumonlanuvchi fuqarosi bo'lgan davlat statutga a'zo bo'lmasa ham uning fuqarosi Xalqaro jinoyat sudida javobgarlikka tortiladi. Lekin 2010-yildagi o'zgartirishlarda agressiya jinoyati va urush jinoyatining bir qismiga kiritilgan qo'shimchalar yuzasidan Xalqaro jinoyat sudi o'z yurisdiksiyasini belgilashi uchun gumonlanuvchi fuqarosi bo'lgan davlatning roziligi zarur deb topilgan.

Statutga a'zo mamlakat Xalqaro jinoyat sudiga murojaat qilib chiqqanda yoki prokuror o'z vakolatlaridan foydalangan holda tergov ishlarini boshlaganda yuqoridagi kabi aloqador davlatlarning roziligi talab etilsa-da, BMT Nizomi VII bo'limiga asosan Xavfsizlik Kengashi chiqargan rezolyutsiyasi bilan sudga topshirilgan ish bo'lsa,

Aralash sud

Ichki sudga xalqaro elementlarni qo'shib, xalqaro sud va ichki sudning o'rtasidagi jinoyat sudlarini tashkil etish tajribasi ham mavjud. Bunday sudlar ham davlat tomonidan jinoyatlarga jazo tayinlash imkoni bo'lmay qolgan holatlarni bartaraf etish uchun tashkil etiladi. Bunday sudlar, asosan, Xavfsizlik Kengashining o'zida qarama-qarshilik yuzaga kelib, BMT Nizomining VII bo'limiga ko'ra rezolyutsiyani qabul qilishning imkoni mavjud bo'lmagan, xalqaro darajadagi sud ish hajmi kattaligidan eng asosiy ishlarni ko'rib, qolganlar yuzasidan jazo tayinlashni ichki sud ixtiyoriga topshirgan vaziyatlarda tashkil etiladi. Bu turdagi sudlarni tashkil etish sabablari va usullari, huquqiy asoslari turli xil bo'lgani sababli, ular umumiy qilib aralash sudlar deb ataladi (mixed tribunal, hybrid tribunal).

Aralash sud sifatida ko'pchilik tomonidan e'tirof etiladigan sud bu - 2003-yilda BMT va Kambodja o'rtasidagi kelishuvga asosan Kambodja sudi maxsus sud bo'limi (ECCC)dir. U kambodjalik sudyalardan tashkil topib, Kxmer Ruj davrida keng ko'lamda insoniyatga qarshi jinoyatlar sodir etilib, aynan ushbu



ishga aloqador shaxslar sud qilingan. Xarakteri biroz farq qilsa-da, BMT boshchiligidagi tashkil etilgan Kosova va Sharqiy Timorda tashkil etilgan aralash jinoyat sudi, Serra Leone maxsus sudi (2000-yil), Livan maxsus sudi (2007-yil) kabilari ham mavjud. Markaziy Afrikada esa Xalqaro jinoyat sudiga murojaat etish bilan birgalikda, 2015-yilda aralash sud tashkil etish to'g'risidagi akt ham qabul qilindi.

(Manba: ECCC)

aloqador davlatlarning roziligi statutga ko'ra talab etilmaydi.

2015-yil bahorigacha Kongo Respublikasi, Markaziy Afrika, Uganda, Sudan, Keniya, Liviya, Kod-Diuar va Mali kabi asosan Afrika davlatlari bilan bog'liq ishlar sudga kelib tushdi. Bular ichida Sudan bilan bog'liq ish Xavfsizlik Kengashining rezolyutsiyasi (Xavfsizlik Kengashi 1593-son rezolyutsiyasi 2005-yil) bilan kelib tushgan ish bo'lsa-da, gumonlanayotgan Sudan prezidenti Al-Bashir haligacha qo'lga olingani yo'q.

Yaponiya Xalqaro jinoyat sudi statuti o'sha paytda imzolanmagan bo'lsa-da, 2007-yilda unga a'zo bo'ldi. Shu bilan birga, Xalqaro jinoyat sudi oldidagi majburiyatlarni bajarishda hamkorlik qilish maqsadida **Xalqaro jinoyat**

sudi bilan hamkorlik akti qabul qilindi. Avval aytib o'tganimizdek, statut o'z obyekti bo'lgan jinoyatlarga jazo berishni davlatlar zimmasiga majburiyat sifatida yuklamaydi. Shu sababli Yaponiya ham statut obyekti bo'lgan jinoyatlarga milliy qonunchilik orqali jazo tayinlash uchun yangitdan qonunchilikka o'zgartirishlar kiritishni amalga oshirmadi. Yaponiya avvalda Jinoyat qonunida mavjud bo'lgan jazo tayinlash imkoniyatlaridan kelib chiqib statutning obyekti bo'lgan jinoyatlarga nisbatan jazo tayinlashni amalga oshiradigan bo'ldi. Ammo dalillarni yashirish va yo'q qilish kabi Xalqaro jinoyat sudi faoliyatiga xalal beruvchi harakatlarga nisbatan Xalqaro jinoyat sudi bilan hamkorlik aktida yangi sanksiyalar belgilandi.

4 Jinoyatchilarni ekstraditsiya qilish

(1) Chet elga ekstraditsiya qilish

Davlat chet ellik shaxslarning mamlakatga kirib kelishi va undan chiqib ketishiga ruxsat berish masalasini erkin hal etgani sababli, chet elda jinoyat sodir etgan shaxsning uning hududiga kirib kelishini rad etish majburiyatini olmaydi. Shuningdek, boshqa davlat tomonidan jinoyatchini ekstraditsiya qilish talabiga javoban ekstraditsiya qilish majburiyati ham mavjud bo'lmaydi. Shuning uchun jinoyatchini mamlakat hududida yashirishga huquqiy jihatdan ruxsat beriladi va bu **hududiy himoya (boshpana berish)** deb ataladi. Bundan tashqari, qochqinlarni qabul qilish va ularni himoya qilish bo'yicha xalqaro huquqdagi qoidaning asosi ham hududiy himoya hisoblanadi. Boshqa davlat hududida bo'lgan jinoyatchini ushbu davlat hududiga kirib majburiy ravishda olib ketish davlatning hududiy suverenitetining buzilishi hisoblanadi. Shuningdek, chet elda joylashgan diplomatik vakolatxonalariga qochib kelgan shaxslarni **diplomatik himoyaga olish (boshpana berish)** u xalqaro huquqda tan olinmaydi.

Aksincha, davlat jinoyat sodir etgan shaxsni o'z ixtiyoriga ko'ra boshqa davlatga topshirishi mumkin. Bu **jinoyatchilarni ekstraditsiya qilish (extradition)** deb ataladi. Ekstraditsiya qilishni xalqaro shartnomalar orqali davlatlar majburiyat sifatida qabul qilishlari mumkin. Bunday majburiyatni yuklovchi xalqaro shartnomalarga

ekstraditsiya qilish to'g'risidagi xalqaro shartnomalar deb ataladi. Yaponiya AQSh va Janubiy Koreya bilan shunday xalqaro shartnomalar tuzgan.

Davlatning xalqaro shartnomaga ko'ra ekstraditsiya qilish majburiyati mavjud bo'lmasa uni amalga oshirish yoki amalga oshirmaslik davlat tomonidan ixtiyoriy ravishda belgilanadi. Bunda quyidagi holatlar inobatga olinadi. Avvalo, **ikki tomonlama jazolash imkoniyatining mavjudligi** sharti talab etiladi. Bunda, muammo bo'lib turgan qilmishning jinoyatchi turgan davlat va uning ekstraditsiyasini talab qilayotgan davlat, ya'ni ikki tomonning jinoyat qonunchiligida jazolanishi mumkin bo'lgan qilmish bo'lishi lozim deganidir.

Shuningdek, ma'lum bir belgilangan darajadan yuqori og'ir jinoyat sodir etgan shaxslarni ekstraditsiya qilish hollari ko'p uchrasa, boshqa tomondan ba'zi davlatlar o'z fuqarolarini ekstraditsiya qilmaydilar. **Siyosiy jinoyat** sodir etgan shaxslar odatda ekstraditsiya qilinmasda, havo kemalarining noqonuniy tarzda egallanishining oldini olish to'g'risidagi konvensiya kabi maxsus xalqaro shartnomalar orqali siyosiy maqsadda sodir etilganidan qat'i nazar ekstraditsiya qilishni belgilab qo'yuvchi holatlar ham mavjud. Yaponiya chet davlat tomonidan ekstraditsiya talabi kelib tushganda **Qochib kelgan jinoyatchilarni ekstraditsiya qilish to'g'risidagi akt** (1953-yil)ga asoslanib qaror chiqaradi.


(2) Xalqaro darajadagi jinoyat sudlariga ekstraditsiya qilish

Davlatlar o'rtasida jinoyatchilarni ekstraditsiya qilishdan tashqari, davlat va xalqaro darajadagi jinoyat sudlari o'rtasida ham ekstraditsiya qilish masalasi yuzaga keladi (9-4). BMT Nizomining VII bo'limiga asosan chiqarilgan rezolyutsiyaga asosan tashkil etilgan Sobiq Yugoslaviya bo'yicha xalqaro jinoyat tribunali va Ruanda bo'yicha xalqaro jinoyat tribunali statutlarida ular ichki sudlardan yuqorida turishi belgilab qo'yilgani sababli, BMT a'zosi bo'lgan mamlakatlar bir xil shaxs yuzasidan ichki sudda ishlarni ko'rib chiqayotgan bo'lsalar ham uni ekstraditsiya qilish majburiyatini olgan.

Xalqaro jinoyat sudi va unga a'zo davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda ekstraditsiya masalasi ham ancha murakkab hisoblanadi. Xalqaro jinoyat sudining statutiga a'zo davlatlar ushbu sud bilan hamkorlik qilish majburiyatini olib, o'z hududlarida bo'lgan gumonlanuvchilarni topshirish talabi mavjud bo'lsa, Xalqaro jinoyat sudiga jinoyatchini topshirish zarur bo'ladi. Xalqaro jinoyat sudi davlatlarning yurisdiksiyalarini to'ldiruvchi sud sifatida xalqaro jinoyat sodir etgan shaxslarni sud qilishini inobatga olsak, bu davlatlar o'rtasidagi gorizontol ekstraditsiyadan farq qilib, ikki tomonlama jazolash imkoniyatining mavjudligi va siyosiy jinoyat sodir etganlarni ekstraditsiya qilmaslik kabi tamoyillar tatbiq etilmaydi. Bundan tashqari, davlat o'z fuqarosi bo'lsa ham ushbu jinoyatchini topshirishi lozim bo'ladi.

Boshqa tomondan, Xalqaro jinoyat sudining statutida davlat boshliqlari masalasida «ommaviy kompetensiyasi»ga asoslanib ularga immunitet taqdim etish rad etilishi (27-modda) belgilanadi. Shu bilan birgalikda, Xalqaro jinoyat sudi «uchinchi davlat»ning «shaxslar yoki mol-mulk bilan bog'liq davlat yoki diplomatik immunitet to'g'risidagi xalqaro huquqqa zid harakatni talab etuvchi» ekstraditsiyani amalga oshirishni statutga a'zo davlatlardan talab etilmaydi deb o'rnatadi (98-modda 1-band). Shuning uchun statutning obyektini hisoblangan jinoyatlarni sodir etgan statutga a'zo bo'lmagan davlat boshliqlari statutga a'zo davlatlar hududida bo'lgan paytda ushbu davlatdan statutga a'zo bo'lmagan davlatning boshlig'ini ekstraditsiya qilishni talab eta olmaydi. Shuningdek, doimiy xorijda bo'lib turgan harbiy qo'shinning a'zosi bo'lgan shaxsning ekstraditsiyasi yuzasidan o'sha davlatning roziligini talab etuvchi kelishuv mavjud bo'lsa, ushbu kelishuvga zid keluvchi ekstraditsiyani talab qila olmaydi (98-modda 2-band).

Lekin BMT Nizomining VII bo'limiga asosan Xavfsizlik Kengashi tomonidan rezolyutsiya chiqarilsa, statutga a'zo bo'lmagan davlatlarning boshliqlari immuniteti ham rad etilib, Xalqaro jinoyat sudiga ekstraditsiya qilish majburiyatga aylanadi. Bundan tashqari, Xalqaro jinoyat sudi va chet davlatning ikkisidan ham bir vaqtda topshirish talabi kelib tushish holati ham statutda belgilab qo'yilgan (90-modda).



Yaponiyaga keladigan bo'lsak, Qo'chib kelgan jinoyatchilarning ekstraditsiyasi to'g'risidagi akt xalqaro darajadagi sudlarga ekstraditsiya qilish masalasini tartibga solmaydi. Misol uchun, Sobiq Yugoslaviya bo'yicha xalqaro jinoyat tribunali va Ruanda bo'yicha xalqaro jinoyat tribunaliga topshirish bilan bog'liq vaziyat yuzasidan ushbu aktga o'zgartirish kiritilmagan. Bugungi kunda Xalqaro jinoyat sudi tomonidan ekstraditsiya qilish talabi kelib tushsa, Xalqaro jinoyat sudi bilan hamkorlik aktiga asosan hamkorlik amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yamamoto Souji, «Xalqaro jinoyat huquqi». – Saneido nashriyoti, 1991-yil.
2. «Maxsus to'plam, Xalqaro jinoyat sudi», Xalqaro huquq va diplomatiya jurnali. – 98-tom, 5-son 1999-yil.
3. Shinya Murase va Keiko Ko tahriri, «Xalqaro jinoyat sudi – eng muhim jinoyatlarni sud qilish» 2-nashr. – Toshindo nashriyoti, 2014-yil.
4. «Maxsus to'plam, Xalqaro jinoyat sudi, agressiya jinoyati bilan bog'liq normalarga nisbatan Yaponiyaning munosabati». – Xalqaro huquq va diplomatiya jurnali, 114-tom, 2-son 2015-yil.

Chapter 10

Davlatlar chegarasini oshuvchi tovarlar, xizmatlar va kapital – Xalqaro iqtisodiy huquq

So'nggi yillarda davlatlar chegarasidagi to'siqlar kamayib, tovarlar, xizmatlar va kapitalning boshqa davlatlardan o'z davlatimizga kirib kelishi yoki yurtimiz mahsulotlarining xorij mamlakatlari tomonidan iste'mol qilinayotganligini sezgan bo'lsangiz kerak. Xo'sh, bu kabi iqtisodiy sohalar ni tartibga soluvchi xalqaro qoidalar va tizim qanday ko'rinishga ega?

Iqtisodiy faoliyatga oid xalqaro huquq doirasining paydo bo'lishi

(1) Ikkinchi jahon urushiga qadar jahon iqtisodiyoti va GATT tizimi

Xorijiy mamlakatlardan import qilinadigan tovarlar bugungi kunda hayotimizning bir qismi bo'lib, xorijiy davlatlar bilan bo'ladigan savdoning hech qanday huquqiy tartibga solinmaganligi va erkin ekanligi haqida tasavvur uyg'otishi mumkin. Biroq boshqa mamlakatlardan import qilish va xorijiy mamlakatlarga eksportni amalga oshirish – bularning barchasi xalqaro shartnomalar bilan tartibga solinadi.

XIX asrda, bir davlat boshqa davlatlar bilan **Eng qulay rejim** (*most-Favored nation treatment*) va **Milliy rejim** (*national treatment*) qoidalariga (→2 (1) ga qarang) asosanib ikki tomonlama savdo shartnomalarini tuzgan va liberalizmga asoslangan tashqi savdo tizimiga qo'shilgan. Keyinchalik, dav-

latlar Birinchi jahon urushi bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun iqtisodiyotga faol ravishda aralasha boshladi. Birinchi jahon urushidan so'ng, 1929-yilda AQShda yuz bergan Buyuk Tushkunlik davri oqibatida har bir mamlakat import cheklovlari va tariflarni oshirish kabi savdoga oid himoyaviy choralarni qo'llay boshladi. Natijada, jahon savdo aylanmasi susayib, bu iqtisodiy jihatdan davlatlarning bloklarga ajralishiga olib keldi. Oqibatda, bloklarga ajralgan iqtisodiyot Ikkinchi jahon urushi boshlanishiga olib kelgan imperial harbiy qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirdi.

Yuqoridagi holat yana takrorlanmasligi uchun Ikkinchi jahon urushi oxirlab qolgan 1944-yil iyul oyida AQShning «Maunt Vashington» mehmonxona-



Bretton-Vudsda bo'lib o'tgan Ittifoqchi davlatlar pul va moliya konferensiyasida (1944-yil) britaniyalik iqtisodchi Jon Maynard Keynes nutq so'zlamog'ida.
(Manba: IMF/AP/Afloimages)

sida Ittifoqchi davlatlarning pul va moliya masalalari yuzasidan Bretton-Vuds konferensiyasi bo'lib o'tdi (10-1). Mazkur konferensiyada urushdan keyingi xalqaro iqtisodiy tartib masalasi muhokama qilindi. Konferensiya natijalariga ko'ra erishilgan shartnoma mazmuni erkin savdo tizimiga asoslangan savdo, valyuta va moliya sohalari-da xalqaro hamkorlik uchun doiraviy asos yaratishdan iborat edi. Ushbu doiraviy kelishuvlar asosida milliy pul birliklarining barqarorligi va valyuta almashtirish kursining liberalizatsiyasini ta'minlash uchun qisqa muddatli moliyalashtirishni amalga oshiruvchi Xalqaro valyuta jamg'armasi (International Monetary Fund: IMF) ta'sis etildi. Shuningdek, urushdan keyingi tiklanish va rivojlanish uchun uzoq muddatli moliyalashtirishni amalga oshiruvchi **Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki** (International Bank for Reconstruction and Development: IBRD) ham tashkil etildi. Bunga qo'shimcha ravishda **Xalqaro moliya korporatsiyasi** (International Finance Corporation: IFC, 1956-yilda), **Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi** (International Development Association: IDA, 1960-yilda), **Investitsiya nizolarini hal etish xalqaro markazi** (International Centre for Settlement of Investment Disputes: ICSID, 1966-yilda), **Ko'ptomonlama investitsiya kafolatlari agentligi** (Multilateral Investment Guarantee Agency: MIGA, 1998-yilda) tashkil etilgan – ushbu tashkilotlarni umumiy qilib **Jahon banki guruhi** (World Bank Group) deb ham ataladi.

Bu vaqtda savdo sohasidagi xalqaro tashkilot – Xalqaro savdo tashkiloti (International Trade Organization: ITO)ni tuzishga urinishlar ham bo'ldi. Ammo Kongress qarshiligi tufayli AQSh tomonidan shartnoma ratifikatsiya qilinmay qoldi va faqat bir necha mamlakatgina uni ratifikatsiya qilishga erishdi. Natijada savdo siyosati masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilot tuzilmasdan qoldi. Shunga qaramasdan, Xalqaro savdo tashkiloti konvensiyasi bilan bog'liq muzokaralar davomida parallel ravishda muhokama qilingan «**Tariflar va savdo to'g'risidagi bosh kelishuv**» 1947-yilda (General Agreement on Tariffs and Trade: GATT) qabul qilindi va keyingi yildan kuchga kirdi. 1955-yilda Yaponiya GATTga qo'shildi. Mazkur davrda asos solingan tizim *Bretton-Vuds* = GATT deb nomlanadi. GATT tartibi ko'p tomonlama savdo tizimining asosi bo'ldi. Bu tizim savdoni liberallashtirishni rag'batlantirganligi sababidan sotsialistik mamlakatlar unda ishtirok etishdan bosh tortdi. Bu vaqtda Sovet Ittifoqi va Sharqiy Yevropa mamlakatlari o'zlari alohida O'zaro iqtisodiy yordam ittifoqi (Council for Mutual Economic Assistance: COMECON) asosida iqtisodiy aloqalarni tashkil etdi.

(2) Endigina mustaqillikka erishgan davlatlardan yangicha talablar

Boshqa tarafdin, Ikkinchi jahon urushidan keyin mustamlaka boshqaruvidan xalos bo'lgan Osiyo va Afrikaning yangi mustaqil davlatlari birin-ketin xalqaro hamjamiyatda paydo bo'ldi. Ular siyosiy mustaqillikka erishib, rivoj-

langan mamlakatlar bilan siyosiy tenglikka ega hisoblansalar-da, iqtisodiy jihatdan rivojlanishi sust darajada edilar. Ushbu rivojlanayotgan mustaqil davlatlar Shimol va Janub o'rtasidagi rivojlanish farqini bartaraf etish uchun iqtisodiy erkinlikka intildilar. Bu yo'lda ular o'z mamlakatlarini rivojlantirish uchun xorijiy sarmoyani jalb etdilar va o'z tabiiy resurslarini milliyashtirdilar. O'z navbatida, Sovuq urush davrida G'arb davlatlari ham rivojlanayotgan mamlakatlarga raqiblarining (Sovet Ittifoqi va Xitoy) kuchayishining oldini olish maqsadida faol yordam ko'rsatdilar.

Ammo an'anaviy xalqaro iqtisodiy tartib rivojlangan davlatlar modeliga moslashtirilgan edi. Rivojlanayotgan davlatlar esa bunday holatda faqat bo'ysunuvchi rolini o'ynashlari mumkinligini hamda Shimol va Janub o'rtasidagi tafovutni faqat kapitalni oshirish hisobiga bartaraf etib bo'lmasligini tushuna boshladilar. 1964-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jenevada bo'lib o'tgan Savdo va rivojlanish konferensiyasi (UNCTAD)da rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida qo'llaniladigan yangi savdo prinsiplari ilgari surildi. Ushbu prinsiplar rivojlanayotgan mamlakatlar mahsulotlariga bir tomonlama umumiy preferensiyalarni joriy qilish, eksport oqibatida yuzaga keladigan daromaddagi yo'qotishlarni qoplash va moliyalashtirish tizimini yaratishga asoslangandi. Shu yili Bosh Assambleya qarori bilan UNCTAD Shimol va Janub muammolari bilan shug'ullanuvchi Birlashgan Millatlar

Tashkilotining doimiy organi sifatida Bosh Assambleya qoshida faoliyat olib boradigan bo'ldi.

Bundan tashqari, 1974-yilda Birlashgan Millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasi iqtisodiy suverenitet, xalqaro hamkorlik va tenglik kabi uchta ustunga tayanuvchi Davlatlarning **iqtisodiy huquq va majburiyatlari ustavini** (Bosh Assambleya qarori 29/3281) qabul qildi. Ta'kidlash joizki, rivojlanayotgan mamlakatlarning tabiiy zaxiralarni milliyashtirishga asoslangan da'volari 1980-yillar o'rtalarigacha Birlashgan Millatlar Tashkilotida ustuvorlik qildi. Bu o'z taqdirini o'zi belgilash prinsipining iqtisodiy jihatlari, shuningdek, tabiiy boyliklar va zaxiralardan ustidan doimiy suverenitetni e'tirof etishni anglatar edi.

Lekin 1980-yillarda yuz bergan va uzoq davom etgan iqtisodiy turg'unlik rivojlanayotgan mamlakatlar savdosi holatini yomonlashtirib, ularda to'lanmay qolgan qarzlarning yig'ilib qolish muammosini paydo qildi va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi tafovutni yanada kuchaytirdi. Natijada, rivojlanayotgan mamlakatlar guruhi orasidagi hamjihatlikning yo'qolib, Sovuq urush tugaganidan so'ng rejalashtiriladigan iqtisodiyot modeli samaradorligining so'roq ostida qolishi kabi turli omillar yangi xalqaro iqtisodiyotga o'tishni muvaffaqiyatsizlikka uchratdi.

Shundan so'ng rivojlanayotgan mamlakatlarning rivojlanishi yuzasidan muammolari bilan ishlaydigan xalqaro tashabbuslarning ilgari surilishi ularning

ichki siyosatiga aralashuvni keltirib chiqara boshladi. Masalan, bunday aralashuv sifatida 1970-yillarda Jahon banki tomonidan insonning asosiy minimal ehtiyojlari (basic human needs: BHN) qarashi o'rtaga tashlanib, bu orqali rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy siyosatiga ta'sir qilish kuzatila boshlandi. O'z navbatida, o'sha vaqtdagi rivojlanayotgan mamlakatlarni buni «**aralashish**» deya hisobladi. Ammo 1990-yillardan boshlab neoliberalizmning keng quloq yoyishi va jahonda qashshoqlik muammolariga qiziqishning oshib borayotgani rivojlanayotgan mamlakatlar taraqqiyoti masalalarini xalqaro darajada hal etish paytida (rivojlangan donor davlatlar va xalqaro banklar tomonidan) ularning ichki iqtisodiy siyosatiga kirib borish holatlari ko'payib bormoqda.

(3) Jahon savdo tashkiloti (JST)-ning tashkil topishi

1940-yillarda tashkil topgan GATT sotsialistik mamlakatlardan tashqari ko'plab mamlakatlarni qamrab olishga erishdi. GATTga a'zo mamlakatlar

tariflarni pasaytirish to'g'risida muzokaralar olib borish uchun bir necha **raundlar** (ko'p tomonlama savdo muzokaralari)ni o'tkazdilar. Muzokaralar natijalariga ko'ra har safar tariflar va boshqa savdo to'siqlari pasaytirib berildi. Natijada, Ikkinchi jahon urushidan keyin rivojlangan mamlakatlarda sanoat tovarlariga o'rtacha 40 %ni tashkil etgan tariflar bir necha raunddan so'ng 6-10 %gacha pasaydi.

1990-yillarda neoliberalizm dunyo miqyosida katta kuchga ega bo'lib, mahalliy huquq tizimiga asoslangan turli xil iqtisodiy qoidalar yumshatildi. Mazkur tendensiya doirasida Urugvay raundi (1986-94) bo'lib o'tdi va u tovarlar savdosi bilangina cheklanib qolmadi. Ushbu raund qishloq xo'jaligi sektoridagi mahsulotlar savdosi (Qishloq xo'jaligiga oid shartnoma), xizmatlar (GATS), intellektual mulk himoyasi (TRIPS), sanitariya va fitosanitariya chora-tadbirlari (SPS) kabi sohalarni ham qamrab oldi. Shuningdek, Urugvay raundi nizolarni hal qilish tizimiga ega bo'lgan JSTga asos solinishiga sababchi bo'ldi (**10-2**), (**10-3**). Raund natijasiga ko'ra sobiq «GATT» endi «GATT 1947» deb atala boshlandi. JSTning ko'p tomonlama savdo kelishuvlaridan tashkil topgan shartnomasi esa «GATT 1994» nomini oldi.

JST sobiq sotsialistik mamlakatlar hisobiga ham kengaydi va GATTga qaraganda anchayin universal tashkilotga aylandi. Hozirgacha 164 mamlakat unga a'zo bo'lib kirdi (2016-yil holatida). A'zo davlatlar soni kengayishi natijasida ularning o'zaro manfaatlarini muvofiqlashtirish va tashkilot



10-2 JST tashkil etilishi (Jeneva, Shveysariya, 1995-yil)

(Manba: Keystone)

miqyosida yagona kelishuvga erishishning murakkablashishi tabiiy bir holat. Shu sababli so'nggi yillarda JST doirasidan tashqarida ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama mintaqaviy savdo kelishuvlarini tuzish ham ommalashib bormoqda.

2 Tovarlar savdosi

GATT va JST kelishuvlaridan kelib chiquvchi ba'zi prinsiplar va istisnolar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

(1) Prinsiplar

(a) Eng qulay rejim (MFN)

Eng qulay rejim deganda bitta mamlakat fuqarolari, kompaniyalari, tovar va mahsulotlariga bo'lgan munosabatni xuddi shunday boshqa mamlakat shaxslari, korxonalari va mahsulotlariga ham ko'rsatilishi tushuniladi. Ushbu prinsip ikki xorijiy davlatlar o'rtasida ayirmachilikka yo'l qo'ymaslikni qasd qilgani uchun ham kamsitmaslik prinsiplari bir turi sifatida qaraladi. Eng qulay rejim bojxona to'lovlari, ustamalar, eksport-import taomillari, mahalliy yuk tashish va sotishga oid davlatning ichki qoidalariga nisbatan tatbiq etiladi. Ushbu prinsipning maqsadi raqobat uchun teng imkoniyatlarni yaratishdan iborat.

(b) Milliy rejim

Milliy rejim ichki bozorda o'z fuqarolari va tovarlariga berilgan huquqlarni xorijiy mamlakatlar mahsulotlariga ham taqdim etilishini tan olish va shunday munosabatda bo'lishini kafolatlashni anglatadi. Bu qoida milliy va xorijiy mahsulotlar o'rtasidagi kamsitish (diskriminatsiya)ni taqiqlovchi prinsipdir.

Shuningdek, ushbu prinsipga ko'ra, agar import tovari milliy mahsulotga «o'xshash» bo'lsa, u holatda milliy mahsulotga nisbatan noqulay shartlarda muomalada bo'lish taqiqlanadi. Ushbu masalaga oid JSTning bir nizoli ishida, alkogolga oid yapon qonunchiligining mazkur prinsipga muvofiqligini ko'rib chiqish masalasi ko'tarilgan. Sababi shochu (yapon arog'i) va vodka, djin va boshqa spirtli ichimliklar o'rtasidagi soliq stavkalarida farq mavjud bo'lib, (o'sha paytdagi) Yevropa Hamjamiyati, AQSh va Kanada buni GATTning 3-moddasini buzish deb da'vo qiladi. Nizoni hal qilish uchun tashkil etilgan organ ushbu mahsulotlarni «o'xshash» mahsulot deb topadi va shochuga nisbatan xorijdan kirib kelgan vodkaga nisbatan alkogol solig'ining oshirilganini GATT normalarining buzilishi sifatida baholadi (→ **Keysbuk 36: Yaponiyadagi alkogol mahsulotlariga solingan soliq ishi**).

(c) Tarif va notarif to'siqlarga doir prinsiplar

Savdoni cheklash ta'siriga ega bo'lgan choralar va holatlarga keng ma'nodagi «**savdo to'siqlari**» deb ataladi. Bular tarif va notarif to'siqlardir. JSTga a'zo mamlakatlar **Tariflar setkasida** import mahsulotiga nisbatan mamlakat tarifining eng yuqori chegarasini belgilab qo'yadi. A'zo mamlakatlar import mahsulotlariga nisbatan Tariflar setkasida belgilangan maksimal tarifdan pastroq boj qo'llashi mumkin. Ta'kidlab o'tish joizki, GATT va JST tariflarni taqiqlamaydi, balki ularni bosqichma-bosqich kamaytirishga intiladi.

Jahon Savdo Tashkilotini tuzish bo'yicha Marrakesh protokoli → JSTning tashkil etilishi

- Tovarlar savdosi bo'yicha ko'p tomonlama kelishuv
 - 1994-yil Tarif savdosi bo'yicha bosh kelishuv
 - Sanitariya va fitosanitariya choralarini qo'llash to'g'risida kelishuv (SPS, 1A ilova)
 - Xizmatlar savdosi bo'yicha Bosh kelishuv (GATS, 1B-ilova)
 - To'qimachilik va to'qimachilik mahsulotlari savdosi bo'yicha texnik to'siqlar to'g'risida kelishuv (TBT)
 - Savdo investitsiyalari choralari to'g'risida kelishuv (TRIM)
 - 1994-yilda tariflar va yengillashtirish to'g'risidagi bosh kelishuvning 6-moddasini amalga oshirish to'g'risida kelishuv
 - Antidemping shartnomasi
 - 1994-yilda Tariflar va savdo bo'yicha Bosh kelishuvning VII moddasini amalga oshirish to'g'risida kelishuv
 - Bojxona baholashi to'g'risida shartnoma
 - Yuklarni jo'natishdan oldin tekshirish (PSI) to'g'risidagi kelishuv
 - Tovar kelib chiqish joyi qoidalari to'g'risidagi kelishuv
 - Importga ruxsat berish tartibi to'g'risidagi kelishuv
 - Subsidiyalar bo'yicha kelishuv va kafillikni qoplash to'g'risidagi kelishuv
 - Xizmatlar savdosi bo'yicha Bosh kelishuv (Ilova 1B. GATS)
 - Intellektual mulkning savdo jihatlari to'g'risidagi kelishuv (1-ilova. TRIPS)
 - Nizolarni hal qilish qoidalari va tartiblari to'g'risidagi kelishuv (2-ilova. DSU)
 - Savdo siyosatini ko'rib chiqish tizimi (3-ilova).
- Ko'p tomonlama savdo shartnomasi (4-ilova)
- Tijorat samolyotlarning sifati to'g'risida shartnoma
 - Davlat xaridlari bo'yicha shartnoma (GPA)

Notarif to'siqlar sirasiga miqdoriy cheklovlar, subsidiyalar, importga ruxsat berish tizimlari, mahsulot standartlari, distribyutorlik tuzilmalari va biznes amaliyotlari kiradi. GATT miqdor cheklovlari, import-eksport kvotalari va ruxsatnoma berish amaliyotini qat'iy taqiqlagan. Boshqa notarif to'siqlar haqida esa, belgilangan mahsulot standartlarini maqbul maqsadga erishish uchun keragidan ortiq cheklov-

chi xarakterga ega bo'lmasligi va tegishli xalqaro standartlarga mos kelishi zarurligini nazarda tutadi. Qo'shimcha tariqasida, JSTda Savdodagi texnik to'siqlarga oid bitim (TBT) hamda Sanitariya va fitosanitariya choralari bitimi (SPS) to'g'risidagi notarif to'siqlarga oid kelishuvlar hisobiga JST faoliyat doirasi GATT davri bilan taqqoslaganda ancha kengaydi.

(2) Istisnolar

Yuqoridagi prinsiplarni qo'llash bo'yicha JST tizimida turlicha istisnolar mavjud.

(a) Umumiy istisnolar

GATTning 20-moddasi umumiy qo'llaniladigan istisnolarni (**umumiy istisnolar**) belgilaydi. Milliy suverenitet bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yoki mamlakat ichida jamoat tartibini saqlash nuqtayi nazaridan zarur hisoblanadigan predmetlar erkin savdodan chiqarilishi mumkin. Masalan, insonlar, hayvonlar yoki o'simliklar hayoti va sog'lig'ini ta'minlash uchun zarur bo'lgan (20-modda (b)), va cheklangan tabiiy zaxiralarni asrash chora-tadbirlari (20-modda (g)) kabi 10 turdagi chora-tadbirlar mavjud. Mazkur istisnoli holatlarini qo'llab GATTda ko'zda tutilmagan choralardan tashqari choralarni ko'rishda «zaruriyat» talabi kabi turli-tuman shartlarni bajarish talab etiladi.

(b) Maxsus himoya choralari (safeguard: shoshilinch import cheklovlari)

Maxsus himoya (safeguard) choralari deb agar importning keskin ko'payishi tufayli ma'lum bir mahalliy sanoatga zarar yetishi xavfi yuzaga kelsa yoki haqiqatdan ham zarar yetsa, ushbu zararni qoplash maqsadida oldin pasaytirilgan boj tariflarini vaqtinchalik tiklash yoki oshirish orqali import hajmini kamaytirishga aytiladi. Mazkur istisno choralari davlatlarga savdoni liberallashtirish majburiyatlarini qabul qilishni osonlashtirib, liberallashtirish amalga oshirilganidan so'ng proteksionizm siyosatini qo'llashni qiyinlashtiradi. Shu sababli bu kabi

choralar xavfsizlik qopqog'i sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, eng qulay rejimga zid kelmaydigan tarzda rivojlanayotgan mamlakatlarning tovarlariga nisbatan manfaatli maxsus rejim o'rnatilishiga ma'lum darajada imkon yaratib beradi.

(c) Antidemping tariflar

Demping – mahsulotlarni boshqa mamlakatlarga ularning normal narxidan past narxda sotishdir. Normal narx – bu eksport qiluvchi mamlakatning ichki bozorida yoki uchinchi mamlakatga eksport bahosi bo'lib, agar belgilangan narx ushbu narxlardan past bo'lsa, demping kelib chiqqan bo'ladi.

Demping import qiluvchi mamlakatning mahalliy sanoatiga zarar yetkazishi mumkin. Biroq narx xususiy kompaniyalar tomonidan belgilanadi. Shu sababli GATT yoki JST shartnomasining o'zi bunday harakatni bevosita tartibga sola olmaydi. Biroq mazkur holat import qiluvchi mamlakat iqtisodiyotiga moddiy zarar keltirib chiqarsa, JST tizimi bu kabi holatlarda demping borligini va uni adolatsiz harakat ekanligini tan oladi. Bir paytning o'zida, qarshi chora sifatida import qiluvchi davlatga xorij mahsulotiga nisbatan uning demping narxi bilan normal narxi o'rtasidagi farqdan oshmagan antidemping bojni joriy qilish huquqini taqdim etadi.

3 Xizmatlar savdosi va intellektual mulk masalalari

Xizmatlar savdosiga misol sifatida xorijiy davlatlarning internet savdo platformalaridan foydalanish, chet el

Column

AQSh qisqichbaqalari/Qisqichbaqa mahsulotlariga oid ish (1998-yil) (→ Keysbuk 27)

AQSh hukumati qisqichbaqalarni ovlashda dengiz toshbaqalarini ham birga ovlanishini oldini oluvchi maxsus uskunalar bilan jihozlanmagan kemalarga ega bo'lgan import qiluvchi davlatlardan qisqichbaqalarni import qilishni taqiqlaydi. JST Apellyatsiya organi GATTning 20-moddasi bu kabi choralarga nisbatan qo'llanilishini ma'qulladi. Biroq AQSh tomonidan bir tomonlama qo'llanilganligi, noshaffof taomillarni o'z ichiga olib, «ixtiyoriy kamsitish» kabi holatlarni o'zida mujassam etgani uchun «asosli ayiruvchi» chora sifatida tan olinmadi.

davlatlarida mehmonxonada turish kabi xorijdagi iste'mol, bankning xorijdagi shoxobchasida pul operatsiyalarini amalga oshirish va chet el san'atkorlarining boshqa yurtga borib konsert berishlarini keltirish mumkin. Avvallari o'zarolik asosida tartibga solingan mazkur soha bo'yicha Jahon savdo tashkiloti GATS deb nomlanuvchi kelishuvni qabul qilgan. Kelishuvda xorijiy xizmat ko'rsatuvchilarga ichki bozorlarga kirish imkonini beruvchi «**Bozorga kirish**» tushunchasi aks ettirilishi savdoning yanada liberallashtirishiga olib keldi. Xizmatlar sektorida ham eng qulay rejim va milliy rejim prinsiplari ko'zda tutilgan. Shuningdek, xizmatlar sohasiga taalluqli milliy qonunlar va boshqa normativ hujjatlarning shaffofligini ta'minlash uchun ular e'lon qilib borilishi zarur. Bundan tashqari, savdo xizmatlari erkinlashishi uchun sohalar va shartlari ro'yxati shakllantiriladi hamda vaqti-vaqti bilan muhokamalar o'tkazib boriladi.


JST shartnomalari orasida intellektual mulk huquqi (intellektual egalik

huquqi ham deyiladi) himoyasining minimal darajasini belgilovchi shartnomani (TRIPS) (patent huquqlari, tovar belgilariga oid huquqlar, mualliflik huquqlari (10-4) ham o'z ichiga oladi. Mazkur sohada XIX asrdan buyon **Jahon intellektual mulk tashkiloti** (WIPO) intellektual mulk huquqlarini xalqaro miqyosda himoya qilishga oid shartnomalar tuzib, ularni boshqarib kelmoqda. Aytish joizki, 1980-yillarga qadar ushbu shartnomalar asosan hududiylik va milliy rejim prinsipiga asoslangan edi. Mazkur prinsipga asoslanibgina intellektual mulk huquqlarini himoya qilish yetarli emas deb hisoblagan Amerika Qo'shma Shtatlari intellektual mulk sohasi JST shartnomalarining bir qismiga aylanishi kerak degan qat'iy talab bilan chiqdi. Yakunda mazkur talab qabul qilindi. Unga ko'ra eng qulay rejim va milliy rejim prinsiplarini minimal standart sifatida qo'llash majburiy



Bojxona tomonidan 2012-yilda topilgan qalbaki mahsulotlar. Intellektual mulk huquqini buzgan holda ishlab chiqarilgan mahsulotlar (Tokio).

(Manba: Jiji)



qilib qo'yildi. Shu bilan birga, shartnoma a'zo mamlakatlar tomonidan amalga oshiriladigan taomillarning minimal standartlarini ham belgilab berdi.

4 Nizolarni hal qilish tizimi

(1) JSTda nizolarni hal qilish tartibi (10-5)

JSTda nizolarni hal qilish Nizolarni hal qilish organi (DSB) tomonidan amalga oshiriladi. U «Nizolarni hal qilish to'g'risida tushunish» shartnomasi (DSU) asosida faoliyat ko'rsatadi. Agar JSTga a'zo bo'lgan bir davlatning o'z majburiyatlarini bajarmaslik yoki a'zo davlatlar o'rtasidagi qandaydir choratadbirlarning amalga oshirilishi natijasida boshqa bir davlatning JST shartnomasi bo'yicha qo'lga kiritishi kerak bo'lgan foydani yo'qotsa, birinchi navbatda nizo bo'yicha taraflar o'rtasida maslahatlashuvlar o'tkazilishi zarur. Maslahatlashuvdan tashqari, hakamlik, mediatsiya va arbitraj institutlari ham mavjud. Agar nizo belgilangan muddat ichida maslahatlashuvlar orqali hal etilmasa, ariza bergan mamlakat nizoni JST nizolarni hal qilish tizimiga ko'tarib chiqishi mumkin. JSTda nizolarni hal qilish ikki bosqichli tizimdan tashkil topgan bo'lib, quyi organ – **Panel** va yuqori – **Appelyatsiya organidan** iborat.

Agar ariza topshirgan mamlakat DSBdan Panel tashkil qilishni talab qilsa, DSB a'zolari hisoblangan barcha davlatlar uchta alohida a'zolardan tashkil topadigan Panelni tashkil etmaslikka yakdil bo'lib qaror qilmas ekanlar (**salbiy konsensus usuli**), DSB Panelni tashkil etadi. Boshqacha ayt-

ganda, agar bitta davlat Panel tuzilishiga rozi bo'lsa ham, Panel tuzilaveradi. Har bir taraf nizoda o'z fikrini yozma yoki og'zaki tarzda bildiradi va Panelga uning qonuniyligini tan olish to'g'risidagi iltimos bilan murojaat qiladi. Panel, taqdim etilgan dalillarga tayangan holda Panel hisobotini tuzadi. Ushbu hisobot nafaqat nizo taraflariga, balki JSTning barcha a'zolariga yuboriladi.

Agar taraflar Panel qaroridan norozi bo'lsalar, Apellyatsiya organiga ariza berishlari mumkin. Apellyatsiya organi Panel hisobotini o'zgartirish yoki bekor qilishi mumkin. Uning hisoboti ham barcha a'zo davlatlarga jo'natiladi. Panel tuzilgan paytdan boshlab Apellyatsiya organi hisoboti tasdiqlan-gunga qadar taxminan bir yil-u uch oy talab etiladi.

Hisobot qabul qilinganidan so'ng, agar javobgar davlat hisobot qaroriga bo'ysunib zarur choralarni amalga oshirsa yoki qarshi tomondan qarshi choralar qo'llanilsa, nizo hal etilgan hisoblanadi. Ammo ba'zan hisobotda ko'rsatilgan choralar amalga oshirilgan yoki oshirilmaganligi yuzasidan nizolar yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatda mazkur masalani ko'rib chiqish uchun uni Ijroni ko'rib chiquvchi Panelga topshiriladi. Aytish mumkinki, apellyatsiya tizimining joriy etilishi natijasida JSTning nizolarni hal etish tizimining adolatliligi va ishonarliligi oshdi.

(2) JSTda nizolarni hal qilish tartibining o'ziga xos xususiyatlari

JST shartnomalari buzilishi natijasida buzilgan manfaatlarni tiklash



////// A'zo bo'lmagan davlatlar.

Xaritada ranglarning och-to'qligiga qarab qanchalik ko'p murojaat qilinganini bilib olish mumkin. Och rangdagi mamlakatlar nisbatan kamroq, to'q rangdagi mamlakatlar nisbatan ko'proq murojaat qilganini anglatadi.

Ba'zida Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar da'vo yoki qarshi da'vo bilan chiqqanda Yevropa Ittifoqi deb umumiy tarzda ko'rsatiladi. Ba'zida esa davlatning nomi alohida ko'rsatiladi

(Manba: World Trade Organization 2016 https://www.wto.org/english/tratop_e/dispu_e/dispu_maps_e.htm)

maqsadida JST shartnomalariga muvofiq tez va samarali nizolarni hal qilish tartibi tashkil etilgan. GATT tizimida boshqa mamlakat manfaatlariga zarar yetgan paytda o'sha zararni bartaraf etish uchun davlatlar tomonidan bir tomonlama choralar ko'rilgan holatlar ham sodir bo'lgan. Shuning uchun JSTning nizolarni hal etish tizimi bu kabi holatlar kelib chiqishining oldini olish maqsadida ishlab chiqilgan. Shuningdek, nizolarni hal etish tizimi belgilangan tartibning avtomatlashtirilganligi va ikki pog'onali sud muhokamasi (Panel va Apellyatsiya organi) tizimi joriy etilganligi bilan ham xarakterli hisoblanadi. Panel va Apellyatsiya organlarini tashkil etish va ularning hisobotlarini qabul qilishda salbiy konsensus

metodi tanlandi. Bu esa Panelni tashkil etishga oid JSTning barcha a'zolari tomonidan yakdillik bilan kelishilgan konsensus bo'lmasa ham, Panel tashkil etilishini anglatib, amalda nizolarni hal etish taomillari avtomatik ravishda ishlashiga olib keladi.

Ushbu xususiyatlar tufayli JSTning nizolarni hal qilish tartibi samaradorligi oshdi. Amalda ham JSTga oid nizolarni hal qilish masalalari soni ortib bormoqda (10-6). 1948-yildan 1994-yilgacha bo'lgan davr oralig'ida GATT bo'yicha nizolar 314 tani (yiliga o'rtacha 6,7 tadan) tashkil etgan bo'lsa, keyingi 20 yil davomida (2015-yil dekabr oyiga qadar) JSTda 501 ta (yiliga o'rtacha 25,1 tadan) ish qayd etilgan. Bu shuni anglatadiki, nizolarni hal etish



Yaponiya bilan bunday kelishuvlarni imzolagan davlatlar (16 ta):

Singapur, Meksika, Malayziya, Chili, Tayland, Indoneziya, Brunej, ASEAN davlatlari, Filippin, Shveysariya, Vietnam, Hindiston, Peru, Avstraliya, Mongoliya, TPP davlatlari.

Yaponiya bilan kelishuvlar bo'yicha muzokara olib borayotgan (6 ta) davlatlar (muzokaralar tugagan, lekin hali kelishuvlar imzolanmagan davlatlar):

ASEAN (Xizmatlar investitsiyasining ta'siri), Kolumbiya (muzokara olib borilmoqda), Yaponiya-Xitoy-Korea (muzokara olib borilmoqda), Yevropa Ittifoqi (muzokara olib borilmoqda), RCEP (muzokara olib borilmoqda), Turkiya (muzokara olib borilmoqda).

Boshqalar (muzokaralar cho'zilib ketgan to'xtatib qo'yilgan davlatlar):

Fors ko'rfazi hamkorlik Kengashi (GCC, Saudiya Arabistoni, Quvayt, BAA, Qatar, Bahrayn, Ummon) Janubiy Koreya, Kanada.

(Manba: Tashqi ishlar vazirligi veb-sayti)

tartibi JST a'zolari ishonchini qozondi va samarali ishlamoqda.

5 Mintaqaviy-iqtisodiy integratsiya va iqtisodiy hamkorlik shartnomalari

(1) Mintaqaviy savdo bitimlari

Erkin savdoni ilgari surgan GATT tizimida ham mintaqaviy-iqtisodiy integratsiya e'tirof etilgan va uni Eng qulay rejimdan mustasno sifatida olib borishiga ruxsat berildi. Xuddi shunday tarzda, JST tizimida ham mazkur tendensiya davom etdi. Natijada min-

taqaviy iqtisodiy integratsiyani tashkil etuvchi ko'plab bitimlar va erkin savdo kelishuvlari (FTA) imzolanmoqda. Ularning orasida Yevropa erkin savdo uyushmasi (EFTA), Shimoliy Amerika erkin savdo bitimi (NAFTA)¹, Janubiy Amerika janubiy umumiy bozori (MERCOSUR), Janubiy Osiyo xalqlari uyushmasi (ASEAN) and ASEAN erkin

¹ Ushbu bitim prezident Donald Tramp paytida qayta muzokaradan o'tib, 2020-yil iyul oyidan «AQSh, Meksika va Kanada bitimi» (USMCA)ga o'zgardi.



(Manba: Jiji)

savdo bitimi (AFTA) kabi erkin savdo kelishuvlariga asoslangan erkin savdo hududlari juda ham mashhur. Ushbu mintaqaviy savdo kelishuvlari xilma-xil bo'lsa-da, odatda, mintaqa ichidagi savdoni erkinlashtirish orqali yagona bozorni qurishni maqsad qilib qo'yadilar. Bundan tashqari, oxirgi vaqtlarda nafaqat tovarlar aylanmasini erkinlashtirish, balki moliya bozori kabi xizmatlar, intellektual mulk huquqlari, investitsiya, raqobat siyosati va mehnat standartlari kabi ko'plab sohalarda normalarni unifikatsiyalashtirishni ko'zlash tendensiyasi kuzatilmoqda.

Yevropa Ittifoqi (EU) misolida qaraydigan bo'lsak, allaqachon umumiy valyuta – yevro muomalaga kiritilgan. Shuningdek, EU iqtisodiy ittifoqqa o'tish va iqtisodiy integratsiyadan siyosiy integratsiyaga o'tish orqali umumiy tashqi siyosat hamda umumiy xavfsizlik siyosatini olib borish ko'zda tutilgan. Agar erkin savdo kelishuvini tuzish orqali bozor hajmi kengayib, raqobat kuchaysa, resurslarni samarali taqsimlash va ulardan unumli foydalanish mumkin bo'ladi (→ **Chapter 7**).

(2) Yaponiyaning iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi shartnomalari

Yaponiyaning iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi bitimlari (EPA: Economic partnership agreements) ham erkin savdo kelishuvlarining bir turi hisoblanadi. Ushbu bitimlar muayyan mamlakatlar va mintaqalar o'rtasidagi import va eksport tariflarini bekor qilish yoki kamaytirish bilan cheklanib qolmaydi. Aksincha, xizmat ko'rsatish sohasiga oid qoidalarni yumshatish va butunlay bekor qilish, investitsiya muhitini yaxshilash va intellektual mulkni himoya qilish kabi ikki tomonlama hamkorlik masalalarini ham o'z ichiga oladi. Yaponiya Singapur (2002), Meksika (2005), Malayziya (2006), Chili (2007), Tailand (2007), Indoneziya (2008), Bruney (2008), Filippin (2008), ASEAN (2008), Shveysariya (2009), Vyetnam (2009), Hindiston (2011), Peru (2012), Avstraliya (2015), Mo'g'uliston (2016) va boshqa davlatlar bilan mana shunday FTAlarni imzolagan (**10-7**). Garchi Liman shoki kabi global inqirozning vaqtinchalik ta'siri tufayli savdo hajmi kamaygan bo'lsa-da, inqirozdan so'ng, FTAlar tuzmagan mamlakatlarga qaraganda FTAlarga a'zo bo'lgan davlatlar orasidagi savdo tezda o'zini o'nglab olgani ko'rinadi.

Trans-Tinch okeani hamkorlik shartnomasi (*Trans-Pacific Partnership: TPP*) dastavval 2006-yilda Yangi Zelandiya, Singapur, Chili va Bruney ishtirokida tuzilgan. So'ngra 2010-yil noyabr oyida unga to'rtta davlat – AQSh, Avstraliya, Peru va Vyetnam qo'shilgan. Keyinchalik Malayziya, Meksika, Kanada va Yaponiya ham muzokaralarda ishtirok

etib, buning natijasida jami ishtirokchi davlatlar soni 12 taga yetdi. Ushbu shartnoma Osiyo-Tinch okeani mintaqasida tovarlar, xizmatlar va investitsiyalar harakatini erkinlashtirish va soddalashtirishga yordam berishni ko'zlagan. Shu bilan birga, TPP intellektual mulk, elektron tijorat va atrof-muhit kabi sohalarda yangi qoidalarni ishlab chiqishni va yo'lga qo'yishni maqsad qilgan. Muzokaralarning bir necha raundidan so'ng, 2015-yil oktabr oyida asosiy shartnomani tuzishga erishildi va 2016-yil fevral oyida Yangi Zelandiyaning Oklend shahrida mazkur shartnomaga imzo chekildi (10-8). Shartnoma kuchga kirishi uchun uni oltita asosiy imzolovchi taraf rati-fikatsiya qilishi talab qilinadi. 2017-yil yanvar oyida hokimiyat tepasiga kelgan Tramp ma'muriyati AQShning TP-Pdan chiqqanligini suratan e'lon qildi. Natijada, bu TPPning kuchga kirishini murakkablashtirdi¹.

Erkin savdo zonasi yuqorida keltirib o'tilgan mintaqaviy savdo kelishuvlari asosida shakllantiriladi va buning natijasida mintaqada savdo rivojlanadi. Erkin savdo zonasini kengaytirish esa pirovardida dunyodagi savdoni erkinlashtirishga va ushbu mintaqadagi tinchlik hamda barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Mintaqaviy savdo kelishuvlari GATT paydo bo'lgan vaqtdan beri mavjud bo'lib,

¹ Tarjimonlar izohi: shunday bo'lsa-da, muzokaralarga biroz kechikib kirgan Yaponiya TPPni davom ettirishda tashabbusni o'z qo'liga oldi va ushbu shartnomaning nomi CPTPPga o'zgartirilib, 11 davlat tomonidan imzolaniib, 2018-yil dekabr oyi oxiridan kuchga kirdi.

10-9 Suvaysh kanalining Misr prezidenti Nosir tomonidan milliy lashtirilishi



1956-yil Suvaysh kanali natsionalizatsiya qilingani haqida bayonot berilgandan keyin ommaga qarab qo'l siltayotgan Misr prezidenti Jamol Abdul Nosir. Prezident Nosir 1952-yilda Misrda monarxiyaga barham berib, Misr respublikasiga asos solgan harbiy shaxs bo'lgan. Ushbu natsionalizatsiya Ikkinchi O'rta Sharq urushiga sabab bo'lgan.

(Manba: AP/Afloimages)

amalda ularni tugatishning imkoni bo'lmagan. JST tizimida ham mintaqaviy iqtisodiy integratsiyalashuv o'ziga xos mustaqil bir tizim sifatida tan olingan.

5 Xalqaro investitsiya intizomi

(1) Xalqaro investitsiyalar bilan bog'liq Shimol va Janub o'rtasidagi ziddiyat

XIX asrdan buyon Yevropa va Amerika investorlari rivojlanayotgan mintaqalarga katta miqdorda investitsiya kiritmoqdalar. XIX asr holatida xalqaro investitsiya huquqi to'g'risida hech qanday tushuncha yo'q edi. Mahalliy huquq sifatida, asosan Lotin Amerikasi mamlakatlarida xorijliklar bilan munosabatlarni amalga oshirishga oid ichki huquq mavjud bo'lgan. Xalqaro huquqda esa, agar xorijlik investorlar zarar ko'rsa, investor o'z huquqlarini tiklash uchun faqat

o'zining hukumatiga murojaat qilgan holda diplomatik himoyadan (→**Chap-ter 8**) foydalanishi mumkin edi, xolos. Investorning mamlakati uchun chet davlatda o'z investorlariga investitsiyaviy rejim va himoya tizimini yaratish o'zining ichki iqtisodiy rivojlanishga ta'sir qiluvchi muhim omillardan hisoblangan. Shu sababli Ikkinchi jahon urushigacha g'arb mamlakatlari tomonidan investitsiya qabul qiluvchi davlatlar xorijliklarga madaniylashgan davlatlardagi eng minimal huquqiy standartlarga muvofiq muomala qilishi (**madaniylashgan davlatlarni standart sifatida olish nazariyasi**) kerakligini ilgari surdilar. Boshqa tomondan, XX asrning boshlarida Lotin Amerikasi mamlakatlari va Sovet Ittifoqi kabi sotsialistik davlatlar, keyin esa yangi tashkil topgan mustaqil davlatlar bunday standartning joriy etilishiga qarshi chiqishdi. Ushbu davlatlar xorij fuqarolariga mahalliy fuqarolar kabi teng munosabatda bo'linishini kafolatlash uchun ichki standartlar yetarli ekanligini ta'kidladilar (**mahalliy huquqni standart sifatida olish nazariyasi**).

Ushbu nizo, ayniqsa, xorijiy investorlarga tegishli mulkni ekspropriatsiya va natsionalizatsiya qilish jarayonida keskinlashdi (**10-9**). Ekspropriatsiya davlat organi tomonidan mulk egasini mulk huquqidan mahrum qilish va davlatning o'zi mazkur mulkni boshqarishi yoki mulk ustidan doimiy nazoratni amalga oshirishini anglatadi. Garchi davlatning xorijiy investorlarga tegishli mulkni ekspropriatsiya qilish huquqi inkor qilinmasa-da, xalqaro odat huquqiga muvofiq davlat ekspro-

priatsiyani ommaviy manfaat yo'lida, diskriminatsiyaga yo'l qo'ymasligi hamda tegishli kompensatsiya to'lab berishi zarur hisoblanadi.

1938-yilda AQSh davlat kotibi Hal To'lanishi lozim kompensatsiya bo'yicha, «mutanosib, tezkor va samarali» kompensatsiya to'lovi deb nomlangan tamoyilni ilgari surgan (Hal tamoyili). Bunda ekspropriatsiya qilingan mulk uchun uning bozor bahosida, oqilona muddatda va xalqaro miqyosda erkin ayirboshlanadigan valyutada kompensatsiya to'lash lozimligi nazarda tutildi. Ikkinchi tomondan, Ikkinchi jahon urushidan keyin paydo bo'lgan ko'plab mustaqil davlatlar nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy mustaqillikka ham intildilar. Ular «Tabiiy zaxiralar ustidan doimiy suverenitet» deb nomlangan yangi konsepsiyani ishlab chiqdilar. Shundan so'ng mazkur davlatlar BMT Bosh assambleyasining rezolyutsiyasi bilan natsionalizatsiya uchun kompensatsiyaning an'anaviy prinsiplarini o'zgartirishga harakat qilishdi. 1974-yilgi «Davlatlarning iqtisodiy huquq va majburiyatlari xartiyasi»da mulkni natsionalizatsiya qilgan mamlakat qonunlariga binoan kompensatsiya to'lanishi va bu bilan bog'liq nizolar milliy sudlarda mamlakatning ichki qonunchiligiga binoan hal qilinishi kerakligi belgilab qo'yilgan. G'arbning aksariyat rivojlangan davlatlari esa Xartiyani qabul qilish uchun ovoz berishda betaraf bo'lishdi yoki qarshi chiqishdi. 1960-yillardan o'z navbatida, rivojlangan davlatlar ham ikki tomonlama investitsiya shartnomalarini (BIT) tuzish orqali ekspropriatsiya masalasini hal eta boshladi-

lar. Natijada, ekspropriatsiya bo'yicha xalqaro huquq normalari mazmuni hozirgi kungacha hal etilmay qolmoqda.

Bilvosita natsionalizatsiyaga (regulatory takings) ma'lum vaqt ichida bir qator maqbul normativ hujjatlar orqali amalga oshiriladigan, biroq oxir-oqibat investitsiyalar amaldagi qiymatining sezilarli darajada kamayishiga olib keladigan chora-tadbirlarni anglatadi. Bular davlat tomonidan qonuniy tartibga solinganligi sababli kiritilgan investitsiyalar kompensatsiya qilinish-qilinmasligi yoki ekspropriatsiya turli talablarga javob berishi kerak yoki kerak emasligi aniq emas. Shu sababli oxirgi paytlarda ikki tomonlama investitsiya shartnomalarida ekspropriatsiyani yuzaga keltiruvchi choralariga nisbatan «teng keluvchi» yoki «o'xshash oqibatlarga olib keladigan choralar» obyekti bo'lishi haqidagi keng ma'noli atamalardan foydalaniladi hamda ularga nisbatan ekspropriatsiya bilan bog'liq qoidalar qo'llaniladi.

(2) Investitsiyaviy nizolarni hal qilish

Ko'pgina hollarda investitsiyalar bo'yicha nizolar investor va uni qabul qilgan mamlakat o'rtasida kelib chiqadi. Ikki tomonlama investitsiya shartnomalari, odatda, **arbitraj bo'yicha kelishuvni** (ISDS) ham o'z ichiga oladi. Bunga asosiy sabablar sifatida shartnomaning bir tomoni bo'lgan mamlakat emas, balki jismoniy shaxs yoki yuridik shaxs bu turdagi ishlarning nizolashuvchi tomoni sifatida qatnashadi. Bundan tashqari, xalqaro huquqda-gi nizo darajasiga ko'tarilmasligi, shu

bilan birga, bunday nizolarni mahalliy sudlarda hal etishning ham muammo-li tomonlari borligi keltiriladi. Yuqoridagi ISDS qoidasiga muvofiq investor qabul qiluvchi mamlakat ustidan arbitraj sudiga murojaat qilishi mumkin. Ushbu qoidadan foydalanib arbitraj sudlariga murojaat qilish soni 1990-yillardan beri doimiy ravishda oshib bormoqda. Bunda, Jahon banki guruhining Investitsiya nizolarini hal qilish bo'yicha xalqaro markazi (ICSID), shuningdek, Xalqaro savdosoat palatasining (ICC) va BMTning Xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasi (UNCITRAL) arbitrajlaridan ham foydalaniladi. Sanab o'tilgan oxirgi ikki organ BMTning Xalqaro arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risidagi 1958-yilgi konvensiyasi (Nyu-York konvensiyasi)ga asosan qaror chiqaradi.

Garchi arbitrajdan investitsiyaviy nizolarni hal etish uchun foydalanilsa-da, u xalqaro huquq bo'yicha nizolarni hal etishdan biroz farq qiladi. Jarayon har doim ham keng jamoatchilikka e'lon qilinmaydi va har bir nizo turli arbitrlardan tashkil topgan panellar tomonidan ko'rib chiqilgani uchun arbitraj qarorlarida izchillikning mavjudligi dar-gumon.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Junji Nakagawa va boshqalar, «Xalqaro iqtisodiy huquq». – 2-nashr, Yuhikaku, 2012-yil.
2. Tomohiko Kobayashi va boshqalar, «WTO va FTA huquqiga kirish». – Horitsubunkasha, 2016-yil.

Chapter 11

Global miqyosdagi tabiatni muhofaza qilish muammolari – tabiatga oid xalqaro-huquqiy boshqaruv

Xalqaro tabiat huquqi'ning tarixi

Insoniyat o'z hayotini yaxshilab, uni qulay va farovon qilish uchun to'xtovsiz tarzda harakat qilib kelgan. Buning natijasida esa, bugungi kundagi madaniy jamiyat barpo etildi. Biroq uning zararli natijalari ham mavjud bo'lib, hozirgi kunga kelib ular o'zini namoyon etmoqda. Jumladan, insonlar faoliyati tufayli hayvonot va o'simlik dunyosi yo'q bo'lib ketmoqda, kimyoviy moddalarning keng qo'llanilishi oqibatida ommaviy xastaliklar va ozon qatlamining yemirilishi kabi muammolar yuzaga kelib chiqmoqda. Inson faoliyati oqibatida kelib

chiqqan tabiat ofatlari sanoqsiz bo'lib, ularni sanab adog'iga yetish qiyin.

Xalqaro tabiat huquqi bu – tabiatni asrashni maqsad qiluvchi turli-tuman xalqaro huquqiy me'yorlardan iborat normalar yig'indisidir. Ammo «tabiat» tushunchasi juda keng qamrovli bo'lib, uni ifodalash muayyan qiyinchiliklar tug'diradi.

Umumiy qarashga ko'ra, «tabiat» deganda insonlar, hayvonot va nabotot olami birgalikda yashovchi tabiiy muhit va tabiiy boyliklar nazarda tutiladi. Xalqaro huquqda tabiat muammolariga e'tibor qaratish esa, XX asr o'rtalaridan boshlanib, xalqaro huquqning boshqa sohalariga qaraganda tarixi uzoq bo'lmagan soha deb aytisak mubolag'a bo'lmaydi.

¹ Tarjimonlar izohi: shu paytgacha yurtimizdagi xalqaro huquqqa oid turli nashrlarda ingliz tilidagi «International Environment Law», yoki yapon tilida aytganda «Kokusai kankyo hou» atamalari «Xalqaro ekologik huquq» (Mamatqulov, 1997; Saidov, 2001), «Atrof-muhitni muhofaza qilish xalqaro huquqi» (Ochilov, Odilqoriyev, 2007), «Xalqaro atrof-muhit huquqi» (Lukashuk, Saidov, 2007), shuningdek, eng yangi nashrlardan bo'lgan G. Yuldasheva va mualliflar jamoasi tomonidan yozilgan «Xalqaro huquq» darsligida esa (2018) «Xalqaro ekologiya huquqi» deb nomlangan. Ustozlarimizning bunday sa'y-harakatlariga chuqur hurmat bildirish bilan bir qatorda, ingliz tilidagi «environment» va rus tilidagi «ekologiya» so'zlarining tarjimasida davlat tilimizda «tabiat» so'zining borligi, ushbu so'z Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi nomida hamda «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunda ham qo'llanilayotganini inobatga olgan holda, bundan keyingi o'rinlarda «Xalqaro tabiat huquqi» atamasidan foydalanishni lozim topdik.

Xalqaro hamjamiyat XX asr o'rtalaridan boshlab bir davlatning yakka o'zi hal eta olmaydigan tabiatni ifloslantirish va davlatlarning yurisdiksiyasidan tashqarida bo'lgan joylar yoki chegara hududlarda yuz beruvchi tabiat muammolarini hal etish bo'yicha huquqiy doirani (asosni) (legal framework) tayyorlab keldi. Boshqa tarafdin esa, sanoat va fan-texnika rivojlanishi natijasida global miqyosdagi tabiat muammolari tobora murakkablashib bordi. Aynan shuning uchun ham xalqaro tabiat huquqi atrof-muhitga zarar keltirishning oldini olishga qaratilgan «muammoning oldini olish

majburiyati» tamoyiliga asoslangan holda o'zgarib bormoqda. Quyida, avvalo, uning tarixiy rivojlanish yo'liga nazar tashlaymiz.

(1) Ikkinchi jahon urushidan avvalgi davr

Davlatlar, odatda, xalqaro huquqqa ko'ra biror-bir xalqaro shartnomaga asosan majburiyat olmagan bo'lsa, o'z hududini qanday maqsadlarda va qanday foydalanishni erkin tarzda belgilay oladi. Biroq aynan mana shu erkinlik cheksiz xarakterga ega bo'lmay, o'zga davlatlar huquqlariga zarar yetkazmaslik sharti ham mavjud. Bu shart davlatlar shaxslarga (individ) o'z hududlarini foydalanish uchun taqdim etganda ham o'zgartmaydi. Mazkur shart **o'z hududidan foydalanishni nazorat qilish javobgarligi** tamoyili deb nomlanadi. Ushbu qoida Kanada davlati yurisdiksiyasi va nazorati ostida ish faoliyatini yuritib, 1941-yildagi AQSh tomonidan arbitraj nizosiga sabab bo'lgan **Treyl mis quyish fabrikasi ishiga** oid arbitraj qarori(11-1)da ko'rsatib o'tilgan (→ **Keysbuk 42**).

(2) Inson harakatlarining kengayishi natijasidagi o'zgarishlar

1970-yillardan boshlab insonlar faoliyati o'z ko'lamini kengaytirib, ona tabiatga nisbatan ta'siri ham kuchayib bordi. Shuningdek, katta tankerlarda juda ko'p miqdordagi neftning tashilishi va kosmosdagi faoliyat kabi xavfli bo'lsa-da, insonlar uchun foydali ishlar ham amalga oshirila boshlandi. Bunday faoliyat turlariga xalqaro huquq orqali taqiq qo'yib bo'lmaydi. Ammo bu kabi hodisalar tufayli zarar kelib chiqadigan bo'lsa, muammoni o'sha payt-

11-1 Treyl mis quyish fabrikasi nizosi (The Trail Smelter dispute) (1941-yil)



AQSh chegarasi yaqinidagi Kanada hududida joylashgan Treyl mis quyish fabrikasidan chiqqan tutun vodiy bo'ylab harakat qilib, Washington shtatidagi qishloq xo'jaligi dalalariga zarar yetkazadi. Natijada ikki davlat o'rtasida nizo kelib chiqadi va ushbu nizo ko'rib chiqilgan hakamlik ishida Kanada tomonining nazorati yetarli darajada bo'lmagan deb topilgan. Ushbu sababga ko'ra, Kanadaning o'z hududidan foydalanishni nazorat qilish bo'yicha majburiyatlarni bajarmagan deb hisoblangan. Shundan so'ng hakamlik sudi bundan keyin boshqa mamlakatlarga zarar keltirmaydigan tarzda harakatlarni amalga oshirish va bu kabi zararlar kelib chiqishining oldini olish choralari ko'rilishi lozimligi haqida qaror chiqargan.

(Manba: E&E News asosida tayyorlandi)

dagi mavjud xalqaro huquq normalari orqali hal etish ham mushkul bo'lgan. Chunki bunday faoliyat xalqaro huquq tomonidan taqiqlanmagan va zararni yetkazgan davlat tomonidan yetarlicha ehtiyot choralari ko'rilmaganini zarar ko'rgan davlat isbotlab berishi juda ham qiyin edi. Shuning uchun davlatlar tomonidan xavfli holatlar keltirib chiqarish ehtimoli bo'lgan faoliyatlarga nisbatan **qattiq javobgarlik** (strict liability: harakat yoki harakatsizlik qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli sodir etilmasa-da, javobgarlikka tortish qoidasi xalqaro shartnomalarga kiritila boshlandi.

1972-yilda Stokgolm shahrida **BMTning Inson va Tabiat Konferensiyasi (11-2)** ochildi. Ushbu sammitdan keyin esa BMT Bosh Assambleyasining bu boradagi vazifalarini to'ldiruvchi tashkilot sifatida **Tabiat muhofazasi muammolariga ixtisoslashgan dastur** – YUNEP tashkil etildi.

(3) Tabiat muammolariga qarshi global miqyosda kurashish

1980-yillarga kelib tabiatning zararlanish ko'lami kengayib, uning global miqyosdagi salbiy ta'siri tan olina boshlandi. Misol sifatida, ozon qatlaminin yemirilishi va iqlim isishi muammolarini keltira olamiz. Ushbu muammolarga qarshi kurashish uchun har bir soha bo'yicha alohida global kelishuvlar tuzila boshlandi. 1992-yil Braziliyaning Rio de Janeyro shahrida **BMTning Tabiat va taraqqiyot konferensiyasi** (dunyo sammiti, UNCED) o'tkazildi (11-3). Ushbu sammitda tabiat va taraqqiyotga oid Rio de Janeyro Prinsiplar Deklaratsiyasi (bundan keyingi o'rinlarda Rio Deklaratsiyasi) qabul qilindi. Mazkur deklaratsiya barqaror rivojlanishni amalga oshirishni ko'zlagan birlamchi prinsiplarni belgilab bergan. Ularga **avlodlar tengligi tamoyili, umumiy differensial javobgarlik prinsipi, zararining oldini olish yondashuvi** kabilar kiradi (→2(2)).

Shuningdek, hozirgi kunga kelib, BMT Xalqaro Adolat Sudi (International Court of Justice: ICJ), Dengiz huquqi bo'yicha xalqaro tribunal (International Tribunal for the Law of the Sea: ITLOS), Jahon savdo tashkilotining (World Trade Organization: WTO)



(Manba: Jiji xabarlari foto)

nizolarni hal etuvchi organiga tabiatga aloqador nizolar ham kelib tusha boshladi. Natijada, ushbu tashkilotlar tomonidan chiqariladigan qarorlar ham xalqaro tabiat huquqining rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. 2002-yilda qabul qilingan Yohannesburg Deklaratsiyasida barqaror taraqqiyot konsepsiyasiga yanada kuchliroq urg'u berildi.

2 Tabiatga oid xalqaro-huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari

Xalqaro huquq asosan xalqaro shartnoma va xalqaro odat shaklida bo'lsa-da (→**Chapter 2**), xalqaro tabiat huquqida xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyalari va tabiatga oid shartnomalar orqali tashkil etilgan shartnomaviy organlar hamda xalqaro shartnomalarga a'zo mamlakatlar uchrashuvida qabul qilingan (Conference of the Parties: COP) qarorlar ham xalqaro tabiat huquqi normalarinin shakllanishida ma'lum darajada muhim rol o'ynamoqda.

1993 Dunyo sammiti (1992-yil)



UNITED NATIONS CONFERENCE ON ENVIRONMENT AND DEVELOPMENT

Rio de Janeiro 3-14 June 1992



(Manba: «1993-yilgi chizmalarda aks etgan tabiat axboroti»)

Tabiatga oid xalqaro shartnomalarning batafsil qoidalari va ularning ma'nosini aniqlashtirishni aynan mana shu rezolyutsiyalar va qarorlar amalga oshiradi. Chunki fan-texnologiyaning rivojlanishi, fanlarga oid bilimlarning oldinga siljishi va iqtisodiy holatning o'zgarishiga nisbatan egiluvchan (qayishqoq) tarzda yondashish zarur bo'ladi. Xalqaro shartnomalardan boshqa turli xil qaror va rezolyutsiyalarga asoslanishning ham o'ziga yarasha foydali tomonlari mavjud. Xalqaro shartnoma orqali muammoni yechishda tomonlarning bir to'xtamga kelishi uchun yetarlicha muddat talab qilinishi, yoinki davlatlar manfaatlarini o'zaro moslashtirish uchun katta qiyinchiliklar tug'diradigan vaziyatlar borligi ham haqiqat. Shunday ekan, qaror va rezolyutsiyalar orqali qabul qilingan biroq kuchsiz ko'ringan prinsiplar vaqti kelganda kattagina ahamiyat kasb etishi ham mumkin.

(1) Xalqaro shartnomalarning shakli

Global tabiat muammolarining o'zaro bog'liqligi juda ham chigal bo'lib, fan nuqtayi nazaridan mavhum bo'lgan holatlarni o'zida jamlaydi. Yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, natijaning noma'lumligi, o'zaro bog'liq bo'lmaslik ehtimolini ham inobatga olib, davlatlar xalqaro shartnoma tuzishni keyinga surishlari tabiat muhofazasini yomonlashtirmasdan qolmaydi. Biroq aniq bir davlatga yuklanadigan xalqaro majburiyatlar yuzasidan tez fursatlarda kelishuvga erishish oson emas. Shu sababli ko'pgina tabiatga oid xalqaro shartnomalar **doiraviy shartnoma (framework agreement)** usulini qo'llashadi. Bunda, ahdlashuvchi davlatlar umumiy maqsad, har bir davlatning hamkorlik qilish majburiyati, shartnomaga asosan tuziluvchi tashkilot kabi masalalar yuzasidan umumiy qoidalarni belgilovchi asosiy xalqaro shartnomani oldindan tuzib oladilar. Keyinroq davlatlarning majburiyatlari haqida yanada batafsilroq qoidalarni belgilovchi protokollarni qabul qilish bilan doiraviy xalqaro shartnomalarni oxiriga yetkazib qo'yadilar.

(2) Tabiatga oid davlat majburiyatlari va huquqiy prinsiplar

(a) Tabiatga ehtiyotkorona yondashish majburiyati

Bu prinsip biroq avval izohlangan o'z hududidan foydalanishni nazorat qilish javobgarligi prinsipidan (-1(1)) kelib chiqqan va davlatlarga yuklatiladigan majburiyat hisoblanadi. Shaxslar faoliyati natijasida kelib chiqqan xorijiy mamlakatdagi zarar uchun davlat

Эколог

11

Global miqyosdagi tabiatni muhofaza qilish muammolari – tabiatga oid xalqaro-huquqiy boshqaruv

o'sha zarar kelib chiqqan xorijiy davlat oldida javobgar bo'lmaydi. Shunday bo'lsa-da, oldindan zarar kelib chiqishini bartaraf etib, oldini olish chora-tadbirlarini ko'rish, zarar kelib chiqqan taqdirda esa zararni keltirib chiqqan shaxslarni javobgarlikka tortish talab etiladi. Yuqoridagilarni amalga oshirmagan taqdirda, mazkur mamlakat tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lmagan deb topiladi va bu u tomonidan xalqaro-huquqiy majburiyat bajarilmaganini anglatadi.

(b) Transchegaraviy tabiatga zarar keltirishning oldini olish majburiyati

O'z hududidan foydalanishni nazorat qilish majburiyati BMT Inson va Tabiat Deklaratsiyasining 21-qoidasi hisoblanadi. Unga ko'ra, davlat o'z yurisdiksiyasidan tashqaridagi hudud tabiatiga zarar yetkazmaslik bo'yicha majburiyat oladi. Nafaqat o'z hududidan foydalanish, balki davlat nazorat qiladigan faoliyatlar natijasida boshqa davlatlar yoki xalqaro rejimli hududlarning tabiatiga zarar yetishi mumkin emasligi belgilandi.

1996-yilda BMT Xalqaro Sudida ko'rilgan **Atom qurollarini ishlatishning huquqiyligiga oid ishda** [Casebook: raqam..] o'z hududidan foydalanishni nazorat qilish javobgarligidan kelib chiqqan holda transchegaraviy tabiatga zarar keltirishning oldini olish majburiyati davlatlarning umumiy majburiyati sifatida e'tirof etilgan. Shunday ekan, ushbu majburiyat tabiatga ehtiyotkorona yondashish majburiyati bilan bir xil ahamiyatga egadir.

(c) Oldindan xabar berish va o'zaro maslahatlashuv majburiyati

Qaysi bir davlat o'zga davlatlarga ta'sir etishi mumkin bo'lgan loyihani amalga oshiradigan bo'lsa, manfaatdor bo'lgan davlatlarga oldindan xabar berishi lozim. Bundan tashqari mazkur davlat manfaatdor davlatlar bilan o'zaro maslahatlashuv (konsultatsiya) o'tkazish majburiyatini oladi. Biroq ushbu xalqaro majburiyat loyiha yoki ishning ta'siri bo'ladigan manfaatdor davlatlarning roziligini olish shart emas. Ushbu qoida 1957-yilda Fransiya va Ispaniya o'rtasida ro'y bergan **Lyanuks ko'liga oid hakamlik ishida** ochiqqlangan (*Lake Lanoux Arbitration. [Casebook:...]*). Shuningdek, favqulodda holatlar haqida xabar berishni ham davlat majburiyati sifatida belgilagan shartnomalar mavjud. Rio Deklaratsiyasining 18-qismida mustahkamlab qo'yilganidek, boshqa davlatga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi favqulodda holatlar haqida tezkorlik bilan manfaatdor tarafga xabar berish lozim.

(d) Tabiatga ta'sirni baholash prinsipi

Ushbu prinsip ko'zlanayotgan loyihaga ruxsat olish, uni amalga oshirish va rejalashtirishni belgilashdan ham avval loyihaning tabiatga o'tkazadigan ta'siri mavjud degan oqilona sababga asoslanib, tabiatga yetishi mumkin bo'lgan potensial zararni baholashni anglatuvchi protseduradir. Uning natijasi loyiha haqidagi qarorni qabul qilishda e'tiborga olinishi mumkin. Avval ichki huquqdagi prinsip sifatida tatbiq

etib kelingan, ammo keyinchalik xalqaro huquqda ham qabul qilingan. Masalan, tabiatga ta'sirni baholash prinsipi Skandinaviya davlatlari o'rtasidagi tabiatni muhofaza qilish bitimi (1974-yil), Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi doiraviy konvensiya (1992-yil), Biologik xilmaxillik to'g'risidagi konvensiya (1992-yil) kabi xalqaro hujjatlarda ham qayd etilgan. Bundan tashqari, Rio Deklaratsiyasining 17-qismida ham uning zarurligi haqida so'z yuritilgan.

(e) Barqaror taraqqiyot prinsipi

Ushbu prinsip hozirgi avlod vakillari mavjud tabiiy zaxiralarni qazib olish va foydalanishda kelajakdagi avlod ehtiyojlarini o'ylashlari hamda ularning imkoniyatlarini yaxshilaydigan tarzda o'z ehtiyojlari uchun ishlatishlari lozim degan ma'noni anglatadi. Mazkur tamoyil tabiatni asrash va iqtisodiy rivojlanishni birlashtirgan konsepsiya bo'lib, Janub-Shimol tengsizligi muammosini ((→**Chapter 10**), 1(2)) yengib o'tish uchun o'rtaga tashlangan. Barqaror taraqqiyot prinsipi Rio Deklaratsiyasining 4-qismida qayd etilgan bo'lsa-da, ushbu normaning ma'nosi va amaliyotga tatbiq etilish o'lchovi mujmal bo'lib, amalga oshirish talab etiladigan choralar har bir davlatning o'z ixtiyorida qoldirilgan.

(f) Umumiy biroq differensial (farq qiluvchi) javobgarlik prinsipi

Ushbu prinsipga ko'ra, dunyo tabiatini muhofaza qilish bo'yicha barcha davlatlar umumiy javobgarlik olishi lozim. Biroq shu bilan bir qatorda, tabiatga yetkazilayotgan zarar va tabiat

muammolarini yechish uchun lozim bo'lgan moliyaviy qudrat va qobiliyat jihatidan davlatlarning o'zaro farqliligini inobatga olgan holda, har bir davlat o'zining imkoniyatlaridan kelib chiqib majburiyat oladi. Natijada, ushbu prinsip tufayli rivojlangan mamlakatlarga rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan og'irroq majburiyat yuklanadi. Masalan, tabiat muhofazasiga oid xalqaro shartnoma moddalari ozon qatlamini yemiradigan moddalarni kamaytirish bo'yicha rivojlanayotgan mamlakatlar o'z majburiyatlarini kuchaytirib bajarishi mumkinligini belgilaydi. Ammo rivojlangan davlatlarga aniq raqamlar bilan belgilangan miqdordagi is gazi (karbonat angidrid) chiqarishni kamaytirish majburiyatini yuklaydi. Rio Deklaratsiyasining 7-qismida ham bu tamoyil o'z tasdig'ini topgan. Shunday bo'lsa-da, so'nggi yillarda ushbu prinsipning egiluvchan tarzda tatbiq etilishiga nisbatan tanqidlar kuchaydi. Barcha davlatlar tabiatni muhofaza qilishda bir xilda qatnashishi lozimpligiga oid chaqiriqlar yangramoqda.

(g) Avlodlar tengligi tamoyili

Ushbu prinsip rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash haqida emas, balki hozirgi va kelajak avlod kishilari o'rtasidagi muvozanat haqida bosh qotiruvchi prinsipdir. Vaqt degan chegaradan oshgan holda, kelajak avlodlarning ham ushbu tabiat zaxiralaridan foydalana olishi va ehtiyojlarini qondirishi yo'lida dunyo tabiatini muhofaza qilishi kerakligiga urg'u beradi.

(h) Zararning oldini olish yondashuvi

Tabiat muammolari orasida ilmiy bilimlarning mavhumligi va kutiladigan natijalarning noaniqligi holatlari ham mavjuddir. Biroq ilmiy aniqlanmaganligi uchun davlatlarning kerakli choralarni ko'rmay, harakatsizlik orqali tabiatga zarar yetkazishlari natijasida zarar yetkazilgan tabiat unsurlarini tiklashning imkoni bo'lmay qolishi mumkin. Shuning uchun ilmiy sabab va kelib chiqadigan zarar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik aniq bo'lmagan paytlarda ham, zarar kattalashmasidan turib oldini olishni talab etuvchi zararning oldini olish prinsipi taklif etila boshlandi. Boshqa tarafdin, davlatlardan zarar kelib chiqmasdan uning oldini olishni talab etishni zararning oldini olish yondashuvi deb atash holatlari ham mavjud. Ushbu qoida Rio Deklaratsiyasining 15-qismida ko'rsatib o'tilgan.

Yuqorida ko'rib chiqilgan prinsiplarga qo'shimcha tarzda, ba'zi protseduraviy fikrlar ham aytilmoqda. Xususan, tabiat uchun xavfli bo'lgan holatni yuzaga keltiruvchi shaxs yoki davlat tabiatga zarar yetkazmagani va unga salbiy ta'sir etmaganini isbotlash majburiyatidir. Ya'ni **isbotlash majburiyatining almashishi** haqidagi fikrlar yangrayotganini unutmaslik lozim. Shu paytgacha mavjud an'anaviy xalqaro huquq qoidalariga ko'ra, huquqiy munosabatlarning yuz berishi va o'zgarishiga nisbatan da'vo qiluvchi tomon o'z da'vosini isbotlashi shartligi haqidagi qoida ustunlik qilib kelgan. Yuqoridagi fikr esa buning ak-

sini ta'kidlaydi. Agar ushbu almashish haqiqatdan yuz bersa, ya'ni tabiatga zarar yetkazish ehtimoli bo'lgan davlat uning xavfsiz ekanligini isbotlashi lozim bo'lsa, an'anaviy xalqaro huquqda ham katta o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin.

(3) Tabiatni muhofaza qilishga oid xalqaro shartnomalardagi majburiyatlarni davlatlarga qanday bajartirish mumkin?

Xalqaro hamjamiyat markazlashgan hokimiyat tomonidan boshqarilmaydi. Shuning uchun xalqaro qoidalar buzilganlik holatlarini aniqlash va huquqqa xilof xatti-harakat sodir etgan davlatlarga nisbatan sanksiyalar qo'llovchi (davlatlarning milliy huquq tizimlaridagi kabi) tizim, hali to'laqonli yo'lga qo'yilmagan. Xalqaro huquqda xalqaro majburiyatlarning buzilishiga nisbatan manfaatlariga zarar yetgan davlatlarning talablariga asoslanib, huquqbuzarlik sodir etgan davlatlarning javobgarligi **davlatlarning xalqaro-huquqiy javobgarlik tizimi** (→*Chapter 2*, (4) orqali hal etib kelingan.

Xalqaro tabiat huquqi sohasida ham, avvalroq tanishtirib o'tganimiz Treyl mis quyish fabrikasi nizosi ikki davlat o'rtasidagi transchegaraviy muammo bo'lgan. Shu sababli uni hal etishda ham davlatlarning xalqaro-huquqiy javobgarligi tizimidan foydalanilgan.

Shunday bo'lsa-da, tabiat muammolarining o'ziga xosligidan kelib chiqsak, davlatlarning xalqaro-huquqiy javobgarlik tizimi ba'zi holatlarda yetarlicha natija bermasligi mumkin. Misol uchun, murakkab harakat va

sabablarning jamlanishi oqibatida tabiatga zarar yetkazilgan holatni olaylik. Bunda zarar ko'rgan davlat zararni keltirib chiqargan harakat bilan zarar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy jihatdan isbotlab berolmaydigan vaziyat yuzaga kelishi mumkin. Yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, global miqyosdagi tabiat muammosi yuz berganda, zarar ko'rgan davlat muammoni keltirib chiqargan davlatni ilmiy jihatdan aniqlab topish imkoniyatiga ega bo'lmay qoladi (11-4). Mana shunday vaziyatlarda dunyo tabiati muhofazasi yo'lidagi nizoning maqsadi bir davlat manfaatini ko'zlash yoki o'sha zararni bartaraf etishdan ko'ra, xalqaro hamjamiyatning umumiy manfaatlari himoyasini talab etishga yo'naltiriladigan holatlar ko'p uchraydi.

Tabiat muhofazasiga oid xalqaro shartnomalar (11-5) da ham davlatlar nazorati ostida amalga oshiriladigan shaxslarning harakatlarini samarali nazorat qilish va boshqarish mazkur xalqaro shartnomaga a'zo bo'lgan davlatlardan talab etiladi. Biroq zarar ko'rgan davlat uchun tabiatga zarar yetkazish harakati amalga oshirilgan davlat tomonidan yetarlicha nazorat amalga oshirilmaganini isbotlash anchagina murakkab. Bundan tashqari, xalqaro-huquqiy javobgarlik tizimiga asoslangan holda majburiyat bajarilmagan deb da'vo qilib, tabiatga yetkazilgan zarar uchun kompensatsiya undirilsa-da, ba'zida o'sha mablag' tabiat muhofazasi uchun sarflanmasligi ham mumkin.

Shu sababli tabiat muhofazasiga oid xalqaro shartnomalar ularga a'zo



11-4 Xitoydagi havo ifloslanishining bir ko'rinishi (2015-yil)

Havo ifloslanishi fenomenida o'sha davlatdan chiqqanmi yoki boshqa davlatdan kelganmi, aniqlash qiyin bo'lgan holatlar ham ko'p.

(Manba: AP/Afloimages)

davlatlar o'z majburiyatlarini bajarishlari uchun ikki asosiy qoida nazarda tutiladi. (1) davlatlar tomonidan hisobot berish tizimi va (2) **majburiyatlarni bajarmaslik protsedurasi** hisoblanadi. Aniqroq tushuntiradigan bo'lsak, (1) davlatlar tomonidan hisobot berish tizimi bu – tegishli xalqaro shartnomaga asosan tashkil etilgan xalqaro tashkilotga a'zo mamlakat amalga oshirilgan mahalliy choratadbirlar haqida hisobot taqdim etish tizimidir. Ushbu tizim hisobotni a'zo mamlakatlar yig'ilishida muhokama qilish va o'rganishni ham o'z ichiga oladi. Barchaning ko'z o'ngida xalqaro shartnomani amalda qo'llash holati namoyish etiladi. Natijada jahon hamjamiyati mavjud kamchiliklar yuzasidan o'z fikrini bildiradi. Bu majburiyatlarni yetarli darajada bajarmayotgan mamlakatlarga nisbatan yaxshigina bosimni vujudga keltiradi va buning samarasi o'laroq so'z yuritilayotgan xalqaro

Xalqaro shartnomaning nomi	Qabul qilingan/ kuchga kirgan sana	Yaponiya uchun kuchga kirgan sana	A'zo davlatlar soni	Xalqaro shartnomaning mazmuni
Neft oqib ketish paytida ochiq dengizda aralashish konvensiyasi	1969/1975	1975	89	Tankerdan neft oqishi hodisasidan kelib chiqadigan zararni yengilash tirish uchun sohil bo'yi davlati ochiq dengizdagi xorij kemasi tomonidan yuzaga keltirilgan hodisaga aralasha olishini beigilaydi.
Ramsar konvensiyasi	1971/1975	1980	168	Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan suvliklarda suzuvchi qushlar joylashgan botqoq suvlarni asrash majburiyatini o'rnatadi.
Dengizni kemalardan ifloslanishining oldini olish to'g'risidagi London bitimi	1972/1975 O'zgartirish 1993/1994	1980	88	Kemalardan chiqadigan chiqindilar bilan dengizni ifloslantirishni nazorat qiladi. Simob, kadmiy, radioaktiv chiqindilarni tashlashni taqiqlab, boshqa chiqindilar bo'yicha alohida ruxsat olish zarurligini o'rnatadi.
London bitimi 1996-yildagi protokoli	1996/2006	2007	47	(yuqoridagi) London bitimidagi oldini olish choralari mustahkamlab, dengizga chiqindilar chiqarish va yoqishni taqiqlaydi.
1973-yilgi Dengizni kemalardan ifloslanishining oldini olish London bitimiga oid 1978-yilgi protokol (MARPOL bitimi)	1978/1983	1983	88-155 ilovaga qarab farqlanadi	Kema qatnovi va boshqa hodisalar tufayli yuzaga keladigan dengiz ifloslanishini taqiqlab, alohida nazorat ostidagi moddalarning tashlanishini taqiqlaydi va bu bo'yicha xabar berish lozimligini belgilaydi. Keyinchalik, ba'zi tuzatish va o'zgartirishlar kiritilgan.
Vashington bitimi (CITES)	1973/1975	1980	182+YI	Yovvoyi hayvonot-nabotot turlarining xalqaro oldi-sotdisi bo'yicha xalqaro hamkorlik orqali yo'q bo'lib ketish xavfi mavjud bo'lgan turlarni qo'riqlaydi.
Ozon qatlamini himoya qilish to'g'risidagi Vena konvensiyasi	1985/1988	1988	196+YI	Tirik jonzorlar uchun xavfli bo'lgan infraqizil nurlarni yutuvchi ozon qatlamini qo'riqlashni maqsad qilgan xalqaro shartnoma. Xalqaro hamkorlik uchun asosiy doirani tashkil qiladi.
Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar bo'yicha Monreal protokoli	1987/1989	1988	196+YI	Ozon qatlamini yemiruvchi moddalarni chiqarish va oldi-sotdi qilishni tartibga soladi. Tartibga solinuvchi moddalar va choralarning sonini oshirib bormoqda.
Xavfli chiqindilarni chegaralararo tashish va yo'q qilib yuborish ustidan nazorat qilish to'g'risidagi Bazel Konvensiyasi	1989/1992	1993	185+YI	Xavfli chiqindilar eksporti uchun import qiluvchi davlatning yozma roziligi zarurligi, chiqindilarning noqonuniy oldi-sotdisini amalga oshirganlarni jazolash uchun choralarni ko'rish lozimligi, davlat ichidagi chiqindilarni kamaytirish va muvofiq ravishda yo'q qilish haqidagi normalarni belgilaydi.

Bazel bitimi tuzatmasi (BAN tuzatmasi)	1995/ kuchga kirmagan	kuchga kirmagan	93+YI	OECD davlatlaridan rivojlanayotgan davlatlarga xavfli chiqindilar eksportini amalga oshirmaslikni talab etadi. Shuningdek, transchegaraviy ko'chishni taqiqlaydi.
Zararni qoplash javobgarligiga oid Bazel bitimi	1999/kuchga kirmagan	kuchga kirmagan	11	Chiqindi yo'q qiluvchiga o'tguniga qadar eksportyor, undan keyin esa chiqindini yo'q qiluvchining ehtiyotsizligi javobgarlikka (faultless liability - juda keng) sabab bo'ladi.
Tabiat muhofazasiga oid Antarktika bitimi protokoli	1991/1998	1998	37	Antarktika tabiati va fauna-florasini himoyalash uchun qabul qilingan. Qazilma boyliklarni olish (bir qismi bundan mustasno) to'liq taqiqlanib, tabiatga ta'sirni baholash amalga oshirilishini belgilaydi.
Iqlim o'zgarishiga oid BMT doiraviy bitimi	1992/1994	1994	196+YI	Atmosferadagi is gazi miqdori barqarorligini ko'zlab, global iqlim isishining salbiy ta'sirlarining oldini olish uchun ma'lum bir doirani belgilaydi.
Kioto protokoli	1997/2005	2005	191+YI	Rivojlangan davlatlar chiqaradigan is gaziga nisbatan aniq miqdorlarni belgilab, huquqiy majburiyat yuklaydi va is gazini kamaytirish maqsadiga erishish uchun ma'lum doirani o'rnatadi.
Parij bitimi	2015/2016	2016	176	Global iqlim isishiga oid choralarni amalga oshirishda dunyoning barcha davlatlari ishtirok etib, o'rtacha iqlim darajasini sanoat inqilobi paytidan 2 gradusgacha kamaytirish maqsadini oldiga qo'yadi. BMTga davriy hisobot berish tizimini o'rnatadi.
Biologik xilma-xillik konvensiyasi	1992/1993	1993	195+YI	Biologik xilma-xillikni asrash, biologik xilma-xillik elementlaridan barqaror rivojlanish maqsadida foydalanish, genetik zaxiralarni adolatli va teng tarzda taqsimlashni maqsad qiladi.
Kartahena protokoli	2000/2003	2003	170+YI	Biotexnologiya orqali o'zgartirilgan biologik jonzoatlarning biologik xilma-xillikni asrashga salbiy ta'sir qilmasligi uchun chora-tadbirlarni belgilaydi.
Nagoya-Kuala Lumpur qo'shimcha protokoli	2010/2018	2018	41	Kartahena protokolini to'ldiruvchi sifatida genetik jihatdan o'zgartirilgan jonzoatlarning transchegaraviy ko'chishi tirik jonzoatlar olamiga salbiy ta'sir ko'rsatsa, zarar keltirgan ishlab chiqaruvchini aniqlab, holatni yana avvalgi holiga keltirish majburiyatini yuklaydi.
Genetik manbalarni olish va ulardagi foydani taqsimlash to'g'risidagi Nagoya protokoli	2010/2014	2017	105	Genetik manbalardan foydalanilganda, uni taqdim etuvchi davlatning roziligini oldindan olgan holda, foyda masalasida kelishilgan shartlarda adolatli tarzda taqsimlashni nazarda tutadi.

Afrikadagi cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha BMT konvensiyasi	1994/1996	1998	197	Cho'llanishning oldini olish bilan birga, qurg'oqchilikning ta'sirini kamaytirishni maqsad qiladi. Cho'llanishning oldini olish harakatlar rejasini belgilovchi protsedura va amalga oshirishni tartibga solish mexanizmini belgilab beradi. Hududlarga ko'ra amalga oshirish ilovalari ham mavjud.
Xavfli kimyoviy moddalar to'g'risidagi Rotterdam konvensiyasi	1998/2004	2004	160	Xavfli kimyoviy moddalar va pestitsidlarga oid axborot almashishni tizimlashtiradi. Ularni eksport va importning mumkin yoki mumkin emasligi to'g'risida oldindan xabardor qilish va rozilik tartibi to'g'risidagi tizimni o'rnatadi.
Doimiy organik ifloslantiruvchi moddalarga oid Stokgolm konvensiyasi	2001/2004	2002	182	Dioksin turlari, PCB, DDT kabi 18 turdagi doimiy organik ifloslantiruvchi moddalarni ishlab chiqarish, foydalanish, eksport-importini taqiqlash va cheklash, nazorat qilishga oid normalarni belgilaydi.
Simobga oid Minamata bitimi	2013/2018	2018	91	Simob olishni, ishlab chiqarishni tartibga solish, uni sotish vaqtida esa import qiladigan davlat roziligini oldindan yozma ravishda olish sharti kabi normalarni o'rnatadi.

* Yuqoridagi xalqaro shartnomalarga a'zo davlatlar soni 2018-yil aprel holatiga ko'ra.

shartnoma ijrosi amalda ta'minlanishi imkoniyatlari oshadi.

Keyingi (2) **majburiyatlarni bajar-maslik protsedurasini** tabiat muhofazasiga oid xalqaro shartnoma normalari bajarilmayotgan bir paytda ishga tushadi. Unga ko'ra, xohlagan bir a'zo davlat yoki tegishli xalqaro shartnomada belgilangan majburiyatlarni bajarmayotgan davlat tegishli xalqaro shartnoma kotibiyati va amaliyotni tekshirish qo'mitasiga ariza bilan murojaat qilishini tushunishimiz lozim.

Bunday vaziyatda ariza bilan murojaat qiluvchi davlat zarar ko'rayotgan davlat bo'lishi shart emas. Bunday arizani qabul qilgach, a'zo davlatlar yig'ilishi yoki xalqaro shartnomaga asosan tuzilgan tashkilot o'z funksiyalarini ishga tushiradi. Ya'ni tegishli

xalqaro shartnomani vijdonan bajarishga harakat qilayotgan, ammo majburiyatlarni bajara olmayotgan mamlakatga nisbatan ushbu xalqaro shartnoma normalariga muvofiq moliyaviy yoki texnik yordam ko'rsatish bo'yicha qaror qabul qiladi. Biroq xalqaro shartnomani amalga oshirishga vijdonan yondashmayotgan va majburiyatlarni bajarmay kelayotgan davlatga nisbatan tegishli xalqaro shartnomada belgilangan sanksiyalar qo'llanilishi mumkin.

Tabiat muhofazasiga oid xalqaro shartnomalarga iloji boricha ko'proq davlatlarni jalb etish bilan xalqaro shartnomalarda belgilangan maqsadlar ro'yobga chiqariladi deb hisoblovchi universalizm talabi mavjud. Shu sababli xalqaro shartnomaga qo'shilishga

undovchi mexanizmlarni ishga solish holatlari ham ko'p uchraydi. Bunga misol tariqasida, xalqaro shartnoma asosida tashkil etilgan fondan moliyaviy mablag'lar taqdim etish tizimini keltirishimiz mumkin. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarga texnologiyalarni taqdim etishni qo'llab-quvvatlovchi tizim keng qo'llaniladi. Bundan tashqari, tegishli xalqaro shartnomaga qo'shilmagan davlat bilan ma'lum bir tovarlar yoki ashyolarning savdosini taqiqlash yoki cheklash choralarini belgilovchi xalqaro shartnomalar ham mavjud.

Tabiat muhofazasiga oid xalqaro shartnomalarning umumiy tasnifi (11-5)

(1) Atmosfera doirasidagi tabiat himoyasi

Global miqyosda atmosferani himoya qilishni ko'zlovchi xalqaro shartnomalar orasida Ozon qatlami himoyasiga doir Vena konvensiyasi va Iqlim o'zgarishlariga oid BMT doiraviy konvensiyalari mavjud. Ikkisi ham umumiy, biroq differensial javobgarlik prinsipi va zararning oldini olish yondashuvi tamoyillarini belgilab beruvchi doiraviy bitimlardir.

Vena konvensiyasi ozon qatlamini **(kitob boshlanishidagi rangli surat C-11)** yemiruvchi freon gazini tartibga solishni, BMT doiraviy bitimi esa is gazining (karbonat angidrid) chiqarilish miqdorini **(kitob boshlanishidagi rangli surat C-11)** o'z protokollarida belgilab beradi. Ushbu shartnomalar atmosferani ifloslantiradigan gazlarning chiqarilishini tartibga solish maj-

buriyatini aynan rivojlangan davlatlarga yuklaydi. Shunday bo'lsa-da, hozirgi kunda aynan rivojlangan davlatlarga havoni ifloslantirishni cheklashga oid majburiyatning yuklanishiga nisbatan doiraviy konvensiyaga a'zo mamlakatlarning kengashida (Conference of the Parties: COP) katta muammoli masala sifatida qaralmoqda. 2015-yili Iqlim isishiga doir BMT doiraviy konvensiyasi a'zo mamlakatlarning 21-kengashida yangi huquqiy doira sifatida Parij shartnomasi qabul qilindi. Unda o'rtacha iqlim darajasini sanoat inqilobi davridagi holatdan 2 gradusdan oshmaydigan tarzda ushlab turish umumiy maqsad sifatida belgilandi. Shuningdek, asosiy is gazini chiqaruvchi davlatlar bilan birgalikda, boshqa davlatlarga ham uni kamaytirishga oid rejalar taqdim etildi. Mazkur maqsad va rejalar ro'yobga chiqarishning asosiy vositasi sifatida davlatlar ichida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar ekani belgilab berildi.

(2) Yovvoyi hayvon va o'simliklar himoyasi hamda biologik xilma-xillikni asrab qolish

Yovvoyi hayvon va o'simliklar dunyosining himoyasi bo'yicha 1940-yillardan boshlab xalqaro shartnomalar tuzila boshlandi. Mazkur xalqaro shartnomalar tabiatni muhofaza qilishga oid xalqaro shartnomalar orasida yetakchi xalqaro shartnomalardan bo'lib xizmat qildi. Avval boshda, ushbu xalqaro shartnomalar insonlarning tadbirkorlik faoliyati uchun zarur bo'lgan hayvonlarni (dengiz qoplani, baliq turlari kabilarini) himoya qilgan. Undan so'ng esa,

suvda suzuvchi qushlar joylashgan botqoqlarni asrovchi Ramsar konvensiyasi (1971-yil) (11-6) va yo'q bo'lib ketish xavfi bo'lgan yovvoyi hayvon hamda o'simliklarning savdosini tartibga soluvchi Vashington bitimi (1973-yil) qabul qilindi. Ushbu xalqaro shartnomalar ma'lum bir hayvon va o'simliklar savdosini taqiqlab, suv jonzotlari, ko'llar va botqoqliklarni himoya qilishni maqsad qilgan.

1992-yildagi BMTning Tabiat va Taraqqiyot Konferensiyasida Biologik xilma-xillik to'g'risidagi shartnoma qabul qilindi. Hozirda, insoniyat faoliyati tufayli dunyodagi flora va fauna yo'qolishga yuz tutmoqda. Umuman yo'q bo'lish xavfi bilan yuzma-yuz turgan turlar soni ham juda ko'p. Yuqoridagi xalqaro shartnoma biologik xilma-xillikni asrab-avaylash, ulardan barqaror rivojlanishga mos tarzda foydalanish, shuningdek, genetik zaxiralarning (genetik funksiyaga ega bo'lib, foydalanishga yaroqli jonzotlardan olinadigan modda) ishlatilishidan olinadigan foydaning adolatli va teng taqsimlanishini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlardan bilan genetik manbalarga bo'lgan foydalanish huquqi masalasi mavjud. Biotexnologiyalarning rivojlanishi tufayli genetik zaxiralardan foydalanish keyingi yillarda avj olmoqda. Genetik zaxiralardan foydalanishdan keladigan natija va foyda esa iqtisodiy nochor davlatlar uchun katta daromad man-

bayidir. Rivojlanayotgan davlatlarga adolatli va teng ravishda, shuningdek, afzalroq foydalanish huquqini berish bo'yicha har qanday samarali choralarini ko'rishga oid normalarni 2010-yildagi Nagoya protokoli o'zida aks ettirdi. Aniq bir genetik zaxiradan foydalanish masalasida esa manfaatdor davlatlar o'rtasidagi alohida muzokara amalga oshirilishi lozim. Bunda tomonlar o'zaro rozi bo'lgan shartlar asosida hamkorlik qilishi belgilab qo'yildi.

Biotexnologiyaning rivojlanishi natijasida insoniyat geni o'zgartirilgan organizmlarni (genetically modified organism: GMO) ishlab chiqara boshladi¹. Ushbu sohada Kartaxena protokoli 2000-yilda qabul qilingan bo'lib, xalqaro miqyosda chora-tadbirlarni amalga oshirishni a'zo mamlakatlardan talab etadi. Ushbu protokol unga a'zo davlatlarga, agar geni o'zgartirilgan organizmning transchegaraviy harakati sodir bo'lsa, «Oldindan xabar berish kelishuviga (Advance Informed Agreement: AIA) asoslanib protseduralarni amalga oshirish majburiyatini yuklaydi².

¹ Tarjimon izohi: GMO bu geni modifikatsiyalangan (o'zgartirilgan) organizm bo'lib, bakteriya, o'simlik yoki hayvon organizmining qaysidir xususiyati genetik injeneriya usuli yordamida organizmga begona organizm genini kiritish yo'li bilan o'zgartiriladi. Bunday jarayonlar aslida tabiatda tabiiy holatda ham uchraydi. Bu holatga transformatsiya yoki genlarning gorizontol ko'chishi deb ataladi. GMO da esa ushbu jarayon odam tomonidan ko'zlangan maqsad asosida hosil qilinadi. Manba: Bahtiyor Sheraliyev, Ehtiyot bo'ling, «GMO! Haqiqat va afsona», Xabar.uz 24.12.2018. <https://www.xabar.uz/ru/mualliflar/baxtiyor-sheraliyev/ehtiyot-boling-gm#>.

² Ma'lumot o'rnida: O'zbekiston Respublikasi ushbu protokolga 2019-yilda qo'shilgan.

119 Zararli chiqindilarni tartibga solish



Yaponiyadan Filippin davlatiga yuborilgan konteynerdan tibbiy chiqindilar topildi. Bazel konvensiyasiga ko'ra Yaponiyaga qaytarilgan chiqindilarni tashlashdan oldin ularni politsiya xodimlari tekshirishmoqda (2000-yil).

(Manba: Jiji)

chiqindilarning importini taqiqlovchi davlatga yuboriladigan chiqindilarga ruxsat bermasliklari lozim. Konvensiya, shuningdek, unga a'zo davlatlar va a'zo bo'lmagan davlatlar orasidagi chiqindilar oldi-sotdisiga ham taqiq o'rnatgan. Zararli chiqindilarning eksport-importi amalga oshiriladigan vaziyatda oldindan berilgan xabarga asoslangan roziligi (Prior Informed Consent: PIC) protsedurasiga ko'ra, ushbu faoliyat tartibga solinishi ham qayd etilgan.

Zararli sanoat moddalari va pestitsidlarni ishlab chiqarish, foydalanish va import qilishni tartibga solish choralari bo'yicha rivojlanayotgan davlatlar tomonidan nazorat qilish mexanizmi ishlab chiqilmagan holatlar hali-hamon ko'pligicha qolmoqda. Rivojlangan davlatlarda foydalanish taqiqlangan moddalar mazkur mamlakatlar tomonidan keng miqyosda qo'llanilishi, ular-dan muvofiq tarzda foydalanilmasligi,

tabiatning ifloslantirilishi yoki inson sog'lig'iga zarar yetkazuvchi harakatlarning ko'plab amalga oshirilishi tez-tez uchrab turadi. Bunday muammolarni hal etish uchun xalqaro savdo tovarlari qatoriga kiruvchi ma'lum bir zararli kimyoviy moddalar bo'yicha 1998-yilda oldindan xabardor qilingan rozilik tartibi tizimini o'rnatuvchi Rotterdam konvensiyasi (Rotterdam Convention on the Prior Informed Consent: PIC) qabul qilingan. Rotterdam konvensiyasi tegishli ma'lumotlarni a'zo davlatlar orasida keng tarqatgan holda, kimyoviy moddalarning eksporti yuzasidan import qiluvchi davlatlar fikrini hurmat qilishga oid tizimni o'rnatgan.

Shuningdek, qolib ketish xususiyatiga ega bo'lgan PCB, DDT va dioksin kabi doimiy organik ifloslantiruvchi moddalar (Persistent Organic Pollutants: POP) bo'yicha bir qancha ishlarni amalga oshirish zarur. Xususan, xalqaro hamkorlik asosida bu kabi moddalarni yo'qotish va kamaytirishni amalga oshirishga ehtiyoj mavjud. Shu sababli 2001-yilda doimiy organik ifloslantiruvchi moddalar haqida Stokgolm bitimi tuzilgan. Ushbu kelishuv doimiy organik ifloslantiruvchi moddalarni ishlab chiqarish va foydalanishni umumiy tarzda taqiqlaydi va muvofiq tarzda nazorat qilish normalarini belgilaydi.

Simobga oid Minamata bitimida esa, simobning inson sog'lig'iga nisbatan xavfini kamaytirish maqsadida uni ishlab chiqarish, undan foydalanish, tabiatga chiqarish va tashlab yu-

borishni taqiqlashga oid keng qamrovli normalar belgilab berildi. 2013-yilda Yaponiyaning Kumamoto va Minamata shaharlarida ushbu xalqaro shartnomani qabul qilish uchun Xalqaro forum tashkil etildi. Mazkur forumda 92 mamlakat ushbu bitimga imzo chekdi. Hozirda Yaponiya davlati Minamatada tarqalgan kasallikdan olgan saboqlarini dunyoga keng miqyosda tanishtirmoqda. Ushbu bitimning tez orada kuchga kirishi, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar ham ratifikatsiya qila olishlari uchun ularga moliyaviy va texnik yordamini taqdim etmoqda¹.

(4) Dengiz tabiati, Antarktika hududi

Dengiz ifloslanishining asosiy sabablari quruqlikda yashovchi inson omiliga borib taqaladi. BMTning Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiya (→**Chapter 6**) davlatlarga o'z hududidan kelib chiqadigan zararlarni tufayli dengizlarning ifloslanishining oldini olish majburiyatini yuklagan. Shunday

¹ Tarjimonlar izohi: 1956-yildan boshlab Yaponiyaning janubi-sharqiy viloyati bo'lgan Kumamoto prefekturasining Minamata shahrida mahalliy aholida sabablari noma'lum modda tufayli jiddiy asab kasalligi belgilari ko'rinsa boshlaydi. Deyarli 10 yildan keyingina hukumat ushbu kasallikning ildizini topishga muvaffaq bo'ladi. Shahardan oqib o'tuvchi Agano daryosining yuqori oqimida joylashgan Chisso korporatsiyasi va Denko Show a korporatsiyasining simob chiqindilarini daryoga oqizishi natijasida daryodagi baliqlar zaharlangan. O'z navbatida, zaharli baliqlar ularni ko'p iste'mol qilgan jabrlanganlarni ham zaharlab, insonlarning markaziy nerv tizimi jiddiy ravishda shikastlangan. Minamata kasalligi nomi bilan tarixda qolgan ushbu hodisa Yaponiyaning tezkor rivojlanish yillarida tabiat muhofazasiga e'tibor bermaslikning oqibatida yuz bergan to'rtta katta tabiat falokatidan biri hisoblanadi.



2002-yilda Ispaniyada ro'y bergan tanker halokati hodisasida yuzaga kelgan holatni bartaraf etilayotganligini ifodalovchi surat bilan uning 10 yildan keyingi holati aks etgan surat.
(Manba: AP/Afloimages)

bo'lsa-da, bu masala har bir davlatning ichki masalasi hisoblanadi. Shu sababli bu sohada davlatlar faoliyatini xalqaro-huquqiy tartibga solish ko'p ham muvaffaqiyatli bo'layotgani yo'q. Kemalar tomonidan dengizning ifloslantirilishi masalasida esa dengizlarda yuk tashuvchi tankerlarning halokatga yo'liqishi jahon ommasining e'tiborini o'ziga torta boshladi. Natijada, ushbu sohada ham xalqaro shartnomalar tuzildi (11-8).

Ma'lumki, ochiq dengizlarda kemalar qaysi davlat bayrog'i ostida suzayotgan bo'lsalar, o'sha davlat yurisdiksiyasiga taalluqli bo'ladi. (Bayroq davlati

tamoyili (→ **Chapter 3, 3(3)**). Biroq bayroq davlati prinsipi bilangina dengizlar tabiati muhofazasining imkoniyati cheklangan. Shu sababli muammo yuz berganida port joylashgan davlatlar bilan birga, qirg'oq bo'yi davlatlariga ham dengiz ifloslanishi yuzasidan ma'lum bir vakolatlar taqdim etilgan.

Kemalar tufayli dengiz tabiati ifloslanishi bo'yicha, 1973-yilda dengizni kemalardan ifloslanishining oldini olishga oid xalqaro shartnoma (MARPOL bitimi) va unga o'zgartirishlar hamda qo'shimchalar kiritgan protokol (MARPOL protokoli) qabul qilingan. Natijada, ushbu kelishuv kemalar sababli ifloslanishni kamaytirish maqsadida chiqindilarni chiqarish o'lchovlari va kemalarning tuzilishi bilan bog'liq o'lchovlarni belgilab bergan. Shu bilan birga, chiqindi tashlash taqiqlangan hududlarni aniqladi. Bu qoidalarining ijrosi bo'yicha esa, asosan davlat bayroqlari prinsipiga tayaniladi. Ammo zaruriyatga qarab sohilbo'yi davlatlari ham to'ldiruvchi vazifani o'z zimmasiga oldi.

Dengizga tashlash degani bu – chiqindini kemalardan qasddan dengizga otishni anglatadi. Bu masala yuzasidan avval boshda tashlanadigan chiqindini zaharlilik darajasiga ko'ra turkumlarga ajratish orqali tashlanishi taqiqlangan chiqindi va oldindan ruxsat olingan tashlash mumkin bo'lgan chiqindi turlariga ajratilgan (1972-yil, London bitimi). Undan keyin 1996-yilda qabul qilingan protokolda esa, chiqindini dengizga otishni taqiqlovchi umuman teskari qoida ishlab chiqildi va xalqaro

hamjamiyat tomonidan qabul qilindi. Unga ko'ra, dengizlarga chiqindilar tashlash umumiy tarzda taqiqlandi. Ammo istisno tariqasidagina tashlash mumkin bo'lgan moddalar sanab o'tildi. Bundan tashqari, dengizlarda chiqindi va boshqa moddalarni yoqib yuborish holatlari taqiqlandi va bu borada qat'iy qoidalar joriy etildi.

Antarktika hududi tabiatining muhofazasi yuzasidan esa (11-9) 1991-yilda Tabiat muhofazasiga doir Antarktika bitimi protokoli qabul qilindi. Unga ko'ra, atrof-muhitni himoyalash qo'mitasi tashkil etilib, a'zo davlatlarga maslahat berish funksiyasi ushbu qo'mitaga berildi. Ta'kidlash joizki, protokolda Antarktikadagi ilmiy izlanishlardan tashqari yer osti boyliklariga oid barcha faoliyatlar butkul taqiqlandi. Shuningdek, a'zo davlatlar faoliyati bo'yicha har bir davlat o'zining tegishli faoliyati tabiatga qay darajada ta'sir etishini o'zi baholashi kerakligi belgilandi. Tabiatga doir favqulodda holat sodir bo'lganda esa uni topgan davlat yechim topishi lozimligiga doir qoidalar ham belgilandi.

Xalqaro tabiat huquqining kelgusi muammolari

Tabiat muhofazasi muammosiga bir paytlar har bir davlatning ichki ishi sifatida qaralib, uni mahalliy huquq va chora-tadbirlar orqali yechishga harakat qilingan. Keyinroq esa, texnologiya rivojlanishi bilan insonlar faoliyatining tabiatga ta'siri kuchayib ketdi. Buning natijasida esa qo'shni davlatlar, undan keyin esa xalqaro rejimli



Antarktikada joylashgan Shova stansiyasida to'plangan chiqindilarning 5 yil deganda (1998-2002-yillar) 800 tonnasi Yaponiyaga olib kelingan.
(Manba: AP/Afloimages)

hududlar, yakunda esa atmosferaga cha ta'sir doirasi kuchayib ketdi. Natijada, bu holat xalqaro tabiat huquqi va uning rivojlanishini talab eta boshladi. Shuning uchun ham, an'anaviy xalqaro huquq normalaridan farqli prinsiplar va qoidalarning bajarilishini ta'minlovchi mexanizmlar ishlab chiqildi. Bularga misol qilib, rivojlanayotgan davlatlarga alohida e'tibor qaratuvchi yangi prinsiplar va tabiatga oid xalqaro shartnomalarda ko'proq davlatlarni ishtirok etishga undovchi tizimni keltirish mumkin.

Aytish joizki, tabiat muammolariga nisbatan turli avlod vakillari orasidagi o'xshash qarash ham tobora kuchayib bormoqda. Natijada esa, davlatlardan bugungi kun haqida biroz unutilib, «kelajak»da yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarga nisbatan oldini olish prinsipiga asosan harakat qilish talab etila boshlandi.

Shunday bo'lsa-da, insonlar ona tabiatga global miqyosda yetkazayotgan

ta'sirga universal qarashni kuchaytirish yoki rivojlanayotgan davlatlarga alohida maqom beruvchi huquqiy qoidalarni ishlab chiqish bilangina kamaytirish deyarli imkonsiz bo'lib qolmoqda. Bundan keyingi xalqaro tabiat huquqining rivoji qaysi tomonga qarab yo'nalishini diqqat bilan kuzatish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yoshiro Matsui, Xalqaro tabiat huquqining asosiy prinsiplari. – Toshindo nashriyoti, 2010.
2. Masahiro Nishi va Tomohito Usuki, Xalqaro tabiat huquqi darsligi. – Yushindo kobunsha nashriyoti, 2011.
3. Hisashi Koketsu va boshqalar, Tabiat huquqiga kirish, 3-nashr. – Yuhikaku nashriyoti, 2015.

Nizolarni urushmasdan hal etamiz – nizolarni tinch yo'l bilan hal etish

Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish

(1) Xalqaro huquqda nizolarni hal etishning mohiyati

Qanday jamiyat bo'lsin uni tashkil etuvchi shaxslar o'zlarining manfaatlarini o'ylab harakat qilsalar, xuddi shunday manfaatlarni o'ylab harakat qilayotgan boshqa shaxslar bilan bo'ladigan manfaatlar to'qnashuvidan qochib bo'lmaydi. Xalqaro hamjamiyatda ham, masalan, bir davlat biror-bir orolga egalikni da'vo qilib chiqqanda, boshqa bir davlat ham shu orolni o'z mulki sifatida da'vo qilib chiqsa, bu ikki davlat o'rtasida o'zaro qarama-qarshilik yuzaga kelib chiqishi aniq. Bu kabi qarama-qarshiliklar va nizoli holatlar bo'lmaydigan jamiyatni qurish maqsad qilingan bo'lsa, unda iloji boricha bu kabi qarama-qarshiliklarning oldini oluvchi aniq qoidalarni belgilab qo'yish kerak bo'ladi. Agarda nizo yuzaga kelib chiqadigan bo'lsa, ham mana shunday qoidalarga asoslanib ularni hal etish eng mantiqiy yo'ldir.

Xalqaro huquq xalqaro hamjamiyatdagi mazkur qoidalarning bir turi hisoblanadi. Xalqaro huquq normalaridan foydalangan holda taraflar o'rtasidagi nizolarni hal etish rivojlanib kelayotgani ham yuqoridagi amaliy qarashga asoslanadi. Nizo deganda, odatda, **«ikki taraf o'rtasidagi**

huquqiy va faktlar bilan bog'liq ziddiyat, huquqiy qarashlar va manfaatlar to'qnashuvi» (Mavromattis Falastin ishi, Doimiy Xalqaro Adolat Sudi (PCIJ) 1924-yilgi qarori) tushuniladi. Ushbu ta'rifga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning doirasi juda ham keng ekanligini payqashimiz mumkin. Shuning uchun xalqaro huquq normalari vositasidagina nizolar hal etilmaydi. Balki nizoning mazmuni va tabiatiga mos keladigan hal etish standartlari sifatida, masalan, o'zaro foydani teng taqsimlashga oid adolat va siyosiy muhohazalardan tashqari, etika hamda axloq qoidalari kabi huquq doirasiga kirmaydigan qoidalardan ham nizolarni hal etishda foydalaniladi. Yuqoridagi usullardan foydalangan holda siyosiy kelishuvga erishilishga harakat qilinadi va xalqaro huquqda bunday usullar ishlab chiqilgan (2 va 3-qismlarga qarang) (12-1).

Lekin xalqaro huquq boshqa shu kabi qoidalar bilan solishtirganda nisbatan obyektiv standartlarni namoyon eta olishigina emas, balki huquqiy majburlov kuchiga ega o'ziga xos xususiyati tufayli xalqaro huquqqa zid bo'lgan harakatlarga nisbatan huquqiy javobgarlikni belgilaydi. Ya'ni xalqaro huquq himoya qila oladigan doirada, xalqaro huquq normalariga asoslanib muammolarga yechim topish, nizolarni hal etishning boshqa vositalaridan



12-1 Oslo kelishuvi (1993-yil)

Isroilni davlat sifatida, Falastinni ozod qilish tashkilotini (PLO) esa «Falastinning o'zini o'zi boshqarish hukumati» sifatida o'zaro tan olishga oid siyosiy kelishuvni imzolash marosimi. Marosimdan so'ng AQSh prezidenti Bill Klinton Isroil bosh vaziri Is'hoq Rabin va PLO rahbari Yosir Arafot.

(Manba: AP/Aftoimages)

ko'ra barqaror yechimni taqdim etishi kutiladi.

(2) Kuch ishlatishning taqiqlanishi va nizolarni tinch yo'l bilan hal etish majburiyati

XX asrning boshlarigacha xalqaro hamjamiyatda kuch ishlatish xalqaro huquqqa zid xatti-harakat sifatida baholanmagan. Nizoni tinch yo'l bilan hal qilishning imkoni bo'lmasa, urush kabi vositalardan foydalanib davlatlar o'z huquqlarini amalga oshirishga harakat qilganlar. Albatta, bunga ruxsat berilgan. Bu xalqaro huquq davlatlarga nizolarni tinch yo'l bilan hal etish majburiyatini yuklamaganini anglatadi. 1899-yilda qabul qilinib 1907-yilda o'zgartirishlar kiritilgan Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish to'g'risidagi konvensiya (Convention for the Pacific Settlement of International Disputes)da nizolarni tinch yo'l bilan hal etish harakatning asosiy

maqsadi sifatida belgilangan. Shuningdek, 1919-yilda qabul qilingan Millatlar Ligasi to'g'risidagi paktida ham so'nggi vosita sifatida urush qilish davlatning huquqi sifatida istisno etilmagan edi.

Biroq 1928-yilda qabul qilingan Urushdan voz kechish to'g'risidagi Parij paktining tuzilishidan to Ikkinchi jahon urushining natijasi sifatida 1945-yilda vujudga kelgan BMT Nizomigacha bo'lgan davr mobaynida nafaqat urush, balki kuch ishlatish ham, qoida tariqasida, xalqaro huquqqa zid deya e'tirof etildi (**urush va kuch ishlatishning taqiqlanishi**).

Shunday qilib, davlatlardan nizolarni kuch ishlatmasdan boshqa vositalar orqali hal etish majburiyati talab etila boshlandi. Ya'ni nizolarni tinch yo'l bilan hal etish (**Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish majburiyati**) vositasini tanlash nizolashayotgan taraflarning ixtiyorida qoldiriladigan (**Nizoni hal etish vositasini tanlash erkinligi**) bo'ldi. Bu kabi qoidalar BMT Nizomining 2-moddasi 3-bandi hamda 33-moddasida belgilab qo'yildi. Keyinchalik, 1970-yilda qabul qilingan Do'stona aloqalar bo'yicha tamoyillar to'g'risidagi BMT deklaratsiyasi va 1982-yilda qabul qilingan Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish to'g'risidagi Deklaratsiya (Manila deklaratsiyasi) kabi BMT Bosh Assambleyasi qarorlarida ham nizolarni tinch yo'l bilan hal etish majburiyati yana bir bor o'z tasdig'ini topdi. Xalqaro sud (ICJ) ham 1986-yilda Nikaragua ishi (→ **Keysbuk 57**) bo'yicha chiqargan qarorida ushbu majburiyat xalqaro odat



Xalqaro huquqqa asoslanib hal etiladigan nizoning ko'rinishi huquqiy nizo hisoblanadi.

huquqidagi majburiyat sifatida o'z tasdig'ini topganini ta'kidlab o'tdi.

Shunday qilib, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish majburiyati kuch ishlatishni taqiqlash tamoyili bilan deyarli bir tushuncha sifatida qaror topib, xalqaro huquqning asosiy qoidalaridan biri sifatida davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda qo'llanilib kelinmoqda.

(3) Nizolarning tabiati va hal etish vositalarining aloqadorligi

Xalqaro nizolar, ularning kelib chiqish sabablari va salbiy oqibatlarini hisobga olib aytadigan bo'lsak, huquqiy ko'rinishdagina emas, balki siyosiy, iqtisodiy, tarixiy, diniy va yana bir qancha ko'rinishlarda bo'lishi mumkin (12-2). Ya'ni nizolarning biri huquqiy yana biri siyosiy nizo sifatida mustaqil mavjud bo'lmaydi (**Aralash mojarolar nazariyasi**).

Shuning uchun nizolarning har biriga ularning ko'rinishiga mos keladigan hal etish usullarini qo'llagan holda, nizoga umumiy tarzda yechim topish talab etiladi. Masalan, hudud-

ning tegishliligi bilan bog'liq muammo bo'lsa, huquqiy nuqtayi nazardan huquqiy mezonlarni qo'llash imkoni mavjud bo'lgan huquqiy vositalardan foydalangan holda nizoni hal etish maqbulroqdir. Tarixiy tan olish masalalari bilan bog'liq munozarali masalalar yuzasidan nizolashayotgan tarflar tarixiy masalalarga oid o'zaro muhokamalar o'tkazib, ikki taraf uchun ham qoniqarli bo'lgan xulosaga kelish imkonini beruvchi vosita maqbul sanaladi.

Shunday qilib, nizoning tabiati va uni hal etish vositalarining aloqadorligi bo'yicha nizoning o'ziga xos ko'rinishda ekaniga qarab alohida hal etish vositalaridan foydalanish tizimi rivojlanib kelgan. BMT Nizomi 33-moddasida belgilanganidek, bu kabi nizoni hal etish vositalariga **muzokara, tekshiruv, hakamlik, mediatsiya, arbitraj sudi, odil sudlov, mintaqaviy tashkilotlar yoki hududiy kelishuvlar va taraflar tomonidan tanlanadigan boshqa vositalar** kiradi. Ushbu vositalarning qay biridan foydalanish taraflarning ixtiyoriga bog'liqdir.

Xalqaro huquqni qo'llab, nizoni hal etish nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, ularni ikkita katta guruh, ya'ni 1) sud orqali va 2) suddan tashqari muqobil vositalar orqali hal etishga ajratishimiz mumkin. Birinchi turga arbitraj sudi va odil sudlov kirsak, ikkinchi turga muzokara, tekshiruv, hakamlik va mediatsiya kabilar kiradi. Bunday turga ajratishning asosiy mezoni ushbu vositalardan foydalanish natijasida chiqariladigan xulosada majburlov kuchining borligi yoki yo'qligidir.

Bundan tashqari an'anaviy nizo tushunchasida 1) sud orqali hal etiladigan nizolar bo'yicha taraflar xalqaro huquqdagi huquq va majburiyatlari yuzasidan nizolashadigan **huquqiy nizolar**; 2) suddan tashqari muqobil vositalar orqali esa **nohuquqiy nizolarga** ajratib kelingan. Lekin aralash mojoralar nazariyasiga asoslanadigan bo'lsak, huquqiy nizo ham butun bir katta nizo ichidagi xalqaro huquq va majburiyatlarga aloqador nizodan xoli emas. Quyida asosan davlatlar o'rtasida yuz beradigan nizolarning hal etilish vositalari haqida tushuntirib o'tamiz.



Eron tomonidan yadro qurolining rivojlantirilishi muammasi bilan bog'liq ravishda 2014-yil Venada o'tkazilgan AQSh Davlat departamenti kotibii Jon Kerri (chap tomonda) va Eron tashqi ishlar vaziri Javod Zarif o'rtasidagi ikki tomonlama muzokaralar. (Manba: PPS xabarlari)

2 Xalqaro suddan tashqari nizolarni hal etish vositalari

(1) Muzokara

Nizo yuzaga kelsa, har bir nizolashayotgan davlatda tashqi aloqalar bo'yicha mas'ul tashkilotlar (asosan Tashqi ishlar vazirligi), diplomatik aloqalarni ishga solib bevosita so'zlashuvlar amalga oshiriladi (12-3). Bu muzokara deb ataladi. Aslida ko'plab sohalarda taraflar o'rtasida bir-biriga bog'liqlik kuchayib borayotganligi uchun, avvalo, tegishli organlar o'rtasida, masalan, iqtisodiy muammolar yuzaga kelganda Iqtisodiyot vazirligi, moliyaviy muammo yuzaga kelsa Moliya vazirliklari o'rtasida muhokama etilishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Bu kabi muzokaralarning imkoniyati oxirigacha foydalanilmasligi Xalqaro sud kabi boshqa vosita orqali nizoni hal etishni istisno qilmaydi. Ammo nizo nuqtasi aynan qaysi nuqta ekanini aniqlab olish uchun ham mana shunday taraflar o'rtasidagi

muzokaralarni o'tkazish zarur. Muzokaralar jarayoni va uning natijasiga nisbatan taraflarning siyosiy va iqtisodiy qudrati yaxshigina ta'sir etadi. Shu ma'noda muzokara usuli alohida tarzdagi nizoni hal etish vositasi sifatida tan olinishiga nisbatan gumonlar mavjud. Lekin nizolarni hal etish vositalarining tanlanishiga e'tibor qarata-digan bo'lsak, nizoning yakuniy tarzda hal etilishigacha taraflarning kelishuviga erishishi muhim deb hisoblansa, taraflar o'rtasidagi muzokara nizolarni hal etish jarayonining boshlang'ich nuqtasi hamda uning yakuniy nuqtasi ekanini rad eta olmaymiz.

«Muzokaralar olib borish to'g'risidagi sud qarori» orqali taraflarga nizoni hal etish uchun samimiy tarzda muzokaralarni olib borish majburiyatini yuklaydigan, muzokara va sudni o'zida mujassam etadigan nizolarni hal etish shakli ham mavjud. Ushbu usulda hal etishning natijasi qat'iy talab etilmasa-

da, muzokara nizoni hal etish uchun juda ham muhim ahamiyatga ega ekani namoyon bo'ladi.

(2) Tekshiruv

Faktlar noaniq bo'lsa, nizolarni hal etishda to'siqlar yuzaga keladi. Bu kabi to'siqlarni bartaraf etish va taraflarning kelishuvlariga asoslanib tayinlanadigan organ tomonidan faktlar bilan bog'liq masalalarning o'rganib chiqilishi **tekshiruv tizimi** deb ataladi. 1899-yil Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish to'g'risidagi konvensiyada o'rnatilgan tizim *Dogger Bank* ishi (1904-yil) va *Red Kruseydr* ishi (1961-yil) kabilarda qo'l kelgan. Maxsus bilimga ega bo'lgan jismoniy shaxslardan tarkib topadigan organ xolisona baholashni amalga oshirishi maqbul yo'l sifatida e'tirof etilsa-da, ulardan keng miqyosda foydalanilayotgani yo'q. Tekshiruv organlarining vazifasi faktlarni aniqlash bilan chegaralanadi. Ammo amalda faktlarni aniqlashdan tashqari ularga huquqiy baho berish ham talab etiladigan holatlar ko'p. Chunki bunday paytlarda mediatsiya shaklida nizolarni hal etish tanlanadi.

(3) Hakamlik

Hakamlik deganda nizolashayotgan taraflardan tashqari uchinchi shaxs ikki tarafning yarashuvi uchun zarur bo'lgan yordamni ko'rsatish orqali nizolarni hal etishi tushuniladi. Uchinchi shaxs tomonidan nizoga aralashish darajasi kuchsiz bo'lsa, **yaxshi ofis** deb ham ataladi. Ammo hakamlik bilan farqi unchalik ham aniq emas. Ularning farqi quyidagicha: taraflar o'zaro bog'lanishi uchun vositalar va muzo-

karalarni olib borishlari uchun binolarni taqdim etish bilan chegaralansa yaxshi ofis deb ataladi (Yapon-Rus urushidan keyin 1905-yilda Yapon-Rus tinchlik shartnomasi (Portsmut tinchlik shartnomasi) tuzilayotganda AQSh vositachilik qilgan). Yuqoridagi vazifalardan tashqari, uchinchi shaxs muzokaralarga aralashib, taraflarning fikrlarini muvozanatga keltirib, zarurat tug'ilsa amaliy yechimlarni taqdim etsa, bu hakamlik deb ataladi (1978-yilda Misr va Isroil o'rtasida Kemp-Devid kelishuvi tuzilishida AQSh shunday vazifani bajargan) **(12-4)**.

Bunday vaziyatlarda asosiy ishni bajaruvchi uchinchi shaxs sifatida suveren davlatning davlat boshliqlari, hukumat boshliqlari, BMT Bosh kotibi kabi siyosiy vakolatga va xalqaro hamjamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan shaxslar taraflar tomonidan o'zaro kelishuvga asoslanib tanlab olinadi. Hakamlikda nizoni hal etish mana shunday ma'lum bir vakolatga ega bo'lgan shaxslar tomonidan siyosiy ta'sir orqali hal etilishi maqsadga muvofiq deb bilinadi. Ammo ularning xulosalari davlatlarga nisbatan yuridik majburlov kuchini o'zida mujassam etmaydi.

(4) Mediatsiya

Faktlarni aniqlashdan tashqari, huquqiy masalalarni ham o'zida jamlagan barcha jihatlarini o'rganib, nizolashayotgan taraflarning e'tirozlarini hisobga olib, do'stona yechimga kelinishi uchun xolis organ tomonidan amaliy yechim choralari taklif etilishiga mediatsiya deyiladi. Ushbu institut ma'lum bir malakaga ega



Yapon-Rus urushidan so'ng, AQShning Portsmutida Yaponiya (o'ng taraf) va Rossiya (chap taraf) vakillari o'rtasidagi tinchlik muzokaralari (1905-yil). Ushbu yig'ilishni AQSh prezidenti Teodor Ruzvelt maslahatchi sifatida olib borgan.

(Manba: PPS xabarlari)



AQSh prezidentining tog'dagi kotteji bo'lmish Kemp-Devidda o'tkazilgan Misr va Isroil o'rtasidagi tinchlik muzokaralari (1978-yil, sentabr). O'ng tarafda Isroil bosh vaziri Menaxem Begin, chap tarafda Misr prezidenti Anvar Sadat va ular o'rtasida AQSh prezidenti Jimmi Karter.

(Manba: PPS xabarlari)

bo'lgan shaxslardan tashkil topadigan nosiyosiy neytral organ sifatida taraflarning kelishuviga asosan tashkil etiladigan hakamlikdan farq qiladi. Birinchi jahon urushidan so'ng xalqaro tekshiruv tizimi takomillashtirilib, nizo yechimi yuzasidan tavsiyalar bera oladigan tizim vujudga keltirildi. Amalda ikki tomonlama va ko'p tomonlama xalqaro shartnomalarda mediatsiya tizimi belgilab qo'yiladigan bo'ldi (1925-yil Lokarno xalqaro shartnomasi va 1928-yil «Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish to'g'risidagi umumiy protokol» kabilar). Ikkinchi jahon urushidan so'ng nizolarni hal etish bo'yicha xalqaro shartnomalarga ham mediatsiya bo'yicha moddalar kiritilgan hollarni ko'plab uchratish mumkin (1948-yilgi Bogota kelishuvi, 1957-yilgi Yevropa nizolarni tinch yo'l bilan hal

etish to'g'risidagi konvensiyasi kabilar). Shuningdek, nizolarni hal etish to'g'risidagi xalqaro shartnomalardan boshqa shartnomalarda ham mediatsiyaga oid qoidalarni uchratishimiz mumkin. Masalan, BMTning Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyasida (→ 5(1)) mazkur shartnomaning talqini yoki uning qo'llanilishi bilan bog'liq nizolar kelib chiqqanda ularni hal etish vositasi sifatida mediatsiya ham ko'rsatib o'tilgan (Bundan tashqari, 1969-yilgi Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasi kabilar ham mavjud).

Mediatsiya yordamida xalqaro huquq normalarini tatbiq etgan holda nizolarni hal etish choralarini qo'llash imkoni mavjud bo'lsa-da, chiqarilgan xulosa taraflar uchun hech qanday yuridik majburlov kuchiga ega bo'lmaydi.



Boliviya va Paragvay o'rtasidagi Gran Chako hududi. Ikki davlat o'rtasida 1932-yilda urush kelib chiqqandan so'ng, Argentina hakamlik vazifasini bajarib, 1935-yilda mojarolarga chek qo'yildi. 1938-yilda Buenos-Ayres Tinchlik shartnomasi tuzildi. Shu yilning iyul oyida chegaralarni belgilash muammosi bilan taraflar arbitraj sudiga murojaat etishdi va ish oktabr oyida arbitraj sudi qarori bilan yakuniga yetdi.

Boliviya va Paragvay o'rtasida Gran Chako hududi bo'yicha kelib chiqqan nizoda (12-5) Amerika mamlakatlari tomonidan tuzilgan mediatsiya qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan hisobot yordamida (1929-yil) bir marta vaziyat tinchlangandek ko'rinadi. Ammo keyinchalik tabiiy resurslar yuzasidan kelib chiqqan qarama-qarshilik yana qayta alanga oldi va bu ikki taraf o'rtasida urush kelib chiqishiga sabab bo'ldi. So'nggi yillardagi eng ko'zga ko'ringan mediatsiyaga misoli sifatida Yan Mayen oroli atrofidagi kontinental shelf bo'yicha Islandiya va Norvegiya o'rtasida tuzilgan mediatsiya qo'mitasi axboroti (1981-yil)ni keltirishimiz mumkin. Mediatsiyadan hozirgi kungacha kam foydalanilayotganligining sababi

nizolashayotgan taraflar uchun u unchalik ham qulay bo'lmagan protseduraga ega ekani va ko'plab muvaffaqiyatsizliklarga uchraganligidir.

Bugungi kunda urush masalalari bo'yicha mediatsiyaga murojaat etilmasligini hisobga oladigan bo'lsak, xalqaro huquqni mezon sifatida o'z oldiga qo'yib, yuridik majburlov kuchiga ega bo'lgan qaror chiqara oladigan sud tizimi mediatsiyadan ko'ra huquqiy barqarorlik masalasida maqbulroq vosita hisoblanadi. Shuningdek, hozirgi kungacha huquqiy tizimdan qoniqmaslik natijasida nizo yuzaga kelib chiqqanda uni huquqdan boshqa vositalardan foydalanuvchi mediatsiyada hal etgandan ko'ra, muammoning huquqiy holati bilan bog'liq o'zgarishlarni keng ko'lamda ko'ra oladigan protseduradan foydalanib hal etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mana shunday sabablar mediatsiyadan foydalanmaslikning ortida yotadi.

(5) Xalqaro tashkilotlar tomonidan nizolarni hal etish

Daslabki universal xalqaro tashkilot hisoblanmish Millatlar Ligasida Birinchi jahon urushidan so'ng xalqaro tizimni saqlab qolish maqsadida nizolarni hal etish vositasi sifatida yangi mexanizm tashkil etildi. Bu Millatlar Ligasi konsulligining tekshiruv protsedurasi edi. Ushbu protsedura nizolashayotgan taraflarning biri tomonidan bo'ladigan murojaatga asosan ochilib, konsullik ushbu protseduradan foydalangan holda taraflarni yarashtirishga uringan. Shuningdek, Kamchilikni tashkil etuvchi guruhlar himoyasi to'g'risidagi

konvensiyaga aloqador muammolar kelib chiqqanda, konsullik Millatlar Ligasi xalqaro sudiga (PCIJ) huquqiy masalalar yuzasidan tavsiyaviy fikrlarni taqdim etishni so'rab murojaat etgan. Ushbu tavsiyalarga asosan nizoni hal etish ko'zlangan.

Ikkinchi jahon urushidan keyin tuzilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan «Xalqaro tinchlik hamda xavfsizlikni saqlash bo'yicha asosiy mas'uldorlik» (BMT Nizomi 24-modda 1-band)ni o'z zimmasiga oluvchi Xavfsizlik Kengashi nizolarni tinch yo'l bilan hal etishda katta vakolatlarga ega. Uning bu vakolatlari BMT Nizomining VI bo'limida aks etadi. Xavfsizlik Kengashida nizolarni hal etish protsedurasi quyidagi harakatlarning biri bilan boshlanadi: nizolashayotgan taraflar tomonidan nizo topshirilishi (submission), Bosh Assambleya va Bosh kotib yoki nizolashayotgan taraflardan boshqa uchinchi a'zo davlat tomonidan beriladigan ogohlantirish, yoxud Xavfsizlik Kengashining o'zi tekshiruvlar o'tkazishi. Shuningdek, Xavfsizlik Kengashi nizoning davom etishi tinchlik va xavfsizlikni saqlab qolishni xavf ostida qoldiradi deb hisoblasa, nizoni hal etish uchun protsedura va usullar, shuningdek, nizoni hal etish shartlari haqida tavsiyalar berishi lozim.

Bundan tashqari, Bosh Assambleya ham umumiy vakolatlarga ega bo'lgani bois, a'zo davlatlar va Xavfsizlik Kengashiga tavsiyalar berishi mumkin. Ammo Xavfsizlik Kengashi ushbu masala bo'yicha ishlarni amalga oshirayotgan bo'lsa, masalani tahlil etish bilan cheklanib, tavsiya-

12.6 Eron va Iroq urushidan keyin o'rtadagi aloqalarni yaxshilash bo'yicha ikki davlat Tashqi ishlar vazirlari bilan majlislarni yakunlagan BMT Bosh kotibi De Kuellar (1990)



1980-yilda boshlangan Eron-Iroq urushi BMT Bosh kotibi tomonidan taqdim etilgan hal etish bo'yicha tavsiyalardan keyin Zudlik bilan urushni to'xtatish va armiyani qurotsizlantirish bo'yicha Xavfsizlik Kengashining 598-son rezolyutsiyasi (1987-yil 20-iyul) ikki davlat tomonidan qabul qilindi va urush tugatildi.

(Manba: UN Photo)

lar berishni amalga oshira olmaydi. Shuningdek, Bosh kotib ham Bosh Assambleya va Xavfsizlik Kengashi tomonidan ishonib topshiriladigan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida nizolarni hal etish vazifasini bajarishi mumkin. Masalan, Eron-Iroq urushi (1980-1988)da urushni to'xtatish va nizolarni hal etish uchun BMT Bosh kotibi vositachilik qilgan (12-6). Shuningdek, Reynbo Varriyor ishida (12-7) Bosh kotib o'zi qaror chiqargan (1986-yil) bo'lib, ushbu qarorda yuridik majburlov kuchi mavjud deya e'tirof etilgani sababli amalda arbitraj qarori sifatidagi xarakterni o'zida mujassam qilgan.

127

Yangi Zelandiya, Okland portida portlatib yuborilgan Reynbo Varriyor kemasi (1985-yil)



Yangi Zelandiyadagi Okland portining to'xtash joyida tabiatni muhofaza qilish guruhi «Green Peace» egaligida bo'lgan Reynbo Varriyor kemasi Fransiyaning tegishli qo'mitasi xodimi tomonidan portlatib yuborilishi Yangi Zelandiyaning suverenitetiga daxl qilish sifatida baholanib, ikki davlat o'rtasida nizo vujudga keldi. BMT Bosh kotibi tomonidan chiqarilgan qaror (1986-yil)dan keyin, ushbu qaror Fransiya tomonidan hurmat qilinmagani sababli arbitraj sudida ishni ko'rish talab etildi va arbitraj sudi Fransiyaning harakatlarini xalqaro huquqqa zid deb topdi (1990-yil).

(Manba: AP/Afloimages)

Mintaqaviy xalqaro tashkilotlar ham nizolarni hal etish protseduralari va buning uchun maxsus mexanizmlarga ega hisoblanadilar (Masalan, Afrika Ittifoqida Tinchlik va xavfsizlikni saqlash kengashi, Amerika mamlakatlari tashkilotida Amerika mamlakatlari yuridik qo'mitasi va doimiy kengashi, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotidagi mediatsiya qo'mitasi va arbitraj sudi kabilar). BMT Nizomida ham VIII bobda mintaqaviy xalqaro tashkilotlarning a'zo mamlakatlar o'rtasidagi nizolarni hal etishi yuzasidan har bir mintaqadagi protseduralarga asoslanib nizolarni hal etish qo'llab-quvvatlangan.

8 Xalqaro sud tomonidan nizolarni hal etish

(1) Xalqaro sudlarning o'ziga xosligi

Ichki sudlarda fuqarolik ishlarida ham, jinoyat ishlarida ham sudga berilgan shaxslar ushbu ishlar bo'yicha yurisdiksiyaga ega bo'lgan sudlarga qatnashishlari lozim bo'ladi. Chunki ichki sudlarda majburiy yurisdiksiya vakolati mavjud. Bunga qarama-qarshi tarzda davlatlar o'rtasida yuzaga keladigan xalqaro nizolarni hal etuvchi xalqaro sudlarda nizolashayotgan davlatlar o'zaro rozilik asosida sudga murojaat etishga kelisha olmasalar, sud nizoni hal etish bo'yicha yurisdiksiyaga ega bo'lmaydi. Ya'ni xalqaro hamjamiyatda boshqa nizolarni hal etish vositalari kabi nizolashayotgan davlatlarning ikkisi ham rozi bo'lmasa, xalqaro sudlar nizoni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lmaydi. Takeshima oroliga nisbatan egalik yuzasidan Yaponiya Xalqaro adolat sudiga (ICJ) murojaat etib, yillar davomida ishni ko'rib chiqish bo'yicha Janubiy Koreyaning roziligini talab qilib kelayotganining (1954-yil, 1962-yil, 2012-yil) sababi ham aynan mana shunday xalqaro sudlarning o'ziga xosligi bilan aloqador.

Shuningdek, xalqaro sudlar va boshqa nizolarni hal etish vositalari ular tomonidan chiqarilgan yakuniy qaror nizolashgan davlatlar uchun yuridik majburlov kuchiga ega bo'lishi yoki bo'lmasligiga qarab ham bir-biridan farqlanadi. Xalqaro sudlarning qarorlari nizolashayotgan taraflar uchun yuridik majburlov kuchiga ega bo'lib,

ushbu qarorlarga bo'ysunmaganda huquqiy javobgarlik masalasi yuzaga keladi. Lekin xalqaro sudlardagi nizolarni hal etish nizolashayotgan davlatlarning o'zaro roziliklariga asosan amalga oshirilgani bois, nizolashayotgan taraflar chiqarilgan qarorlarga aksariyat hollarda bo'ysunishadi. Xalqaro hamjamiyatda bu kabi qarorlarni majburiy ijroga qaratuvchi xalqaro tashkilot mavjud bo'lmasa-da, nizolashayotgan taraflar tomonidan mazkur qarorlar hurmat qilinadi. Bu esa qaror oxir-oqibat davlatlarning manfaatlariga xizmat qiladi degan fikr mavjud ekanini ko'rsatadi.

Quyida xalqaro sudlarning arbitraj va sud ko'rinishida nizolarni hal etuvchi turlari haqida so'z yuritamiz.

(2) Arbitraj

Arbitraj deganda nizolashuvchi davlatlar nizo yuzaga kelgandan so'ng **murojaat etish bo'yicha kelishuv (compromis)**ni tuzib, arbitrlarni tanlab, tashkil etadigan sud tushuniladi. Xalqaro sudlarning bir turi bo'lgan arbitrajlarning qarorlari yuridik majburlov kuchiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, ushbu qarorlarning asosi bo'lgan qoidalarni tanlash imkoniyati nizolashayotgan davlatlarga taqdim etiladi. Ko'plab arbitrajlar xalqaro huquq normalariga asoslanib qaror chiqarsalar-da, nizolashayotgan davlatlar rozilik bildirsalar xalqaro huquqdan boshqa mezonlar, masalan biror davlatning ichki huquqi yoki **tenglik va ezigulik** prinsipi kabilarga asoslanib nizo hal etilishi mumkin. Shuningdek, qaror chiqaruvchi tashkilot doimiy

bo'lmay, nizo yuzaga kelgandagina nizolashayotgan davlatlarning o'zaro kelishuvi asosida tashkil etilib, faqatgina ushbu nizoni hal etish ham arbitrajning muhim va o'ziga xos jihatlari-dandir. Bu jihat bilan u doimiy faoliyat yurituvchi sudlardan farq qiladi.

Bundan tashqari, bugungi kunda dunyoga mashhur arbitrajlardan biri bo'lgan **Doimiy arbitraj sudi (PCA)** 1899-yil Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish to'g'risidagi konvensiyaga asosan tashkil etilgan. Ammo «doimiy» degan so'z faqatgina nomigagina qo'shilgan bo'lib, doimiy sudyalarning ushbu arbitrajda faoliyat yuritmaydi. Konvensiyaga a'zo mamlakatlar tomonidan tanlangan arbitrlarning nomlari keltirilgan ro'yxat mavjud bo'lib, nizo yuzaga kelganda nizolashayotgan mamlakatlar shu ro'yxatdan arbitrlarni tanlab olishlari mumkin bo'ladi.

Arbitrajda nizolashayotgan davlatlarning xohishlarini hurmat qilgan holda arbitraj sudining tuzilishi va arbitrajda amal qilinadigan qoidalar belgilanadi. Shu sababli nizolashayotgan davlatlar uchun unga murojaat etish juda ham qulay va bu ma'lum bir darajada arbitraj qarorlarining bajarilishiga ham ijobiy ta'sir etmoqda. Avvaldan muhim ahamiyatga ega bo'lgan arbitraj qarorlari ommaviy ravishda e'lon qilib kelingan (1872-yil, Alabama ishi 1938–1941-yillar, Trail Smelter ishi, 1957-yil, Lyanu ko'li ishi kabilar). So'nggi yillarda ham arbitrajlariga davlatlar tomonidan ko'plab murojaatlar kelib tushmoqda (2005-yil, Temir yo'l ishi, 2006-yil, Barbados-Trinidad Taba-

12-8

Bengal qo'ltig'idagi dengiz chegaralari bo'yicha arbitraj ishi (Bangladesh-Hindiston)da arbitraj sudidagi muhokama jarayoni (2013-yil, dekabr)



Hindiston bilan o'rtadagi dengiz chegaralarini belgilash bo'yicha 2009-yilda Bangladesh tomonidan arbitraj sudiga murojaat etilib, 2014-yil 7-iyulda ushbu arbitraj sudi qarori chiqariladi.

(Manba: PCA)

ko hududlarni belgilash ishi, 2007-yil, Gayana-Surinam dengiz chegaralarini belgilash ishi 2014-yil, Bangladesh-Hindiston, Bengal qo'ltig'idagi dengiz chegaralarini belgilash ishi kabilar) (12-8).

Bu kabi misollar arbitraj xalqaro nizolarni hal etishda davlatlar uchun foydali usul ekanini ochiq-oydin ko'rsatib turibdi.

(3) Sud orqali nizolarni hal etish

Sud orqali nizolarni hal etishning o'ziga xos xususiyatlari xalqaro huquq normalarini qo'llagan holda nizolar hal etilishi, qarorda yuridik majburlov kuchining mavjud ekanida ko'rinadi. Bundan tashqari, sud har bir ish uchun alohida tashkil etilmasdan, balki doimiy faoliyat yuritadi (**doimiylik xususiyati**). Ayniqsa, mana shu doimiylik xususiyati sud tizimining arbitraj tizimidan asosiy farqini ko'rsatib

turadi. Bu degani arbitraj sudlari va undagi arbitrlar nizolashayotgan davlatlar tomonidan tashkil etilsa, sudlar doimiy faoliyat yuritgani sababli unda har doim ham nizolashayotgan davlatlarning xohishlari bevosita aks etavermaydi. Shuningdek, sudning doimiylik xususiyati turli xildagi ishlar bilan murojaat etilsa ham sudning chiqaradigan qarorlari izchillikka ega bo'ladi va bu o'z-o'zidan ular pretsedent shakliga o'tishini anglatadi.

Tarixiy jihatdan qaraydigan bo'lsak, sud orqali xalqaro nizolarni hal etish tizimi dastlab Markaziy Amerika mamlakatlari sudi (1907-yil) tashkil etilishi bilan yuzaga kelgan. Ammo dastlabki universal xarakterdagi xalqaro sud sifatida 1921-yilda Gollandiyaning Gaaga shahrida tashkil etilgan **Doimiy xalqaro adolat sudi** (Permanent Court of International Justice: PCIJ) tan olinadi. PCIJ Millatlar Ligasining tashkiloti bo'lmay, u bilan uzviy aloqadorlikni saqlagan holda (Millatlar Ligasi Kengashi tomonidan PCIJga tavsiyaviy xarakterdagi fikrlarini taqdim etish talabi kabi) asosan Yevropa mamlakatlardagi davlatlar o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni hal etishga va xalqaro huquq rivojlanishiga o'zining katta hissasini qo'shgan. PCIJ **tanlangan bandga nisbatan rozilik deklaratsiyasi tizimi (4-qism 2-bo'limga qarang)** orqali majburiy yurisdiksiya vakolatiga ega bo'lib, xalqaro hamjamiyatdagi huquq ustuvorligini ta'minlab kelgandek ko'rinadi. Aslida esa amaldagi huquqni rad etuvchi qudratli davlatlar uchun xalqaro huquq tizimini ushbu

sud orqali tatbiq etish va nizolarni hal etish unchalik ahamiyatli bo'lmay qoldi. Natijada, Ikkinchi jahon urushining boshlanishi bilan PCIJ o'z funksiyalarini to'xtatdi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng, PCIJning faoliyatini amalda davom ettirgan **Xalqaro adolat sudi**¹ (bundan keyin International Court of Justice: ICJ) tashkil etildi. ICJ avvalgi PCIJga nisbatan BMTning asosiy sudlov organi sifatidagi maqomga ega bo'lib, uning tashkil etilishi asosi bo'lgan Xalqaro adolat sudi nizomi BMT Nizomining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Shuning uchun BMTga a'zo mamlakatlar tabiiy ravishda Xalqaro adolat sudi nizomining ham a'zosiga aylanadi (BMT Nizomi 93-modda 1-band). Shuningdek, BMTga a'zo bo'lmagan davlatlar ham BMTga a'zo bo'lishidan avval Yaponiya va Shveysariya kabi Xavfsizlik Kengashining tavsiyasiga asoslanib, Bosh Assambleya tomonidan belgilangan shartlarda Xalqaro adolat sudi nizomining a'zo mamlakatiga aylanishi mumkin.


¹ Tarjimonlar izohi: Deyarli barcha o'zbek adabiyotlarida BMTning Xalqaro adolat sudi «Xalqaro sud» deb nomlanadi. Ammo mazkur nom o'quvchi uchun ma'lum bir noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Masalan, Xalqaro sud tizimi yoki Xalqaro sudlar deganda xalqaro nizolarni hal etuvchi arbitraj sudlari, Xalqaro jinoyat sudi, Xalqaro adolat sudi kabilar tushunilsa-da, o'quvchining ko'z oldida Xalqaro adolat sudining tizimi jonlanishi mumkin. Shu sababli mazkur darslikda sudning asl nomidan (ing: International Court of Justice, fra: Cour internationale de justice) kelib chiqqan holda, uni Xalqaro adolat sudi deya tarjima qilishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Ma'lumot o'rnida, Yaponiyadagi xalqaro huquqshunoslar ham ushbu sudni xuddi shu ma'noni anglatuvchi nomda tarjima qilgan.

ICJ asosan davlatlar o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni hal etuvchi sud organi bo'lsa, xuddi shunday yana bir organ bu dengiz huquqi sohasidagi davlatlar o'rtasidagi nizolarni hal etib kelayotgan Xalqaro dengiz huquqi sudi (ITLOS) hisoblanadi. Bulardan tashqari, sud organi sifatida nizolarni hal etib kelayotgan xalqaro sudlarga misol qilib inson huquqlari bo'yicha (Yevropa inson huquqlari sudi, Amerika mamlakatlari inson huquqlari sudi), iqtisodiyot bo'yicha (Yevropa Ittifoqi adolat sudi, Yevropa mintaqaviy erkin savdo sudi kabilar), jinoyat huquqi bo'yicha (Xalqaro jinoyat sudi) sudlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Quyida sud organi sifatida nizolarni hal etishning asosiy vakili bo'lgan Xalqaro adolat sudi haqida so'z yuritamiz.

Xalqaro adolat sudi (ICJ)ning tizimi va taomillari

(1) ICJning tuzilishi va sud qoidalari (12-9)

ICJ turli fuqarolikka ega bo'lgan 15 nafar sudyalardan tashkil topadi (ICJ statuti 3-modda). Sudyalarning vakolat muddati 9 yilni tashkil etib, BMTning Bosh Assambleyasi va Xavfsizlik Kengashida saylanadi (4, 8, 10-moddalar). Aslida esa Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolarining fuqarolari, albatta, sudya sifatida saylanishi hamda hududiy taqsimlanish masalasiga katta e'tibor qaratiladi (Osiyodan 3 nafar, Afrikadan 3 nafar, Markaziy va Janubiy Amerikadan 2 nafar, G'arbiy Yevropa va boshqa hududlardan 5 nafar, Sharqiy



(2016-yil dekabr oyi holatiga)

Yevropadan 2 nafar)¹. Nizolashayotgan davlatlarning fuqarolari bo'lgan sudyalarning ham sudda qatnashishlari mumkin bo'lib, fuqaroligidagi sudyaga ega bo'lmagan nizolashayotgan davlatlar **alohida tayinlanuvchi sudyani** taqdim etishlari mumkin (31-modda). Shu jihati arbitrajlardagi sudyalarni tanlash tizimiga o'xshab ketadi. Bunday tizim yo'lga qo'yilishining sababi o'sha davlat fuqarosi bo'lgan sudya yoki alohida tayinlangan sudya ushbu nizolashayotgan davlatning nuqtayi nazarlarini qolgan sudyalarga nisbatan yaxshiroq yetkazib bera oladi. Shunday qilib nizolashayotgan davlatlarga ICJda o'z nizolarini hal etishdagi xotirjamlik ham taqdim etiladi.

ICJ qoida tariqasida xalqaro huquq normalarini qo'llagan holda nizolarni hal etadi (38-modda 1-band). Asosan xalqaro shartnomalar va xalqaro odat huquqi qo'llansa-da, **huquqning umumiy prinsiplari** ham sud tomonidan nizolarni hal etish uchun tatbiq etilishi mumkin. Huquqning umumiy prinsiplari nizoni hal etish bo'yicha xalqaro huquq normalari mavjud bo'lmay qolgan paytda sudning o'z vazifasini amalga oshira olmay qolishining oldini olish maqsadida huquq manbasi sifatida keltirib o'tilgan. Bundan tashqari, sud qarorlari hamda doktrinalar ham

¹ Biroq 2017-yil noyabr oyidagi saylovda hindistonlik nomzod Dalvir Bandari britaniyalik Kristofer Grinvudni BMT Bosh Assambleyasi va Xavfsizlik Kengashidan olgan ovozlari hisobiga yengib, ICJ sudyaligiga saylandi. Bu holat BMT Xavfsizlik Kengashi a'zosi bo'lgan Buyuk Britaniya sudyasining Ikkinchi jahon urushidan keyin ilk bor ICJ sudyalari safiga kira olmagan davr sifatida qayd etildi.

sud tomonidan qo'llaniladigan huquq normalarining mazmuni va mohiyatini aniqlashtirish uchun qo'shimcha vosita sifatida qo'llaniladi. Aytish joizki, amalda PCIJ hamda ICJning qarorlari pretsedent sifatida tez-tez qo'llanilib, keyingi sud qarorlari mazmunining shakllanishiga katta ta'sir o'tkazmoqda. Shu bilan birgalikda, nizolashayotgan davlatlarning roziliklari mavjud bo'lsa huquqdan tashqari tenglik va ezgulikka oid qoidalar ham qo'llanilishi mumkin (38-modda 2-band). Lekin hozirgacha bunday holat kuzatilmagan

(2) ICJning yurisdiksiyasi

ICJ tomonidan nizoning hal etilishi va u bo'yicha xulosa chiqarilishi uchun ICJ kelib chiqqan nizo yuzasidan yurisdiksiyaga ega bo'lishi lozim. ICJ yurisdiksiyasidan foydalana olishi uchun esa nizolashayotgan davlatlarning roziligi talab etiladi. Bunday holatlarda ikki xil shakl mavjud. Birinchisi nizo kelib chiqqandan keyin rozilik berish shakli bo'lsa, ikkinchisi nizo yuzaga kelmasdan oldin rozilik berib qo'yish shakli hisoblanadi.

Nizo yuzaga kelgandan so'ng rozilik berish shakli xuddi arbitrajlarda bo'lgani kabi har bir nizo yuzasidan o'sha nizolashayotgan davlatlarning ICJda ishni ko'rib chiqish bo'yicha kompromis topshirishi yoki bir tomonning sudga murojaatiga javoban ikkinchi tomonning ochiqchasiga yoxud sukut orqali **qatnashish yurisdiksiyasida** (jurisdiction by appearance) namoyon bo'ladi. Nizo yuzaga kelishidan avvalgi rozilik shakli ma'lum bir xalqaro shartnomalardagi **sud kelishuvi bo'yicha**

band (mazkur xalqaro shartnomaning talqin etilishi yoki qo'llanilishi yuzasidan ICJga bir tomonlama murojaat etish mumkinligi haqidagi qoida) mavjud bo'lganda yoki **nizoni hal etish bo'yicha alohida xalqaro shartnoma** (nizolarni hal etish vositalarini belgilab beruvchi xalqaro shartnoma bo'lib, ICJga bir tomonlama murojaat etilishini anglatuvchi qoidani o'zida aks ettiradi) nizolashayotgan davlatlar o'rtasida nizo yuzaga kelishidan avval tuzilganda namoyon bo'ladi. Bunday vaziyatda sud kelishuvi bo'yicha band yoki nizoni hal etish bo'yicha alohida xalqaro shartnomaga asoslanib nizolashayotgan davlatlardan biri sudga bir tomonlama murojaat etgan taqdirda ham davlatlarning sud yurisdiksiyasiga nisbatan roziligi mavjud deb hisoblanadi (ICJ statuti 36-modda 1-band).

Nizoning yuzaga kelishidan avvalgi rozilik berish shakli sifatida ICJ statutining 36-modda 2-bandiga asoslanib, **tanlangan bandga rozilik deklaratsiyasi** tizimi ham mavjud (12-10). Ushbu tizim bo'yicha tegishli bandda belgilangan huquqiy nizo yuzasidan har doim ICJ majburiy yurisdiksiyasiga rozilik beriladi va ushbu deklaratsiyani bir xil majburiyatlar doirasida amalga oshirgan davlatlar o'rtasida ICJning yurisdiksiyasi o'rnatiladi.

Aslida Millatlar Ligasining rahnomoligi ostida PCIJ statuti loyahasini yaratgan Huquqshunoslar maslahat kengashi huquqiy nizolar bo'yicha majburiy yurisdiksiya bo'lishi lozimligini taklif etgan bo'lsa-da, buyuk davlatlar asosiy o'rinni egallagan Millatlar Ligasi

Tanlangan bandni qabul qilish deklaratsiyasini amalga oshirgan davlatlarning mintaqalar bo'yicha taqsimoti

Sharqiy Yevropa; 5 Sobiq Sovet Ittifoqi; 3



(2016-yil dekabr oyidagi holatga ko'ra).

(Manba: ICJ veb-sayti)

konsulligi bu taklifni rad etadi. Shundan so'ng ushbu masala Millatlar Ligasining Bosh Assambleyasida ko'tarilib, oxir-oqibat xalqaro huquqqa asoslangan nizolarni hal etishga yanada urg'u berilishini istab, PCIJning majburiy yurisdiksiyasi belgilanishini talab etgan o'rta va kichik miqyosdagi davlatlar hamda buni istamagan yirik davlatlar o'rtasida murosaga kelinadi. Shunday qilib, majburiy yurisdiksiya tizimi dastavval PCIJda joriy etildi. Bunda ko'plab mamlakatlar mana shunday bir tomonlama rozilik deklaratsiyasini amalga oshirsa, amalda odatdagi majburiy yurisdiksiya vujudga kelishi bilan bir xildagi natija kelib chiqishiga umid qilinadi. PCIJ bo'yicha o'sha paytdagi Millatlar Ligasining 80 foiz a'zo davlatlari xuddi shunday deklaratsiyani amalga oshirdilar. Ammo ICJ yurisdiksiyasi bo'yicha tanlangan bandga rozilik deklaratsiyasini BMTga a'zo mamlakat-

larning 40 foiziga ham yetmaydigan atigi 72 ta davlatgina amalga oshirdi.

Tanlangan bandni qabul qilish natijasida xuddi shunday tarzda tanlangan bandni qabul qilgan boshqa bir mamlakatni bir tomonlama sudga berish mumkin bo'ladi. Ammo aksincha, boshqa davlatlar tomonidan sudga berilish ehtimolini ham unutmazlik darkor. 2010-yilda Avstraliya tomonidan Yaponiyaning Antarktika okeanida kitlarni ovlash ishi bo'yicha Xalqaro adolat sudiga berilishi (12-11) ham aynan mana shu tanlangan bandni qabul qilish deklaratsiyasiga misol bo'la oladi. Shunga qaramay har bir davlat tomonidan tanlangan band yuzasidan qabul qilish deklaratsiyasining amalga oshirilish sababi ICJda nizolarni xalqaro huquq normalari vositasida hal etish «huquq ustuvorligi» tamoyilining amalda qaror toptirilishini anglatadi. Bu esa davlatlarning manfaatlari bilan ham muvofiq keladi deb hisoblanadi. Yaponiya va Avstraliya o'rtasidagi ishda Yaponiya Kitlarga oid masalalarni tartibga solish xalqaro konvensiya qoidalarini buzgan deb hisoblanib, ishda mag'lubiyatga uchragan. Biroq «huquq ustuvorligi»ni hurmat qilish hamda Avstraliya bilan do'stona aloqalarni rivojlantirish nuqtayi nazaridan Yaponiya davlati Xalqaro adolat sudi chiqargan qarorni ijro etishga va'da berdi.

ICJ statutiga a'zo bo'lgan mamlakatlar tanlangan bandni qabul qilish deklaratsiyasini faqatgina ikki usulda cheklab qo'yishlari mumkin bo'ladi. Birinchi usul bir nechta yoki ma'lum bir davlatlarning ushbu bandni qabul qi-



Sud muhokamasida qatnashayotgan Yaponiya hukumati vakillari guruhi (2013-yil iyun oyi).
(Manba: UN Photo/ICJ-ICJ)

lish shartlarini belgilash hamda deklaratsiyaning kuchda bo'lish muddatini belgilab qo'yish usuli hisoblanadi. Deklaratsiyaning kuchda bo'lish muddati bilan bog'liq ravishda deklaratsiya amalga oshirilgandan so'ng, darhol uning muddati tugashi haqida e'lon qilish xuddi shu kabi tanlangan bandni qabul qilish bo'yicha deklaratsiyani amalga oshirgan davlatlar bilan o'rtadagi kelishuvni buzish hamda ular bildirgan ishonchga zid xatti-harakat hisoblanadi. Shu sababli deklaratsiyani inkor etish uchun ma'lum bir muddat o'tishi talab etiladi. Boshqa tomondan qabul qilish deklaratsiyasini amalga oshirgandan keyin qisqa fursat ichida boshqa davlat ustidan sudga shikoyat bilan murojaat etishga nisbatan hech qanday cheklov mavjud emas. Agarda qabul qilish deklaratsiyasiga asosan sudga murojaat etilsa va sud ushbu ish bo'yicha yurisdiksiya mavjud deb hisoblasa, shundan so'ng ushbu davlat tomonidan qabul qilish deklaratsiyasi

«... Filippin Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Filippin Respublikasi Xalqaro adolat sudi statutining 36-moddasi 2-bandiga asoslanib, quyidagi holatlar bilan aloqador bo'lgan barcha nizolar yuzasidan sudning yurisdiksiyasini xuddi shunday majburiyatlarni qabul qilgan boshqa davlatlar bilan munosabatlarida to'g'ridan to'g'ri hamda alohida roziliklarsiz majburiy ekanini tan olishini e'lon qiladi.

(a) Xalqaro shartnomalarning talqini

(b) Xalqaro huquqqa aloqador masalalar.

.....

Lekin ushbu deklaratsiya quyidagi nizolarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

(a) Nizolashayotgan davlatlar nizoni tinch yo'l bilan hal etishning boshqa vositasini tanlasalar va unga murojaat etishga kelishganda, nizo yuzasidan kelishuvga erishganda.

(b) Filippin Respublikasi ishning xususiyatidan kelib chiqib ichki sudlarning yurisdiksiyasi mavjud deb hisoblagan nizolar.

.....

Bundan tashqari, mazkur deklaratsiya uning tugatilgani haqida BMT Bosh kotibiga xabar qilingunga qadar kuchda bo'ladi...».

(yuqorida urg'u berish mualliflarga oid)

bekor qilinsa ham bu harakat sud yurisdiksiyaga ta'sir etmaydi.

Ikkinchidan, tanlangan bandni qabul qilish deklaratsiyasiga nisbatan qo'shimcha shart ham kiritish mumkin. Bu masalada ICJning yurisdiksiyasi faqat ma'lum bir vaqt oraliq'idagi nizolarga nisbatan qo'llanilishi yoki ma'lum bir turdagi nizolar va ma'lum bir davlatlar bilan bo'ladigan nizolarga nis-

batan qo'llanilmasligi bo'yicha misollar mavjud. Masalan, Yaponiya va Avstraliya o'rtasidagi Antarktidada kit ovlash bo'yicha ish yuzasidan chiqarilgan qarordan keyin, 2015-yil 6-oktabrda Yaponiya «dengiz jonivori va resurslarini tadqiq qilish, saqlash, boshqarish hamda kashf etishdan kelib chiqadigan nizolar»ni ICJ yurisdiksiyasidan tashqarida bo'lishini ma'lum qiluvchi qo'shimcha shartni kiritdi. Shuningdek, o'z xulosalariga asoslanib davlatlar ma'lum bir nizolarni sud yurisdiksiyasidan tashqarida ekanini anglatuvchi qo'shimcha shart (**avtomatik qo'shimcha shart yoki o'z xulosasi asosida qo'shimcha shart**) ham kiritilishi mumkin (12-12): Ammo bunga qarama-qarshi tarzda tanlangan bandning mohiyati va maqsadiga zid bo'lishi, shuningdek, yurisdiksiyaning bor yoki yo'q ekani haqidagi qarorni chiqarish vakolati ICJda bo'lishi lozim degan tanqidiy fikrlar ham mavjud. Bu kabi yurisdiksiyaning mavjud yoki mavjud emasligi haqidagi tortishuvlar qaror chiqarilishidan avvalgi masalalar sifatida asosan javobgar tomonidan bildirilib, quyida so'z yuritiladigan ilovaviy taomilda hal etiladi.

(3) Ilovaviy taomil

ICJning ilovaviy taomili da'voni ta'minlash choralari, dastlabki muhokama, qarshi da'vo hamda uchinchi mamlakatlarning sud protsessida qatnashishi kabilarni o'z ichiga oladi (ICJ statuti 3-bob, «d» paragraf 73-moddadan). Quyida da'voni ta'minlash choralari hamda dastlabki muhokama haqida tushuntirib o'tamiz.

Da'voni ta'minlash choralari deganda ushbu sud ishi bo'yicha qaror chiqarilishigacha protsess qatnashchilari bo'lgan davlatlarning huquqlari buzilgan, chiqariladigan qaror o'z ma'nosini yo'qotib qo'ymasligi uchun, ICJ tomonidan qaror chiqarilishidan avval ma'lum bir chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan ko'rsatmalar tushuniladi (ICJ statuti 41-modda). ICJ vaziyatga qarab zarur deb hisoblagan paytda ba'zi choralarni amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berishi mumkin. Ammo buning uchun, avvalo ushbu ish yuzasidan ICJ yurisdiksiyaga egami yoki yo'qmi degan masalani hal etish lozim. Ushbu tizim ma'lum bir darajada tezkorlik bilan hal etishni ham talab etgani sababli, mazkur nizo yuzasidan sudning yurisdiksiyasi bor yoki yo'qligini aniqlash bo'yicha tortishuvlar ketayotgan paytda bu kabi da'voni ta'minlash choralari bo'yicha xulosa chiqarishda vaqt asosiy muammoga aylanadi. Shuning uchun ishga yuzaki (tashqaridan) qaraganda sud yurisdiksiyasi borligini taxmin qilinsa, shuning o'zi yetarli hisoblanadi. Bundan tashqari, da'voni ta'minlash choralari mazmuni va ko'rib chiqilayotgan ishda talab qilinayotgan masalalar bevosita bog'liq bo'lishi lozim. Da'voni ta'minlash choralari bo'yicha ko'rsatmalarning yuridik kuchi borasida ham nizolar yuzaga kelgan bo'lsa-da, La grand ishida (2001-yil) bunday ko'rsatmalar yuridik kuchga ega ekanligi o'z tasdig'ini topgan.

Dastlabki muhokama asosan javobgar taraf tomonidan ICJ orqali maz-

kur ishning ko'rib chiqilishining oldini olishga urinishda namoyon bo'ladi. Dastlabki muhokama bo'yicha murojaat kelib tushgach ishni ko'rib chiqish to'xtatilib, dastlabki muhokama amalga oshiriladi. Avval aytib o'tganimizdek, sudning yurisdiksiyasi mavjud emasligi kabi vajlardan tashqari, talablarni qabul qilishning imkoni mavjud emasligi kabi vajlar ham mana shu bosqichda yuzaga chiqadi.

Talablarni qabul qilish imkonining mavjud emasligi deganda ICJning yurisdiksiyasi mavjud bo'lgan taqdirda ham quyidagi sabablar mavjudligi bois, ishni ko'rib chiqish amalga oshirilmagani ma'qul bo'lgan vaziyatlarda ICJ ishni ko'rib chiqmasligi lozim degan talab tushuniladi. Bu kabi talablarning asosiy sababi sifatida quyidagilarni keltirish mumkin. Masalan, ichki sudlarda nizoni ko'rib chiqish yakuniga yetmagani (***Ichki sudlarda ishni oxirigacha ko'rib chiqish tamoyili***), uchinchi shaxslarning huquqiy manfaatlari ishdagi asosiy masala bilan bog'liq bo'lsa, ishni ko'rib chiqishning ma'nosi qolmagan holatlar taqdim etiladi (Mootness). Shuningdek, shikoyat bilan murojaat etayotgan tarafda shikoyat bilan murojaat qilishga oid manfaat mavjud bo'lmaganida yoki shikoyat bilan murojaat etayotgan tarafning huquq va majburiyatlarni olishda suddagi taraf sifatida layoqati mavjud bo'lmasa ham yuqoridagi talab bilan chiqilishi mumkin. Bu kabi sabablarni ishni ko'rib chiqmasdan aniqlashning imkoni mavjud bo'lmasa ishni ko'rib chiqishga o'tiladi va xulosa chiqariladi.

Lekin nizoning siyosiy xususiyatga ega ekanini aytib talablarni qabul qilish imkoni mavjud emasligiga oid asoslarni ICJ doimiy ravishda rad etib kelmoqda. Aralash nizolar nazariyasiga asoslanadigan bo'lsak, turli holatlarni o'zida jamlaydigan nizolarda huquqiy holatlar ham mavjud bo'lib, mazkur holatlar yuzasidan, albatta, ICJ xulosa chiqarib berishi maqsadga muvofiq hisoblab kelingan.

(4) ICJ qarorlarining yuridik kuchi, talqin etilishi va qayta ko'rib chiqish bo'yicha talab

Ishni ko'rib chiqishda har bir taraf tomonidan yozma ravishda hujjatlar topshirilgach, sud binosida taraflarning og'zaki vajlari eshitiladi. Shundan so'ng ICJ o'zining xulosasi sifatida qarorni chiqaradi (12-13). Sud qarori ushbu ishda qatnashgan sudyalarning ko'pchiligi ovozi bilan chiqariladi. Agarda sudyalarning ovozi teng kelib qolsa, ushbu sud ishida rais vazifasini bajargan sudya qanday qaror qabul qilishni hal etadi.

Sud qarori asosiy qism va asoslan-tiruvchi qismdan iborat bo'ladi. Bunda faqatgina asosiy qism yuridik kuchga ega bo'ladi. Shuningdek, chiqarilgan qarorning kuchi faqatgina ushbu ishdagi taraflar va ular o'rtasida kelib chiqqan nizoga nisbatangina ta'sir etadi (ICJ statuti 59-modda). Bundan tashqari, ICJda ish yakuniy qaror chiqarilishi bilan o'z nihoyasiga yetadi va uning ustidan shikoyat qilish imkoni mavjud emas hamda bunday shikoyat tan olinmaydi (ICJ statuti 60-modda). Shunday qilib, sudning qarori



Davlatlarning sud yurisdiksiyasidan immuniteti ishi (Germaniya Italiyaga qarshi)da sud raisi Hisashi Ovada qarorni e'lon qilmoqda (2012-yil fevral oyi).

*(Manba: UN Photo/ICJ/Capital Photos/
Frank van Beek)*

taraflarga nisbatan majburlov kuchiga ega bo'lib, mazkur qaror ishning to'la yakunini ham anglatadi (**res judicata**). Res judicata tamoyili ishni ko'rib chiqish nihoyasiga yetgandan keyingi huquqiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlash bilan bir qatorda, chiqarilgan qarorning boshqa muhokama etilmasligini ham maqsad qiladi.

ICJning qarorlari pretsedent sifatida keyingi sud qarorlariga nisbatan majburlov kuchiga ega emasligi ta'kidlansa-da, o'xshash nizolar yuzaga kelib qolganda amaliy jihatdan oldingi qarorlari keyingi chiqariladigan qarorlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi. ICJ alohida sabab mavjud bo'lmasa, odatda, chiqarib kelingan qarorlardan boshqacha qaror chiqarmaslik uchun ma'lum darajada avvalgi pretsedentlarga asoslanishi yuqoridagi holatning asosida yotadi. Albatta, qaror yakuniy bo'lib, uning ustidan shikoyat

qilish uchun yuqori instansiya mavjud bo'lmasa-da, qarorning sudylar tomonidan sharhlar berilgan qismi yuzasidan munozarali holatlar yuzaga kelib chiqsa, taraflar **qo'shimcha sharh berish talabi** bilan chiqishlari mumkin (ICJ statuti 60-modda). Agarda qaror o'qib eshittirilgandan keyin ish bilan bog'liq hal qiluvchi xarakterga ega muhim bo'lgan yangi ochilgan holatlar topilsa **ishni qayta ko'rib chiqish talabi** bilan murojaat etish mumkin (61-modda).

(5) Sudning tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan qarorlari tizimi

Sudning tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan qarorlari tizimi deganda sud tomonidan BMT va BMT bilan uzviy aloqadorlikda bo'lgan xalqaro tashkilotlarda (BMT Bosh Assambleyasi va Xavfsizlik Kengashidan tashqari BMTning konvensiyaviy va Bosh Assambleyaning ruxsati bilan BMT maxsus organlari) yuzaga kelgan huquqiy muammolar bo'yicha ushbu xalqaro tashkilotlarning talabiga asosan tavsiyaviy xulosalarni taqdim etilish tizimi tushuniladi (ICJ statuti 65-modda). Masalan, BMTga a'zolikni tan olish bo'yicha talablar nima ekani, BMT xalqaro huquqqa ko'ra boshqalardan javobgarlik talab qilish huquqiga egami, Falastinda Isroil tomonidan qurilgan devor xalqaro huquqda qanday huquqiy oqibatni keltirib chiqaradi (12-14) degan amaliy savollar bilan murojaat etilgan.

ICJning tavsiyaviy xulosalari yuridik majburlov kuchiga ega emas. Lekin BMT va unga a'zo mamlakatlar o'rtasidagi



12-14 Falastinda Isroil tomonidan qurilgan devor (2015-yil, mart)

2003-yil dekabr oyida BMT Bosh Assambleyasi sharqiy Quddus (Iyerussalim) va uning atroflarini o'z ichiga oladigan Falastin yerlarini egallab turgan Isroil tomonidan «devor» tiklanishining qanday huquqiy oqibatni keltirib chiqarishi yuzasidan ICJga tavsiyaviy xulosa so'rab murojaat etadi. 2004-yilning iyul oyida ICJ Isroilning harakatlari xalqaro huquqqa zid ekani haqidagi tavsiyaviy xulosani e'lon qilishiga qaramay «devor» hali ham shu holicha buzilmay turibdi.

(Manba: AP/Afloimages)

xalqaro shartnoma va boshqa hujjatlarning talqini, qo'llanilishi bilan bog'liq nizolar yuzasidan tavsiyaviy xulosalarni yakuniy qoida sifatida belgilovchi BMTning Imtiyoz va immunitetlari to'g'risidagi Konvensiya (1946-yil) kabi boshqa xalqaro shartnomalarda ham tavsiyaviy xulosalar yuridik majburlov kuchiga ega deb belgilangan bo'lsa, tavsiyaviy xulosalar yuridik majburlov kuchiga ega bo'ladi. Shuningdek, xulosani so'rab murojaat qilgan tashkilot deyarli barcha holatlarda berilgan xulosaga bo'ysunadi. Shu bilan birga, ushbu xulosa xalqaro huquq normalarining mazmunini aniqlashtirib beradigan holatlar ko'p.

Tavsiyaviy xulosani so'rab murojaat etish uchun ko'tarilayotgan masala huquqiy bo'lishi va ushbu huquqiy masala xulosani so'rab murojaat etayotgan tashkilotning faoliyatiga alo-

qador masala bo'lishi zarur. Ayniqsa, BMTning maxsus organlari tomonidan murojaat etilganda yo'llangan savollarning mazmuni tashkilotning faoliyati doirasidan chetga chiqmasligi kerak. Amaliyotga murojaat etadigan bo'lsak, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) tomonidan yadroviy qurollardan foydalanishning qonuniyligi yoki noqonuniyligi borasida tavsiyaviy xulosa so'rab murojaat etilganda, ICJ mazkur masala WHOning faoliyati doirasiga kirmasligini aytib tavsiyaviy xulosa berishni rad etadi. Shuningdek, bu kabi so'rovlar tashkilotning faoliyat doirasiga kirsam ham, ICJning o'zi so'ralayotgan masalalar bo'yicha xulosani taqdim etish yoki etmaslik borasida keng vakolatga ega. Odatda, ICJ «rad etishdan boshqa chora qolmaydigan» holatlardan tashqari barcha talablarga tavsiyaviy xulosa taqdim etadi. Bundan tashqari, tavsiyaviy xulosani taqdim etish taomilida davlatlar o'rtasidagi nizolarga nisbatan qo'llaniladigan sud taomillari joriy etilib, amalda nizolashilayotgan davlatlar o'rtasidagi nizoga aloqador bo'lgan huquqiy masalalarda, xuddi G'arbiy Sahroi Kabir ishida (1975-yil) (→ **Keysbuk 11**) bo'lgani kabi alohida tanlanadigan sudya tizimi ham joriy etilishi mumkin.

(6) ICJdan foydalanish

Yuqoridagi funksiyalarni o'zida jamlagan ICJ tashkil etilgan paytda shu kabi vazifalarni amalga oshirishidan umid qilingan edi. Lekin 1960-yillardan keyin yangi mustaqil bo'lgan Osiyo va Afrika mamlakatlari ICJdan foydalanishga nisbatan passivlik ko'rsata


boshladilar. Janubiy-g'arbiy Afrika ishi bo'yicha qarorda (1966-yil) mustamlakachilik bilan bog'liq masala yuzasidan taomillar bo'yicha qoidalarni ro'kach qilib o'z xulosalarini taqdim etmagan ICJga nisbatan u rivojlangan mamlakatlarning foydasiga ishlaydi degan fikr paydo bo'ldi. Biroq sovuq urushdan keyin, ayniqsa, hududiy nizolar va dengiz chegaralari bilan bog'liq ko'plab nizolarda xalqaro huquq normalarni qo'llagan holda masalalarga yuqori sifatli yechim berila boshlagach, yana ushbu sudga murojaat etish soni ko'paydi (12-15).

5 BMT dengiz huquqi konvensiyasi bo'yicha kelib chiqadigan nizolarni hal etish tizimi

(1) Nizolarni hal etish tizimi va tuzilmasi

BMT dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyada (1982-yil) mazkur konvensiyaning talqini yoki qo'llanilishi bilan bog'liq a'zo mamlakatlar o'rtasidagi nizolarni tinch yo'l bilan hal etish vositasi belgilab berilgan (Konvensiyaning XV bo'lim 279-moddasidan boshlab). Ushbu konvensiyaning ishlab chiqilish jarayonidan boshlab sohilbo'yi davlatlari hamda bayroq mamlakatlari (kema ro'yxatga olingan mamlakat) o'rtasidagi huquq va majburiyatlar muvozanatga solingan. Ushbu muvozanatni saqlab turish uchun esa konvensiyaning talqini va qo'llanilishi yuzasidan davlatlar o'rtasida nizo yuzaga kelsa bunday nizolarni hal etishni ta'minlash lozim hisoblanadi. Mazkur konvensiyada muzokara, mediatsiya,

12-15 ICJda ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan ishlar va berilgan tavsiyaviy xulosalar soni



(Manba: ICJ veb-saytida e'lon qilingan ma'lumotlar asosida tayyorlandi)

arbitraj va sud orqali nizolarni hal etish maqsad qilingani uning o'ziga xosligini namoyon etadi. Mazkur taomillar quyidagi uchta bosqichdan tarkib topadi.

Birinchi, nizo nizolashayotgan davlatlar kelishuviga ko'ra tanlangan tinch yo'l bilan hal etilishi lozim (XV bo'lim I paragraf). Ikkinchi, nizolashayotgan taraflar kelishuvga erisha olmasalar yoki kelishuvga erishilgan nizoni hal etish vositasi orqali ham, majburlov kuchiga ega bo'lgan ajrimga asosan, majburiy taomildan foydalanishlariga to'g'ri keladi.

Mazkur konvensiyaga asosan Xalqaro dengiz huquqi sudi (ITLOS) (12-16), Xalqaro adolat sudi (ICJ), arbitraj sudlari, maxsus arbitraj sudlaridan biri yoki bir nechtasini nizoni hal etish vositasi sifatida tanlash mumkin. Agarda bulardan hech biri tanlanma-

sa, arbitraj sudining yurisdiksiyasi tan olindi degan xulosaga kelinadi (Konvensiyaning 287-moddasi). Shuningdek, Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyadan boshqa xalqaro shartnomada nizolashayotgan taraflar nizoni hal etish vositasini va taomilini belgilab olgan bo'lmasalar, (281-282-mod-

12-16 Xalqaro dengiz huquqi sudining (ITLOS) yuqoridan ko'rinishi



ITLOS Germaniyaning Gamburg shahrida joylashgan. (Manba: ITLOS Photo)

dalar), bir xil taomilni tanlagan davlatlar o'rtasidagi ish shu taomil bo'yicha ko'rib chiqiladi. Agarda ular tomonidan tanlangan taomillar mos kelmasa, unda nizo bilan bog'liq barcha holatlar arbitraj sudining ixtiyoriga beriladi (XV bo'lim 2-paragraf). Shu bilan birga, mazkur konvensiyaning talqin qilinishi va qo'llanilishi bilan bog'liq nizolar yuzaga kelsa, albatta, yuqoridagi taomillardan biriga asoslanib nizo hal etilishi belgilab qo'yilgan. 1999-yil Avstraliya va Yangi Zelandiya tomonidan Yaponiya ustidan shikoyat qilingan Janubiy tuna ishi arbitraj sudiga topshirilgan bo'lsa-da, arbitraj sudi bu kabi sudga majburiy olib kelish shartlari yetarli darajada ta'minlangan emas deya Yaponiya da'vosini qo'llab-quvvatlab, mazkur ishga nisbatan o'z yurisdiksiyasi borligini rad etdi.

Uchinchidan, ma'lum bir nizolar yuzasidan yuqoridagi majburiy taomil cheklangan bo'lib, a'zo mamlakatlar o'z ixtiyorlariga ko'ra majburiy taomildan voz kechishlari mumkin bo'ladi (XV bo'lim 3-paragraf). Mazkur konvensiyaning XV bo'lim 2-paragrafining qo'llanilishi cheklanadigan vaziyatlar konvensiyaning 297-moddasi 1-bandida keltirilgan. Unga ko'ra mazkur konvensiyaning talqin qilinishi va qo'llanilishi bilan bog'liq nizolardan «suveren huquqlar yoki yurisdiksiyaning sohilbo'yi davlatlar tomonidan amalga oshirilishi bilan bog'liq holatlar» majburiy taomil bo'yicha ko'rib chiqilmaydi. Mazkur bandda nazarda tutilgan holatlardagina (masalan, kemalar qatnovini ham o'z ichiga oluvchi

xalqaro darajadagi huquqqa mos keladigan dengizdan foydalanish bo'yicha sohil davlati xalqaro shartnomaning qoidalariga zid xatti-harakatlarni amalga oshirgan nizolarda) 2-paragrafdagi majburiy taomilga asosan ish ko'riladi (**majburiy taomilning cheklanishi tamoyili**). Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar (297-modda 1-band) va baliq ovlashga (297-modda 3-band) aloqador bo'lgan nizolar yuzasidan ham mazkur konvensiyaning XV bo'lim 2-paragrafidagi majburiy taomil qo'llanilmaydi.

Bundan tashqari, a'zo mamlakatlar chegaralarni belgilash bilan bog'liq nizolar, harbiy harakatlar bilan bog'liq nizolar, 297-moddaning 2, 3-bandlarida yurisdiksiyani rad etishga asos bo'ladigan suveren huquqlar va yurisdikcion vakolatlardan foydalanish bilan bog'liq nizolar hamda Xavfsizlik Kengashi tomonidan BMT Nizomiga asoslanib yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdan kelib chiqqan nizolar yuzasidan majburiy taomilni qabul qilmasliklarini yozma ravishda e'lon qilishlari mumkin. Bu **majburiy taomilning ixtiyoriy rad etilishi** deb ataladi (Konvensiyaning 298-moddasi).

(2) Da'voni ta'minlash choralari

BMTning dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyasining talqin etilishi va qo'llanilishi bilan bog'liq nizolar yuzasidan yurisdiksiyaga ega bo'lgan sud yakuniy qarorning chiqarilishigacha bo'lgan davr oralig'ida 1) «nizolashayotgan har bir tarafning huquqlarini himoya qilish» uchun yoki 2) «dengiz muhitiga katta zarar yetkazishi mumkin bo'lgan holatlarning oldini olish»

uchun lozim deb topgan paytda da'voni ta'minlash choralari qo'llashi mumkin bo'ladi (290-modda 1-band).

Da'voni ta'minlash choralari qo'llashi mumkin bo'lgan sudlar yuqorida (1) da keltirib o'tilgan to'rtta sud hisoblanib, taraflar tomonidan arbitraj sudi yoki maxsus arbitraj sudi nizoni hal etish vositasi sifatida tanlanishiga qaramay, sudni tashkil etish uchun ko'p vaqt ketsa, arbitraj sudining o'rniga ITLOS da'voni ta'minlash choralari belgilaydi. Shuningdek, mazkur sudlar tomonidan da'voni ta'minlash choralari ushbu sudlar yurisdiksiyasining joriy etilishi taxmin qilinganida va zaruriyat (necessity) holati yuzaga kelganda belgilanadi. Bundan tashqari, hozirgi kungacha bo'lgan amaliyotga e'tibor qaratadigan bo'lsak, zaruriyat mezonini buzilgan huquqlarning qayta tiklanish imkoni mavjud bo'lmaganda talab qilish kabi ICJda tan olib kelingan da'voni ta'minlash choralari ITLOS tomonidan ham qo'llab kelinadi.

(3) Zudlik bilan ozod qilish

Dengiz huquqi konvensiyasiga a'zo bo'lgan davlatlar ma'lum bir holatlarda qo'lga olingan boshqa davlatlar kemalari va ularning ekipaj a'zolarini mantiqiy garov evaziga tezlik bilan qo'yib yuborishi lozim (Konvensiyaning 73-modda 2-bandi, 220-modda 6-7 bandlari, 226-modda 1-bandi). Shuningdek, ushbu qoida hurmat qilingan yoki qilinmagani borasida nizolashilganda ham muammoni sudgacha ko'tarib chiqish mumkin. Ya'ni kema qo'lga olingandan so'ng 10 kun ichida aloqador bo'lgan davlat bilan o'rtada



12-17 Tomimaru va Hoshinmaru ishlari (Yaponiya Rossiyaga qarshi) da ITLOSdagi sud muhokamasi jarayoni

Rossiya tomonidan qo'lga olingan ikkita baliqchilik kemasi va ularning ekipaj a'zolarining zudlik bilan qo'yib yuborilishini talab etib Yaponiya 2007-yilning iyul oyida ITLOSga murojaat qiladi. Shu yilning avgust oyida ITLOS Hoshinmaru kemasi va uning ekipaj a'zolarini ozod qilish lozimligini ta'kidlagan bo'lsa-da, Tomimaru yuzasidan Rossiyaning ichki sudida musadara qilish protsessi hal qilinganligi sababli, Yaponiyaning sudga murojaati o'z mohiyatini yo'qotib, ITLOS bu murojaat bo'yicha qarorni chiqara olmaydi.

(Manba: ITLOS Photo)

kelishuvga erishilmasa, kemalari qo'lga olingan davlat konvensiyaning 287-moddasiga asosan taqdim etiladigan nizoni hal etish vositalaridan biriga murojaat etishi mumkin (292-modda). Bu **zudlik bilan ozod qilish taomili** deb ataladi. Qo'lga olingan kemalar noqonuniy xatti-harakatlarni aniqlash maqsadida ichki sudlarga topshiriladi. Biroq ichki sudlarda ham ma'lum bir vaqt ketishini hisobga olinsa, bu vaqt oralig'ida garov pulini to'lagan holda mulkiy qiymatni ushlab turish va insoniylik nuqtayi nazaridan kema va ekipaj a'zolarini qo'yib yuborish talab etiladi.

Zudlik bilan ozod qilish taomili Dengiz huquqi konvensiyasigagina tegishli

bo'lgan o'ziga xos tizim bo'lib, ITLOSning pretsedentlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, eng ko'p foydalaniladigan taomil aynan mana shu taomil hisoblanadi. Yaponiya ham ushbu taomildan foydalanib, Rossiyaning eksklyuziv iqtisodiy zonasida qo'lga olingan kemanding ekipaj va uning a'zolarini ozod qilishni talab qilib chiqqan va Rossiyaga qarshi ITLOSGa murojaat etgan ish ham mavjud (Tomimaru ishi va Hoshinmaru ishi, 2007-yil) (12-17).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Takane Sugihara, «Xalqaro adolat sudi tizimi». – Yuhikaku, 1996-yil.

2. J.G. Merrills (Masakuni Hasegava tarjimasi), «Xalqaro nizolarni hal etish sohasiga kirish». – 4-nashr, Seibundo, 2008-yil.

3. Shigeru Oda, «Xalqaro adolat sudi». – to'ldirilgan qayta nashr Nipponhyoronsha, 2011-yil.

Chapter 13

Davlat xavfsizligini himoya qilish – xavfsizlikni ta'minlash

Xalqaro hamjamiyatda «urush»ning o'рни

Qay yo'sinda urush va harbiy harakatlarni tartibga solish va davlatlarning xavfsizligini ta'minlanish masalasi avvaldan xalqaro huquqda munozara markazida bo'lib kelgan masalalardan biri hisoblanadi. Klassik xalqaro huquq keng ko'lamda ruxsat bergan «urush qilish erkinligi»ni Millatlar Ligasi Nizomi, Urush qilmaslik to'g'risidagi xalqaro shartnoma hamda BMTning Nizomidagi qoidalar orqali asta-sekinlik bilan cheklanishiga erishildi. Ammo 1991-yildagi **Fors ko'rfazi urushi** (kitob boshidagi rangli surat C-8), 1999-yilda NATO tomonidan **Yugoslaviyaga uyushtirilgan havo hujumlari**, 2001-yildagi **Afg'oniston urushi**, 2003-yildagi **Iroq urushi**, 2014-yildan boshlab Iroq-Shom Islom davlatining

tuzilishi natijasida Suriya hududidagi urushlar kabi xalqaro hamjamiyatda urushlar haligacha tingani yo'q.

Lekin ushbu qurolli ziddiyatlarning huquqiy o'рни masalasi xalqaro huquqda bir xil emas. Shunday ekan, tashqi tarafdin xuddi urushga o'xshab ketadigan yuqoridagi misollar huquqiy jihatdan qanday baholanadi? Buni bilish uchun, avvalo, urush va kuch ishlatish tarixiy jihatdan qanday cheklab kelinganini bilib olish lozim.

Urush va kuch ishlatishning taqiqlanishi

(1) Adolatli urush nazariyasidan «urush qilish erkinligi»ga qarab

Urushni adolatli urush hamda adolatsiz urushga ajratib, adolatli urushgagina ruxsat etiladi deb hisoblovchi «adolatli urush nazariyasi» qadimgi Yunon davridan beri turli xilda talqin etib kelingan. Ammo yangi davrning boshlarida Grotius tomonidan unga huquqiy jihatdan baho berildi (→**Chapter 1**). Grotius o'zining asosiy asari bo'lmish «Urush va tinchlik» kitobida (13-1) urushni huquqiy da'voga qiyoslab, mudofaa, huquqlarni qayta tiklash va jinoiy jazo berishni urushning uchta asosli sababi sifatida keltiradi. Biroq Rim papasini o'ziga bosh deb hisoblovchi Xristian dini tartibotidan qutulgan mustaqil va teng suverenitetga ega bo'lgan yangi davr davlatlari uchun

 Grotiusning «Urush va tinchlik» kitobi (Ilk nashr, 1625-yil)



(Manba: Senshu universiteti kutubxonasi arxivi)

Chapter

13

Davlat xavfsizligini himoya qilish –
xavfsizlikni ta'minlash

urushda taraflarning qaysi biri haq ekanligini belgilab beruvchi vakolatli tuzilma yo'qoldi. Shuning uchun ham, XIX asrga kelib, adolatli urush nazariyasi tobora urfdan chiqib, davlatlar tomonidan «**urush qilish erkinligi**» tamoyili keng ravishda tan olina boshlandi.

(2) Urush qilish va kuch ishlatishning taqiqlanishi

Insoniyat tarixidagi eng katta urushlardan hisoblangan Birinchi jahon urushi 10 milliondan ortiq odamning yostig'ini quritdi. Bu insoniyat uchun tarixda misli ko'rilmagan talafot edi. Ushbu urushning yakunida tuzilgan tinchlik sulhi hisoblanmish Versal shartnomasining bir qismi sifatida vujudga kelgan **Millatlar Ligasi Nizomi** (1919-yil) nizolarni tinch yo'l bilan hal etish taomilini belgilab berdi. Shuningdek, ma'lum bir holatlarda urush qilishni taqiqladi (12-modda 1-band, 13-modda 2-band, 15-modda 6-band). Ammo Millatlar Ligasining Nizomiga ko'ra, nizoni tinch yo'l bilan hal etishning imkoni mavjud bo'lmasa, urush qilish da'vosi bilan chiqayotgan davlatning urush qilishga bo'lgan huquqlari keng miqyosda tan olingan (15-modda 7-band). Shu sababli urush qilishni taqiqlash mutlaq qoida hisoblanmay, qisman amal qilgan, xolos.

Keyinchalik, AQShlik tinchlik harakati vakillari tomonidan rivojlantirilgan «**Urush qilishni taqiqlash**» harakatining ta'siri natijasida dastavval AQSh va Fransiya o'rtasida o'tkazilgan ikki tomonlama muzokaralar olib borildi. Yakunda ko'p tomonlama xalqaro

1842 Urushdan voz kechish to'g'risidagi Parij pakti, 1-modda

A'zo mamlakatlar xalqaro nizolarni hal etish uchun urushdan foydalanishdan voz kechib, o'zaro munosabatlarda davlatning siyosiy choralari vositasi sifatida urushni taqiqlashni o'z xalqlari nomidan qat'iy ravishda e'lon qiladilar.

shartnoma sifatida 1928-yilgi **Urushdan voz kechish to'g'risidagi Parij pakti** vujudga keldi. Mazkur konvensiya «xalqaro nizolarni hal qilish usuli sifatida»gi urush va «davlat siyosiy choralarining vositasi sifatida»gi urushni taqiqladi (Urush qilmaslik konvensiyasi 1-modda). Bu bilan u urushni umumiy tarzda suratdan taqiqlagan birinchi xalqaro shartnomaga aylandi (13-2). Urush qilmaslik konvensiyasida o'sha davr xalqaro hamjamiyatidagi qudratli davlatlar ham qatnashganligi sababli qamrovi keng shartnoma hisoblangan. Shunday bo'lsa-da, mazkur konvensiya rasmiy hisoblangan urush (urush qilmoqchi bo'lgan davlatlardan biri urush e'lon qilish orqali o'z harakatlarini boshlashi)nigina tartibga solib, amalda davlatlar tomonidan harbiy kuchlardan foydalanilishi masalasini ochiq qoldirib ketgan edi¹.

Ushbu tarixiy xatoni hisobga olib, Ikkinchi jahon urushidan so'ng vujudga kelgan **BMT Nizomi** (1945-yil) xalqaro huquqda o'ziga xos murakkabliklarni keltirib chiqaradigan «urush» degan

¹ Tarjimonlar izohi: Ya'ni urush bilan bog'liq masalalarni to'liq qamrab olmagan edi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

1-moddada ko'rsatilgan maqsadlarga erishish uchun Tashkilot va uning A'zolari quyidagi prinsiplar asosida ish yuritadilar:

(Qisqartirildi)

4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a'zolari o'zlarining xalqaro munosabatlarida har qanday davlatning hududiy daxlsizligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi kuch bilan tahdid qilish yoki uni ishlatishdan, shuningdek, Birlashgan Millatlar Maqsadlariga to'g'ri kelmaydigan boshqa biron-bir tarzda harakatlardan o'zlarini tiyadilar.

iborani ishlatishdan atayin qochib, «kuch ishlatish» va «harbiy kuch bilan qo'rqitish»ni umumiy ravishda qat'iyon taqiqladi (2-modda 4-band) (13-3).

(3) Kuch ishlatishning taqiqlanishi tamoyilining vujudga kelishi

Shunday qilib, urushni va kuch ishlatishning taqiqlanishi kabi insoniyatning azaliy orzusi Millatlar Ligasi Nizomi, Urush qilmaslik konvensiyasi kabilar orqali BMT Nizomida o'zining yakuniy tasdig'ini topdi. BMT Nizomining 2-moddasi 4-bandida belgilab qo'yilgan kuch ishlatishning taqiqlanishi tamoyili bugungi kunda BMT Nizomi doirasidagi **kollektiv xavfsizlik tizimidan** (5-qismga qarang) alohida mustaqil bo'lgan xalqaro odat huquqidagi tamoyil hisoblanadi. Shuningdek, mazkur qoidadan chetga chiqishga aslo yo'l qo'yilmaydi va u xalqaro hamjamiyat tomonidan umumiy tarzda tan olingan **jus cogens** (imperativ norma) (→**Chapter 4(4)**) sifatida baholanadi.

3 Kuch ishlatishning taqiqlanishi tamoyili mazmuni

(1) «Kuch»ning ma'nosi

Taqiqlangan «kuch» (force) deganda faqat «harbiy kuch»ni (armed force) tushunishimiz kerakmi? Yoki bo'lmasam, iqtisodiy yoki siyosiy kuch kabi armiya kuchidan boshqa kuchlar ham uning doirasiga kiradimi? Avvallari ushbu savolga rivojlanayotgan davlatlar hamda sobiq kommunistik mamlakatlar iqtisodiy va siyosiy kuchdan foydalanish ham taqiqlangan kuch doirasiga kiradi deya da'vo qilishgan. Biroq BMT Nizomining tayyorlanish jarayoni hamda undagi asosiy tamoyillarning sharhini qayta aniqlashtirgan 1970-yildagi **Davlatlararo do'stona aloqalar va hamkorlikka oid tamoyillar to'g'risidagi deklaratsiyada** iqtisodiy va siyosiy kuchdan foydalanish kuch ishlatish doirasiga kirmasligi aytib o'tildi. Iqtisodiy va siyosiy kuchdan bosim sifatida foydalanish esa **ichki ishlarga aralashmaslik tamoyili** orqali tartibga solinishi ta'kidlanganligi uchun ham «kuch» iborasini faqat «harbiy kuch» doirasida sharhlash to'g'ri bo'ladi. Qo'shimcha tariqasida, so'nggi yillarda yangi muammo sifatida axborot-telekommunikatsiya texnologiyalarini qo'llab o'zga davlatlarning xuddi shunday tizimlariga kirib borish yoinki ularni ishdan chiqarish kabi **kiber hujumlar** boshqa davlatlarga moddiy zarar yetkazsa, BMT Nizomidagi «kuch» ma'nosiga to'g'ri kelishi mumkinligi haqidagi qarashlar paydo bo'lgan. Hozirgi kunda mazkur qarash yetarlicha o'z tasdig'ini top-

magan bo'lsa-da, kelajakda davlatlarning amaliyotini diqqat bilan kuzatib borish zarurdir.

(2) «Kuch ishlatish»ning ko'ri-nishlari

«Kuch ishlatish» sifatida taqiqlanuvchi harakatlar rasmiy armiya tomonidan boshqa davlatga bostirib kirish, hujum qilish kabi harakatlar bilan chegaralanadimi? Yoki rasmiy bo'lmagan armiya va harbiy guruhlar, harbiy tashkilotlar orqali bilvosita amalga oshirilgan harakatlar (bilvosita agressiya) ham kuch ishlatish harakati sifatida baholanadimi? Do'stona aloqalar deklaratsiyasi keyingi harakatlarni ham kuch ishlatishni taqiqlash tamoyili doirasiga kiritadi. 1974-yildagi Agressiya tushunchasi to'g'risidagi rezolyutsiya ham «o'ta jiddiy va xavfli shaklda bo'lgan va taqiqlangan kuch ishlatish» hisoblangan **agressiya harakatining** bir turi sifatida bilvosita agressiyani ham taqdim etadi. Shuningdek, Xalqaro adolat sudi ham **Nikaragua ishida** (1986-yil) isyonchilarga qurol-aslahalar orqali va boshqa yordamlarni ko'rsatish o'z-o'zini himoya qilishning bir sharti sifatidagi «kuch ishlatish» doirasiga kirmasa-da, «kuch ishlatish yoki kuch bilan tahdid qilish»ga to'g'ri keladi degan fikrni bildirib o'tadi (→ **Keysbuk 57**). Shu sababli bilvosita harakatlarni ham kuch ishlatish doirasiga kiritishimiz mumkin.

(3) «Kuch bilan tahdid qilish»ning mohiyati

«Kuch bilan tahdid qilish»ga to'g'ri keladigan harakatlar sifatida armiya tomonidan o'z harbiy qudratini ko'rsatib qo'yish maqsadida harakatlarni amal-

ga oshirish, chegaraviy nizolar yuz berganda nizo yuzaga kelgan joyda harbiy qo'shinlarni yig'ish, boshqa davlatning dengiz hududi sohillariga harbiy kemalarni yuborish kabilar keltiriladi. Uning «kuch ishlatish» bilan aloqasi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, tahdid qilish uchun foydalanilgan kuch amalda qo'llanilgani taxmin qilinsa va u huquqbuzarlik xatti-harakati deb topilsa, tahdid qilish ham huquqbuzarlik deb topilishi mumkin.

(4) Kuch ishlatishni taqiqlash tamoyilining ichki urushlarga nisbatan tatbiq etilish ehtimoli

BMT Nizomining 2-moddasi 4-bandi xalqaro nizolar vaqtida kuch ishlatishni taqiqlaydi va ushbu qoida bir davlat ichidagi hukumat hamda isyonchilar o'rtasida kelib chiqqan ichki urushlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Lekin ichki urushlarga **uchinchi davlatning aralashuvi** yuz bersa holat o'zgaradi. Isyonchilar tomonidan turib ichki urushlarga aralashgan davlatning harakatlari, odatda, ichki ishlarga aralashish sifatida baholanib, bugungi kunda ham «bilvosita agressiya»ga to'g'ri kelsa xalqaro huquqqa zid deb topiladi. Ammo istisno tariqasida bunga ruxsat beriladigan hollar ham mavjudligini iddao qiluvchilar ham bor (**insoniylik nuqtayi nazaridan aralashish** →**4(4)**). Boshqa tomondan qonuniy hukumat tarafidan qilingan iltimosga asosan hukumat tarafida turib ichki urushlarga aralashish an'anaviy tarzda qonuniy deb baholab kelingan bo'lsa-da, **xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash tamoyiliga** zid kelib qolishi mumkin deb hisoblovchi qa-

rash ham bugungi kunda katta ta'sir kuchiga ega bo'lib turibdi.

4 Kuch ishlatmaslik tamoyili bo'yicha istisnolar

(1) Istisnolar doirasi

BMT Nizomining o'zida aniq belgilab qo'yilganidek, kuch ishlatishni taqiqlash tamoyili bo'yicha istisno holatlar BMT tomonidan amalga oshiriladigan **harbiy chora-tadbirlar** (42-modda), **alohida va kollektiv xavfsizlik** (51-modda) (**13-4**), **sobiq dushman davlatlarga nisbatan choralar** (53-modda 1-band, 107-modda) bilan chegaralansa-da, bundan boshqa istisnoli holatlar borligi ham da'vo qilinadi. Bulardan sobiq dushman davlatlarga qarshi choralar qoidasi barcha sobiq dushman davlatlar BMT a'zosiga aylangani sababli, allaqachon, foydalanilmaydigan o'lik qoida sifatida baholanadi.¹ Shu sababli 5-qismda faqatgina BMT tomonidan qo'llaniladigan harbiy choralar haqida so'z yuritiladi. Quyida esa o'zini o'zi mudofaa qilish va boshqa istisnoli holatlar bilan tanishishingiz mumkin.

(2) O'zini o'zi mudofaa qilish

An'anaviy xalqaro huquqdagi o'zini o'zi mudofaa qilishga davlatning asosiy huquqi hisoblanmish **o'zini asrab qolishning** bir qismi sifatida qaraladi. Qonuniy agressiyadan unchalik ham farqlanmaydigan choralarni o'z ichiga oladigan favqulodda holat bilan deyarli bir xil deb hisoblanib, **zud-**

¹ Tarjimonlar izohi: sobiq dushman davlatlar Ikkinchi jahon urushida Ittifoqchi davlatlarga qarshi urush qilgan Fashist Germaniyasi, Yaponiya va Italiyadir.

Ushbu Nizom Tashkilot A'zosiga qurolli hujum qilingan taqdirda, Xavfsizlik Kengashi xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun zarur choralar ko'rmaguncha, uning alohida yoki birgalikda o'z-o'zini mudofaa qilishdan iborat ajralmas huquqiga also monelik qilmaydi. Tashkilot A'zolarining o'z-o'zini mudofaa qilish huquqini amalga oshirishda ko'rgan choralari Xavfsizlik Kengashiga darhol ma'lum qilinishi va uning mazkur Nizomga muvofiq hamma vaqt xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash yoki tiklash uchun qanday chorani zarur topsa, uni amalga oshirishda Xavfsizlik Kengashiga berilgan vakolatlarga va uning mas'uliyatiga hech bir daxl qilmasligi kerak.

lik bilan chora ko'rish, zaruriyat, muvozanatni saqlash kabi talablar yetarli darajada bajarilgandagina tan olinadi («Karolayn» ishi, 1837-yil) (**13-5**) (→ **Keysbuk 56**).

BMT Nizomining 51-moddasidagi o'zini o'zi mudofaa qilish qoidasi esa boshqa mamlakatlar tomonidan qilinishi mumkin bo'lgan «qurolli hujum»larga qarshi chora sifatida o'rnatilgan bo'lib, favqulodda holatlar bilan farqlanadi va unga qo'yilgan talablar ham anchagina qattiq. Ammo aynan bir xil modda ichida davlatlarning **o'zini o'zi mudofaa qilishga oid alohida huquqi** borligi ham belgilanganligi uchun, an'anaviy o'zini o'zi mudofaa qilish huquqi hali ham shu holicha mavjud ekanini ta'kidlaydigan fikrlar hozirda ham kuchlidir. Masalan, hali harbiy hujum uyushtirilmasdan avvalgi bosqichda **oldindan o'zini o'zi mudo-**



AQSh hukumati tomonidan siquvga olinishiga qaramay, Angliyadan mustaqil bo'lishni xohlagan Kanada isyonchilarining qo'llab-quvvatlovi ostida bo'lgan AQShning «Karolayn» kemasi Angliya floti tomonidan AQSh hududida uyushtirilgan kuchli hujum oqibatida Niagara sharsharasida cho'kib ketadi. Ushbu holat o'zini o'zi mudofaa qilish huquqining klassik misoli sifatida e'tirof etiladi.

AQSh va Angliya o'rtasidagi muzokarlarda AQSh davlat kotibi Vebster Angliya elchisi Foksga yozgan xatida (Vebster maktubi 1841-yil 24-aprel) Angliya tomonining xatti-harakatini oqlash shartlari sifatida quyidagilarni keltiradi: «zudlik bilan o'zini o'zi mudofaa qilishning o'ta kuchli zaruriyati yuzaga kelgani, tanlash imkonining mavjud bo'lmagani va buning uchun yetarli vaqt ham bo'lmagani», «noratsional va haddan oshish alomatlari mavjud bo'lmagani». Natijada bu qoidalar an'anaviy o'zini o'zi mudofaa qilish shartlariga aylanadi.

(Manba: Alamy/PPS xabarlari)

faa qilish tan olinadimi degan muammo bor. So'nggi yillarda terrorchilar tomonidan uyushtirilishi mumkin bo'lgan hujumlarning oldini olish maqsadida AQSh tomonidan ushbu qarashga asoslanilmoqda. Xususan, 1988-yil Afg'oniston va Sudanga uchirilgan harbiy raketalar ham aynan mana shu nazariyaga asoslangan holda uchirilganini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Aytish joizki, mazkur nazariya bo'yicha aniq shartlar belgilab qo'yilmasa, uning suiiste'mol qilinishi ehtimoli juda katta. Shu sababli

boshqa davlat tomonidan harbiy hujum «uyushtirilguncha» kutilmasa-da, hech bo'lmaganda mana shunday hujumni amalga oshirishga «qo'l urilgani» aniq bo'lishi lozim degan qarash ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Yana bir muammo sifatida quyidagi masalani keltirish mumkin: terrorizm bilan bog'liq masalalarda **qurolli hujumning subyekti** tushunchasi faqatgina davlat bilan chegaralanadimi yoki xalqaro terroristik tashkilot Al-Qoida va davlat ekanini da'vo qilayotganiga qaramay hech bir davlat tomonidan tan olinmayotgan Islom davlati kabi nodavlat tuzilmalarni ham o'z ichiga oladimi? 11-sentabr voqealaridan keyin, AQSh va Buyuk Britaniya 2001-yil oktabr oyida Al-Qoidani yashirib o'tirgan Afg'onistonga nisbatan harbiy harakatlarni boshladilar. Bunda hujumning asosi sifatida o'zini o'zi himoya qilish keltirilgan bo'lsa-da, o'zini o'zi himoya qilishni amalga oshirishning asosiy sharti bo'lgan qurolli hujumni uyushtiruvchi subyekt yetarli darajada ko'rsatib berilmadi. Boshqa tomondan, Xalqaro adolat sudi 2004-yildagi **Falastin devori ishi bo'yicha** bildirgan tavsiyaviy xulosasida BMT Nizomining 51-moddasi belgilaydigan o'zini o'zi mudofaa qilish «bir davlat tomonidan boshqa bir davlatga qurolli hujum»ni asos qilib oladi deya sharh qilgan (→ **Keysbuk 40**).

(3) Kollektiv o'zini o'zi mudofaa qilish

BMT Nizomining 51-moddasi harbiy hujumdan bevosita zarar ko'rgan davlat tomonidan amalga oshiriladi-


gan alohida o'zini o'zi mudofaa qilishga qo'shimcha tarzda kollektiv o'zini o'zi mudofaa qilishni ham tan oladi. Bu tushuncha an'anaviy xalqaro huquqda mavjud bo'lmagan. U dastavval BMT Nizomi ishlab chiqilgan San-Fransisko konferensiyasida qabul qilingan. Kollektiv o'zini o'zi mudofaa qilish huquqining tabiati haqida o'zini o'zi mudofaa qilish huquqining birgalikda amalga oshirilishi (A nazariya), boshqa davlatlarga ham aloqador bo'lgan ushbu davlatning hayot-mamot masalasi bilan bog'liq manfaatlarini himoya qi-

lish huquqi (B nazariya), boshqa davlatning huquqlarini himoya qilish (C nazariya) kabi uchta nazariya mavjud (13-6).

Bularning ichida B nazariya davlatlarning amaliyotiga yaqin bo'lsa-da, Xalqaro adolat sudi Nikaragua ishida **xalqaro hamjamiyatning umumiy manfaatlarini himoya qilish** nuqtayi nazaridan kelib chiqib, C nazariyani qabul qilgan. Ammo ushbu nazariyaning amaliyotda suiiste'mol qilinmasligi uchun ba'zi talablarni ham keltirib o'tgan. 2015-yilning sentabr oyida


13-6

Kollektiv o'zini o'zi mudofaa qilish huquqining tabiati haqidagi 3 ta nazariya




A nazariya

O'zini o'zi mudofaa qilish huquqidan foydalanayotgan har bir davlat qurolli hujum uchraganini shart qilib qo'yuvchi nazariya. Kollektiv o'zini o'zi mudofaa qilish huquqi individual o'zini o'zi mudofaa qilish huquqi bilan birgalikda amalga oshiriladi deb hisoblanadi.



B nazariya

O'zi qurolli hujumga uchramagan davlat, qurolli hujumga uchragan davlat bilan uzviy aloqadorlikda bo'ladi. Qurolli hujum natijasida ushbu davlatning ham manfaatlariga putur yetkazilishini shart qilib qo'yuvchi nazariya.



C nazariya

ICJ tomonidan Nikaragua ishi bo'yicha chiqarilgan qarorda asoslanilgan nazariya. Unga ko'ra qurolli hujum uyushtirilgan mamlakat tomonidan qurolli hujumdan zarar ko'rganlik haqida bayonot berilishi hamda o'zini o'zi mudofaa qilish huquqidan foydalanish talabi ilgari surilishi shart qilib qo'yiladi. Mana shunday holatda xalqaro hamjamiyatdagi har qanday davlat kollektiv o'zini o'zi mudofaa qilish huquqidan foydalanishi mumkinligi tan olinadi.

qabul qilingan Yaponiyaning xavfsizlikni ta'minlash to'g'risidagi qonunida keltirilgan kollektiv o'zini o'zi mudofaa qilish huquqi B nazariyaga yaqinroq.

(4) Boshqa istisno holatlarning da'vo qilinishi

Kuch ishlatishning taqiqlanishi tamoyiliga istisno tariqasida **xorijdagi o'z fuqarolarini himoya qilish** va **insoniylik yuzasidan aralashuv** kabilar mavjud. Xorijdagi o'z fuqarolarini himoya qilish davlat tomonidan xorijdagi fuqarolarining hayoti va ularning mulklariga nisbatan tahdidlarning oldini olish maqsadida kuch ishlatishga ruxsat beriladi. Falastin ozodlik fronti tomonidan o'g'irlangan fuqarolik aviatsiyasi ichida o'z fuqarolari bo'lgan Isroil hukumati ularni qutqarish uchun o'z armiyasining maxsus bo'linmalarini Ugandaning Entebbe aeroportiga zudlik bilan yuboradi (Entebbe aeroporti ishi, 1976-yil) (→ **Keysbuk 41**). Insoniylik yuzasidan aralashish uchun esa inson huquqlari keskin darajada buzilayotganligi asos qilib olinadi. Masalan, Serbiyadagi alban aholini himoya qilish uchun NATO tomonidan 1999-yildagi Yugoslaviyaga qarshi havo hujumlari bunga misol bo'ladi. Ushbu ikki istisnoli holatlar ma'lum bir darajada to'g'ri harakatlar hisoblansa-da, hali xalqaro huquqda o'z tasdig'ini topgan emas.

§ Kollektiv xavfsizlik

(1) Kuchlar muvozanati va kollektiv xavfsizlik

«Urush qilish erkinligi» keng miqyosda tan olingan XIX–XX asr boshlarida harbiy ittifoqlar o'rtasidagi «kuchlar» muvozanatini saqlab turish xalqaro

tinchlik uchun juda ham muhim deb hisoblangan. Lekin bu yerda «kuchlar» degan so'zga nisbatan obyektiv baho berish juda ham murakkab bo'lganligi sababli, har bir harbiy ittifoq o'ziga foydali bo'lgan muvozanatni ta'minlashga uringan. Buning natijasida harbiy muvobaqa avj olib, ittifoqdosh mamlakatlarda o'rtasidagi aloqalar yomonlashib, dushmanona kayfiyat paydo bo'lishiga olib kelgan. Kuchlarni muvozanatda saqlash tizimining inqirozga yuz tutishi natijasida kelib chiqqan Birinchi jahon urushi oqibatida chiqarilgan achchiq tajribadan so'ng bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan davlatlarni ham o'z ichiga olgan jamoa bo'lishi lozimligi oydinlashdi. Natijada, mazkur jamoadagi davlatlar o'zaro kuch ishlatmaslikka va'dalashib oldilar. Barcha davlatlar o'z kuchlarini birlashtirib agressiyani bartaraf qilishga va zarar ko'rgan davlatning xavfsizligini ta'minlash maqsadida **kollektiv xavfsizlik** g'oyasini qabul qildilar (13-7).


(2) Millatlar Ligasi hamda BMTda kollektiv xavfsizlik

kollektiv xavfsizlikni dastlab tizimlashtirgan tashkilot Millatlar Ligasi bo'lib, unga ko'ra:

1) **urushni taqiqlash** qisman bo'lgan;

2) Millatlar Ligasi Nizomiga zid ravishda urush e'lon qilgan davlatning harakatlarini tan olish, sanksiyalar qo'llashga rozi bo'lish yoki unga qarshi chiqish bo'yicha har bir davlat o'z bahosini berishi mumkin bo'lgan **vakolatlarning bo'linish tizimiga** asoslangan;

Kuchlar muvozanatini saqlash (balance of power)




Kuchlar muvozanatini saqlash deganda «Urush qilish erkinligi, «Ittifoqlar tuzish erkinligi» «Harbiy tayyorganlik erkinligi» deb ataladigan uchta erkinlikka asoslanib harbiy ittifoqdoshlar o'rtasidagi kuchlar muvozanatini saqlab turishga erishish va natijada o'z davlatining xavfsizligini ta'minlash tushuniladi. Davlatning xavfsizligini buzishi mumkin bo'lgan dushmanlik kayfiyatidagi davlatni ittifoqdan tashqarida deb faraz qilishi o'ziga xosdir.

3) sanksiya sifatida **iqtisodiy sanksiyalar** asosiy vosita hisoblanib, **harbiy sanksiyalar** qo'shimcha vositalar sifatida ko'rilgan, xolos.

Shuning uchun, 1935-yilda Italiya tomonidan Efiopiyaning bosib olinishiga nisbatan Millatlar Ligasi samarali iqtisodiy sanksiyalarni qo'llay olmay, Italiya tomonidan amalga oshirilgan agressiya to'xtatilmay qoldi.

Bunga qarma-qarshi tarzda BMTning kollektiv xavfsizlik tizimi Millatlar Ligasi tomonidan yo'lga qo'yilgan xatolardan xulosa chiqarib, 1) faqatgina urushni emas, balki kuch ishlatish va kuch bilan tahdid qilishni ham taqiqladi; 2) «agressiya» kabilarni tan olish yoki unga nisbatan kollektiv xavfsizlik choralarini belgilashni BMTning

Kollektiv xavfsizlik (collective security)



Ziddiyatli munosabatda bo'lib turgan davlatlarni o'z ichiga oluvchi yagona kollektiv va ushbu kollektiv doirasida kuch ishlatmaslikka kelishiladi. Kelishuvni buzib boshqa davlatga qurolli hujum uyushtirgan davlat (X) ga nisbatan faqatgina bevosita jabr ko'rgan davlat (Y) emas, balki kollektivning a'zosi bo'lgan barcha mamlakatlar birlashib, undan bo'ladigan xavfni bartaraf etishi va jabr ko'rgan davlatning xavfsizligini ta'minlashi.

doimiy organi bo'lgan Xavfsizlik Kengashi amalga oshiradigan **markazlashtirilgan tizimni** qabul qildi; 3) sanksiya masalasida iqtisodiy, ya'ni noharbiy vositalar bilan birgalikda harbiy sanksiyalarni ham asosiy vosita sifatida belgiladi; 4) BMT tomonidan universal kollektiv xavfsizlikka qo'shimcha tarzda mintaqaviy kollektiv xavfsizlik ham tan olindi. Bular BMTdagi kollektiv xavfsizlikning o'ziga xos jihatlari bo'lib, Millatlar Ligasi bilan solishtirganda yanada markazlashgan, kuchli tizim yuzaga keldi.

BMTning kollektiv xavfsizlik tizimi quyidagicha (13-9). Tinchlikka nisbatan tahdid; tinchlikka xavf solish va agressiya harakatlari yuz bersa, avvalo, Xavfsizlik Kengashi agressiya kabi

18:8

BMT Xavfsizlik kengashidagi majlisdan lavha



(Manba: UN Photo/Amanda Voisard)

harakatlar haqiqatda mavjud ekani borasida tekshiruvni amalga oshiradi (BMT Nizomi 39-modda). Shundan so'ng, nizolashayotgan tarafdardan armiyalarini quolsizlantirish va urushni to'xtatish haqidagi **vaqtinchalik choralarni** bajarishni talab etadi (40-modda). Agarda ushbu talablar nizolashayotgan davlatlar tomonidan qabul qilinmasa, Xavfsizlik Kengashi iqtisodiy sanksiyalar yoki diplomatik

18:9

BMTdagi kollektiv xavfsizlikni ta'minlash tizimi



sanksiyalar, ya'ni **harbiy bo'lmagan choralarni** qo'llashni a'zo davlatlardan talab qiladi (41-modda). A'zo mamlakatlar BMT Nizomidagi qoida sifatida Xavfsizlik Kengashining ushbu talabini bajarishlari lozim. Agarda Xavfsizlik Kengashi harbiy bo'lmagan choralarni yetarli emas deb hisoblab, **harbiy choralalar** qo'llash zarur deb hisoblasa buni ham a'zo davlatlardan talab qila oladi (42-modda). Ammo harbiy choralarni qo'llashni talab etish uchun a'zo davlat va Xavfsizlik Kengashi o'rtasida **maxsus kelishuv** tuzilgan bo'lishi lozim (43-modda). Lekin amaliyotda shu kungacha bu turdagi maxsus kelishuv tuzilmagani sababli, BMT Nizomida avval boshidan reja qilingan va maxsus kelishuvga asosan tuziladigan **BMT qo'shinlari** tomonidan harbiy choralar amalga oshirilgan holat mavjud emas. («**Koreya BMT qo'shinlari**» Xavfsizlik Kengashining tavsiyasiga asosan g'arb davlatlari tomonidan tuzilgan qo'shin bo'lib, maxsus kelishuvga asosan tuzilgan emas).

Shu kabi Xavfsizlik Kengashi tomonidan ko'riladigan choralarga qo'shimcha tarzda, ma'lum bir cheklovchi holatlarda Bosh Assambleya ham o'zining maslahat va kolatidan foydalanib (BMT Nizomi 10-11-moddalar), a'zo mamlakatlardan harbiy bo'lmagan choralarni ko'rishni so'rashi mumkin. Shuningdek, mintaqaviy kelishuvlar va tashkilotlar ham mintaqadagi kollektiv xavfsizlikni ta'minlash maqsadida (52-modda), Xavfsizlik Kengashining ruxsati bilan mintaqaviy tashkilotlar si-

fatida majburlovchi harakatlarni amalga oshirishi mumkin (53-modda).


(3) «Sovuq urush» davridagi o'zgarishlar

Sovuq urush davrida Xavfsizlik Kengashining ovoz berish taomiliga asoslangan **veto huquqi** (BMT Nizomi 27-modda 3-band) sababli, BMTning kollektiv xavfsizlik tizimi o'z funksiyalarini bajara olmaydigan holatga kelib qoldi. BMT Nizomining 51-moddasidagi alohida va kollektiv o'zini o'zi mudofaa qilish huquqiga asoslangan g'arb tomon harbiy blogi sifatida NATO va sharq tomon blogi sifatida Varshava pakti tashkiloti (Warsaw Pact Organization: WPO) tuzildi. Ushbu tashkilotlar orasidagi kuchlar muvozanati bu davrda dunyo xavfsizligini nazorat qilib turdilar.

Aytish joizki, Yaponiya NATOga a'zo bo'lmagan bo'lsa-da, AQSh bilan ikki tomonlama xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha kelishuv, ya'ni **Yaponiya-AQSh xavfsizlikni ta'minlash to'g'risidagi bitimi** orqali amaliy jihatdan sharqiy tomonga qarshi turuvchi g'arb tomonining vakili sifatida qatnashib kelgan (13-10).

(4) «Sovuq urush»dan keyingi kollektiv xavfsizlik masalalari

«Sovuq urush» o'z nihoyasiga yetgan 1990-yillarga kelib, Xavfsizlik Kengashi ichida ma'lum masalalar bo'yicha umumiy rozilikka erishish nisbatan yengil kechdi va veto huquqidan foydalanish soni keskin darajada tushib ketdi (13-11). Natijada, BMT Nizomida ko'zda tutilgan **kollektiv choralalar** (vaqtinchalik choralalar, noharbiy




choralar, harbiy choralar)ni amalda qo'llash imkoniyati paydo bo'ldi. Bu orqali amaldagi xalqaro munosabatlarga mos ravishda yuqoridagi choralar mazmunini o'zgartirish va rivojlantirish an'anasi vujudga keltirildi.

1990-yil avgust oyida Iroq tomonidan qo'shni Quvayt davlatiga qilingan hujumdan so'ng, Xavfsizlik Kengashi BMT Nizomining 39-40-moddalariga asoslanib, Iroqning Quvaytga hujum qilishi «**xalqaro tinchlik va xavfsizlikni barbod qilish**» deb hisoblab, Iroq qo'shinlari Quvayt hududidan zudlik bilan, hech qanday shartlarsiz olib chiqib ketilishini nazarda tutuvchi vaqtinchalik choralarni amalga oshirishni talab etdi (Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyasi, 660-son). Shuningdek, BMT Nizomining VII bo'limiga asosan 41-moddada ko'rsatilgan choralarga mos keluvchi iqtisodiy sanksiyalarni ham o'z ichiga olgan harbiy bo'lmagan

choralar ham qo'llandi (Xavfsizlik kengashi rezolyutsiyasi 661-son). Mazkur choralar BMT Nizomi tuzilayotgan paytda nazarda tutilgan kollektiv xavfsizlikning odatiy ko'rinishdagi funksiyalarini bajargan deb ayta olamiz.

Ushbu ogohlantirishlar va choralarga qaramay, Iroq qo'shinlari Quvaytni tark etmagach, Xavfsizlik Kengashi o'zining **678-son rezolyutsiyasini** qabul qilib, BMT Nizomining VII bo'limiga asosan, Quvaytga yordam bermoqchi bo'lgan davlatlarga «barcha zaruriy choralar (all necessary measures)»ni qo'llashiga «ruxsat (authorize)» berdi. Ushbu rezolyutsiyaga asoslangan AQSh boshliq baynalmilal qo'shinlar 1991-yilning yanvar oyida Quvaytdan Iroq qo'shinlarini chiqarib tashlashga erishdilar. Ushbu davlatlar qo'shinlari tomonidan qo'llanilgan harbiy harakatlar va kuch ishlatish BMT Nizomida nazarda tutilgan (43-modda) BMT



qo'shinlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar bo'lmasa-da, ushbu harakatlar Xavfsizlik Kengashining 9 ta doimiy a'zolarini ham o'z ichiga olgan ko'pchilik roziligi bilan amalga oshirildi. Bu alohida bir davlatning xulosasiga asoslanib o'zini o'zi mudofaa qilish bilan solishtirganda, xalqaro hamjamiyatning obyektiv xulosasi aks etgan o'zini o'zi mudofaa qilish chorasi edi deb ayta olamiz.

Bu kabi Xavfsizlik Kengashi tomonidan kuch ishlatishga ruxsat berish shakli bundan keyin ham tez-tez qo'llaniladigan bo'ldi. Uni qo'llash jarayonida choralarni amalga oshirish maqsadi va muddati cheklanib, Xavfsizlik Kengashiga hisobot berib turish majburiyatiga alohida urg'u berildi. Aytish mumkinki, bugungi kunda Xavfsizlik Kengashi tomonidan kuch ishlatishga ruxsat berish BMTning odatiga aylanib bormoqda.

Iroqning Saddam Husain hukumati tomonidan **ommaviy qirg'in qurollari** saqlanishi taxmin qilinib, 2003-yilning mart oyida AQSh qo'shinlari tomonidan **Iroq urushi** boshlandi. Mazkur urush harakatlari yuqoridagi 678-son rezolyutsiya, Fors ko'rfazi urushining yakunida Iroqqa nisbatan ommaviy qirg'in qurollarini saqlamaslik bo'yicha chiqarilgan Xavfsizlik Kengashining 687-son rezolyutsiyasi va Iroq tomonidan majburiyatlar buzilganini ta'kidlovchi Xavfsizlik Kengashining **1441-son rezolyutsiyasiga** asoslanib amalga oshirildi. Lekin bu ayblovni isbotlovchi faktlarning amalda topilmagani va yangi harakatlar 678-son Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyasiga asoslangani, aslida, kuch ishlatish Xavfsizlik kengashi rezolyutsiyasi doirasidan chetga chiqib amalga oshirilganini tanqid qiluvchilar ham kam emas (13-12).

13-12 Iroq urushining huquqiy asoslari bo'yicha AQShning tushuntirishlari

Xavfsizlik Kengashining 678-son rezolyutsiyasi bilan Iroqqa nisbatan kuch ishlatishga ruxsat berilishi

Xavfsizlik Kengashining 687-son rezolyutsiyasi (1991-yil 3-aprel) bilan Iroqda urushni to'xtatish. Urushni to'xtatish shartlari
– ommaviy qirg'in qurollarning yo'q qilinganligini tekshirishni shartlarsiz qabul qilish
– iqtisodiy sanksiyalarning davom ettirilishi

1991-yil 6-aprelda Iroq tomonidan rezolyutsiyaning tan olinishi va urushning to'xtatilishi

Xavfsizlik Kengashining 1441-son rezolyutsiyasi (2002-yil 8-noyabr)
– Iroq tomonidan 687-son rezolyutsiya bilan aloqador qoidalarning qo'pol ravishda buzilayotgani
– Iroqning quralsizlanishi uchun so'nggi imkoniyatning taqdim etilishi
– Yanada qo'pol buzilishlar yuz bersa Xavfsizlik Kengashi yig'ilishini chaqirish
– Majburiyatlarning bajarilmasligi Iroqni "jiddiy oqibatlar"ga olib kelishi mumkinligi bilan ogohlantirish

2003-yil 20-martda AQSH va boshqa davlatlar qo'shinlari tomonidan Iroqqa nisbatan urushning boshlanishi sabablari
– Iroqqa ommaviy qirg'in qurollarni saqlashni taqiqlagan 687-son rezolyutsiya bo'yicha majburiyatlar bajarilmay qo'pol ravishda buzilgani keyinchalik 1441-son rezolyutsiyada tan olingani
– Urushni to'xtatish bo'yicha 687-son rezolyutsiyada belgilangan urushni to'xtatish asosi buzilganligi sababli, boshqa davlatlarning armiyalar tomonidan ham kuch ishlatish mumkinligini ta'kidlovchi 678-son rezolyutsiya qayta kuchga kirishi

6 BMTning tinchlikni saqlash faoliyati

(1) PKOning vujudga kelishi va tasdiqlanishi

Xalqaro miqyosda xavfsizlikni ta'minlash uchun asosiy tizim sifatida e'tirof etilgan BMT Nizomidagi kollektiv xavfsizlik tizimi Ikkinchi jahon urushidan keyinq Sovuq urushning boshlanishi natijasida o'z funksiyala-

rini rejadagidek bajara olmadi. Urush davrida buyuk davlatlar o'rtasida qurolli to'qnashuvlar yuzaga kelmagan bo'lsa-da, dunyoning turli mintaqalarida ko'plab kichik harbiy mojarolar yuz berdi. Mana shunday hodisalarga e'tibor qaratgan BMT xalqaro xavfsizlikni saqlab turish maqsadida eng oz miqdordagi funksiyalarni bajaradigan **BMT tinchlikni saqlash faoliyati** (Peacekeeping Operations: PKO) ni yo'lga qo'ydi. 1956-yilda Suvaysh kanali bilan bog'liq mojarolar yuzaga kelganda BMTning favqulodda va maxsus Bosh Assambleya qaroriga asosan, 1-BMT favqulodda qo'shinlari (UNEF I) Misrga yuborildi (13-13). Misrdagi UNEF I-ning muvaffaqiyatidan keyin Xavfsizlik Kengashi qarorlari asosida mana shu kabi harakatlar 1960-yildan boshlab «tinchlikni saqlash faoliyati» nomi ostida amalga oshirila boshlandi. 1948-yildan buyon BMTning Falastindagi **To'xtagan urushni nazorat qilish tashkiloti** (UNTSO) tomonidan amalga oshirilgan harakatlar ham PKO doirasida deb hisoblana boshlandi. 2014-yilning oktabr oyigacha 69 ta tinchlikni saqlash faoliyati amalga oshirilgan bo'lib, shulardan 16 tasi hozirgi kungacha (2016-yilning avgust oyi) davom ettirilmogda (13-14).

PKO kollektiv xavfsizlik uchun majburiy qo'llaniladigan choralar (kollektiv choralar)dan farq qilib, nizolashayotgan taraflar hamda qabul qiluvchi mamlakatning roziligi bilan xolis tarzda nizoga aralashadi. U asosan harbiy kuchlarni bir-biridan uzoqlashtirish, to'xtagan urush holatini va saylov-

18-13 UNEF I ning Yugoslaviya qo'shinlari



(Manba: UN Photo/JG)


larni kuzatib turish kabi faoliyatlarni amalga oshiradi. Xavfsizlik Kengashidagi buyuk davlatlar o'rtasidagi fikrlar xilma-xilligi BMTning asl funksiyalarini amalga oshirishga to'sqinlik qilib turgan bir paytda PKO nizolarning yanada jiddiylashib ketishining oldini olish, va

ularni hal etish vositalarini hozirlash orqali tinchlikni saqlab turishda o'ziga xos funksiyani bajardi.

PKO kollektiv xavfsizlikni ta'minlash hamda kollektiv o'zini o'zi mudofaa qilishdan farq qiladi. BMT tuzilgan paytda bunday faoliyatning yo'lga qo'yilishi rejalashtirilmagani sababli, BMT Nizomida u haqda aniq bir modda mavjud emas. U xalqaro munosabatlarda amaliy jihatdan BMTning odatlariga rioya etib rivojlanib kelgan faoliyatdir. Shuning uchun ushbu tushuncha o'zgarmas xarakterga ega emas. U xalqaro munosabatlarda yuz berayotgan voqeliklardan kelib chiqib o'zgaradigan moslashuvchan xarakterni o'zida mujassam etadi.

Sovuq urush davridagi vaziyatdan kelib chiqib yo'lga qo'yilgan PKO faoli-

18-14 PKOning rivojlanish holati



(Manba: Tashqi ishlar vazirligi veb-sayti)

yati 1) nizolashayotgan davlatlar yoki qabul qiluvchi davlatlarning **roziliklari va hamkorliklari**, 2) zaruriy xodimlar taqdim etilishining **ixtiyoriyligi**, 3) nizolarga nisbatan **xolis munosabatda bo'lish** (alohida munosabatlarga ega bo'lgan davlatlarning aralashtirilmasligi), 4) BMT Bosh kotibi tomonidan boshqarilishi, 5) **o'zini o'zi mudofaa qilishdan boshqa vaziyatlarda kuch ishlatishning taqiqlanishi** kabi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

(2) «Sovuq urush»dan so'ng funksiyalardagi o'zgarishlar

Urush tugashi natijasida sharq va g'arb lagerlari o'rtasidagi katta ko'lamdagi harbiy mojarolar xavfi kamaysa-da, mintaqaviy nizolar va ichki urushlar avj olib, BMTning tinchlikni saqlash yo'lidagi harakatlariga bo'lgan talab yanada oshdi. Boshqa tomondan, BMT Xavfsizlik Kengashida avvalgidek veto qo'yish bilan bog'liq muammolar ham kamayganiga qaramay, davlatlar o'z qo'shinlarini BMT ixtiyoriga topshirish borasida passiv ekanliklari tufayli BMT Nizomining 43-moddasida nazarda tutilgan asl BMT qo'shinlari tuzilishiga erishishning imkoni bugungi kunda ham mavjud emas. Shu sababli avvalgi PKO va asl BMT qo'shinlari o'rtasidagi xususiyatga ega bo'lgan, rozilik tamoyili va tenglik tamoyili kabi asosiy qoidalarini saqlab qolgan, majburiy choralarni ham amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan yangi ko'rinishdagi PKO vujudga keldi.

1992-yil iyun oyida BMT Bosh kotibi Butros G'oliy BMTning tinchlikni saqlash funksiyalarini kuchay-

tirishni ko'zda tutuvchi keng qamrovli «**Tinchlik uchun agenda** (Agenda for Peace)»ni taqdim etdi. Unga ko'ra, BMTning tinchlikni amalda qaror toptirish funksiyalari **oldini oluvchi diplomatiya** (preventive diplomacy), **tinchlikni hosil qilish** (peace making), **tinchlikni saqlash** (peace-keeping), **tinchlik qaror toptirish** (peace-building) deb ataladigan to'rtta turga ajratildi. Bulardan oldini oluvchi diplomatiya sifatida BMTning kerakli xodimlarining **muhofaza uchun joylashtirish** (preventive deployment) taklifi 1992-yil dekabrda **BMT himoya qo'shinlari** (UNPROFOR)ning Makedoniyaga yuborilishida namoyon bo'ldi. Shuningdek, UNEF Ining bir qismi sifatida shakllantirilgan «**Tinchlikni amalga oshirish bo'linmasi** (peace-enforcement units)» taklifi 1993-yil iyun oyida BMT Nizomining VII bo'limidagi kuch ishlatishni o'z ichiga oluvchi zaruriy choralarni qo'llash vakolatini UNPROFORga taqdim etdi. Shu yilning mart oyida BMTning **Somali bo'yicha ikkinchi harakatlarida** (UNSOM II) ham ushbu taklif inobatga olinib, amalga oshirilgandi.

Shunday qilib urushdan keyingi PKOning o'zgarishi natijasida majburlovchi xarakterga ega bo'lgan PKO harakatlari Somalidagi qurolli guruhlar bilan bo'lgan to'qnashuvlarda juda ko'p qurbonlar berganligi uchun ham uni muvaffaqiyatga erishdi deyish qiyin. Shu sababli 1995-yil yanvar oyida xuddi o'sha Bosh kotib G'oliy tomonidan ishlab chiqilgan «**Tinchlik**

uchun agenda: qo'shimchalar» loyihasida Somali va Yugoslaviyadagi achchiq tajribadan kelib chiqib, PKOning rozilik tamoyili, tenglik tamoyilidan uzoqlashib, majburiy choralar qo'llash vakolatiga ega bo'lishi salbiy ta'sir ko'rsatgani ta'kidlandi. Shuningdek, bu o'zgarishlar xodimlar hayotini xavf-xatarga qo'ygani aytilib, PKO o'zining avvalgi shakliga qaytishi kerakligi ilgari surildi.

Shundan keyin 2000-yil avgust oyida BMT tinchlik faoliyatini tadqiq qilish komissiyasi BMTning (o'sha paytdagi) Bosh Kotibi Kofe Ananga «Brahim hisoboti»ni taqdim etdi. Unga ko'ra, PKOning avvalgi rozilik tamoyili, tenglik tamoyili hamda o'zini himoya qilishdan tashqari barcha holatlarda kuch ishlatishni taqiqlash tamoyiliga amal qilishini qo'llab-quvvatlash bilan birgalikda, PKO o'zini himoya qilish uchun yetarli kuchga ega bo'lishi lozimligi hamda majburiyatlarini yetarli darajada bajara olishi uchun zarur texnika bilan ta'minlanishi kerakligi tan olindi. Shuningdek, yetarlicha **kuchli** (robust) **urushish qoidalari** (ROE)ni qabul qilish lozimligi ham yuqoridagi hisobotda aytib o'tilgan. Qo'shimcha tarzda, BMT Bosh Kotibiyatidagi PKO bo'limi 2008-yil yanvar oyida «**BMT tinchlikni saqlash faoliyati: qoidalar va yo'riqnomalar»** (Kapston Doctrinasi) ishlab chiqilgandan keyin so'nggi 60 yil davomida yig'ilgan PKOning tajribalari va hozirgi kundagi uning xususiyati va vazifalarini o'zida jamladi. Unga ko'ra, rozilik tamoyili, xolislik tamoyili, o'zini himoyalashdan

boshqa paytlarda kuch ishlatishning taqiqlanishi bugungi kunda ham PKO uchun tatbiq etilishi ko'rsatilgan. Shu bilan birga, PKOning BMT Nizomi VII bo'limi asosida olib borayotgan faoliyatlariga ham ijobiy baho berilgan. Avvalgi PKOning amaliyotidan kelib chiqib shakllantirilgan tamoyillar va BMTning VII bo'limida belgilangan majburiy choralar bilan bog'liq holatlar o'rtasida muvozanatni saqlay olish bugungi PKO oldida turgan eng katta masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kozai Shigeru, «BMTning tinchlikni saqlash faoliyatlari». – Yuhikaku nashriyoti, 1991-yil.

2. Shigejiro Tabata, «Xalqaro huquq», 2-nashr. – Iwanami shoten nashriyoti, 1966-yil.

3. Ryoichi Taoka, «Xalqaro huquqdagi o'zini o'zi himoya qilish», to'ldirilgan nashr. – Keiso Shobo nashriyoti, 1981-yil.

4. Yoshiro Matsui, «Fors ko'rfazi urushi va BMT». – Nihon Hyoronsha nashriyoti, 1993-yil.

5. Shinya Murase tahriri, «BMT Xavfsizlik Kengashi funksiyasining o'zgarishi». – Toshindo nashriyoti, 2009-yil.

6. Tadashi Mori, «O'zini o'zi mudofaa qilishning asosi». – Tokio universiteti nashriyoti, 2009-yil.

Chapter 14

Urush va qurolli mojarolar. qoidasi – dushmanga qarshi harakatlarni chegaralash va urush jabrdiydalarining himoyasi

1 Qurolli mojarolar huquqining asosiy qarashlari va tuzilishi

(1) Asosiy qarashlari

Xalqaro huquq davlatlar o'rtasida ziddiyatlar va nizolar yuzaga kelganda, avvalo, muzokaralardan boshlab sudgacha bo'lgan turli tinch yo'llar bilan hal etish usullarini ko'zlaydi. O'zini himoya qilish huquqidan foydalanish va BMT tomonidan majburlovchi xarakterdagi harbiy choralar qo'llash bilan bog'liq hollardan tashqari barcha vaziyatlarda kuch ishlatish taqiqlanadi. Lekin yana shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, bir tarafdin tomonlar o'rtasida muzokaralarning muvaffaqiyatli o'tkazilishi kafolatlanmagan bo'lsa, boshqa tomondan esa xalqaro sudlarga murojaat etish uchun ikki tarafning ham roziligi talab etiladi. Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish vositalari orqali natijaga erishilmasa, **kuch ishlatish taqiqlanganiga** qaramay **urush** boshlab yuboradigan yoki **qurolli mojaro qo'zg'aydigan** davlatlar ham chiqib qoladi. Shuningdek, ba'zida bir davlatning ichida fuqarolarning o'zaro ziddiyatlari va hokimiyat uchun kurash natijasida qurolli to'qnashuvlar yuzaga kelishi mumkin. Davlat ichida qo'zg'olon ko'tarilishi xalqaro huquqdagi kuch ishlatishni taqiqlash tamoyiliga zid emas. Ammo hukumat va qo'zg'olonchilar

o'rtasidagi ziddiyatning kuchayib ketishi davlatlar o'rtasida yuz beradigan harbiy to'qnashuvlar darajasidagi shiddatli urushga aylanib ketishi ham tez-tez uchrab turadi.

Xalqaro huquq shu kabi sabablarga ko'ra yuzaga keladigan harbiy nizolardan kelib chiqadigan **qurolli mojarolar** va **dushmanga qarshi qaratilgan harakatlarni** cheklab, **urush jabrdiydalarini** himoya qiluvchi aniq qoidalarni belgilab beradi. Bu kabi qoidalarning ortida kuch ishlatishning xalqaro huquq mezonlariga zid kelish yoki kelmaslik masalasidan ham ko'ra, qurolli to'qnashuvlar davomidagi noodatiy psixologik holat natijasida yuzaga keladigan qurbonlarning haddan tashqari ko'payib ketishi va vayronagarchilikning oldini olish g'oyasi yotadi. Shuning uchun, harbiy jihatdan mantiqiy bo'lgan harakatlarni amalga oshirish, tezlik bilan urushni g'olibona yakunlash uchun ortiqcha qurbonlar bermaslik va vayronagarchilikka yo'l qo'ymaslik kabi bir qancha qoidalar shakllangan.

(2) Tuzilishi

Kuch ishlatish taqiqlanmagan davrlarda dushmanga qarshi qaratilgan harakatlarni cheklovchi qoidalarni **urush davri xalqaro huquqi** yoki **urush huquqi** deb nomlashgan. Kuch ishlatishning taqiqlanishi tamoyili yuzaga kelgandan so'ng **qurolli mojarolar**

huquqi va xalqaro gumanitar huquq deb nomlash urfga aylandi. Qurolli mojarolar huquqi iborasining kirib kelishiga sabab, taqiqlangan urush so'zini ishlatishdan qochilgani uchundir. Xalqaro gumanitar huquq atamasini esa ushbu sohadagi qoidalarni insoniylik jihatidan qayta ko'rib chiqish maqsadida 1970-yillardan **Qizil xoch hamjamiyati** (ICRC) ishlata boshlagan. Dastavval, xalqaro gumanitar huquq urush jabrdiydalarini himoya qilish bo'yicha insoniylikni targ'ib etuvchi qoidalarnigina belgilab bergan. Ammo dushmanga qarshi harakatlarni tartibga solish bo'yicha qoidalarda ham insoniylikka oid elementlar mavjud bo'lgani sababli, ular ham xalqaro gumanitar huquqning bir qismini tashkil etadi deb hisoblanadi. Lekin ushbu qoidalar ma'lum darajada o'ldirish va yo'q qilishga ruxsat etuvchi qoidalar ekanligini unutishga olib kelishi mumkin deb hisoblab, xalqaro gumanitar huquq degan iborani foydalanishdan qochadiganlar ham mavjud.

Mazkur bobda biz «**Qurolli mojarolar huquqi**» degan iboradan foydalanamiz. Ushbu ibora dushmanga qarshi harakatlarni tartibga soluvchi qoidalar hamda urush jabrdiydalarini himoya qilishga qaratilgan ikki turli qoidalarni o'z ichiga oladi. Dushman-ga qarshi harakatlarni tartibga solish to'g'risidagi konvensiyalar 1899-yil va 1907-yilgi Gaaga tinchlik konferensiyalarida ko'pchilik tomonidan qabul qilinganidan keyin umumiyashtirib **Gaaga huquqi** deb nomlandi. Urush jabrdiydalarini himoya qilish bo'yicha

konvensiyalarni 1864-yildan keyin Jenevada Qizil xoch hamjamiyatining o'zi bosh bo'lib qabul qilib kelgani bois, umumiyashtirib **Jeneva huquqi** deb atashadi. Bundan tashqari, hujum qilish maqsadi va himoya qilish obyekti bo'lgan joyga qarab qurolli mojarolar huquqi **quruqlik qoidalari**, **dengiz qoidalari** va **havo kengligi qoidalari** kabi turlarga ajratiladigan hollar ham mavjud.

Qurolli mojarolar huquqi bilan uzviy aloqadorlikda bo'lgan sohalar sifatida **betaraflik huquqi** va **qurolsizlanish huquqi** tilga olinadi. Qurolli mojarolar huquqi qurolli mojaroning taraflari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solsa, betaraflik huquqi qurolli mojaroning taraflari bo'lgan davlatlar va uchinchi davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Shuningdek, qurolli mojarolar huquqi harbiy qurollar borasida ular qurolli ziddiyatlar paytida ishlatilishiga e'tibor qaratsa, qurolsizlanish huquqi ommaviy qirg'in qurollari va odatdagi qurollarning kashf etilishidan tortib ularning saqlanishigacha bo'lgan jarayonlarni tartibga soladi.

2 Qurolli mojarolar huquqining qo'llanilishi bilan bog'liq asosiy muammolar

(1) Xalqaro va ichki qurolli mojarolar

Qurolli mojarolar huquqi asosan davlatlar o'rtasida yuzaga keladigan xalqaro qurolli mojarolarni tartibga solish maqsadida shakllantirib kelingan. Xalqaro qurolli mojarolar yuzaga kelgan paytda qurolli mojarolar huquqi

14-1

1864-yil Birinchi Qizil xoch konvensiyasi (Jang maydonidagi qo'shinlarda yaralanganlarning ahvolini yaxshilash to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi) qabul qilingan konferensiya



Jenevada joylashgan Qizil xoch hamjamiyati keyinchalik ham qurolli mojarolarning jabrdiydalarini himoya qilish uchun xalqaro shartnomalarni ishlab chiqishda davom etdi. Ayniqsa, 1949-yilda Jeneva konvensiyalari va 1977-yilda ushbu konvensiyalarning qo'shimcha protokollari ishlab chiqilishida katta vazifani bajardi.

(Manba: ICRC ARCHIVES (ARR))

ruxsat bergan chegarada odamlarni o'ldirish yoki ularga shikast yetkazish hamda obyektlarni yo'q qilib tashlash mumkin va buning uchun huquqiy javobgarlikka tortilmaydi. Vaholanki, odatdagi hayotda shaxs kimnidir hayotiga zomin bo'lsa, huquqiy javobgarlikka tortilishi aniq. Ammo xalqaro qurolli mojarolar paytida bu qoida qurolli mojarolar huquqi tomonidan o'zgartiriladi. Ya'ni jinoyat uchun jinoiy javobgarlik mavjud bo'lmaydi. Xalqaro qurolli mojarolar yuz berganda Gaaga huquqi ham Jeneva huquqi ham to'laligicha qo'llaniladi. Xalqaro shartnomalar sifatida 1907-yilgi «**Quruqlikdagi jang qonunlari va an'analari to'g'risida**»gi Gaaga kon-

vensiyasiga qo'shimcha protokol, 1949-yildagi Jeneva konvensiyalari hamda 1977-yildagi Jeneva konvensiyalariga I qo'shimcha protokol eng asosiy manbalar hisoblanadi (14-1).

Xalqaro qurolli mojarolar yuzaga kelganda qo'llaniladigan huquq tamoman o'zgarib ketadi. Shu sababli qachon xalqaro qurolli mojarolar yuzaga kelganini aniqlash eng asosiy masalaga aylanadi. Davlatlarning armiyalari o'rtasidagi to'qnashuv yuzaga kelganda, bu qisqa muddatli to'qnashuv bo'lsa ham xalqaro qurolli mojaro sifatida baholanadi. Ushbu maqomning tatbiq etilishi uchun urushayotgan davlatlar tomonidan urush e'lon qilish kabi davlatlarning xohish-irodasini ifodalaydigan harakatlarni amalga oshirish talab etilmaydi (**kitob boshlanishidagi rangli surat C-7**).

Xalqaro qurolli mojarolardan boshqa qurolli ziddiyatlar **ichki qurolli mojarolar** deb ataladi. Bunga hukumat va qo'zg'olonchilar o'rtasida yuzaga keladigan **fuqarolik urushlari** klassik misoldir. Avvallari **mustamlaka hududlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi** asosida mustaqillik talab qilib chiqqan aholisi va mustamlakachi davlat o'rtasida yuzaga kelgan nizolar ichki urushlar sifatida baholanagan. Ammo Jeneva konvensiyalariga birinchi qo'shimcha protokol bunday nizolar xalqaro qurolli mojaro bo'lishini belgilab berdi (1-modda 4-band).

Ichki qurolli mojarolarda hukumat qo'shinlari hamda politsiya tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar davlatning ichki tartibotini saqlash uchun

yo'naltiriladi. Aksincha, qo'zg'olonchilar tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar esa qo'poruvchilik va odam o'ldirish jinoyatlari kabi ichki qonunchilikda ko'rsatilgan jinoyatlarning sodir etilishiga olib keladi. Xalqaro huquq qo'zg'olon ko'tarishni taqiqlamasada, davlatning ichki tartibotini saqlab turish uchun hukumat tomonidan ko'riladigan qo'zg'olonni bostirish yo'lidagi majburiy choralarga ruxsat beradi. Ya'ni xalqaro qurolli mojarolar davlat va davlat o'rtasida yuzaga kelgan to'qnashuv bo'lsa, ichki qurolli mojarolar politsiya va jinoyatchilar o'rtasidagi to'qnashuvni anglatadi deb

tushuniladi. Shu sababli bir-biriga nisbatan hujum qilishni qoidabuzarlik sifatida ko'rmaydigan g'oya asosida dushmanona harakatlarni tartibga soluvchi Gaaga huquqining xalqaro qurolli mojarolar bo'yicha qoidalari ichki qurolli mojarolarni tartibga solishda mos kelmay qoladi. Shu sababli ichki qurolli mojarolarning jabrdiydalarini asosan Jeneva huquqi himoya qiladi.

Ichki qurolli mojarolarga nisbatan qo'llaniladigan asosiy konvensiya va qoidalar **Jeneva konvensiyalarining umumiy 3-moddasi** hamda **Jeneva konvensiyalariga II qo'shimcha protokol (1977-yil)** hisoblanadi. Shu-

14.2

Qurolli mojarolarga nisbatan qo'llaniladigan eng asosiy xalqaro shartnomalar

<p>Xalqaro qurolli mojarolar (davlatlar o'rtasidagi harbiy nizolar, jangari guruhlar sifatida tan olingan subyektlar o'rtasidagi harbiy nizolar, o'z taqdirini o'zi belgilash maqsadida chiqqan guruhlar tomonidan yuzaga keltirilgan qurolli mojarolar.</p>	<p>Ichki qurolli mojarolar (bir davlat ichidagi fuqarolar urushi, chet elda joylashgan nodavlat guruhlar bilan bo'ladigan mojarolar).</p>
<p>1899-yil (1907-yil o'zgartirish kiritilgan) «Quruqlikdagi jang qonunlari va an'analari to'g'risida»gi Gaaga konvensiyasi (Gaaga 4-konvensiyasi) hamda unga qo'shimcha protokol (1910-yil kuchga kirgan va unga a'zo mamlakatlar 41 ta. Yaponiya 1912-yilda ratifikatsiya qilgan).</p>	
<p>1949-yilgi Jeneva konvensiyalari (4 ta) (1950-yil kuchga kirgan. A'zo mamlakatlar soni 196 ta. Yaponiya 1953-yilda a'zo bo'lgan). Harakatdagi armiya hisobidagi yarador va kasallar ahvolini yaxshilash to'g'risidagi konvensiyasi (Birinchi konvensiya). Dengiz qurolli kuchlari tarkibidagi yaradorlar, kasallar va kema halokatiga uchraganlar ahvolini yaxshilash to'g'risidagi konvensiya (Ikkinchi konvensiya). Harbiy asirlar bilan qilinadigan muomala to'g'risidagi konvensiya (Uchinchi konvensiya). Urush davrida aholini muhofaza etish to'g'risidagi konvensiya (To'rtinchi konvensiya).</p>	<p>1949-yilgi Jeneva konvensiyalarining umumiy 3-moddasi</p>
<p>1977-yilgi Jeneva konvensiyalarga I qo'shimcha protokol (1977-yil kuchga kirgan, 174 ta davlat a'zo. Yaponiya 2004-yilda a'zo bo'lgan).</p>	<p>1977-yilgi Jeneva konvensiyalariga II qo'shimcha protokol (1977-yilda kuchga kirgan, a'zo davlatlar soni 168 ta. Yaponiya 2004-yilda a'zo bo'lgan).</p>

Chapter

14

Urush va qurolli mojarolar qoidasi – dushmanga qarshi harakatlarni chegaralash va urush jabrdiydalarining himoyasi

ningdek, politsiya va jinoyatchilar o'rtasidagi to'qnashuvlarda asir degan tushunchaning mavjud emasligi uchun hukumat tomonidan qo'zg'olonchilar qo'lga olinganda ularga asir maqomini taqdim etish majburiyati hukumatda mavjud bo'lmaydi. Shuning uchun ichki jinoyat qonunchiligini qo'llagan holda jinoyatchi sifatida belgilab, ushbu shaxslarga nisbatan jinoiy jazoni qo'llash mumkinligini bilib qo'yish dar-
kor (14-2).

(2) Kamsitishga yo'l qo'yiladigan holatlar va tenglikni ta'minlash zarur bo'lgan holatlar

Kuch ishlatishning taqiqlanishi tamoyili davlatlar tomonidan yetarli darajada amal qilinsa, xalqaro qurolli mojarolar yuzaga kelib chiqmaydi. Bu degani qurolli mojarolar yuzaga kelsa kamida taraflardan biri xalqaro huquqqa zid ravishda kuch ishlatgan bo'ladi.

Jus ad bellum (*jus ad bellum*) tomonidan qaraydigan bo'lsak, xalqaro huquqqa zid ravishda kuch ishlatgan bosqinchi davlat ham o'zini mudofaa qilish huquqidan foydalanayotgan davlat kabi **jus in bello** (*jus in bello*), ya'ni qurolli mojarolar huquqidagi huquqlarga ega bo'ladi. Natijada bosqinchi davlatning qo'shinlari o'zini mudofaa qilish huquqidan foydalanayotgan narigi davlatning askarlarini o'ldirsa ham jinoiy jazo tayinlanmaydi. Qo'lga tushib taslim bo'lsa asirga olinishi kerak. Bunday qoidalar birinchi qarashda odamga juda g'alati tuyuladi (→**Atama**). Mana shunday holatda xalqaro huquqqa zid ra-

Atama

Jus ad bellum va jus in bello.

Kuch ishlatish va urushga aloqador xalqaro huquq qoidalari jus ad bellum va jus in bello kabi katta guruhlariga ajratiladi. Jus ad bellum - kuch ishlatish xalqaro huquqqa mosmi yoki zid keladimi degan masalalarni hal etuvchi qoidalarni o'z ichiga oladi. Uning ichiga BMT Nizomida belgilangan kuch ishlatishning taqiqlanishi tamoyili hamda o'zini o'zi mudofaa qilish huquqidan foydalanishning shartlari kabi qoidalar kiradi. Jus in bello esa qurolli mojarolar boshlangandan keyin taraflarning harakatlarini tartibga solib, qurolli mojarolar huquqi va xalqaro gumanitar huquq bilan deyarli bir xil ma'noga ega.

vishta kuch ishlatayotgan davlatning qurolli mojarolar huquqlarini rad etish g'oyasi yuzaga chiqadi. Bu **kamsitishga yo'l qo'yish nazariyasi** deyiladi. Qurolli mojarolar huquqini BMT qo'shinlarining foydasiga qo'llash zarur degan kamsitishga yo'l qo'yuvchi nazariya Koreya urushlari (1950-1953) davrida **Koreya BMT qo'shinlari** (14-3) masalasida akademik jamiyat tomonidan ilgari surilgan.

Lekin har qanday davlat shu kabi hodisalar yuz berganda xalqaro huquqqa xilof bo'lmagan tarzda kuch ishlatganini da'vo qiladi. BMT Xavfsizlik Kengashi ham davlatlar o'rtasidagi harbiy nizolarda **tinchlikka tahdid solish** va **agressiya harakatlarining** mavjudligi haqida qaror qabul qilgan holatlar deyarli mavjud emas. Bunday vaziyatda kamsitishga yo'l qo'yishga



BMT Koreya qo'shinlari hali-hanuzgacha mavjud bo'lib, BMT rezolyutsiyasi va BMT qo'shinlari statusi to'g'risidagi paktga asosan Yaponiyada ham harakatlarni olib boradi. Tokioning Yo'ko'ta havo bazasida BMT qo'shinlari qarorgohi (AQShdan tashqari Avstraliya, Kanada, Fransiya, Yangi Zelandiya, Filippin, Tailand, Turkiya hamda Buyuk Britaniyadan tashkil topadi) joylashgan.

(Manba: U.S. Air Force photo by Osakabe Yasuo)

ruxsat berilsa davlatlar bir-birlarining harbiy harakatlarini kuch ishlatish sifatida baholab, bir-birlarining qurolli mojarolar huquqi bilan belgilab berilgan huquqlarini rad eta boshlaydilar. Bu esa huquq mavjud bo'lmagan vaziyatni yuzaga keltirib chiqaradi. Bir tomonning xalqaro huquqqa zid harakatlari tasdiqlansa va unga nisbatan kamsitishga yo'l qo'yishga asoslanib choralar qo'llanadigan bo'lsa ham, agressiyani amalga oshirgan davlatning ushbu harakatlarni boshlashda hech qanday aybi bo'lmagan quyi toifadagi harbiylariga nisbatan asirlar sifatida muomala qilish rad etiladi. Bundan tashqari, tinch aholi ham himoyalani huquqidan mahrum qilinadi. Kamsitishga yo'l qo'yish nazariyasining kamchiliklari juda ham ko'p bo'lib, amalda undan foydalanish holatlari ham deyarli mavjud emas. Shu sababli bugungi kunda

tenglik tamoyilini qo'llash nazariyasiga asoslaniladi. Ya'ni *jus ad bellum*ga asoslanib xalqaro huquqqa to'g'ri keladigan yoki unga zid keladi deb baholash davlatning javobgarligi va agressiya jinoyati mavjud ekanini keltirib chiqarsa-da, u *jus in bello*ga bevosita ta'sir etmaydi.

Ichki qurolli mojarolarda xalqaro qurolli mojarolardan farqli ravishda hukumat qo'shinlari hamda politsiya qonun ijrosini ta'minlash maqsadida qo'zg'olonchilarni o'qqa tutishi mumkin. Ammo jinoyatchi hisoblanmish qo'zg'olonchilarni o'ldirish yoki ularni butunlay yo'q qilib yuborish kabi huquqlar ichki huquq tizimida hukumatga ham taqdim etilmaydi. Ichki huquqda bu kabi farqlashning mavjudligi ichki urush bo'lsa ham huquqiy tartibotni saqlash vakolati faqatgina hukumatga tegishli ekani bilan asoslanib, uni atayin kamsitishga yo'l qo'yish deb atashga ehtiyoj mavjud emas.

3 Dushmanga qarshi harakatlar va kombatantlar (harbiy to'qnashuvlardagi askarlar)

(1) Dushmanga qarshi qaratilgan harakatlarda qatnashishning talablari

Qurolli mojarolar huquqi ma'lum bir shartlarga ko'ra, xalqaro qurolli mojarolarda taraflar bir-birlarini o'ldirishi yoki yaralashi, mulklarni yo'q qilish kabilarga ruxsat beradi. Ya'ni kim, qanday tashqi ko'rinishda, nimaga nisbatan, qanday qurollardan foydalangan holda har bir holat bo'yicha qurolli mojarolar huquqi o'zining ta-

Qizil xoch timsolidan foydalanishdagi suiiste'molliklar


Jeneva konvensiyalari qizil xoch timsoli va unga o'xshash belgilardan foydalanishni suiiste'mol qilishni u xoh urush davri bo'lsin, xoh tinchlik davri bo'lsin, birdek taqiqlaydi (masalan, Birinchi konvensiyaning 44, 53-moddalari). Suiiste'mol qilish ichki huquqda ham taqiqlanadi. Yaponiyada bu kabi ichki qonunchilikka misol qilib, qizil xoch timsolidan foydalanishni cheklash to'g'risidagi (1947-yil), Tovar timsollari to'g'risidagi (1959-yil), Harbiy hujumlar paytidagi holat to'g'risidagi (2003-yil) aktlarni keltirishimiz mumkin. O'xshash belgilar doirasi konvensiyalarda aniq ko'rsatilmagan. Ammo Yaponiyaning qizil xoch uyushmasi a'zolari «qizil rangga yondosh rangda bo'lgan xoch belgisi» o'xshash belgi hisoblanadi deb baholaydilar (Qarang, «Ushbu belgining asl ma'nosini bilasizmi?», Yaponiya qizil xoch uyushmasi, 2015-yil, 7-bet).

Ularning ushbu talqinidan kelib chiqib, ba'zi zavodlarda ilib qo'yiladigan oq fondagi va o'rtasida yashil rangdagi xoch tushirilgan bayroqlar mazkur belgini suiiste'mol qilish bo'lmisligi mumkin. Lekin yashil rangdagi xoch tushirilgan bayroqlarni kun qorayganda va tunda qizil xoch belgisidan ajratib olish qiyin. Bunday paytlarda xoch belgisiga ega bo'lganlardan qay biri himoyaga ega shifokorlar va qay biri zavodda yashirinib yotgan harbiy to'qnashuv qatnashchilari ekanini ajratib olish murakkab kechadi. Agarda mana shunday vaziyatda bir tomon yashil xoch tushirilgan bayroq o'rnatilgan zavoddan dushmanga o'q otib o'ldirsa, uni qizil xoch tushirilgan bayroq ostidagi shifokorlar deb o'ylagan narigi dushman tomonning ishonchi himoya qilinishi lozim. Shunday ekan, bunday vaziyatlarda tabiiy ravishda yashil xoch tushirilgan bayroqdan foydalanish ishonchni suiiste'mol qilish sifatida baholanadi. Shu sababli yuqoridagi kabi faqatgina qizil rangli xoch bilan bog'lab talqin qilish masalani juda ham tor doirada o'ylash hisoblanadi.

Mabodo qizil xoch shaklidagi belgidan boshqa belgilardan foydalanish suiiste'mol qilish sifatida baholanmasa ham, biroq bo'lsa-da, ishonchni suiiste'mol qilish sifatida gumon qilinishi mumkin bo'lgan belgilarni bekor qilish zarur. Albatta, qo'shinlar tomonidan ochiqdan ochiq yashil rangdagi xoch tushirilgan bayroqlardan foydalanish muammo bo'lmaydi. Masalan, Yaponiyaning o'z-o'zini himoya qilish qo'shinlarining quruqlik, suv va havo bo'linmalarining barchasi xavfsizlikni ta'minlash qoidalari ga ko'ra xavfsizlikni anglatuvchi yashil xoch tushirilgan bayroqdan foydalanadi.



(Manba: Zavoddagi yashil xoch timsoli tushirilgan bayroq (Osaka universitetining Suita kampusi. 2014-yil fevral oyida olingan surat)



(Manba: Favqulotda holat xizmati guruhi «Northern rescue - 2015» da yashil xoch timsoli tushirilgan bayroqning O'zini o'zi himoya qilish qo'shinlari tomonidan foydalanilgani. (Kazunori Hiramoto «Dunyo kemasi» 825-son, Kaijinsha - 2015, 13-bet)

lablarini o'rnatadi. Ushbu talablarning barchasiga mos kelgandagina o'ldirish, yaralash yoki yo'q qilishga qaratilgan harakatlarni sodir etgan shaxsning javobgarligi mavjud emas. Ichki qurolli mojaralarda esa, hukumat qo'shinlari

va politsiya kuchlari «Politsiya xodimlarining o'z xizmat majburiyatlarini bajarish qonuni»¹ kabi ichki qonunlar


¹ Tarjimonlar izohi: 1948-yilda kuchga kirgan Yaponiya qonuni.

Mo'ljalni aniqlashtirib olish majburiyati va bortida inson bo'lmagan texnikalar

Bortida shaxs bo'lmagan texnikalar dastlab ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan texnikalarni ifodalagan bo'lsa, hozirda ularni umumiy tarzda dronlar deb yuritishadi. Shu sababli dron ma'lum bir mo'ljal sari yo'naltiriladigan texnikani ifodalaydi. Bugungi kunda kuzatuvdan tortib hujum qilish-gacha bo'lgan xizmatlarda foydalaniladigan boshqaruv bortida inson mavjud bo'lmagan uchuvchi texnikalarning barchasini dron deb nomlash urfga kirdi.


Dronlarni ishlatish borasida mo'ljalni farqlash tamoyili nuqtayi nazaridan ba'zi munozaralar mavjud. Yetarli darajada farqlash qobiliyatiga ega bo'lmagan dronlardan (masalan, kuzatuv dronlari) o't ochish va raketa hujumini uyushtirish taqiqlanadi. Hujum qilishga mo'ljallangan uchuvchisiz dronlar ularni uzoqdan boshqaruvchilar tomonidan mo'ljallarning farqlanishi asosida qo'llanishi lozim.

DASH robot vertolyoti. Yaponiya tomonidan ishlatilgan bortida inson bo'lmagan vertolyot hisoblanadi. 1970-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab foydalanishdan chiqarilgan.



AQShning Predator nomli samolyoti. Ushbu qiruvchi samolyot Afg'oniston urushi kabilarda hujum qilishda foydalanilgan. Kichik hajmli raketalarni yo'naltira oladi.

(Manba: O'zini-o'zi himoya qilish dengiz qo'shinlari tomonidan taqdim etilgan)



(Manba: U.S. Air Force photo/Lt Col Leslie Pratt)

doirasida qo'llanuvchi harakatlarini-gina qonunga muvofiq deb topadi. Shu sababli ham, qo'zg'olonchilar tomonidan sodir etiladigan harakatlar-ning ichki qonunchilikda oqlanishi ehtimoli mavjud emas. Shunday ekan, qo'zg'olonchilar ichki qonunchilikka binoan jazoga tortilsalar ham bunga xalqaro huquq to'sqinlik qilmaydi.

Xalqaro qurolli mojarolarda davlatning **qurolli kuchlari tarkibiga kiruvchilar (shifokorlar va diniy vazifadagilar** bundan mustasno), **partizanlar** (hali bosib olinmagan shahar va qishloqlar aholisi bo'lib, dushmanga qarshi harakatlarni amal-

ga oshirish uchun dushman yaqinla-shayotgan paytda ma'lum bir tash-kiliy tuzilma ko'rinishida emas, balki mustaqil kurashadigan shaxslar), **bo-sib olingan hududlardagi tashkiliy tuzilmaga ega qarshi harakat gu-ruhlari** hamda **o'z taqdirini o'zi bel-gilash huquqini amalga oshirish guruhleri** tarkibiga kiruvchi shaxslar, **harbiy to'qnashuvlar qatnashchi-lari – kombatantlar** hisoblanadi. Faqatgina mazkur shaxslar dushmanga qarshi harakatlarni amalga oshirishiga ruxsat beriladi. Mana shunday huquq berilgani uchun ham ular qo'lga olinsa asir sifatida himoyadan foydalanish



Ikkinchi jahon urushida Italiya frontida erkin Polsha qo'shinlari tomonidan ishlatilgan qo'g'irchoq askar. O'ng tarafda turgan askar uni arqon orqali boshqarib turadi. Bu esa uni yanada haqiqiyroq qilib ko'rsatadi. Mazkur harakat hiyla sifatida baholanadi.

(Manba: IWM)

huquqi taqdim etiladi. Bu doiradan tashqaridagi fuqaro aholi tomonidan dushmanga qarshi qaratilgan harakatlarda qatnashishi qurolli mojarolar huquqi tomonidan ochiq-oydin taqiqlanmagan bo'lsa-da, ular dushmanga qarshi harakatlarda qatnashsalar va **ishonchni suiiste'mol qilish** aybi bilan qo'lga olinsa, ularda huquqiy javobgarlik yuzaga keladi.

(2) Kombatantlarning tashqi ko'rinishi – ishonchni suiiste'mol qilish va hiyla

Harbiy to'qnashuvda qatnashayotgan askarlar dushmanni o'ldirishi yoki uni yaralashi mumkin bo'lgan paytda harbiy qurol-yarog'lar va harbiy kiyimlardan foydalanishi shart. Bu orqali uning harbiy to'qnashuvlarda qatnashayotgan askar ekani tashqi tarafdin bilinib turishi kerak. Quruqlikdagi janglarda yaralangan askarlar, taslim bo'lganlar, fuqarolar, sanitarlar va boshqa himoya qilinishi lozim bo'lgan shaxslar yoki himoya timsollari

o'rnatilgan tez yordam mashinalarining tusiga kirib olib dushmanga hujum uyushtirish taqiqlanadi. Agar bunday harakatlar sodir etilsa, ular yolg'on harakatlar sifatida baholanadi va urush jinoyati deb topiladi.

Bundan boshqa usullarda dushmanni tuzoqqa tushirish **hiyla (14-4)** deb ataladi va ularni qo'llashga ruxsat beriladi. Nimagadir taqlid qilish orqali dushmanni aldash va pistirma kabildardan foydalanish shunga to'g'ri keladi.

(3) Hujum qilish obyekti – kombatantlar va harbiy mo'ljal (obyekt)

Kombatantlar tomonidan o'ldirish va yo'q qilishga qaratilgan harakatlar dushman tomonning kombatantlariga va **harbiy mo'ljalga** yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Ayniqsa, mulkka nisbatan qaratilgan bunday harakatlarni **harbiy mo'ljal tamoyili** deb ataladi. Shaxsga qarshi qaratilgan harakatlar esa asosan dushmanning kombatantlari bo'lib, istisno tariqasida fuqaro aholi ham dushmanga qarshi harakatlarda qatnashayotgan paytda ushbu nishon ostida qoladilar. Jeneva konvensiyalarining birinchi qo'shimcha protokoliga ko'ra, mulkiy mo'ljal deb harbiy faoliyatga yetarli darajada o'z hissasini qo'shish va ma'lum bir funktsiyani bajaruvchi mulk bo'lib, uni yo'q qilish o'sha paytdagi hujum qilgan tomonga harbiy jihatdan foydani taqdim etadigan mulkka aytiladi (52-modda). Mulkka nisbatan harbiy mo'ljaldan tashqari barcha narsalar **fuqarolar foydalanadigan mulk** sifatida baholanib, fuqarolar iste'molida bo'lgan mulklar hujum qilinishdan himoya etiladi.

Harbiy maqsad tamoyili, unga aloqador bo'lgan zarar yetkazish va farqimasdan hujum qilish

Ikkinchi jahon urushida AQSh qo'shinlari tomonidan bombardimon qilish hujumlarida foydalanilgan yo'l chiziqlari bo'ylab bombardimon qilish. Bunday bombardimon qilishda ham maqsad qilingan joyning atrofidagi hududlarga zarar yetish hollari kam emas.



(Manba: U.S. Air Force photo)

Birinchi qo'shimcha protokolning qabul qilinishidan oldin, xalqaro qurolli mojarolar taraflarining hududlari **himoyalangan hudud va himoyalangan hududga** ajratilgan. Bunda egallab olishni qasd qilib yaqinlashayotgan dushman qo'shinlariga qarshilik ko'rsatuvchi hudud deya ta'rif beriladigan, himoyalangan hududga nisbatan **farqlanmaydigan hujumga** ruxsat beriladi. Ammo himoyalangan hududlarda faqat harbiy maqsad yo'lidagina obyektlarni yo'q qilishga ruxsat berilgan edi. Biroq Birinchi qo'shimcha protokol qabul qilingach, ikkala hududda ham obyektlar masalasida harbiy maqsad yo'lidagina obyektlarni yo'q qilishni belgilash talab etiladigan bo'ldi.

Hujum asnosida dushman tomoning harbiy to'qnashuvda qatnashuvchi shaxs ekanligi va harbiy obyekt ekanligini aniqlashtirib olish, eng

avvalo, talab etiladigan masalalar. Ular aniqlansa-da, ularni va tinch aholi mulkiga yetadigan **zarar**ning me'yordan oshib ketmasligiga diqqat qilish lozim. Harbiy to'qnashuvda qatnashuvchi shaxslar va harbiy obyektning yo'q qilishdan olinadigan harbiy foydaga nisbatan yon zarar haddan ortiq ko'p bo'lsa, unda harbiy obyektga nisbatan qilingan hujum ham huquqqa xilof bo'ladi. Aksincha, agar tinch aholi va uning mol-mulkiga yetadigan zarar yuzaga kelganiga qaramay, u haddan ziyod bo'lmasa, bunday hujumni uyushtirgan tomonning huquqiy javobgarligi masalasi ko'tarilmaydi.

Agar shaharlarga himoyalangan hudud sifatida huquqiy muomalada bo'linsa, ularga to'raligicha hujum qilish mumkin emasligi oydinlashadi. Shu bilan birga, u yerdagi tinch aholi va ularning mol-mulkini ajratmasdan yoppasiga hujum uyushtirish xalqaro

huquqqa ziddir. Shahar ichidagi qurol zavodiga bomba tashlanib, uning atro-fida haddan ziyod yon zarar yuzaga kelsa bu ham farqlamasdan hujum qilish sirasiga kiritiladi. Shuningdek, bir mo'ljal yo'q qilinish paytida uning ichida yig'ilgan katta kuch tashqariga chiqib, atrofga katta ziyon yetkazishi ham mumkin. Shu sababli suv ombori, to'g'on va atom elektr stansiyalari ham Birinchi qo'shimcha protokol orqali agar ushbu obyektlar harbiy mo'ljalga aylangan taqdirda ham qoida tariqasida hujumdan himoya qilinishi belgilandi (56-modda). Ushbu protokol tabiatga keng miqyosda, uzoq muddatlik va og'ir zararlarni yetkazmaslikka alohida e'tibor qaratishni ham talab qiladi (35-modda, 55-modda).

(4) Hujum usuli – quoldan foydalanishning cheklanishi

Harbiy to'qnashuv qatnashchisi qoidaga muvofiq tashqi ko'rinishga ega bo'lib, o'ldirish va yo'q qilishga ruxsat beriladigan mo'ljalga hujum qilsa-da, qurolli mojarolar huquqi bu bilan chegaralanib qolmaydi. Harbiy to'qnashuvlarda qo'llaniladigan qurollarga nisbatan ham ma'lum cheklovlar mavjud. Qurollardan foydalanishni cheklash yoppasiga ta'sir etuvchi natijani yuzaga keltiradigan qurollardan foydalanishni taqiqlash va haddan ziyod zarar, keraksiz og'riqni beradigan qurolni qo'llashni taqiqlash kabi ikki qoidaga tayaniladi.

Har qanday qurolni ham yoppasiga insonlarga qarshi qo'llab, haddan ziyod zararni yuzaga keltirish mumkin. Biroq bunday xususiyatga ega bo'lmagan quoldan uni qo'llash usul-

lariga diqqat qilib foydalanilsa, bunday quoldan foydalanishga ruxsat etiladi. Qo'llanilishi taqiqlanadigan qurol deb – ishlatilganida yuqoridagi ikki qoidaning biri yoki har ikkisiga doimo zid keluvchi qurolga aytiladi.

Qo'llanilsa doimo tanlamasdan barchaga birdek ta'sir qiladigan qurolning taqiqlanishi ortida uning qo'llanilishi doimo harbiy maqsadlar doktrinasiga zid kelishi yotadi. **Bakteriologik va kimyoviy qurollar** ularni qo'llovchining maqsadidan qat'iy nazar keng miqyosda yoyilib, barchaga birdek ta'sir qilish xususiyatiga egaligi uchun xalqaro odat huquqi va **Zararli gazlar protokoli** (1925) kabi shartnomalarda foydalanish taqiqlangan. **Yadroviy qurolni** qo'llash bo'yicha 1963-yilda Tokio okrug sudining **Shimoda ishi bo'yicha qarorida** (boshqa nomi, Atom quroli qarori → **Keysbuk 39**) ta'kidlaganidek, Hiroshima va Nagasaki darajasidagi shaharlarga 10 tonnadan 20 tonnagacha bo'lgan atom quroli tashlansa, ushbu qurolning hech kimni ajratmasdan birdek ta'sir qilishi hammaga ayon bo'lib, harbiy maqsadlar doktrinasiga zid keladi. Boshqa tomondan esa, atom quollarining kattakichigi mavjud bo'lib, ularni ishlatish joylari ham turlichadir. Shu sababli doimo hammaga birdek ta'sir etuvchi natijani yuzaga keltirganligini ro'kach qilgan holda, qurol sifatida foydalanishdan butunlay taqiqlash bo'yicha fikrlar turfaxilligi mavjud. Atom quollaridan foydalanishning xalqaro huquqqa mosligi bo'yicha 1996-yildagi **Xalqaro adolat sudining (ICJ) tavsiviy xulosasi** (→ **Keysbuk 58**)

berilgan. Ushbu tavsiyaviy xulosada, Xalqaro adolat sudi bunday foydalanish «xalqaro gumanitar huquqqa «umumiy tarzda» zid kelganligini» aytish bilan birga, istisno tariqasida atom quollaridan foydalanishning huquqqa xilof bo'lmagan holatlarini ham sanab o'tgan. Shuningdek, Xalqaro adolat sudi «o'zini o'zi mudofaa qilishning eng og'ir holatida» atom quolidan foydalanish masalasi bo'yicha aniq xulosa bayon etishdan qochgan.

Odatiy quollardan yondiruvchi quollar va klaster bombalari keng miqyosda farqlamasdan ta'sir etuvchi bo'lgani bois, har ikkisi bo'yicha **Ba'zi bir odatiy quollardan foydalanishni taqiqlash va cheklash bitimining protokoli III** (1980) va Klaster bombalari bitimi (2008) kabi bunday quollardan foydalanishni cheklash yoki taqiqlashni talab etuvchi shartnomalar tuzildi. Bitta minaning yakka o'zi keng miqyosda zarar keltirib chiqarmasada, kim uni bosib olsa portlash xususiyatiga ega bo'lganligi uchun mo'ljalni farqlash funksiyasini o'zida mujassam etmaydi deb hisoblanadi. Shuning uchun **Ba'zi bir odatiy quollardan foydalanishni taqiqlash va cheklash bitimini o'zgartirish protokoli II** (1996) va **Insonga qarshi minalarni taqiqlash bitimi** (1997) kabi minalarni ko'mishni cheklovchi yoinki taqiqlovchi bitimlar yuzaga keldi.

Yana bir tamoyil o'laroq haddan ziyod zarar yetkazish yoki keraksiz og'riq beruvchi quollarni taqiqlash asosan harbiy ziddiyat ishtirokchilariga nisbatan quollarning qo'llanilishida tatbiq etiladi (14-5). Tinch aholiga

nisbatan esa dushmanga qarshi harakatlarda bevosita qatnashayotgan paytda va yon zararlarni yetkazishdan boshqa umuman olganda quollardan foydalanib yarador qilish va og'riq berish mumkin emas. Yarador qilish va og'riq berish faqatgina harbiy ziddiyatlar ishtirokchilari uchundir. Bu orqali qurolli mojarolar huquqi ziddiyat ishtirokchilarining urush qilish qobiliyatlarini yo'qqa chiqarib, ularni urushdan mosuvo qilishni ko'zlaydi. Shunday ekan harbiy nizo ishtirokchilarining urushish qobiliyatlarini yo'qqa chiqargach, ularga bundan boshqa og'riq yetkazish foydalanilgan qurol maqsadidan oshib ketadi. Bundan harbiy nizo ishtirokchilariga nisbatan haddan ziyod zarar beradigan va keraksiz og'riq yetkazadigan quollardan foydalanishni cheklash qoidasi kelib chiqadi.

Bakteriologik va kimyoviy quollardan foydalanishning taqiqlanishi ortida esa mo'ljalni farqlamasdan ta'sir qilish xususiyatidan boshqa, haddan ziyod zarar berish yoki keraksiz yetkaziladigan og'riqning uzluksiz yuz berishi yotadi. Yadroviy quollarni qo'llashda ulardan o'ta kuchli portlash, issiqlik va radiatsiya yuzaga keladi. Agar ulardan foydalanish ko'plab yaradorlarni keltirib chiqarsa, ularga keraksiz og'riq yetkazsa, shu paytdan boshlab yadroviy quollardan foydalanishni butunlay taqiqlash ehtimoli yuzaga keladi.

Odatdagi quollar bilan bog'liq masalalarda dam-dam o'qlarini taqiqlash deklaratsiyasi (1899-yil) kabi dush-

Oddiy harbiy temir o'qlarda, kema yadrosi yoki shunga o'xshash narsa qattiq mis yoki temir qobiq bilan o'ralgan. 1899-yildagi Dam-Dam deklaratsiyasi xalqaro qurolli to'qnashuvlarda shaxslararo himoyalangan yoki tishli o'q-dorilarni ishlatishni taqiqladi. Oddiy o'q-dorilar jangchilarni qobiliyatsiz holga keltirish uchun kifoya qiladi va ular inson tanasi bilan to'qnashganda hosil bo'ladigan jiddiy zarar yetkazadi. Shu sababli, dam-dam o'q-dorilariga harbiy ehtiyoj yo'q. Yumshoq nuqtali o'qlar va ichi bo'sh o'qlar dam-dam o'qlari bilan bir xil ta'sir ko'rsatadi.



(Manba: 1-Jahon urushi davrida Germaniya tomonidan propaganda maqsadida qo'llanilgan dam-dam o'qlariga oid pochta kartasi, taxminan 1915-yillar)

man tomon askariga nisbatan dam-dam o'qlarini (inson tanasiga tekkanidan so'ng buriladigan yoki shaklini o'zgartiradigan o'qlar) qo'llash taqiqlangan holatlar ham mavjud. Taqiqlashning asosiy sababi bunday o'qning badanga haddan ziyod zarar va ortiqcha og'riq yetkazgani uchundir. Bundan tashqari, plastik o'qlardan badanda qolib ketgan o'q parchasini X nurda ham aniqlashning imkoni bo'lmay, yarani davolashni uzaytirib yuboradi degan sabab bilan (**Ba'zi bir odatiy qurollardan foydalanishni taqiqlash va cheklash bitimi protokoli I** (1980-yil)) ana shunday qurollardan foydalanish ham taqiqlangan. Qo'shimcha tarzda, kombatanlarning ko'z qorachig'ini kuydiruvchi lazer qurolli ham (ko'z kasalligining umrbod

davom etganligi sababli **yuqoridagi protokol IV** (1995-yil)) taqiqlandi.

Ichki qurolli mojarolarda esa, hukumat qo'shinlari va politsiya kuchlarining harakatlari qonunlarni ijro etishga qaratilgan harakat sifatida baholangani uchun qo'zg'olonni bostirishda qurollar mahalliy huquq qoidalariga ko'ra qo'llaniladi. Qurollarni qo'llashga oid qurolli mojarolar huquqi qoidalarida ichki nizolarga nisbatan tatbiq etilishi ko'zda tutilgan alohida holat bo'lmasa, ichki nizolarga nisbatan xalqaro qoidalar qo'llanilmaydi.

4 Jabrdiydalarni himoya qilish

(1) Yaralangan askarlar va kema halokatiga uchragan askarlar

Qurolli mojarolardagi jabrdiydalar quruqlikdagi harbiy to'qnashuvlardagi

yarador askarlar, dengizdagi harbiy to'qnashuvlardagi yarador askarlar va kema halokatiga yo'liqqanlar, asirlar hamda fuqarolarga ajratiladi. Xalqaro qurolli mojarolarning jabrdiydalari bo'lgan mazkur shaxslarni himoya qilish bo'yicha asosiy konvensiya sifatida Jeneva konvensiyalari va unga qo'shimcha birinchi protokolni keltirishimiz mumkin. Ichki qurolli mojarolar borasida esa Jeneva konvensiyalarining umumiy 3-moddalari dushmanga qarshi harakatlarda qatnashmaydigan shaxslar va yaradorlarning kasalxonalarda davolashni talab etadi. Bundan tashqari, Jeneva konvensiyalarining ikkinchi qo'shimcha protokoli ham to'ldiruvchi normalar orqali ularni himoya qiladi.

Yarador askarlar va kema halokatiga uchragan askarlarga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun asosan qo'shinning **shifokorlar (sanitarlar) bo'linmasi** yollanadi. Albatta, ushbu sanitarlar bilan birga, **sanitar-shifokorlarni tashiydigan tibbiyot va sanitariya transporti** ham himoya ostiga olinadi. Ular o'zlarini ajratib ko'rsatish uchun **qizil xoch** yoki **qizil yarim oy** timsollarini o'rnatishlari mumkin (kitob boshidagi suratlar: C-9). Shifoxona kemasi yoki shifokorlarning havo kemalariga ham maxsus farqlash uchun timsollar o'rnatiladi.

(2) Asirlar

Kombatant maqomidagilar xalqaro qurolli mojaralarda dushmanni o'ldirishi, yaralashi yoki yo'q qilishi mumkin. Ushbu harakatlar xalqaro qurolli mojarolar huquqiga zid bo'lmasa, ular hech qanday javob-

garlikka tortilmaydi. **Kombatantlarning maxsus huquqi** deya ataluvchi ushbu huquq askarlar qo'lga olingandan so'ng ham ularga jinoyatchi sifatida emas, balki asir sifatida (14-6) munosabatning joriy etilish imkonini beradi. Qurolli mojarolarning taraflari bo'lgan davlatlar tomonidan asirlar urush tugaguncha majburiy ravishda ushlab turilsa-da, ularning hayotlari, jismlari, shaxsiy mulklari va sha'nleri himoya qilinib, oziq-ovqat bilan ham ta'minlanadilar (14-7). Asirlar himoya qilishning obykti hisoblangani bois, kimlar urush qatnashchisi sifatida qo'lga olingandan so'ng asir sifatida himoya qilinishi kerakligi nihoyatda dolzarb mavzudir. Bundan tashqari, qurolli mojaroda qatnashmasa-da, kombatantlar bilan birga yuradigan fuqaro aholiga ham asirlik maqomi beriladigan holatlar bo'lganligi uchun kombatantlar qo'lga tushsa, albatta, asirlik maqomini olsa-da, uning teskarisi doimo to'g'ri bo'ladi deb aytish mushkul.

Muntazam kuchli armiyaga ega bo'lgan davlatlar kombatantlar va asirlarning maqomini faqatgina muntazam armiya safidagilarga taqdim etishga urinadi. Ammo muntazam armiyasi kuchsiz bo'lgan ba'zi mamlakatlarda boshqa shaxslarga ham bunday maqomni berish lozim deb hisoblaydilar. Albatta, asirlik maqomining taqdim etilish doirasini kengaytirish muntazam armiya safida bo'lmagan shaxslarning ham asir sifatida himoya qilinishini va ko'plab insonlarning himoyaga olinishini anglatadi. Ammo boshqa tomondan muntazam armiya



Birinchi jahon urushi davrida Fransiyaning «Val De Grace» kasalxonasida davolanayotgan Germaniya harbiy asirlari.

(Manba: ICRC ARCHIVES (ARR))



Vyetnam urushida Shimoliy Vyetnamda asir sifatida saqlangan AQSh askari va uni kutib olayotgan oila a'zolari.

(Manba: AP/Afloimages)

safida bo'lmagan shaxslarning ko'plari harbiy libos va kerakli belgilarga ega bo'lmagani bois, ularni fuqarolardan farqlab olish qiyin bo'lgan vaziyatni yuzaga keltiradi. Bunday shaxslarga ham kombatant va asir maqomlari berilib, dushmanga qarshi harakatlarning qatnashchisi sifatida qaralsa, ang-lashilmovchilik natijasida fuqaro aholini otib qo'yish hollari ko'payib ketishi mumkin.

«Quruqlikdagi jang qonunlari va an'analari to'g'risida»gi Gaaga konvensiyasiga qo'shimcha protokol (1899-yil, 1907-yil) muntazam armiyaning ofitser va oddiy askarlariga nisbatan alohida shartlarsiz asirlik maqomini taqdim etgan. Ammo **fuqaro aholi armiyasi (militia)** va **ko'ngilli askarlarga** nisbatan to'rtta shartga to'g'ri kelsagina asirlik maqomi berilishini belgilaydi. Bular 1) qo'mondonining mavjudligi, 2) uzoq masofadan ham farqlab olish mumkin bo'lgan libosda ekanligi,

3) qurollarni ochiq olib yurganligi, 4) urush qoidalari va an'analari hurmat qilishi hisoblanadi. Partizanlar armiyasi a'zolariga 3) va 4) dagi shartlarga javob bersagina ularga asirlik maqomi berilgan.

Harbiy asirlar bilan qilinadigan muomala to'g'risidagi Jeneva konvensiyasida (1949-yil) bosib olingan hududlardagi tashkiliy tuzilishga ega bo'lgan qarshi harakat guruhlariga a'zolariga ham yuqoridagi 4 ta shartga asosan asirlik maqomining berilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, Jeneva konvensiyalarining birinchi qo'shimcha protokoli ichki qurolli mojarolar sifatida qarab kelingan mustamlaka hududlarning mustaqillik uchun kurashlari kabi o'z taqdirini o'zi hal etish huquqidan foydalanish maqsadida tashkil etilgan tashkilotlarning a'zolariga ham asir maqomi berilishini tan oldi. Biroq shu bilan birga, qurolli ziddiyatning haqi-

(old tarafl)	(o'rq tarafl)
○ Asirlarni ushlab turish hisoboti A (ushlab turilgan shaxs uchun)	○ Asirlarni ushlab turish hisoboti A (ushlab turilgan shaxs uchun)
1. Raqami []	
2. Asirga olingan payti Yil oy kun soat	
3. Asirga olingan joy	
4. Asirga olingan shaxs Shaxsni aniqlovchi raqam: Asirlarni ushlab turish hisoboti (B) 1. Raqam []	Asirlarni ushlab turish hisoboti (B) 8. Ushlab turilgan paytdagi holat
2. Asirga olingan payti Yil oy kun soat	
3. Asirga olingan joy	
4. Asirga olingan shaxs Shaxsni aniqlovchi raqam:	
5. Topshirilgan kun yil oy kun	
6. Topshirish turi: Qonunning 6-moddasi 1-2 qismlari	9. Asimi jo'natish payti: dagi holat va undan boshqa alohida kuzatilgan holatlar
7. Topshirilgan shaxs: Shaxsni aniqlovchi raqam:	Jazoni belgilashga oid qaydlar 1. So'roq natijasi:
Tadqiqlash uchun qaydlar	
Raqam []	
Asirga olingan shaxs ismi-sharifi []	
Xarbiy unvoni []	
Tug'ilgan sanasi [yil oy kun]	
Shaxsni tasdiqlovchi hujjat raqami [raqam]	
[hujjat turi]	
Ushlangan sana [yil oy kun soat]	2. Asirdagi mavjud ashyolarni tekshirish natijasi
Ushlangan joy []	3. Boshqa lochida holatlar
Quruqlik hujum holatlarida asirga tushganlar masala- lariga oid qonunning 8-moddasi 1-qismiga mono- faq yuqoridagi ma'lumotlar aniqlash kerak Yil oy kun	
_____ Yaponiya Mudofaa quvvatlari, ko'rsatilgan bo'lim komandiri	Jazoni amalga oshiruvchi
Shaxsni aniqlovchi raqam: _____	Shaxsni aniqlovchi raqam: _____

Yaponiyaning Qurolli hujum holatlarida asirga tushganlar masalalariga oid qonuni ijrosiga oid reglamentning Asirlarni ushlab turish hisoboti (2005 yilda Mudofaa vazirligining 6-sonli qarori). Urush frontida qo'liga tushgan asirlar bo'yicha shunday hisobot yuritilib, Qurolli hujum holatlarida asirga tushganlar masalalariga oid qonuniga ko'ra asirlarni ushlab turish masalasi hal etiladi.

qiy ishtirokchilarini fuqaro shaxs bilan chalkashtirib yuborish tufayli fuqaro shaxsni otib qo'yish xavfining yuqoriligi vujudga kelganligi uchun yuqoridagi o'zgarish tanqid ostiga olingan.

(3) Fuqaro aholi

Xalqaro qurolli mojarolarning tarablari bo'lgan shaxslar kombatantlar

va fuqaro aholiga ajratilib, fuqaro aholi kombatantlardan boshqa barchani o'z ichiga oladi. Fuqaro aholining hayoti, jismi, mulki, sha'ni va qadr-qimmatini, albatta, himoya ostiga olinishi lozim. fuqaro aholi dushmanga qarshi harakatlarda bevosita qatnashayotgan paytdan boshqa barcha hollarda dushman tarafning harbiy nizolardagi hujumlaridan ham muhofaza qilindi. Fuqaro aholi mana shunday keng ko'lamdagi himoyadan foydalanishi odat huquqida o'z tasdig'ini topgan bo'lsa, xalqaro shartnomalarda esa, dushman tarafning hokimiyati ostiga tushib qolgan aholining himoyasi borasidagi qoidalar belgilab qo'yilgan.

Dushman tarafning hokimiyati ostiga tushib qolgan aholi deganda qurolli mojarolar boshlangandan keyin ham o'sha davlatning hududida yashab qolgan va nizolashuvchi tarablardan birining aholisi yoki **bosib olingan hudud aholisi** tushuniladi. Dushman tomonidan egallangan hududlar aholisi xo'rlanmasligi va ularga insoniy munosabatda bo'linishi uchun Ikkinchi jahon urushidan keyin (1949-yil) **fuqaro aholini himoya qilish to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi** qabul qilindi.

Bundan tashqari, bir tarafning hujumlaridan fuqaro aholini himoya qilish masalasi ham mavjud. Ya'ni boshqa tomon harbiy hujumlarni uyushtirganda uning hujumlaridan fuqaro aholini himoya qilinishidir. Bunda faqatgina aholining o'zigina emas, balki harbiy mo'ljalga nisbatan qilinadigan hujum natijasida aholiga aloqador bo'lgan zarar miqdorining haddan tashqari

Urush davri psixologiyasi

Qurolli mojarolar davrida dushmanlik kayfiyati bilan yo'g'rilgan keskin harakatlarning guvohi bo'lishimiz mumkin. Ikkinchi jahon urushi davomida hujumga o'tishdan avval AQSh qo'shinlari ichida bombardimon samolyotlarini boshqargan uchuvchi askarlar tomonidan «TO THE WARLORDS OF JAPAN, WE HAVE NOT FORGOTTEN AND B-29s WILL REMIND YOU AGAIN AND AGAIN AND AGAIN» (Yaponiyaning urush lordlariga shuni aytamizki, biz unutmadik va B-29 samolyotlari buni sizga qayta, qayta va yana qayta eslatib turadi) degan yozuvni Yaponiyaga tashladigan bombalarga yozib qoldirish holatlari tez-tez uchrab turgan.

katta miqdorni tashkil etishi ham taqiqlanadi. Hujumdan himoya qilish masalasi biroz kechikib bo'lsa ham Jeneva konvensiyalarining birinchi qo'shimcha protokolida aniq tartibga solib qo'yildi.

Ichki qurolli mojarolarda ham tez-tez fuqaro aholi degan so'z ishlatib turiladi. Ammo xalqaro qurolli mojarolardagi kombatantlar ichki qurolli mojarolarda mavjud bo'lmagani sababli, o'z-o'zidan fuqaro aholini ulardan ajratish tushunchasi ham mavjud bo'lmaydi. Mahalliy qurolli mojarolarda shaxslar asosan ichki qonunchilik va aloqador bo'lgan inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar bilan himoya qilinadi. Qurolli mojarolar huquqining qoidalari sifatida Jeneva konvensiyalarining umumiy 3-moddalari va ikkinchi qo'shimcha protokoli dushmanga qarshi harakatlarda qatnashmaydigan shaxslarni himoya qiladi. Ammo ular xalqaro qurolli mojarolarga nisbatan qo'llaniladigan qoidalardan ko'ra bir-muncha sodda qoidalar sifatida e'tirof etiladi.

5 Qurolli mojarolar huquqini hurmat qilish

(1) Urush davrida qasos olish

Boshqa xalqaro huquq sohalari kabi qurolli mojarolar huquqida ham majburiyatlarni hurmat qilish va ularga amal qilish, asosan, taraflarning o'zlariga bog'liqdir. Qarshi tarafning xalqaro huquqqa zid xatti-harakatlari xalqaro huquqiy javobgarlikni yuzaga keltirib chiqaradi. Bunda jabrlangan tomon yetkazilgan zararni qoplashni talab qilib chiqsa va ushbu talabga mos keladigan javobni olmasa, qarshi javob harakatlarni amalga oshirishi mumkin. Qurolli mojarolar huquqida majburiyatlarni ta'minlash vositasi sifatida **urush davrida qasos olish** juda ham muhim hisoblanadi. Urush davrida qasos olish deganda dushman taraf tomonidan xalqaro huquqqa zid bo'lgan xatti-harakatlar amalga oshirilganda, uning o'ziga ham xuddi shunday xalqaro huquqqa zid xatti-harakatlarni sodir etgan holda javob qaytarish tushuniladi. Bu orqali narigi tomonga zarar yetkazilib, uning huquqini hurmat qilishi ta'minlanadi.

Boshqa tomondan qurolli mojarolarda ruhiy holatni haddan tashqari boshqarish qiyin bo'lgani sababli, qasos olingan davlat qasos olgan davlatning o'zidan yana qasos olib, zanjir yuz berishi ham mumkin. Bundan tashqari, dushman tomonning xalqaro huquqqa dastlabki zid xatti-harakatlari boshqa tomonning tinch aholisiga qarshi qaratilgan bo'lsa, boshqa tomon ham qasos olish uchun dushman tomonning aholisiga qarshi yo'nalishi mum-

Uchinchi tarafklar tomonidan majburiyatlar bajarilishining ta'minlanishi

Qurolli mojarolardagi tarafdardan tashqari uchinchi shaxslar tomonidan majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash o'rtadagi vositachi davlat orqali yoki jismoniy shaxslardan tashkil etiladigan xalqaro komissiyaning amaliy tekshiruvlar tizimi orqali amalga oshirilishi mumkin. Lekin ularning hech biri samarali faoliyat ko'rsatmayapti. Jeneva konvensiyalariga birinchi qo'shimcha protokolning 90-moddasiga ko'ra, Xalqaro gumanitar faktlarni izlab topish komissiyasi (IHFFC) 1992-yilda tashkil etilgan bo'lsa-da, amalda faktlarni topish bo'yicha deyarli hech qanday ishlar bajarilayotgani yo'q.



IHFFC.ORG

(Manba: IHFFC)

kin. Natijada ikki tomonning hujumlari natijasida hech qanday aybi bo'lmagan tinch aholi zarar ko'rishidek noratsional holat yuzaga keladi. Shu sababli Jeneva konvensiyalari va birinchi qo'shimcha protokol mazkur xalqaro shartnomalar himoya ostiga oladigan obyektlarga nisbatan urush davridagi qasos olish odatini qo'llashni taqiqlaydi. Lekin urush davridagi qasos olishda qarshi tarafning xalqaro huquqqa zid bo'lgan xatti-harakatlarini muntazam ravishda davom etishini to'xtatuvchi tezkor samaradorlik bor deb hisoblanadi. Shuning uchun boshqa yo'llar mavjud bo'lmagan hollarda urush

davrida qasos olish huquqidan foydalanish bo'yicha qo'shimcha shart kiritgan davlatlarning soni ham kam emas.

(2) Urush jinoyati va unga qarshi jazo choralari

Urush jinoyati deganda qurolli mojarolar huquqiga zid xatti-harakatlar natijasida jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaruvchi qilmish tushuniladi. Harbiy nizolarning tarafdari bo'lgan davlatlar o'zlarining jinoiy qonunchiliklariga asoslanib, o'zlarining yoki dushman tarafning ofitserlari va askarlarini jinoiy javobgarlikka tortishi tabiiy holdir. Ammo ba'zida urush jinoyatlari nizo tarafdari o'ziga zarar berib qolmay, balki dunyo davlatlarining umumiy manfaatlarini va xalqaro hamjamiyatning huquqiy manfaatlariga ham zarar yetkazishi mumkin deya qaraladigan holatlar ham mavjud. Jeneva konvensiyalari va birinchi qo'shimcha protokolda **og'ir qilmishlar**, ya'ni ushbu xalqaro shartnomalar bilan himoya qilingan inson va obyektlarni yaralash, o'ldirish yoki yo'q qilish harakatlari jinoiy qilmish sifatida e'tirof etiladi. Ushbu jinoyatlarga nisbatan qurolli mojarolar qatnashchisi bo'lmagan davlatlar tomonidan ham jazo tayinlanishi mumkin.

Bundan tashqari, xalqaro hamjamiyatning qiziqish doirasida bo'lgan urush jinoyatiga qo'shimcha tarzda **genotsid jinoyati, insoniyatga qarshi jinoyatlar** va **agressiya jinoyatlariga** nisbatan jazo tayinlovchi Xalqaro jinoyat sudi mavjud. Ushbu sud 1990-yillardan keyin tashkil etilgan.

Alabama ishi (→ Keysbuk 5)

AQShdagi Shimol va Janub o'rtasida bo'lib o'tgan fuqarolik urushi davrida Janubiy shtatlar konfederatsiyasi (Janubiy qo'shinlar) Angliyaning xususiy kemachilik shirkatiga Alabama harbiy kemasini qurish buyurtmasini beradi. AQSh federal hukumati (Shimoliy qo'shinlar) Angliya hukumatidan ushbu harbiy kemani Janub qo'shinlariga topshirmaslikni talab etsa-da, Alabama harbiy kemasi yashirincha portdan chiqib ketadi. Shundan keyin ushbu harbiy kema savdo kemalariga hujum qilishda katta rol o'ynagan. Bu kema keyinroq 1864-yilda Shimol qo'shinlariga tegishli Kirsarj harbiy kemasi tomonidan Fransiya qirg'oqlari yaqinida cho'ktirib yuboriladi.

Urushdan so'ng Alabama kemasining portdan chiqib ketishini to'xtatib qololmagan Angliyani javobgarlikka tortish bo'yicha AQSh talab bilan chiqadi. Shundan so'ng ishni hakamlik sudiga topshirish masalasi 1871-yilda Angliya va AQSh o'rtasidagi Vashington bitimida kelishiladi. Jeneva shahrida o'tkazilgan hakamlik (arbitraj) sudi Angliyaning betaraflik majburiyatini bajar-maganligini ta'kidlab, 1872-yilda kompensatsiya to'lash to'g'risidagi qarorni qabul qiladi. Chunki Shimol-Janub o'rtasidagi urush mobaynida har-



(Manba: Library of Congress)

biy kemaning Janub qo'shiniga tegishli ekanligini bilgani uchun ham Angliyadan betaraflik majburiyatiga amal qilish talab etilar edi. Ushbu qaror Vashington uch qoidasi sifatida betaraflik huquqining mazmunini aniqlashtirgani uchun ham yuqori baholanadi. Shuningdek, bunday muhim nizoning hakamlik sudi orqali hal etilishi va hakamlik sudining xalqaro huquqqa asoslanib qaror chiqarganligi xalqaro sudlar rivoji nuqtayi nazaridan muhim hisoblanadi.

Buning orqasida davlatlar tomonidan urush jinoyatlariga nisbatan jazo choralarini ko'rilishining maqtovgga sazovor holatda emasligi, o'z fuqarolarini himoya qilish holatlari ham ko'p uchrashi sababli xalqaro darajada bunday jinoyatlariga jazo tayinlovchi sudga ehtiyoj sezilgan (→**Chapter 9**).

6 Betaraflik (neytralitet) huquqi

(1) Betaraflik tushunchasi va betaraflik majburiyati

Qurolli mojarolarning mavjudligi uning qatnashchilari bo'lgan davlatlarga ham, qatnashchisi bo'lmagan davlatlarga ham ta'sir etmay qolmaydi. Kuch ishlatmaslik tamoyili o'rnatilishidan avval xalqaro darajadagi urushlar yuzaga kelganda urushda o'z armiyasi bilan qatnash-

mayotgan uchinchi davlatlar urushda qatnashayotgan davlatlarga nisbatan o'z-o'zidan bir xilda betaraflikka ega bo'lgan. Mana shu kabi nizolashayotgan davlatlar va betaraf davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqqa **betaraflik huquqi** deyiladi.

Betaraf davlat urushda qatnashayotgan barcha davlatlar bilan aloqalarda sukut saqlash, to'sqinlik qilish hamda aralashmaslik kabi uchta majburiyatdan iborat bo'lgan **betaraflik majburiyatiga** amal qilishi lozim. **Sukut saqlash** majburiyati deganda nizolashayotgan davlatlar betaraf davlatga nisbatan qandaydir zarar yetkazsa ham bu qurolli mojarolar huquqi va betaraflik huquqi doirasida amalga oshirilsa, hech qanday e'tiroz

bildirmaslik va sukut saqlash majburiyati tushuniladi. **To'sqinlik qilish** majburiyati betaraf davlatning hududi nizolashayotgan davlatlar tomonidan urush maqsadida foydalanilishiga to'sqinlik qilishni anglatadi. **Aralashmaslik majburiyati** esa betaraf davlat nizolashayotgan davlatlarni qo'llab-quvvatlamaslik shart ekanini uqtiradi. O'ziga hujum qilinayotgan holatdan boshqa barcha vaziyatlarda hech qanday nizolarga aralashmay betarafliyini saqlaydigan va xalqaro shartnomalarda o'z betarafliyini e'lon qilgan mamlakat esa, **abadiy betaraf davlat** sifatida e'tirof etiladi.

(2) Zamonaviy davrda qurolli mojaralarda qatnashmayotgan davlatlarning maqomi

Kuch ishlatmaslik tamoyili to'la-ligicha qaror topsa urushni huquqiy jihatdan amalga oshirish mumkin deb hisoblovchi betaraflik huquqi o'z-o'zidan yo'qoladi. Ya'ni kuch ishlatmaslik tamoyilining buzilishi hech bo'lmaganda bir tarafning xalqaro huquqqa zid harakat sodir etganini anglatadi. Shu sababli bu kabi xalqaro huquqni buzayotgan davlat va o'zini himoya qilish huquqidan foydalana-yotgan davlatga teng munosabatda bo'lishning o'zi murakkab. Shuning-dek, Xavfsizlik Kengashi bir tomonni tinchlikka xavf solayotgan va agressiv davlat sifatida ko'rsatadigan holatlarda ham mana shunday vaziyatni kuzatish mumkin.

Bundan tashqari, boshqa davlatlar o'rtasida yuz berayotgan qurolli nizolarga aralashmaslik ko'plab hol-

larda ma'qul ko'riladi. Bu Xavfsizlik Kengashi tomonidan tinchlikka xavf soluvchi va agressiv harakatlar bora-sidagi holatlarning tan olinishining deyarli yuz bermayotganida ham o'z tasdig'ini topadi. Huquqiy jihatdan bugungi davrda ham uchinchi davlatlar tomonidan harbiy nizolarda qatnashmaslik va betaraflik huquqidan foydalanish mumkin. Bundan tashqari, o'z armiyasini kiritish bilan qurolli mojaroning qatnashchisiga aylanmay, betaraflik maqomini tanlamasdan bir tomonni qo'llab-quvvatlayotgan davlatlar ham mavjud. Bunday davlatlar **urushga bevosita aloqador bo'lmagan davlatlar** deb ataladi. Bu kabi davlatlarning maqomi esa xalqaro huquqda hozircha ochiqliciga qolib ketmoqda.

7. Qurolsizlanish huquqi

(1) Qurolli mojarolar huquqi va qurolsizlanish huquqi

Qurolli mojarolar huquqi qurollar borasida cheklovlarni belgilaydi. Ammo bu ulardan foydalaniladigan vaziyatlar bilan cheklanadi. Bunda qoida tariqasida ma'lum bir qurollarni saqlash haqida hech qanday cheklov mavjud emas. Bu degani qurolli mojarolar huquqi shunday nizolar yuzaga kelgandagina qo'llanilishini va qurollarni saqlab turish bilan bog'liq tinchlik davridagi muammolarga nisbatan aralashmasligini anglatadi. Shuning-dek, qurolli mojarolar huquqi urush davrida qasos olishga ruxsat beradi. Aynan mana shunday paytda xalqaro huquqda qo'llanilishi taqiqlangan qurollarga ega bo'linmasa, ular dushman

tomonidan qo'llanilganida dushmanga nisbatan shunday qurollar bilan javob chora ko'rilishiga ruxsat beriladi. Bu shuni anglatadiki, mana shunday turdagi qurollar tinchlik davrida saqlab turilmasa, qurolli mojarolar chiqqan paytda dushman tarafni xalqaro huquqiy qoidalarga bo'ysundirish qiyin kechadi. Shuning uchun 1925-yil Zaharli gazlar to'g'risidagi protokol kabi bnday qurollardan foydalanishni taqiqlasa-da, ularni saqlashga nisbatan hech qanday normaga ega bo'lmagan xalqaro shartnomalar ham mavjud.

Lekin oldindan qurollarning sifati va saqlash miqdori tartibga solib qo'yilsa, qurolli mojarolar yuz bergan paytda undan jabr chekishi mumkin bo'lganlarning sonini qisqartirishga erishilishi mumkin. Shuningdek, tinchlik davrida taraflar o'rtasidagi keskinlikning yumshashi va tinch yo'llar bilan nizolarni hal etishga erishilishida ham foydasi tegishi aniq. Aynan mana shuning uchun qurollarni saqlashni cheklash borasidagi xalqaro shartnomalar tuzib kelingan.

(2) Qurolsizlanish va qurol-aslahalar ustidan nazorat

Qurollarni saqlashga nisbatan cheklovlarni o'rnatish bo'yicha tartibga solish ishlarini asta-sekinlik bilan amalga oshirib, yakunda ma'lum bir turdagi qurollarni butunlay yo'q qilishni ko'zlovchi qarash mavjud. Shu bilan birgalikda, qurollarni saqlashni o'zaro cheklagan holda aloqador mamlakatlarda o'rtasidagi munosabatlarni turg'un holatga keltirishni ko'zlovchi ikkinchi qarash ham mavjud. Birinchisi **qurol-**

sizlanish (disarmement) deb atalsa, ikkinchisi **qurol-aslahalar ustidan nazorat** (arms control) deb ataladi.

Qurolsizlanish ortida, qurollarsiz urush qilib bo'lmasligi tufayli, mojarolarni tinch yo'llar bilan hal etgan holda, tinchlikni saqlashda esa BMTning jamoaviy xavfsizlikni saqlash tizimiga tayanish yetarli bo'lib, mana shunday paytda ma'lum bir davlatning qurollarga ega bo'lib olishi xavfni yuzaga keltiradi degan g'oya mujassam. Qurol-aslahalar ustidan nazorat ortida esa yuzaga keladigan nizoning sababi har doim ham qurollarni saqlab turib bo'lmaydi degan g'oya yotadi. Batafsilroq aytganda, ko'p sonli mamlakatlar o'rtasidagi xavfsizlikni ta'minlash tizimi ham mukammal darajada bo'lmagani uchun qurollarni saqlashni cheklash bilan bog'liq vaziyatlarda qurolli kuchlarni muvozanatda saqlashni ta'minlash va tekshirish tizimini joriy etish kabi xavfsizlikni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim degan qarashga asoslanadi. Lekin ikki qarash o'rtasidagi farqlar nisbiy bo'lib, ularni to'liq ikkiga ajratish mumkin emas.

(3) Ommaviy qirg'in qurollari

Qurolsizlanish sohasida yadro qurollari katta ko'lamda talafot yetkazuvchi qurollar sifatida alohida e'tibor markazida bo'lgan (14-8) (14-9). Yadro qurollari borasida bir-birini tiyib turishni cheklash strategiyasiga ko'ra, yadro qurollarini saqlash zarur bo'lsa-da, ularni saqlashni cheklash va boshqa davlatlarga keng yoyilib ketishining oldini olish ham muhim sanaladi.



Bu 1945-yil avgustda Xiroshimaga Amerikaning og'ir bombardimonchi samolyoti B-29 tashlagan atom bombasi portlashidan 5 daqiqa keyingi tasvir. Portlash ekvivalenti 10 kilotondan 20 kilotongacha bo'lgan yadroviy bomba o'rtacha kattalikdagi shaharni butunlay vayron qilishi mumkin.

(Kredit: AQSh armiyasi;

Manba: Hiroshima tinchlik yodgorlik muzeyi)




Sovet yengil bombardimonchi samolyoti va uning bortidagi yadroviy bomba. Faqat yirik samolyotlarga joylashtirilishi mumkin bo'lgan yadroviy bombalar keyinchalik kichraytirilishi natijasida, 1950-yillarga kelib katta talafot yetkazuvchi bombalar suratdagi kabi taktik samolyotlarda tashilishi mumkin bo'lib qoldi. Suratdagi yadroviy bombaning og'irligi 1,2 tonnani tashkil etsa-da, u Xiroshima tipidagi atom bombasidan qariyb ikki baravar kuchli, ya'ni portlash ekvivalenti 30 kiloton.

(Manba: Rosinformbyuro)

Yadro qurolining haqiqiy kuchi uni ishlatib ko'rgandan keyin ma'lum bo'ladi. Shu sababli 1963-yilda **«Atmosfera, kosmik fazo va suv ostida yadroviy qurol sinovlarini taqiqlash to'g'risida»gi Shartnoma** qabul qilinib, **atmosfera ichida** yadro qurollarini sinovdan o'tkazish taqiqlandi. Lekin Xitoy va Fransiya bunga qo'shilmadilar. Yer ostida yadro qurollarini sinovdan o'tkazishni cheklash bo'yicha esa AQSh va Sovet Ittifoqi o'rtasida muzokaralar olib borildi. 1996-yilda **«Keng ko'lamda yadro qurollarini sinovdan o'tkazishni taqiqlash to'g'risida»gi Shartnoma** qabul qilindi. Ammo ushbu konvensiya kuchga kirishi uchun yadro quroliga ega bo'lgan davlatlar bilan birgalikda, yadro qurolini yaratish salohiyatiga ega bo'lgan mamlakatlar tomonidan amalga oshiriladigan ratifikatsiya talab etiladi.

Yadro qurollari borasida AQSh va Sovet Ittifoqi o'rtasida **strategik qurollarni cheklash muzokaralari** kabi jangovar kallak va yadro qurollarini manzillarga yetkazuvchi vositalarni cheklash bo'yicha pakt qabul qilish masalasi ham ko'tarilgan. Shuningdek, yadro qurollariga ega bo'lgan yangi mamlakatlarning paydo bo'lmasligi uchun 1968-yilda **«Yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risida»gi Shartnoma** tuzilgan. Ushbu konvensiyaga ko'ra, yadro quroliga ega bo'lgan mamlakatlar yadro qurollarini boshqa mamlakatlarga tarqatmaslik majburiyatini oldilar. Yadro quroliga ega bo'lmagan mamlakatlar esa yadro qurolini ishlab chiqara olmaydigan bo'ldi. Shu bilan birga, ular Xalqaro atom energiyasi agentligi (IAEA) tomonidan tekshiruvdan o'tkazib turiladi. Fransiya va Xitoy

Strategik yadro qurollari asosan qit'alararo ballistik raketalar (ISBM) va suv osti bombardimonchilari bilan ta'minlangan raketalar (SLBM). Suratda fransuz suv osti kemasi Le Terrible tomonidan dengizdan uchirilgan M51 deb nomlangan SLBM raketasi ko'rsatilgan (2010-yil iyul oyida suratga olingan). Ko'pgina SLBM raketalar siqilgan havo bilan dengiz yuzasiga uchadi, u yerda raketa dvigatellari yonadi. Amerika, Rossiya va Britaniyaning SLBMLari singari, fransuz M51 ham 10 tagacha yadroviy bomba bilan jihozlangan va tanlangan yer nishonlariga qaratilishi mumkin. Birinchi yadroviy zarbadan omon qolish ehtimoli yuqori bo'lgan SLBMLar ham yadroviy o'ch olish uchun ishlatiladi. Ikkinchi zarba birinchi hujum huquqqa xilof bo'lgan hollarda beriladi. Qurolli mojarolar huquqiga ko'ra bu urush davridagi qasos olishga to'g'ri keladi.



(Manba: AP/Afloimages)

ham keyinchalik ushbu xalqaro shartnomaga a'zo bo'ldi. 1995-yilga kelib esa, ushbu konvensiyaning muddatsiz amal qilishi belgilandi.

Yadro qurollarini o'rnatishni geografik jihatdan cheklovchi xalqaro shartnomalar ham mavjud. **Antarktika to'g'risidagi shartnoma, Ochiq fazo to'g'risidagi Shartnoma, Dengiz tubini yadro qurollardan holi etish to'g'risidagi Shartnoma** kabilar tomonidan yadro quollarini ma'lum hududlarda o'rnatish taqiqlanadi. Bundan tashqari, Lotin Amerikasi, Janubiy Tinch okeani mintaqasi, Janubiy-sharqiy Osiyo va Markaziy Osiyoda yuqoridagi kabi xalqaro shartnomalar mintaqaviy miqyosda tuzilgan. So'nggi yillarda terroristlar ommaviy qirg'in quollariga ega bo'lishi bilan bog'liq masala ko'pchilikni xavotirga solmoqda. Mazkur masala yuzasidan **Xavfsizlik Kengashining 1540-son (2004-yil) rezolyutsiyasi** qabul qilinib, har bir mamlakatdan o'z hududida kerakli choralarni amalga oshirishi talab etilgan.

Yadro qurollari bo'yicha yuqoridagi kabi qurolsizlanish va ularni o'rnatishni tartibga soluvchi bir qancha xalqaro shartnomalar mavjud. Shulardan kelib chiqqan holda, 1996-yilda Xalqaro adolat sudi **Yadroviy qurollarning xalqaro huquqqa muvofiqligi masalasi borasidagi tavsiyaviy xulosasida** butunlay yadroviy qurolsizlanishni muhokama qilishnigina emas, balki u bo'yicha yakuniy kelishuvga erishish majburiyati mavjud ekanini ta'kidlab, ko'pchilikning e'tiboriga tushdi. 2014-yilda Marshal orollari yadro quollarini tarqatmaslik to'g'risidagi konvensiya va xalqaro odat huquqiga asoslangan holda yadro quollaridan voz kechish majburiyati mavjud ekanini ta'kidlab, yadro quollariga ega bo'lgan mamlakatlar ushbu qoidalarni buzayotganini aytib Xalqaro adolat sudiga murojaat qilgan edi.

Bakteriologik qurollar bo'yicha 1972-yilda **Bakteriologik (biologik) va zaharli qurol-yarog'larni ishlab chiqish, tayyorlash va to'plashni**

man etish hamda ularni tugatish to'g'risidagi Konvensiya bu kabi qurollarni ishlab chiqishni ham taqiqlaydi. Kimyoviy qurollar esa 1993-yildagi «**Kimyoviy qurollarni yaratish, ishlab chiqish, zaxiraga to'plashni va qo'llashni taqiqlash hamda uni yo'q qilish to'g'risida**»gi konvensiyaga asosan ularni ishlatishga qo'shimcha tarzda qurolsizlanish chorasi sifatida ishlab chiqarilishidan tortib saqlab turishgacha bo'lgan barcha jarayonlar taqiqlanadi. Agarda kimyoviy qurollar mavjud bo'lsa ularni yo'q qilish va ular bo'yicha tekshirishlar o'tkazilishi belgilanadi.

(4) Oddiy qurollar

Yadroviy, bakteriologik va kimyoviy qurollar kabi ommaviy qirg'in qurollaridan tashqari barcha qurollar oddiy qurollar deb ataladi. Yadroviy qurollar kashf etilishidan avvalgi davrlarda ham strategik maqsadlarda tashkil etilgan dengiz qurolli kuchlarini cheklash bilan bog'liq ishlar amalga oshirilgan. Ikki jahon urushlari orasidagi davrda Vashington va London tomonidan qabul qilingan **Dengiz kuchlarini qurolsizlantirish to'g'risidagi konvensiya** (1922-yil, 1930-yil) shular jumlasidanidir. Shuningdek, dengiz ustida olib boriladigan savdoga tahdid soluvchi suvosti kemalari ham zaharli gazlar bilan bir qatorda, insoniylikka zid qurollar sifatida qaralib, ularni butunlay yo'q qilish haqidagi xalqaro shartnoma tuzish borasida ham tashabbuslar bo'lgan. Ammo amalga oshmay qolgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyin yadroviy qurolsizlanish asosiy ma-

salaga aylangan bo'lsa-da, oddiy qurollarni qisqartirish masalasi ham Sovuq urushdan keyin Yevropa mamlakatlarida ko'zga tashlana boshladi. 1990-yilda **Yevropa oddiy qurolli kuchlar to'g'risidagi konvensiyasi** qabul qilindi. Lekin oddiy qurollarni qisqartirish haqidagi boshqa xalqaro shartnoma mavjud emas. Shu bilan birga, insoniylikka zid bo'lgani sababli foydalanilishi taqiqlanadigan oddiy qurollarni bir vaqtning o'zida saqlashni ham taqiqlovchi 1997-yilda qabul qilingan Insonga qarshi qaratilgan minalarni taqiqlash to'g'risidagi konvensiya va 2008-yilda qabul qilingan Klasterli o'q-dorilar to'g'risidagi konvensiyalar mavjud, xolos. 2013-yilda **Qurollar savdosi to'g'risidagi konvensiya** qabul qilindi. Ammo ushbu konvensiya oddiy qurollarni noqonuniy oldisotdi qilishning oldini olish masalasiga asosiy e'tiborni qaratib, davlatlar o'z armiyalari uchun oladigan oddiy qurollarning saqlanishi yoki import-eksport qilinishini tartibga solmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Masayuki Takemoto, «Xalqaro gumanitar huquqni qayta ko'rib chiqish va uning rivojlanishi». – Toshindo nashriyoti, 1996-yil.
2. Hisakazu Fujita, «Xalqaro gumanitar huquq (to'ldirilgan yangi nashr)». – Yushindo Kobunsha nashriyoti, 2003-yil.
3. Shinya Murase va Mayama Akira tahriri, «Qurolli mojarolarga oid xalqaro huquq». – Toshindo nashriyoti, 2004-yil.

Suratlar ro'yxati:

- C-1** Chor Rossiyasining harbiy kemasi Diana (Surat: Fujisan Kaguyahime muzeyi)
- C-2** Nansen vizasi (passport) (Surat: Alamy/PPS xabarlari)
- C-3** Gent shartnomasining imzolanishi (Surat: Bridgeman/PPS xabarlari)
- C-4** Germaniyadagi Falzgrafenstein qasri (Surat: Alamy/PPS xabarlari)
- C-5** Birinchi jahon urushi boshlanishi arafasidagi (1914) mustamlakalar xaritasi
- C-6** Qochoqlar himoyasi (Surat: AP/Afloimages)
- C-7** Marvarid ko'rfazida hujumga uchrab yonayotgan AQSh harbiy kemalari (Pyorl Harbor) (Surat: Bridgeman/PPS xabarlari)
- C-8** Fors ko'rfazi urushi (Surat: Alamy/PPS xabarlari)
- C-9** Qizil xoch timsoli va boshqa himoyalovchi belgilar → Chapter 14 (1)
- C-10** Ozon qatlami (Surat: NASA)
- C-11** Dunyodagi energiya manbasi hisoblangan CO² chiqarilish hajmi (2013-yil)
- C-12** Soyuzning uchirilishi (Surat: NASA/Bill Ingalls)
- C-13** Sektor nazariyasiga asoslanib Antarktikaga nisbatan hududiy suverenitetni da'vo qilish
- C-14** Afrikadagi mintaqaviy iqtisodiy tuzilmalar (RECs)
- C-15** Yevro valyutasi va uning joriy etilishidan avvalgi Yevropa davlatlari pul birliklari (Surat: Bridgeman/PPS xabarlari)
- C-16** Qora kemalarning Yaponiyaga kelishi (Surat: Yokohama arxivlari tarixi muzeyi tomonidan taqdim etildi)
- C-17** Prezident Obamaning Hiroshimaga tashrifi (Surat: AP/Afloimages)
- C-18** Xalqaro adolat sudining majlislar zali (Surat: UN Photo/ICJ-CIJ)
- C-19** Hayot vizasi (Surat: Chiune Sugihara xotira zali tomonidan taqdim etildi)
- O-1** Global networkning bir a'zosi sifatida
- O-2** Chaddagi qochoqlar lagerida tibbiy yordam ko'rsatilayotgan sudanlik bolakay
- O-3** Yaponiya-Avstraliya davlat rahbarlarining yig'ini
- O-4** Shimoliy Koreyaning yadroviy qurolni sinovdan o'tkazishini tanqid qilgan holda, unga nisbatan BMT Xavfsizlik Kengashida yangi sanksiyalar qo'llanmoqda (2016-yil, noyabr)
- O-5** Yaponiya-Kosovo siyosiy rahbarlari uchrashuvi (2012-yil, iyun)
- O-6** Shimoliy hududlarning kengligi
- O-7** Sharqiy Xitoy dengizidagi tabiiy resurslarni qazib olish masalasi
- O-8** Fukushima Birinchi atom reaktorini tekshiruvchi Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (IAEA) tekshiruv guruhi (2011-yil, 5-may)

- 0-9** 2015-yili «Yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risida»gi shartnoma (NPT: Nuclear Nonproliferation Treaty)ni qayta ko'rib chiqish majlisida tashqi ishlar vaziri janob Kishida nutq so'zlayapti
- 0-10** Ruzvelt xonim Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini ko'zdan kechirmoqda (1949-yil, noyabr)
- 0-11** Nafrat qo'zg'atuvchi so'zlarga (hate speech) oid qonun loyihasi Yaponiya parlamenti yuqori palatasi tasdig'idan o'tdi (2016-yil, may)
- 0-12** Sudan prezidenti Omar al-Bashirni Xalqaro jinoyat sudi (ICC) tomonidan qo'lga olish orderi chiqarilgan (2019-yil, 22-fevral)
- 0-13** «Cool-biz» sharoitidagi hayot tarzi
- 0-14** AQShda yuz bergan 11-sentabr voqealaridan keyin Afg'onistondagi AQSh dengiz qo'shinlari tomonidan Tolibon kuchlariga qarshi boshlangan harbiy amaliyot (2009-yil, iyul)
- 0-15** Tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash to'g'risidagi qonunni ko'rib chiqayotgan Yaponiya parlamentining Yuqori (Maslahatchilar) palatasi (2015-yil, iyul)
- 0-16** Janubiy Sudanda BMTning tinchlik koprusi tarkibida tinchlikni saqlash faoliyatida (PKO: Peacekeeping Operation) qatnashayotgan Yaponiya mudofaa qo'shinlari (2015-yil)
- 0-17** Atom bombasi tushganidan biroz keyingi Hiroshima shahri (1954-yil)
- 1-1** «Yirtqichlar yodgorligi»
- 1-2** Vestfaliya sulhining tuzilishi (1648-yil)
- 1-3** Hugo Grotius (1583-1645)
- 1-4** Emmerix de Vattel «Xalqlar huquqi» (dastlabki nashr, 1758-yil)
- 1-5** Buyuk geografik kashfiyotlarning xronologiyasi
- 1-6** Papaning meridian chizig'i va Tordesillas bitimidan keyingi qayta taqsimlash
- 1-7** Salamanka universitetidagi Vitorianing haykali
- 1-8** Vissering ma'ruzalari, Nishiamane tarjimai «Xalqlar ommaviy huquqi»
- 1-9** BMT a'zolari sonining o'sib borishi
- 2-1** Shliffen rejasi
- 2-2** Birinchi Jahon urushidagi Germaniya rahbarlari
- 2-3** Ikkinchi Jahon urushining bahonasi bo'lgan Sudeten viloyati
- 2-4** Namoyish chog'ida Nevil Chamberlen o'z xalqiga Myunxenda Gitler bilan imzolagan kelishuvni ko'rsatmoqda
- 2-5** Yaponiya parlamenti majlislar zali
- 2-6** BMT majlislar zali
- 2-7** Xalqaro adolat sudi nizomi, 38-modda
- 2-8** Vena universitetidagi Hans Kelsenning byusti
- 2-9** Xalqaro huquqda «davlatlarning javobgarligi» bo'yicha qoidalarning asosiy mazumni
- 3-1** Iroq va Shom islom davlati (ISHID) tomonidan yakson qilingan Parmila yodgorligi.

3-2 Kosovoni davlat sifatida tan olgan va tan olmagan mamlakatlar xaritasi.

3-3 BMTning yangi a'zosi Janubiy Sudanning joylashuvi

3-4 Gruziya (Jorjiya/Georgiya) va Rossiya

3-5 Rossiya tomonidan Qrimning qo'shib olinishi bo'yicha 2014-yil 27-martda chiqarilgan BMT Bosh Assambleyasi qarori (68/262)

3-6 Davlat vorisligiga aloqador Yaponiyadagi elchixonalar

3-7 Dunyodagi eng katta 10 ta davlat

3-8 Yapon pasportlari.

4-1 Xalqaro shartnomalar nomlari va ularga misollar

4-2 Bosh vazir Shigeru Yoshida San-Fransisko shartnomasiga imzo chekmoqda (1951-yil)

4-3 Yaponiyada xalqaro shartnomalarni tuzish tartibi

4-4 Ivakura missiyasi va ishonch yorliqlari

4-5 BMT Nizomining asl nusxasidagi imzolar qo'yilgan sahifa

4-6 Parlament tomonidan tan olinadigan xalqaro shartnomalarga to'g'ri keladigan xalqaro kelishuvlarning 3 turi (1974-yil hukumat tomonidan bir ovozdan ma'qullangan)

4-7 Shartnoma ratifikatsiyasi

4-8 Yaponiyada xalqaro shartnomalarni e'lon qilish

4-9 Xalqaro sudning Genotsid to'g'risidagi xalqaro shartnomaga qo'shimcha shart kiritish bayonotiga

doir ish yuzasidan taqdim etgan tavsiyaviy xulosasi (1951)

4-10 Rasmiy tillarda bayon etilgan matnlarning o'zaro ma'no jihatdan farqlanish ehtimoli

4-11 Vena konvensiyasida belgilangan haqiqiy emas deb topish sabablari

Column – Yaponiya va Sovet Ittifoqi o'rtasida tuzilgan betaraflikka oid xalqaro shartnomaning amal qilish muddati hamda Sovet Ittifoqi tomonidan uning bir tomonlama bekor qilinishi

Column – Chiune Sugihara va «Hayot vizasi»

Column – Ekstrateritoriallik nazariyasi

4-12 Tehrondagi AQSh elchixonasi xodimlarining garovga olinishi (1979-yil, noyabr)

Column – Perudagi Yaponiya elchisi rezidensiyasining bosib olinishi

4-13 Diplomatik pochta (yuk)

Column – Diplomatik immunitetning suiiste'mol qilinishiga doir misol

Column – Ayatori ishi (1964-yil) – diplomatning yo'l harakati qoidalarini buzishi va fuqarolik sudi yurisdiksiyasidan ozod etilishi

4-14 Shenyangdagi Yaponiya Bosh konsulligiga yurtidan qochgan kishining kirib olinishi va uni olib chiqib ketilishi ishi (2002-yil). Shenyangdagi Yaponiya Bosh konsulligi

4-15 Kim Dae-Jung ishi

Column – Girard ishi (1957-yil Mae-bashi hududiy sudi qarori)

5-1 Koreya havo yo'llari samolyotining urib tushirilish ishi (1983-yil)

Column – Havo mudofaasining aniq-lashtirish zonasi (Air defense identification zone: ADIZ)

Column – Havo hududini buzish va unga qarshi mudofaa samolyotlarining favqulodda osmonga ko'tarilishi (scramble)

5-2 Ochiq osmon (Open Sky) muzokarasining rivojlanish holati (2013-yil 24-oktabr)

5-3 Nishinoshima oroli

5-4 Okinotorishima oroli

Column – Anklav hududlarni o'zaro almashtirish

5-5 Talveg qoidasi (Thalweg principle)

Column – Preah Vihear ibodatxonasi ishi (ICJ 1962-yil qarori)

Column – Kasikili/Sedudu oroli mojarosi (ICJ 1999-yil qarori)

Column – Ligitan va Sipadan orollari mojarosi (ICJ 2002-yil qarori)

5-6 Shimoliy hududlar muammo-sining tarixiy rivojlanishi

5-7 Yaponiya hududi bilan Shimoliy hududlar – Takeshima va Senkaku orollarining o'zaro joylashuvi

5-8 Yaponiyaning hududiy o'zgarish xronologiyasi

Column – Gabchikova-Nagimaros rejalashtirish nizosi (ICJ 1997-yil qarori)

5-9 Suvaysh kanalining kengaytirilishi

5-10 Panama kanali

5-11 Arktikadagi dengiz yo'lagi

5-12 Fazo shartnomasi va fazoga oid 4 bitim

5-13 Dunyodagi ilk sun'iy yo'ldosh Sputnik-1 (Sobiq Sovet Ittifoqi, 1957-yil)

Column – «Cosmos-954» hodisasi

5-14 Yer kurrasini aylanuvchi orbita va sun'iy yo'ldosh

5-15 Xalqaro fazo bazasi (Xalqaro fazo stansiyasi, ISS)

5-16 Fazoviy chiqindilar (Space Debris)

6-1 Dengiz huquqining qisqartirilgan xronologiyasi

6-2 BMTning Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyasiga ko'ra dengiz hududlarining bo'linishi

6-3 Ichki suvlar va hududiy dengizlarning chegara chizig'i

6-4 Norvegiya baliqchilik ishi (Xalqaro adolat sudi, 1951-yildagi qaror)

6-5 Noyadroviy uch tamoyil

6-6 Yaponiyaning to'g'ri chiziqlari va alohida suvli hududlar sifatida belgilangan 5 ta bo'g'oz

6-7 Dunyodagi asosiy bo'g'ozlar va ularning eng tor joylari

6-8 Filippin va Indoneziyaning arxipelag suvlari

6-9 Daigo Fukuryumaruning falokatga yo'liqqan Bikini marjonlar orolidagi gidrogen bombasi tajribasi (1954-yil 1-mart)

Column – Kyushu orolining janubi-g'arbiy suvli hududidagi shubhali kema ishi

6-10 Dunyoning turli nuqtalarida baliqchilikni boshqarish tashkilotlari

6-11 Chizikli tunets (katsuo) va ko'k tunalar (bluefin tuna) turlariga oid mintaqaviy baliqchilikni boshqarish tashkilotlari (RFMO)

6-12 Yaponiyaning mutlaq iqtisodiy zonasi xaritasi

6-13 Davlatlarning 200 millik Mutlaq iqtisodiy zonaları

6-14 Yaponiya va Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreya o'rtasidagi baliqchilik sanoati masalalariga oid xalqaro shartnomalar

6-15 Yaponiya va Tayvan o'rtasidagi baliqchilik sanoatini belgilash

6-16 Kontinental shelfdan tashqaridagi taraf doirasi

6-17 Shimoliy dengiz kontinental shelfi ishi

6-18 Liviya va Malta kontinental shelf ishi

6-19 Qora dengizdagi dengiz chegarasini belgilashga oid ish

6-20 Janubiy Xitoy dengizida Xitoyning 9 daraja chizig'i va dengizbo'yi davlatining 200 millik chizig'i

6-21 Ummondagi metallarga boy mineral resurslar

Column – Minami Torishimaning kobaltga boy qobig'ini izlab topish bo'yicha shartnoma

6-22 Ummonning chuqur tubi kon maydoni: Gavayining janubi-sharqiy qismidagi Klarion-Klipperton singan marganes tugunlari konini izlab topish

7-1 Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh shtabi (AQSH, Nyu-York)

7-2 Oldingi Millatlar Ligasi binosi (hozirgi kunda BMTning Yevropadagi shtabi, Jeneva shahri)

7-3 Faoliyati to'xtatilgan BMTning Vasiylik kengashi

7-4 BMTning Inson huquqlari kengashi (Jeneva, Shveysariya)

7-5 BMTga to'lanadigan odatdagi yillik badal bo'yicha davlatlar ulushi

7-6 BMTda har bir a'zo davlatdan «xodimlarning maqbul soni» (2015-yil 30-iyun holatiga)

7-7 Markaziy va Janubiy Amerika mintaqaviy birlashmalari

7-8 ASEAN bosh qarorgohi (Indoneziya, Jakarta)

7-9 Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkiloti(APEC)ga a'zo davlatlar

7-10 Osiyo – Tinch okeani hududida muhim xalqaro birlashmalar

7-11 Yevropadagi muhim davlatlar birlashmalari

8-1 Tug'ilish orqali fuqarolikni qo'lga kiritish va ko'p fuqarolikning to'qnashuvi (ko'p fuqarolik yoki fuqarosizlikning yuzaga kelishi)

Column – Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilish va Fuqarolikka oid qonunning o'zgarishi

8-2 Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 15-moddasi

Column – Adliya vazirligi Fuqarolik ishlari bo'yicha boshqarma boshlig'ining xabarnomasi (1952-yil 19-aprel)

8-3 Istiqomat qilmoqchi bo'lgan mintaqalar bo'yicha migrantlar sonining o'zgarishi

8-4 Qayiq insonlari (boat people)

8-5 Frityof Nansen

8-6 Iroq-Turkiya chegarasidagi kurd qochoqlari

8-7 Yaponiyada qochoqlar maqomini berish taomillari

8-8 Yaponiyadagi qochoqlar maqomiga ariza topshirgan insonlar, qanoatlantirilganlik soni va darajasi

8-9 Qochoqlarning sayohat qilish guvohnomasi

Column – Yaponiyaning universal davriy hisoboti

8-10 BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari

8-11 Universal inson huquqlari shartnomalari

8-12 Mintaqaviy inson huquqlari shartnomalari

8-13 Inson huquqlariga oid mintaqaviy shartnomalar

8-14 Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar o'rnatgan ijroni ta'minlash tizimi

Column – Nafrat nutqi (Hate speech) bo'yicha namoyish

Column – Tajima ishi

Column – Somali qaroqchilari

Column – Havo kemalari bilan bog'liq jinoyatlar

Column – Harbiy nizo taraflari bo'lgan davlatlar tomonidan urush jinoyatini sodir etgan shaxslarni jazolash – Yamashita sudi

Column – Universallik tamoyiliga ko'ra jazolash – Adolf Ayxman ishi

9-1 Xalqaro harbiy sud va Uzoq sharq xalqaro harbiy sudi

9-2 Sobiq Yugoslaviya bo'yicha jinoyat sudidan misol

9-3 Xalqaro jinoyat sudining obyekti bo'lgan jinoyatlar

Column – Aralash sud

9-4 Davlatlar o'rtasidagi ekstraditsiya (extradition) hamda davlatlar va Xalqaro jinoyat sudi o'rtasida jinoyatchilarni topshirish (surrender)

10-1 Ittifoqchilarning pul va moliya konferensiyasi

10-2 JST tashkil etilishi (Jeneva, Shveysariya, 1995-yil)

10-3 JST bitimlarining tizimi

Column – AQSh qisqichbaqalari/Qisqichbaqa mahsulotlariga oid ish (1998-yil)

10-4 Yaponiya bojxona organi qo'lga kiritgan qalbaki mahsulotlar

10-5 JSTning nizolarni hal etish jarayoni

10-6 JSTning nizolarni hal etish tizimidan foydalangan davlatlar xaritasi

10-7 Yaponiyaning EPA va FTAlar bo'yicha holati (2016-yil, iyun holatiga)

10-8 TPPni imzolagan 12 ta davlat vakillari (2016-yil, fevral)

10-9 Suvaysh kanalining Misr prezidenti Nosir tomonidan milliy-lashtirilishi

11-1 Treyl mis quyish fabrikasi nizosi (The Trail Smelter dispute) (1941-yil)

11-2 BMTning Inson va Tabiat Konferensiyasi (1972-yil)

11-3 Dunyo sammiti (1992-yil)

11-4 Xitoydagi havo ifloslanishining bir ko'rinishi (2015-yil)

- 11-5** Tabiatni muhofaza qilishga oid xalqaro shartnomalar ro'yxati
- 11-6** Yaponiyadagi Ramsar bitimi doirasida belgilangan ko'l suvlari xaritasi
- 11-7** Zararli chiqindilarni tartibga solish
- 11-8** Dengiz ifloslanishiga doir misol
- 11-9** Antarktikadagi chiqindilar
- 12-1** Oslo kelishuvi (1993-yil)
- 12-2** Nizolarning turli xil ko'rinishlari
- 12-3** Davlatlar o'rtasidagi muzokara
- 12-4** Hakamlikka misollar
- 12-5** Gran Chako hududi
- 12-6** Eron va Iroq urushidan keyin o'rtadagi aloqalarni yaxshilash bo'yicha ikki davlat Tashqi ishlar vazirlari bilan majlislarni yakunlagan BMT Bosh kotibi De Kuellar (1990)
- 12-7** Yangi Zelandiya, Okland portida portlatib yuborilgan Reynbo Varriyor kemasi (1985-yil)
- 12-8** Bengal qo'ltig'idagi dengiz chegaralari bo'yicha arbitraj ishi (Bangladesh-Hindiston)da arbitraj sudidagi muhokama jarayoni (2013-yil, dekabr)
- 12-9** ICJda nizolarni hal etish protsedurasi (Bir tomonlama da'vo bilan chiqilgan hollarda)
- 12-10** Tanlangan bandni qabul qilish deklaratsiyasini amalga oshirgan davlatlarning mintaqalar bo'yicha taqsimoti
- 12-11** Antarktida okeanida kit ovlash ishi
- 12-12** Avtomatik qo'shimcha shartga misol – Filippinning tanlangan bandni qabul qilish bo'yicha deklaratsiyasi (1971-yil)
- 12-13** ICJ tomonidan qarorning e'lon qilinishi
- 12-14** Falastinda Isroil tomonidan qurilgan devor (2015-yil, mart)
- 12-15** ICJda ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan ishlar va berilgan tavsiyaviy xulosalar soni
- 12-16** Xalqaro dengiz huquqi sudining (ITLOS) yuqoridan ko'rinishi
- 12-17** Tomimaru va Hoshinmaru ishlari (Yaponiya Rossiyaga qarshi)da ITLOSdagi sud muhokamasi jarayoni
- 13-1** Grotiusning «Urush va tinchlik» kitobi (Ilk nashr, 1625-yil)
- 13-2** Urushdan voz kechish to'g'risidagi Parij pakti, 1-modda
- 13-3** BMT Nizomi, 2-modda
- 13-4** BMT Nizomi, 51-modda
- 13-5** «Karolayn» ishi, 1837-yil
- 13-6** Kollektiv o'zini o'zi mudofaa qilish huquqining tabiati haqidagi 3 ta nazariya
- 13-7** Xalqaro xavfsizlikni ta'minlash usullari
- 13-8** BMT Xavfsizlik kengashidagi majlisdan lavha
- 13-9** BMTdagi kollektiv xavfsizlikni ta'minlash tizimi
- 13-10** Kollektiv o'zini o'zi mudofaa qilish tashkilotlari va ikki tomonlama xavfsizlikni ta'minlash shartnomalari
- 13-11** Xavfsizlik Kengashida veto huquqidan foydalanish bo'yicha statistika
- 13-12** Iroq urushining huquqiy asoslari bo'yicha AQShning tushuntirishlari

13-13 UNEF I ning Yugoslaviya qo'shinlari

13-14 PKOning rivojlanish holati

14-1 1864-yil Birinchi Qizil xoch konvensiyasi (Jang maydonidagi qo'shinlarda yaralanganlarning ahvolini yaxshilash to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi) qabul qilingan konferensiya.

14-2 Qurolli mojarolarga nisbatan qo'llaniladigan eng asosiy xalqaro shartnomalar

14-3 BMT Koreya (yarim oroli) qo'shinlari.

Column – Qizil xoch timsolidan foydalanishdagi suiiste'molliklar

Column – Mo'ljalni aniqlashtirib olish majburiyati va bortida inson bo'lmagan texnikalar

14-4 Hiyla

Column – Harbiy maqsad tamoyili, unga aloqador bo'lgan zarar yetkazish va farqlamasdan hujum qilish

14-5 Haddan ziyod zarar yetkazish yoki keraksiz og'riq yetkazuvchi qurollar

14-6 Asirlar

14-7 Asirlarni ushlab turish hisoboti

Column – Urush davri psixologiyasi

Column – Uchinchi taraflar tomonidan majburiyatlar bajarilishining ta'minlanishi

Column – Alabama ishi

14-8 Yadroviy qurollar

14-9 Strategik yadro qurollari

A

- Abadiy betaraf davlat – 35, 281
 Adolatli urush – 29, 32
 Adolatli urush nazariyasi – 245, 246
 Afg'oniston urushi – 245
 Agreman – 73
 Agressiya harakati – 180, 248
 Agressiya jinoyati – 169, 175-181, 285
 Agressiya tushunchasi to'g'risidagi rezolyutsiya – 248
 Aholiga nisbatan yurisdiksiya – 54
 Alabama ishi – 229, 280
 Aleksandr VI farmoni – 24, 25, 28
 Alohida suvli hududlar – 110
 Alohida tayinlanuvchi sudya – 233
 Aloqador davlatning roziligi tamoyili – 181
 Aloqador holatlar – 126
 Amalda egalik qilish – 28
 Amalda egallab boshqarish – 86
 Amaldagi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar – 145
 Anglashuv memorandumini – 59
 Antarktika 96-98, 120, 217, 218
 Antarktika dengiz jonzoqlari zaxiralari-
 ni himoya qilish shartnomasi – 98
 Antarktika okeanida kitlarni ovlash
 ishi – 120, 235
 Antarktika shartnomasining tabiatni
 asrash protokoli – 98
 Antarktika to'g'risidagi shart-
 noma – 284
 AQSh qo'shinlarining maqomi
 to'g'risidagi Yapon-Amerika keli-
 shuvi – 81
 Aralash sud – 182
 Arbitraj – 195, 201, 227-230, 241, 280
 Arbitraj sudi (tizimi) – 23, 127, 222,
 229, 231, 241-243
 Arktika – 96, 98
 Arktikadagi dengiz yo'lagi – 98
 Arxipelag chizig'i – 113, 115, 116
 Arxipelag davlatlar – 105, 115
 Arxipelag qatnov yo'lagi – 108, 116
 Arxipelag suvlari – 83, 107, 113
 Asir – 30, 260-269, 275-277
 Asl holatini tiklash – 46
 Atlantika xartiyasi – 93
 Atmosfera ichida yadro qurollarini
 sinovdan o'tkazish taqiqlash – 283
 Atmosfera, kosmik fazo va suv ostida
 yadroviy qurol sinovlarini taqiqlash
 to'g'risida – 283
 Atom elektrostansiya – 272
 Atom energiyasi bo'yicha xalqaro
 agentlik (IAEA) – 10-11, 283
 Attashe – 73
 Aut dedere aut judicare – topshir yoki
 jazola – 174
 Avena va boshqa Meksika fuqarolari
 ishi – 46, 79
 Avlodlar tengligi tamoyili – 204, 207
 Ayatori ishi – 77
 Ayni matn holida aks ettirish (incorporation) – 44
 Ayxman ishi – 177

B

- Ba'zi bir odatiy qurollardan
 foydalanishni taqiqlash va cheklash
 bitimi – 273, 274
 Bakteriologik (biologik) va zaharli
 qurol-yarog'larni ishlab chiqish,

tayyorlash va to'plashni man etish hamda ularni tugatish to'g'risidagi Konvensiya – 284
 Bakteriologik qurollar – 272, 273, 284
 Baliq ovlash hududlariga oid muvaqqat chora-tadbirlar to'g'risidagi qonun – 104
 Barqaror taraqqiyot prinsipi – 204
 Bayonot – 59
 Bayroq davlat bilan o'rtasidagi aloqasi zaif bo'lgan kemalar – 116, 117
 Bayroq mamlakati – 55, 107, 116, 117
 Bayroq mamlakati tamoyili – 123, 170
 Berlin konferensiyasi – 27
 Bermuda bitimi – 84-85
 Betaraf – 4, 35, 154, 200
 Betaraflik huquqi – 38, 263, 280, 281
 Betaraflik majburiyati – 280
 Betaraflik tizimi – 23
 Bilvosita natsionalizatsiya – 201
 Bilvosita qo'llash – 44
 Binkershoyek – 24
 Bir jinoyat uchun bir marta jazolash tamoyili – 170
 Bir xilda qo'llash – 234
 Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) – 4, 6, 10, 31, 33, 39, 131-135, 227, 247
 BIT – Ikki tomonlama investitsion shartnomalar (bitimlar) – 68, 200
 BMT a'zolik badali – 135
 BMT Bosh Assambleya rezolyusiyasi – 39, 42
 BMT favqulodda qo'shinlari I (UNEF I) – 258
 BMT kotibiyati – 65
 BMT Nizomi – 32, 39, 42, 49, 53, 56, 59, 70, 95, 156, 231, 246, 251
 BMT qo'shinlari – 255, 260, 266
 BMT bosh qarorgohi to'g'risidagi bitim – 58

BMTning davlat immuniteti to'g'risidagi konvensiyasi – 57
 BMTning dengiz huquqi Konferensiyasi – 121, 129
 BMT dengiz huquqi Konvensiyasi – 240
 BMT inson huquqlari komissiyasi – 159
 BMTning inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi – 149, 156, 158
 BMTning Ochiq dengizlardagi baliqchilik to'g'risidagi bitimi – 119, 120
 BMTning Savdo va rivojlanish konferensiyasi (UNCTAD) – 188
 BMTning tabiat muhofazasi muammolariga ixtisoslashgan dastur – 204
 BMTning Tabiat va Taraqqiyot Konferensiyasi – 204, 214
 BMTning tinchlikni saqlashga qaratilgan faoliyati – 153
 Bortida inson bo'lmagan texnikalar – 269
 Bojxona erkinligining cheklanishi – 29
 Bosib olingan hududlardagi tashkiliy tuzilmaga ega qarshi harakat guruhlari – 269, 276
 Bosib olish – 28, 29
 Brahim hisoboti – 261
 Bretton Vuds = GATT tizimi – 187

D

Da'voni taminlash choralari – 237
 Daigo Fukuryumaru ishi – 116
 Damdam o'qlar – 274
 Damdam o'qlarini taqiqlash deklaratsiyasi – 273, 274
 Daryo va dengizlar orasida aylanuvchi baliq zaxiralari – 122
 Dastlabki muhokama – 237
 Davlat chegarasi – 89
 Davlat immuniteti – 56
 Davlatning javobgarligi – 45

- Davlat javobgarligi to'g'risidagi qoidalar – 45
- Davlat suvereniteti – 53, 54
- Davlat tashqarisidagi jinoyatlar – 175
- Davlat yurisdiksiyasi – 33, 55
- Davlatlar yurisdiksiyasidan tashqarida bo'lgan hududlarning dengiz jonzotlarining xilma-xilligi (BBNJ) – 130
- Davlatlarni tan olish – 49
- Davlatlar tomonidan hisobot berish tizimi – 209
- Davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik tamoyili – 32
- Davlatlarning xabar berish tizimi – 164
- Davlatning 3 belgisi – 48
- Davlatning asosiy huquqlari – 54
- Davlatning hududi – 82
- Davlatning javobgarligi – 45
- Davlatning mol-mulki, rasmiy hujjatlari hamda qarzlari yuzasidan davlatlarning huquqiy vorisligi to'g'risidagi Vena konvensiyasi – 52
- Davlatning huquqiy vorisligi – 52
- Davomiy va tinch shaklda suveren boshqaruv – 91
- Dengiz kuchlarini quolsizlantirish to'g'risidagi konvensiya – 285
- Dengiz huquqi – 9
- Dengiz huquqi bo'yicha to'rtta Jeneva konvensiyalari – 106
- Dengiz huquqi to'g'risidagi BMT konvensiyasi – 83, 108
- Dengiz navigatsiyalariga qarshi noqonuniy harakatlarning oldini olish to'g'risidagi konvensiya – 174
- Dengiz tubi – 107, 124, 126
- Dengiz tubi qaynoq minerallari – 129
- Dengiz tubini yadro qurollardan holi etish to'g'risidagi shartnoma – 284
- Dengiz qoidalari – 263
- Dengizlar bo'yicha munozara – 103
- Dengizlarning dual tizimi – 106
- Diniy vazifadagilar – 269
- Diplomatik aloqalar huquqi – 32
- Diplomatik aloqalar to'g'risidagi konvensiya – 72
- Diplomatik aloqalarni uzish – 80
- Diplomatik himoya (huquqi) – 147
- Diplomatik huquq – 54
- Diplomatik korpus – 77, 78
- Diplomatik vakolatxona – 73, 74
- Diplomatik xalta (yuk) – 76
- Diplomatiya qobiliyati – 49
- Do'stlik va savdo aloqalari to'g'risidagi shartnoma – 29
- Do'stona aloqalar bo'yicha tamoyillar deklaratsiyasi – 221
- Doimiy arbitraj sudi – (PCA) 229
- Doimiy chet el harbiy qo'shini – 81
- Doimiy xalqaro adolat sudi (PCIJ) – 220
- Doiraviy shartnoma – 205
- Dron – 269
- Dualizm nazariyasi – 43
- Dushmanga qarshi harakatlar – 267, 268

E

- EEZ (Exclusive Economic Zone – Mutlaq iqtisodiy zonalar) – 105
- EEZdagi baliqchilikka doir suveren huquqlarning qo'llanilishi to'g'risidagi qonun – 104
- Egasiz yer – 86
- Ekstrateritoriallik nazariyasi – 74
- Ekvidistant, neytral chiziq shakli – 124, 125
- Eng qulay rejim tamoyili – 190
- EPA – Iqtisodiy hamkorlik kelishuvi
- Erkin savdo kelishuvi – 198
- EU – Yevropa Ittifoqi – 198

F

- Falastin devoir ishi – 250
- Farqlanmaydgan hujum – 271
- Faxriy konsullik – 73
- Fazo chiqindilari – 101, 102
- Fazo obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi bitim – 99, 100
- Fazo shartnomasi – 99
- Fazoda astronomlarni qutqarish va uchirilgan obyektlarni qaytarish bitimi – 99
- Fazoga oid 4 bitim – 99
- Fazoviy obyektlar – 100
- Fors ko'rfazi urushi – 245
- FTA – Erkin savdo kelishuvi – 197
- Fuqarolar foydalanadigan mulk – 270
- Fuqaroligi yo'q shaxs – 145

G

- Gaaga huquqi – 263
- Gaaga tinchlik konferensiyalari – 263
- Gabchikova-Nagimaros rejalashtirish nizosi – 95
- GATT – 16, 193
- Genotsid – 13
- Genotsid jinoyati – 279
- Genotsid to'g'risidagi konvensiya – 176
- Genotsid to'g'risidagi konvensiyaga qo'shimcha shart kiritish ishi – 66
- Geostatsionar orbitaning – 100
- Girard ishi – 80
- Grotius – 22, 23, 90, 103

H

- Hakamlilik – 224
- Hamkorlikdagi xalqaro huquq – 33
- Haqiqiy bog'liqlik nazariyasi – 148
- Haqiqiy emas deb topish sabablari – 69
- Haqiqiy rozilik – 69
- Harbiy asirlar bilan qilinadigan muo-

- mala to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi – 276
- Harbiy choralar – 255
- Harbiy hujumlar paytidagi holat to'g'risidagi akt – 268
- Harbiy maqsad – 271
- Harbiy sanksiya – 253
- Harbiy to'qnashuv – 258, 260
- Harbiy to'qnashuv qatnashchisi – 269
- Havo hududi – 83, 84
- Havo hududiga nisbatan suverenitet – 83
- Havo kemalarining noqonuniy egallanishini oldini olish to'g'risidagi konvensiya – 174, 183
- Havo kengligi qoidalari – 263
- Havo mudofaasi uchun aniqlashtirish zonasi (Air defense identification zone: ADIZ) – 84
- Hayot vizasi – 72
- Himoya tamoyili – 173, 177
- Himoyalanadigan hudud va himoyalananadigan shaharlar – 271
- Hindular haqida – 26
- Hiyla – 270
- Holatning o'zgarishi tamoyili – 71
- Hudud – 82
- Hududga nisbatan egalik – 85
- Hududiy boshpana berish – 149
- Hududiy da'volarning muzlatib qo'yilishi – 83
- Hududiy dengiz – 82, 83, 103, 105
- Hududiy dengiz chizig'i – 82, 108, 109
- Hududiy dengiz konvensiyasi – 106
- Hududiy dengiz qonuni – 104
- Hududiy dengizga tutash zonalar – 105, 107
- Hududiy dengizlarga oid suverenitet – 65, 111

- Hududiy dengizlarga tutash zonalar to'g'risidagi qonun – 113
- Hududiy dengizning kengligi – 106
- Hududiy yurisdiksiya – 55
- Hududiylik tamoyili – 55
- Hududlarni kengaytirmaslik tamoyili – 94
- Hududlarni qo'lga kiritish vakolati – 28
- Huquq ustuvorligi – 5
- Huquqiy manfaatlar – 169
- Huquqiy nizolar – 203
- Huquqning umumiy tamoyillari – 40, 41
- 
- I'm alone qarori – 118
- IAEA – Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik – 10, 283
- ICC – Xalqaro jinoyat sudi – 33
- Ichki ishlariga aralashmaslik tamoyili – 32
- Ichki qurolli mojarolar – 264
- Ichki suvlar – 105, 108
- Ichki urush – 264
- Ichki urushlarga uchinchi davlatlarning aralashuvi – 248
- ICJ – Xalqaro adolat sudi – 231
- Ijro organlari tuzadigan kelishuvlar – 63
- Ikki tomonlama investitsion shartnomalar (BIT) – 200
- Ikki tomonlama jazolash imkoniyatining mavjudligi – 183
- ILC – Xalqaro huquq komissiyasi – 57
- Imperativ normalar – 42, 64, 70
- Imzolash – 60
- Inson huquqlari – 141
- Inson huquqlari bo'yicha BMT Kengashi – 134
- «Inson huquqlari to'g'risida»gi Xalqaro bill – 159
- Inson va tabiat deklaratsiya – 206
- Insoniy munosabatda bo'lish – 277
- Insoniyatga qarshi jinoyatlar – 169, 175, 279
- Insoniyatning tinchligi va xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar – 179
- Insoniyatning umumiy mulki – 105, 128
- Intellectual mulk huquqi – 193
- Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi doiraviy konvensiyasi – 66
- Iqtisodiy sanksiyalar – 253
- Iroq urushi – 257, 258
- Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi xalqaro konvensiya – 160
- IS – Islom davlati – 32
- Ishonch yorlig'i – 62
- Ishonchni suiiste'mol qilish – 270
- IUU baliqchilik sanoati – 120
- 
- Jahon banki guruhi – 187
- Jahon savdo tashkiloti (WTO) – 204
- Janubiy tunets ishi – 120
- Janubiy Xitoy dengizi ishi – 127
- Javobgarlikdan ozod qilish – 45
- Jeneva dengiz huquqi – 124
- Jeneva huquqi – 263
- Jeneva konvensiyalarga qo'shimcha protokollar – 264, 265, 271
- Jeneva konvensiyalari – 176, 179
- Jeneva konvensiyalari umumiy 3-mod-dasi – 265, 275, 172
- Jinoyat sodir etilgan joy – 172
- Jinoyat sudlari bo'yicha xalqaro rezidual mexanizm – 179
- Jismoniy shaxslarning xabar berish tizimi – 164
- JST – Jahon savdo tashkiloti – 189
- Jus ad bellum – 266
- Jus cogens – imperativ normalar – 42, 247
- Jus in bello – 266

K

Kambodja sudining maxsus sud bo'limi – 182
 Kamsitishga yo'l qo'yish nazariyasi – 266
 Karolayn ishi – 249, 250
 Kashf etish – 28
 Kasikili / Sedudu oroli ishi – 90
 Kelishuv – 59
 Kema halokatiga yo'liqqanlar – 275
 Kemaning bayroq mamlakati – 55
 Keng ko'lamda yadro qurollarini sinovdan o'tkazishni taqiqlash to'g'risidagi konvensiya – 283
 Keraksiz og'riq – 272
 Kiber hujum – 247
 Kim Dae-jung ishi – 80
 Ko'ngilli askarlar – 276
 Ko'p fuqarolik – 144
 Ko'z qorachig'ini kuydiruvchi lazer quroli – 274
 Kobaltga boy qobiq – 127
 Kollektiv choralar – 255
 Kollektiv xavfsizlik – 255
 Kompensatsiya – 7
 Kompensatsiya to'lash tamoyili – 31
 Komplayens bitimi – 120
 Kompromis – 233
 Konsensus usuli – 63, 195
 Konstantinopol bitimi – 96
 Konsul – 73
 Konsullik aloqalari – 73
 Konsullik immuniteti va imtiyozlari – 78
 Konsullik sudi – 72
 Kontinental shelf – 98, 106, 107, 122, 123
 Kontinental shelf doirasi bo'yicha kommissiya (CLCS) – 124
 Kontinental shelf to'g'risidagi Konvensiya – 125
 Kontinental shelfdan tashqaridagi taraf doirasi – 122

Koreya havo yo'llari samolyotining urib tushirilishi ishi – 83, 84
 Koreya qo'shinlari – 267
 Koreyani qo'shib olish bitimi – 93
 Kosmos 954 hodisasi – 100
 Kuch bilan tahdid qilib tuzilgan xalqaro shartnomalar – 70
 Kuch bilan tahdid qilish – 248, 249, 253
 Kuch ishlatish – 88, 221
 Kuch ishlatishning taqiqlanishi tamoyili – 247, 252, 262, 266
 Kuch ishlatmaslik majburiyati – 42
 Kuchlar muvozanati – 253
 Kuril orollari – 88, 91
 Kuril orollarini ayirboshlash bitimi – 88
 Kyushu orolining janubi-g'arbiy suvli hududidagi shubhali kema ishi – 115

L

LaGrand ishida – 79
 Ligitan va Sipadan orollari mojarosi – 90
 Livan maxsus sudi – 182
 Liviya-Malta kontinental shelf ishi – 125

M

Majburiy choralar – 261
 Majburiyatlarni bajarmaslik taomili – 209, 212
 Majburiyatlarni ta'minlash vositasi – 278
 Mamlakat ichidagi jinoyatlar – 173
 Maqsadiga ko'ra sharhlash – 67, 68
 Maxsus kelishuv – 255
 Maxsus qonun ustuvorligi tamoyili – 42
 1 mil – 83
 12 mil – 105, 107, 109, 110
 200 mil – 120, 121, 122, 124
 24 mil – 105, 108
 3 mil – 110, 115
 Millatlar Ligasi – 33, 71, 132, 133
 Millatlar Ligasi Nizomi – 65, 95, 132
 Milliy rejim tamoyili – 186, 190

Milliy suvlar – 82
Minamitorishimu oroli – 86, 93
Mintaqaviy baliqchilikni boshqarish tashkiloti (Regional Fisheries Management Organization: RFMO) – 118
Mintaqaviy tashkilotlar – 222
Mintaqaviy xalqaro tashkilotlar – 137
Missiyalar yuborish huquqi – 54
Moddiy xalqaro huquq normalari – 23
Monizm – 43
Mozer – 24
Muddatning o'tishi – 86
Muntazam armiya – 275
Mutlaq immunitet tamoyili – 56
Mutlaq iqtisodiy zonalar (MIZ) – 8, 88, 98, 104, 105-107, 119
Mutlaq iqtisodiy zonalar va Kontinental shelf huquqi – 120
Muvofiqlik mezoni – 65
Muzokara – 223
Myunxen bitimi – 36

N

Namibiya – 71
Nankin shartnomasi – 29
Natsionalizatsiya – 200
NGO – Nohukumat tashkilotlar – 131
Nikaragua ishi – 221, 248, 251
Nishi Amane – 30
Nishinoshima – 87
Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish majburiyati – 221
Nizolarning aralashligi nazariyasi – 222
Nizom – 32
Nizoni hal etish vositasini tanlash erkinligi – 221
Noharbiy choralar – 255, 15
Non-refulman – 151
Norvegiya baliqchilik ishi – 109
Notalar almashinuvi – 59
Notarif to'siqlar – 190-191

Noteng shartnomalarning o'zgartirilishi – 30, 62
No-yadroviy uch tamoyil – 110
Noyob hudud – 94

O

Obyektiv sharhlash – 67
Ochiq dengiz – 103, 115, 116
Ochiq dengiz baliq zahiralarni asrashga oid chora-tadbirlar to'g'risidagi deklaratsiya – 119-120
Ochiq dengiz baliqchilik sanoati – 116, 118
Ochiq dengiz erkinligi tamoyili – 105
Ochiq dengiz kitobi – 103
Ochiq dengiz konvensiyasi – 106
Odatdagi qurollar – 263
Og'ir turdagi huquqqa xilof harakatlari – 13
Okinotorishima – 86-88
Okkupatsiya – 85, 86, 90
Oldindan o'zini o'zi mudofaa qilish – 249
Oldindan xabar berish va o'zaro maslahatlashuv majburiyati – 206
Open sky – 86
Opinio juris – huquqiy qat'iy ishonch
Opinion juris – 41
Havo kengligi qoidalari – 263
Oy to'g'risidagi xalqaro shartnoma – 99, 128

P

Pacta sunt servanda – «shartnomaga rioya qilish lozim» – 40
Panama kanali – 96
Parallel usuli – 187
Pardo taklifi – 128
Parij bitimi – 211, 29
Parlament tomonidan tan olinadigan xalqaro shartnomalar – 39
Partizanlar – 269
Passport – 54, 149

Persona non grata – 79, 80
 Perudagi Yaponiya elchisi reziden-
 siyasining bosib olinish ishi – 75
 Piyodalarga qarshi minalarni taqiqlash
 to'g'risidagi Konvensiya – 273, 285
 PKO - BMT tinchlikni saqlash faoliyati
 – 17, 258
 Plastik o'qlar – 274
 Portsmut Bitimi→Yaponiya-Chor Ros-
 siyasi Tinchlik bitimi – 93, 224
 Potsdam deklaratsiyasi – 92-93
 pozitiv huquq nazariyasi – 23
 Preah Vihear ibodatxonasi ishi – 90
 Prezident Miloshevich – 179
 Protokol – 42, 59, 98
 Pufendorf – 23



Qaroqchilar – 171
 Qarshi choralar – 25, 57, 118, 175, 192,
 195, 249
 Qarshi da'vo – 167, 196
 Qat'iy javobgarlik (absolute liability) – 100
 Qattiq javobgarlik (strict liability) – 203
 Qidiruv (tekshiruv) va foydalanish
 erkinligi – 224
 Qit'alararo ballistik raketalar (ICBM) – 284
 Qizil xoch – 263
 Qizil xoch timsolidan foydalanishni
 cheklash to'g'risidagi qonun – 268
 Qizil yarim oy – 275
 Qo'shimcha protokol – 275, 278
 Qo'shimcha shart – 279
 Qo'shma bayonot – 59
 Qo'shma deklaratsiya – 93
 Qo'shma kommyunike – 59
 Qochib kelgan jinoyatchilarni ekstra-
 ditsiya qilish to'g'risidagi akt – 183
 Qohira deklaratsiyasi – 58, 93
 Qon huquqi tamoyili – 142-143
 Qoniqtirish (satisfaction) – 46

Qonuniy hukumat iltimosi – 248
 Qora dengizdagi dengiz chegarasini
 belgilashga oid ish – 126
 Qora kema – 29
 Quroldan foydalanishning chekla-
 nishi – 272
 Qurolli hujum – 277, 68, 249-250
 Qurolli mojaro – 262, 285
 Qurolsizlanish – 11, 18, 99, 132
 Qurolsizlanish huquqi – 263, 281
 Quruqlikdagi jang qoidalari va
 an'analari to'g'risidagi Gaaga
 konvensiyasiga qo'shimcha qoidalar –
 264-265, 270
 Quruqlikdagi urush qoidalari – 263, 264

R

Ratifikatsiya (yorlig'i) – 63
 Ratifikatsiya yorliqlarini almashish na-
 tijasida kuchga kirgan shartnomalar – 60
 Res judicata tamoyili – 238
 Resurslardan foydalanish imkoniyati
 standardi – 123
 Ri Syong-man chizig'i – 94
 Rim statuti → Xalqaro jinoyat sudi sta-
 tuti – 59
 Ruanda bo'yicha xalqaro jinoyat sudi
 (ICTR) – 179

S

Seyfgard – 192
 Saiga (No.2) ishi – 118
 Salbiy konsensus usuli – 195
 Samaradorlik nazariyasi – 38
 Samoviy jismlar – 99
 Sanitariya-transport vositalari – 275
 Saragosa shartnomasi – 25
 Savdo to'siqlari – 190
 Savdo vilan bog'liq harakatlar – 56
 Sektor nazariyasi – 96, 98
 Selden – 103

Senkaku orollari – 8, 84, 86, 92, 94, 123
Serra Leone bo'yicha maxsus sud – 182
Sessiya – 85, 88
Siyosiy jinoyatlar – 183
Sobiq dushman davlatlarga nisbatan choralari – 249
Sobiq Yugoslaviya bo'yicha jinoyat
Soft Law (Yumshoq huquq) – 42
Somalia dengiz qaroqchilari – 171
Sputnik 1 – 100
Stimson doktrinasi – 50
Suarez – 23
Subyektiv sharhlash – 67
Sud muhokamasi – 196
Sud tizimi – 163, 167
Sud yurisdiksiyasidan immunitet – 74
Sukut saqlash majburiyati – 280
Sun'iy yo'ldosh – 100
Suvaysh kanali – 96, 258
Suveren davlat – 20, 31, 49
Suveren faoliyatning samaradorligi – 90, 91
Suveren huquq – 107, 123
Suveren tenglik tamoyili – 32, 56
Suverenitet – 53, 84
Suvosti bombardimonchilari bilan ta'minlangan raketalar (SLBM) – 284
Suvosti kemalari – 285
So'nggi qonun ustuvorligi tamoyili – 42

T

Tabiatga ehtiyotkorona yondashish majburiyati – 205
Tabiatga ta'sirini baholash – 206
Tabiiy huquq – 21, 22
Tajima ishi – 170
Takeshima oroli muammosi – 94
Talveg tamoyili – 89
Tanlangan bandni qabul qilish to'g'risidagi bayonot – 234, 236
Tavsiyaviy xulosa – 239

Tegishlilik tamoyili – 55, 147
Tehronidagi AQSh elchixonasi xodimlarining garovga olinish ishi – 75, 76
Tekshiruv tizimi – 224
Tenglik tamoyili – 124, 125
Tenglikka asoslangan yechim – 125
Tinch suzib otish huquqi – 105, 108, 111
Tinchlik uchun agenda – 260
Tinchlikni amalga oshirish bo'linmalari – 260
To'sqinlik qilish majburiyati – 280
To'g'on – 272
To'g'ri chiziqni tortish usuli – 110
To'g'ridan to'g'ri ijro etiladigan (self-executing) – 44
To'ldiruvchi tamoyil – 139
Tordesillas bitimi – 25
TPP – Tinch okeani hamkorlik kelishuvi
Transchegaraviy tabiatga zarar keltirishni oldini olish majburiyati – 206
Transmilliy kompaniyalar – 131
Tranzit o'tish huquqi – 114, 116
Treyl mis quyish fabrikasi ishi – 82, 203, 208
Truman deklaratsiyasi – 58, 106
Tuproq huquqi tamoyili – 142

U

Uch bosqichli shakl – 125
Uchinchi mamlakatlarning protsessda ishtirok etishi – 236
Ummonlar siyosatiga doir asosiy qonun – 104
Ummonlar siyosatiga oid asosiy reja – 104
Umumiy biroq differensial (farq qiluvchi) javobgarlik prinsipi – 207
Umumiy istisnolar – 192
Universal davriy hisobot tizimini (UPR) – 157
Universallik tamoyili – 173
Urush davridagi qasos olish – 279

Urush e'lon qilish – 246, 264
 Urush huquqi – 262
 Urush jinoyati – 279
 Urush qilish erkinligi – 245, 252
 Urush qilmaslik to'g'risidagi xalqaro shartnoma – 50, 245
 Urush va tinchlik huquqi – 22
 Urush jabrdidalarini himoya qilish uchun 1949-yilda qabul qilingan Jeneyeva konvensiyasi – 174
 Uti possidetis juris qoidasi – 89
 Uzoq hududlarga suzuvchi baliq turlari – 122
 Uzoq Sharq bo'yicha Xalqaro harbiy tribunal (Tokio tribunali) – 178



Vakolatli shaxs – 60, 61
 Vakolatxona boshlig'i – 74
 Vaqtinchalik choralar – 254-256
 Vasiylik boshqaruv tizimi – 95
 Vattel – 25
 Vena konsullik aloqalari to'g'risidagi konvensiyasi – 72
 Versal shartnomasi – 132, 177, 246
 Veto huquqi – 255
 Vitoria – 23, 26
 Viza – 72, 146
 Volf – 23



Xalqaro adolat sudi (ICJ) – 231
 Xalqaro adolat sudi nizomi – 41, 231
 Xalqaro adolat sudining tavsiyaviy xulosasi – 90
 Xalqaro bo'g'ozlar – 113, 114
 Xalqaro daryolar – 96
 Xalqaro dengiz huquqi sudi (ITLOS) – 231, 241
 Xalqaro dengiz tubi organi (ISA) – 129

Xalqaro Fuqaroviy Parvozlarni agentligi (ICAO) – 83
 Xalqaro gumanitar huquq – 263
 Xalqaro hamjamiyatning birlashuvi – 31
 Xalqaro hamjamiyatning umumiy manfaatlarini – 34, 251
 Xalqaro harbiy sud (Nyurnberg tribunali) – 178
 Xalqaro huquq kodifikatsiyasi bo'yicha Gaaga konferensiyasi – 104
 Xalqaro huquq komissiyasi (ILC) – 45, 62, 179
 Xalqaro jinoyat sudi bilan hamkorlik akti – 182
 Xalqaro jinoyat sudi (ICC) – 13, 33, 176
 Xalqaro jinoyat sudi statuti – 179
 Xalqaro jinoyatlar – 169
 Xalqaro kanallar – 96
 Xalqaro odat huquqi – 40, 44
 Xalqaro qizil xoch qo'mitasi (ICRC) – 263
 Xalqaro qurolli mojarolar – 264, 265
 Xalqaro shartnoma – 40, 58
 Xalqaro shartnomalar huquqi – 58
 Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasi – 67
 Xalqaro shartnomalarni sharhlash – 67
 Xalqaro shartnomalarni tuzish huquqi – 54, 60
 Xalqaro shartnomani haqiqiy emas deb topish – 69
 Xalqaro shartnomani qo'pol ravishda buzish – 71
 Xalqaro shartnomani ro'yxatdan o'tkazish – 65
 Xalqaro jinoyat tribunali (ICTY) – 179
 Xalqaro shartnomani tugatish – 70, 71
 Xalqaro shartnomani tuzish – 60
 Xalqaro shartnomaning nomi – 59, 210
 Xalqaro tashkilotlar – 33
 Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) – 187

Xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi – 31
Xavfsizlik Kengashi – 134, 179, 257
Xavfsizlik Kengashi 1540-son rezolyutsiyasi – 284
Xavfsizlik Kengashi 678-son rezolyutsiyasi – 256
Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolari – 134
Xorijiy kemalarning hududiy dengizlardan suzib o'tishiga oid qonun – 111

Y

Yadroviy qurollar – 283
Yadroviy qurollarning xalqaro huquqqa muvofiqligi masalasi borasidagi tavsiyaviy xulosa – 284
Yalta bitimi – 93
Yamashita sudi – 175
Yangi davr suveren davlatlari – 20
Yangi davr xalqaro hamjamiyati – 20
Yangi davr xalqaro huquqi – 20
Yapon-Amerika xavfsizlikni ta'minlash xalqaro shartnomasi – 81
Yapon-AQSh tinchlik va do'stlik shartnomasi – 29
Yapon-Ingliz savdo va dengiz shartnomasi – 30
Yaponiya – Koreya tinchlik deklaratsiyasi – 58
Yaponiya va Janubiy Koreya o'rtasidagi Kontinental shelf to'g'risidagi kelishuv – 127
Yaponiya va Koreya o'rtasidagi asosiy munosabatlar to'g'risidagi shartnoma – 68
Yaponiya va Tayvan o'rtasida Senkaku orollari atrofidagi suvlarda xususiy subyektlar tomonidan amalga oshiriladigan baliqchilik sanoatini

belgilash bo'yicha kelishuv – 123
Yaponiya-AQSh aviatsiya bitimi – 85
Yaponiya-AQSh-Kanada o'rtasidagi Shimoliy Tinch okeanidagi ochiq dengiz hududida baliq ovlash to'g'risidagi bitim – 119
Yaponiya-Chor Rossiyasi Do'stlik Bitimi – 93
Yaponiya-Chor Rossiyasi Tinchlik bitimi (Portsmuz bitimi) – 88, 93
Yaponiya-Sovet Ittifoqi betaraflik bitimi – 92
Yaponiya-Sovet Ittifoqi qo'shma Deklaratsiyasi – 93
Yaponiya-Xitoy Sin Imperiyasi tinchlik bitimi (Shimoneseiki bitimi) – 88, 93
Yaralangan askarlar – 270
Yer kurrasini aylanuvchi orbita – 101, 102
Yevropa Ittifoqi (EU) – 98, 139
Yevropa oddiy qurolli kuchlar to'g'risidagi konvensiya – 285
Yirtqich yodigorligi – 19
Yo topshir yo jazola (aut dedere aut judicare) – 74
Yopiq dengiz asari – 103
Yoppasiga ta'sir etuvchi natija – 272
Yorliqlar almashinuvi – 60
Yon zarar – 271
Yugoslaviyaga uyushtirilgan havo hujumlari – 245, 252
Yumshoq siyosat – 37
Yuqori lavozimdagi komandirlarning javobgarligi – 175
Yurisdiksiya huquqi – 55, 77, 78, 80, 81, 100, 116

Z

Zaharli gazlar – 285
Zarar miqdorining haddan tashqari katta miqdorni tashkil etishi – 277
Zararni oldini olish tamoyili va zararni

oldini olishga oid yondashuv – 208
Zudlik bilan ozod qilish taomili – 249

O

O'z taqdirini o'zi belgilash huquqini
amalga oshirish guruhlari – 265
O'rnashib qoladigan dengiz jonizotlari
oilasi – 122
O'z hududidan foydalanishni nazorat
qilish bo'yicha javobgarlik – 82, 203
O'zarolik tamoyili – 76, 185
O'zidan oqib chiquvchi daryo
nazariyasi – 122
O'zini o'zi himoya qilish huquqi – 68,
250, 115, 249
O'zini o'zi boshqarmaydigan hududlar – 95
O'rta va qisqa masofaga uchuvchi
raketalarni yo'q qilish to'g'risidagi
shartnoma – 64
O'z aybini rasmiy ravishda tan olish – 46
O'zgartirish (transformatsiya) usuli – 44

Sh

Shartnoma tili – 68
Shaxsiy daxlsizlik – 77, 79
Shenyangdagi Yaponiya Bosh
konsulligiga yurtidan qochgan
kishining kirib olishi va uni olib chiqib
ketish bilan bog'liq ish – 78
Shifokorlar – 269
Shifokorlar havo kemalari – 275
Shifokorlar (sanitarlar) bo'linmasi – 275
Shimoda ishi – 272
Shimoliy dengiz kontinental shelf
ishi – 123, 125
Shimoliy hududlar muammosi – 91

Ch

Cheklangan immunitet tamoyili – 57
Cheklangan tabiiy boylik – 101
Chiune Sugihara – 72

VIZUAL XALQARO HUQUQ

O'zbek tilida

Tarjimonlar jamoasi:

Alisher Umirdinov,

Nagoya Iqtisodiyot Universiteti professori

Axadjon Xakimov,

Toshkent davlat yuridik universiteti
«Xalqaro huquq va inson huquqlari»
kafedrasida katta o'qituvchisi

Husain Radjapov,

Toshkent davlat yuridik universiteti
«Investitsiya va Biznes huquqi»
kafedrasida mudiri.

Muharrirlar:

A. Ahmedov,

H. Babadjanov,

Sh. Beknazarova

Sahifalovchi:

Sh. Rasulov



<https://t.me/yuridikadabiyotlar>



**Yuridik
Adabiyotlar
Publish**

«Yuridik adabiyotlar publish» MCHJ.

Nashr. lits. AA № 0042, 27.01.2020.

Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
Muqimiy ko'chasi, 100/25.

Telefonlar: +99899 554-70-70,
+99893 554-63-70.

Elektron manzil: yuridiknashr@mail.ru

Bosishga ruxsat etildi: 30.11.2021-y.

Qog'oz bichimi 70x100 1/16.

«Segoe UI» garniturasida.

Ofset usulida chop etildi.

Bosma tabog'i 20,5.

Nashriyot hisob tabog'i 18,5.

Adadi 1000 nusxa.

313-buyurtma.



«Print Line Group» XK

bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent sh., Bunyodkor shohko'chasi, 44.



**Yuridik
Adabiyotlar
Publish**